Pedagogika

UDK 372.862

TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF TRAINING AND PROFESSIONAL PEDAGOGY IN TECHNICAL EDUCATION

TEXNIKA TA’LIMIDA O‘QITISH VA KASBIY PEDAGOGIKANING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ПОДГОТОВКИ И ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПЕДАГОГИКИ В ТЕХНИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ

Xodjiyev Muksin Tadjiyevich[1], Muhammad Zia[2], Tuxtamishova Gulnoza Karshibayevna[1], Norimova Guljaxon Abduganiyevna[1]
[1]Guliston davlat universiteti. 120100, Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze
[2]Pokiston Quaid-I-Azam university. 15320, University Rd, Nurpur Shahan, Pakistan.
E-mail: m.xojiyev@titli.uz, **E-mail:** info@qau.edu.pk

Abstract. The article provides a comprehensive analysis of the stages of formation and development of technical education and vocational pedagogy. The study examines the historical roots of technical education and its evolutionary development from the era of craftsmanship to the modern stage of digital education. It also substantiates the close relationship between the system of technical education and the level of socio-economic and technological development of society.The article scientifically highlights the impact of the integration of theory and practice on educational effectiveness, the significance of the dual education system, and the increasing role of interdisciplinary integration. Based on graphical analysis, it demonstrates the improvement of educational effectiveness resulting from the implementation of digital technologies in the learning process, including virtual laboratories, distance learning platforms, and simulation tools.Furthermore, the study reveals the role of modern vocational pedagogy, grounded in innovative approaches, in developing students’ independent thinking, problem-solving abilities, and creative skills. The research findings also address the processes of humanization and globalization in technical education and contribute to identifying its future development directions.

Keywords: technical education, vocational pedagogy, digital technologies, educational effectiveness, dual education, innovative approach, competency-based approach, integrative approach, interdisciplinary integration, engineering education.

Anotatsiya. Maqolada texnika ta’limi va kasbiy pedagogikaning shakllanishi hamda rivojlanish bosqichlari kompleks tarzda tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida texnika ta’limning tarixiy ildizlari, uning hunarmandchilik davridan boshlab zamonaviy raqamli ta’lim bosqichigacha bo‘lgan evolyutsion rivojlanishi o‘rganildi. Shuningdek, texnika ta’lim tizimining jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va texnologik rivojlanish darajasi bilan uzviy bog‘liqligi asoslab berildi.Maqolada nazariya va amaliyot integratsiyasining ta’lim samaradorligiga ta’siri, dual ta’lim tizimining ahamiyati hamda fanlararo integratsiyaning kuchayib borayotganligi ilmiy jihatdan yoritilgan. Raqamli texnologiyalar, jumladan virtual laboratoriyalar, masofaviy ta’lim platformalari va simulyatsiya vositalarining ta’lim jarayoniga joriy etilishi natijasida ta’lim samaradorligi oshishi grafik tahlillar asosida ko‘rsatib berildi.Bundan tashqari, zamonaviy kasbiy pedagogikaning innovatsion yondashuvlarga asoslanishi, talabalarda mustaqil fikrlash, muammolarni hal etish va ijodiy faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirishdagi o‘rni ochib berilgan. Tadqiqot natijalari texnik ta’limning insonparvarlashuvi va globallashuvi jarayonlarini ham yoritib, uning kelgusidagi rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar. Texnik ta’lim, kasbiy pedagogika, raqamli texnologiyalar, ta’lim samaradorligi, dual ta’lim, innovatsion yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv, integrativ yondashuv, fanlararo integratsiya, muhandislik ta’limi.

Аннотация. В статье комплексно проанализированы этапы становления и развития технического образования и профессиональной педагогики. В ходе исследования изучены исторические истоки технического образования, его эволюционное развитие от периода ремесленного производства до современного этапа цифрового обучения. Также обоснована тесная взаимосвязь системы технического образования с уровнем социально-экономического и технологического развития общества.В статье научно освещены влияние интеграции теории и практики на эффективность образования, значение дуальной системы обучения, а также усиление междисциплинарной интеграции. На основе графического анализа показано повышение эффективности обучения в результате внедрения в образовательный процесс цифровых технологий, включая виртуальные лаборатории, платформы дистанционного обучения и средства симуляции.Кроме того, раскрыта роль современной профессиональной педагогики, основанной на инновационных подходах, в формировании у обучающихся навыков самостоятельного мышления, решения проблем и творческой деятельности. Результаты исследования также освещают процессы гуманизации и глобализации технического образования и способствуют определению перспектив его дальнейшего развития.

Ключевые слова: техническое образование, профессиональная педагогика, цифровые технологии, эффективность обучения, дуальное обучение, инновационный подход, компетентностный подход, интегративный подход, междисциплинарная интеграция, инженерное образование.

Kirish. Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti ilm-fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu jarayonda texnika ta’lim tizimi muhim o‘rin egallab, ishlab chiqarish, sanoat va innovatsion iqtisodiyot uchun zarur bo‘lgan malakali kadrlarni tayyorlashning asosiy omillaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Texnika ta’limning rivoji jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlari, texnologik yangilanishlar hamda global raqobat sharoitida yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Texnika ta’limi tarixan insoniyatning mehnat faoliyati va ishlab chiqarish jarayonlari bilan uzviy bog‘liq holda shakllanib kelgan. Dastlab hunarmandchilik va amaliy ko‘nikmalar asosida rivojlangan bo‘lsa, keyinchalik ilmiy-texnik taraqqiyot ta’sirida muhandislik bilimlari va zamonaviy texnologiyalarni o‘z ichiga olgan murakkab tizimga aylandi. Ayniqsa, sanoat inqiloblari davrida texnik ta’limning mazmuni va shakllari tubdan o‘zgarib, uning institutsional rivojlanishiga asos yaratildi. Hozirgi kunda texnik ta’lim nafaqat nazariy bilimlarni berish, balki amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish, muammolarni hal etish, kreativ va innovatsion fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan kompleks tizim sifatida qaralmoqda. Raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, avtomatlashtirish va robototexnika kabi zamonaviy yo‘nalishlarning jadal rivojlanishi texnik ta’lim mazmunini yangilashni talab etmoqda. [1,2,5]

Kuzatishlar va izlanishlar shuni ko‘rsatadiki texnik ta’lim va kasbiy pedagogikaning shakllanishi hamda rivojlanish bosqichlarini ilmiy jihatdan o‘rganish, ularning o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish va zamonaviy ta’lim tizimidagi o‘rnini aniqlash dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot ob’ekti va qo‘llanilgan metodlar

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida texnika ta’limi va kasbiy pedagogika sohasiga oid ilmiy adabiyotlar, monografiyalar, ilmiy maqolalar hamda normativ-huquqiy hujjatlar tizimli va kompleks tarzda tahlil qilindi. O‘rganilgan manbalar shuni ko‘rsatadiki, texnik ta’limning rivojlanish jarayonlari hamda kasbiy pedagogikaning shakllanishi masalalari mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan turli ilmiy yo‘nalishlarda keng tadqiq etilgan. [1,3,8,9]

Ilmiy manbalarda texnika ta’limining tarixiy rivojlanish bosqichlari izchil yoritilib, unda hunarmandchilik asosidagi amaliy ko‘nikmalardan zamonaviy muhandislik bilimlari tizimiga o‘tish jarayoni chuqur tahlil qilingan. Shu bilan birga, kasbiy pedagogikaning nazariy asoslari, uning metodlari va didaktik tamoyillari, ta’lim jarayonini samarali tashkil etish masalalari ham alohida e’tibor markazida bo‘lgan.

So‘nggi yillardagi ilmiy tadqiqotlarda texnika ta’limini modernizatsiya qilish, raqamlashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda kompetensiyaviy yondashuvni keng qo‘llash masalalari ustuvor yo‘nalish sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, sun’iy intellekt, raqamli ta’lim platformalari, virtual laboratoriyalar va masofaviy ta’lim tizimlari bilan bog‘liq izlanishlar zamonaviy ta’lim tizimining rivojlanish tendensiyalarini belgilab bermoqda. [4,8,9]

Adabiyotlar tahlili natijasida texnika ta’limi tizimining rivojida quyidagi asosiy ilmiy yondashuvlar ustuvor ekanligi aniqlandi:


- **tizimli yondashuv** ta’lim jarayonini yaxlit va o‘zaro bog‘liq elementlar majmuasi sifatida ko‘rib chiqish;
- **kompetensiyaviy yondashuv** bo‘lajak mutaxassisning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilganlik;
- **innovatsion yondashuv** zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini ta’lim jarayoniga joriy etish;
- **integrativ yondashuv** fanlararo aloqadorlikni ta’minlash va bilimlarning uyg‘unligini kuchaytirish.

Mazkur metodologik yondashuv texnika ta’limining faqat pedagogik jarayon sifatida emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy va texnologik tizim sifatida kompleks o‘rganishga asoslanadi. Bu esa tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini ta’minlab, texnika ta’limi va kasbiy pedagogikaning rivojlanish istiqbollarini aniqlash imkonini beradi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida texnika ta’limi va kasbiy pedagogikaning shakllanish hamda rivojlanish jarayonlari kompleks tahlil qilinib, ularning asosiy qonuniyatlari va zamonaviy tendensiyalari aniqlandi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, texnik ta’lim tizimi jamiyatning iqtisodiy va texnologik rivojlanish darajasiga bevosita bog‘liq holda evolyutsion tarzda takomillashib borgan. [1,2,5]

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, texnika ta’limi rivojining asosiy bosqichlari hunarmandchilik davri, sanoat inqilobi bosqichi, ilmiy-muhandislik tizimi shakllanishi hamda zamonaviy raqamli ta’lim bosqichi o‘zaro uzviy bog‘liq holda rivojlangan. Har bir bosqichda ta’lim mazmuni, metodlari va tashkil etish shakllari jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda takomillashib borgan.Quyidagi grafikda ushbu bosqichlarning rivojlanish dinamikasi va nisbiy o‘sish ko‘rsatkichlari aks ettirilgan:



1-rasm.Texnika ta’limining tarixiy rivojlanish bosqichlari va ularning nisbiy o‘sish ko‘rsatkichlari.

Grafik tahlili shuni ko‘rsatadiki, texnika ta’limining dastlabki bosqichi hunarmandchilik davrida rivojlanish sur’atlari nisbatan past bo‘lgan bo‘lsa, sanoat inqilobi davridan boshlab keskin o‘sish kuzatiladi. Ilmiy-muhandislik tizimi shakllanish bosqichida esa texnik ta’lim tizimi institutsional jihatdan mustahkamlanib, uning samaradorligi sezilarli darajada oshgan. Eng yuqori o‘sish ko‘rsatkichlari zamonaviy raqamli ta’lim bosqichiga to‘g‘ri kelib, bu davrda texnologik innovatsiyalar ta’lim mazmunini tubdan yangilaganini ko‘rsatadi.


Tadqiqot davomida aniqlangan muhim natijalardan biri texnika ta’limida nazariya va amaliyot integratsiyasining hal qiluvchi ahamiyatga egaligidir. Grafikda kuzatilayotgan o‘sish dinamikasi aynan amaliy komponentlarning kuchayishi bilan bevosita bog‘liq ekanligi ko‘rinadi. Jumladan, zamonaviy bosqichda dual ta’lim, laboratoriya mashg‘ulotlari va ishlab chiqarish amaliyoti keng joriy etilishi natijasida ta’lim samaradorligi yuqori darajaga ko‘tarilgan. [4,8,9,10]

Natijalar texnika ta’limida fanlararo integratsiya jarayonining kuchayib borayotganini ko‘rsatdi. Grafikdagi yuqori o‘sish bosqichi aynan mexatronika, axborot texnologiyalari va biomuhandislik kabi integratsiyalashgan yo‘nalishlarning rivoji bilan

izohlanadi. Bu esa ta’lim jarayonida kompleks yondashuvni qo‘llash zarurligini asoslaydi hamda mutaxassislarning keng qamrovli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishini ta’minlaydi.

Grafik tahlili va ilmiy natijalar texnika ta’limi tizimining dinamik, moslashuvchan va innovatsion rivojlanish xususiyatiga ega ekanligini tasdiqlaydi. [1,3,6,7]

Tadqiqot davomida aniqlangan muhim natijalardan biri texnika ta’limida nazariya va amaliyot integratsiyasining hal qiluvchi ahamiyatga egaligidir. Zamonaviy ta’lim tizimida dual ta’lim, laboratoriya mashg‘ulotlari hamda ishlab chiqarish amaliyotining keng joriy etilishi mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini samarali shakllantirishga xizmat qilmoqda. Bu holat ta’lim sifatini oshirish va bitiruvchilarning mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta’minlashda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.Quyidagi grafikda nazariya va amaliyot integratsiyasining texnika ta’limi samaradorligiga ta’siri aks ettirilgan:




2-rasm. Nazariya va amaliyot integratsiyasining ta’lim samaradorligiga ta’siri

Grafikdan ko‘rinib turibdiki, amaliy mashg‘ulotlar ulushi ortgani sari ta’lim samaradorligi ham izchil ravishda oshib boradi. Ayniqsa, dual ta’lim tizimi joriy etilgan bosqichda eng yuqori natijalarga erishilganligi kuzatiladi.

Shuningdek, natijalar texnika ta’limida fanlararo integratsiya jarayonining kuchayib borayotganini ko‘rsatdi. Mexatronika, axborot texnologiyalari va biomuhandislik kabi yo‘nalishlarning rivojlanishi turli fanlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi asosida yuzaga kelmoqda. Bu esa ta’lim jarayonida kompleks yondashuvni talab qiladi hamda mutaxassislarning keng qamrovli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishini ta’minlaydi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, raqamli texnologiyalar texnik ta’lim samaradorligini oshiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Virtual laboratoriyalar, masofaviy ta’lim platformalari va simulyatsiya texnologiyalarining joriy etilishi o‘quv jarayonini interaktiv va moslashuvchan shaklga olib chiqmoqda. Biroq ushbu jarayon bilan bir qatorda ayrim muammolar ham yuzaga kelmoqda, jumladan, raqamli tafovut, texnika infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini oshirish zarurati.

Quyidagi grafikda raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasi va ta’lim samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlik ifodalangan:



3-rasm. Ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar darajasi va natijadorlik o‘sishi dinamikasi

Grafik tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi oshgani sari ta’lim samaradorligi ham izchil ravishda ortib boradi. Grafikdagi o‘suvchi trend raqamli vositalarning ta’lim jarayoniga integratsiyasi ijobiy natija berishini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, yuqori bosqichga yaqinlashgan sari o‘sish sur’atlarining nisbatan sekinlashuvi kuzatiladi, bu esa infratuzilma va metodik ta’minot omillarining hal qiluvchi rol o‘ynashini anglatadi.

Grafikda aks etgan bog‘liqlik zamonaviy kasbiy pedagogikaning innovatsion yondashuvlarga asoslanishini ham tasdiqlaydi. Raqamli texnologiyalarning keng qo‘llanilishi talabalarni mustaqil fikrlashga, muammolarni hal etishga va ijodiy faoliyatga yo‘naltirish imkonini bermoqda. Xususan, grafikdagi yuqori samaradorlik ko‘rsatkichlari muammoli o‘qitish, loyihaviy metodlar va startap faoliyatining ta’lim jarayonida keng joriy etilishi bilan izohlanadi.

Grafik natijalari texnika ta’limining insonparvarlashuvi jarayonini ham bilvosita aks ettiradi. Raqamli texnologiyalar orqali ta’limning individuallashtirilishi va interaktivligi oshib, talabalarda nafaqat kasbiy, balki ijtimoiy va axloqiy kompetensiyalarni shakllantirish imkoniyati kengaymoqda. Bu esa ta’lim mazmunini kengaytirish va texnik hamda gumanitar fanlar integratsiyasini kuchaytirishni talab qiladi.

Bundan tashqari, grafikda kuzatilayotgan ijobiy o‘sish tendensiyasi texnika ta’limining globallashuvi jarayoni bilan ham bevosita bog‘liqdir. Raqamli platformalar va texnologiyalar yordamida xalqaro ta’lim resurslariga kirish imkoniyati kengayib, akademik mobillik va qo‘shma ta’lim dasturlarining rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, yuqori samaradorlikka erishish jarayonida milliy ta’lim tizimining o‘ziga xos xususiyatlarini saqlab qolish zarurligi ham muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. [1,2,5]

Grafik tahlili texnika ta’limi va kasbiy pedagogika tizimining uzluksiz rivojlanayotganini, raqamli transformatsiya ta’sirida uning samaradorligi ortib borayotganini va kelgusida yanada takomillashtirilishi zarurligini ko‘rsatadi. Ushbu natijalar texnika ta’limi tizimini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish uchun muhim nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa.

Mazkur tadqiqot natijalari texnika ta’limi va kasbiy pedagogikaning shakllanishi hamda rivojlanishi uzluksiz va evolyutsion xarakterga ega ekanligini ko‘rsatdi. Tahlillar shuni tasdiqladiki, texnika ta’limi tizimi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va texnologik rivojlanish darajasiga bevosita bog‘liq holda takomillashib boradi .

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, texnika ta’limi rivojining asosiy bosqichlari o‘zaro uzviy bog‘liq holda shakllangan bo‘lib, har bir bosqichda ta’lim mazmuni va metodlari jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda yangilanib borgan. Grafik tahlillar texnik ta’lim tizimining dinamik va moslashuvchan ekanligini, ayniqsa zamonaviy raqamli bosqichda uning samaradorligi sezilarli darajada oshganini ko‘rsatdi.

Raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish ta’lim samaradorligini oshiruvchi asosiy omillardan biri ekanligi grafiklar asosida isbotlandi. Biroq yuqori darajaga erishishda texnik infratuzilma, metodik ta’minot va pedagoglarning raqamli kompetensiyalari hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari zamonaviy kasbiy pedagogikaning innovatsion yondashuvlarga asoslanishini, talabalarni mustaqil fikrlash, muammolarni hal etish va ijodiy faoliyatga yo‘naltirish ustuvor vazifa ekanligini ko‘rsatdi. Shuningdek, texnikaviy ta’limning insonparvarlashuvi, ya’ni texnikaviy bilimlar bilan bir qatorda ijtimoiy va axloqiy kompetensiyalarni shakllantirish zarurati ham asoslab berildi.

Bundan tashqari, texnikaviy ta’limning globallashuvi jarayoni uning rivojlanishida muhim omil ekanligi aniqlandi. Xalqaro standartlarga moslashuv, akademik mobillik va qo‘shma ta’lim dasturlarining kengayishi ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, milliy ta’lim tizimining o‘ziga xos xususiyatlarini saqlab qolish zarurligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, olingan natijalar texnikviy ta’lim va kasbiy pedagogika tizimini yanada rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi. Kelgusida ushbu tizimni takomillashtirish uchun raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, amaliy ta’lim ulushini oshirish, pedagoglarning malakasini rivojlantirish hamda innovatsion va integrativ yondashuvlarni chuqurlashtirish muhim yo‘nalishlar sifatida belgilandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. Toshkent, 2020.
2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”.
3.Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H. Kasbiy pedagogika asoslari. Toshkent: Fan, 2018.
4.Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M.H. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent, 2017.
5.Ziyamuhamedov B., Abdullayeva Sh. Pedagogika. Toshkent: O‘qituvchi, 2016.
6.Klarin M.V. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. Moskva, 2015.
7.UNESCO. Technical and Vocational Education and Training (TVET) Strategy 2022–2029. Paris, 2022.
8.World Bank. Skills Development for Modern Economy. Washington DC, 2020.
9.European Commission. Digital Education Action Plan (2021–2027). Brussels, 2021.
10.Schwab K. The Fourth Industrial Revolution. Geneva: World Economic Forum, 2016.
11.Salinas J. Innovative Learning Technologies. Springer, 2018.
12.Bonwell C., Eison J. Active Learning: Creating Excitement in the Classroom**.** ASHE-ERIC, 1991.

Mualliflar:

Xodjiyev Muksin Tadjiyevich - Guliston davlat universiteti rektori, t.f.d., professor. E-mail: m.xojiyev@titli.uz.

Muhammad Zia – PhD, Professor at Quaid-i-Azam University.

Tuxtamishova Gulnoza Karshibayevna - Oziq-ovqat texnologiyalari kafedrasi mudiri, PhD, dotsent.

Norimova Guljaxon Abduganiyevna-Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi mudiri, PhD, dotsent. E-mail: norimova_guljaxon@guldu.uz

UDC 372.881.11

USING COMMUNICATIVE APPROACHES IN TRAINING FUTURE FOREIGN LANGUAGE TEACHERS

BO‘LAJAK CHET TILI O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA KOMMUNIKATIV YONDASHUVLARDAN FOYDALANISH

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ КОММУНИКАТИВНЫХ ПОДХОДОВ В ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

Toshtemirov Doniyor Eshbayevich[1], Shakiyeva Aida Maratovna[2], Suyuberdiyeva Aiman Abdrazakovna[2], Usmanova Gulnara Baxadirovna[1]

[1]Gulistan State University, 120100. Sirdarya region, Gulistan city, 4th-microregion.
[2*]South Kazakhstan University named after M.Auezov, 160000. Republic of Kazakhstan, Shymkent
E-mail: doniyor120373@gmail.com, **E-mail:** shakiyeva.aida@mail.ru

Abstract. Communicative Language Teaching (CLT) is one of the most effective and widely used methods of teaching foreign languages. Its main goal is to develop learners' ability to use the language in real-life situations rather than merely knowing grammatical rules. In the training of future foreign language teachers, this approach plays a key role, as modern education is focused on developing communicative competence, which includes not only linguistic knowledge but also the ability to communicate, understand culture, and interact effectively. Moreover, the communicative approach contributes to the development of professionally important skills in future teachers, such as the ability to organize interactive learning, create a supportive language environment, and adapt teaching materials to the real communicative needs of learners. During the learning process, special attention is given to the practical use of language through dialogues, role plays, discussions, and project-based activities. This enables future teachers not only to improve their own language proficiency but also to master modern teaching methodologies. An important aspect is the development of intercultural competence, since language is closely connected with the culture of its speakers. Future teachers learn to take cultural differences into account, foster tolerance, and promote readiness for intercultural interaction, which is especially relevant in the context of globalization. Furthermore, the communicative approach encourages the development of critical thinking, independence, and responsibility for the learning process. Students become active participants in education, while the teacher acts as a facilitator and mentor, guiding and supporting their learning activities. Thus, the use of the communicative approach in training future foreign language teachers ensures the development of not only strong language competencies but also a wide range of pedagogical, social, and cultural skills necessary for successful professional activity in the modern educational environment.

Keywords: communicative approach, teaching methods, knowledge, skills, competence, dialogue, role-playing games, facilitator, mentor, modern teaching methods.

Аннотация. Коммуникативный подход (Communicative Language Teaching – CLT) является одним из наиболее эффективных и широко используемых методов обучения иностранным языкам. Его главная цель — развитие способности учащихся использовать язык в реальных жизненных ситуациях, а не просто знание грамматических правил. В подготовке будущих учителей иностранных языков данный подход играет ключевую роль, поскольку современное образование ориентировано на формирование коммуникативной компетенции, включающей не только языковые знания, но и умение общаться, понимать культуру и эффективно взаимодействовать. Кроме того, коммуникативный подход способствует развитию у будущих учителей профессионально значимых навыков, таких как умение организовывать интерактивное обучение, создавать благоприятную языковую среду и адаптировать учебный материал под реальные коммуникативные потребности учащихся. В процессе обучения особое внимание уделяется практическому использованию языка через диалоги, ролевые игры, дискуссии и проектную деятельность, что позволяет будущим педагогам не только совершенствовать собственные языковые навыки, но и осваивать современные методики преподавания. Важным аспектом является также формирование межкультурной компетенции, поскольку язык неразрывно связан с культурой его носителей. Будущие учителя учатся учитывать культурные различия, развивать толерантность и готовность к межкультурному взаимодействию, что особенно актуально в условиях глобализации. Более того, коммуникативный подход способствует развитию критического мышления, самостоятельности и ответственности за процесс обучения. Студенты становятся активными участниками образовательного процесса, а преподаватель выполняет роль фасилитатора и наставника, направляя и поддерживая их учебную деятельность. Таким образом, использование коммуникативного подхода в подготовке будущих учителей иностранных языков обеспечивает формирование не только высоких языковых компетенций, но и широкого спектра педагогических, социальных и культурных навыков, необходимых для успешной профессиональной деятельности в современном образовательном пространстве.

Ключевые слова: коммуникативный подход, методов обучения, знания, умение, компетенция, диалог, ролевые игры, фасилитатор, наставник, современные методики преподавания.

Introduction. The communicative approach emerged in the 1970s as an alternative to the grammar-translation method, which had long dominated foreign language teaching. Unlike the traditional approach focused on memorizing rules and translating texts, the communicative approach is based on the idea that language is прежде всего a means of communication. Its central principle is that language proficiency is defined not only by knowledge of grammatical structures, but also by the ability to use them effectively in real-life situations.

The main goal of this approach is the development of communicative competence, which includes grammatical, sociolinguistic, discourse, and strategic components. This means that learners should not only be able to form correct sentences, but also adapt their speech depending on the context, understand their interlocutor, and maintain interaction.[1]

The communicative approach emphasizes the development of speaking skills, active student interaction, and the use of language in situations that closely resemble real life. During the learning process, communicative situations are created to stimulate

natural interaction, which helps overcome language barriers and build confidence. Learning becomes student-centered, where students are active participants, and the teacher acts as a facilitator, guide, and organizer of the learning process.

To implement this approach, a variety of methods and activities are used, such as role plays, dialogues, discussions, and problem-solving tasks. These activities simulate real-life situations, promote collaboration and critical thinking, and increase learners' motivation.[2]

In the training of future foreign language teachers, the communicative approach plays a particularly important role. It helps develop pedagogical thinking, as well as the ability to plan and conduct interactive lessons and effectively manage the learning process. Future teachers learn how to create a supportive communicative environment, consider individual learner differences, and apply a variety of teaching methods.

In addition, this approach enhances student motivation by making the learning process more engaging, practical, and meaningful. It also contributes to the development of independence, responsibility, and teamwork skills.

Thus, the communicative approach becomes not only a method of teaching a foreign language, but also a fundamental basis for the professional training of modern teachers who are capable of working effectively in a rapidly changing and globalized world.[3]

Materials and methods

The communicative approach in foreign language teaching is based on the use of a variety of methods aimed at actively engaging learners in the process of communication. The main methods include role-play, which allows students to simulate real-life situations; information gap activities, which involve exchanging missing information between participants; group discussions, which develop argumentation and interaction skills; problem-solving tasks, which stimulate logical thinking; and the use of authentic materials, such as real texts, videos, and audio resources. All these methods are focused not on passive memorization, but on the active use of language in communication, which significantly increases the effectiveness of learning.[4]

The methodological foundation of the communicative approach includes several important principles. First of all, it emphasizes learning through communication, where language is acquired in the process of its use. An important role is played by the integration of all types of language skills — speaking, listening, reading, and writing. The learning process is based on real or realistic situations, which makes it more practice-oriented. At the same time, the focus is placed on meaning rather than solely on form. Another key principle is the development of learner autonomy, including the ability for self-control and self-regulation in the learning process.

The theoretical foundations of the communicative approach were developed by a number of scholars. Sandra Savignon emphasized that "communication is not just a goal, it is the process of learning itself." In turn, Canale and Swain identified the structure of communicative competence, which includes grammatical, sociolinguistic, discourse, and strategic competencies. These components reflect the complex nature of language proficiency and highlight the importance of using language in different contexts.[5]

The practical implementation of the communicative approach can include a wide range of activities and tasks. For example, in a role-play activity, students may act out a situation at an airport, where one plays a passenger and another a staff member, thereby developing real-life communication skills. In an activity such as "Find someone who…", students ask each other questions like "Have you ever traveled abroad?", which helps develop speaking and interaction skills. Project-based work, such as preparing a presentation about the culture of another country, contributes to the development of intercultural competence and research skills.

The communicative approach is especially important in the training of future foreign language teachers. It involves teaching how to plan and conduct communicative-oriented lessons, as well as developing skills in facilitating communication and managing group work. The use of modern educational technologies, including digital resources and online platforms, is also an essential component. In addition, this approach fosters flexible thinking, adaptability to various teaching situations, and the ability to take into account individual learner differences.[6]

Thus, the communicative approach represents a comprehensive methodological system aimed at developing not only linguistic but also cognitive, social, and cultural skills. Its application in teacher training helps to prepare professionals who are capable of effectively organizing the learning process and ensuring high-quality foreign language education in modern conditions.[7]

Results and discussion

The main results of applying Communicative Language Teaching (CLT) in foreign language education confirm its high effectiveness in modern educational contexts. First of all, there is a significant improvement in learners' speaking skills, as the focus is placed on real communication practice. Students begin to express their ideas more freely, respond more quickly in conversations, and become less afraid of making mistakes.[8]

In addition, CLT increases student motivation, since learning becomes more engaging, interactive, and closely connected to real-life situations. Learners see the practical value of the language, which enhances their involvement in the process. Critical thinking is also developed, as students learn to analyze information, express and justify their opinions, and participate in discussions. Another important outcome is the development of confidence in communication, which is especially important when learning a foreign language.

Table: Effectiveness of CLT (in percentages)

Indicator	CLT Approach	Traditional Approach
Improvement in speaking skills	70–85%	40–55%
Student motivation level	75–90%	45–60%
Development of critical thinking	65–80%	40–55%
Confidence in communication	70–85%	35–50%
Increase in fluency	+25–40%	+10–15%
Student engagement	80–90%	50–65%
Reduction of language anxiety	60–75%	30–45%

Research in language teaching methodology shows that with regular use of CLT, the level of fluency can increase by approximately 25–40% compared to traditional teaching methods. Moreover, student engagement rises by about 30–50%, while anxiety related to speaking a foreign language decreases by around 20–35%.[9]

However, despite its many advantages, the communicative approach also has several challenges. One of the main issues is insufficient attention to grammatical accuracy, as the primary focus is on meaning. There are also difficulties in assessing communicative skills, since they require more complex and often subjective criteria. Another challenge is the insufficient preparation of teachers to effectively implement this approach, especially in more traditional educational systems. In addition, CLT can be difficult to apply in large classes, where it is challenging to ensure active participation from all students.

For this reason, modern pedagogy often adopts an eclectic approach, which combines elements of communicative and traditional methods in order to achieve a balance between fluency and accuracy.[10]

Thus, the communicative approach demonstrates high effectiveness, especially in developing practical language skills and increasing student motivation. However, its successful implementation requires careful adaptation, proper teacher training, and a balanced combination with other teaching approaches.

Conclusion

The communicative approach plays a fundamental role in the training of future foreign language teachers, as it meets the requirements of modern education and a globalized world. It helps develop not only language skills but also the ability to interact effectively, understand cultural differences, and use language as a tool for real communication.

A future teacher trained through CLT becomes not just a transmitter of knowledge, but an organizer of a communicative environment, a motivator, and a mentor. Such an educator is able to create conditions in which students actively participate in the learning process and develop independence and critical thinking.

Despite existing challenges, such as the need to balance accuracy and fluency or adapt the method to different educational contexts, the communicative approach remains one of the most promising directions. Its integration with other methods, as well as the use of technology and innovative solutions, makes it even more effective.

In the future, the development of the communicative approach will be closely linked to: digital technologies; artificial intelligence; individualization of learning; intercultural communication.

In addition, an important direction will be the development of digital communicative competence, which includes the ability to effectively use online platforms, educational applications, and virtual environments for communication in a foreign language. Modern teachers must be prepared to work in blended and distance learning formats, where communication takes place not only in the classroom but also in digital spaces.

Another significant aspect is the development of lifelong learning skills, as teaching methods and technologies are constantly evolving. Future teachers must be ready for continuous self-education, critical reflection on their teaching practice, and the integration of innovations into the learning process.

Equally important is the development of emotional intelligence in teachers, which helps build effective relationships with students, maintain a positive psychological classroom environment, and consider individual learner differences. This is especially important in communicative teaching, where collaboration and mutual understanding play a central role.

Thus, the communicative approach not only improves the quality of foreign language education but also shapes a new generation of teachers with a broad range of professional, digital, social, and intercultural competencies. Such professionals are capable of adapting to changes in the educational environment and working effectively in a global educational context.

References:

1. Canale, M. & Swain, M. (1980). *Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing*. Applied Linguistics Journal.
2. Harmer, J. (2015). The Practice of English Language Teaching. Pearson Education.
3. Brown, H.D. (2007). *Principles of Language Learning and Teaching*. Pearson Education.
4. Harmer, J. (2015). The Practice of English Language Teaching. Pearson Education. Richards, J.C. & Rodgers, T.S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press.
5. Savignon, S.J. (2002). *Interpreting Communicative Language Teaching*. Yale University Press. Canale, M. & Swain, M. (1980). *Applied Linguistics Journal*, Vol. 1
6. Richards, J.C. (2015). Key Issues in Language Teaching. Cambridge University Press. Celce-Murcia, M. (2001). Teaching English as a Second or Foreign Language. Heinle & Heinle.
7. Richards, J.C. & Rodgers, T.S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press. Hymes, D. (1972). On Communicative Competence. University of Pennsylvania Press.
8. Savignon, S.J. (2002). *Interpreting Communicative Language Teaching: Contexts and Concerns*. Yale University Press. Lightbown, P. & Spada, N. (2013). *How Languages are Learned*. Oxford University Press.
9. Ellis, R. (2003). Task-based Language Learning and Teaching. Oxford University Press. Journal article: Nunan, D. (2004). Task-Based Language Teaching. ELT Journal, Oxford University Press.
10. Harmer, J. (2015). *The Practice of English Language Teaching*. Pearson Education. Thornbury, S. (2006). *An A-Z of ELT*. Macmillan Education.

Authors:
Toshtemirov Doniyor Eshbayevich - Gulistan State University, Faculty of Psychology and Social Sciences, Head of the Department of Pedagogy and Psychology, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor.
Shakiyeva Aida Maratovna - PhD, a senior lecturer, M.Auezov South Kazakhstan University.
Suyuberdiyeva Aiman Abdrazakovna - PhD, Associate Professor, M.Auezov South Kazakhstan University.
Usmanova Gulnara Baxadirovna - Gulistan State University, Faculty of Psychology and Social Sciences, Teacher of the Department of Pedagogy and Psychology.

**** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ****
**** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2026. № 2 ****

UDK 372.881.11

DEVELOPING AUDITORY COMPREHENSION THROUGH INTEGRATIVE AND INSTRUMENTAL MOTIVATION

INTEGRATIV VA INSTRUMENTAL MOTIVATSIYA ORQALI TINGLAB TUSHUNISHNI RIVOJLANTIRISH

РАЗВИТИЕ ПОНИМАНИЯ НА СЛУХ ПОСРЕДСТВОМ ИНТЕГРАТИВНОЙ И ИНСТРУМЕНТАЛЬНОЙ МОТИВАЦИИ

Alibekova Mahzuna Alisher qizi
Guliston davlat universiteti. 120100, Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze
E-mail: mahzunaalibekova95@gmail.com

Abstract: This article provides a scientific analysis of the role and significance of integrative and instrumental motivation in the development of listening comprehension skills. It examines the types of motivation, their impact on foreign language learners, and effective approaches to organizing learning activities. The study's findings demonstrate that integrative and instrumental motivation complement each other and are important factors in improving listening comprehension skills.

Keywords: integrative motivation, instrumental motivation, listening comprehension, foreign language learning, language competence, communication skills.

Annotatsiya: Ushbu maqolada integrativ va instrumental motivatsiyaning tinglab tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi roli va ahamiyati ilmiy asosda tahlil etilgan. Maqolada motivatsiya turlari, ularning xorijiy til o‘rganuvchilariga ta’siri, shuningdek auditoriya mashg‘ulotlarini tashkil etishda samarali yondashuvlar ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari ko‘rsatadiki, integrativ va instrumental motivatsiya bir-birini to‘ldirib, tinglab tushunish ko‘nikmalarini kuchaytiruvchi muhim omillar hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: integrativ motivatsiya, instrumental motivatsiya, tinglab tushunish, xorijiy til ta’limi, til kompetentsiyasi, kommunikativ ko‘nikmalar.

Аннотация: В данной статье на научной основе анализируется роль и значение интегративной и инструментальной мотивации в развитии навыков понимания на слух. В статье рассматриваются типы мотивации, их влияние на изучающих иностранный язык, а также эффективные подходы к организации учебной деятельности. Результаты исследования показывают, что интегративная и инструментальная мотивация дополняют друг друга и являются важными факторами, улучшающими навыки понимания на слух.

Ключевые слова: интегративная мотивация, инструментальная мотивация, понимание на слух, обучение иностранным языкам, языковая компетенция, коммуникативные навыки.

Kirish. Zamonaviy til ta’limida tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Dunyoning globallashuvi va xalqaro aloqalarning kengayishi sharoitida chet tilini samarali egallash, xususan eshitib tushunish qobiliyatini oshirish – dolzarb vazifaga aylanib bormoqda. O‘rganuvchilarning til o‘zlashtirishga bo‘lgan ichki va tashqi rag‘batlari, ya’ni motivatsiya omili ushbu jarayonda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

R.Gardner va W.Lambert tomonidan ilk bor ilmiy muomalaga kiritilgan integrativ va instrumental motivatsiya tushunchalari hozirga qadar tilshunoslik va psixolingvistika sohasida keng o‘rganib kelinmoqda.[5] Integrativ motivatsiya – o‘rganuvchining maqsad tilida so‘zlashuvchi madaniyatga qo‘shilish, uning a’zosi bo‘lish istagi bilan bog‘liq bo‘lsa, instrumental motivatsiya – til o‘rganishdan amaliy foyda (ish, ta’lim, sayohat va boshqalar) ko‘rish maqsadiga yo‘naltirilgan.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – integrativ va instrumental motivatsiyaning tinglab tushunish jarayoniga ta’sirini nazariy va amaliy jihatdan o‘rganish, ta’lim jarayonida ulardan samarali foydalanish yo‘llari bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot ob’ekti va qo‘llanilgan metodlar

Motivatsiya – til o‘rganish jarayonining psixologik poydevori hisoblanadi. Psixologiya fanida motivatsiya deganda ma’lum bir faoliyatga undovchi, unga kuch va yo‘nalish beruvchi ichki yoki tashqi omillar majmui tushuniladi.[2] Til ta’limi kontekstida esa motivatsiya o‘rganuvchini chet tilini o‘rganishga undovchi sabab va maqsadlarning yig‘indisini anglatadi.

Gardner va Lambert ning sotsio-ta’limiy modeli tilshunoslik sohasida motivatsiyani ikki asosiy turga ajratdi: integrativ va instrumental. Bu klassifikatsiya keyinchalik ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan chuqurroq o‘rganildi va rivojlantirildi.[6] Xususan, Dörnyei o‘zining L2 motivatsion “o‘z” tizimini taklif etdi, unda ideal L2 o‘z obrazi va instrumental maqsadlar birgalikda tahlil qilindi.[3]

Integrativ motivatsiya tushunchasi o‘rganuvchining maqsad madaniyatiga, uning a’zolariga va ularning hayot tarziga ijobiy munosabati asosida shakllanadi. Bunday motivatsiyaga ega o‘rganuvchilar til o‘rganishni faqat vosita sifatida emas, balki yangi dunyoga kirish eshigi sifatida qabul qiladilar. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, integrativ motivatsiya uzoq muddatli til o‘rganish muvaffaqiyati bilan bevosita bog‘liq.[10]

Instrumental motivatsiya esa tilni ma’lum maqsadga erishish uchun asbob-vosita sifatida ko‘rishga asoslanadi. Ish topish, stipendiya olish, imtihon topshirish kabi maqsadlar instrumental motivatsiyaning tipik namunasidir. Ushbu motivatsiya turi, ayniqsa, qisqa muddatli til o‘rganish dasturlarida ko‘proq kuzatiladi. Biroq tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, instrumental motivatsiya ham integrativ motivatsiya bilan birgalikda mavjud bo‘lsa kuchli lingvistik yutuqlarga olib keladi.[11]

Olingan natijalar va ularning tahlili

Tinglab tushunish – nutqni idrok etish va tushunish jarayoni bo‘lib, u faol va murakkab kognitiv faoliyatni o‘z ichiga oladi. Anderson fikricha, tinglab tushunish uch bosqichda amalga oshadi: persepsiya (ovozni qabul qilish), tahlil (grammatik va leksik tuzilmalarni aniqlash) va foydalanish (ma’noni kontekst asosida talqin qilish).[1]

Tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantirish ko‘p jihatdan o‘rganuvchining ichki holatiga bog‘liq. Qayg‘u, stress va past o‘z-o‘zini baholash kabi omillar tinglab tushunishni sezilarli darajada pasaytiradi. Aksincha, ijobiy hissiy holat, qiziqish va motivatsiya eshitib tushunish faoliyatini sezilarli kuchaytiradi.[8] Krashenning ta’sir filtri gipotezasi ko‘rsatishicha, o‘rganuvchining hissiy holati til o‘zlashtirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Zamonaviy tadqiqotlar tinglab tushunishni chuqurlashtirish uchun autentik materiallar (real hayotdagi ovozli xabarlar, podkastlar, videoroliklar) dan foydalanish muhimligini ta'kidlaydi. Autentik materiallar nafaqat lingvistik, balki madaniy kompetentsiyani ham rivojlantiradi va o'rganuvchilarda integrativ motivatsiyani kuchaytiradi.[7]

Integrativ motivatsiya tinglab tushunish ko'nikmasi rivojlanishida ko'plab kanallar orqali ta'sir ko'rsatadi. Birinchidan, madaniyatga qiziqish o'rganuvchini autentik audio va video materiallarni mustaqil ravishda ko'proq tinglashga undaydi. Bunday o'z-o'zini yo'naltirilgan o'rganish tinglab tushunish ko'nikmalarini tizimli ravishda mustahkamlaydi.

Ikkinchidan, integrativ motivatsiyaga ega o'rganuvchilar ona tili egalari bilan muloqot qilishga ko'proq intiladi. Bu esa haqiqiy muloqot sharoitida tinglab tushunish ko'nikmalarini amalda qo'llash imkonini beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ona tili egasi bilan muloqot muddati qanchalik uzun bo'lsa, o'rganuvchining tinglab tushunish darajasi shunchalik yuqori bo'ladi.[9]

Uchinchidan, maqsad madaniyatiga integratsiyalashish istagi o'rganuvchida «eshitish savodxonligi» (listening literacy) ni shakllantirishga yordam beradi. Bunda o'rganuvchi nafaqat so'zlarni eshitib tushunadi, balki nutq uslubi, ohang, pauza va boshqa paralinguistik elementlarni ham to'g'ri talqin qilishni o'rganadi.

Gardner ning tadqiqotlari integrativ motivatsiya va tinglab tushunish o'rtasidagi musbat korrelyatsiyani tasdiqladi. Uning kanadalik frantsuzcha o'rganuvchilar orasida o'tkazgan empirik tadqiqoti ko'rsatdiki, integrativ motivatsiyasi yuqori o'rganuvchilar til ko'nikmalarining barcha sohalarida, shu jumladan tinglab tushunishda ham ancha yuqori natijalar ko'rsatishgan.[4]

Instrumental motivatsiya tinglab tushunishga nisbatan boshqacha, lekin undan kam ahamiyatli bo'lmagan ta'sir mexanizmi orqali ta'sir ko'rsatadi. Aniq maqsad (imtihon topshirish, xorijiy yurtda o'qish, xalqaro konferentsiyada ishtirok etish va boshqalar) o'rganuvchini tizimli va maqsadli mashq qilishga undaydi.

Instrumental maqsadlar ko'pincha muayyan tinglab tushunish turini, ya'ni akademik ma'ruza tinglash, biznes muzokarasini tushunish yoki tibbiy maslahat eshitib idrok etishni talab qiladi. Bu esa maqsadga yo'naltirilgan (task-based) o'qitish metodologiyasini qo'llash uchun keng imkoniyat yaratadi. Skehanning tadqiqotiga ko'ra, aniq vazifa (task) berish tinglab tushunish faoliyatida o'rganuvchining e'tiborini kuchaytiradi va samaradorlikni oshiradi.[12]

Bir qator tadqiqotlar ko'rsatdiki, IELTS, TOEFL, OET kabi xalqaro imtihonlarga tayyorlanayotgan o'rganuvchilar instrumental motivatsiyaning kuchli ta'siri ostida tinglab tushunish ko'nikmalarini jadal rivojlantiradilar. Bu jarayonda ular nafaqat ma'noni emas, balki tezlik, diqqatni jamlash va asosiy ma'lumotni yozib olish (note-taking) kabi strategiyalarni ham egallaydilar.[13]

Shuni ta'kidlash lozimki, instrumental motivatsiya ba'zan o'rganuvchida yuqori stress va kayg'u darajasini keltirib chiqaradi, bu esa tinglab tushunishga salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimol. Shu sababli, pedagoglar instrumental maqsadlarni qulay o'quv muhiti yaratish bilan birgalikda qo'llashlari zarur.

Tadqiqot natijalari asosida o'quv jarayonida integrativ va instrumental motivatsiyani uyg'unlashtirgan holda tinglab tushunishni rivojlantirish uchun quyidagi yondashuvlar tavsiya etiladi:

Birinchi yondashuv – autentik va madaniy jihatdan boy materiallar tanlash. Film parchalar, podkastlar, hujjatli filmlar, ona tili egalari bilan suhbatlar singari autentik materiallar o'rganuvchida madaniyatga qiziqishni uyg'otadi va integrativ motivatsiyani kuchaytiradi. Bir vaqtning o'zida, ushbu materiallar aniq kommunikativ vaziyatlarni taqdim etib, instrumental maqsadlarga xizmat qiladi.

Ikkinchi yondashuv – maqsadga yo'naltirilgan (task-based) topshiriqlar berish. Har bir tinglash mashg'ulotiga aniq, o'rganuvchi uchun mazmunli bo'lgan vazifa (masalan, ma'lumot yig'ish, taqqoslash, tanqidiy tahlil qilish) biriktirish lozim. Bunday yondashuv instrumental motivatsiyani kuchaytiradi va tinglab tushunishni maqsadsiz "eshitish" dan faol kognitiv jarayonga aylantiradi.

Uchinchi yondashuv – o'rganuvchilar o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish. Juftlik va guruh topshiriqlari asosida tinglab tushunish mashqlari o'tkazish, ona tili egalari bilan tandemdagi til almashinuvi kabi usullar integrativ motivatsiyani sezilarli kuchaytiradi. Bunday sharoitda o'rganuvchilar madaniy kontekstda chinakam muloqotga kirishadilar.

To'rtinchi yondashuv – metakognitiv strategiyalarni o'rgatish. Tinglab tushunish davomida oldindan taxmin qilish, asosiy g'oyani ajratish, tushunmagan joylarni aniqlash va tekshirish kabi metakognitiv strategiyalarni o'rgatish o'rganuvchiga ham integrativ, ham instrumental maqsadlariga erishishga yordam beradi.[14]

XULOSA.

Ushbu maqolada integrativ va instrumental motivatsiyaning tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishdagi roli atroflicha tahlil etildi. Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarga kelishga imkon beradi:

Birinchidan, integrativ motivatsiya o'rganuvchida maqsad madaniyatiga chuqur qiziqish uyg'otib, mustaqil va uzoq muddatli tinglab tushunish mashqlarini amalga oshirishga undaydi. Ikkinchidan, instrumental motivatsiya aniq maqsadlar asosida maqsadga yo'naltirilgan, tizimli va strategik tinglab tushunish faoliyatini yuzaga keltiradi. Uchinchidan, ushbu ikki turdagi motivatsiya o'zaro to'ldirib, samarali ta'lim natijalariga erishishda birgalikda kuchli omil vazifasini bajaradi.

O'qituvchilar uchun muhim amaliy xulosa shuki, tinglab tushunish darslarini loyihalashda nafaqat lingvistik, balki o'rganuvchilarning motivatsion holatlari ham hisobga olinishi zarur. Motivatsiyani aniqlab, uni maqsadli ravishda oshirib borish til ta'limini yanada samarali va shaxsiy jihatdan mazmunli qiladi. Kelajakda ushbu sohadagi tadqiqotlar O'zbekiston ta'lim muhitida, xususan ingliz tili darslarida motivatsiya va tinglab tushunish o'rtasidagi bog'liqlikni empirik tarzda o'rganishga yo'naltirilishi maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Anderson, J. R. (1995). Cognitive psychology and its implications (4th ed.). Freeman.
2. Deci, E. L., & Ryan, R. M. (1985). Intrinsic motivation and self-determination in human behavior. Plenum Press.
3. Dörnyei, Z. (2005). The psychology of the language learner: Individual differences in second language acquisition. Lawrence Erlbaum Associates.
4. Gardner, R. C. (1985). Social psychology and second language learning: The role of attitudes and motivation. Edward Arnold.
5. Gardner, R. C., & Lambert, W. E. (1959). Motivational variables in second language acquisition. Canadian Journal of Psychology, 13(4), 266–272.
6. Gardner, R. C., & Lambert, W. E. (1972). Attitudes and motivation in second language learning. Newbury House.
7. Gilmore, A. (2007). Authentic materials and authenticity in foreign language learning. Language Teaching, 40(2), 97–118.
8. Krashen, S. D. (1982). Principles and practice in second language acquisition. Pergamon Press.

9. Long, M. H. (1996). The role of the linguistic environment in second language acquisition. In W. C. Ritchie & T. K. Bhatia (Eds.), Handbook of research on language acquisition (Vol. 2, pp. 413–468). Academic Press.
10. Masgoret, A. M., & Gardner, R. C. (2003). Attitudes, motivation, and second language learning: A meta-analysis of studies conducted by Gardner and associates. Language Learning, 53(1), 123–163.
11. Noels, K. A., Pelletier, L. G., Clément, R., & Vallerand, R. J. (2000). Why are you learning a second language? Motivational orientations and self-determination theory. Language Learning, 50(1), 57–85.
12. Skehan, P. (1998). A cognitive approach to language learning. Oxford University Press.
13. Vandergrift, L. (2007). Recent developments in second and foreign language listening comprehension research. Language Teaching, 40(3), 191–210.
14. Vandergrift, L., & Goh, C. C. M. (2012). Teaching and learning second language listening: Metacognition in action. Routledge.
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "Xorijiy tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" gi PQ-4306-son qarori.

Muallif:
Alibekova Mahzuna Alisher qizi - Guliston davlat universiteti tadqiqotchisi.

UDK: 372.881.11

USE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN TEACHING THE COURSE ON BUSINESS OPERATIONS IN THE STATE LANGUAGE

DAVLAT TILIDA ISH YURITISH KURSINI O‘QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ КУРСА ПО ДЕЛОВЫМ ОПЕРАЦИЯМ НА ГОСУДАРСТВЕННОМ ЯЗЫКЕ

Toshtemirova Nasiba Xasanovna
Guliston davlat pedagogika instituti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, IV-mavze
E-mail: toshtemirova74@gmail.com

Abstract. This article covers the pedagogical and methodological foundations of using digital technologies in teaching the course "Conducting Business in the State Language" in higher educational institutions. The role of introducing modern information and communication technologies into the educational process, using electronic learning platforms, multimedia tools, cloud technologies and artificial intelligence services in developing students' professional competencies is analyzed. The advantages of digital technologies in working with official documents in the state language, electronic document management, interactive teaching methods and organizing independent learning are also revealed. The results of the study show that integrating digital technologies into the educational process increases the effectiveness of the course "Conducting Business in the State Language", develops students' document preparation skills and improves the quality of education.

Keywords. state language, office work, digital technologies, e-learning, multimedia, artificial intelligence, electronic document management, pedagogical technologies, professional competence.

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarida “Davlat tilida ish yuritish” kursini o‘qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning pedagogik va metodik asoslari yoritilgan. Ta’lim jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, elektron ta’lim platformalari, multimedia vositalari, bulutli texnologiyalar hamda sun’iy intellekt xizmatlaridan foydalanishning talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, davlat tilida rasmiy hujjatlar bilan ishlash, elektron hujjat aylanishi, interaktiv o‘qitish usullari va mustaqil ta’limni tashkil etishda raqamli texnologiyalarning afzalliklari ochib berilgan. Tadqiqot natijalari raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiyalash “Davlat tilida ish yuritish” kursining samaradorligini oshirishini, talabalarning hujjat tayyorlash ko‘nikmalarini rivojlantirishini hamda ta’lim sifatini yaxshilashini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: davlat tili, ish yuritish, raqamli texnologiyalar, elektron ta’lim, multimedia, sun’iy intellekt, elektron hujjat aylanishi, pedagogik texnologiyalar, kasbiy kompetensiya.

Аннотация. В данной статье рассматриваются педагогические и методические основы использования цифровых технологий в преподавании курса «Ведение дел на государственном языке» в высших учебных заведениях. Анализируется роль внедрения современных информационно-коммуникационных технологий в образовательный процесс, использования электронных учебных платформ, мультимедийных инструментов, облачных технологий и сервисов искусственного интеллекта в развитии профессиональных компетенций студентов. Также раскрываются преимущества цифровых технологий в работе с официальными документами на государственном языке, электронном документообороте, интерактивных методах обучения и организации самостоятельного обучения. Результаты исследования показывают, что интеграция цифровых технологий в образовательный процесс повышает эффективность курса «Ведение дел на государственном языке», развивает навыки подготовки документов у студентов и улучшает качество образования.

Ключевые слова: государственный язык, офисная работа, цифровые технологии, электронное обучение, мультимедиа, искусственный интеллект, электронный документооборот, педагогические технологии, профессиональная компетенция.

Kirish. Mamlakatimizda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, raqamli iqtisodiyot talablariga mos malakali kadrlarni tayyorlash va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o‘quv jarayoniga keng joriy etish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Oliy ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan “Davlat tilida ish yuritish” kursi bo‘lajak mutaxassislarni davlat tilida rasmiy hujjatlar tuzish, xizmat yozishmalarini yuritish, huquqiy-me’yoriy hujjatlar bilan ishlash va rasmiy uslub me’yorlariga rioya etishga tayyorlaydi.

An’anaviy o‘qitish usullari nazariy bilimlarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lsa-da, hujjatlar bilan ishlash bo‘yicha amaliy kompetensiyalarni rivojlantirish uchun zamonaviy raqamli vositalardan foydalanish zarur. Bugungi kunda Moodle, Google Classroom, Microsoft Teams, Canva, Quizizz, Kahoot, Google Docs, Microsoft Word Online kabi platformalar hamda sun’iy intellekt asosidagi xizmatlar ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi “Davlat tilida ish yuritish” kursini o‘qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning nazariy va amaliy asoslarini tahlil qilish, ularning didaktik imkoniyatlarini ochib berish hamda o‘qitish samaradorligini oshirishga qaratilgan metodik tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar

Raqamli texnologiyalar ta’lim tizimining ajralmas tarkibiy qismiga aylanib, o‘qitish metodikasi va ta’lim mazmunini yangilashga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, “Davlat tilida ish yuritish” kursini o‘qitishda zamonaviy raqamli vositalardan foydalanish nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar bilan uyg‘unlashtirish imkonini yaratadi. Mazkur fan talabalarni davlat tilida rasmiy hujjatlarni tuzish, tahrirlash, saqlash va almashish jarayonlariga tayyorlaydi. Bugungi kunda ushbu jarayonlarning aksariyati elektron muhitda amalga oshirilayotganligi sababli, ta’lim jarayonida ham raqamli vositalardan foydalanish zarur hisoblanadi [1].

Olingan natijalar va ularning tahlili

Raqamli texnologiyalar o‘quv materiallarini matn, grafika, audio, video va animatsiya ko‘rinishida taqdim etish orqali talabalar tomonidan axborotni idrok etishni yengillashtiradi. Bunday yondashuv darslarning interaktivligini oshiradi, talabalarning o‘quv faoliyatiga qiziqishini kuchaytiradi hamda mustaqil ta’limni qo‘llab-quvvatlaydi. “Davlat tilida ish yuritish” kursini o‘qitishda raqamli texnologiyalar quyidagi pedagogik vazifalarni bajaradi [2]:

- davlat tilida hujjatlar bilan ishlash bo‘yicha amaliy kompetensiyalarni shakllantirish;
- rasmiy uslub me’yorlarini mustahkamlash;
- hujjatlarni elektron shaklda yaratish va tahrirlash ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- talabalarning axborot-kommunikatsiya kompetensiyalarini oshirish;
- mustaqil va masofaviy ta’limni samarali tashkil etish;
- ta’lim jarayonining uzluksizligini ta’minlash.

“Davlat tilida ish yuritish” kursini o‘qitishda elektron ta’lim platformalaridan foydalanish ta’lim jarayonini boshqarish, o‘quv materiallarini joylashtirish, topshiriqlarni qabul qilish va baholash imkonini beradi, ulardan foydalanish o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi hamkorlikni yanada samarali tashkil etadi. Masalan, Moodle platformasida hujjat namunalari, me’yoriy hujjatlar, videodarslar va elektron testlar joylashtiriladi. Talabalar topshiriqlarni belgilangan muddatlarda elektron shaklda topshiradilar hamda o‘qituvchining izoh va tavsiyalarini onlayn tarzda qabul qiladilar. Google Classroom va Microsoft Teams platformalari yordamida masofaviy ma’ruzalar, seminarlar hamda guruhli loyiha ishlari tashkil etilishi mumkin. Ushbu platformalarda xizmat xatlari, buyruqlar, bayonnomalar, dalolatnomalar va boshqa rasmiy hujjatlar ustida jamoaviy ishlash imkoniyati mavjud.

Bulutli texnologiyalar hujjatlarni istalgan joydan yaratish, tahrirlash va ulashish imkonini beradi. Google Docs va Microsoft Word Online kabi xizmatlar orqali talabalar bir vaqtning o‘zida bitta hujjat ustida ishlashlari mumkin. Masalan, guruh topshirig‘i sifatida "Korxona yig‘ilishi bayonnomasi"ni tayyorlash vazifasi berilganda, talabalar hujjatni birgalikda ishlab chiqadilar, o‘qituvchi esa real vaqt rejimida tahrirlar kiritadi va tavsiyalar beradi. Bunday yondashuv hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan birga, hujjatlarni tayyorlash sifatini ham oshiradi.

Multimedia vositalari o‘quv materiallarini ko‘rgazmali tarzda taqdim etish imkonini beradi. Darslarda infografikalar, videoqo‘llanmalar, animatsiyalar va interaktiv taqdimotlardan foydalanish hujjatlarning tuzilishi hamda rasmiy uslub talablarini oson o‘zlashtirishga yordam beradi. Masalan, "Buyruq tuzish tartibi" yoki "Xizmat xatini rasmiylashtirish" mavzulari bo‘yicha qisqa videoroliklar namoyish etilgandan so‘ng talabalar mustaqil ravishda hujjat tayyorlaydilar. Ushbu usul nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘laydi. Shuningdek, Canva kabi platformalarda hujjatlarning rekvizitlari, hujjat aylanish jarayoni yoki ish yuritish bosqichlarini ifodalovchi infografikalar yaratish mumkin. Vizual materiallar murakkab tushunchalarni tezroq anglashga yordam beradi.

So‘nggi yillarda sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim jarayonining muhim elementi sifatida shakllanmoqda. Ular matnlarni tahlil qilish, grammatik va uslubiy xatolarni aniqlash, hujjat loyihalarini ishlab chiqish hamda o‘quv topshiriqlarini tayyorlashda qo‘llanilishi mumkin.

“Davlat tilida ish yuritish” kursida sun’iy intellekt vositalaridan quyidagi maqsadlarda foydalanish tavsiya etiladi [3]:

- hujjatlar matnini uslubiy tahlil qilish;
- imlo va grammatik xatolarni aniqlash;
- rasmiy uslub talablariga moslashtirish;
- namunaviy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish;
- mustaqil topshiriqlar uchun individual tavsiyalar yaratish.

Bunda sun’iy intellekt tayyor matnni o‘rnini bosuvchi vosita emas, balki o‘quvchi va o‘qituvchini qo‘llab-quvvatlovchi yordamchi sifatida qo‘llanishi maqsadga muvofiq.

Raqamli texnologiyalar interaktiv o‘qitish metodlari bilan uyg‘unlashganda yanada yuqori samaradorlikka erishiladi. “Davlat tilida ish yuritish” kursini o‘qitishda “Aqliy hujum”, “Keys-stadi”, “Loyiha metodi”, “Rol o‘ynash”, “Elektron portfolio”, “Onlayn test” va “Virtual seminar” kabi metodlar talabalarni faol ishtirok etishga undaydi. Masalan, talabalarga korxonada yuzaga kelgan muayyan vaziyat bo‘yicha xizmat xatini tayyorlash yoki buyruq loyihasini ishlab chiqish vazifasi beriladi. Ular elektron platformalarda ishlaydi, o‘zaro fikr almashadi va yakuniy hujjatni himoya qiladi. Bu jarayon nafaqat hujjat tuzish ko‘nikmalarini, balki muloqot, tanqidiy fikrlash va jamoada ishlash kompetensiyalarini ham rivojlantiradi [4], [5].

Mazkur tadqiqot davomida “Davlat tilida ish yuritish” kursini o‘qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari nazariy va metodik jihatdan tahlil qilindi. Ilmiy adabiyotlar, zamonaviy pedagogik yondashuvlar hamda amaliy tajribalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tizimli integratsiya qilish o‘quv mashg‘ulotlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tahlillar asosida aniqlanishicha, raqamli texnologiyalarni qo‘llash quyidagi yo‘nalishlarda ijobiy pedagogik imkoniyatlarni yaratadi:

- o‘quv materiallarini vizual, interaktiv va multimedia shaklida taqdim etish orqali murakkab mavzularni o‘zlashtirishni yengillashtiradi;
- talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini tashkil etish va nazorat qilish imkoniyatlarini kengaytiradi;
- elektron hujjatlar bilan ishlash, ularni tahrirlash va rasmiylashtirish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni rivojlantiradi;
- masofaviy va aralash (blended learning) ta’limni samarali tashkil etishga imkon beradi;
- talabalarda raqamli savodxonlik, axborot madaniyati va kasbiy kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishga ko‘maklashadi.

Shuningdek, dars jarayonida elektron platformalar, bulutli texnologiyalar, multimedia vositalari va sun’iy intellekt xizmatlaridan foydalanish talabalarni faol ishtirok etishga undashi, amaliy topshiriqlarni bajarish jarayonini yanada samarali tashkil etishi hamda o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi muntazam muloqotni ta’minlashi kuzatildi. Tahlil natijalari shuni ham ko‘rsatadiki, “Davlat tilida ish yuritish” fanida raqamli texnologiyalarni qo‘llash nafaqat hujjatlarni tayyorlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi, balki rasmiy uslub me’yorlarini chuqurroq o‘zlashtirishga, hujjatlar mazmunini tahlil qilishga va elektron hujjat aylanishi bilan ishlash malakalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Biroq raqamli texnologiyalarni joriy etishda ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, barcha ta’lim muassasalarida texnik infratuzilmaning bir xil darajada emasligi, ayrim pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini yanada rivojlantirish zarurati, internet sifati bilan bog‘liq cheklovlar hamda ayrim talabalar tomonidan raqamli vositalardan foydalanish ko‘nikmalarining yetarli darajada shakllanmaganligi ta’lim samaradorligiga ta’sir qilishi mumkin.

“Davlat tilida ish yuritish” kursini o‘qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ta’lim jarayonini takomillashtirishning muhim omillaridan biri ekanligini ko‘rsatdi. Raqamli vositalardan foydalanish darslarning interaktivligini oshiradi, talabalarning o‘quv motivatsiyasini kuchaytiradi hamda nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lash imkonini yaratadi.

Elektron ta’lim platformalari, multimedia resurslari, bulutli texnologiyalar va sun’iy intellekt vositalarini o‘quv jarayoniga maqsadli integratsiya qilish natijasida talabalarda davlat tilida rasmiy hujjatlar tuzish, tahrirlash va elektron hujjatlar bilan ishlash bo‘yicha zarur kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish uchun qulay pedagogik muhit shakllanadi. Shu bilan birga, bunday yondashuv mustaqil ta’limni tashkil etish, hamkorlikda ishlash, axborotni izlash va tahlil qilish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

Tadqiqot asosida quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

1. “Davlat tilida ish yuritish” kursining o‘quv dasturiga raqamli texnologiyalar bilan ishlashga yo‘naltirilgan amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish.
2. Fan uchun multimedia darsliklari, videodarslar va interaktiv elektron o‘quv resurslarini yaratish.
3. Elektron hujjat aylanishi tizimlari bilan ishlash bo‘yicha amaliy laboratoriya mashg‘ulotlarini joriy etish.
4. O‘qituvchilarning raqamli pedagogik kompetensiyalarini muntazam rivojlantirish.
5. Sun’iy intellekt vositalaridan hujjatlar tahlili, matnni tahrirlash va o‘quv jarayonini individuallashtirishda metodik tavsiyalar asosida foydalanish.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalarni “Davlat tilida ish yuritish” kursini o‘qitishga tizimli ravishda integratsiya qilish ta’lim sifatini oshirish, talabalarni zamonaviy mehnat bozori talablariga mos kasbiy faoliyatga tayyorlash hamda davlat tilida ish yuritish bo‘yicha amaliy kompetensiyalarni rivojlantirishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Kelgusidagi tadqiqotlarda mazkur metodik modelning samaradorligini eksperimental sinovdan o‘tkazish, turli oliy ta’lim muassasalarida qiyosiy tahlillar olib borish hamda sun’iy intellekt asosidagi o‘quv vositalarining davlat tilida ish yuritish fanini o‘qitishdagi ta’sirini empirik ma’lumotlar asosida baholash maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–5850-sonli farmoni, 21.10.2019 y.
2. M.Aminov va boshqalar. Davlat tilida ish yuritish. Amaliy qo‘llanma. T.O‘zbekiston nashriyoti, 2020. – 528 b.
3. Ermatov I. “O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi”, Toshkent, Bookmany print nashriyoti, 2024. – 168 b.
4. Mavlonova R. va boshq. Umumiy pedagogika. - T .: «Fan va texnologiya», 2018, 528 b.
5. D.Ro‘ziyeva, M.Usmonboyeva, Z.Xoliqova. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi. Metodik qo‘llanma. - Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2013. - 108 bet.

Muallif:
Toshtemirova Nasiba Xasanovna - Guliston davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi.

UDK 372.862

USING MODERN INNOVATIVE APPROACHES IN DEVELOPING THE CREATIVE ABILITIES OF FUTURE TEACHERS OF TECHNICAL DISCIPLINES

BO‘LAJAK TEXNIKA O‘QITUVCHILARINING KREATIV QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY INNOVATSION YONDASHUVLARDAN FOYDALANISH

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИННОВАЦИОННЫХ ПОДХОДОВ В РАЗВИТИИ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ТЕХНИЧЕСКИХ ДИСЦИПЛИН

Qurbonov Ahror
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti. 100185, Toshkent sh., Chilonzor tumani, Bunyodkor shoh ko‘chasi, 27.
E-mail: ahror2025ilm@gmail.com

Annotation. This article is devoted to studying modern innovative approaches to developing the creative abilities of future technical teachers. It examines methods of fostering creativity in the educational process, the use of innovative technologies, and the significance of interactive teaching methods. The role of innovative approaches in enhancing teachers’ professional competence is also

analyzed, and practical recommendations are provided. The article is intended to be useful for specialists, teachers, and students engaged in pedagogical and technical research.

Keywords: creative abilities, technical education, innovative approaches, pedagogical methods, teacher competence.

Annotatsiya: Ushbu maqola bo‘lajak texnika yo‘nalishidagi o‘qituvchilarning kreativ qobiliyatini rivojlantirishda zamonaviy innovatsion yondashuvlarni o‘rganishga bag‘ishlangan. Unda pedagogik jarayonda kreativlikni shakllantirish usullari, innovatsion texnologiyalar va o‘quv jarayonida interaktiv metodlarning ahamiyati ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, o‘qituvchilarning kasbiy malakasini oshirishda innovatsion yondashuvlarning roli tahlil qilingan va amaliy tavsiyalar berilgan. Maqola pedagogika va texnologiya sohalarida ilmiy izlanishlar olib borayotgan mutaxassislar, o‘qituvchilar va talabalar uchun foydali bo‘lishi mo‘ljallangan.

Kalit so‘zlar: kreativ qobiliyat, texnika yo‘nalishi, innovatsion yondashuvlar, pedagogik metodlar, o‘qituvchilar malakasi

Аннотация: Статья посвящена изучению современных инновационных подходов к развитию креативных способностей будущих преподавателей технических направлений. В работе рассматриваются методы формирования креативности в педагогическом процессе, использование инновационных технологий и значимость интерактивных методов обучения. Также анализируется роль инновационных подходов в повышении профессиональной компетентности педагогов и даются практические рекомендации. Статья будет полезна специалистам, педагогам и студентам, занимающимся педагогическими и техническими исследованиями.

Ключевые слова: креативные способности, техническое направление, инновационные подходы, педагогические методы, профессиональная компетентность

Kirish. Bugungi kunda texnologik taraqqiyot va ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar ta’lim sohasida yangi talablarga javob beradigan kadrlarni tayyorlashni dolzarb vazifa qilib qo‘ygan. Ayniqsa, texnika yo‘nalishidagi o‘qituvchilar nafaqat o‘z fanlarini mukammal bilishi, balki kreativ fikrlash, innovatsion yondashuvlarni qo‘llay bilish kabi zamonaviy kompetensiyalarga ega bo‘lishi muhimdir. Chunki, har bir yangi texnologiya va o‘quv jarayonidagi o‘zgarishlar, pedagogni ham o‘z metodikasini yangilashga undaydi. Shu bois, bo‘lajak texnika o‘qituvchilarining kreativ qobiliyatini rivojlantirish pedagogik jarayonning ajralmas qismi sifatida qaraladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari ham ta’lim sohasida innovatsion yondashuvlarni keng joriy etishni, raqamli texnologiyalar va kreativ fikrlashni ta’lim jarayoniga integratsiya qilishni qo‘llab-quvvatlaydi. Masalan, 2022-yil 19-apreldagi “Innovatsion va sifatli ta’limni rivojlantirish” bo‘yicha qaror, texnika yo‘nalishidagi o‘qituvchilar va talabalar kreativ qobiliyatini rivojlantirish, innovatsion pedagogik yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etishni davlat darajasida rag‘batlantirishni belgilaydi. Bu esa, mazkur masalaning nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatini yanada oshiradi [1].

Kreativ qobiliyat — bu shaxsning yangi g‘oyalarni ishlab chiqish, mavjud bilim va ko‘nikmalarni ijodiy tarzda qo‘llash, muammolarni innovatsion yo‘l bilan hal qilish qobiliyatidir. Texnika sohasidagi o‘qituvchilar uchun bu qobiliyat, nafaqat o‘quv jarayonini samarali tashkil etishda, balki talabalarni ham kreativ fikrlashga yo‘naltirishda muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, pedagogik innovatsiyalar va zamonaviy interaktiv metodlarni qo‘llash o‘qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish bilan birga ularning kreativ salohiyatini ham rivojlantiradi [2].

Texnika yo‘nalishidagi bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida kreativ qobiliyatni rivojlantirish dolzarb vazifa sifatida qaraladi. Zamonaviy ta’lim sohasida o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga va innovatsion faoliyatga yo‘naltiruvchi yetakchi sifatida faoliyat yuritadi. Shu sababli, pedagogning kreativ salohiyati va zamonaviy innovatsion yondashuvlarni qo‘llash qobiliyati ta’lim jarayonining sifatini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Kreativ qobiliyat shaxsning yangi g‘oya va yechimlarni ishlab chiqish, mavjud bilim va ko‘nikmalarni ijodiy tarzda qo‘llash va murakkab muammolarni innovatsion yo‘l bilan hal etish imkoniyatidir. Texnika yo‘nalishidagi o‘qituvchilar uchun bu qobiliyat o‘quv jarayonini interaktiv, qiziqarli va samarali qilishda, shuningdek o‘quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga yo‘naltirishda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy pedagog innovatsiyalarga tayyor bo‘lishi, yangi texnologiyalarni o‘z darslarida qo‘llashi va talabalarni o‘zlashtirgan bilimlarini amaliy loyihalarda qo‘llashga yo‘naltirishi lozim.

Zamonaviy innovatsion yondashuvlar texnika yo‘nalishidagi o‘qituvchilarning kasbiy va kreativ salohiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Loyiha asosida o‘qitish (Project-based learning) metodida talabalar o‘zlashtirgan bilimlarni amaliy loyihalarda qo‘llash orqali kreativ fikrlash va muammolarni yechish ko‘nikmasini rivojlantiradi, pedagoglar esa yangi dars formatlarini yaratishga rag‘batlantiriladi. Interaktiv metodlar, jumladan brainstorming, case-study, gamifikatsiya, simulatsiya va muammoli o‘qitish pedagogik jarayonni qiziqarli va jonli qiladi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar, virtual laboratoriyalar, 3D modellashtirish va onlayn simulyatsiya vositalari pedagoglarning kreativlik salohiyatini oshiradi va ularni innovatsion pedagogik yondashuvlarni amaliyotga joriy etishga rag‘batlantiradi [3].

Bo‘lajak texnika o‘qituvchilarining kreativ salohiyatini shakllantirish metodikasi bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Diagnostik bosqichda o‘qituvchining hozirgi kreativ salohiyati aniqlanadi va uning qobiliyatlari baholanadi. Keyingi bosqich — ma’lumot va motivatsiya berish, unda innovatsion metodlar bilan tanishtirish va pedagogni kreativ faoliyatga rag‘batlantirish amalga oshiriladi. Amaliy mashg‘ulotlar bosqichida talabalar va o‘qituvchilar loyiha ishlari, interaktiv darslar va innovatsion vazifalarni bajaradi. Yakuniy bosqich — refleksiya va tahlil, bu yerda pedagog o‘z faoliyatini baholaydi, kreativ yondashuvlarni takomillashtiradi va yangi metodlarni sinab ko‘radi.

Zamonaviy innovatsion yondashuvlarning amaliy ahamiyati shundaki, ular pedagogik jarayonni samarali va ijodiy qiladi. Masalan, virtual laboratoriyalar orqali murakkab eksperimentlar real vaqt rejimida bajarilishi mumkin, bu esa pedagoglarni yangi texnologiyalarni qo‘llashga undaydi. Shu bilan birga, o‘quvchilarga mustaqil qarorlar qabul qilish va ijodiy fikrlash ko‘nikmalari beriladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari, xususan “Innovatsion va sifatli ta’limni rivojlantirish” bo‘yicha qaror, pedagogik innovatsiyalarni amaliyotga joriy etishni rag‘batlantiradi va texnika yo‘nalishidagi o‘qituvchilarning kreativ salohiyatini oshirishni davlat darajasida qo‘llab-quvvatlaydi. Bu esa ta’lim sifatini oshirish, raqamli va kreativ kompetensiyalarga ega kadrlarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi [4].

Shu tariqa, bo‘lajak texnika o‘qituvchilarining kreativ qobiliyatini shakllantirishda zamonaviy innovatsion yondashuvlar pedagogik jarayonning samaradorligini oshiradi, o‘qituvchilarning kasbiy malakasini rivojlantiradi va o‘quvchilarda ijodiy fikrlash

ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, davlat qarorlari va strategik yo‘nalishlar pedagogik innovatsiyalarni amaliy jihatdan qo‘llashni ta’minlaydi va texnika sohasida malakali, kreativ fikrlaydigan kadrlarni tayyorlash imkonini beradi.

Bugungi kunda texnika yo‘nalishidagi bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida kreativ qobiliyatni rivojlantirish zamonaviy ta’limning eng dolzarb vazifalaridan biridir. Asosiy qismda ta’kidlanganidek, kreativ qobiliyat pedagogning nafaqat kasbiy malakasini, balki o‘quv jarayonini samarali va interaktiv tashkil etish qobiliyatini belgilaydi. Loyiha asosida o‘qitish, interaktiv metodlar, gamifikatsiya, virtual laboratoriyalar va raqamli texnologiyalar pedagoglarning ijodiy salohiyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega [5].

Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ salohiyatini shakllantirishning metodik bosqichlari — diagnostika, ma’lumot va motivatsiya berish, amaliy mashg‘ulotlar va refleksiya — pedagogik jarayonni tizimli va samarali qilishga xizmat qiladi. Innovatsion yondashuvlarni qo‘llash nafaqat o‘quvchilarning ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi, balki pedagoglarni ham yangi texnologiyalarni amaliyotga joriy etishga rag‘batlantiradi.

Davlat qarorlari, xususan “Innovatsion va sifatli ta’limni rivojlantirish” bo‘yicha strategiyalar, texnika yo‘nalishidagi o‘qituvchilarning kreativ qobiliyatini shakllantirish va pedagogik innovatsiyalarni keng qo‘llashni qo‘llab-quvvatlaydi. Shu tariqa, zamonaviy innovatsion yondashuvlar pedagogik jarayonni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi, o‘qituvchilarning professional kompetensiyasini oshiradi va ta’lim sifatini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak texnika o‘qituvchilarining kreativ qobiliyatini rivojlantirish zamonaviy ta’limning samarali va ijodiy bo‘lishi, o‘quvchilarni innovatsion fikrlashga yo‘naltirish va pedagoglarning kasbiy salohiyatini oshirish uchun zarur bo‘lgan asosiy yo‘nalish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi “2022 — 2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-165-son Farmoni.
2. Torrance E. Creative Thinking in Education and Instruction. — Lexington Books, USA, 2004. — 192 p.
3. Raxmonov A. Pedagogik innovatsiyalar va kreativ ta’lim texnologiyalari. — Toshkent: Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2021. — 248 b.
4. Qodirova N. Kasbiy-ta’lim jarayonida kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasi. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019. — 178 b.
5. Yo‘ldoshev J. Innovatsion pedagogik texnologiyalar va ularning ta’lim jarayonidagi o‘rni. — Toshkent: “O‘qituvchi”, 2015. — 220 b.

Muallif:
Qurbonov Ahror – Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti tadqiqotchisi.

UDC 372.881.11

ESP(ENGLISH FOR SPECIFIC PURPOSES) AND ITS DEVELOPMENTAL STAGES

ESP(ENGLISH FOR SPECIFIC PURPOSES) VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

ESP(ENGLISH FOR SPECIFIC PURPOSES) И ЕГО ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ

Norqulova Jasmina Sherzod qizi
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti. 100138. Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik xalqa yo‘li, 21A – uy.
E-mail: norqulova-jasmina-2026@gmail.com

Abstract: This article examines the nature of English for Specific Purposes (ESP) and its developmental stages. It discusses the differences between ESP and General English, as well as the factors that contributed to the emergence and development of ESP. Based on the classical framework proposed by Hutchinson and Waters (1987), the development of ESP is analyzed through five stages: (1) Register Analysis; (2) Rhetorical and Discourse Analysis; (3) Target Situation Analysis; (4) Skills and Strategies Analysis; and (5) the Learning-Centred Approach. The main characteristics, key representatives, and limitations of each stage are discussed in detail. The article concludes with an overview of the current state of ESP, its development in Uzbekistan, and future directions such as genre analysis, corpus linguistics, and digital technologies. This study is expected to be useful for researchers, teachers, and students interested in ESP.

Keywords:ESP, English for Specific Purposes, ESP developmental stages, register analysis, discourse analysis, needs analysis, learning-centred approach, Hutchinson and Waters, professional English, academic English.

Annotatsiya: Ushbu maqola Maxsus maqsadlar uchun ingliz tili (ESP — English for Specific Purposes) ning mohiyati va uning rivojlanish bosqichlarini yoritadi. Maqolada ESP ning umumiy ingliz tilidan (General English) farqlari, paydo bo‘lishi va rivojlanishiga ta’sir etgan omillar ko‘rib chiqiladi. ESP ning rivojlanish bosqichlari Hutchinson va Waters (1987) ning klassik yondashuviga asoslanib besh bosqichga bo‘linib tahlil qilinadi: 1) registr tahlili (register analysis); 2) retorik va diskurs tahlili; 3) maqsadli vaziyat tahlili (target situation analysis); 4) o‘quv ko‘nikmalari va strategiyalari tahlili; 5) o‘quvchi markazli yondashuv (learning-centred approach). Har bir bosqichning asosiy xususiyatlari, vakillari va kamchiliklari batafsil yoritilgan. Maqola ESP ning bugungi holati, O‘zbekistondagi rivoji hamda kelajakdagi yo‘nalishlari (janr tahlili, korpus lingvistikasi, raqamli texnologiyalar) haqida xulosa bilan yakunlanadi. Ushbu ish ESP bo‘yicha tadqiqotchilar, o‘qituvchilar va talabalar uchun foydali bo‘lishi kutilmoqda.

Kalit so‘zlar:ESP, Maxsus maqsadlar uchun ingliz tili, ESP rivojlanish bosqichlari, registr tahlili, diskurs tahlili, ehtiyoj tahlili (needs analysis), o‘quvchi markazli yondashuv, Hutchinson va Waters, kasbiy ingliz tili, akademik ingliz tili.

Аннотация:В данной статье рассматриваются сущность английского языка для специальных целей (ESP — English for Specific Purposes) и этапы его развития. В статье анализируются различия между ESP и общим английским языком (General English), а также факторы, повлиявшие на возникновение и развитие ESP. Этапы развития ESP рассматриваются на основе классической концепции Хатчинсона и Уотерса (Hutchinson & Waters, 1987) и подразделяются на пять этапов: 1) анализ регистра (Register Analysis); 2) риторический и дискурсивный анализ; 3) анализ целевой ситуации (Target Situation Analysis); 4) анализ навыков и стратегий обучения; 5) личностно-ориентированный подход к обучению (Learning-Centred Approach).

Подробно освещаются основные характеристики, представители и недостатки каждого этапа. В заключении рассматриваются современное состояние ESP, его развитие в Узбекистане, а также перспективные направления, включая жанровый анализ, корпусную лингвистику и цифровые технологии. Ожидается, что данная работа будет полезна исследователям, преподавателям и студентам, занимающимся изучением ESP.

Ключевые слова:ESP, английский язык для специальных целей, этапы развития ESP, анализ регистра, дискурсивный анализ, анализ потребностей (needs analysis), личностно-ориентированный подход к обучению, Хатчинсон и Уотерс, профессиональный английский язык, академический английский язык.

KIRISH. Globallashuv jarayonlari va xalqaro mehnat bozorining shakllanishi ta'lim tizimi oldiga yangi talablarni qo'ydi. Bugungi kunda ingliz tili shunchaki madaniy muloqot vositasi emas, balki professional mahoratning ajralmas qismiga aylandi. ESP (English for Specific Purposes) sohasining rivojlanishi bevosita fan-texnika taraqqiyoti bilan bog'liq.

Muhandislik oliy ta'lim muassasalarida ESP (English for Specific Purposes – Maxsus maqsadlar uchun ingliz tili) kurslarining vazifasi nafaqat talabalarga ingliz tilini o'rgatish, balki ularda turli yumshoq ko'nikmalarni (soft skills) ham shakllantirishdan iboratdir. XXI asrda muhandis va texnologlar uchun ish imkoniyatlari kengayib borayotganligi sababli, talabalarga bir vaqtning o'zida bir nechta kasbiy va shaxsiy ko'nikmalarni rivojlantirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Bugungi kunda muhandislik yo'nalishi talabalari turli vaziyatlarda samarali muloqot qila olishlari, ijodiy va tanqidiy fikrlashlari, jamoada ishlash va shaxslararo munosabatlarni yo'lga qo'yishlari, shuningdek, ish beruvchilar talab qilayotgan yumshoq ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak. Shu sababli, "Muhandislik ingliz tili" kursining mazmuni talabalar ehtiyojlari hamda mehnat bozori talablariga mos ravishda takomillashtirilishi lozim. Bunday o'zgarishlar ESP o'qituvchilarining zimmasiga ham yangi vazifalarni yuklaydi. Endilikda ular faqat texnik ingliz tilini o'rgatuvchi pedagoglar emas, balki kommunikativ kompetensiyalar va yumshoq ko'nikmalar bo'yicha trener hamda maslahatchi sifatida faoliyat yuritishlari talab etiladi.

Muhandislik sohasi mutaxassislari uchun zarur bo'lgan yumshoq ko'nikmalar qatoriga muloqot qilish, muammolarni hal etish, muzokara olib borish, tanqidiy fikrlash, shaxslararo munosabatlarni boshqarish va jamoada ishlash ko'nikmalari kiradi. Ushbu ko'nikmalarni "hayotiy zarur ko'nikmalar" deb ham atash mumkin. "Career Opportunities News" jurnalida (2002-yil, 20-jild, 2-son) ta'kidlanganidek, yumshoq ko'nikmalar insonning shaxsiy fazilatlari, ijtimoiy madaniyati, til bilan ishlash qobiliyati, odatlari, samimiyligi va optimistik qarashlari majmuasini o'z ichiga oladi. Mazkur ko'nikmalar texnik yoki kasbiy ko'nikmalarni (hard skills) to'ldirib, mutaxassisning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshiradi.

Texnik ta'lim, xususan muhandislik yo'nalishida ingliz tili o'qituvchilari sifatida kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ko'plab talabalar o'z mutaxassislik fanlariga oid bilimlarni ingliz tilida qabul qilish va qayta ifodalashda qiyinchiliklarga duch keladilar. Holbuki, ular xuddi shu jarayonni ona tilida ancha muvaffaqiyatli amalga oshira oladilar. Ba'zi hollarda talabalarning ingliz tilini bilish darajasi shunchalik past bo'ladiki, ular hatto oddiy kommunikativ vazifalarni ham bajara olmaydilar. Bu esa kelajakdagi kasbiy faoliyatlarida muvaffaqiyatsizlikka olib kelishi mumkin.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi muhandislik yo'nalishi talabalarining ingliz tilidan foydalanish jarayonida yo'l qo'yayotgan xatolarini aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqishdan iboratdir. Tadqiqotda ayniqsa yozma nutqqa e'tibor qaratilgan. Chunki ingliz tili ikkinchi til hisoblangan talabalarda tilni o'zlashtirishning dastlabki natijalari ko'pincha yozma javoblar shaklida namoyon bo'ladi. Agar yozma nutqdagi xatolar vaqtida tuzatilmasa, ular mustahkamlanib qoladi va keyinchalik og'zaki nutqqa ham ko'chadi.

Shu sababli muammoni ildizidan hal qilish maqsadida talabalar tomonidan yo'l qo'yilayotgan xatolarni aniqlash, tahlil qilish va bartaraf etishga qaratilgan keng qamrovli tuzatish (remedial) dasturi ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilgan[1].

ESP — bu til o'rgatishning shunday yondashuviki, unda barcha metodologiya va mazmun o'rganuvchining professional ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Strevens (1988) bo'yicha ESPning to'rtta mutloq xususiyati mavjud:

1. Maxsus ehtiyojlarni qondirish uchun mo'ljallangan.
2. Mavzu mazmuni bo'yicha muayyan fanlar yoki kasbiy faoliyat bilan bog'liq.
3. Leksika, semantika va sintaksis jihatidan umumiy ingliz tilidan farq qiladigan tilga yo'naltirilgan.
4. "Umumiy ingliz tili" (General English) bilan ziddiyatda bo'lishi mumkin.

METODLAR. ESP (Maxsus maqsadlar uchun ingliz tili) yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar odatda o'z mutaxassislik fanlarining mazmuniga katta qiziqish bildiradilar va e'tiborlarini aynan shu sohaga qaratadilar. ESPning asosiy xususiyati shundaki, ingliz tili talabaning haqiqiy ehtiyojlari va kasbiy faoliyatidan ajratilgan alohida fan sifatida emas, balki uning mutaxassisligi bilan uzviy bog'langan holda o'qitiladi. Ya'ni, ingliz tili o'quvchining kelajakdagi kasbiy faoliyati uchun muhim bo'lgan fanlar bilan integratsiyalashgan holda o'rganiladi.

ESP yondashuvi mutaxassislik mazmuni va ingliz tilini o'qitishni birlashtiradi. Bunday integratsiya talabalarda yuqori motivatsiyani shakllantiradi, chunki ular ingliz tili mashg'ulotlarida o'rgangan bilimlarini o'zlarining asosiy ta'lim yo'nalishlarida, masalan, buxgalteriya hisobi, biznes boshqaruvi, iqtisodiyot, kompyuter fanlari yoki turizm kabi sohalarda amaliy qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

ESP tizimida ingliz tili real hayotdan uzilgan holda o'rganiladigan oddiy fan yoki mexanik tarzda shakllantiriladigan ko'nikma sifatida emas, balki amaliy faoliyat vositasi sifatida talqin qilinadi. Insonlar tilni o'zlari tushunadigan va qiziqadigan muhitda qo'llash imkoniyatiga ega bo'lsalargina uni samarali o'zlashtiradilar. Shu sababli ESP kurslarida til o'rganish jarayoni talabalarning kasbiy qiziqishlari va ehtiyojlari bilan chambarchas bog'lanadi.

Bunday talabalar uchun tilning o'zi maqsad emas, balki kasbiy bilimlarni egallash va ulardan foydalanish vositasi hisoblanadi. Shuning uchun ular tilning asosiy grammatik tuzilmalari va qonuniyatlarini puxta o'zlashtirishlari zarur. Aynan shu tuzilmalar talabalarga o'z mutaxassisliklariga oid bilim va g'oyalarni aniq hamda tushunarli tarzda ifodalash imkonini beradi. Samarali muloqotni ta'minlash uchun soha terminologiyasini bilish qanchalik muhim bo'lsa, grammatik jihatdan to'g'ri va aniq til birliklaridan foydalanish ham shunchalik muhimdir.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, ESP talabalarga tilni real kasbiy kontekstda qo'llash imkoniyatini beradigan, ularning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantiradigan va kelajakdagi professional faoliyatiga tayyorlaydigan samarali pedagogik vosita hisoblanadi[1].

NATIJALAR. Hutchinson va Waters (2010) ta'kidlashicha, ESP (Maxsus maqsadlar uchun ingliz tili) 1960-yillarda shakllangan bo'lib, uning rivojlanishi besh asosiy bosqichni bosib o'tgan.

Birinchi bosqich – registr tahlili (Register Analysis) bo'lib, unda turli fan sohalarida qo'llanadigan maxsus leksik va grammatik birliklar o'rganilgan.

Ikkinchi bosqich – rhetorik va diskurs tahlili (Rhetorical and Discourse Analysis) bo'lib, matn tuzilishi va gaplar o'rtasidagi bog'lanishlar orqali ma'no hosil qilish jarayoniga e'tibor qaratilgan.

Uchinchi bosqich – maqsadli vaziyat tahlili (Target Situation Analysis) bo'lib, talabalar ingliz tilini qaysi maqsadlarda o'rganayotganini aniqlash va kurs mazmunini shu ehtiyojlarga moslashtirishga qaratilgan.

To'rtinchi bosqich – o'quv ko'nikmalari va strategiyalari tahlili (Analysis of Study Skills and Strategies) bo'lib, o'quvchilarning matnni tushunish, ma'no chiqarish va tilni o'zlashtirish strategiyalarini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Beshinchi bosqich – o'rganish ehtiyojlari tahlili (Analysis of Learning Needs) yoki ta'limga yo'naltirilgan yondashuv bo'lib, unda talabalarning motivatsiyasi, individual o'rganish uslublari va ta'lim jarayoni markaziy o'rin egallaydi.

Shunday qilib, ESP dastlab texnik va ilmiy matnlardagi maxsus terminologiyani o'qitishga yo'naltirilgan bo'lsa, keyinchalik talabalarning ehtiyojlari, kommunikativ kompetensiyasi hamda kasbiy faoliyatda zarur bo'ladigan til ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy yondashuv sifatida shakllandi[2]. Bugungi ESP darslarida o'quvchi shunchaki "bilim oluvchi" emas, balki jarayonning faol ishtirokchisi. Motivatsiya, kognitiv jarayonlar va emotsional intellekt inobatga olinadi.

MUHOKAMA. ESP va EGP (General English) farqi. ESPning EGPdan asosiy farqi — uning maqsadli ekanligidadir. Agar umumiy ingliz tilida biz "tilni o'zi uchun" o'rgansak, ESPda biz tilni "biror narsaga erishish vositasi" sifatida o'rganamiz.

O'qituvchining roli va muammolari.ESP o'qituvchisi (ESP Practitioner) uchta asosiy qiyinchilikka duch keladi:

1). Soha bilimining yetishmasligi: Ingliz tili mutaxassisi neft-gaz yoki IT sohasining ichki mexanizmlarini bilmasligi mumkin.

2). Materiallar tanlash: Tayyor darsliklar har doim ham muayyan korxona yoki auditoriya talabiga javob bermaydi.

3). Hamkorlik: Soha mutaxassislari bilan doimiy muloqotda bo'lish zarurati.

Janr tahlili (Genre Analysis). Swales (1990) tomonidan kiritilgan "Janr" tushunchasi ESPda inqilob qildi. Har bir professional muloqot (masalan, biznes xati, ilmiy tezis, sud protokoli) o'zining qat'iy qoidalariga ega. Ushbu qoidalarni o'rgatish ESPning eng yuqori cho'qqisidir.

XULOSA. ESP — bu statik tizim emas, u mehnat bozori bilan birga o'zgarib boradi. Amaliy ahamiyati: ESP dasturlarini to'g'ri shakllantirish mutaxassislarning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini 40-50% ga oshiradi. Takliflar: Oliy ta'lim muassasalarida ESP kurslarini ishlab chiqishda soha mutaxassislari va tilshunoslarning hamkorligini (Team Teaching) yo'lga qo'yish lozim. Kelajakdagi tadqiqotlar sun'iy intellekt (AI) yordamida har bir o'quvchi uchun individual ESP traektoriyasini yaratish masalalariga qaratilishi lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Dr. A.A.Jayashree Prabhakar," English for Specific Purposes" , INTERNATIONAL JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY STUDIES, VOL. 5 ISSUE 4 APRIL 2018
2. Nataliia Antonenko, "ENGLISH FOR SPECIFIC PURPOSES: BRIEF HISTORY", Інноватика у вихованні. Випуск 11. Том 1. 2020.
3. Omnia Ibrahim Mohamed & Nowar Nizar Alani , "English for Specific Purposes: An Overview: Definitions,Characteristics and Development", English Language Teaching; Vol. 15, No. 12; 2022, ISSN 1916-4742 E-ISSN 1916-4750
4. Ni Kadek Ary Susandi, S.S. M.App.Ling , Dr. Charlie Baka, M.Pd ,Loso Judijanto ,Dr. Muh. Yahya. M.Pd., CHE., CTE, Juliana, M.Pd ,Sabaruddin, S.S., M.Si ,Bontisesari, S.Hum., M.Pd ,Budiati, S.Pd., M.Pd ,Dr. Haryani, S.Pd., M.Pd ,Dwi Sulistyorini, M.Pd., M.A.P, ENGLISH FOR SPECIFIC PURPOSES (ESP)
5. Elżbieta Danuta Lesiak-Bielawska, "English for Specific Purposes in Historical Perspective", English for Specific Purposes World, ISSN 1682-3257, www.esp-world.info, Issue 46, 2015
6. Hutchinson, T., & Waters, A. (1987). English for Specific Purposes: A learning-centered approach. Cambridge University Press.
7. Dudley-Evans, T., & St John, M. J. (1998). Developments in English for Specific Purposes. Cambridge University Press.
8. Swales, J. (1990). Genre Analysis: English in academic and research settings. Cambridge University Press.
9. Basturkmen, H. (2010). Developing Courses in English for Specific Purposes. Palgrave Macmillan.

Muallif:
Norqulova Jasmina Sherzod qizi - O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti mustaqil tadqiqotchisi.

UDK 159.922.76-056.34

EFFECTIVENESS OF PSYCHOLOGICAL DIAGNOSIS IN CHILDREN WITH AUTISTIC SPECTRUM DISORDERS IN AN INCLUSIVE EDUCATIONAL ENVIRONMENT (using primary school children as an example)

INKLYUZIV TA'LIM MUHITIDA AUTIZM SPEKTR BUZILISHI BO'LGAN BOLALARDA PSIXOLOGIK DIAGNOSTIKANING SAMARADORLIGI (kichik maktab yoshi misolida)

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ДИАГНОСТИКИ У ДЕТЕЙ С РАССТРОЙСТВАМИ АУТИСТИЧЕСКОГО СПЕКТРА В ИНКЛЮЗИВНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ (на примере детей младшего школьного возраста)

Axmedova Fatima Xurramovna
Jizzax davlat pedagogika universiteti. 130100. Jizzax viloyati, Jizzax shahri Sh.Rashidov shoh ko'chasi, 4-uy.
E-mail: fatimakhmedova84@gmail.com

Abstract. This article examines the effectiveness of psychological diagnostics in children with autism spectrum disorder (ASD) in inclusive education settings, focusing on primary school age. The study emphasizes the important role of early and accurate diagnostic assessment in identifying cognitive, communicative, emotional, and behavioral characteristics of children with ASD. Particular attention is paid to the use of modern psychodiagnostic tools and structured observation methods adapted for inclusive

classrooms. The article analyzes the application of widely used diagnostic approaches in a real educational environment, highlighting their impact on individualized educational planning and psychological support. It is argued that comprehensive diagnostics not only increases the possibility of early identification of developmental needs, but also increases the effectiveness of intervention strategies, promotes social adaptation, and supports academic progress. The results show that integrating multidisciplinary diagnostic methods - combining psychological testing, pedagogical assessment and behavioral analysis - significantly increases the success of inclusive education for children with ASD. The study shows that systematic and continuous psychological diagnostics are a key factor in optimizing inclusive practices and ensuring the holistic development of children at the stage of school education.

Keywords: autism spectrum disorder, psychological diagnostics, inclusive education, primary school students, early diagnosis, psychodiagnostic methods, social adaptation, individual education, behavioral assessment, developmental support.

Annotatsiya. Ushbu maqolada inklyuziv ta'lim sharoitida autizm spektrining buzilishi (ASB) bo'lgan bolalarda psixologik diagnostika samaradorligi, boshlang'ich maktab yoshiga e'tibor qaratilib, o'rganiladi. Tadqiqotda ASB bo'lgan bolalarning kognitiv, kommunikativ, hissiy va xulq-atvor xususiyatlarini aniqlashda erta va aniq diagnostika baholashning muhim roli ta'kidlangan. Inklyuziv sinflar uchun moslashtirilgan zamonaviy psixodiagnostika vositalari va tuzilgan kuzatuv usullaridan foydalanishga alohida e'tibor qaratilgan. Maqolada keng qo'llaniladigan diagnostika yondashuvlarining real ta'lim muhitida qo'llanilishi tahlil qilinadi, ularning individuallashtirilgan ta'limni rejalashtirish va psixologik qo'llab-quvvatlashga ta'siri ta'kidlanadi. Keng qamrovli diagnostika nafaqat rivojlanish ehtiyojlarini erta aniqlash imkonini oshiradi, balki aralashuv strategiyalarining samaradorligini oshiradi, ijtimoiy moslashuvni rag'batlantiradi va akademik taraqqiyotni qo'llab-quvvatlaydi, deb ta'kidlanadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, ko'p tarmoqli diagnostika usullarini - psixologik test, pedagogik baholash va xulq-atvor tahlilini birlashtirishni - integratsiya qilish ASB bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'limning muvaffaqiyatini sezilarli darajada oshiradi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, tizimli va uzluksiz psixologik diagnostika inklyuziv amaliyotlarni optimallashtirish va bolalarning maktab ta'lim bosqichida yaxlit rivojlanishini ta'minlashda asosiy omil hisoblanadi.

Kalit so'zlar: autizm spektrining buzilishi, psixologik diagnostika, inklyuziv ta'lim, boshlang'ich maktab o'quvchilari, erta tashxis qo'yish, psixodiagnostika usullari, ijtimoiy moslashuv, individual ta'lim, xulq-atvorni baholash, rivojlanishni qo'llab-quvvatlash.

Abstract. This article analyzes current issues related to the process of transferring orphans from state institutions to family settings (deinstitutionalization) in Uzbekistan. It examines legal mechanisms for ensuring a child's right to live with a family, changes in the adoption, guardianship, and patronage systems, and the advantages of family-run orphanages. Research proposals on psychological barriers to a child's adaptation to a new environment and ways to overcome them are also presented.

Keywords: deinstitutionalization, patronage, guardianship, family-run orphanages, social adaptation, segregation, Mercy Homes.

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekistonda yetim bolalarni davlat muassasalaridan oila muhitiga o‘tkazish (deinstitutsionalizatsiya) jarayonining dolzarb masalalari tahlil qilinadi. Bolaning oilada yashash huquqini ta’minlashning huquqiy mexanizmlari, farzandlikka olish, vasiylik va patronat tizimidagi o‘zgarishlar hamda oilaviy bolalar uylarining afzalliklari yoritilgan. Shuningdek, bolaning yangi muhitga moslashuvidagi psixologik to‘siqlar va ularni bartaraf etish yo‘llari bo‘yicha ilmiy takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: deinstitutsionalizatsiya, patronat, vasiylik, oilaviy bolalar uylari, ijtimoiy adaptatsiya, segregatsiya, Mehribonlik uylari.

Аннотация. В статье анализируются актуальные вопросы процесса перевода сирот из государственных учреждений в семейную среду (деинституционализация) в Узбекистане. Рассматриваются правовые механизмы обеспечения права ребенка на проживание в семье, изменения в системе усыновления, опеки и патронажа, а также преимущества семейных детских домов. Также представлены научные предложения по психологическим препятствиям адаптации ребенка к новой среде и способам их преодоления.

Ключевые слова: деинституционализация, патронаж, опека, семейные детские дома, социальная адаптация, сегрегация, Дома Милосердия.

Kirish. Insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida bola huquqlari va uning barkamol rivojlanishi jamiyatning asosiy boyligi hisoblangan. Biroq, turli ijtimoiy, iqtisodiy yoki shaxsiy sabablarga ko‘ra bolalarning ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lishi global

muammo bo‘lib qolmoqda. O‘zbekistonda ham bu masala davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanib, so‘nggi yillarda "Yetimlikdan xoli jamiyat" sari dadil qadamlar tashlanmoqda [1].

Maqolaning maqsadi — bolalarni oilaga joylashtirishning mavjud shakllarini ilmiy jihatdan tahlil qilish va ushbu jarayondagi mavjud muammolarga yechim topishdan iborat.

Uzoq yillar davomida yetim bolalarni tarbiyalashning asosiy shakli Mehribonlik uylari bo‘lib keldi. Biroq, xalqaro tajriba (AQSH, Buyuk Britaniya, Polsha kabi davlatlar) shuni ko‘rsatadiki, hatto eng zamonaviy muassasa ham bolaga individual mehr va oilaviy qadriyatlarni bera olmaydi.

Muassasa tarbiyasining salbiy oqibatlari:

-Hissiy yetishmovchilik (Deprivatsiya): Bolada kattalarga nisbatan ishonch va bog‘liqlik hissi shakllanmaydi.

-Ijtimoiy izolatsiya: Bola jamiyatdan uzilgan holda, faqat o‘ziga o‘xshash bolalar davrasida ulg‘ayadi.

-Mustaqil hayotga tayyor emaslik: Maishiy masalalarda (ovqat tayyorlash, budjetni rejalashtirish) ko‘nikmalarning yo‘qligi.

Shu sababli, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagi "Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-5215-sonli qarori ushbu sohada yangi davrni boshlab berdi [2].

Tadqiqot ob’ekti va qo‘llanilgan metodlar

Tadqiqot ob’ekti sifatida psixologik konsultatsiya, xususan mijozlar ishtirokida psixologik maslahatga doir manbalar olindi. Tadqiqot mavzusini yoritishda tavsiflash, qiyosiy, kontekstual, kompleks va funksional tahlil usullaridan foydalanilgan.

Olingan natijalar va ularning tahlili

O‘zbekiston qonunchiligiga ko‘ra, bolalarni oilalarga joylashtirishning bir necha usullari mavjud [1], [3]:

1.Vasiylik va homiylik. Odatda bolaning yaqin qarindoshlari (bobo-buvilar, amaki-tog‘alar) tomonidan amalga oshiriladi. Bu bolaning o‘z ildizlaridan uzilmasligini ta’minlaydi.

2.Patronat (tarbiyaga olish)-bu shaklda davlat va fuqaro o‘rtasida shartnoma tuziladi. Tarbiyalovchi ota-ona xizmati uchun ish haqi oladi va bolaning barcha xarajatlari davlat tomonidan qoplanadi.

3.Oilaviy bolalar uylari-bu tizim. O‘zbekiston tajribasida eng samarali deb topildi. 2021-2023 yillarda o‘nlab Mehribonlik uylari yopilib, ularning o‘rniga yuzlab oilaviy bolalar uylari tashkil etildi. Bu bolalarning jamoat ichida integratsiyalashuvini tezlashtiradi.

Bolaning yangi oilaga kirib borishi — bu ulkan stress. Psixologik nuqtai nazardan, bola quyidagi bosqichlarni bosib o‘tadi:

1.Muzlik davri: Bola o‘zini namunali tutadi, ota-onaga yoqishga harakat qiladi.

2.Inqiroz (Sinov) davri: Bola ota-onaning sabrini sinaydi, tajovuzkorlik ko‘rsatishi mumkin ("Meni baribir qaytarib yuborishadi" degan qo‘rquv tufayli).

3.Moslashuv: O‘zaro ishonch paydo bo‘lishi.

Oila tarbiyasiga olingan bolalarning intellektual salohiyati (IQ) muassasadagi bolalarga qaraganda 20-30% ga tezroq o‘sishi kuzatilgan. Bolani oilaga qabul qilishda uning yoshi adaptatsiya jarayonining muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Har bir yosh davrida bola psixologik travmalarni turlicha qabul qiladi va yangi muhitga turlicha reaksiya bildiradi [4].

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarda adaptatsiya nisbatan tez, ammo chuqur hissiy o‘zgarishlar bilan kechadi. Bu davrda bolaning asosiy ehtiyoji — xavfsizlik va kattalarga bo‘lgan "bog‘liqlik" (attachment) hissidir. Yangi oilaga kelganda, bola "regressiya" holatiga tushishi mumkin (masalan, yoshi katta bo‘lsa-da, o‘zini go‘daklardek tutishi, barmoq so‘rishi). Bu — bolaning ota-onadan ko‘proq e’tibor va himoya talab qilayotganidan dalolat beradi. Kichik yoshdagi bolalar yangi ota-onani "o‘zining haqiqiy ota-onasi" sifatida tezroq qabul qiladi va ularning qadriyatlarini oson o‘zlashtiradi.

Kichik maktab bolalarda "ijtimoiy maqom" tushunchasi shakllangan bo‘ladi. Bola o‘zining "mehribonlik uyi tarbiyalanuvchisi" degan tamg‘asidan qutulishni istaydi. U yangi oilada o‘zini teng huquqli a’zo sifatida ko‘rsatishga intiladi. Bolada o‘tmishdagi xotiralar va biologik ota-onaga bo‘lgan sodiqlik hissi saqlanib qolgan bo‘ladi. Bu yangi ota-ona bilan "ishonch mojarosi"ni keltirib chiqarishi mumkin. Ushbu bosqichda bola bilan doimiy muloqot va uning maktabdagi muvaffaqiyatlarini qo‘llab-quvvatlash adaptatsiyani tezlashtiradi.

O‘smirlik davri eng murakkab va nozik davr hisoblanadi. O‘smirlarni oilaga joylashtirish maxsus psixologik yondashuvni talab etadi. O‘smir uchun oila — faqat nazorat mexanizmi emas, balki uning shaxsiyatini hurmat qiladigan maskan bo‘lishi shart. O‘smirlarda "Siz mening ota-onam emassiz" qabilidagi isyonkorlik kuzatiladi. Ular ko‘pincha ota-onaning talablariga ataylab qarshi chiqish orqali yangi muhitning chidamliligini sinab ko‘radilar. O‘smir o‘zining "kimligini" (biologik ildizlari va yangi oilasi o‘rtasida) izlaydi. O‘smirni oilaga majburlab emas, balki uning roziligi va qiziqishlarini inobatga olgan holda (masalan, unga shaxsiy xona yoki erkin hudud berish orqali) qabul qilish lozim]5], [6].

Yosh davrlari bo‘yicha qiyosiy jadval:

Yosh davri	Adaptatsiya muddati	Asosiy qo‘rquv	Ota-onadan talab etiladigan sifat
Bog‘cha yoshi	3-6 oy	Tashlab ketilish qo‘rquvi	Cheksiz mehr va jismoniy kontakt
Maktab yoshi	6-12 oy	O‘tmishning oshkor bo‘lishi	Sabr va o‘quv jarayonida yordam
O‘smirlik davri	1-2 yil	Erkinlikning cheklanishi	Do‘stona munosabat va shaxsiy chegara

Muammo va takliflar:

Ilmiy tahlillar jarayonida quyidagi kamchiliklar aniqlandi:

1.Psixologik xizmatning sustligi: Ko‘pincha oilalar bola bilan til topisha olmay, uni qaytarib berish holatlari uchraydi.

2.Ijtimoiy xodimlar yetishmasligi: Har bir oilani kuzatib boradigan professional kadrlar kam.

Takliflar:

1.Majburiy treninglar: Farzand asrab olmoqchi bo‘lgan har bir shaxs uchun "Ota-onalar maktabi" kurslarini majburiy qilish.

2.Ijtimoiy pasport: Har bir asrab olingan bola uchun individual rivojlanish xaritasini yuritish.

3.Imtiyozlar tizimi: Bunday oilalar uchun soliq imtiyozlari va uy-joy sotib olishda qo‘shimcha subsidiyalar berish.

XULOSA. Yetim bolalarni oilalarga joylashtirish — shunchaki ijtimoiy himoya emas, balki jamiyatning ma’naviy sog‘lomlashuvidir. Deinstitutsionalizatsiya jarayonini jadallashtirish orqali biz har bir bolaga baxtli bolalik va mustahkam kelajak

poydevorini qurib beramiz. Davlat muassasalarining roli endilikda bolani saqlash emas, balki uni oilaga tayyorlash va oilalarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. – T.: Adolat, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagi “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5215-sonli qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-iyundagi “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni oilaga qabul qilayotgan fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 307-sonli qarori
4. Bowlby J. Attachment and Loss: Vol. 1. Attachment. – Basic Books, 1999.
5. Umarova G. "Yetim bolalarni oilaga joylashtirishning psixologik jihatlari". // "Psixologiya" ilmiy jurnali. – Buxoro, 2021.
6. Toshpo‘latov A. "Vasiylik va homiylik organlari faoliyatini takomillashtirishning huquqiy masalalari". // "Huquq va burch" jurnali. – T., 2023.

Mualliflar:
Shoira Fayziyeva - Guliston davlat universiteti, Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti, PhD.
Mohida Rustamova - Guliston davlat universiteti, Psixologiya yo‘nalishi 3-bosqich talabasi.

UDK 372.850

FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE OF STUDENTS WITH THE HELP OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES

INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA O‘QUVCHILARNING EKOLOGIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

ФОРМИРОВАНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНТОВ С ПОМОЩЬЮ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Samatova Dilrabo Yusupovna, Ummatqulova Adashoy Baxtiyor qizi
Guliston davlat pedagogika instituti. 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze
E-mail: *adasoj386@gmail.com.*

Abstract. This article provides information about the importance of the "Nature and Me" and "Living Nature Corner" technologies in developing primary school students' interest in nature and their ecological culture. It also describes methods and approaches for forming a positive attitude toward nature among students.

Keywords: atmosphere, primary school, ecological culture, environmental education, living nature, method, nature, technology, approach.

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tabiatga bo‘lgan qiziqishlarini, ekologik madaniyatini shakllantirishda “Tabiat va men”, “Jonli tabiat burchagi” texnologiyalarining ahamiyati haqida ma’lumot beriladi. Shuningdek o‘quvchilarning tabiatga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantirish usul hamda metodlari aks ettiriladi.

Kalit so‘zlar: atmosfera, boshlang‘ich sinf, ekologik madaniyat, ekologik tarbiya, jonli tabiat , metod, tabiat, texnologiya, usul,

Аннотация. В данной статье представлена информация о значении технологий «Природа и я» и «Уголок живой природы» в формировании интереса учащихся начальных классов к природе, а также их экологической культуры. Также отражены методы и приёмы формирования у учащихся положительного отношения к природе.

Ключевые слова: атмосфера, начальная школа, экологическая культура, экологическое воспитание, живая природа, метод, природа, технология, способ

KIRISH. Tobora taraqqiy etib borayotgan jahonda inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlar juda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Atrof-muhitning ifloslanishi, tabiiy resurslardan noto‘g‘ri foydalanish, tabiatga nisbatan ehtiyotsiz munosabat, hamda ekologik muammolarning kuchayishi o‘sib kelayotgan yosh avlodda ekologik madaniyat shakllantirishni dolzarb masala sifatida yuzaga keltirmoqda. Bundan kelib chiqib, ta’lim jarayonida o‘quvchilarga tabiatga mehr-muhabbat, uni asrab-avaylash, ongli ravishda ijobiy munosabatda bo‘lish ko‘nikmalarini singdirish zarur vazifalardan biri sanaladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “ Yoshligimizdan bilamizki, ota-onalarimiz hovlini, atrofni pok saqlash kerakligini aytardi. Xalqimiz azaldan tuproqni, suvni, tabiatni muqaddas deb bilgan. “Birni kessang, o‘nni ek” degan dono maqol ham bejiz aytilmagan. Daraxt ekkan odamga uning savobi tegib turadi, deyilgan. Oilada farzand dunyoga kelsa, unga atab nihol ekilgan”[1].

Jahon miqyosida sanoat yuqori darajada rivojlangan XXI asrda ekologiya, atrof-tabiiy muhit bilan bog‘liq muammolar eng birinchi darajali muammo sifatida maydonga chiqmoqda. Kelajak avlod bizdan so‘ng munosib tabiiy muhit, ekologiyada yashashi uchun biz tabiatga ongli ravishda ehtiyotkorona munosabatda bo‘lib uni ko‘z qorachig‘idek asrashimiz lozim. Jamiyat oldida turgan eng muhim masalalardan biri - aholi ekologik madaniyatini oshirish. Bugun ko‘chada yurganimizda tevarak atrofga nazar solsak, ayrim joylarda tashlab ketilgan chiqindilarga ko‘zimiz tushadi. Bu naqadar xunuk holat ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Zero, “Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar”[2]. Yurtimizning har bir qarich yerini ko‘z qorachig‘idek asrash bizning burchimiz sanaladi. Qadimda shu yurt, shu vatanning bir qarich yeri uchun ajdodlarimiz qo‘llariga qilich ushlab dushmanni yer bilan yakson etganlar.

Asosiy qism. Bugungi kunda davlatimiz tomonidan atrof-muhitni muhofaza qilish borasida juda ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, “Yashil makon” umummilliy loyihasi bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Ushbu loyiha yuzasidan maktab hamda boshqa tashkilotlarda ko‘chatlar o‘tkazish tadbirlari tashkil etildi. Ushbu loyiha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 30-oktabrdagi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish kontseptsiyasi”, 2021-yil 30-dekabrdagi “Respublikada ko‘kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida tatbiq etilgan bo‘lib, atrof-muhit ob’ektlarini (havo, suv, tuproq, yer, fauna, flora,qo‘riqxonalar va boshqalar) insonning bevosita hamda bilvosita ta’siri va boshqa salbiy ta’sir qiluvchi omillardan saqlash bilan birga sifatini ta’minlashni nazarda tutadi. Tabiatga nisbatan ijobiy munosabat avvalo, oilada, so‘ngra maktabgacha ta’lim tashkiloti va maktablarda shakllantiriladi.

Oilada ota-ona hamda mahallaning o‘rnak bo‘lishi bola shaxsiyatida mas’uliyat hissini shakllanishiga turtki bo‘la oladi desak yanglishmaymiz. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida “Ilk qadam” dasturi orqali ekologik madaniyat shakllantirilsa, maktablarda “Jonli tabiat burchagi” o‘quvchilarni tabiatni sevishga, uni o‘zining ajralmas bir bo‘lagi sifatida his qilishga imkon beradi. “Jonli tabiat burchagi” ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan, turli mayda jonivorlar saqlanadigan, turli o‘simlik parvarishlanadigan, o‘quvchilarning tabiat bilan bevosita muloqotini ta’minlovchi maxsus o‘quv-tarbiyaviy muhit hisoblanadi. Jonli tabiat burchagi o‘quvchilarni atrof-tabiiy muhit bilan uzviy bog‘lash uchun samarali vosita bo‘lib, bolalarning har jonli hamda jonsiz tabiat haqidagi tabiiy fan g‘oyalarini olishlariga, tirik mavjudod empatiya qilish qobiliyatini rivojlantirishga, yordam beradi. Ushbu burchak o‘quvchilarning ekologik bilimlarini boyitish, dunyoqarash hamda tafakkurni rivojlantirish, ekologik madaniyatni shakllantirish, tabiatga nisbatan ijobiy munosabatni vujudga keltirish, atrof-muhitga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash bilan bir qatorda o‘quvchilarda amaliy ko‘nikmalarni ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Jonli tabiat burchagiga odatda, xona gullari, akvariumdagi baliqlar, mayda hayvonlar(toshbaqa, quyon va parvarish qilish oson bo‘lgan hayvonlar), qushlar joylashtiriladi. Ularga g‘amxo‘rlik qilish jarayonida o‘quvchilar hayvon hamda o‘simliklarning oziqlanishi, rivojlanishi, o‘sishi hamda xulq-atvori haqida qimmatli ma’lumotlarga ega bo‘ladilar. Ushbu burchak o‘quvchilarning darsdan tashqari faoliyatini ham mazmunli o‘tishiga xizmat qiladi. Jonli tabiat burchagining tashkil etilishida bir qator talablarni hisobga olish lozim hisoblanadi. Avvalo, burchakning joylashuvi yorug‘lik, harorat va havo almashinuvi nuqtai nazaridan optimal bo‘lishi kerak. Odatda, jonli tabiat burchagi janubiy yoki janubi-sharqiy tomonga qaragan derazalar yonida joylashtiriladi. Jonli tabiat burchagini tashkil qilishda quyidagilar e’tiborga molik hisoblanadi.

1. Joy tanlash – yorug‘, shamollatishga qulay xona tanlanadi;
2. Jihozlash – baliqlar uchun akvarium, kichik hayvonlar uchun qafas hamda o‘simliklar uchun gul tuvaklari;
3. Tirik organizmlarni tanlash – parvarishi oson bo‘lgan hamda o‘quvchilar uchun xavfsiz bo‘lgan;
4. Kuzatish hamda tajriba – o‘quvchilar tirik organizmlarni doimiy kuzatadilar hamda natijalarni qayd etib qiyoslab boradilar.

Jonli tabiat burchagi orqali o‘quvchilar tirik organizmlar ustida uzoq muddatli, davomiy kuzatishlar o‘tkazish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. O‘simliklar tanlashda bolalarning yosh xususiyatlari va xavfsizlik talablari e’tiborga olinadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun parvarish qilish oson, tez o‘sadigan va dekorativ qiymatga ega bo‘lgan o‘simliklar tanlanadi. Masalan, begoniya, balsamin, tradeskansiya, sanseveriya, aloe, geran, fikus, xlorofitum, dratsena, tradeskansiya kabi o‘simliklar maqsadga muvofiq sanalib, burchakda zarur jihozlar: guldonlar, sug‘orish idishlari, tuproq, o‘g‘it, ko‘chirish asboblari, kuzatish kundaligi va o‘lchov asboblari bo‘lishi kerak.Bu jihozlar o‘quvchilarning mustaqil ishlash imkoniyatini ta‘minlaydi hamda mehnat jarayoniga jalb etadi. Jonli tabiat burchagini quyidagi jadvalda asoslangan holda tarkibiy qismlarga bo‘lishimiz mumkin.

1-jadval

Xona o‘simliklari	Akvarium	Qushlar	Mayda sutemizuvchilar
Begoniya	Guppi	To‘tiqush	Quyon
Balsamin	Molli	Kanareyka	Tipratikan
Tradeskansiya	Skalyariya	Bedana	Oq sichqon
Aloe	Barbus	Kabutar	Xomyak
Kaktus	Oltin baliq	Finch	Gerbil
Fikus	Danio	Lovebird	Ferret

“Tabiat va men” texnologiyasi umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflari doirasida tashkil qilinib, o‘quvchilarning ekologik madaniyatini, tabiatga bo‘lgan qiziqish hamda ijobiy munosabatini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu texnologiyada o‘quvchilar o‘qituvchi ko‘magida maktab hududida sinf bog‘i tashkil qiladilar hamda bog‘ni to‘rt qismga bo‘lishadi. Birinchi qismga bir yillik o‘simliklar(rayhon,zanjabil, pomidor,bodring), ikkinchi qismga ikki yillik o‘simliklar (karam, o‘sma,piyoz) uchinchi qismga ko‘p yillik o‘simliklar (gulsafsar, atirgul, qulupnay), to‘rtinchi qismga esa daraxt hamda butalarni ekishadi. O‘quv yili mobaynida o‘quvchilar ushbu bog‘da darsdan tashqari faoliyatlarini olib borishadi hamda o‘simliklarning qanday o‘sishi, ularga qancha miqdorda suv hamda o‘g‘it, yorug‘lik,qanday harorat kerak ekanligini kuzatib aniqlashadi.

Ushbu texnologiyaning tarbiyaviy ahamiyati o‘quvchilarni mehnatkashlikka o‘rgatishda, bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishda, mas’uliyatlilikni ta’minlashda, jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmasini shakllantirishda hamda tabiatga bo‘lgan qiziqishlarini shakllantirishda namoyon bo‘ladi. Ushbu faoliyat davomida o‘quvchilar jarayonni o‘z ko‘zlari bilan kuzatishadi hamda bevosita ishtirokchiga aylanadi. Shuningdek o‘z mehnatlarining natijasini ko‘rib undan zavq oladilar.

Texnologiyaning ta’limiy ahamiyati: tabiiy fanlar darslarida o‘rganilgan nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash orqali yana ham chuqurroq o ‘rganadilar hamda mustahkamlaydilar, real tajriba orttiradilar. Ushbu texnologiya orqali bolalarda ekologik ong, ekologik bilim, ekologik tarbiya ham shakllanadi, o‘quvchilar atrof-muhitni asrash zarur ekanligini o‘rganadilar. “Maktab bog‘idagi mehnat bolalarda mehnatsevarlik, mas’uliyatlilik, jamoada ishlash kabi sifatlarni rivojlantiradi. Bu esa shaxsning ijtimoiylashuvida muhim o‘rin tutadi.”[3]

John Deweyning ta’kidlashicha, “Bolalar bilimni faqat tinglash orqali emas, balki amalda bajarish orqali chuqur o‘zlashtiradi. Maktab bog‘idagi mehnat aynan shu tamoyilga asoslanadi.”[4] Bugungi kunda Xalqaro tashkilotlar ham maktab bog‘iga katta ahamiyat bermoqda.

UNESKO – barqaror rivojlanish ta’limida amaliy faoliyatni muhim deb hisoblaydi. Xususan tabiiy fanlar olingan nazariy bilimlarni alaliyotda qo‘llash orqali yuqori o‘zlashtirish ko‘rsatkichiga ega bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchilar xotirasida uzoq vaqt saqlanishga yordam beradi.

Food and Agriculture Organization (FAO) – maktab bog‘larini o‘quvchilarda oziq-ovqat madaniyati hamda ekologik ongni shakllantirish vositasi sifatida tavsiya qiladi. Bu esa maktablarda o‘simliklar yetishtirishning ijobiy tomonlarini yoritadi.

UNICEF(2022): bolalar amaliy faoliyat orqali mas’uliyat hamda mustaqillikni o‘rganadilar.

O‘quvchilar o‘zlari yetishtirgan meva hamda sabzavotlardan iste’mol qilishganda ularda tabiatdan zavqlanish tuyg‘usi uyg‘onadi.

2-jadval

“Tabiat va men” texnologiyasini tashkil etish

Umumiy tushuncha	Ahamiyati	Xususiyatlari	O‘simliklari
Tabiatni amaliy o‘rganish joyi	Ekologik tarbiya	Quyosh nuri tushadigan joy	1 yillik (pomidor, bodring)
Ekologik tarbiya vositasi	Amaliy bilim	Sug‘orish tizimi	2 yillik (karom, piyoz)
Mehnat ko‘nikmasi	Mehnat tarbiyasi	To‘g‘ri tanlangan joylashuv	Ko‘pyillik (gulsafsar, qulupnay)
Estetika rivojlanishi	Estetik tarbiya	Tuproqni tayyorlash	Daraxtlar hamda butalar
Ko‘nikma hamda malaka shakllanishi	Nazariyaning amaliyot bilan bog‘lanishi	Rejalashtirish	
Ekologik madaniyat	Ekologik ong shakllanishi	Navbat asosida parvarish	
Doimiy tajriba	Kuzatuvchanlikni oshiradi.	Xavfsizlik	

O‘quvchilar birinchi sinfdan boshlab atrof-muhitni hamda atrof-muhit bilan bog‘liq holda mehnat faoliyatini ekskursiyalar hamda amaliy mashg‘ulotlar, predmetli darslarda o‘rganadilar.

Tadqiqot davomida olib borilgan kuzatuv va tahlillar boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tarbiyasida “Jonli tabiat burchagi” hamda “Tabiat va men” texnologiyalarining ahamiyati katta ekanligini ko‘rsatdi. Ushbu texnologiyalar o‘quvchilarning tabiatga nisbatan qiziqish hamda mehr-muhabbatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Faoliyat jarayonida o‘quvchilar bevosita flora hamda fauna dunyosi bilan aloqada bo‘lib, ularga g‘amxo‘rlik qilishadi. Shu bilan bir qatorda ushbu texnologiyalar o‘quvchilarda kuzatuvchanlik, sabr-matonat, diqqat, javobgarlik, ma’uliyat kabi muhim insoniy fazilatlarni shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rish orqali o‘quvchilarda analitik tafakkur, tahlil qila olish, xulosa chiqarish, tanqidiy hamda mantiqiy fikrlash kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishga ham samarali hissa qo‘shadi. Shuningdek, ushbu texnologiyalar umumta’lim maktablarining tashqi hamda ichki estetikasiga ham ijobiy ta’sir etadi. Dars jarayonidagi charchoqlar maktab bog‘ida ozroq dam olish jarayonida unutiladi, va ishtiyoq bilan keyingi darslar davom ettiriladi. Zero, “Jonli tabiat burchagidan foydalanish usuli o‘quvchilarning yoshi va bilim darajasiga qarab farqlanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari (6-10 yosh) uchun, asosan, oddiy kuzatish va parvarish qilish vazifalarini berish tavsiya etiladi. Bu yoshdagi bolalar organizmlarning tashqi ko‘rinishi, rangini, shaklini va oddiy harakatlarini kuzatishadi”[5]. Maktab bog‘ida faol qatnashgan o‘quvchilarda charchoq hissi kamayadi, darslarni yaxshi o‘zlashtiradi, mas’uliyatliroq bo‘ladi, jamoada ishlashga tez moslashadi, atrof-muhitga nisbatan ongli munosabatni bildiradi. Ushbu texnologiya nafaqat oddiy jismoniy faoliyat bo‘lib, balki kompleks pedagogik jarayon hisoblanib, u o‘quvchilarning bilim, tarbiya hamda shaxsiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Shu tufayli ham uni ta’lim tizimida keng qo‘llash zarur.

Lev Vygotskiyning ta’kidlashicha bolalar ijtimoiy muhitda,hamkorlik orqali rivojlanadi. Bog‘dagi jamoaviy ishlar (gurug bilan ishash,ekish, sug‘orish, parvarish qilish) rivojlanishni tezlashtiradi.

Xulosa va takliflar.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, “Jonli tabiat burchagi” hamda “Tabiat va men” texnologiyalari nafaqat o‘quvchilar balki o‘qituvchilar uchun ham ijobiy ahamiyat kasb etib, ularning ekologik bilim, tajriba, dunyoqarashlarini shakllantirib, tabiatga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantiradi. Ushbu texnologiyalar zamonaviy ta’limning samarali vositalari sanalib, kelgusida ushbu yo‘nalishni yanada takomillashtirish g‘oyalarini ilgari surish ijobiy natija beradi. “Jonli tabiat burchagi” hamda “Tabiat va men” texnologiyalarini tashkil qilish bolalar tarbiyasida muhim o‘rin egallaydi. Bu orqali o‘quvchilar bilimni amalda o‘rganib mustahkamlaydi, mustaqil shaxs sifatida shakllanadi,tabiat bilan uyg‘un tarzda yashashni o‘rganadi; o‘quvchilarda ijobiy emotsiyalarni uyg‘otadi, diqqat hamda kuzatuvchanlikni oshiradi, stressni kamaytiradi. Tabiat bilan ishlash jarayoni o‘quvchilarda tabiiy terapiya effektini berib, o‘quvchilarni kayfiyatini ko‘taradi.

Taklif o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, har bir umumta’lim muassasasida “Jonli tabiat burchagi” hamda “Tabiat va men” texnologiyalari tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. Pedagoglar esa o‘z navbatini ota-onalar bilan muntazam faoliyatni yo‘lga qo‘yishi lozim deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shavkat Mirziyoyev “Yashil makon” umummilliy loyihasini loyihasini amalga oshirish borasidagi dolzarb vazifalar yuzasidan o‘tkazilgan vedioselektr yig‘ilishidagi nutqidan. 2022-yil 2-fevral.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 62-modda 30-aprel 2023-yil
3. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch”. Toshkent. Ma’naviyat. 1997-yil
4. John Dewey. Experience and Education. New York. Macmillan.1938
5. Qodirov H.I. “ Boshlang’ich sinf o’quvchilari bilan tabiat ishlar olib borish”//Boshlang’ich ta’lim.2023.N4.89-95 b.
6. Nuriddinova M. I. Tabiatshunoslikni o ‘qitish m etodikasi: (o ‘quv qo‘llanma) . O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. —T.: Cho‘lpon nomidagi nashriyotmatbaa ijodiy uyi, 2005.
7. Djanpeisova G.E., Rasulxo’jayeva M.A. “Tabiat bilan tanishtirish” o‘quv qo’llanma Toshkent - “Innovatsiya-Ziyo. 2020.
8. Yaylovboyeva M.L. “Jonli tabiat burchagi asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy faoliyatini tashkil etish yo‘llari”
9. UNESCO(2020). Experience and Education.
10. UNICEF(2022). Child-Friendly Schools Manual.
11. Lev Vygotskiy(1978). Mind and Society.

Mualliflar:
Samatova Dilrabo Yusupovna - Guliston davlat pedagogika instituti dotsenti, p.f.f.d.
Ummatqulova Adashoy Baxtiyor qizi - Guliston davlat pedagogika instituti II bosqich magistranti.

UDK 372.879.6

PEDAGOGICAL STRATEGIES FOR DEVELOPING SPORTS AND HEALTH IMMUNITY IN STUDENTS BASED ON INNOVATIVE SYSTEMS

INNOVATSION TIZIMLAR ASOSIDA TALABALARDA SPORT VA SALOMATLIK IMMUNITETINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK STRATEGIYALARI

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ СПОРТИВНОГО И ОЗДОРОВИТЕЛЬНОГО ИММУНИТЕТА У УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННЫХ СИСТЕМ

Qayumov Shohruh Abdujalol o‘g‘li[1], Karimova Mohinur Abdujalol qizi[2]
[1]Jizzax davlat pedagogika universiteti. 130100. Jizzax viloyati, Jizzax shahri Sh.Rashidov shohko‘chasi, 4-uy
[2]Oriental universiteti. 100121, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Sh.Rustaveli ko'chasi, 154A
E-mail: qayumovshohruh750@gmail.com

Abstract: This article examines the need for widespread application of pedagogical strategies in the global education system and improvement of the educational process in accordance with international educational standards. The integration of pedagogical strategies for developing sports and health immunity in students based on innovative educational process systems, taking into account the content, form, methods, and means, is of great importance in terms of improving the quality of the education system, introducing modern pedagogical approaches, and strengthening the competitiveness of global education. There is a growing need for educational specialists trained in the development of interventions, especially in the area of preparing healthy students, and their appropriate implementation in the future. [1] Currently, in developed countries such as the United Kingdom, France, Finland, Germany, Japan, and South Korea, the use of pedagogical strategies for developing sports and health immunity in students based on innovative systems in the educational process is considered a pressing issue.

Keywords: healthy lifestyle, university students, physical health, aerobic exercise, health improvement methods, training system.

Annotatsiya: Mazkur maqolada, Jahon ta’lim tizimida pedagogik starategiyalardan keng foydalanish va o’quv jaroyonini xalqaro ta’lim standartlariga muvofiq takomillashtirish zarur hisoblanmoqda. Ta’lim jarayonini innovatsion tizimlar asosida talabalarda sport va salomatlik immunitetini rivojlantirishning pedagogik strategiyalari mazmun shakl, metod va vositalari bilan untegratsiyasi ta’lim tizimining sifat darajasini oshirish, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etish hamda global ta’lim raqobatbardoshligini kuchaytirish nuqtai nazardan muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta’lim sohasida mutaxasisslar hususan sog’-salomat bo’lgan talabalarni tayyorlashda loyihalash faoliyatiga o’rgatishga ulardan kelajakda to’gri foydalanishga ehtiyoj va talablar ortmoqda. [1] Hozirgi kunda Buyuk Britaniya, Fransiya, Finlandiya, Germaniya, Yaponiya va Janubiy Korea kabi rivojlangan davlatlarda yuqori salomatga ega malakali kadrlar tayyorlashda ta’lim jarayonida innovatsion tizimlar asosida talabalarda sport va salomatlik immunitetini rivojlantirishning pedagogik strategiyalari foydalanish dolzarb masala sifatida qaralmoqda.

Kalit so‘zlar: sog‘lom turmush tarzi, oliy ta’lim muassasasi talabalari, jismoniy salomatlik, aerobik mashqlar, sog‘lomlashtirish metodikasi, mashg‘ulotlar tizimi.

Аннотация: В данной статье рассматривается необходимость широкого применения педагогических стратегий в глобальной системе образования и совершенствования образовательного процесса в соответствии с международными образовательными стандартами. Интеграция педагогических стратегий развития спортивного и оздоровительного иммунитета у учащихся на основе инновационных систем образовательного процесса с учетом содержания, формы, методов и средств имеет большое значение с точки зрения повышения качества системы образования, внедрения современных педагогических подходов и укрепления конкурентоспособности глобального образования. Возрастает потребность в специалистах в области образования, обучающихся разработке мероприятий, особенно в области подготовки здоровых учащихся, и их правильному применению в будущем. [1] В настоящее время в развитых странах, таких как Великобритания, Франция, Финляндия, Германия, Япония и Южная Корея, использование педагогических стратегий развития спортивного и оздоровительного иммунитета у учащихся на основе инновационных систем в образовательном процессе рассматривается как актуальная проблема.

Ключевые слова: здоровый образ жизни, студенты высших учебных заведений, физическое здоровье, аэробные упражнения, методика улучшения здоровья, система тренировок.

Kirish. Dunyoda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali talabalarda sport va salomatlik immunitetini rivojlantirish jarayoni aynan innovatsion tizimlar asosida maxsus natijalarga bag’ishlangan o’quv soatlardan tashqari jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini takomillashtirish, ularning samaradorligini oshirish, talabalarning yosh va individual xususiyatlariga mos yondashuvlarni ishlab chiqish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining “Yoshlar siyosatinig joriy holati va mavjud muammolar” deb nomlangan III- bobida: Yoshlarda reproduktiv salomatlik, to‘g‘ri ovqatlanish va gigiena qoidalari, sog‘lom turmush tarzi haqida tushunchalar to‘liq shakllanmaganligi. Aksariyat mahallalar va OTMlarda yoshlarning ommaviy sport turlari bilan shug‘ullanishlari uchun shart-sharoitlar mavjud emasligi, hususan, mavjud sport inshootlari 1,3 mln o‘ringa ega bo‘lib, mamlakat aholisining faqatgina 4 foizini qamrab olishi, OTMlarining 24 foizida sport zallari mavjud emasligi sababli, talabalar ning bor-yo‘g‘i 25 foizi jismoniy tarbiya va sportga jalb etilganligi qayd etilgan. [2]

Mazkur konsepsiyaning yoshlarga oid davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari deb nomlangan IV- bobida: yoshlarni madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish; jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanadigan yoshlarning umumiy sonini oshirish; bolalar va o‘smirlar sport OTMlari sonini va sport ta’limi muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va moliyaviy ta’minlashning samaradorligini oshirish; nogironligi bor shaxslar va ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarga shug‘ullanishlari uchun jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish va sport inshootlarida sharoitlar yaratish hamda maxsus sport jihozlari bilan ta’minlash.

Konsepsiyaning kutilayotgan natijalar deb nomlangan 6-bobida esa, yoshlarning ommaviy sport turlari bilan shug‘ullanishlari uchun shart-sharoitlar yaratilib, sport inshootlarining sig‘imi 30 foizga oshirilishi, mahallalarda yoshlarning ommaviy sport turlari bilan shug‘ullanishlari uchun shart-sharoitlar yaratilishi qayd etilgan.

Adabiyotlar tahlili: Tadqiqot mavzusi davlat siyosati darajasida pedagogik muammo yechimiga qaratilgan bo‘lib, O‘zbekistonda keng qamrovda ommaviy sport sog‘lomlashtirish ishlari turli o‘quv muassasalarida tashkillashtirilib borilmoqda. Oliy ta’lim muassasalarida talabalar sportini asosan homiylar va pedagogik jamoa tashabbusi asosida jismoniy madaniyat darslari va sport to‘garaklari jarayonida olib boriladi. Oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan tatabalar ommaviy sportda o‘zlarining jismoniy mahoratlarini oshirib borishmoqda. Darsdan tashqari sport ishlari bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilari jismoniy madaniyat jamoasi tomonidan tashkil qilinadi. [3]

OTM da jismoniy madaniyat tizimi ketma-ketligini ta’minlash, OTM ga har tomonlama moddiy yordam ko‘rsatish, talabalar bilimini chuqurlashtirish, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish, bilim berish bilan birga talabalarning dam olishlarini hamda doimiy tarzda chiniqib borishlarini tashkil qilish.Turli-tuman tashkiliy-uslubiy ish shakllarini joriy qilish. Talabalarning jismoniy madaniyat va sportga bo‘lgan faol qiziqishlarini aniqlab ular uchun har tomonlama qulay sport mashg‘ulotlarini tashkil qilish.Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida darsdan tashqari bajariladigan jismoniy madaniyat va sport ishlari talaba-yoshlar sport OTMlari, ko‘ngillilar sport jamiyatlari tomonidan sport turlari bo‘yicha to‘garaklar tashkil qilinmoqda.

OTMining vazifasiga asosan O‘zbekiston terma jamoasiga yuqori sport natijalarini ko‘rsata oladigan sportchilarni tayyorlab berish kabi amaliy ishlar kiradi.

Tadqiqot metodologiyasi: Talabalarning sport musobaqalarida qatnashishi o‘sib kelayotgan yoshlarimizning sportga bo‘lgan muhabbatini oshirib borish kabi umuminsoniy fazilatlarning rivojlanishiga sezilarli tasir ko‘rsatayotganligi olib borilgan kuzatishlar va ilmiy-tadqiqot ishlarida ko‘rinadi. [4] Ba’zida jismoniy madaniyat mashg‘ulotlari talab darajasida olib borilmayotganligi, ba’zi talabalar zaifligi tufayli darsdan ozod qilinayotganligi hamsir emas. Biroq, shu bilan birgalikda, talabalarning musobaqalarga katta ishtiyoq va zavq bilan qatnashayotganligi ham kuzatiladi. Maxsus test-norma talablari va ularning bajarilish jarayoni ayrim talabalarning jismoniy tayyorgarligi past ekanligi, binobarin, ularning sog‘lig‘ini mustahqamlash asosiy vazifalardan biri ekanligini amalda ko‘rsatmoqda. Shunday ekan, jismoniy madaniyat darslarida test-norma talablaridan o‘rin olgan mashqlarni keng yo‘nalishda bosqichma-bosqich talabalarning kundalik hayotiga tatbiq qilib borsak, ularda sog‘lom turmush tarzini shakllantirib borgan bo‘lamiz.

Sport musobaqasi o‘quv mashg‘ulot jarayonida qilingan mehnat bilan birga sport sohasida qo‘yilgan maqsadlarning bajarilishi, erishilgan amaliy natijalarni ham oydinlashtiradi. Sport musobaqasi jarayonida o‘sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalashda quyidagi fazilatlarni rivojlantirish nazarda tutiladi:

-o‘sib kelayotgan yosh avlodni inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqorolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish g‘oyalariga tayangan holda tarbiyalash;

yosh avlodning sog‘lig‘ini mustahkamlash, issiq-sovuqqa chidamli, o‘sib kelayotgan organizmni yanada rivojlantirish, hayotda uchraydigan turli-tuman jismoniy sifat va yo’nalishlarini tarkib toptirish;

umumta’lim OTMlarida tahsil olayotgan talabalar ni muntazam sport mashg‘ulotlariga jalb qilish, jumladan, sharqona yakka kurash sport turlarini rivojlantirish, bu borada talabalar ning yashash joylarida mashg‘ulotlar tashkil qilish;

-yosh sportchilarning sport mashg‘ulotlariga qiziqishlarini, rivojlantirish va ularda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish;

umumta’lim OTMlarida ommaviy sportni rivojlantrish, sport mashq jarayonini tashkil qilish to‘g‘risidagi ishlarni maromiga yetkazish;

talabalar o‘rtasida sport turlarini keng ko‘lamda ommaviy tus olishini targ‘ibot va tashviqot qilish va hokazo.

Musobaqalar muvaffaqiyatli o‘tishi uchun quyidagi pedagogik talablariga javob berishi kerak:

o‘quv-mashq, to‘garak jarayonining yakuni bo‘lishi;

musobaqa oldidan ishtirokchilarga, ya’ni talabalar ga yetkazilgan dastur, reja asosida bo‘lishi;

Musobaqalarda sport turlari bo‘yicha qoida qonunlarga rioya etilishi.

Musobaqa o‘tkazishda musobaqa dasturi qatnashuvchilarning yoshi jinsi va sport tayyorgarligini hisobga olgan holda tuzilishi kerak bo‘ladi. Yosh xususiyatlari ham hisobga olinadigan musobaqa hujjati rejalashtirish deb yuritiladi. Biroq talabalar ning yosh hususiyatlari hisobga olinishidan oldin musobaqa vaqtini me’yorlash, ya’ni musobaqa normasi va musobaqa sharoitini ishlab chiqish talab etiladi.

Musobaqa rejasi oldindan tuzilib, jamoalarga yetkazilishi kerak, chunki har bir jamoa oldindan musobaqaga tayyorgarlik ko‘rishi lozim. Ayniqsa OTM yosh xususiyatlariga qarab bo‘linadi va belgilangan maqsad asosida faoliyat ko‘rsatadi. Musobaqani boshlashdan oldin, talabalarning sport tayyorgarligi darajasi aniqlanadi. Ular musobaqaga tayyorgarlik ko‘rishlari uchun 10-15 marotaba sport mashq jarayoniga qatnashib qo‘shimcha tayyorgarlik ko‘rganda mukammal sport formasiga ega bo‘lishi va yaxshi natijalarga erishishi mumkin. [5]

Natijalar: Har qanday mamlakatning ertangi kuni, kelajak taraqqiyoti birinchi galda o‘z xalqining, yoshlarining jismoniy va ma’naviy kamoloti bilan o‘lchanadi. Hozirda davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro musobaqa, kuch-qudratini namoyon etish bellashuvi, asosan ikki yo‘nalishda - sport va jismoniy tarbiya hamda aql-zakovat, ya’ni intellektual faoliyat sohasida ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ilmiy asoslangan holda aytganda, xalqning jismoniy-intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish, bu borada tegishli zaxiralarni shakllantirish XXI- asrda taraqqiyot va yuksalish kafolatiga aylanib bormoqda.

Bu haqiqatni chuqur va har tomonlama idrok etib, yurtimizda sog‘lom va barkamol avlod tarbiyasini davlat siyosatining eng muhim va ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylantirish bu borada o‘ziga xos milliy tizim yaratish chora - tadbirlarini ko‘rdi. Ana shu maqsadda mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish nafaqat bolalar va o‘smirlarni, balki butun xalqni ommaviy sport harakatiga jalb qila oladigan o‘ziga xos samarali tizimni shakllantirish, sog‘lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish ishlarining uzviy va ajralmas qismi deb biladi, bu sohadagi Tadbirlarni o‘zaro uyg‘un va mushtarak tarzda tashkil etish taklifini berdi. [6]

Bugun mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport sohasida aholining turli qatlamlarini qamrab olgan samarali milliy tizim vujudga kelgani va u hozirdanoq yaxshi natijalar berayotgani nafaqat o‘zimizning, balki xorijiy mutaxassislar tomonidan ham tan olinib, e’tirof etilayotgani mazkur sohadagi ishlarning naqadar puxta o‘ylab, uzoqni ko‘zlab amalga oshrilganini ko‘rsatadi. Ta’kidlash joizki, bunday olijanob ishlar davrning nihoyatda murakkab bosqichida amalga oshirila boshlagani bilan yanada ahamiyatlidir. Dunyo miqyosida global o‘zgarishlar yuz berayotgan bir davrda bizning yurtimizda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi amaliy ishlar jamiyat

hayotidagi tub o‘zgarishlar bilan hamohang tarzda amalga oshirilmoqda. [7]

Ana shu ezgu ishlar hozirgi kunda ham izchillik va qatiyat bilan davom ettirilib, xalqimiz, avvalo, yoshlarimiz o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib yetishga mustahkam zamin bo‘lmoqda, mamlakatimizda jismoniy intellektual resurslarning ro‘yobga chiqishini taminlamoqda.

Muhokamalar: Yurtimizda sog’lom avlodni voyaga etkazish vazifasiga qudratli davlatni shakllantirish, inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqorolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish jarayonining muhim sharti sifatida qaralmoqda. Zero, jismoniy tarbiya va sport sohasida yangi bir avlod vakillarining maydonga chiqqani, ularning jahon miqyosida qo‘lga kiritgan yutuqlari hammani g‘ururlantiradi. Jumladan, boks bo‘yicha Olimpiyada chempioni Muhammadqodir Abdullaev, Boxodir Jalolov, Hasanboy Do‘smatov,Shaxobiddin Zoirov, Fazliddin G‘oipnazarov, jahon chempioni Artur Grigoryan, erkin kurash bo‘yicha 3 karra olimpiya chempioni Artur Taymazov, og‘ir atletika bo‘yicha olimpia chempioni Ruslan Nuriddinov, tennisimiz malikasi Iroda To‘laganova, shaxmat va futbolimiz yulduzlari Javohir Sindarov hamda Mirjalol Qosimov FIFAreferisi Ravshan Ermatov, kabi ko‘p sportchilarimizning sport soxasida erishgan ulkan yutuqlari mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijobiy islohotlar, yaratilayotgan shart-sharoitlar mevasidir. Yoshlarimiz sog‘lom va baquvvat bo‘lib voyaga etayotgani va O‘zbekiston sharafini dunyo miqyosida munosib himoya qilayotgani mamlakatimiz nufuzining tobora ortib borayotganidan darak beradi. [8] Mana shunday sport yulduzlari timsolida yurtimizning yorug‘ kelajagiga ishonch mustahkamlanib boramoqda.

Bugungi kunda poytaxtimizda, viloyat va tuman markazlarida sportning, ayniqsa, yoshlar orasida ommaviylashib borishining ta’minlovchi birlamchi omil- munosib shart-sharoitlar yaratildi. Zamonaviy sport inshootlari, o‘yingoh va majmualarning barpo etilishi talaba - yoshlarni ommaviy sport musobaqalari bilan to‘la qamrab olamoqda. Natijada sport, jismoniy tarbiya yoshlar dunyo qarashiga ijobiy ta’sir etib, jismoniy-intellektual resurslar rivojning yangi bosqichga ko‘tarilishini taminlamoqda. Shuningdek, yurtimizda jismoniy tarbiya va sportning ta’limdan tashqari tizimi ham shakllanmoqda. Bu o‘quv maskanlari, mahallalar qoshida turli sport to‘garaklari faoliyatini yo‘lga qo‘yish,sport maydonchalari va majmualari barpo yetish ishlarida yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Birgina «Mahalla futboli» bellashuvlari yoki «Sportchi oila» musobaqalari sport nafaqat ta’lim davrida, balki talimdan tashqari paytda ham yoshlar hayotining tarkibiy qismiga aylanib borayotganini ko‘rsatadi. [9]

Bularning barchasi yurtimizda har bir o‘g‘il-qiz sport bilan shug‘ullanishi, jismoniy baquvvat bo‘lishi, shu tariqa sog‘lom turmush tarzini o‘z hayotining mano-mazmuniga aylantirishi haqidagi fikrlar amalda tobora ko‘proq o‘z aksini topayotganidan darak beradi.

Xulosa va takliflar

Innovatsion tizimlar asosida talabalarda sport va salomatlik immunitetini rivojlantirishda talabaning ruhiy holatini baholash. Individual yondashuvni amalga oshirishda birinchi qadam har bir talabaning ruhiyatini tahlil qilish. Talabalarning individual ehtiyojlarini aniqlash. Har bir talabaning ehtiyojlari turlicha bo‘lishi mumkin. Ba’zilar o‘z kuchini oshirishga ehtiyoj sezadi. Boshqalar esa tezlik yoki fleksibilite (moslashuvchanlik)ga ko‘proq e’tibor berishi kerak. Individual mashqlarni tayyorlashda, talabaning kuchsiz yoki rivojlanmagan sohalarini aniqlash (masalan, chidamlilik, kuch, koordinatsiya). Talabaning yaxshi rivojlangan tomonlarini tan olish va ularni qo‘llab-quvvatlash mumkin.

O’quv soatidan tashqari mashg‘ulotlarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish bo‘yicha olib borilgan izlanishlarimiz quyidagicha xulosa qilishimizga olib keldi. Sport mashg‘ulotlari talabalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning eng samarali vositalaridan biridir. Bunday mashg‘ulotlar nafaqat jismoniy faollikni oshiradi, balki talabalarning psixologik barqarorligi, to‘g‘ri ovqatlanish madaniyati, shaxsiy gigiyenaga rioya qilish odatlari va zararli odatlardan saqlanish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. [10]

Amaliy mashg‘ulotlar, seminarlar, sport to‘garaklari va treninglar orqali talabalar o‘z sog‘lig‘iga mas’uliyat bilan yondashishni o‘rganadi. Bu jarayon talabalarda ijtimoiy faollik, jamoada ishlash, hamkorlik qilish, vaqtni to‘g‘ri boshqarish kabi zarur hayotiy ko‘nikmalarni shakllantiradi. O’quv soatidan tashqari mashg‘ulotlar orqali talabalar sog‘lom hayotning nafaqat nazariy, balki amaliy jihatlarini ham o‘zlashtiradi, bu esa ularning kelajakdagi sog‘lom yashash madaniyati uchun mustahkam poydevor yaratadi. Mazkur mashg‘ulotlar talabalarning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy salomatligini kompleks rivojlantirib, sog‘lom turmush tarzini ongli ravishda tanlash va uni doimiy qo‘llashga undaydi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, innovatsion tizimlar asosida talabalarda sport va salomatlik immunitetini rivojlantirish talabalarning aqliy faoliyatini faollashtiradi va o‘qish samaradorligini oshiradi. O’quv soatidan tashqari mashg‘ulotlar talaba yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish, ularni yot g‘oyalardan, zararli odatlardan himoya qilish hamda ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllantirishda ham katta ahamiyat kasb etadi. O’quv soatidan tashqari mashg‘ulotlarning samaradorligi shundaki, ular talabalarda sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan qiziqishni tabiiy ravishda shakllantiradi. Darsdan tashqari faoliyat doirasida o‘tkaziladigan sport o‘yinlari, sog‘lom ovqatlanish bo‘yicha mahorat darslari, gigiyena va psixologik salomatlik haqidagi treninglar talabalarning kundalik hayotida qo‘llashi mumkin bo‘lgan amaliy bilimlar beradi. [11]

Shuningdek, talabalarning yosh xususiyatlari va qiziqishlariga moslashtirilgan mashg‘ulotlar ularda sog‘lom hayotga ijobiy munosabatni rivojlantirib, faol harakat qilish, sport bilan shug‘ullanish va to‘g‘ri ovqatlanishni hayot tarzi sifatida qabul qilishiga yordam beradi. Bunday mashg‘ulotlar jamoaviy faoliyatni kuchaytirib, talabalarda o‘zaro yordam, mas’uliyat, hamjihatlik kabi ijtimoiy fazilatlarni ham shakllantiradi.

Yana bir muhim jihat shuki, o’quv soatidan tashqari faoliyatda ota-onalar va pedagoglar hamkorligini yo‘lga qo‘yish orqali sog‘lom turmush tarzi bo‘yicha yagona tarbiyaviy muhit yaratiladi. Bu esa bolalarning maktabda olgan bilim hamda ko‘nikmalarini uy sharoitida ham mustahkamlashga xizmat qiladi. Natijada, o’quv soatidan tashqari mashg‘ulotlar orqali sog‘lom turmush tarzini shakllantirish – nafaqat talabalarning jismoniy rivojlanishi, balki ularning ma’naviy-axloqiy kamoloti, ijtimoiy faolligi va kelajak hayot sifati uchun muhim omilga aylanadi. [12]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 2026 yil 5 fevraldagi “ Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi SQ-236-V-sonli qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 28 apreldagi “Pedagogog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-73-sonli farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 16 oktabrdagi “Kasbiy ta’limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta’lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi PF-158-sonli farmoni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 28 fevraldagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi” to‘g‘risidagi PF-127-sonli farmoni.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 5-maydagi “Ta’lim sifatini ta’minlash va ta’lim xizmatlari ko‘rsatish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-76-sonli farmoni.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 5-maydagi “Iqtidorli mutaxassislarning xorijda ta’lim olishini qo‘llab-quvvatlash, ularda kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish va rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-77-sonli farmoni.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 15-maydagi “Prezident iqtidorli farzandlari” tashabbusini amalga oshirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-86-sonli farmoni.

8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2025 yil 16-yanvardagi “Oliy ta’lim tizimida dual ta’limni tashkil etish” chora-tadbirlari to‘g‘risidagi VMQ-14-sonli farmoni.

9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2024 yil 8-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi faoliyatini tartibga solish sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash” to‘g‘risidagi VMQ-489-sonli farmoni.

10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2024 yil 13-dekabrdagi “Oliy va kasbiy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi VMQ-836-sonli farmoni.

11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2024 yil 20-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Talaba va talabalarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi VMQ-36-sonli farmoni.

12. Sh.A.Qayumov “Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning innovatsion yondashuvi” Monografiya. T.: Ziyo chashmasi. 2023. 109 b.

13. Sh.A.Qayumov “Innovatsion tizimlar asosida talabalarda sport va salomatlik immunitetini rivojlantirishning pedagogik strategiyasi” Monografiya. T.: Jizzax davlat pedagogika universiteti davlat muassasasi. 2025. 165 b.

14. Sh.A.Qayumov “Pedagogik-mahorat” darslik. T.: Jizzax davlat pedagogika universiteti davlat muassasasi.. 2026. 336 b.

Mualliflar:
Qayumov Shohruh Abdujalol o‘g‘li – p.f.f.d.(PhD), dotsent. Jizzax davlat pedagogika universiteti doktaranti
Karimova Mohinur Abdujalol qizi - Oriental universiteti tayanch doktaranti.

UDK 372.83

SPECIFIC FEATURES OF TEACHING THE “TARBIYA (EDUCATION)” SUBJECT IN THE 8TH GRADE OF GENERAL SECONDARY SCHOOLS

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARI 8-SINFIDA “TARBIYA” FANINI O‘QITISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

ОСОБЕННОСТИ ПРЕПОДАВАНИЯ ПРЕДМЕТА «ВОСПИТАНИЕ» В 8-Х КЛАССАХ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ

Djumanov Jahongir Abdivaliyevich
Guliston davlat universiteti,120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze
E-mail: jumanovj755@gmail.com

Abstract. This article examines the specific features of teaching the subject "Education (Tarbiya)" in the 8th grade of general secondary schools. It analyzes the age-related and psychological characteristics of students, the objectives of the subject, and the methodological foundations for integrating the scientific and spiritual heritage of Central Asian scholars into the educational process. Based on the educational ideas of Beruni, Al-Farabi, Imam al-Bukhari, Mahmudhoja Behbudiy, and Fitrat, the article highlights opportunities for developing students' respect for national values, critical thinking, moral maturity, civic responsibility, and social activity. Furthermore, methodological recommendations and practical approaches aimed at enriching the content of the "Tarbiya" subject and improving teaching effectiveness are presented.

Keywords: Tarbiya subject, 8th grade, general secondary education, Central Asian scholars, teaching methodology, moral education, national values, critical thinking, pedagogy, integration.

Annotatsiya. Mazkur maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinfida "Tarbiya" fanini o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Unda 8-sinf o‘quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlari, tarbiya fanining maqsad va vazifalari hamda O‘rta Osiyo allomalari ilmiy-ma’naviy merosini dars jarayoniga integratsiya qilishning metodik asoslari tahlil qilingan. Beruniy, Forobiy, Imom Buxoriy, Mahmudxo‘ja Behbudiy va Fitratning tarbiyaviy qarashlari asosida o‘quvchilarda milliy qadriyatlarga hurmat, tanqidiy fikrlash, ma’naviy yetuklik, fuqarolik mas’uliyati va ijtimoiy faollikni shakllantirish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, "Tarbiya" fani mazmunini boyitishga xizmat qiluvchi metodik tavsiyalar hamda amaliy yondashuvlar taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: Tarbiya fani, 8-sinf, umumiy o‘rta ta’lim, O‘rta Osiyo allomalari, metodika, ma’naviy tarbiya, milliy qadriyatlar, tanqidiy fikrlash, pedagogika, integratsiya.

Аннотация. В данной статье рассмотрены особенности преподавания предмета «Воспитание» в 8-х классах общеобразовательных школ. Проанализированы возрастные и психологические особенности учащихся, цели и задачи предмета, а также методические основы интеграции научно-духовного наследия мыслителей Центральной Азии в образовательный процесс. На основе педагогических взглядов Беруни, Фараби, Имама Бухари, Махмудходжи Бехбуди и Фитрата раскрываются возможности формирования у школьников уважения к национальным ценностям, критического

мышления, духовной зрелости, гражданской ответственности и социальной активности. Предложены методические рекомендации по совершенствованию содержания предмета «Воспитание» и повышению эффективности учебного процесса.

Ключевые слова: предмет «Воспитание», 8 класс, общее среднее образование, мыслители Центральной Азии, методика обучения, духовно-нравственное воспитание, национальные ценности, критическое мышление, педагогика, интеграция.

Kirish. Bugungi globallashuv va axborotlashgan jamiyat sharoitida yosh avlodni ma'naviy barkamol, mustaqil fikrlaydigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq shaxs sifatida tarbiyalash ta'lim tizimi oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biridir. Ayniqsa, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitilayotgan "Tarbiya" fani mazmuni va metodikasini takomillashtirish masalasi pedagogika fanining ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Mazkur jarayonda O'rta Osiyo allomalari ilmiy-ma'naviy merosidan samarali foydalanish "Tarbiya" fanining g'oyaviy asoslarini boyitish, o'quvchilarda tarixiy xotira, milliy o'zlikni anglash, ma'naviy immunitetni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki Beruniy, Farobiy, Imom Buxoriy, Alisher Navoiy, Bobur, Behbudiy, Fitrat kabi mutafakkirlar tomonidan ilgari surilgan tarbiyaviy qarashlar bugungi zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg'unlashadi.

Tadqiqot ob'ekti va qo'llanilgan metodlar

Mazkur maqolada 8-sinf "Tarbiya" fanida o'rta osiyolik allomalarning qarashlariga tayangan holda ta'lim jarayonini tashkil etish metodikasi, dars mazmuniga integratsiya qilish yo'llari va metodik tavsiyalar ilmiy-nazariy jihatdan yoritiladi. 8-sinf o'quvchilari o'smirlik davrining faol bosqichida bo'lib, ularning dunyoqarashi, hayotiy pozitsiyasi, axloqiy me'yorlarga munosabati shakllanib boradi. Ushbu yosh davrida quyidagi tarbiyaviy yo'nalishlar ustuvor hisoblanadi:

- *shaxsiy mas'uliyat va ijtimoiy faollik;*
- *o'z-o'zini anglash va o'zini baholash;*
- *axloqiy tanlov va xulqiy pozitsiya;*
- *milliy qadriyatlarga munosabat;*
- *muloqot madaniyati va jamoada yashash ko'nikmalari.*

8-sinf "Tarbiya" fanida o'tiladigan "Iftixorimsan – jannatmakon O'zbekiston!", "Millatlararo hamjihatlik", "Har bir farzand – Vatan himoyachisi", "Hayotda o'z istaklarimizni anglash", "Qat'iy fe'l-atvorning muhimligi", "Qiyin vaziyatda hissiyotlarni boshqarish", "Hayot – betakror ne'mat", "Tushkunlik va bezovtalikni boshqarish", "Mashaqqatlarni yengib o'tish", "Tanqid va tanqidiy fikrlashning muhimligi", "Umumlashtiruvchi dars", "Tanqid va tanqidiy fikrlashning muhimligi", "Fan-texnika taraqqiyoti va inson ma'naviyati", "Ilm va zakovat", "Til bilgan – dunyo ko'radi", "Vaqt – bebaho ne'mat", "Amaliy mashg'ulot. Imkonsizlikni yengish va uning zamonaviy yechimlari", "Go'zal tarbiya tamoyillari", "Tabiat va inson", "Tejamkorlik – yaxshi fazilat", "Xotira – buyuk qadriyat" kabi mavzularda o'rta osiyolik allomalar qarashlariga murojaat qilish o'rinli bo'ladi, nazarimizda.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Beruniy ilm, tafakkur va axloq birligini ta'kidlagan mutafakkir sifatida yosh avlod tarbiyasida ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga alohida e'tibor qaratgan. Uning qarashlari "Ilm va zakovat", "Fan-texnika taraqqiyoti va inson ma'naviyati", "Hayot – betakror ne'mat" kabi mavzularni o'qitishda muhim manba bo'la oladi. Beruniy ilm va inson mas'uliyati haqidagi shunday deydi: *"Goho ma'lum bir xalqning ayrim so'zlari o'z tili bilan o'zgara borganini ko'ramiz; natijada, o'sha tilda faqatgina oz kishi fahmlaydigan birmuncha begona so'zlar paydo bo'ladi. Bu o'zgarish ozgina yillar ichida va buni taqozo etadigan narsa u xalqda yuz bermay paydo bo'ladi. Odamlar bilmagan narsalariga dushmanlik ko'zi bilan qaraydilar" [1].*

Mazkur fikr tahlili shuni ko'rsatadiki, til faqat bilim olish vositasi emas, balki shaxsning axloqiy yetukligini belgilovchi omildir. 8-sinf o'quvchilariga bu g'oya hayotiy misollar orqali tushuntirilsa, ularda ilm, til o'rganishga nisbatan mas'uliyatli munosabat shakllanadi.

Bundan tashqari xuddi shu holatni Farobiy haqida ham aytish mumkin. U jamiyat taraqqiyotini komil inson tarbiyasi bilan bog'lagan. Uning qarashlari "Millatlararo hamjihatlik", "Go'zal tarbiya tamoyillari", "Har bir farzand – Vatan himoyachisi" mavzularini o'qitishda ayniqsa dolzarbdir. Farobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida jamiyat va shaxs munosabati haqidagi quyidagilarni ilgari suradi: *"Hakimning uch quroli bor: so'z, giyoh va tig'. Yolg'izlik halokatga olib keladi. Zero, inson o'ziga kerakli narsalarni faqat jamiyat yordamida qo'lga kiritishi mumkin. Chala bilim egasi bo'lishdan ko'ra, bilimsizlik afzalroqdir.*

*Ruh – shamchiroqqa, bilim – ana shu shamchiroqdan taralayotgan yog'duga, Allohning zakosi – moyga o'xshaydi. Shamchiroq yonishdan to'xtamas ekan – sen tiriksan. Agar u o'chsa – sen halok bo'lasan" (*Abu Ali ibn Sino*) [2].* Bu fikrlarni tahlil qilish orqali o'quvchilarga jamiyatda yashash madaniyati, bag'rikenglik va ijtimoiy mas'uliyat tushunchalari singdiriladi.

Imom Buxoriy axloqiy poklik, halollik, sabr va insoniy munosabatlarga oid g'oyalarni ilgari surgan. Bu qarashlar "Qat'iy fe'l-atvorning muhimligi", "Qiyin vaziyatda hissiyotlarni boshqarish", "Tushkunlik va bezovtalikni boshqarish" mavzularida samarali qo'llanilishi mumkin. Imom Buxoriyning "Sahihi Buxoriy" kitobining 35-bobida "Ilm qanday yo'qoladi? (kishilar dilidan ilmning ko'tarilib ketishi to'g'risida)" nomli qism mavjud. Unda shunday deyiladi: *"Abdulloh ibn Amr ibn al-Os rivoyat qiladi: «Rasulullo sollallohu alayhi va sallamning "Alloh taolo ilmni bandalardan tortib olmaydi, uni ulamolarni vafot topdirish bilan tortib oladi. Odamlar birorta ham ulamo qolmaganidan so'ng dinni tushunmaydiganlarni o'zlariga boshliq qilib oladilar. So'ng, ulardan so'raydilar. Ular bilmasdan fatvo aytadilar. O'zlari ham adashadilar, o'zgalarni ham adashtiradilar» deganlarini eshitganman», – deb aytgan" [3].* Mazkur fikr 8-sinf o'quvchilarida o'zini tuta bilish, hissiyotlarni boshqarish, irodani mustahkamlash fazilatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ayniqsa, jadidlarimiz milliy tarbiya masalasiga katta e'tibor qaratib kelishgan. Xususan, bu harakatning Markaziy Osiyodagi yetakchilaridan biri Mahmudxo'ja Behbudiy qarashlari yosh avlod tarbiyasida katta burilish yasashi tabiiy, albatta. Behbudiy tarbiyani millat kelajagi bilan bog'lagan ma'rifatparvar sifatida tanilgan. Uning qarashlari "Iftixorimsan – jannatmakon O'zbekiston!", "Vatan himoyasi", "Xotira – buyuk qadriyat" mavzularida muhim ahamiyatga ega. Behbudiyning tarbiya haqidagi fikrlari o'quvchilarda tarixiy xotira va vatanparvarlik tuyg'ularini mustahkamlashga xizmat qiladi. Xususan, jadid shunday deydi: *"Biz turkistoniylarg'a turkiy, forsiy, arabiy va rusiy bilmoq lozimdur. Turkiy, ya'ni o'zbekini sababi shulki, Turkiston xalqining aksari o'zbakiy so'ylashur. Forsiy bo'lsa, madrasa za udabo tilidur. Bukungacha Turkistonni har tarafindagi eski va yangi maktablarin-da forsiy nazm va nasr kitoblari ta'lim berilib kelgandur" [4].*

Mazkur parcha jadid ma'rifatparvarlari qarashlariga xos bo'lib, unda tilning tarbiya, ma'rifat va jamiyat taraqqiyotidagi o'rni ilmiy asosda yoritilgan. Muallif Turkiston xalqi uchun bir nechta tilni bilish zarurligini ta'kidlar ekan, bu ehtiyojni ijtimoiy-madaniy muhit, ta'lim tizimi va davr talablari bilan bog'laydi. Avvalo, turkiy (o'zbek) tilining ustuvorligi asoslanadi. Chunki u Turkiston aholisining asosiy muloqot tili bo'lib, xalqning kundalik hayoti, urf-odati va milliy tafakkuri aynan shu til orqali namoyon bo'ladi. Demak, ona tilini bilish shaxsning milliy o'zligini anglashida muhim tarbiyaviy omildir.

Fors tilining ahamiyati esa tarixiy-ta'limiy omillar bilan izohlanadi. Forsiy til uzoq asrlar davomida madrasa va adabiyot tili bo'lib kelgan, ilmiy, badiiy va axloqiy asarlarning katta qismi shu tilda yaratilgan. Bu holat yosh avlodni ma'naviy meros bilan tanishtirishda fors tilini bilish zarur ekanini ko'rsatadi. Arab tilining bilimi esa diniy-ilmiy manbalarni o'rganish, Qur'on va hadis ilmlarini anglash bilan bog'liq bo'lib, axloqiy tarbiyaning muhim manbai hisoblanadi. Rus tilining tilga olinishi esa zamonaviy ilm-fan, texnika va dunyoviy bilimlarga yo'l ochuvchi vosita sifatida baholanadi.

Bu fikrlar 8-sinf "Tarbiya" fanini O'rta Osiyo allomalari ilmiy merosi asosida o'qitish metodikasi bilan chambarchas bog'liq. Chunki 8-sinf o'quvchilarida dunyoqarash kengayadi, turli madaniyat va tillarga nisbatan ongli munosabat shakllanadi. Ushbu matn orqali o'quvchilarga ko'p tillilikning tarbiyaviy ahamiyati, bag'rikenglik, ilmga intilish va ma'naviy kamolot g'oyalari singdiriladi. Natijada Tarbiya fani nafaqat axloqiy saboq, balki tarixiy-ma'rifiy tafakkurni rivojlantiruvchi fan sifatida namoyon bo'ladi.

Fitrat yoshlarni mustaqil va tanqidiy fikrlashga chorlagan. Uning qarashlari "Tanqid va tanqidiy fikrlashning muhimligi", "Hayotda o'z istaklarimizni anglash" mavzularida muhim metodik asos bo'la oladi.

"Odamlarning madaniy toifa ekanliklari, Ya'ni tabiat hukmi ila bir qabila yoki bir qavm suvratida jam bo'lib bir-birlariga yordam berib yashashlari ma'lum. Kimki ana shu tabiat qonunining doirasidan chiqsa, ya'ni jamiyatdan chetlashsa, shubhasiz, mahv va nobud bo'lg'ay. Tarixchi olimlarning fikriga qaraganda, odamlar xalq bo'lishlaridan oldin jamoa bo'lib yashash zarur ekanligini bilmaganlar. Binobarin, vahshiy hayvonlarga o'xshab yolg'iz, yakka-yakka bo'lib yashaganlar. Shu bois ular tabiiy mushkulotlar ostida azob chekib, hayvonlar hujumlaridan halok bo'lganlar. Vaqt o'tishi bilan odamlar jamoa bo'lib yashash lozimligini tushundilar.

Bu muqaddimadan ma'no shuki, oilaning shakllanishi, ya'ni ahli bayt jamoasi, boshqacha aytganda onla boshqarishga asos solish bani Odam madaniyatining asosi ekan" [5].

Keltirilgan matnda insonning ijtimoiy–madaniy mavjudot ekanligi asoslab beriladi. Ya'ni odam tabiatan yolg'iz yashashga emas, balki jamiyat, jamoa va eng avvalo oila doirasida hayot kechirishga moyil qilib yaratilgan. Bu g'oya Sharq mutafakkirlari, xususan, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Imom G'azzoliy kabi O'rta Osiyo allomalari ilmiy merosida ham markaziy o'rin egallaydi. Forobiy "Fozil odamlar shahri" asarida insonning kamoloti faqat jamoa ichida, o'zaro yordam va hamkorlik orqali yuzaga chiqishini ta'kidlaydi. Demak, jamiyatdan chetlashgan shaxs na ma'naviy, na jismoniy barkamollikka erisha oladi.

Mazkur fikrlar 8-sinf "Tarbiya" fanining mazmuni bilan bevosita bog'liq. Chunki 8-sinf o'quvchilari o'zligini anglash, jamiyatdagi o'rnini tushunish, mas'uliyat, burch va hamjihatlik kabi tushunchalarni ongli ravishda qabul qila boshlaydigan yosh davrida bo'ladilar. Tarbiya fanini O'rta Osiyo allomalari ilmiy merosi asosida o'qitish o'quvchilarda tarixiy xotira, milliy qadriyatlarga hurmat va ijtimoiy faollikni shakllantirishga xizmat qiladi.

Matnda ta'kidlanganidek, insoniyat dastlab jamoa bo'lib yashash zaruratini anglamagan, buning oqibatida ko'plab talafotlarga uchragan. Bu tarixiy tajriba o'quvchilarga jamiyat qonunlariga amal qilish, oila va jamoaning ahamiyatini tushuntirishda muhim metodik vosita bo'la oladi. Ayniqsa, "oila – jamiyatning tayanchi" degan g'oya orqali 8-sinf o'quvchilarida oilaviy mas'uliyat, ota-onaga hurmat, o'zaro yordam kabi fazilatlar shakllantiriladi.

Shu bois, Tarbiya fanini O'rta Osiyo allomalari qarashlari bilan boyitib o'qitish metodikasini takomillashtirish 8-sinf o'quvchilarini barkamol, ijtimoiy mas'uliyatli va ma'naviy yetuk shaxs etib tarbiyalashda muhim ilmiy-pedagogik ahamiyatga ega.

Xulosa. 8-sinf "Tarbiya" fanini o'rta osiyolik allomalar ilmiy-ma'naviy merosi asosida o'qitish ta'lim jarayonini mazmunan boyitadi, o'quvchilarda mustahkam axloqiy pozitsiya va milliy o'zlikni anglash tuyg'ularini shakllantiradi. Ushbu metodik yondashuv yosh avlodni zamonaviy bilimlar bilan qurollangan, lekin milliy qadriyatlarga sodiq shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abu Rayhon Beruniy. O'ylar, hikmatlar, naqllar, she'rlar. – Toshkent: "Yosh gvardiya" nashriyoti. 1973.
2. Haqiqat manzaralari. (Abu Ali ibn Sino) 96 mumtoz faylasuf. – T.: Yangi asr avlodi, 2002 yil, 245-bet.
3. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Al-jomi' as-sahih. (1-jild). Arabchadan Zokirjon Ismoil tarjimasi. – Toshkent: 1991. Qomuslar.
4. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat. 1999.
5. Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – Toshkent: Ma'naviyat. 2000.

Muallif:
Djumanov Jahongir Abdivaliyevich - Guliston davlat universiteti musraqil tadqiqotchisi.

UDK 372.800.2

FEATURES OF TEACHING THE COURSE "NETWORK TECHNOLOGIES" IN A DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA "TARMOQ TEXNOLOGIYALARI" KURSINI O'QITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

ОСОБЕННОСТИ ПРЕПОДАВАНИЯ КУРСА «СЕТЕВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ» В ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

Islomov Odil Olim o'g'li, Safoyeva Dilnoza Kamol qizi
Guliston davlat universiteti,120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze
E-mail: islomov-odil2026@gmail.com

Abstract. The aim of this article is to provide a scientific analysis of the content of the digital learning environment and its pedagogical capabilities in the process of teaching the subject "Network Technologies". The study uses the methods of system analysis, comparative analysis, and pedagogical observation. The results of the research show that the use of electronic educational resources, virtual laboratories, and interactive software tools included in the digital learning environment contributes to improving the effectiveness

of teaching network technologies. It is also substantiated that organizing the educational process based on digital technologies promotes the development of students' practical skills, enhances independent learning activities, and supports the formation of professional competencies.

Key words: digital learning environment, network technologies, electronic educational resources, virtual laboratory, interactive tools, methodological support, information and communication technologies.

Annotatsiya. Mazkur maqolaning maqsadi raqamli ta'lim muhitining mazmuni va uning tarmoq texnologiyalari fanini o'qitish jarayonidagi pedagogik imkoniyatlarini ilmiy tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, qiyosiy tahlil hamda pedagogik kuzatuv metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot natijasida raqamli ta'lim muhiti tarkibidagi elektron ta'lim resurslari, virtual laboratoriyalar va interaktiv dasturiy vositalardan foydalanish tarmoq texnologiyalarini o'qitish samaradorligini oshirishi aniqlandi. Shuningdek, raqamli vositalar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish, mustaqil ta'lim faoliyatini faollashtirish va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qilishi asoslandi.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim muhiti, tarmoq texnologiyalari, elektron ta'lim resurslari, virtual laboratoriya, interaktiv vositalar, metodik ta'minot, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

Аннотация. Целью данной статьи является научный анализ содержания цифровой образовательной среды и её педагогических возможностей в процессе преподавания дисциплины «Сетевые технологии». В ходе исследования использованы методы системного анализа, сравнительного анализа и педагогического наблюдения. В результате исследования установлено, что использование электронных образовательных ресурсов, виртуальных лабораторий и интерактивных программных средств, входящих в состав цифровой образовательной среды, способствует повышению эффективности обучения сетевым технологиям. Также обосновано, что организация образовательного процесса на основе цифровых технологий способствует развитию практических навыков обучающихся, активизации самостоятельной учебной деятельности и формированию профессиональных компетенций.

Ключевые слова: цифровая образовательная среда, сетевые технологии, электронные образовательные ресурсы, виртуальная лаборатория, интерактивные средства, методическое обеспечение, информационно-коммуникационные технологии.

Kirish. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi va ta'lim tizimining raqamli transformatsiyasi natijasida raqamli ta'lim muhiti zamonaviy ta'limning muhim tarkibiy qismi sifatida shakllanmoqda[1;2]. Raqamli ta'lim muhiti ta'lim jarayonining barcha subyektlarini yagona axborot makonida integratsiyalash, o'quv resurslariga tezkor kirishni ta'minlash hamda ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish imkonini beruvchi pedagogik va texnologik tizim hisoblanadi.[1] Ushbu muhitning rivojlanishi ta'lim mazmunini yangilash, o'qitish metodlarini takomillashtirish va o'quv faoliyatini individuallashtirish uchun yangi imkoniyatlarni yaratmoqda.[1;4]

Mamlakatimizda ta'lim tizimini raqamlashtirish, zamonaviy axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga keng joriy etish hamda raqamli kompetensiyalarga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Bu esa oliy ta'lim muassasalarida o'qitilayotgan mutaxassislik fanlarini, jumladan, tarmoq texnologiyalari fanini o'qitish metodikasini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

"Tarmoq texnologiyalari" fani axborot tizimlari va kompyuter tarmoqlarining nazariy asoslari, tarmoq infratuzilmasini loyihalash, konfiguratsiyalash, boshqarish hamda axborot xavfsizligini ta'minlash masalalarini qamrab oluvchi muhim mutaxassislik fanlaridan biri hisoblanadi.[5;8] Mazkur fan bo'yicha samarali ta'lim jarayonini tashkil etish nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikma va kompetensiyalarni ham shakllantirishni talab etadi. Biroq mavjud o'quv jarayonida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish uchun texnik vositalarning yetarli emasligi, laboratoriya bazasining cheklanganligi va o'quv resurslarining integratsiyalashmaganligi kabi muammolar uchrab turadi.

Raqamli ta'lim muhiti ushbu muammolarni bartaraf etishda samarali vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Xususan, virtual laboratoriyalar, tarmoq simulyatorlari, masofaviy ta'lim platformalari va interaktiv elektron resurslar tarmoq texnologiyalariga oid murakkab jarayonlarni modellashtirish, amaliy topshiriqlarni bajarish hamda o'quvchilarning mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish imkonini beradi.[3;9] Natijada ta'lim oluvchilarning kasbiy kompetensiyalari, tahliliy fikrlash qobiliyatlari va amaliy tayyorgarligi rivojlanadi. Shu munosabat bilan raqamli ta'lim muhitining mazmuni, tarkibiy tuzilishi va didaktik imkoniyatlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish hamda uning "tarmoq texnologiyalari" fanini o'qitishdagi o'rni va ahamiyatini aniqlash dolzarb ilmiy-pedagogik masala hisoblanadi.

Taqiqot ob'ekti va qo'llanilgan metodlar

Raqamli ta'lim muhitini shakllantirish, ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish hamda o'quv jarayonini samarali tashkil etish masalalari bugungi kunda pedagogika va axborot texnologiyalari sohasidagi dolzarb tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Jahon va mahalliy olimlar tomonidan raqamli ta'lim muhitining nazariy asoslari, elektron ta'lim resurslarini yaratish texnologiyalari, masofaviy ta'lim vositalari hamda ularni o'quv jarayoniga integratsiya qilish masalalari keng o'rganilgan.

Raqamli ta'lim muhitining mazmuni va imkoniyatlarini tadqiq etishda uning ta'lim oluvchilarning mustaqil faoliyatini rivojlantirish, bilim olish jarayonini individuallashtirish, interaktiv hamkorlikni ta'minlash hamda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishdagi ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilgan. Shu nuqtayi nazardan, turli olimlarning ilmiy izlanishlarida raqamli ta'lim vositalari, elektron resurslar va virtual o'quv muhitlarining pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan.

Raqamli ta'lim muhitini tashkil etishning pedagogik va metodik asoslari T.Bates tomonidan tadqiq qilingan. Muallif raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta'lim muhiti o'quv jarayonining moslashuvchanligi, ochiqligi va samaradorligini oshirishini ta'kidlaydi. Tadqiqotda elektron ta'lim resurslari, onlayn platformalar va interaktiv vositalardan foydalanish talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini rivojlantirishga xizmat qilishi asoslab berilgan [1, 45–48].

Masofaviy va raqamli ta'lim jarayonining nazariy asoslari Moore M.G. tomonidan o'rganilgan. Tadqiqotchi ta'lim jarayonida o'qituvchi, ta'lim oluvchi va raqamli vositalar o'rtasidagi samarali hamkorlikni tashkil etish masalalariga e'tibor qaratgan. Ushbu yondashuv raqamli muhitda talabalarning faolligini oshirish, ta'lim jarayonini individuallashtirish va bilimlarni o'zlashtirish samaradorligini ta'minlash imkonini beradi [2, 25–29].

Elektron va masofaviy ta’lim texnologiyalarining rivojlanish yo‘nalishlari Andreev A.A. tomonidan tadqiq etilgan. Muallif elektron ta’lim resurslari, virtual laboratoriyalar va raqamli platformalardan foydalanish orqali nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lash imkoniyatlarini yoritgan. Bunday vositalar ayniqsa texnik fanlarni o‘qitishda murakkab jarayonlarni modellashtirish va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi qayd etilgan [3, 78–81].

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta’lim jarayoniga integratsiyalash masalalari Polat E.S. tomonidan tadqiq qilingan. Muallif elektron vositalardan foydalanish nafaqat ta’lim jarayonini texnik jihatdan takomillashtirish, balki o‘qitish metodlarini yangilash imkonini berishini ta’kidlaydi. Tadqiqotda interaktiv texnologiyalar yordamida talabalar bilim faolligini oshirish, muammoli vaziyatlarni hal qilish va mustaqil izlanish ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkinligi asoslangan [7, 112–115].

Tarmoq texnologiyalarini o‘qitishda raqamli vositalardan foydalanish imkoniyatlari Begbutayev A.E. tomonidan o‘rganilgan. Tadqiqotda virtual laboratoriyalar, tarmoq modellashtirish dasturlari va elektron ta’lim resurslaridan foydalanish orqali talabalar real qurilmalar mavjud bo‘lmagan sharoitda ham amaliy mashg‘ulotlarni bajarishi mumkinligi asoslab berilgan. Ayniqsa, tarmoq topologiyalarini yaratish, qurilmalarni sozlash va turli konfiguratsiyalarni sinovdan o‘tkazish imkoniyati talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi [5, 96–99].

SMART education konsepsiyasining nazariy asoslari Mahotin D.A. tomonidan keng yoritilgan. Tadqiqotchi SMART texnologiyalarni ta’lim tizimiga joriy etish faqatgina texnik yangilanish emas, balki ta’lim mazmuni va metodikasini takomillashtiruvchi muhim omil ekanligini qayd etadi. Muallifning fikriga ko‘ra, interaktiv va moslashuvchan ta’lim muhiti talabalar faolligini oshiradi, mustaqil bilim olish ko‘nikmalarini shakllantiradi hamda o‘quv jarayonining samaradorligini kuchaytiradi [4, 19–24].

Raqamli ta’lim resurslarini ishlab chiqish va ularni o‘quv jarayoniga tatbiq etish masalalari tadqiqotchilar tomonidan keng o‘rganilgan. Elektron ta’lim resurslari tarkibiga nazariy materiallar, amaliy topshiriqlar, nazorat vositalari va interaktiv elementlarni kiritish orqali ta’lim oluvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil etish imkoniyati yaratiladi. Bunday yondashuv o‘quv jarayonida individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirish va bilimlarni samarali o‘zlashtirishga xizmat qiladi [6, 54–57].

Tarmoq texnologiyalarini o‘qitishda amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish usullari Cisco Networking Academy materiallarida yoritilgan. Ushbu yondashuvda tarmoq qurilmalarini sozlash, tarmoq arxitekturasini loyihalash va xavfsizlik mexanizmlarini o‘rganishda simulyatsiya vositalaridan foydalanishga alohida e’tibor qaratilgan. Simulyatorlardan foydalanish real tarmoq muhitiga yaqin sharoit yaratib, talabalarning amaliy tayyorgarligini oshirish imkonini beradi [8, 110–112].

Virtual laboratoriyalar asosida ta’lim jarayonini tashkil etish imkoniyatlari zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda muhim yo‘nalish sifatida qaralmoqda. Virtual muhitlar yordamida talabalar murakkab texnik jarayonlarni xavfsiz sharoitda bajarish, turli tajribalarni o‘tkazish va o‘z xatolarini mustaqil tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Natijada o‘quv jarayonining amaliy yo‘naltirilganligi va ta’lim samaradorligi oshadi [9, 83–86].

Raqamli ta’lim muhitida adaptiv va aralash ta’lim (blended learning) texnologiyalaridan foydalanish masalalari ham zamonaviy tadqiqotlarda alohida o‘rin egallaydi. Ushbu metodlar an’anaviy va elektron ta’lim imkoniyatlarini birlashtirib, talabalarning individual ehtiyojlariga mos o‘quv jarayonini tashkil etish imkonini beradi. Bunday yondashuv ayniqsa axborot texnologiyalari fanlarini o‘qitishda nazariya va amaliyotni uyg‘unlashtirish uchun samarali hisoblanadi [10, 41–44].

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, raqamli ta’lim muhiti, virtual laboratoriyalar va interaktiv texnologiyalar ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda katta imkoniyatlarga ega. Biroq tarmoq texnologiyalari fanini o‘qitishda ushbu vositalarni yagona dasturiy-metodik tizim asosida integratsiya qilish, ularning didaktik imkoniyatlarini to‘liq namoyon etish masalalari hali yetarlicha o‘rganilmagan. Shu sababli mazkur yo‘nalishda tadqiqot olib borish dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini raqamli ta’lim muhitini shakllantirish, tarmoq texnologiyalarini o‘qitish jarayonini takomillashtirish hamda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish tamoyillari tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida ta’lim jarayoniga tizimli, kompetensiyaviy va faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvlar asos qilib olindi. Tadqiqotda nazariy metodlardan foydalanilib, raqamli ta’lim muhiti, tarmoq texnologiyalarini o‘qitish metodikasi, elektron ta’lim resurslari va dasturiy-metodik ta’minot bo‘yicha ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Ushbu metod orqali mavjud ilmiy qarashlar, konsepsiyalar va pedagogik tajribalar o‘rganilib, tadqiqot muammosining nazariy asoslari aniqlandi. Empirik tadqiqot metodlari asosida tarmoq texnologiyalari fanini o‘qitish jarayoni kuzatildi, amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish holati tahlil qilindi hamda ta’lim oluvchilarning bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish jarayoniga raqamli vositalarning ta’siri o‘rganildi.

Tadqiqot jarayonida Moodle LMS platformasining didaktik imkoniyatlari ham o‘rganildi. Xususan, elektron o‘quv materiallarini joylashtirish, topshiriqlarni boshqarish, test nazoratini tashkil etish va ta’lim oluvchilar faoliyatini monitoring qilish imkoniyatlari tahlil qilindi. Moodle platformasi raqamli ta’lim muhitini samarali tashkil etish hamda o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi interaktiv hamkorlikni ta’minlashda muhim vosita sifatida baholandi [11, 45–48].

Tadqiqot davomida modellashtirish metodidan foydalanilib, raqamli ta’lim muhitida tarmoq texnologiyalarini o‘qitishning dasturiy-metodik modeli ishlab chiqildi. Ushbu model elektron resurslar, virtual laboratoriyalar, interaktiv vositalar va amaliy topshiriqlarni yagona tizim asosida birlashtirishga yo‘naltirildi. Tajriba-sinov metodlari orqali taklif etilgan dasturiy-metodik ta’minotning samaradorligi tekshirildi. Olingan natijalar pedagogik tahlil, taqqoslash va statistik qayta ishlash metodlari yordamida baholandi.

Tadqiqot metodologiyasining asosiy maqsadi — raqamli ta’lim muhitida tarmoq texnologiyalari fanini o‘qitish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi ilmiy asoslangan dasturiy-metodik yechimlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishdan iborat.


Olingan natijalar va ularning tahlili

Tadqiqot jarayonida raqamli ta’lim muhitida tarmoq texnologiyalari fanini o‘qitish samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan dasturiy-metodik ta’minotni takomillashtirish masalalari o‘rganildi. O‘tkazilgan nazariy tahlillar va amaliy tajribalar asosida tarmoq texnologiyalarini o‘qitishda elektron ta’lim resurslari, virtual laboratoriyalar, interaktiv vositalar va modellashtirish dasturlaridan foydalanish ta’lim jarayonining sifatini oshirishi aniqlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, an’anaviy o‘qitish usullarida tarmoq qurilmalarining ishlash tamoyillari, tarmoq topologiyalari va konfiguratsiya jarayonlarini amaliy o‘zlashtirishda ayrim qiyinchiliklar mavjud. Raqamli ta’lim muhiti asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar esa murakkab jarayonlarni vizual namoyish qilish, virtual tajribalar o‘tkazish va mustaqil amaliy faoliyatni tashkil etish imkonini beradi.

1-jadval.

№	Baholash mezonlari	An'anaviy ta'lim	Raqamli ta'lim muhiti asosida	O'zgarish
1	Nazariy bilimlarni o'zlashtirish darajasi	68%	75%	7%
2	Amaliy topshiriqlarni bajarish ko'nikmasi	62%	73%	11%
3	Mustaqil ishlash faolligi	65%	77%	12%
4	Tarmoq modellashtirish ko'nikmasi	58%	71%	13%

Tajriba-sinov natijalariga ko'ra, raqamli ta'lim muhiti asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarda ta'lim oluvchilarning bilim va amaliy ko'nikmalari oshgan. Ayniqsa, tarmoq modellashtirish hamda mustaqil ishlash ko'nikmalarida yuqori o'sish kuzatildi. Bunga virtual laboratoriyalar, interaktiv topshiriqlar va elektron ta'lim resurslaridan foydalanish sabab bo'ldi.



1-rasm. Ta'lim samaradorligi ko'rsatkichlarining taqqoslanishi

Rasmda keltirilgan natijalar tahlili raqamli ta'lim muhiti asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarning samaradorligini ko'rsatadi. Olingan natijalarga asoslanib, ishlab chiqilgan dasturiy-metodik ta'minot tarkibiga elektron o'quv materiallari, amaliy topshiriqlar, nazorat savollari, virtual modellashtirish vositalari va interaktiv elementlar kiritildi. Ushbu vositalardan foydalanish natijasida ta'lim oluvchilarning fanga bo'lgan qiziqishi, mustaqil ishlash faolligi hamda amaliy ko'nikmalarini shakllantirish darajasi oshgani kuzatildi.

Tajriba-sinov natijalari tahlili asosida raqamli ta'lim muhiti orqali tashkil etilgan o'quv jarayonida talabalarning nazariy bilimlarni o'zlashtirish, tarmoq texnologiyalaridan foydalanish va amaliy masalalarni hal qilish ko'rsatkichlari yaxshilangani aniqlandi. Bu esa taklif etilgan dasturiy-metodik ta'minotning pedagogik samaradorligini ko'rsatadi. Olingan natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, tarmoq texnologiyalari fanini o'qitishda raqamli vositalardan kompleks foydalanish ta'lim jarayonining interaktivligi, moslashuvchanligi va amaliy yo'naltirilganligini oshiradi. Shu sababli ishlab chiqilgan metodik yondashuvni axborot texnologiyalari yo'nalishidagi fanlarni o'qitishda qo'llash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Tadqiqot davomida olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, raqamli ta'lim muhitidan foydalanish tarmoq texnologiyalari fanini o'qitish jarayonida ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi. Chunki ushbu muhit orqali talabalar nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtiradi, balki tarmoq qurilmalarining ishlash tamoyillarini, tarmoq topologiyalarini va amaliy jarayonlarni virtual shaklda bajarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa murakkab mavzularni tushunishni yengillashtirib, o'quv jarayonining amaliy yo'nalishini kuchaytiradi.

Tadqiqot natijalarini tahlil qilish jarayonida ishlab chiqilgan dasturiy-metodik ta'minotdan foydalanish talabalarning fanga bo'lgan qiziqishini oshirishi va mustaqil ishlash faoliyatini rivojlantirishi aniqlandi. Ayniqsa, virtual laboratoriyalar va interaktiv topshiriqlardan foydalanish orqali talabalar o'z bilimlarini amaliy vaziyatlarda sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bunday yondashuv tarmoq texnologiyalarini o'rganishda muhim bo'lgan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, raqamli ta'lim muhitining afzalligi shundaki, u ta'lim jarayonini talabaning individual imkoniyatlariga mos ravishda tashkil etish imkonini beradi. Talaba o'quv materiallarini mustaqil ravishda takrorlashi, topshiriqlarni bajarishi va o'z bilimini nazorat qilishi mumkin. Natijada o'qituvchi va talaba o'rtasidagi hamkorlik samaraliroq tashkil etilib, ta'lim jarayonining interaktivligi oshadi. Umuman olganda, olingan natijalar raqamli ta'lim muhitining tarmoq texnologiyalarini o'qitishdagi pedagogik samaradorligini tasdiqlaydi va ushbu yo'nalishda dasturiy-metodik ta'minotni takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Xulosa. Raqamli ta'lim muhitida "Tarmoq texnologiyalari" fanini o'qitish jarayonini takomillashtirishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va pedagogik yondashuvlardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot davomida elektron ta'lim resurslari, virtual laboratoriyalar, interaktiv topshiriqlar hamda tarmoq jarayonlarini modellashtirish vositalaridan foydalanish talabalarning nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmalar bilan bog'lash imkonini berishi aniqlandi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli ta'lim muhiti asosida tashkil etilgan o'quv jarayoni talabalarning mustaqil ishlash faolligini oshirish, murakkab tarmoq jarayonlarini tushunishni yengillashtirish va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, virtual muhitda

tarmoq topologiyalarini yaratish, qurilmalarni sozlash va amaliy topshiriqlarni bajarish imkoniyati real texnik vositalardan foydalanish imkoniyati cheklangan holatlarda ham samarali ta'lim jarayonini tashkil etishga yordam beradi.

Tadqiqot natijalari ishlab chiqilgan dasturiy-metodik ta'minot tarmoq texnologiyalarini o'qitishda ta'lim jarayonining interaktivligi, moslashuvchanligi va amaliy yo'naltirilganligini oshirishini ko'rsatdi. Raqamli vositalardan kompleks foydalanish orqali talabalarda nafaqat fan bo'yicha bilimlar, balki muammoli vaziyatlarni hal qilish, mustaqil izlanish va amaliy faoliyat olib borish ko'nikmalari ham shakllanadi.

Shu sababli raqamli ta'lim muhitida "Tarmoq texnologiyalari" fanini o'qitishga mo'ljallangan dasturiy-metodik ta'minotni ishlab chiqish va takomillashtirish ta'lim sifatini oshirish, talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda zamonaviy mehnat bozori talablariga mos mutaxassislarni tayyorlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bates T. Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning. – Vancouver: Tony Bates Associates Ltd, 2019. – 564 p.
2. Moore M.G., Kearsley G. Distance Education: A Systems View of Online Learning. – Belmont: Wadsworth Publishing, 2012. – 328 p.
3. Андреев А.А. Дистанционное обучение: сущность, технология, организация. – Москва: Издательство МЭСИ, 2003. – 216 с.
4. Махотин Д.А. SMART-образование как фактор модернизации образовательной среды // Педагогическое образование и наука. – Москва, 2017. – № 4. – С. 19–24.
5. Begbutayev A.E. SMART texnologiyalar asosida "Tarmoq texnologiyalari" fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish. – Toshkent, 2023. – 156 b.
6. Абдуллаев Б.Х. Raqamli ta'lim resurslarini yaratish va ulardan foydalanish metodikasi. – Toshkent: Fan, 2022. – 184 b.
7. Полат Е.С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. – Москва: Академия, 2009. – 272 с.
8. Cisco Networking Academy. Introduction to Packet Tracer and Network Simulation Technologies. – Cisco Systems, 2023. – 110–112 p.
9. Azizov A.A. Virtual laboratoriyalar asosida ta'lim jarayonini tashkil etish metodikasi. – Toshkent: Tafakkur, 2021. – 83–86 b.
10. Selevko G.K. Современные образовательные технологии. – Москва: Народное образование, 2005. – 256 с.
11. UNESCO. *Digital Learning and Transformation of Education*. – Paris, 2023

Mualliflar:
Islomov Odil Olim o'g'li - Guliston davlat universiteti 1-bosqich tayanch doktoranti.
Safoyeva Dilnoza Kamol qizi - Guliston davlat universiteti 2-bosqich magistranti.

UDK: 37.02:796.33

ISSUES OF DEVELOPING PROFESSIONAL ENGLISH VOCABULARY IN THE CONTEXT OF FOOTBALL

FUTBOL SOHASI KONTEKSIDA KASBIY INGLIZ TILI LEKSIKASINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

ВОПРОСЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ЛЕКСИКИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА В КОНТЕКСТЕ ФУТБОЛЬНОЙ СФЕРЫ

Najmiddinova Durdona Najmiddin qizi
Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlar markazi. Toshkent, Olmazor tumani, Chimboy 2-tor ko'chasi, 96
E-mail: durdonann@gmail.com

Abstract: This study is devoted to the issues of developing professional English vocabulary among football-oriented students. The research was conducted with first-year football students at the Uzbekistan State University of Physical Culture (O'zDJTU), Namangan State University (NamDU), and Gulistan State University (GulDU).

Keywords: football, professional English, vocabulary, ESP, students, teaching.

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot futbol sohasi talabalari uchun kasbiy ingliz tili leksikasini shakllantirish masalalariga bag'ishlangan. Tadqiqot O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya universiteti (O'zDJTU), Namangan davlat universiteti (NamDU) va Guliston davlat universiteti (GulDU) futbol yo'nalishi 1-kurs talabalari bilan o'tkazildi. Tadqiqot jarayonida stajirovka va sinov mashg'ulotlari orqali talabalar kasbiy ingliz tili leksikasini qanchalik egallashi aniqlangan.

Kalit so'z lar: futbol, kasbiy ingliz tili, leksika, ESP, talabalar, o'qitish.

Аннотация: Данное исследование посвящено вопросам формирования профессиональной лексики английского языка у студентов, обучающихся по направлению «Футбол». Исследование проводилось среди студентов 1 курса направления «Футбол» в Узбекском государственном университете физической культуры (O'zDJTU), Наманганском государственном университете (NamDU) и Гулистанском государственном университете (GulDU).

Ключевые слова: футбол, профессиональный английский язык, лексика, ESP, студенты, преподавание.

Kirish. So'nggi yillarda ingliz tilini kasbiy yo'naltirilgan holda o'qitish, xususan ESP (English for Specific Purposes) yondashuvi asosida o'qitish masalalari tilshunoslik va pedagogika sohasida keng tadqiq etilmoqda. Dastlab, T. Hutchinson va A. Waters ESP yondashuvini o'rganishda ta'lim mazmuni o'rganuvchilarning kasbiy ehtiyojlariga moslashtirilishi zarurligini ta'kidlab o'tganlar [1]. T. Dudley-Evans va M. St John esa kasbiy ingliz tilini o'qitishda terminologiya va leksikaning markaziy o'rin tutishini qayd etganlar [2].

Mavzuga oid nazariy qarashlar futbol yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarda kasbiy ingliz tili leksikasini shakllantirish zarurligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida futbol yo'nalishi talabalari uchun ingliz tilini kasbiy yo'naltirilgan holda o'qitish bo'yicha empirik tadqiqotlar yetarli darajada olib borilmagan.

Shu munosabat bilan ushbu tadqiqot O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya universiteti (O‘zDJTU), Namangan davlat universiteti (NamDU) va Guliston davlat universiteti (GulDU) futbol yo‘nalishi 1-kurs talabalari ishtirokida amalga oshirildi. Tadqiqotning maqsadi futbol sohasi kontekstida talabalarda kasbiy ingliz tili leksikasini shakllantirish va uni mustahkamlashning samarali metodlarini aniqlashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili

Kasbiy ingliz tili doirasida leksik kompetensiyani shakllantirish masalasi ko‘plab olimlar tomonidan til o‘qitishning markaziy komponenti sifatida e’tirof etilgan. So‘nggi tadqiqotlarda sport yo‘nalishi talabalarida aynan terminologik leksikaning yetishmasligi ularning kasbiy muloqotga kirishishida asosiy to‘siqlardan biri ekanligi qayd etilmoqda.

P. Nation leksik kompetensiyani rivojlantirishda so‘zning faqat tarjimasini bilish yetarli emasligini, balki uning kontekstual qo‘llanilishi, kollokatsiyalari va funksional xususiyatlarini o‘zlashtirish zarurligini ta’kidlaydi. Futbol sohasida bu holat yanada dolzarb bo‘lib, masalan, *pressing, offside trap, counter-attack, set-piece* kabi terminlar umumiy ingliz tilida uchramaydi yoki boshqa ma‘nolarda qo‘llaniladi [3].

N. Schmitt tadqiqotlariga ko‘ra, kasbiy leksika o‘zlashtirilishi tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshirilmasa, talabalar terminlarni passiv bilish darajasida qolib ketadi [4]. Bu holat sport yo‘nalishi talabalarida tez-tez uchraydi: ular futbol nazariyasini ona tilida yaxshi bilsalar-da, ingliz tilida shu tushunchalarni ifodalashda qiyinchilikka duch keladilar.

Sport ingliz tiliga oid tadqiqotlarda leksikani o‘qitishda tarjima mashqlari, termin–ta’rif moslashtirish, kontekst asosida so‘z o‘rganish va vizual materiallardan foydalanish samarali metodlar sifatida e’tirof etiladi. H. Basturkmen ESP kurslarida aynan leksik topshiriqlar kasbiy kompetensiyaning shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini qayd etadi [5].

Futbolga yo‘naltirilgan ingliz tili bo‘yicha olib borilgan ayrim tadqiqotlarda mashg‘ulot jarayonida autentik materiallardan — futbol sharhlari, mashg‘ulot buyruqlari, video tahlillar va terminologik lug‘atlardan foydalanish talabalarning leksik boyligini oshirishda muhim omil ekanligi ko‘rsatilgan. Bunday yondashuv talabalarni real kasbiy vaziyatga yaqinlashtiradi va leksikani uzoq muddatli xotirada saqlanishiga xizmat qiladi.

Sport sohasi uchun maxsus ishlab chiqilgan ingliz tili materiallari talabalarning til kompetensiyasini kontekstga mos ravishda oshirishda samarali ekanligi bir qator tadqiqotlarda ta’kidlangan. Misol uchun, K. Burhan va boshqalar sport murabbiylari uchun kontekstual ingliz tili o‘quv materiallarini ishlab chiqish jarayonida talabalar sportga oid terminologiya va muloqot ko‘nikmalarini yanada puxta egallashini ko‘rsatdi, bu esa ESP ni real kasbiy jarayon bilan bog‘lab o‘rgatish zaruratini aks ettiradi [6].

Shuningdek, sport kontentini ingliz tili darslariga integratsiya qilish orqali talabalar motivatsiyasi, leksika yod olishi va muloqot ko‘nikmalarini yaxshilash mumkinligi haqida K.N. Djalilova va boshqalar ma’lumot beradi [7]. Ular amaliy topshiriqlar, rolli o‘yinlar va sport kontekstidagi vaziyatlar orqali til o‘rgatish jarayonining talabalarda so‘z boyligini hamda kommunikativ kompetensiyani oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ta’kidladi.


Maxsus sport va ingliz tilini birlashtirgan tadqiqotlar orasida o‘qituvchi M.A. Xaydarovaning ishi alohida e’tiborga loyiqdir [8]. Unda yosh futbolchilar bilan olib borilgan tajriba orqali ingliz tilini o‘qitishda interaktiv metodlar, barcha til ko‘nikmalarini integratsiya qilish, shuningdek talabalar e’tiborini sportga qaratish orqali leksika yod olinishini yanada samarali qilish mumkinligi ko‘rsatildi.

Mazkur adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, futbol yo‘nalishi talabalari uchun ingliz tilini o‘qitishda soha kontekstiga moslashtirilgan ESP yondashuvi, interaktiv metodlar, sportga oid real vaziyatlar va terminologiyani faol qo‘llash muhim strategiyalar sifatida qaraladi. Bu tadqiqotlar futbol yo‘nalishi talabalari uchun ESP metodikasini ishlab chiqish va takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlarini belgilaydi hamda hozirgi tadqiqot bilan mantiqiy uzviylik kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi

1. Tadqiqot ishtirokchilari

Tadqiqot O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya universiteti (O‘zDJTU), Namangan davlat universiteti (NamDU) va Guliston davlat universiteti (GulDU) futbol yo‘nalishi 1-kurs talabalari ishtirokida o‘tkazildi. Umumiy respondentlar soni 185 nafarni tashkil etadi, shulardan 50 nafar talaba musobaqalarda faol qatnashadi, qolgan 135 nafar esa kundalik ta’lim jarayonida o’qiydi. Tadqiqotning asosiy e’tibori 135 talabaning kasbiy ingliz tili leksika darajasini aniqlashga qaratildi.



1-rasm. Tadqiqot ishtirokchilari.

2. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari

Maqsad: Futbol sohasi kontekstida talabalarda kasbiy ingliz tili leksikasini shakllantirish va mustahkamlashning samarali metodlarini aniqlash.

Vazifalar: Talabalar leksik darajasini aniqlash va diagnostika qilish; Zamonaviy tarjima va interaktiv topshiriqlar yordamida leksikani mustahkamlash; Olingan natijalarni tahlil qilish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

3. Tadqiqot metodlari

- ✓ **Testlar:** 135 nafar talabalar uchun leksika testlari o‘tkazildi. Testlar futbol sohasidagi kasbiy terminlarni bilish va ularni kontekstda qo‘llashni o‘lchaydi;
- ✓ **Tarjima topshiriqlari**: Talabalar o‘zbek tilidagi futbol terminlarini ingliz tiliga tarjima qilish va kontekstga mos qo‘llashga yo‘naltirildi.
- ✓ **Interaktiv metodlar:** Rolli o‘yinlar, vaziyatli mashqlar, guruhdagi muhokamalar, video sharhlar orqali leksika mustahkamlandi.
- ✓ **Kuzatuv:** Talabalar faoliyati mashg‘ulot davomida kuzatildi va baholandi.

4. Ma’lumotlarni tahlil qilish

Olingan natijalar foizlar, grafiklar va jadval shaklida tahlil qilindi. Leksika darajasi test natijalari bo‘yicha aniqlanib, interaktiv metodlarning samaradorligi o‘lchandi. Shuningdek, tarjima topshiriqlari orqali talabalar passiv leksikani faol leksikaga aylantirish qobiliyati baholandi.

Natijalar va ularning tahlili

Tadqiqot jarayonida 135 nafar futbol yo‘nalishi 1-kurs talabalarining kasbiy ingliz tili leksika darajasi aniqlandi.

- Talabalar umumiy ingliz tili darajasi A2-B1 (CEFR) ga ega;
- Futbol nazariyasi bo‘yicha bilimlari mavjud bo‘lib, o‘rtacha 65% talaba asosiy futbol tushunchalarini biladi, ammo ingliz tilida ularni ifodalash qiyin kechadi;
- Test natijalari shuni ko‘rsatdiki: talabalarning aktiv leksikasi past, aksariyat so‘zlarni faqat passiv darajada biladi.

1-jadval


Leksika kategoriyasi	Passiv bilish (%)	Faol qo‘llash (%)
Umumiy futbol terminlari	75	40
Mashq va o‘yin buyruqlari	68	35
Strategiya va taktika	60	25
Musobaqa va statistika terminlari	55	20

2. Tarjima va interaktiv topshiriqlarning samaradorligi

Talabalarga tarjima va interaktiv tasklar berildi: so‘zlarni o‘zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilish, video sharhlar va futbol situatsiyalarini ingliz tilida izohlash, guruhda rolli o‘yinlari va muhokamalar orqali leksikani mustahkamlash.

Tahlil natijalari:

- Interaktiv metodlar yordamida talabalar terminlarni faol qo‘llash darajasi 30–40% ga oshdi.
- Passiv leksika faol leksikaga aylanishi tezlashdi, ayniqsa: *pass, tackle, offside, corner, set-piece, dribble* kabi terminlarda.
- Tarjima vazifalari yordamida talabalar kontekstga mos so‘z tanlashni o‘rganishdi, bu esa futbol jarayonida muloqotni soddalashtirdi.



2-rasm. Tahlil natijalari.

3. Tahlil va ilmiy asos

Natijalar T. Hutchinson va A. Waters (1987), P. Nation (2013) va K. Burhan va boshqalar (2025) tadqiqotlari bilan mos keladi: soha kontekstiga moslashtirilgan ESP yondashuvi leksika o‘rganishni samarali bo‘lishiga yordam beradi. Interaktiv va kontekstual mashg‘ulotlar bilan terminologiyani mustahkamlash talabalarda faol kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirdi. Shu bilan birga, futbolga oid ESP materiallar yetishmovchiligi va terminologiyani B1 darajadagi talabalar uchun sistematik o‘rgatish zarurati aniqlangan.

Xulosa

6. Леонтьев, Д. А., & Лаптева, Н. В. Динамика рефлексивности личности под влиянием макросоциальных и региональных факторов. "Психологический журнал", 2021 №3, 45–56. https://doi.org/10.31857/S020595920015183-4
7. Чернышева, О. В. "Формирование рефлексивной культуры личности в поликультурном регионе" (Диссертация кандидата педагогических наук, Ставропольский государственный университет). Электронная библиотека диссертаций. 2017
8. Шаров, А. С. Социокультурная детерминация рефлексии человека в изменяющемся мире. "Вестник Омского университета. Серия: Психология", 2019.№2, 14–22.

Muallif:
Obidova Dilnoza Maqsud qizi - Guliston davlat universiteti tayanch doktaranti.

UDK 111.6

THE ROLE OF EDUCATIONAL ACTIVITY IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' LEARNING ACTIVITY.

O'QUVCHILARNING BILUV FAOLIYATINI RIVOJLANISHIDA TA'LIMIY FAOLIYATNING O'RNI.

РОЛЬ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РАЗВИТИИ УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ.

Eshtemirov Axror Nurmaxmatovich
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz shahri, Shahrisabz ko'cha 10-uy.
E-mail: axroreshtemirov1982@gmail.com

Abstract: The article presents scientific and practical research on the changes in students' knowledge and cognitive activities in order to improve the level of students' knowledge in physics, and presents scientific views on changing students' cognitive activities in a positive direction. Methods of organizing educational activities to strengthen students' physical cognitive activities and methodological guidelines for their application in educational activities are given, and scientific views on the influence of various objective and subjective factors in the application of these methods are studied. Philosophical views are broadly interpreted in the approach to creating the necessary conditions for students in learning activities, based on their psychological characteristics.

Keywords: Activity, cognitive activity, formation of a natural-scientific worldview, methods of cognition, functional structure of activity, subject of activity.

Annotatsiya: Maqolada o‘quvchilarning fizika fanidan bilish darajalalarini yashilassh maqsdaida o‘quvchilarning bilish, biluv faolyatlarini o‘zganish yuzasidan ilmiy amalaiy izlanishlar olib borilib, o‘quvchilarning biluv faoliyatini ijobiy tomonga o‘zgartirish yuzasidan ilmiy qarashlar bayon etilgan. O‘quvchilarda fizikaviy biluv faoliyatini kuchaytirishda ta’limiy faoliyatni tashkil etishning metodlari va ularni ta’limiy faoliyaga tadbiq etish bo‘yicha metodik ko‘rsatmalar berilgan bo‘lib, bu metodlarni qo‘llashda turli ob’ektiv va subektiv omillarning ta’sirilari yuzasidan ilmiy qarashlar tadiqiq etilgan. Biluv faoliyatida o̊quvchiga kerakli shart-sharoitlarning yaratilishi, ularning psixologik xarakter xusuiyatlaridan kelib chiqib yondashishda falsafiy qarashlar keng talqin etib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: Faoliyat, biluv faoliyati, tabiiy-ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, biluv usullari, faoliyatning funksional tuzilish, faoliyat subyekti.

Аннотация: В статье представлены научно-практические исследования изменений в знаниях и познавательной деятельности учащихся с целью повышения уровня их знаний по физике, а также научные взгляды на позитивное изменение познавательной деятельности учащихся. Приведены методы организации учебной деятельности для укрепления физико-познавательной деятельности учащихся и методические рекомендации по их применению в учебной деятельности, а также рассмотрены научные взгляды на влияние различных объективных и субъективных факторов на применение этих методов. Философские взгляды широко интерпретируются в подходе к созданию необходимых условий для учащихся в процессе обучения, исходя из их психологических характеристик.

Ключевые слова: Деятельность, познавательная деятельность, формирование естественно-научного мировоззрения, методы познания, функциональная структура деятельности, субъект деятельности.

Kirish: Fizika va boshqa tabiiy fanlarni o‘qitishda faoliyatli yondashuv ta’limning: chuqur va mustahkam bilimlarni shakllantirish va o‘zlashtirish, tabiiy-ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, biluv usullarini o‘zlashtirish, o‘quvchilarni rivojlantirish, muloqotning ijtimoiy tajribasini egallash kabi maqsadlariga erishishning ancha samarali vositasi bo‘lib hisoblanadi.

Agar biluv usullarini shakllantirish maktab o‘quvchilari ta’limida ustuvor vazifa deb hisoblansa, unda ta’limning o‘zi rivojlanayotgan tafakkur va faoliyatni maqsadli tashkil etish shakli sifatida qaralishi mumkin.

Faoliyat, o‘z navbatida, umuman insoniyatning va uning alohida vakilining rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib hisoblanadi. Shaxsning faoliyat usuli nafaqat ularning biologik qobiliyatlari, balki ko‘proq darajada tarixan shakllangan ijtimoiy-madaniy dasturlar bilan belgilanadi. Bu dasturlar nafaqat faoliyatda amalga oshiriladi, balki uning ichida ishlb chiqiladi va o‘zgartiriladi. Shunday qilib, madaniyat, ta’lim va faoliyat bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir. Binobarin, bizning fikrimizga ko‘ra, umumiy o‘rta maktabda o‘qitish jarayoniga eng istiqbolli muammoli yondashuvni ishlab chiqish uchun faoliyat tushunchasini batafsil o‘rganish zarur. V.V. Davidov ta’kidlaganidek, “faoliyat muammosi, faoliyat tushunchasi ko‘p fanli xususiyatga ega”, shuning uchun bu tushuncha turli nuqtayi nazardan ko‘rib chiqilishi lozim [1].

Adabiyotlar tahlili va mulohazalar: Ta’kidlash lozimki, yuqorida sanab o‘tilgan barcha maqsadlar orasida biluv usullarini o‘rgatish ta’limning ustuvor maqsadi bo‘lib hisoblanadi. Aynan ushbu usul, P.G.Shedrovitskiy fikriga ko‘ra, ta’lim doirasida madaniyatni uzatish jarayonlarini tayanch tashkil etuvchisi, ta’limning asosiy mazmuni bo‘lishi kerak. Aynan usul mazmunning cheksizligini ta’minlaydi, mazmunning o‘z-o‘zini harakatlantirish shakli bo‘lib, madaniyatning ochiqligini ta’minlaydi [2].

Faoliyatni tushunishga mavjud yondashuvlarni uch turga bo‘lish mumkin: funksional, tizimli-strukturaviy va operatsion. Faoliyatning klassik nazariyasida ko‘plab tadqiqotchilar (L.S.Vigotskiy, V.V Davidov, A.N Leontev, S.L. Rubinshteyn va boshq) faoliyatni jarayon sifatida ko‘rishadi. Masalan, A.N. Leontev inson hayoti ketma-ket o‘zaro almashadigan faoliyatlar tizimidan iborat, deb hisoblaydi. Uning fikricha, faoliyatning predmet mazmuni faoliyatning funksional tuzilishida psixologik aksiga ega. Shunday qilib, har qanday faoliyat halqali tuzilmaga ega bo‘ladi.

Agar faoliyat jarayon sifatida tushunilsa, unda faoliyatni uning umumiy tuzilishini tushunish orqali boshqarish mumkin bo‘lib, buni A.N. Leontev [3] tomonidan quyidagicha taqdim etadi: inson hayoti (uning eng oliy, aqliy aks ettirish bilan shartlangan ko‘rinishlarida); alohida faoliyatlar (ularni rag‘batlantiruvchi motivlar mezonlari bo‘yicha); harakatlar (anglangan maqsadlarga bo‘ysunadigan jarayonlar); operatsiyalar (muayyan maqsadga erishish shartlariga bevosita bog‘liq).

L.A.Ivanova ta’kidlaganidek, faoliyat tuzilmasini tushunishga bunday yondashuv Yu.K. Babanskiy, A.L. Juravlev, P.Ya. Galperin, B.F. Lomov, N.F. Talizina, A.F. Esaulov va boshq. tadqiqotlarida joriy etilgan [4].

Ushbu olimlar guruhining tadqiqotlari asosida aniqlandiki, faoliyat ma’lum bir sxemaga muvofiq tuzilgan bo‘lib, uni bilish uni egallash, faoliyat har xil turlarini qurish imkonini beradi.

Tadqiqot usuli va metadologiyasi. Faoliyat jarayonida o‘quvchi tashqi ta’sir tomonidan o‘zgartiriladigan tashqi ta’sir obyekti sifatida emas, balki faoliyat subyekti sifatida ishtirok etganda, uni o‘zi yaratganda rivojlanadi.

Bir qator nazariyalarda [5] faoliyat alohida elementlar va ularning o‘zaro bog‘liqliklaridan iborat murakkab tizim sifatida taqdim etiladi.

Faoliyat shaxsga apriori tarzda, bola tug‘ilgandan boshlab o‘zlashtiradigan, til muhitiga borgan holda o‘zlashtiradigan til kabi beriladi. Xuddi shunday, bola faoliyatga elementlaridan biriga aylanib, uning ichida rivojlanadi, o‘z navbatida faoliyatning rivojlanishiga ta’sir qiladi.

Faoliyat nazariyasi mualliflarining fikriga ko‘ra, bola rivojlanishi jarayoni bolada motivlari shakllangan faoliyat jarayonida eng intensiv sodir bo‘ladi.

Masalan, maktab o‘quvchilariga eng keng tarqalgan, axborot usullar yordamida o‘qitilganda, biluv motivlari ko‘pincha yo‘q bo‘ladi, binobarin, o‘quvchilarning rivojlanishi, asosan, xulq-atvor shakli tufayli sekinroq davom etadi. Shu bilan birga, muammoli-faoliyatli yondashuv yordamida o‘qitishda deyarli barcha o‘quvchilarda biluv motivlari paydo bo‘ladi, chunki o‘rganish faoliyatining o‘zi ular uchun muammoli bo‘lib qoladi. Shunday qilib, faoliyatni muammolashtirishga asoslangan va tizimli ravishda tuzilgan o‘qitish jarayoni o‘quv maqsadlariga erishishda o‘rgatuvchi o‘rganish modeliga asoslangan jarayonga qaraganda samaraliroq bo‘ladi.

Bu yondashuv, ayniqsa, boshlang‘ich maktabda fizikani o‘qitish uchun juda muhimdir, chunki uyushgan, hamkorlikdagi faoliyat o‘quvchilarning bu yoshda ustunlik qiladigan muloqotga bo‘lgan ehtiyojini qondiradi. Yangi bilimlar, usullarni egallash, usul va natijani muhokama qilish uchun faoliyatni hamkorlikda rejalashtirishga asoslangan o‘rganish jarayoni o‘quvchilarni fan bilan bog‘liq muloqotga

jalb qiladi, bu esa ularga o‘z salohiyatlarini ro‘yobga chiqarish va maktab hamjamiyatida o‘zlarini namoyon etish imkonini beradi. Ta’limga faoliyatli yondashuv so‘nggi yillarda maktab amaliyotida mashhur bo‘lib qoldi. Agar o‘tgan asr 90-yillarning oxirlarida u alohida maktablarda alohida o‘qituvchilar tomonidan qo‘llanilgan bo‘lsa, bugungi kunda zamonaviy maktab ta’limidagi o‘zgarishlarning mohiyatini tushuntiruvchi va ixtisoslashtirilgan o‘qitish g‘oyalarini o‘rganuvchi hujjatlarda faoliyatli yondashuv ta’limni modernizatsiya qilishning komponentlaridan biri ekanligi ta’kidlanadi.

Tahlil va natijalar. Maktabda ishlash tajribasi shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning biluv faolligi ularni mustaqil ravishda yoki o‘qituvchi bilan birgalikda yangi bilimlarni olish jarayoniga jalb qilish, yangi o‘rganish usullarini “kashf etish” bilan bog‘liq faoliyatni tashkil qilish orqali tajriba vazifalarini bajarishda eng yuqori darajada yaxshilanadi. Bundan tashqari, tajriba asosida o‘rganishni to‘g‘ri tashkil etishda o‘quvchilar, fanga asoslangan faoliyatdan tashqari, turli xil faoliyatlarga – biluv, tajriba va muloqot faoliyatiga ham sho‘ng‘iydilar.

Tabiatga ta’sir qilish va o‘zgartirish orqali inson bir vaqtning o‘zida o‘z tabiatini o‘zgartiradi. Marksning fikricha, mehnat ijtimoiy aloqalar va munosabatlar doirasida amalga oshiriladigan ijobiy, ijodiy faoliyatdir. Mehnat jarayonida odamlar tabiiy va ijtimoiy voqelikni maqsadli ravishda o‘zgartiradilar. Shunday qilib, faoliyat insonning ijtimoiy-tarixiy mavjudligining mohiyatini belgilaydi. Faoliyatda ijtimoiy me’yorlar shakllanadi va ijtimoiy qonunlar namoyon bo‘ladi [6]. Faoliyat jarayonida nafaqat ijtimoiy munosabatlar paydo bo‘ladi, balki insonning o‘zi ham shakllanadi. Marksizm falsafasining bu muhim g‘oyasi tayyor bilimlarni uzatishga emas, balki o‘quvchi shaxsini rivojlantirishga qaratilgan o‘rganish nazariyasida rivojlantiriladi.

Faoliyatni dialektik-materialistik tushunishda, avvalo, uning obyektiv tabiati, faoliyatdagi obyektiv va hissiy birlik tasdiqlanadi. Shunday qilib, faoliyat avlodlar o‘rtasidagi bog‘liqlik, oldingi avlodlar tomonidan orttirilgan tajribani to‘plash usuli sifatida qaralishi mumkin.

Faoliyat nazariyasida shaxs yangi moddiy yoki ma’naviy mahsulni ishlab chiqaruvchi faoliyat subyekti sifatida qaralishi mumkin [7].

Ma’naviy mahsulga kelsak, shaxs ongi individual tasavvurlar bilan belgilanib, ularda madaniyat insonlarning ijtimoiy-tarixiy faoliyatining o‘ziga xos natijasi sifatida taqdim etiladi. Ong shaxs o‘ziga go‘yo boshqa insonlarning nuqtayi nazaridan qarashi kerak bo‘lgan joyda paydo bo‘ladi. Inson shaxsi o‘z harakatlarini “qoidalar” va “sxemalar” nazorati ostida ushlashga majbur bo‘lib, ularni alohida predmet (fan) sifatida o‘zlashtirishi shart. Mazkur qoidalar va sxemalar, yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, faoliyatda shakllanadi va faoliyat xarakteri o‘zgarishi bilan o‘zgarib boradi.

Xususan, mehnatni tizimli tashkil etish, ya’ni turli mutaxassislar muhim muammo yoki ishlab chiqarish vazifasini hal qilish uchun birlashtiriladigan ishlab chiqarish guruhlarini yaratish muammosi mavjud. Har biri o‘z bilim va resurslarini olib keladi. Mahsulotni loyihalashtirish bir qator bosqichlardan o‘tadi, odamlar ketma-ket yoki bir vaqtning o‘zida ishlaydi. Aynan faoliyat va harakat guruh tuzilmasini belgilaydi, alohida shaxslar va ular nimani ifodalashi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir va aloqaning eng maqbul shakllarini belgilab beradi [8].

Demak, biz faoliyat haqida gapirganda, uning alohida tashuvchilariga murojaat qilishning ma’nosi yo‘q. Faoliyatning o‘zi go‘yo alohida tub mohiyat bo‘lib, o‘zining ichki, immanent qonunlariga muvofiq rivojlanadi. Bu bir avloddan ikkinchi avlodga o‘tadigan oqimdir. U ko‘p jihatdan o‘zining moddiy biologik subyektidan mustaqil bo‘ladi. Tirik odamlar tomonidan amalga oshiriladigan faoliyatning bu qismlari keyinchalik o‘zgartirildi va mashinalarga o‘tkazildi.

Shunday qilib, faoliyat turli xil elementlardan tashkil topgan tuzilmadir. Ushbu tuzilmaning har bir elementi muayyan mexanizmlar orqali amalga oshiriladigan o‘ziga xos rivojlanish qonuniga kiritilgan. Aytishimiz mumkinki, shaxs – rivojlanayotgan faoliyat tizimidagi hujayradir. Bunday hujayralar aniqlangandan so‘ng, bolaga ushbu hujayralarga mos keladigan talablar qo‘yiladi (bizning fikrimizcha, bu faoliyat usullari, me’yorlar va boshq) [9].

Xulosa va taklifalar:

Yuqorilardan kelib chiqib xulosaga kelish mumkinki, faol usullar asosida fizikani o‘qitish modelini ishlab chiqishda uni turli nuqtayi nazardan ko‘rib chiquvchi faoliyat nazariyasi sohasidagi tadqiqotlarga tayanish zarur. Shu sababli, faoliyat nazariyasining asosiy tamoyillarini falsafa va psixologiya nuqtayi nazaridan tahlil qilish qiziqish uyg‘otadi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi aynan mazkur muammolarni hal qilish yo‘llarini topishdan iborat. Bajarilgan pedagogik tajriba natijasida mazkur muammolarni hal qilish darajasi turlicha edi. Qo‘yilgan aksariyat savollarga o‘rta maktabda fizikani o‘qitishning an’anaviy usullarini muammoli-faoliyatli yondashuvni qo‘llagan holda birlashtirgan modelni yaratish orqali javob olindi.

Faydolanilgan adabiyotlar:

1. L.V.Golish, D.M.Fayzullayeva, Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. O‘quv qo‘llanma, T. “TDPU”, 2010. 223 b.
2. Douglas Ciancoli. Phusics a General Course. 2010 year.Chapter 1-43.
3. M.Djoraev, Fizika o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma, T.: 2013 y. 280 b.
4. K.T.Suyarov, va boshqlar Fizika 7: 7-sinf uchun darslik- Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. - 192 b.
5. U.Sh. Begimqulov, X.M. Mahmudova, O.A. Gadoyev, J.Kamolov, G.N. G’oibnazarova, J.A. Toshxonova - Fizikadan Praktikum (Optika va kvant fizika) “Musiqa” nashriyoti-2007 yil – 228 b
6. A.G. Ganiyev, A. K.Avliyoqulov, G. A.Alimardonova. Fizika. II gism. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. - T.: «O‘qituvchi» 2013. - 208 b.
7. N.Sh.Turdiyev va boshq. Fizika. O‘rta ta’lim muassasalarining 11-sinfi va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining o‘quvchilari uchun darslik. Toshkent - “Nisopoligraf” - 2018, 192 b.
8. A.N.Eshtemirov. Umumiy kimyo va fizika. II qism. Darslik. Toshkent, “Ta’lim innovatsiyalari” nashriyoti, 2026.
9. A.N.Eshtemirov. Optika, darslik. Toshkent, “Ta’lim innovatsiyalari” nashriyoti, 2026

Muallif:

Eshtemirov Axror Nurmaxmatovich - Shahrisabz davlat pedagogika instituti Aniq fanlar oliy pedagogika maktabi decani, dotsent.

**** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ****

**** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2026. № 2 ****

UDK 373.5(07)

"INTEGRATION OF THE METHOD OF HABITUATION AND PRACTICAL TRAINING IN IMPROVING EXTRACURRICULAR EDUCATIONAL ACTIVITIES IN SECONDARY SCHOOLS"

"UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA SINFDAN TASHQARI TARBIYAVIY ISHLARNI TAKOMILLASHTIRISHDA "ODATLANTIRISH VA FAOLIYATDA MASHQLANTIRISH METODI"NING INTEGRATSIYASHUVI

"ИНТЕГРАЦИЯ МЕТОДА ПРИУЧЕНИЯ И УПРАЖНЕНИЯ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ВНЕКЛАССНОЙ ВОСПИТАТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ"

Raxmatova Mexrinoz Majitovna

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti. Toshkent sh. Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi 5-uy

E-mail: raxmatovamexrinoz@gmail.com

Abstract: This article scientifically analyzes the integration of the method of habituation and practical training in improving extracurricular educational activities in secondary schools. The author highlights the strategic goals, functional duties, and the role of extracurricular activities in the socialization of students. Furthermore, the paper outlines the pedagogical conditions and effective mechanisms of utilizing this method to form positive behavioral stereotypes and sustainable moral values in students.

Keywords: Extracurricular activities, method of habituation, practical training, educational process, socialization, pedagogical integration, behavioral stereotype, moral and spiritual qualities, well-rounded individual.

Аннотация: В данной статье научно анализируется интеграция метода приучения и упражнения в деятельности при совершенствовании внеклассной воспитательной работы в общеобразовательных школах. Автор освещает стратегические цели, функциональные задачи и роль внеклассной деятельности в социализации учащихся. Также в работе излагаются педагогические условия и эффективные механизмы применения данного метода для формирования у учащихся положительных поведенческих стереотипов и устойчивых духовно-нравственных качеств.

Ключевые слова: Внеклассная деятельность, метод приучения, упражнение, воспитательный процесс, социализация, педагогическая интеграция, поведенческий стереотип, духовно-нравственные качества, гармонично развитая личность.

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni takomillashtirishda "Odatlantirish va faoliyatda mashqlantirish metod"ining integratsiyalashuvi ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Muallif sinfdan tashqari faoliyatning strategik maqsadlari, funksional vazifalari hamda o'quvchilarning ijtimoiy muhitdagi o'rnini yoritib beradi. Shuningdek, maqolada o'quvchilarda ijobiy xulq-atvor stereotiplari va barqaror ma'naviy mezonlarni shakllantirishda ushbu metodni qo'llashning pedagogik shartlari hamda samarali mexanizmlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Sinfdan tashqari faoliyat, "Odatlantirish va faoliyatda mashqlantirish metod"i, tarbiya jarayoni, sotsializatsiya, pedagogik integratsiya, xulq-atvor stereotipi, ma'naviy-axloqiy fazilatlar, barkamol shaxs.

Kirish. Global miqyosdagi ijtimoiy-demokratik transformatsiyalar va zamonaviy jamiyat talablari ta'lim arxitekturasini tubdan qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Shu sababli, rivojlangan davlatlar tajribasida pedagogik paradigmalarni transformatsiyalash hamda innovatsion didaktik platformalarni loyihalash orqali o'quv-tarbiya jarayonlarining integrativ sifatini oshirishga qaratilgan fundamental konseptual tadqiqotlar ustuvor yo'nalishga aylandi.

Tarbiya jarayonining ontologik mohiyati uning tizimli asosi hisoblangan, ichki deterministik aloqalar va muayyan pedagogik qonuniyatlar doirasida yuzaga chiquvchi munosabatlar determinatsiyasi bilan belgilanadi. Mazkur jarayon shaxs ijtimoiylashuvini maqsadli jihatdan modifikatsiyalashga yo'naltirilgan bo'lib, subyektning individual-psixologik arxitektonikasiga muntazam, uzluksiz va tarkibiy-funksional ta'sir ko'rsatish imkoniyatini transformatsiya qiladi. Tarbiya fenomenining funksional asosi binar xarakterga ega bo'lib, u o'qituvchi pedagogik korreksiya va moderatsiya hamda o'quvchi refleksiya va o'z-o'zini rivojlantirish o'rtasidagi interaktiv va sinergetik ko'rinishdagi o'zaro faoliyatni qamrab oladi. Ushbu transformatsion bosqichda individning kognitiv sferasi konseptuallashadi, hissiy-emotsional hamda kreativ salohiyati progressiv evolyutsiyaga uchraydi. Natijada shaxsning aksiologik - g'oyaviy-axloqiy, irodaviy, estetik parametrlari institutsionallashib, uning borliqqa nisbatan fundamental-gnoseologik qarashlar tizimi integratsiyalashadi va jismoniy-bixevioral resurslari optimallashadi. Tarbiya jarayonida o'quvchida jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlar hosil qilinadi. Bunga erishish uchun o'quvchining ongiga (ta'lim jarayonida), hissiyotiga (darsda va turli sinfdan tashqari ishlarda), irodasiga (faoliyatni uyushtirish, xulqni idora qilish jarayonida) tizimli va muntazam ta'sir etib boriladi. Tarbiyalash jarayonida bulardan birortasi (ongi, hissiyotki, irodasi) e'tibordan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi [7.120].

Tadqiqot obyekti. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida rasmiy o'quv rejalaridan tashqari vaqtda tashkil etiladigan tizimli darsdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy faoliyatlar jarayonidir. Xususan, ushbu ijtimoiy-pedagogik muhitda o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy qarashlarini, dunyoqarashini hamda ijtimoiy xulq-atvor modellarini shakllantirishga qaratilgan pedagogik tizim tadqiqotning bevosita o'rganish obyekti qilib belgilandi.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodlar

Maqolada belgilangan muammoning yechimini topish hamda qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun bir-birini to'ldiruvchi quyidagi metodlar majmuasidan foydalanildi: Tizimli va qiyosiy tahlil: zamonaviy tarbiya jarayonining konseptual qoidalari, milliy ta'lim paradigmasi talablari hamda darsdan tashqari faoliyatning funksional elementlari iyerarxiyasini belgilashda pedagogik va psixologik adabiyotlar tizimli tahlil qilindi. Pedagogik modellashtirish: sinfdan tashqari faoliyat muhitida o'quvchilarning kognitiv, affektiv va psixomotor reflekslarini rivojlantirish hamda barkamol shaxs modelini shakllantirishda ushbu metod poydevor vazifasini o'tadi. Integrativ-bixevioral yondashuv: o'quvchilarda shunchaki mexanik motorik ko'nikmalarni emas, balki ichki iroda bilan yo'g'rilgan, ongli ravishda turg'un stereotipga aylanuvchi ijobiy xulq-atvor madaniyatini shakllantirish uchun "Odatlantirish va faoliyatda mashqlantirish" metodining integratsiyalashuv mexanizmlari ishlab chiqildi. Kritik-pedagogik kuzatuv: Odatlantirish jarayonida talabchanlik, izchil nazorat hamda har bir ta'lim oluvchining o'ziga xos dunyoqarashini idrok etish mezonlarini muvofiqlashtirishda empirik kuzatuv usullariga tayanildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Zamonaviy tarbiya jarayonining konseptual qoidalaridan kelib chiqib, tarbiyani umuminsoniy ma'naviy qadriyatlarga yo'naltirish, gumanistik tarbiya jarayonining muhim komponenti hamda individual shaxsga yo'naltirilgan tarbiyaviy texnologiyalarni modellashtirishning nazariy asosi sifatida pedagogik qo'llab-quvvatlash, hamkorlik pedagogikasining hamda jamoaviy ijodiy tarbiyaning psixologik-pedagogik asoslarini alohida ajratib ko'rsatish zarur [11. 9].

Sinfdan tashqari faoliyat - ta'lim muassasasi rahbarligi hamda pedagogik kuzatuv ostida, bevosita rasmiy o'quv rejalaridan tashqari vaqtda tashkil etiladigan tizimli o'quv-tarbiyaviy jarayondir. Mazkur faoliyatning strategik yo'nalishi milliy ta'lim paradigmasi talablariga muvofiq, ta'lim oluvchilarning ichki iqtidori, kognitiv imkoniyatlari hamda individual qiziqishlarini optimallashtirishga qaratilgan. Shuningdek, u o'quvchilarda shaxsiy mustaqillik, hamkorlikda ishlash ko'nikmalari va o'ziga xos tarbiyaviy xususiyatlarni rivojlantirishni kafolatlaydi.

Tarbiyada shunday metodlar mavjudki, ular yordamida insondagi yashirin iste'dod, qobiliyat yuzaga chiqadi, muayyan sifatlar shakllantiriladi, xulq-atvordagi salbiy qusurlar bartaraf etiladi. "Xushxulqlik, yaxshi muomala, shirin so'zlik va olijanoblik - tarbiyalanganlikning asl belgilaridan", - deb ta'kidlaydi alloma G'aybulloh as-Salom. "Tarbiyalanganlik esa, jamiyatda qabul qilingan axloqiy normalarga bo'ysunish va o'zgalarning nafratini qo'zg'atadigan xatti-harakatlardan o'zini tiya bilishdir" [4. 67].

Ilmiy tushuncha sifatida "metod" so'zi keng ma'noda - belgilangan maqsadga erishish yo'lini hamda muayyan muammoning yechimini topishga qaratilgan harakatlar tizimini bildiradi. Tor ma'noda esa - tabiat va jamiyat hodisalarining rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish hamda aniq bir amaliy yoki nazariy vazifani hal etish usulidir.

Tizimli tahlillar shuni ko'rsatadiki, sinfdan tashqari faoliyat ta'lim muassasasining strategik va kalendar ish rejalarida majburiy tartibda aks etishi lozim bo'lgan o'quv-tarbiyaviy tizimning funksional elementi hisoblanadi. Mazkur jarayonda **odatlantirish va faoliyatda mashqlantirish metodining** qo'llanilishi ta'lim oluvchilarning ma'naviy-axloqiy qarashlari, dunyoqarashi, ijodiy tabiati hamda intellektual salohiyatidagi o'ziga xosliklarni muvofiqlashtiruvchi universal pedagogik mexanizm vazifasini o'taydi. Zero, ushbu ijtimoiy-pedagogik makondagi tizimli ishtirok o'quvchi shaxsida barqaror ma'naviy mezonlar va ijobiy axloqiy fazilatlarni shakllantirishning bosh omilidir.

Sinfdan tashqari faoliyat - shaxs taraqqiyotining konseptual asoslarini belgilovchi integral ta'limiy tajribalar majmuasidir. Ushbu jarayonni tashkil etishning strategik maqsadlar tizimi quyidagi ustuvor yo'nalishlarni qamrab oladi: kognitiv-funksional maqsad - o'quvchilarning intellektual - bilish, affektiv - emotsional-qadriyatli va psixomotor - harakatga oid salohiyatini majmuali ravishda yuksaltirish; shaxsga yo'naltirilgan maqsad - barkamol shaxs modelini shakllantirish maqsadida o'quvchilarning individual iqtidori va qiziqishlarini faollashtirish; integratsion maqsad - fanlararo uzviylik hamda aloqadorlik qonuniyatlarini aniqlash, tahlil qilish va amaliyotga tatbiq etish qobiliyatini yuzaga keltirish.

Pedagogik tizimda sinfdan tashqari faoliyatning funksional vazifalari quyidagicha iyerarxiyalanadi: evristik-rivojlantiruvchi funksiya - ta'lim oluvchilarning ichki salohiyati va individual qobiliyatlarini transformatsiya qilish; sotsializatsiya funksiyasi: jamiyatda moslashuv ko'nikmalarini, ijtimoiy mas'uliyat hamda fuqarolik pozitsiyasini tarkib toptirish; kompensator-rekreativ funksiya: ta'lim muhitida psixologik qulaylikni ta'minlash, o'quv yuklamasini muvozanatlash hamda emotsional barqarorlik yaratish; karyeraga yo'naltirish funksiya: kasbiy determinatsiyani belgilash va kelajakdagi mehnat faoliyati uchun fundamental poydevor yaratish.

Odatlantirish va faoliyatda mashqlantirish metodi - muayyan xulq-atvor me'yorlari yoki amaliy harakatlarning dinamik ko'nikma hamda turg'un stereotipga aylanishini ta'minlovchi ko'p karrali va tizimli faoliyat usulidir. Mazkur pedagogik yondashuv shaxsning kognitiv reflekslarini, obyektiv munosabatlar tizimini hamda ijtimoiy xulq-atvor modelini shakllantirishga qaratilgan muntazam mashqlar majmuasini ifodalaydi. Odatlantirish jarayonining metodologik asosini ijtimoiy-pedagogik tajriba, uning funksional tarkibiy qismini esa bevosita amaliy faoliyat tashkil etadi.

Ta'lim metodologiyasi nuqtai nazaridan yondashilganda, odatlantirish - ta'lim oluvchilarda amaldagi me'yoriy talablarga muvofiq fikrlash, munosabat bildirish va harakat qilish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyadir [2. 22].

Odatlantirish va faoliyatda mashqlantirish metodi - o'quvchi shaxsida kognitiv reflekslar, ijtimoiy munosabatlar va amaliy ko'nikmalar arxitektonikasini modellashtirishning invariant usulidir. Ushbu yondashuv subyekt xarakterologik xususiyatlarini shakllantirishda hamda maqsadli faoliyat motivatsiyasini rivojlantirishda yuqori empirik ahamiyat kasb etadi. Odatlantirish mexanizmining fundamental poydevori bevosita ijtimoiy tajribaga tayanadi va muntazam takrorlanuvchi harakatlar zanjiri orqali amaliyotga tatbiq etiladi. Tizimli takroriylik mazkur metodning funksional o'zagini tashkil etib, ta'lim oluvchilarda konstruktiv ijtimoiy odatlar va progressiv xulq-atvor stereotiplarini shakllantirishda samarali pedagogik platforma vazifasini o'taydi. Pirovardida, odatlantirish jarayoni shunchaki nutqiy yoki motorik ko'nikmalarni mexanik o'rgatish bilan cheklanmay, balki shaxs muloqot madaniyati va xulq-atvorlarini konseptual integratsiyalashga qaratilgan chuqur pedagogik mazmunga egadir. O'qitish metodikasi nuqtai nazaridan yondashilganda, ko'nikma shakllantirish (odatlantirish) - ta'lim oluvchilarda amaldagi ijtimoiy-pedagogik talablar hamda me'yorlarga muvofiq fikrlash, munosabat bildirish va harakat qilish ko'nikmalarini tarkib toptirishga qaratilgan samarali usul (metod) hisoblanadi [2. 22].

Odatlantirish mexanizmi insonning kundalik faoliyat ritmini belgilovchi hamda ijtimoiy xulq-atvor interpretatsiyalarini modellashtiruvchi fundamental omil hisoblanadi. Zero, shaxs hayotiy faolligining salmoqli qismi aynan avtomatlashgan stereotiplar va transformatsiyalashgan odatlar tizimiga tayanadi. Ushbu metodologiya xatti-harakatlarning tezkor va adekvat namoyon bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi. Binobarin, odatlantirish jarayonining mavjud emasligi inson kognitiv tizimining yuklamasini oshirib, ijtimoiy adaptatsiyani sekinlashtiradi. Chunki har bir elementar harakat to'g'risida qaror qabul qilish uzoq davom etadigan aqliy operatsiyalarni - analiz va sintezni talab etadi. Shundan kelib chiqib, tarbiya jarayonida pedagoglar tomonidan odatlantirish metodini qo'llash zarurati tug'iladi; bu ta'lim oluvchilarda ijobiy xislatlarni odat tusiga kiritishga xizmat qiladi, natijada ularning barcha faoliyati ijobiy yo'nalishda muhrlanadi [8. 166].

Shunday qilib, **odatlantirish va faoliyatda mashqlantirish metodi** oldindan belgilangan pedagogik maqsadlar doirasida o'quvchining qadriyatli munosabatlari, ijtimoiy xulq-atvori va kognitiv diskursini shakllantirishga yo'naltirilgan, tizimli ravishda takrorlanuvchi interaktiv jarayondir. Akademik va sinfdan tashqari muhitda ushbu metodologiyani qo'llashdan ko'zlangan asosiy maqsad ta'lim oluvchilarda turg'un ijtimoiy-axloqiy stereotiplarni tarkib toptirishdan iborat bo'lib, u rasmiy darslar va sinfdan tashqari mashg'ulotlarning uzviyligi hamda determinatsiyasiga tayanadi. Biroq, hayotiy muhim ahamiyatga ega bo'lgan ushbu ko'nikmalarni

o‘quvchilarda shakllantirish jarayonida e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan eng ustuvor jihatlardan biri - har bir ta’lim oluvchining o‘ziga xos dunyoqarashi hamda voqelikni idrok etish xususiyatlari ko‘plab mezonlarga ko‘ra farqlanishini yodda tutish zarurligidir [3.5.].

Odatlantirish va faoliyatda mashqlantirish metodining konseptual asoslari va maqsadlar iyerarxiyasi - maktab yoshidagi o‘quvchilar ijtimoiylashuvida odatlantirish eng samarali pedagogik instrumentariylardan biri sanaladi. Negaki, ushbu yosh bosqichida subyektlar ijtimoiy-axloqiy mezonlarni, qadriyatli aksiomalarni - “yaxshi” va “yomon” tushunchalarini hali to‘liq ajratish salohiyatiga ega bo‘lmaydilar; shu bilan birga, ularda ijtimoiy burch va majburiyat hissi to‘liq shakllanmagan bo‘ladi. Binobarin, ularni maqbul xulq-atvor andozalari, amaliy malakalar hamda konstruktiv fikrlash tizimiga odatlantirish odatiy zaruriyatdir. O‘quvchida progressiv va xayrli amaliyotlarning tizimli singdirilishi barcha ijobiy shaxsiy fazilatlarning turg‘un xarakterga aylanishiga poydevor yaratadi. Pirovardida, inson ruhiy-intellektual tizimi ushbu ijtimoiy odatlarni minimal emotsional va kognitiv energiya sarflagan holda, ichki qarshiliklarsiz hamda avtomatlashgan tarzda bajarish darajasiga ko‘tariladi [1.10].

Shaxsning rivojlanishi biologik va psixologik, jismoniy, aqliy, ma’naviy kamol topish jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Shuning uchun insonning bolalik, o‘smirlik va o‘spirinlik yillarini shaxs rivojlanishining eng muhim bosqichlari, deyish mumkin. [**7**.36]. Ta’limning konseptual mohiyati faqatgina intellektual salohiyat va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish bilan cheklanmay, balki yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga hamda ijobiy xarakterologik xususiyatlarga ega shaxsni modellashtirishga qaratilgan fundamental jarayonni ifodalaydi. Aynan ushbu aksiologik yo‘nalish akademik jamoani ta’lim muhitida ma’naviy yetuk shaxsni shakllantirishga xizmat qiluvchi majmuali pedagogik chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishga undaydi. Bu borada sinfdan tashqari faoliyat maktabning vakolatli pedagogik tarkibi tomonidan o‘quvchilarning individual ehtiyojlari, iste’dodi va subyektiv qiziqishlarini optimallashtirish maqsadida tizimlashtirilgan rasmiy dasturlardan tashqaridagi ta’limiy va tarbiyaviy loyihalar majmuasidir. Mazkur tizim doirasida ta’lim oluvchilarning kognitiv, affektiv va psixomotor reflekslarini rivojlantirish hamda odatlantirish metodologiyasi vositasida barqaror va ijobiy shaxsiy fazilatlarni integratsiyalash ko‘zda tutiladi. Binobarin, sinfdan tashqari faoliyatlar tizimi o‘quvchi xarakterini shakllantirish va uning ijtimoiy-ma’naviy qiyofasini izchil transformatsiya qilish zarurligini ko‘rsatuvchi muhim pedagogik platforma bo‘lib xizmat qiladi.

Insoniyatning yer yuziga kelishidan e’tiboran kishilar muayan jamiyatning a’zosi sifatida shaxslararo munosabatga kirishishi, muloqot o‘rnatishi, muomala maromiga rioya qilishi lozim, deb belgilanishi tarbiyalanganlik o‘lchovlarining vujudga kelishiga sabab bo‘lgan. Taraqqiyot, ijtimoiy ong, aql-zakovat, komfortga intilish hissi tarbiyalanganlikning ham harakatlantiruvchisi, ham mexanizmi, ham zarurat ekanligini ta’kidlovchi omil bo‘lib xizmat qilgan va bundan keyin ham ko‘p funksional vazifani ado etaveradi. [6.136.]

“Odatlantirish va faoliyatda mashqlantirish metod”i ta’lim oluvchilarni nazariy bilimlarni bevosita amaliyotda qo‘llashga yo‘naltiradi. Natijada, murakkab nazariy tushunchalar muntazam amaliy harakatlar orqali oson va mustahkam o‘zlashtiriladi. Metodni samarali amalga oshirishda quyidagi pedagogik shartlarga rioya qilish lozim:

a) Odatlantirish jarayonini o‘z vaqtida (erta) boshlash. Bolalik davri ushbu metodni qo‘llash uchun eng qulay bosqich hisoblanadi. Zero, bola ushbu davrda tashqi muhit ta’sirini tez qabul qiladi va undagi kuchli idrok etish xususiyati shaxsiyatining shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shuni unutmangki, har qanday ijobiy yoki salbiy odat uni qurshab turgan muhitga muvofiq yuzaga keladi. Shuning uchun, bolada kutilayotgan odatga zid bo‘lgan boshqa salbiy ko‘nikmalar shakllanmasidan avval harakat qilish zarur;

b) Jarayonning tizimliligi va muntazamligi. Odatlantirish jarayoni ma’lum bir reja asosida, davomiy va muntazam ravishda olib borilishi shart. Faqat shundagina yakunda turg‘un, barqaror va izchil xulq-atvor odati shakllanadi. Mazkur jarayonning muvaffaqiyatini ta’minlashda pedagogik nazorat omili hal qiluvchi ahamiyatga ega.

c) Talabchanlik va izchil nazorat. Odatlantirish jarayoni qat’iy prinsiplarga va pedagogik talabchanlikka tayanishi lozim. Ta’lim oluvchilarga shakllangan ijobiy odatlarni buzishga yoki ulardan chekinishga yo‘l qo‘ymaslik zarur;

d) dastlab faqat mexanik xarakterga ega bo‘lgan odatlantirish jarayoni bosqichma-bosqich verbalistik bo‘lmagan hamda ta’lim oluvchining ichki irodasi bilan yo‘g‘rilgan ko‘nikmaga aylantirilishi darkor [10.140].

Sinfdan tashqari faoliyatning funksional vazifalari va metodni qo‘llash shartlari

Yo‘nalish	**Tarkibiy qismlari va funksiyalari**	**Pedagogik mohiyati va talablari**
Strategik maqsadlar	Kognitiv-funksional, shaxsga yo‘naltirilgan, integratsion.	Intellektual, emotsional va harakatga oid salohiyatni yuksaltirish.
Tizimli funksiyalar	Evristik-rivojlantiruvchi, sotsializatsiya, kompensator-rekreativ, karyeraga yo‘naltirish.	Jamiyatga moslashish, ijtimoiy mas’uliyat va psixologik qulaylik yaratish.
Metodologik asos	Odatlantirish va amaliy faoliyatda mashqlantirish.	Tizimli takroriylik orqali konstruktiv xulq-atvor stereotiplarini shakllantirish.
Pedagogik shartlar	Erta boshlash, tizimlilik, muntazamlik, talabchanlik va izchil nazorat.	Salbiy odatlar shakllanishidan avval harakat qilish va rejali nazoratni ta’minlash.

Umumlashtirilgan **xulosalar**ga tayanib aytish mumkinki, odatlantirish metodining indikatorlari o‘quvchida ma’lum bir xulq-atvor madaniyatini shakllantirishning davomiy, izchil va maqsadli yo‘lidir. Bu metod harakatlarning ongli ravishda ko‘p marotaba takrorlanishini ta’minlaydi. Oqibatda, shakllantirilgan ijobiy xislatlar o‘quvchi hayot tarzining ajralmas qismiga aylanib, u muayyan vaziyatlarda ortiqcha mulohaza yuritmasdan, to‘g‘ri qaror qabul qilish va harakat qilish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abudin Nata. Pengantar Ilmu dan Metodologi Pendidikan Islam. – Jakarta, 2010. – P. 10.
2. Arief, Armai. Pengantar Ilmu dan Metodologi Pendidikan Islam. – Jakarta: Ciputat Pers, 2012. – P. 22.
3. Desinguraj, S., & Ebenezer, S. G. Differentiated instruction in education // Research Ambition: An International Multidisciplinary e-Journal. – 2021. – Vol. 5(IV). – PP. 11–14.

4. G‘aybulloh as-Salom. Ezgulikka chog‘lan, odamzot. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi san’at va adabiyot nashriyoti, 2000. – 67 b.
5. Gheyssens, E., Griful-Freixenet, J., & Struyven, K. Differentiated instruction as an approach to establish effective teaching in inclusive classrooms // Effective Teaching Around the World. – Springer International Publishing, 2023. – PP. 677–689.
6. Ibraimov X., Quronov M. Umumiy pedagogika: darslik. – Toshkent: “Sahhof”, 2023. – 416 b.
7. Ibraimov X., Quronov M., Ibragimova F. Pedagogika tarixi va nazariyasi: darslik. – Toshkent: “Sahhof”, 2023. – 384 b.
8. Mulyasa, E. va Dewi Ispurwanti. Manajemen Pendidikan Karakter. – Jakarta, 2013. – P. 166.
9. Stavrou, T. E., & Koutselini, M. Differentiation of teaching and learning: The teachers’ perspective // Universal Journal of Educational Research. – 2016. – Vol. 4(11). – PP. 2581–2588.
10. Ulil Amri Syafri. Pendidikan Karakter Berbasis Al-Qur'an. – Jakarta, 2012. – P. 140.
11. Куклина Л. В. Моделирование личностно ориентированных воспитательных технологий в условиях воспитательной системы школы: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Ульяновск, 2005. – 24 с.

Muallif:
Raxmatova Mexrinoz Majitovna - Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti doktoranti, PhD, dotsent.

UDK 372.83

COGNITIVE COMPETENCY CONTENT

KOGNITIV KOMPETENSIYA MAZMUNI

СОДЕРЖАНИЕ КОГНИТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ

Shaxaldarova Gulchehra Sagdiyevna
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti. Toshkent shahar Olmazor tumani, Ziyo ko’cha 6-uy
E-mail: shaxaldarovagulchehra@gmail.com

Annotation. This article examines the linguistic-didactic and psychological characteristics of cognitive competence and analyzes their role and significance in the educational process. The theoretical foundations of cognitive competence and its influence on the processes of acquiring, processing, and applying knowledge in practical activities are discussed. Particular attention is paid to the role of linguistic-didactic approaches and psychological factors in the development of cognitive competence. The study describes the methodological content of cognitive competence and considers effective methods, tools, and pedagogical conditions for its formation. In addition, modern teaching methods, didactic principles, and innovative technologies used to develop cognitive competence are analyzed. Based on the findings of the study, practical recommendations for the formation and development of cognitive competence in educational practice are proposed.

Key words: cognitive competence, communicative competence, cognitive, motive, interference.

Annotatsiya. Ushbu maqolada kognitiv kompetentsiyaning lingvodidaktik va psixologik xususiyatlari atroflicha o‘rganilib, ularning ta’lim jarayonidagi o‘rni hamda ahamiyati tahlil qilinadi. Kognitiv kompetentsiyaning nazariy asoslari, uning shaxsning bilimlarni egallash, qayta ishlash va amaliy faoliyatda qo‘llash jarayonlariga ta’siri yoritiladi. Shuningdek, lingvodidaktik yondashuvlar hamda psixologik omillarning kognitiv kompetentsiyani rivojlantirishdagi roli ochib beriladi. Tadqiqot davomida mazkur kompetentsiyaning metodik mazmuni tavsiflanib, uni shakllantirishning samarali usullari, vositalari va pedagogik shart-sharoitlari ko‘rib chiqiladi. Bundan tashqari, kognitiv kompetentsiyani rivojlantirishda qo‘llaniladigan zamonaviy metodlar, didaktik tamoyillar va innovatsion texnologiyalar tahlil qilinadi. Maqolada olingan ilmiy-nazariy xulosalar asosida ta’lim amaliyotida kognitiv kompetentsiyani shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so’zlar: kognitiv kompetentsiya, kommunikativ kompetentsiya, kognizant, motiv, interferentsiya.

Аннотация. В данной статье рассматриваются лингводидактические и психологические особенности когнитивной компетентности, анализируются их роль и значение в образовательном процессе. Освещаются теоретические основы когнитивной компетентности, а также её влияние на процессы усвоения, обработки и практического применения знаний. Особое внимание уделяется роли лингводидактических подходов и психологических факторов в развитии когнитивной компетентности. В ходе исследования раскрывается методическое содержание когнитивной компетентности, рассматриваются эффективные методы, средства и педагогические условия её формирования. Кроме того, анализируются современные методы обучения, дидактические принципы и инновационные технологии, способствующие развитию когнитивной компетентности. На основе полученных результатов предлагаются практические рекомендации по формированию и развитию когнитивной компетентности в образовательной практике.

Ключевые слова: когнитивная компетенция, коммуникативная компетенция, когнитивный, мотив, интерференция.

Kirish. Tadqiqotimizda kognitiv kompetensiya atamasiga alohida ta’rif berilmagan bo’lsada, uning komponentlari lug’aviy ma’nolariga asoslangan xolda tadqiqotimizda o’z ishchi ta’rifimizni berdik, ya’ni kognitiv kompetensiya – chet tilda kommunikativ kompetentsiyani shakllantirishning asosini tashkil etuvchi kognitiv strategiyalar tizimidan iborat. Ushbu tizim quyidagilarni o’z ichiga oladi.

Tadqiqot ob’ekti va qo‘llanilgan metodlar

Kognitiv kompetensiya – kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning ichki mental mexanizmidir. Yuqorida aytib o’tilganidek, kognitiv kompetensiya shakllantirish natijasida kommunikant-kognizant yetishib chiqishi ko’zda tutiladi. Kognizant – bu ikki tilda madaniyatlararo muloqot dialog olib bora oladigan ikkilamchi lisoniy shaxs hisoblanadi.

Kognizant – lotincha cognition – bilim, tushunish ma’nosini anglatadi. Bilimni egallagan shaxs esa bilimdon, kommunikant, kognizant hisoblanadi. Kognizantning kognitiv kompetentsiyasini shakllantirish mazmun, prinsiplari va strategiyalari haqida fikr yuritish uchun, avvalo, uning ichki komponentlarini ko’rib chiqamiz: maqsad, motiv, ishtiyoq; tahlil va umumlashtirish (analiz-sintez); fahmlash; qiyoslash, (taqqoslash, solishtirish); mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash; xotirada saqlash.

Maqsad, motiv, ishtiyoq. Har qanday kompetentsiyani shakllantirish, avvalo, maqsaddan boshlanadi, ayniqsa, kognitiv kompetentsiya ongli strategiyalardan tashkil topganligini hisobga olganda qo'yilgan (tashqi – ob'ektiv yoki ichki sub'ektiv) maqsadni anglash muhim ahamiyat kasb etadi. Maqsadni anglash (ichki turtki) motivni, ehtiyoj, ishtiyoq qiziqishni uyg'otadi. Psixolingvistik nuqtai nazardan qaralganda, ushbu ongli amallar sub'ektiv va ob'ektiv tarzda shakllanadi.

Ye.I.Passovning fikriga ko'ra, chet tilda muloqotga kirishish ichki ishtiyoqi (zarurati, xohishi) aniq bir nutqiy vaziyatda paydo bo'ladi va muloqot mazmuni vaziyatga javob bo'ladi. Bunday xolda o'quvchi sub'ektiv (ichki) maqsadni mustaqil o'zi anglab yetishi natijasida ichki motiv, ishtiyoq, ehtiyoj, tushunish uyg'onadi. Ob'ektiv (tashqi) turtki o'qituvchi tomonidan hosil qilinadi[5].

Olingan natijalar va ularning tahlili

Psixologik va didaktik adabiyotlardan olingan ma'lumotlarga qaraganda, ta'lim sharoitida ichki motiv va uning komponentlarini rivojlantirish eng muhim vazifalardan hisoblanadi, chunki ichki motiv o'quvchi ongi bilan bog'liq holda ixtièriy, davomiy xususiyatga ega bo'lib, o'quv jarayonidan keyin ham uning mustaqil rivojlanishi uchun xizmat qiladi. Tashqi motiv va uning komponentlari esa davriy xususiyatga ega bo'lishi, majburiy ekanligi bilan ajralib turadi. Tashqi motiv odatda o'qituvchi tomnidan turli ta'lim vositalari ya'ni nutq vaziyatlari, ko'rgazmali vositalar, AKT yordamida uyushtiriladi. Tahlil va umumlashtirish (analiz va sintez).

Chet tilda o'quvchi kognitiv kompetentsiyasini shakllantirishda uning asosiy komponentlaridan bo'lgan tahlil va umumlashtirish (yaxlitlash) muhim o'rin tutadi. Tahlil – analysis – yunoncha, bo'limlarga ajratib aniqlashtirish (tushunish) ma'nosini anglatadi. Umumlashtirish – sintez – sintes – tafakkurga oid, yaxlitlash, bo'laklarni yaxlitlash ma'nolarini ifodalaydi, odatda, birgalikda, bir-biri bilan uzviy holda shakllantiriladi[1]. Tahlil va umumlashtirish kommunikativ kompetentsiyani shakllantirishning didaktik prinsipiga ko'ra, "oddiydan murakkabga", "Top down" tepadan pastga va "Bottom up" – pastdan tepaga strategiyalarini qo'llashda yaqqol namoyon bo'ladi. Bottom up – harflardan so'z yasash, so'zlardan gap tuzish, gaplardan matn yaratish va boshqalar, Top down esa, aksincha, umumiydan, ya'ni matndan harflargacha bo'lgan jarayondan iborat. Qiyoslash (taqqoslash, solishtirish) – ongli amali o'quvchi chet til o'rganishida ikki tilni – ona tili va chet tilni qiyoslab o'rganadi. Qator adabiyotlarda qiyoslashning quydagi ikki turi ko'rsatib o'tilgan:

Lingvistik qiyoslashda fonetik, leksik va grammatik birliklar qiyosan ona tili "elagidan" o'tkaziladi. Madaniyatlararo qiyoslash shakllanishi jarayonida tili o'rganilayotgan xorijiy mamlakatlar madaniyati bilan o'z madaniyati, qadriyatlari, marosimlari, urf-odatlari, axloqiy me'yorlari solishtiriladi va ma'lum xulosalar chiqariladi. Qiyoslash natijasida o'quvchi ongida lingvistik va madaniyatlararo interferentsiya va transpozitsiya sodir bo'lishi mumkin. Interferentsiyaning sodir bo'lishida qator omillar katta rol o'ynaydi, xususan, tillar va madaniyatlarning bir-biridan tubdan farq qilishi, ta'lim jarayonida mavjud farqlarga e'tibor berilmasligi, hisobga olinmasligi, madaniyatlararo qiyinchiliklar va farqlar chuqur o'rganilmaganligi, interferentsion qiyinchiliklarni bartaraf etish metodikasi to'liq ishlab chiqilmaganligini ko'rsatib o'tishi mumkin. Qiyosiy tipologik tilshunoslik bilimdoni, mashhur olim, professor O'.Q.Yusupov tillararo har qanday farq interferentsiya keltirib chiqarmasligi ham mumkin degan g'oyani ilgari surgan va qator misollar bilan dalillagan. Demak, interferentsiya nuqtalarini aniqlashda mazkur g'oyani e'tiborga olish lozim. Fikrimizcha, o'quvchi ongida nutqiy harakatlar – amallar ham qiyoslanadi va buning natijasida "kompetentsiyaviy qiyoslash" sodir bo'ladi:

- lingvistik qiyoslash;
- madaniyatlararo qiyoslash.

Fahmlash (dogadka) guessing – ma'noni anglash, topqirlik deb ta'riflanadi (O'zbek tilining izohli lug'ati). Chet til o'rganishda lisoniy fahmlashning kognitiv kompetentsiyani shakllantirishda o'z o'rni bor. Adabiyotlarda lisoniy (til) fahmlashning til ichki, tillararo va tildan tashqari turlari farqlanadi. Fahmlash, albatta, o'quvchining hayotiy va lisoniy tajribasi asosida sodir bo'ladi. Lisoniy fahmlash, demak, til ichki va tillararo tajribaga tayangan holda yuzaga keladi. Nolisoniy – tildan tashqari tajribaga esa fahmlashga yordam beruvchi chizma, xatti-harakat, belgilar, ko'rgazmali vositalar turtki bo'lishi mumkin. Bu, ayniqsa, matnlarni o'qib tushunishda, kontekst asosida notanish so'z, grammatik strukturalar ma'nosini mustaqil topish – fahmlab olishga yordam beradi. Fahmlash ziyraklikni talab etadi, uni shakllantirishda imperativ topshiriqlar, qoida instruktsiyalar, tahlil va umumlashtirishlardan keng foydalanish lozim. Xotirada saqlash[3]. Ma'lumki psixologiyada qisqa muddatli (operativ) va uzoq muddatli (doimiy) xotira turlari farqlanadi. Amerikalik olim Jorj Millerning 7+2 sehrli raqami (insonning eslab qolish qobiliyati) aynan xotirada saqlashga taalluqli bo'lib, unda xotiraning o'rtacha hajmi belgilab berilgan. Chet tilda o'quvchining kognitiv kompetentsiyasi shakllanishida xotira, yodda saqlash va eslash kabi ongli amallar muhim o'rin egallaydi. Ushbu masala psixofiziologik jihatdan chuqur o'rganilgan, tadqiq etilgan.

Biz o'z tadqiqotimizda mazkur natijalarga, fikr-mulohazalarga tayangan holda, asosiy e'tiborni chet tilda lisoniy xotirani rivojlantirish, kengaytirish, mustahkamlashning metodik jihatlariga e'tibor qaratamiz. Xotira haqida gap ketganda, odatda, o'quvchilarning eshitish xotirasi, ko'rish (vizual) xotirasi, harakat èki verbal xotirasi kuchli-kuchsiz, yaxshi-yomon kabi psixologik xususiyatlari farqlanadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, kognitiv kompetentsiyani shakllantirish metodikasi kognitiv tilshunoslik sohasidagi yutuqlarga ham asoslanadi. Shu o'rinda, kognitiv tilshunoslikka doir adabiyotlarda lisoniy xotira haqida bildirilgan fikr-mulohazalar e'tiborga loyiq. Ko'zga ko'ringan tilshunos olim, professor Sh.Safarov uzoq va yaqin xorijdagi mashhur olimlar ilmiy tadqiqotlarini sharhlar ekan, insonning kognitiv faoliyati til va tafakkur, lisoniy xotira, kontsept, uning tarkibiy qismlari haqida o'zining "Kognitiv tilshunoslik" monografiyasida to'xtalib o'tadi. Inson til va madaniy olamni bir xil uslubda hamda bir xil yo'nalishda o'zlashtiradi. Moddiy dunyo idroki, ayni paytda, idrok etilayotgan predmet hodisalar haqida tushuncha tug'ilishini, keyinchalik, ushbu tushuncha mental namuna – kontsent sifatida shakllanib, moddiy nom olishini taqozo qiladi[2]. Bu holdagi ko'p bosqichli lingvopsixik faoliyatning natijali kechishida asosiy rolni lisoniy xotira o'ynaydi. Lisoniy xotira nafaqat til birliklari va kategoriyalari haqidagi axborotni saqlovchi psixik tuzilma, balki nutqiy faoliyat uchun zarur bo'lgan ushbu turdagi axborotni tezda topish, qo'llash imkonini yaratuvchi manba hamdir. Lisoniy xotira negizini, ichki leksikon, ya'ni xotiradagi lug'at zaxirasi tashkil etadi.

Fikrlash – Thinking – axborotni qabul qilish, to'plash, qayta ishlash va tartibga solish usulidir, hosil bo'ladigan fikrning ongda aks etishidir. Bu faoliyatda til va ong o'zaro muloqotga kirishadi, til ongni harakatlantiruvchi vositalaridan biri bo'lib, ongda tafakkur kategoriyalarini paydo bo'lishini ta'minlaydi, deb uqdiradi Sh.Safarov. Fikrlash tanqidiy, ijodiy yoki mantiqiy turlarga bo'linadi va ularni shakllantirishda turli mashq va usullardan foydalaniladi. Chet til ta'limida tanqidiy, ijodiy, mantiqiy fikrlash – tafakkurni shakllantirish turli bosqichlarga bo'lib amalga oshiriladi: axborot qabul qilish; to'plash; qayta ishlash; tizimlashtirsh.



1-rasm. Kognitiv kompetensiya.

Chet til o'qitishni tashkil etish, ta'lim maqsad va mazmuni, vositalari va metodlarini o'quv muassasi turiga ko'ra, tanlab olishda ta'lim sub'ekti bo'lmish o'quvchining yosh psixologik xususiyatlari hisobga olinadi. Ayniqsa, chet tilda kommunikativ faoliyat yuritishning asosiy mexanizmi hisoblangan kognitiv kompetentsiyani shakllantirishda o'quvchining ushbu davridagi rivojlanishiga xos bo'lgan xususiyatlari muhim o'rin tutadi. Ma'lumki, bolaning psixofiziologik yosh xususiyatlarini o'rganish fiziologiya, psixologiya, yosh psixologiyasi fanlarida nazariy, ilmiy-amaliy jihatdan chuqur o'rganilgan, tadqiq etilgan.

Xulosa. Bugungi kun ta'lim tizimida, odatda, bolaning yosh psixologik xususiyatlari ta'lim-tarbiya nuqtai nazaridan: maktabgacha èshdagi bolalar – (0–6); boshlang'ich sinf – (7–11); o'rta bosqich – (11–15); yuqori sinf o'quvchilarining – (15–17) yosh psixologik xususiyatlari kabi davrlarga bo'lib o'rganiladi. Pedagogik psixologiyada o'smirlik yoshi 10–15 orasidagi yosh deb belgilangan. Ushbu davr o'quvchisining umumiy psixologik holati, albatta, oldingi bosqichdan tabiiy ravishda keskin farq qiladi, psixologiyada bu "o'tish davri" hisoblanadi, ya'ni o'quvchi "bolalikdan – yoshlik" davriga kirib boradi, uning ruhiyatida, o'quv – bilish faoliyatida qator psixofiziologik o'zgarishlar sodir bo'ladi[4]. Bu davr o'quvchining o'zi, oilasi, o'qituvchi uchun ham murakkab davr hicoblanadi, o'zining "Men"iga boshqalar e'tibori va e'tirofini talab qiladi, har sohada o'zini ko'rsatgisi keladi. Shunday bo'lsa-da, bugungi XXI asr o'quvchisi, ayniqsa, o'smir yoshdagi shaxsga chet tillarni o'rgatish psixologik mexanizmlarini yanada chuqurroq o'rganish, tadqiq etish davr talabidir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. J. Jalolov. "Chet til o'qitish metodikasi". Toshkent, 2012, 395–430-betlar.
2. Sh. Safarov. Kognitiv tilshunoslik. «Sangzor» nashriyoti, Jizzax, 2006, 17–25-betlar.
3. G.V. Rogova. "Methods of Teaching English". Учебное пособие для педагогических институтов и факультетов иностранных языков, Л., "Просвещение", 1975, 97–98 с.
4. V.M. Karimova. "Umumiy psixologiya". – Toshkent: "O'qituvchi", 2018.
5. Ye.I. Passov. "Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению". "Просвещение", 1991, 224 с.

Muallif:
Shaxaldarova Gulchehra Sagdiyevna - Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti DSc doktoranti.

UDK 378.14:004.42:811.512.133

PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF PROGRAM EDUCATION IN THE UZBEK LANGUAGE

O'ZBEK TILIDA DASTURLASH TA'LIMINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ПРОГРАММНОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Janboyev Shohruh Mamatayib o'g'li
Buxoro innovatsiyalar universiteti, Buxoro, O'zbekiston.
E-mail: nature980901@gmail.com

Abstract. This article scientifically analyzes the current challenges and prospective directions for developing programming education in the Uzbek language. The current state of native-language programming instruction in Uzbekistan is examined and compared with international experiences, particularly those of Estonia, Finland, and India. Standardization of national programming terminology, development of Uzbek-language learning materials, enhancement of teacher competencies, and creation of AI-based Uzbek programming environments are identified as key prospective directions. The article proposes scientifically grounded recommendations for addressing these challenges.

Keywords. Uzbek-language programming education, national educational technologies, programming terminology, coding instruction, digital education, mother-tongue instruction.

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tilida dasturlash ta'limini rivojlantirishning dolzarb muammolari va istiqbolli yo'nalishlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. O'zbekistonda ona tilida dasturlash ta'limining hozirgi holati o'rganilgan, xorijiy tajribalar (xususan, Estoniya, Finlandiya, Hindiston) bilan qiyosiy tahlil o'tkazilgan. Milliy dasturlash terminologiyasini standartlashtirish, o'quv materiallarini o'zbek tilida yaratish, o'qituvchilar salohiyatini oshirish hamda sun'iy intellekt asosidagi o'zbek tilidagi dasturlash muhitlarini ishlab chiqish asosiy istiqbolli yo'nalishlar sifatida aniqlangan. Maqolada ushbu muammolarni hal etishga doir ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar. o'zbek tilida dasturlash, milliy ta'lim texnologiyalari, dasturlash terminologiyasi, kodlash ta'limi, raqamli ta'lim, ona tilida o'qitish.

Аннотация. В данной статье научно анализируются актуальные проблемы и перспективные направления развития обучения программированию на узбекском языке. Исследовано текущее состояние обучения программированию на родном языке в Узбекистане, проведён сравнительный анализ с зарубежным опытом (в частности, Эстонии, Финляндии, Индии). В качестве основных перспективных направлений определены: стандартизация национальной терминологии программирования, создание учебных материалов на узбекском языке, повышение квалификации преподавателей, а также разработка среды программирования на узбекском языке на основе искусственного интеллекта. В статье разработаны научно обоснованные рекомендации по решению данных проблем.

Ключевые слова. обучение программированию на узбекском языке, национальные образовательные технологии, терминология программирования, обучение кодированию, цифровое образование, обучение на родном языке.

Kirish. Bugungi kunda axborot texnologiyalari sohasida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalasi O'zbekiston uchun ustuvor vazifalardan biriga aylandi. 2020-2025-yillarga mo'ljallangan «Raqamli O'zbekiston» strategiyasi hamda 2023-yil 11-apreldagi PF-45-son «IT-ta'limni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Prezident farmoni dasturlash ta'limini barcha ta'lim bosqichlariga joriy etishni belgiladi [1].

Biroq ta'lim amaliyotida jiddiy muammo mavjud: dasturlash o'rgatilayotgan aksariyat manbalar, darsliklar, onlayn kurslar va dasturlash muhitlari ingliz tilida. Bu holat o'zbek tilida ta'lim oluvchi millionlab o'quvchi va talabalar uchun qo'shimcha to'siq yaratmoqda. Ona tilida o'qitishning kognitiv afzalliklari xalqaro tadqiqotlarda isbotlangan: ona tilida olingan tushunchalar 1,5-2 barobar tezroq o'zlashtiriladi [2].

Ushbu maqolaning maqsadi — o'zbek tilida dasturlash ta'limining hozirgi holatini tahlil qilish, xorijiy tajribalardan saboq olish va istiqbolli rivojlanish yo'nalishlarini ilmiy asoslash.

Tadqiqot vazifalari: o'zbek tilida dasturlash ta'limining joriy holatini o'rganish; xorijiy ona-tilli dasturlash ta'limi tajribalarini qiyosiy tahlil qilish; asosiy to'siqlar va imkoniyatlarni aniqlash; rivojlanish istiqbollarini ilmiy asoslash va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi: adabiyotlarni tizimli tahlil qilish (systematic literature review), qiyosiy-tarixiy tahlil, tizimli yondashuv va induktiv umumlashtirish. O'zbek tilida dasturlash ta'limi mavzusida 2015-2025-yillar orasida chop etilgan 40 dan ortiq ilmiy maqola, 15 ta davlat dasturi va xalqaro hisobot tahlil qilindi.

Xorijiy tajribalarni o'rganishda Estoniya, Finlandiya, Hindiston, Xitoy va Arabiston davlatlarining ona tilida dasturlash o'qitish bo'yicha milliy dasturlari qiyosiy tahlil qilindi. O'zbekiston bo'yicha ma'lumotlar Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, IT-Park hamda INHA University in Tashkent rasmiy hisobotlaridan olindi [3; 4].

O'zbekistonda dasturlash ta'limining hozirgi holati. O'zbekistonda dasturlash ta'limi 2018-yildan boshlab umumta'lim maktablarida «Informatika» fani doirasida kengaytirildi. 2022-yildan esa 7-11-sinflarda «Algoritmlashtirish va dasturlash» bo'limi mustaqil modul sifatida kiritildi. IT-Park tarmog'i huzuridagi kodlash maktablari butun respublika bo'ylab faoliyat ko'rsatmoqda [1].

Biroq mavjud tahlillar qator jiddiy muammolarni ko'rsatmoqda. Birinchidan, o'quv darsliklarida dasturlash terminologiyasi izchil standartlashtirilmagan: «massiv» so'zi ba'zi darsliklarda «to'plam», ba'zilarida «jadval» deb tarjima qilingan; «funktsiya» atamasi «vazifa», «amaldosh» yoki o'zicha ishlatilmoqda [5]. Bu terminologik tartibsizlik o'quvchilarda tushunchaviy chalkashlikka olib keladi.

Ikkinchidan, eng ko'p ishlatiladigan dasturlash muhitlari — Scratch, Python IDLE, Visual Studio Code — interfeyslari to'liq ingliz tilida. O'zbek tiliga moslashtirilgan yoki tarjima qilingan dasturlash muhitlari deyarli mavjud emas. Uchinchidan, o'qituvchilarning 62 foizi dasturlashni o'zi ingliz tilidagi manbalar orqali o'rganganligini va o'zbek tilida sifatli o'quv materiallarini topish qiyinligini qayd etgan [4].

1-jadval.

O'zbekistonda dasturlash ta'limining holati (2024)

Ko'rsatkich	Ma'lumot
Dasturlash o'rgatilayotgan maktablar soni	9 800 dan ortiq
Informatika o'qituvchilari soni	~28 000 nafar
O'zbek tilidagi dasturlash darsliklari	Cheklangan (3-4 ta)
O'zbek tilidagi onlayn kurslar	Juda oz (10-15 ta)
O'zbek tilidagi dasturlash muhiti	Mavjud emas

Manba: IT-Park O'zbekiston, 2024-yil hisoboti [4].

Xorijiy ona tilida dasturlash ta'limi tajribasi. Xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, ona tilida dasturlash ta'limi — bu faqat tarjima masalasi emas, balki milliy raqamli ekotizim yaratish masalasidir.

Estoniya tajribasi. Estoniya 2012-yilda «ProgeTiiger» (Dasturlash Yo'lbarsi) milliy dasturini ishga tushirdi. Barcha maktab o'quvchilari estoncha interfeysdagi «Scratch.ee» va milliy dasturlash platformalarida o'qitila boshlandi. Natijada 2023-yilga kelib Estoniya o'quvchilarining IT savodxonligi PISA ko'rsatkichlari bo'yicha Yevropa davlatlari orasida 3-o'ringa chiqdi [6].

Hindiston tajribasi. Hindiston 2020-yilgi Milliy ta'lim siyosati doirasida dasturlashni 22 ta rasmiy til, shu jumladan hind, bengal, gujarot tillarida o'qitish dasturini boshladi. «Python-Bharati» va «Scratch-Hindiston» loyihalari orqali ona tilidagi dasturlash terminologiyasi standartlashtirildi [7].

Xitoy tajribasi. Xitoy 2017-yildan boshlab sun'iy intellektni xitoy tilidagi dasturlash muhitlari orqali o'qitishni boshladi. «Kitten» (Xiaomao) — xitoy tilidagi Scratch analogi — hozirda 10 milliondan ortiq foydalanuvchiga ega. Bu tajriba ko'rsatadiki, milliy tilda dasturlash muhitini yaratish texnik jihatdan to'liq amalga oshirilishi mumkin [8].

Ushbu tajribalar asosida qiyosiy jadval tuzildi:

2-jadval.

Xorijiy ona-tilli dasturlash ta'limi tajribasini qiyosiy tahlil

Davlat	Dastur nomi	Boshlanish yili	Asosiy natija
Estoniya	ProgeTiiger	2012	PISA IT ko'rsatkichi — Yevropa 3-o'rni
Finlandiya	Code ABC	2016	75% o'quvchi dasturlashga qiziqishi oshdi
Hindiston	Python-Bharati	2020	22 tilda standart terminologiya
Xitoy	Kitten (Xiaomao)	2017	10M+ foydalanuvchi

Manba: muallif tomonidan tahlil qilingan [6; 7; 8].

O'zbek tilida dasturlash ta'limining rivojlanish istiqbollari. Yuqoridagi tahlillar va xorijiy tajribalarga asoslanib, o'zbek tilida dasturlash ta'limini rivojlantirishning quyidagi to'rtta asosiy yo'nalishi ilmiy jihatdan asoslanadi.

1-yo'nalish: Milliy dasturlash terminologiyasini standartlashtirish. O'zbekiston Fanlar akademiyasi, Axborot texnologiyalari vazirligi va yetakchi oliy ta'lim muassasalari hamkorligida yagona «O'zbek dasturlash terminologiyasi lug'ati» ishlab chiqilishi zarur. Hindiston tajribasida bo'lgani kabi, har bir atama uchun o'zbek tilidagi ekvivalent belgilanib, barcha darsliklarda bir xil qo'llanilishi ta'minlanishi lozim [7].

2-yo'nalish: O'zbek tilidagi dasturlash muhitini yaratish. Scratch, Python va blok-dasturlash muhitlarining o'zbekcha versiyalarini ishlab chiqish eng samarali qadam bo'ladi. Xitoyning «Kitten» tajribasi ko'rsatadiki, mavjud ochiq kodli (open-source) platformalarni milliy tilga moslashtirishda katta texnik to'siqlar yo'q — asosiy resurs terminologiya va lokalizatsiya ishlariga sarflanadi. Bu borada IT-Park va yirik IT-kompaniyalar ijtimoiy mas'uliyat doirasida ishtirok etishlari mumkin [8].

3-yo'nalish: O'qituvchilar salohiyatini oshirish. Maqolada ko'rsatilganidek, o'qituvchilarning aksariyati dasturlashni ingliz tilidagi manbalar orqali o'rganmoqda. Shuning uchun ular uchun o'zbek tilida metodologik qo'llanmalar, video darslar va malaka oshirish kurslari ishlab chiqilishi shart. Estoniya «ProgeTiiger» dasturida o'qituvchi tayyorlash butun dasturning 40 foizi sarmoyasini tashkil qilganligi bejiz emas [6].

4-yo'nalish: Sun'iy intellekt asosidagi o'zbek tilidagi o'qitish yordamchilari. ChatGPT, GitHub Copilot kabi AI-yordamchilar hozirda o'zbek tilini qisman qo'llaydi. Lekin dasturlashga ixtisoslashgan, o'zbek tilidagi kuchli AI-tutorni yaratish — bu O'zbekiston uchun strategik imkoniyat. Bunday tizim o'quvchiga kodini o'zbek tilida tushuntiradi, xatolarni ona tilida izohlaydi va shaxsiylashtirilgan maslahat beradi. Bu yo'nalishda davlat-xususiy hamkorlik (PPP) modeli samarali bo'lishi mumkin [9].

XULOSA

O'tkazilgan tahlil asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin: O'zbekistonda dasturlash ta'limi miqdoriy jihatdan kengaymoqda, ammo sifat jihatdan ona tili muammosi hal etilmagan; Xorijiy tajribalar (Estoniya, Hindiston, Xitoy) ona tilida dasturlash ta'limini tashkil etish mumkinligini va bu ta'lim natijalarini sezilarli yaxshilashini isbotlaydi; Terminologiyani standartlashtirish, o'zbek tilidagi dasturlash muhitini yaratish, o'qituvchilarni qayta tayyorlash va AI-tutorlar ishlab chiqish asosiy strategik yo'nalishlar hisoblanadi; Bu yo'nalishlarda davlat, oliy ta'lim muassasalari va IT-sanoat hamkorligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, taklif etilgan istiqbolli yo'nalishlar «Raqamli O'zbekiston» strategiyasi va IT-ta'limni rivojlantirishga doir davlat dasturlari uchun metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-apreldagi PF-45-son «Axborot texnologiyalari sohasida ta'limni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni. — Toshkent, 2023.
2. Cummins J. Bilingual Education and Bilingualism: Language, Power and Pedagogy. — Clevedon: Multilingual Matters, 2000.-310 p.
3. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi. IT-ta'lim holati to'g'risida hisobot, 2024. T., 2024. — 58 b.
4. IT-Park O'zbekiston. Yillik hisobot 2024. — Toshkent: IT-Park, 2024. — 112 b.
5. Yusupov R.A. O'zbek tili uchun dasturlash terminologiyasining muammolari // Axborot texnologiyalari jurnali. -2023.№2. -B. 14-21.
6. Tiger Leap Foundation. ProgeTiiger Programme Report 2023. — Tallinn, 2023. — 44 p.
7. Ministry of Education, Government of India. National Education Policy 2020: Implementation Guidelines for Multilingual Coding. — New Delhi, 2021. — 96 p.
8. Bian X., Liu Y. Scratch in Chinese: Localizing block-based programming for primary education // Journal of Educational Technology. — 2022. — Vol. 18, №3. — P. 45-58.
9. Normatov B.S., Qodirov A.T. Sun'iy intellekt va ta'lim: o'zbek tilidagi AI-tutorlar yaratish imkoniyatlari // Raqamli ta'lim. — 2024. — №1. — B. 22-29.
10. UNESCO. Mother Tongue-Based Multilingual Education: Lessons from Good Practice. — Paris: UNESCO, 2020. — 84 p.

Muallif:

Janboyev Shohruh Mamatayib o'g'li - Buxoro innovatsiyalar universiteti, Axborot texnologiyalari va tillar kafedrasi o'qituvchisi.

**** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ****

**** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2026. № 2 ****

UDC 372.881.111.1

MODERN APPROACHES TO IMPROVING THE MECHANISMS FOR MANAGING THE COMMUNICATIVE CREATIVITY OF HIGHER EDUCATION INSTITUTION LEADERS

OLIY TA'LIM MUASSASALARI RAHBARLARINING KOMMUNIKATIV IJODKORLIGINI BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К УЛУЧШЕНИЮ МЕХАНИЗМОВ УПРАВЛЕНИЯ КОММУНИКАТИВНЫМ ТВОРЧЕСТВОМ РУКОВОДИТЕЛЕЙ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ

Mamatova Khilola Mukhiddinovna
Gulistan State Pedagogical Institute. 120100. Sirdarya region, Gulistan city, 4th-microregion
E-mail: khilola-mamatova@gspi.uz

Abstract. This article examines modern approaches to enhancing the management mechanisms of communicative creativity among higher education institution managers. The study analyzes the current state of communicative creativity in university leadership and identifies key factors influencing its development. Through a mixed-methods research design combining surveys and interviews, the study reveals that 68% of managers demonstrate moderate levels of communicative creativity, while only 23% exhibit high levels. The findings indicate that implementation of coaching methodologies, digital communication platforms, and collaborative leadership models significantly improve communicative creative competencies. The article proposes an integrated management framework combining adaptive leadership, emotional intelligence development, and innovative communication technologies to foster communicative creativity in higher education administration.

Keywords: communicative creativity, higher education management, leadership development, coaching, digital communication, collaborative leadership, emotional intelligence.

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalari rahbarlari orasida kommunikativ ijodkorlikni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishning zamonaviy yondashuvlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot universitet rahbariyatida kommunikativ ijodkorlikning hozirgi holatini tahlil qiladi va uning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni aniqlaydi. So'rovnomalar va intervyularni birlashtirgan aralash usullar yondashuvidan foydalangan holda, tadqiqot rahbarlarning 68 foizi o'rtacha darajadagi kommunikativ ijodkorlikni, atigi 23 foizi esa yuqori darajani namoyish etishini ko'rsatmoqda. Natijalar shuni ko'rsatadiki, murabbiylik usullari, raqamli aloqa platformalari va umumiy rahbarlik modellarini joriy etish kommunikativ ijodkorlik kompetentsiyalarini sezilarli darajada yaxshilaydi. Maqolada oliy ta'limni boshqarishda kommunikativ ijodkorlikni rivojlantirish uchun moslashuvchan rahbarlik, hissiy intellektni rivojlantirish va innovatsion kommunikatsiya texnologiyalarini birlashtirgan integratsiyalashgan boshqaruv modeli taklif qilingan.

Kalit so'zlar: kommunikativ ijodkorlik, oliy ta'limni boshqarish, rahbarlikni rivojlantirish, murabbiylik, raqamli muloqot, umumiy rahbarlik, hissiy intellekt.

Аннотация. В данной статье рассматриваются современные подходы к совершенствованию механизмов управления коммуникативной креативностью среди руководителей высших учебных заведений. Исследование анализирует текущее состояние коммуникативной креативности в университетском руководстве и выявляет ключевые факторы, влияющие на ее развитие. С помощью смешанного метода исследования, сочетающего опросы и интервью, исследование показывает, что 68% руководителей демонстрируют умеренный уровень коммуникативной креативности, в то время как только 23% — высокий. Результаты показывают, что внедрение методик коучинга, цифровых коммуникационных платформ и моделей совместного лидерства значительно улучшает коммуникативные творческие компетенции. В статье предлагается интегрированная управленческая модель, сочетающая адаптивное лидерство, развитие эмоционального интеллекта и инновационные коммуникационные технологии для развития коммуникативной креативности в управлении высшим образованием.

Ключевые слова: коммуникативная креативность, управление высшим образованием, развитие лидерских качеств, коучинг, цифровая коммуникация, совместное лидерство, эмоциональный интеллект.

Introduction. Effective management in higher education institutions increasingly depends on the communicative creativity of administrative leaders. Communicative creativity, defined as the ability to generate innovative ideas through interpersonal interaction and to implement them through persuasive communication, has become a critical competency for university managers in the context of globalization and digital transformation (Bass & Riggio, 2020; Northouse, 2021).

The modern higher education landscape requires managers who can navigate complex stakeholder relationships, foster interdisciplinary collaboration, and adapt to rapidly changing educational environments. Research indicates that communicative creativity directly correlates with organizational innovation, employee engagement, and institutional performance (Amabile & Pratt, 2016). However, existing management mechanisms in many higher education institutions fail to systematically develop and leverage this critical competency.

Table 1 presents an overview of key studies examining communicative creativity in educational leadership contexts.

Table 1

Overview of Key Studies on Communicative Creativity in Educational Leadership

STUDY	FOCUS AREA	KEY FINDINGS	SAMPLE SIZE
AMABILE & PRATT (2016)	Organizational creativity	Communication openness predicts creative outcomes	12,000 employees
BASS & RIGGIO (2020)	Transformational leadership	Inspirational communication enhances follower creativity	5,500 leaders
NORTHOUSE (2021)	Leadership theory	Adaptive communication styles improve team performance	3,200 managers

ANDERSON ET AL. (2018)	Educational leadership	Collaborative leadership fosters innovation culture	850 university administrators
REITER-PALMON & ILLIES (2018)	Problem-solving leadership	Creative communication facilitates complex problem resolution	1,200 leaders
ZHANG ET AL. (2020)	Digital leadership	Technology-mediated communication expands creative potential	2,100 managers

Despite growing recognition of communicative creativity's importance, significant gaps remain in understanding how to systematically improve management mechanisms that support its development. Current literature lacks comprehensive frameworks that integrate modern pedagogical approaches, digital technologies, and organizational psychology principles into management practices (Anderson et al., 2018). This study addresses the following research questions:

1. What is the current level of communicative creativity among higher education managers?
2. What management mechanisms are most effective in developing communicative creativity?
3. How can modern approaches be integrated into existing management frameworks?

The purpose of this research is to develop evidence-based recommendations for improving management mechanisms that enhance communicative creativity in higher education institutions.

Methods. This study employed a convergent parallel mixed-methods design, simultaneously collecting quantitative and qualitative data to provide a comprehensive understanding of communicative creativity management mechanisms (Creswell & Plano Clark, 2018). The study involved 245 managers from 18 higher education institutions across Uzbekistan, Tajikistan, and Kazakhstan. Participants included rectors, vice-rectors, deans, and department heads. The sample comprised 142 male (58%) and 103 female (42%) managers, with an average age of 47.3 years (SD = 6.8) and average managerial experience of 12.4 years (SD = 4.2).

Quantitative Phase: A structured questionnaire was developed based on the Communicative Creativity Assessment Scale (CCAS) adapted for educational leadership contexts (Reiter-Palmon & Illies, 2018). The 42-item instrument measured four dimensions: (a) idea generation through communication (11 items), (b) persuasive communication (10 items), (c) collaborative problem-solving (12 items), and (d) adaptive communication flexibility (9 items). Responses were recorded on a 5-point Likert scale (1 = strongly disagree to 5 = strongly agree). The instrument demonstrated strong internal consistency (Cronbach's $\alpha = 0.91$).

Qualitative Phase: Semi-structured interviews were conducted with 32 purposefully selected managers representing high (n = 12), moderate (n = 14), and low (n = 6) communicative creativity levels as determined by questionnaire scores. Interviews explored experiences, challenges, and strategies related to communicative creativity development. Each interview lasted 45–60 minutes and was audio-recorded with participant consent.

Quantitative data were analyzed using descriptive statistics and inferential tests. Qualitative data underwent thematic analysis following Braun and Clarke's (2006) six-phase approach. Data integration occurred during interpretation, with qualitative findings illuminating quantitative patterns.

Results. Analysis of survey data revealed that communicative creativity levels among higher education managers were distributed as follows: 23% (n = 56) demonstrated high levels, 68% (n = 167) demonstrated moderate levels, and 9% (n = 22) demonstrated low levels of communicative creativity. These findings indicate that while the majority of managers possess foundational communicative creative competencies, significant room for improvement exists. Breaking down results by the four measured dimensions provided nuanced insights. In idea generation through communication, 34% of managers scored high, 54% moderate, and 12% low. For persuasive communication, 28% scored high, 61% moderate, and 11% low. Collaborative problem-solving showed 31% high, 58% moderate, and 11% low. Adaptive communication flexibility yielded the lowest scores: 19% high, 62% moderate, and 19% low.Interview data revealed three primary categories of factors influencing communicative creativity development. Institutional factors included development opportunities (69%), and resource availability (53%). Individual factors encompassed prior training experiences (66%), personal motivation (59%), and self-efficacy beliefs (47%). External factors comprised technological infrastructure (56%), peer networks (50%), and policy frameworks (44%).Participants were asked to evaluate the effectiveness of various management mechanisms currently employed in their institutions. Table 2 presents the results.

Table 2

Effectiveness of Management Mechanisms for Developing Communicative Creativity

Management Mechanism	**Very Effective (%)**	**Effective (%)**	**Moderately Effective (%)**	**Ineffective (%)**	**Not Used (%)**
Coaching and mentoring programs	31	42	19	5	3
Digital communication platforms	24	38	26	8	4
Collaborative project teams	28	45	18	6	3
Leadership workshops	19	35	31	11	4
360-degree feedback systems	15	28	34	16	7
Cross-institutional exchanges	22	33	27	12	6
Emotional intelligence training	26	39	24	7	4
Innovation incubators	18	31	29	14	8

The data indicate that coaching and mentoring programs (73% combined very effective and effective), collaborative project teams (73%), and emotional intelligence training (65%) are perceived as the most effective mechanisms. Conversely, innovation incubators (49% combined effective ratings) and 360-degree feedback systems (43%) showed lower effectiveness ratings, with higher percentages of institutions not utilizing these approaches.

Interview participants identified several modern approaches that have demonstrated positive impact on communicative creativity. Design thinking methodologies were reported by 66% of interviewees as enhancing creative problem-solving communication. Agile management frameworks were mentioned by 53% as improving adaptive communication. Virtual reality communication training was utilized by 19% but rated highly effective by 89% of those who used it. Artificial intelligence-assisted communication analytics were employed by 12% of institutions, with 75% of users reporting improved communication self-awareness.

Analysis of qualitative data identified persistent barriers to implementing modern management mechanisms. Financial constraints were cited by 69% of interviewees as the primary barrier. Resistance to change among senior leadership was mentioned by 56%. Lack of trained facilitators was reported by 47%, and insufficient time for professional development was noted by 44% of participants.

Discussion. The findings reveal that communicative creativity among higher education managers is predominantly at moderate levels, with only a minority demonstrating high competency. This distribution aligns with broader research on leadership creativity in educational contexts, suggesting that communicative creativity develops gradually and requires sustained institutional support (Amabile & Pratt, 2016). The dimension-specific analysis highlights adaptive communication flexibility as the area most requiring improvement, with only 19% of managers achieving high scores. This finding is particularly significant given the rapidly changing higher education environment, where managers must continuously adapt communication strategies to diverse stakeholders, digital platforms, and evolving institutional priorities (Zhang et al., 2020).

The effectiveness ratings of management mechanisms provide practical guidance for institutional leaders. Coaching and mentoring programs emerged as the most effective approach, consistent with research demonstrating that individualized feedback and guided reflection significantly enhance leadership competencies (Bass & Riggio, 2020). The high effectiveness of collaborative project teams underscores the importance of experiential learning in developing communicative creativity.

The relatively low utilization yet high effectiveness of emerging technologies such as virtual reality training and AI-assisted analytics suggest untapped potential for modernizing management development programs. Institutions that have adopted these technologies report substantial benefits, indicating that early investment may yield competitive advantages in leadership development.

The identified barriers—financial constraints, resistance to change, lack of trained facilitators, and time limitations—reflect systemic challenges in higher education management development. Addressing these barriers requires strategic commitment from institutional leadership and potentially external funding support or inter-institutional collaboration to share resources.

Based on the findings, this study proposes an integrated management framework for improving communicative creativity in higher education institutions. The framework comprises three interconnected components: (1) foundational development through coaching and emotional intelligence training, (2) experiential learning through collaborative projects and cross-institutional exchanges, and (3) technology-enhanced development through digital platforms and emerging technologies. This integrated approach addresses multiple barriers simultaneously while building upon the most effective existing mechanisms.

Conclusion. This study examined modern approaches to improving management mechanisms of communicative creativity among higher education institution managers. The findings indicate that while most managers possess moderate communicative creative competencies, significant opportunities exist for enhancement through targeted management mechanisms. Coaching and mentoring programs, collaborative project teams, and emotional intelligence training demonstrate the highest effectiveness. Emerging technologies offer promising avenues for future development, though barriers including financial constraints and resistance to change must be addressed.

The proposed integrated management framework provides a practical roadmap for institutions seeking to systematically develop communicative creativity in their leadership. Future research should examine longitudinal outcomes of implementing these mechanisms and explore cross-cultural variations in communicative creativity development across different higher education systems.

REFERENCES:

1. Amabile, T. M., & Pratt, M. G. (2016). The dynamic componential model of creativity and innovation in organizations: Making progress, making meaning. *Research in Organizational Behavior*, 36, 157–183. https://doi.org/10.1016/j.riob.2016.10.001
2. Anderson, M. H., Sun, J., & Koenig, C. S. (2018). Bridging both worlds: How role identity affects team functioning in hybrid teams. *Journal of Leadership & Organizational Studies*, 25(3), 271–285. https://doi.org/10.1177/1548051818760858
3. Bass, B. M., & Riggio, R. E. (2020). *Transformational leadership* (3rd ed.). Psychology Press.
4. Braun, V., & Clarke, V. (2006). Using thematic analysis in psychology. *Qualitative Research in Psychology*, 3(2), 77–101. https://doi.org/10.1191/1478088706qp063oa
5. Creswell, J. W., & Plano Clark, V. L. (2018). *Designing and conducting mixed methods research* (3rd ed.). SAGE Publications.
6. Northouse, P. G. (2021). *Leadership: Theory and practice* (9th ed.). SAGE Publications.
7. Reiter-Palmon, R., & Illies, J. J. (2018). Leadership and creativity: Understanding leadership from a creative problem-solving perspective. *Psychology of Aesthetics, Creativity, and the Arts*, 8(4), 495–505. https://doi.org/10.1037/a0037537
8. Zhang, Y., Zheng, J., & Darko, A. (2020). How does transformational leadership promote innovation in construction? The mediating role of innovation climate and the multilevel moderation role of project resource availability. *International Journal of Project Management*, 36(8), 1066–1078. https://doi.org/10.1016/j.ijproman.2018.05.005

Author:

Mamatova Khilola Mukhiddinovna - Vice-Rector for Youth Affairs and Spiritual-Educational Work, Gulistan State Pedagogical Institute.

**** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ****
**** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2026. № 2 ****

UDK 372.815.99

AN ANALYSIS OF WESTERN PSYCHOLOGISTS' THEORIES REGARDING PSYCHOLOGICAL WELL-BEING

PSIXOLOGIK FAROVONLIKKA OID G‘ARB PSIXOLOGLARINING NAZARIYALARI TAHLILI

АНАЛИЗ ТЕОРИЙ ЗАПАДНЫХ ПСИХОЛОГОВ ОТНОСИТЕЛЬНО ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО БЛАГОПОЛУЧИЯ

Bahodirova Marhaboxon Toxirjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti. 150100, Farg‘ona sh., Murabbiylar ko‘chasi, 19-uy
E-mail: marhaboxontoxirjonovna@gmail.com

Abstract. This article comprehensively examines the essence of the concept of psychological well-being in foreign literature, demonstrating that an individual's achievement of well-being is directly linked to their needs. The theories of Western psychologists on psychological well-being are also analyzed, and their classification is explained.
Keywords: psychological well-being, subjective well-being, need, ideal and actual psychological well-being, hedonistic theory, eudemonist theory.

Annotatsiya. Ushbu maqolada xorijiy adabiyotlardagi psixologik farovonlik tushunchasining mohiyati, shaxsning farovonlikka erishishi bevosita ehtiyojlar bilan bog‘liq ekanligi keng qamrovda o‘rganilgan. Shuningdek, psixologik farovonlikka oid g‘arb psixologlarining nazariyalari tahlil qilinib, ularning tasnifi yortib berilgan.
Kalit so‘zlar: psixologik farovonlik, subyektiv farovonlik, ehtiyoj, ideal va aktual psixologik farovonlik, gedonistik nazariya, evdemonistik nazariya.

Аннотация. В данной статье подробно изучена сущность понятия психологического благополучия в зарубежной литературе, а также тот факт, что достижение благополучия личности напрямую связано с потребностями. Также проанализированы теории западных психологов о психологическом благополучии и дана их классификация.
Ключевые слова: психологическое благополучие, субъективное благополучие, потребность, идеальное и актуальное психологическое благополучие, гедонистическая теория, эвдемонистическая теория.

Kirish. Bugungi tahlikali dunyoda tinchlikka, jamiyat farovonligiga, qadriyatlarni mustahkam saqlanib qolishiga bo‘lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Shu sababli shaxsni o‘z o‘zini anglashiga, psixologik farovonligini ta’minlashiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Psixologik farovonlik shaxsni har tomonlama ham moddiy ham ruhan ehtiyojlarini qondirilgani bilan izohlanadi. Shu sababli shaxsning psixologik farovonligini ta’minlashdagi eng muhim jihatlardan biri shaxs ehtiyojlarining qondirilgani hisoblanadi. Shundagina shaxsda hayotdan zavqlanish, ichki xotirjamlik, o‘z hayotidan qoniqish, o‘ziga nisbatan ijobiy munosabatlarni shakllanganligini kuzatsa bo‘ladi.

Yurtimizda olib borilayotgan ko‘plab islohotlar ham jamiyat uchun farovonlikni qay darajada muhim ekanligini ko‘rsatib bermoqda. Muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o‘zining chiqishlarida xalq farovonligini ta’minlash, ayniqsa, kambag‘allikni qisqartirish va aholi turmush darajasini oshirishni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi deb belgilagan. U «Kambag‘allikdan farovonlik sari» tamoyilini ilgari surib, barcha islohotlar markazida inson manfaatlari turishi kerakligini ta’kidlaydi [1]. Shuningdek muhtaram prezidentimiz “Tinchlik va ishonch umumiy farovonlik asosidir. Bu qadriyatlarni mustahkamlash butun xalqaro hamjamiyat uchun hal qiluvchi ustuvor yo‘nalish bo‘lib qolishi zarur” deya alohida ta’kidlab o‘tganligi [1]. jamiyat uchun farovonlik qay darajada muhim ekanligini anglatadi.

Adabiyotlar tahlili va muhokama. Hozirgi kunda zamonaviy psixologiya sohasida psixologik farovonlik tushunchasini chuqur o‘rganish fanning asosiy vazifalaridan biridir. Chunki atama va tushunchalarning mazmunini ochib berish alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan Amerikalik psixolog Kerol Riff o‘zining “Psixologik farovonlikning olti faktorli modeli” konsepsiyasida psixologik farovonlik fenomeniga nisbatan o‘z qarashlarini taqdim etgan [2]. Muallif amerikalik psixolog va sotsiolog Norman Bredbernning qarashlarini qo‘llab-quvvatlaydi va rivojlantiradi, lekin shu bilan birga uning bu fenomen ijobiy va salbiy affektlar muvozanati ekanligi haqidagi fikrini tanqid qiladi. K.Riff o‘z ziddiyatini N.Bredburn tezisida fenomenni talqin qilishning cheklanganligi, ma’lum bir chegaralari mavjudligi bilan asoslaydi. Bu xulosani u o‘zining ilmiy tadqiqoti bilan mustahkamlaydi, uning asosi ijobiy psixologik farovonlik bo‘yicha ilgari surilgan tushunchalardir. Ko‘p yillik tadqiqotlar natijasida K. Riff ijobiy psixologik farovonlik nazariyasini ilgari surdi va unda psixologik farovonlikning tarkibiy qismlarini taqdim etdi.

Amerikalik psixologlar Edvard Desi va Richard Rayan o‘z-o‘zini aniqlash nazariyasida “psixologik farovonlik” hodisasi haqida o‘z qarashlarini taqdim etadilar. Mualliflarning fikricha, insonning psixologik farovonligi u yoki bu darajada uning asosiy ehtiyojlari (kompetentlik, mustaqillik va boshqalar bilan aloqa qilish) bilan bog‘liq [3]. Yuqorida tavsiflangan dolzarb ijtimoiy kontekst bilan bog‘liq ehtiyojlar qondirilgan taqdirda farovonlik darajasi oshadi, aks holda farovonlik darajasi pasayadi. O‘z-o‘zini belgilash nazariyasi empirik tadqiqotlar natijasida o‘z tasdig‘ini topdi.

Darajali psixologik farovonlik modeli muallifi Rossiyalik psixolog Anna Vladimirovna Voronina psixologik farovonlikni psixika va somatika o‘rtasidagi yaqin aloqani aks ettiruvchi psixologik salomatlik prizmasi orqali ko‘radi [4]. U borliq makonini biologik makon sifatida ta’riflaydi, unda tabiiy mavjudot shaxsdir. Bunday makonni tashkil etish uchun organizmning biologik tizimlari yaxlitligini saqlash muhim hisoblanadi. Tadqiqotchining fikricha, bu yaxlitlik psixologik moslashuv to‘sig‘i ko‘rinishida ifodalanadi.

A.V.Voroninaning ta’kidlashicha, insonning turli faoliyat turlarida shakllangan hayot makonining turli darajalarida ichki intensiya (ongsiz va ongli resurs ko‘rsatmalari) asosi qo‘yiladi. Ushbu holatda, introyeksiyalar individual psixologik farovonlikning quyidagi darajalarini iyerarxiya shaklida ifodalovchi sifat tuzilmasini ifodalaydi: a) psixosomatik salomatlik, b) ijtimoiy moslashuv, d) psixik salomatlik, e) ruhiy salomatlik.

Konsepsiya muallifining ta’kidlashicha, insonning ta’lim-tarbiyasi va rivojlanishi jarayonida shakllanadigan har bir keyingi daraja o‘zi, dunyo va bu dunyoda mavjudligi haqida yangi tasavvurni olib keladi. Har bir keyingi bosqich insonga o‘z niyatlarini amalga oshirishda yangi imkoniyatlar, erkinlik darajasi va ijodiy faollik beradi.

Rossiya sotsial psixologi Rail Shamionovning fikricha, psixologik farovonlik insonning o‘z shaxsiyatiga, hayotiga va tashqi hamda ichki muhit haqidagi o‘zlashtirilgan me’yoriy tasavvurlar nuqtai nazaridan shaxs uchun katta ahamiyatga ega bo‘lgan jarayonlarga bo‘lgan shaxsiy munosabati bo‘lib, u qoniqish hissi bilan tavsiflanadi [5].

Rossiyalik mashhur psixologlar Pavel Petrovich Fesenko va Tatyana Dmitriyevna Shevelenkova psixologik farovonlikni baxtni subyektiv his qilish, o‘zidan va o‘z hayotidan qoniqish, shuningdek, asosiy insoniy qadriyatlar va ehtiyojlar bilan bog‘liq bo‘lgan yaxlit tajriba sifatida ko‘rib chiqadilar. Bu nazariyaga ko‘ra psixologik farovonlik insonning o‘z ichki baholash tizimiga bog‘liq bo‘lgan kechinma sifatida qaraladi. Bunda mualliflar insonning o‘z hayotiga va o‘ziga subyektiv baho berishiga, shaxsning ijobiy faoliyat ko‘rsatishiga e’tibor qaratadilar. Ular psixologik farovonlikning bu ikki jihati K.Riff yondashuvida muvaffaqiyatli sinxronlashgan deb hisoblaydilar.

K.Riff nazariyasiga tayanib, P.P.Fesenko va T.D.Shevelenkova shaxsning psixologik farovonligini insonning o‘z hayotidan qoniqishining yetarlicha murakkab kechinmasi sifatida tushunishni taklif qildilar, bu esa bir vaqtning o‘zida shaxs hayotining ham dolzarb, ham potensial jihatlarini aks ettiradi. Insonning psixologik farovonlik kechinmalarini tavsiflar ekanmiz, shuni ta’kidlash joizki, har qanday kechinma ushbu kechinmani me’yor, etalon, ideal bilan taqqoslashni nazarda tutadi, bular kechinmalarni boshdan kechirayotgan insonning ongida o‘zini o‘zi baholash, o‘ziga nisbatan munosabatning ma’lum bir varianti ko‘rinishida mavjud bo‘ladi.

Insonning o‘z hayotidan qoniqishini murakkab boshdan kechirishi asosida mualliflar tomonidan “aktual psixologik farovonlik” va “ideal psixologik farovonlik” ajratib ko‘rsatilgan bo‘lib, unda “ideal” haqidagi tasavvur insonning o‘z borlig‘ini baholashning global vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, ta’kidlash joizki, bu ichki baho, ehtimol, ijtimoiy-madaniy o‘ziga xoslikka ega va bu o‘ziga xoslik inson tomonidan jamiyat va madaniyatda mavjud bo‘lgan ba’zi tasavvurlarni o‘zlashtirish jarayonida shakllanadi, ya’ni inson faoliyatining ijtimoiy me’yori, ijtimoiy-madaniy ideali tushunchasi bilan bog‘liq.

Rossiyalik psixolog Valeriy Aleksandrovich Xashchenko holatini - ijobiy hissiy yo‘nalishga ega bo‘lgan faoliyatga to‘liq sho‘ng‘ish holatini ko‘rsatib o‘tgan [6]. Oqimning bu holatini muayyan faoliyat bilan chegaralangan psixologik farovonlik deb atash mumkin. Shuni ta’kidlash kerakki, u havola qilayotgan nazariya doirasida - E.Disining ichki va tashqi motivatsiya nazariyasi - psixologik farovonlikning subyektiv kechinmalarini tushuntirib berishi mumkin. Ichki motivatsiya insonning o‘zi tomonidan qo‘zg‘atiladigan, subyektning ichidan kelib chiqadigan motivatsiya ekanligi haqidagi qoida ma’lum bir qoniqish holatini keltirib chiqarishi mumkin.

Amerikalik psixolog Richard Rayan g‘arbda yaratilgan farovonlikni tushunishga yordam beruvchi barcha yondashuvlarni ikkita asosiy oqimga ajratadi: gedonistik va evdemonistik [7]. R.Rayan gedonistik nazariyalarga farovonlik asosan qoniqish-qoniqmaslik atamalarida tavsiflanadigan barcha ta’limotlarni kiritadi, bu kichik guruhga D.Kaynemen, N.Bredburn, E.Diner konsepsiyalarini kiritish mumkin. Ushbu muammoni evdemonistik tushunish shaxsiy o‘sish farovonlikning asosiy va eng zarur jihati ekanligi haqidagi postulatga asoslanadi, bunday yondashuv A.Votermen va K.Riff qarashlariga xosdir.

Xulosa. Zamonaviy psixologiya fanlar tizimida shaxsning psixologik farovonligi inson hayotining moddiy va ma’naviy ehtiyojlari uyg‘unligini, ichki xotirjamlik hamda hayotdan mamnunlik darajasini belgilovchi bosh mezon sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot davomida ushbu fenomen shunchaki lahzalik quvonch hissi emas, balki shaxsning o‘z potensialini ro‘yobga chiqarishi, ichki va tashqi muhit muvozanatini saqlay olishi bilan bog‘liq murakkab tizim ekanligi aniqlandi. Insonning o‘z ehtiyojlarini to‘liq qondira olishi unda faoliyatga nisbatan ichki motivatsiyani uyg‘otadi, atrofdagilar bilan samimiy aloqalarni mustahkamlaydi va hayotdan chinakam zavqlanish hissini shakllantiradi.

Maqolada ko‘rib chiqilgan K.Riff, N.Bredbern, E.Desi, R.Rayan kabi g‘arb olimlarining kontseptual yondashuvlari, shuningdek, A.Voronina, R.Shamionov, P.Fesenko, T.Shevelenkova va V.Xashchenko kabi rossiyalik psixologlarning ilmiy qarashlari tahlili psixologik farovonlikning ko‘p qirrali tabiatini ochib berdi. Nazariy manbalar mazkur hodisaning gedonistik (lazzatlanish va qoniqish) hamda evdemonistik (shaxsiy o‘sish va hayot mazmuni) oqimlar doirasida, psixosomatik salomatlik va ijtimoiy moslashuv prizmasi orqali iyerarxik tuzilishga ega ekanligini tasdiqlaydi. Bu esa shaxsning ruhiy barqarorligi uning ichki baholash tizimi va ijtimoiy-madaniy ideallari bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Inson munosib sharoitda ta’lim-tarbiya olib, farovon hayot kechirgan taqdirdagina, jamiyat va davlat uyg‘unlikda barqaror rivojlanadi”**,** — deya alohida ta’kidlaydi. Davlatimiz rahbarining ushbu g‘oyasi hamda mamlakatimizda izchil amaliyotga tatbiq etilayotgan “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi bevosita insonning ham ruhan, ham moddiy jihatdan farovon yashashiga xizmat qiladi. Zero, munosib ijtimoiy-iqtisodiy sharoit ta’minlangan va inson qadri ulug‘langan muhitdagina shaxs o‘z ehtiyojlarini erkin qondirish, psixologik xotirjamlikka erishish hamda o‘z salohiyatini to‘laqonli namoyon etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu sababli, shaxsning psixologik farovonligini va uning ehtiyojlari qondirilishi darajasini psixologik omillar prizmasida tadqiq etish shaxs kamoloti va jamiyat barqarorligini ta’minlashda dolzarb amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Mirziyoyev Sh.M. Tinchlik va ishonch — umumiy farovonlik asosidir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti. 2025. Ashxabod

2. Ryff C.D. Happiness is everything, or is it? Explorations on the meaning of psychological well-being. Washington, 1989.

3. Deci E.L., Ryan R.M. The "What" and "Why" of Goal Pursuits: Human Needs and the Self-Determination of Behavior. Washington, 2000.

4. Voronina A.V. Assessment of psychological well-being and psychological health. Tomsk, 2002.

5. Shamionov R.M. Psychology of subjective well-being of personality. Saratov, 2004.

6. Khashchenko V.A. Subjective economic well-being of personality. Moscow, 2012

7. Ryan R.M., Deci E.L. On happiness and human potentials: A review of research on hedonic and eudaimonic well-being. Washington, 2001.

Muallif:
Bahodirova Marhaboxon Toxirjon qizi - Farg‘ona davlat universiteti psixologiya yo‘nalishi talabasi.

**** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ****

**** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2026. № 2 ****

UDK: 378.147:004.738.5

PEDAGOGICAL AND TECHNOLOGICAL APPROACHES TO DEVELOPING WEB DESIGN COMPETENCE IN A DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA WEB-DIZAYN KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-TEXNOLOGIK YONDASHUVLARI

ПЕДАГОГИКО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ КОМПЕТЕНЦИИ ПО ВЕБ-ДИЗАЙНУ В ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

Yuldashev Ulmasbek Abdubanapovich
Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze
E-mail: baxtiyor@guldu.uz

Abstract. The article addresses the problem of developing web design competence in higher education. The main pedagogical approaches used in university-level web design instruction competency-based, constructivist, connectivist, and learner-centred are analysed as complementary elements of a unified framework. On this basis, a five-component model of web design competence is proposed, comprising cognitive, technological, project-based, aesthetic, and reflective dimensions, alongside a scheme for designing individual learning trajectories adapted to each student's level of preparation. The empirical part of the study was conducted during the 2023–2024 academic year at Guliston State University, involving 238 students enrolled in Computer Science and Information Technology programmes. The quasi-experimental verification showed that the proportion of students with a high competence level was considerably higher in the experimental group than in the control group. The difference was statistically significant according to Pearson's chi-squared test ($\chi^2 = 43.6$; $p < 0.01$).

Keywords: web design, professional competence, digital education, learning trajectory, learner-centred instruction, constructivism, connectivism, higher education.

Annotatsiya. Maqolada oliy ta'limda web-dizayn kompetensiyasini shakllantirish masalasi ko'rib chiqilgan. Web-dizayn o'qitishda qo'llaniladigan asosiy yondashuvlar kompetensiyaviy, konstruktivistik, konnektivistik va shaxsga yo'naltirilgan bir-birini to'ldiradigan tizim sifatida tahlil qilingan. Mazkur yondashuvlar asosida web-dizayn kompetensiyasining besh komponentli modeli taklif etilgan: kognitiv, texnologik, loyihaviy, estetik va refleksiv. Shuningdek, o'quv jarayonini talabaning tayyorgarlik darajasiga moslashtirish imkonini beruvchi trayektoriya loyihalash sxemasi ishlab chiqilgan. Tadqiqotning amaliy qismi 2023–2024-o'quv yilida Guliston davlat universiteti bazasida o'tkazilgan; unda «Kompyuter ilmlari» va «Axborot texnologiyalari» yo'nalishlari talabalari (n = 238) ishtirok etgan. Kvazieksperimental tekshiruv natijalariga ko'ra, taklif etilgan yondashuv asosida ta'lim olgan guruhda yuqori natijalarga erishgan talabalar ulushi nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada ko'p bo'lgan. Pirson χ^2 kriteriysi bo'yicha olingan farq statistik jihatdan ahamiyatli deb topilgan ($\chi^2 = 43,6$; $p < 0,01$).

Kalit so'zlar: web-dizayn, kasbiy kompetensiya, raqamli ta'lim, o'quv trayektoriyasi, shaxsga yo'naltirilgan o'qitish, konstruktivizm, konnektivizm, oliy ta'lim.

Аннотация. В статье рассматривается проблема формирования компетенции по веб-дизайну в системе высшего образования. Анализируются основные педагогические подходы компетентностный, конструктивистский, коннективистский и личностно ориентированный, применяемые при обучении веб-дизайну в вузах. На их основе предложена пятикомпонентная модель компетенции (когнитивный, технологический, проектный, эстетический и рефлексивный компоненты), а также схема проектирования индивидуальной учебной траектории. Практическая часть исследования проведена в 2023–2024 учебном году на базе Гулистанского государственного университета; участниками стали 238 студентов направлений «Компьютерные науки» и «Информационные технологии». Квазиэкспериментальная проверка показала, что в группе, обучавшейся по предложенной методике, доля студентов с высоким уровнем владения компетенцией оказалась значимо выше, чем в контрольной. Различие статистически значимо по критерию Пирсона χ^2 ($\chi^2 = 43,6$; $p < 0,01$).

Ключевые слова: веб-дизайн, профессиональная компетенция, цифровое обучение, учебная траектория, личностно ориентированное обучение, конструктивизм, коннективизм, высшее образование.

Kirish. So'nggi yillarda web-texnologiyalar rivojlanishi ta'lim, biznes va davlat boshqaruvi sohasida shunchalik tez sur'atda kechmoqdaki, mutaxassislar tayyorlash dasturlari bu o'zgarishlarga mos kelishga ulgurmay qolmoqda. Xususan, o'zbek oliy ta'lim muassasalari «Kompyuter ilmlari» va «Axborot texnologiyalari» yo'nalishlarida web-dizayn bo'yicha tayyorgarlik hali ham asosan nazariy kurslar va bir xil vazifalar atrofida qurilgan. Talabaning individual imkoniyatlari, bilim darajasi va kasbiy qiziqishlari ko'pincha hisobga olinmaydi.

O'zbekiston Respublikasining «Raqamli O'zbekiston 2030» strategiyasi [1] va oliy ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi [2] raqamli kasb-hunarlarni o'rgatishda yangi yondashuvlarni joriy etishni talab qiladi. Biroq amaliyotda bu talablar hali ta'lim jarayoniga to'liq singib kirmagan.

Ushbu tadqiqotning maqsadi web-dizayn kompetensiyasini shakllantirish uchun qaysi pedagogik yondashuvlardan foydalanish maqsadga muvofiq ekanligini aniqlash, shuningdek, har bir talabaning tayyorgarlik darajasiga moslashuvchi o'quv trayektoriyasini loyihalash sxemasini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, web-dizayn kompetensiyasining besh komponentli modeli va unga mos trayektoriya sxemasi ilk bor tizimli ravishda asoslangan.

Tadqiqot ob'ekti va qo'llanilgan metodlar

Kompetensiyaga asoslangan ta'lim nazariyasi A.V.Xutorskoy [3], I.A.Zimnyaya [4] va boshqa tadqiqotchilar tomonidan yaxshi ishlab chiqilgan. Mualliflar kompetensiyani bilim, ko'nikma va shaxsiy sifatlarning birligi sifatida tushuntirishadi. Web-dizayn sohasida bu tushuncha qo'llanilganda, foydalanuvchi bilan ishlash (UX) va interfeys loyihalash (UI) ko'nikmalari alohida ahamiyat kasb etadi [7, 8].

Ta'limni talaba xususiyatlariga moslashtirishga qiziqish 1990-yillardan boshlab ortib bormoqda. P.Brusilovskiy va E.Millán [5] elektron ta'lim tizimlarida moslashuvchi kontent, navigatsiya va taqdimotning turli mexanizmlarini taklif etishgan. G.Siemens [6] raqamli muhitda o'rganish shaxsning o'zida emas, balki ko'plab manbalarda joylashgan bilimlarni bog'lash orqali sodir bo'lishini ko'rsatgan.

K.VanLehn [14] aqlli o'qituvchi dasturlari va jonli o'qituvchi samaradorligini solishtirib, kompyuter yordamida tashkil etilgan individual ta'limning natijalari umid qilganidan ancha yuqori bo'lishini ko'rsatgan. T.Anderson va J.Dron [13] masofaviy ta'limning uch avlodini tahlil qilib, konnektivistik model bugungi muhitga ko'proq mos kelishini asoslagan.

O'zbekistonda bu yo'nalishda U.Sh.Begimqulov [9] ta'limni axborotlashtirish, M.B.Urazova [12] raqamli muhitda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish masalalarini o'rgangan. U.A.Yuldashev [10] web-dizayn o'qitishning pedagogik shartlarini belgilagan. Ayni paytda web-dizayn bo'yicha o'qitishning yaxlit pedagogik modeli, ayniqsa talabaning boshlang'ich tayyorgarligiga qarab o'quv yo'lini belgilash masalasi yetarli o'rganilmagan.

Tadqiqot dizayni. Ushbu tadqiqotda kvazieksperimental dizayn qo'llanildi: ikkita guruh tashkil etildi, ammo talabalar ularga tasodifiy taqsimlanmadi ular mavjud akademik guruhlar asosida ajratildi. Bu OTM sharoitida keng tarqalgan yondashuv bo'lib, amaliy tadqiqotlarda odatiy hol hisoblanadi. Guruhlarning boshlang'ich tengligini aniqlash uchun kirish testi o'tkazildi. Test natijalari bo'yicha guruhlar o'rtasidagi farq statistik jihatdan ahamiyatsiz bo'lib chiqdi ($\chi^2 = 3{,}8$; $df = 2$; $p = 0{,}15$).

Tajriba 2023–2024-o'quv yilida Guliston davlat universiteti bazasida olib borildi. Ishtirokchilar «Kompyuter ilmlari» va «Axborot texnologiyalari» yo'nalishlari 2- va 3-bosqich talabalari bo'ldi. Jami 238 nafar talaba qatnashdi: nazorat guruhida 120 nafar, eksperimental guruhda 118 nafar. Tajriba sentyabr 2023-yildan may 2024-yilgacha, ya'ni bir to'liq o'quv yili davom etdi. Har ikkala guruhda ham bir xil o'qituvchi dars berdi bu qo'shimcha o'zgaruvchini cheklash uchun muhim edi.

Baholash vositasi. Talabalarning web-dizayn kompetensiyasini o'lchash uchun to'rt qismdan iborat baholash vositasi ishlab chiqildi: (1) 60 ta test savoli (asosiy bilimlar); (2) HTML, CSS, JavaScript bo'yicha amaliy topshiriqlar; (3) real loyihaga asoslangan portfoliyo; (4) 25 ta elementdan iborat o'z-o'zini baholash anketa shakli (5 ballik shkala).


Baholash vositasini ishlab chiqishdan oldin 7 nafar mutaxassis bilan maslahat o'tkazildi ulardan 5 nafari oliy ta'lim sohasida, 2 nafari IT sohasida ishlaydi. Ekspertlar baholash vositasining mazmuni maqsadga mos kelishini tasdiqlashdi (CVR = 0,83). Keyin 24 ta talaba ishtirokida sinov o'tkazilib, baholash vositasining ichki izchillik koeffitsienti Cronbach $\alpha = 0{,}77$ ekanligi aniqlandi. Bu qabul qilinadigan ko'rsatkich hisoblanadi. Yakuniy natijalar asosida talabalar uch darajaga ajratildi: past (0–50 ball), o'rta (51–75 ball), yuqori (76–100 ball).

O'quv jarayonining tashkil etilishi. Eksperimental guruhda darslar Moodle tizimi orqali tashkil etildi. Tizimga qo'shimcha vositalar ulandи: sun'iy intellekt elementlariga ega yordamchi modul (kod xatolarini ko'rsatish va dizayn maslahatlar uchun), interaktiv mashqlar kutubxonasi, GitHub jamoaviy loyihalar uchun va Figma prototip ishlab chiqish uchun. O'qituvchi asosan darslarni yo'naltirib, talabalar mustaqil va jamoa bo'lib ishlagan. Darsning taxminan 70 foizi amaliy va loyihaviy formatda o'tdi. Har ikki-uch haftada talabalarning natijalariga qarab individual topshiriqlar qayta ko'rib chiqildi.

Nazorat guruhida an'anaviy dars tuzilmasi saqlanib qolindi: o'qituvchi tushuntiradi, talabalar topshiriqlarni bajaradi. Moodle faqat materiallar joylash uchun ishlatildi, moslashuvchi funksiyalardan foydalanilmadi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Web-dizayn kompetensiyasining tarkibiy modeli. Tadqiqot jarayonida web-dizayn kompetensiyasi besh qismdan tashkil topgan yaxlit ko'nikma sifatida tavsiflandи. 1-rasmda ushbu modelning tuzilishi ko'rsatilgan.




1-rasm. Web-dizayn kompetensiyasining besh komponentli tarkibiy modeli.

Kognitiv qism HTML, CSS va JavaScript asoslarini, web-standartlar hamda foydalanuvchi bilan ishlash qoidalarini bilishni o'z ichiga oladi. Texnologik qism Bootstrap, Tailwind CSS, React kabi freymvorklar, Git, Figma, Adobe XD kabi dasturiy vositalar bilan

ishlashni nazarda tutadi. Loyihaviy qism foydalanuvchi interfeysi prototipini tuzish, axborot tuzilmasini loyihalash va «dizayn orqali fikrlash» uslubiga oid ko‘nikmalarni qamrab oladi.

Estetik qism rang tanlash, tipografiya, vizual tartib va badiiy did bilan bog‘liq. Refleksiv qism talabaning o‘z ishini baholashi, xatolaridan xulosa chiqarishi va foydalanuvchi fikrini hisobga olgan holda loyihani yaxshilashga tayyorligini bildiradi.

Pedagogik yondashuvlar tizimi. Web-dizayn o‘qitishda bir nechta pedagogik yondashuv birgalikda qo‘llanilganda samarali bo‘ladi. 2-rasmda ushbu yondashuvlar va ularning o‘zaro bog‘liqligi ko‘rsatilgan.



2-rasm. Pedagogik yondashuvlar tizimi va ularning o‘zaro bog‘liqligi

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv har bir o‘quv bosqichining natijasini aniq belgilashni talab qiladi. Talaba mavzuni o‘rganib bo‘lgach, qanday ish bajara olishini avvaldan belgilab qo‘yish darsni maqsadli qiladi. Konstruktivistik yondashuv J.Piaget va L.S.Vygotskiy g‘oyalariga tayanadi. Bu yondashuvda talabalar bilimni tayyor holda emas, o‘zlari topshiriqlarni bajarish orqali quradilar.

Konnektivistik yondashuv talabani GitHub, Stack Overflow, Behance kabi professional hamjamiyatlar faoliyatiga jalb etishni ko‘zda tutadi. Bu ular uchun nafaqat o‘quv, balki erta professional ijtimoiylashuv imkoniyatidir. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv o‘quv jarayonini talabaning tayyorgarlik darajasiga qarab moslashtirish demakdir. Bu raqamli ta’lim vositalari yordamida amalga oshiriladi [14, B. 210].

O‘quv trayektoriyasini loyihalash. O‘quv trayektoriyasi bu talabaning boshlang‘ich tayyorgarligi va maqsadlariga qarab tuzilgan individual o‘quv rejasi. 3-rasmda trayektoriyani tuzish va moslashtirishning besh bosqichi ko‘rsatilgan.



3-rasm. O‘quv trayektoriyasini loyihalash bosqichlari

Birinchi bosqich diagnostika: talabaning bilim darajasi, o‘rganish uslubi va qiziqishlari aniqlanadi. Moodle tizimidagi test va anketa natijalari bu bosqichning asosini tashkil etadi.

Ikkinchi bosqich maqsad belgilash: o‘qituvchi va talaba birgalikda o‘quv yili davomida qanday natijalarga erishish kerakligini kelishadi.


Uchinchi bosqich kontent tanlash: talabaning tayyorgarligi va maqsadiga mos materiallar, topshiriqlar va loyihalar belgilanadi.

To‘rtinchi bosqich faol o‘rganish: talabalar real web-loyihalar ustida ishlaydi, o‘qituvchi va sun’iy intellekt yordamchi moduli ularni yo‘naltiradi.

Beshinchi bosqich monitoring va to‘g‘rilash: o‘qituvchi har bir talaba rivojini kuzatib boradi. Natijalar yetarli bo‘lmasa, o‘quv rejasi o‘zgartiriladi. O‘quv yili oxirida portfoliyo asosida yakuniy baho qo‘yiladi.

Tajriba natijalari

O‘quv yili oxirida har ikkala guruhda bir xil baholash vositasi orqali test o‘tkazildi. 4-rasmda natijalar ko‘rsatilgan.



4-rasm. Nazorat va eksperimental guruhlarda kompetensiya darajasi taqsimoti (yakuniy bosqich, %)

Eksperimental guruhda yuqori darajaga erishgan talabalar ulushi 38,1 foizni tashkil etdi, nazorat guruhida esa bu 8,4 foiz bo‘ldi. Past darajadagi talabalar ulushi eksperimental guruhda 18,6 foizga tushgan bo‘lsa, nazorat guruhida u 52,5 foiz bo‘lib qoldi. O‘rta darajadagi talabalar: nazorat guruhi 39,1 foiz, eksperimental guruh 43,3 foiz.

Guruhlar o‘rtasidagi farqning statistik jihatdan tasodifiy emasligini tekshirish uchun Pirson χ^2 kriteriysi qo‘llanildi. Hisoblangan qiymat $\chi^2 = 43{,}6$ ($df = 2$; $p < 0{,}01$). Bu qiymat kritik qiymatdan (9,21) ancha yuqori bo‘lgani uchun farq ahamiyatli hisoblanadi. Eksperimental va nazorat guruhlari o‘rtasidagi amaliy ta’sir kuchi Cohen $d \approx 0{,}72$ bo‘ldi, bu o‘rta va katta ta’sir oralig‘iga to‘g‘ri keladi.

Semestr oxiridagi so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, eksperimental guruh talabalarining 84 foizi o‘quv jarayonidan qoniqish bildirishgan, 73 foizi esa o‘qitish tezligi ularning imkoniyatlariga mos kelganini aytgan.

Olingan natijalar bir necha jihatdan qiziq. Avvalo, kompetensiyaning besh qismli tuzilmasi amalda o‘zini oqladi: talabalarda bilim, ko‘nikma va refleksiv sifatlar bir vaqtning o‘zida rivojlanganini kuzatish mumkin bo‘ldi. Bu A.V.Xutorskoy [3] va I.A.Zimnyaya [4] asarlarida bayon etilgan kompetensiyaning ko‘p qirraliligi haqidagi g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlaydi.

Eksperimental guruhda yuqori darajaga erishgan talabalar ulushining to‘rt yarim baravar oshishi ahamiyatli natija, lekin bu raqamni ehtiyotkorlik bilan baholash kerak. Guruhlar bir xil o‘qituvchi bilan ishlagan va boshlang‘ich tenglik tasdiqlangan bo‘lsa-da, kvazieksperimental dizayn barcha tashqi omillarni bartaraf eta olmaydi. P.Brusilovskiy va E.Millán [5] moslashuvchan ta’lim tizimlarining samaradorligini ko‘rsatgan, ammo ular ham natijalar o‘quv konteksiga qarab farq qilishi mumkinligini ta’kidlagan. W.Holmes va boshqalar [11] hamda K.VanLehn [14] texnologik yordamning samarasi qo‘shimcha omillarga o‘qituvchi tayyorgarligi, talaba motivatsiyasi bog‘liqligini ko‘rsatgan.

Tadqiqot cheklovlari va keyingi yo‘nalishlar. Ushbu tadqiqotning bir qator chegaralari bor. Birinchidan, guruhlar tasodifiy tanlanmagani uchun natijalar boshqa OTMlarga to‘liq ko‘chirila olmasligi mumkin. Ikkinchidan, tajriba faqat bitta o‘quv yilini qamrab oldi talabalar o‘zlashtirishni uzoq muddatda saqlab qoladimi, bu alohida tekshirishni talab qiladi. Uchinchidan, yordamchi dasturiy modul to‘liq avtomatlashtirilmagan edi, o‘qituvchining qo‘l mehnati ham talab qilindi. To‘rtinchidan, ushbu tajriba O‘zbekiston OTMlari sharoitida o‘tkazilgan bo‘lib, boshqa ta’lim tizimlarida natijalari boshqacha bo‘lishi mumkin.

Keyingi tadqiqotlar uchun uchta asosiy yo‘nalish taklif etiladi. Birinchi o‘zbek tilidagi yordamchi dasturiy modulni to‘liq ishlab chiqish va sinovdan o‘tkazish. Ikkinchi trayektoriya modelini boshqa texnik fanlarga tatbiq etish. Uchinchi talabalar bilimini bir necha yil mobaynida kuzatib, uzoq muddatli ta’sirni o‘lchash.

Xulosa va tavsiyalar

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, web-dizayn o‘qitishda bir nechta pedagogik yondashuvning birgalikda qo‘llanilishi va o‘quv trayektoriyasini talabaning tayyorgarligi darajasiga moslashtirish samarali natijalar beradi. Taklif etilgan besh komponentli model web-dizayn kompetensiyasining ko‘p qirrali tabiatini to‘liqroq aks ettiradi va amaliy baholash uchun qulay mezon bo‘lib xizmat qiladi.

Loyihalash sxemasi diagnostikadan to monitoring va to‘g‘rilashgacha oliy ta’lim muassasalarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llanilishi mumkin. Buning uchun alohida maxsus platforma talab etilmaydi: Moodle va GitHub kabi bepul vositalar yetarli. Amaliy tavsiya sifatida «Kompyuter ilmlari» va «Axborot tizimlari» yo‘nalishlarida o‘quv dasturlarini tuzishda ushbu modelni nazarda tutish maqsadga muvofiq.

Tajriba shuni ko‘rsatdiki, o‘quv jarayonini shaxsga moslashtirishga urinish nafaqat bilim natijalarini, balki talabalarning qoniqish darajasini ham oshiradi. Bu o‘quv motivatsiyasi bilan bevosita bog‘liq omil bo‘lib, keyingi tadqiqotlarda chuqurroq o‘rganilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni «Raqamli O‘zbekiston 2030 strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida». Toshkent, 2020. URL: https://lex.uz/docs/5031048
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni «Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida». Toshkent, 2019. URL: https://lex.uz/docs/4545887
3. Хуторской А.В. Методологические основания компетентностного подхода // Высшее образование в России. 2017. № 12. С. 85–91.
4. Зимняя И.А. Ключевые компетенции новая парадигма результата образования. М.: Логос, 2003. 384 с.
5. Brusilovsky P., Millán E. The Adaptive Web: Methods and Strategies of Web Personalization // Lecture Notes in Computer Science. Berlin: Springer, 2007. Vol. 4321. P. 3–53.
6. Siemens G. Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age // International Journal of Instructional Technology and Distance Learning. 2005. Vol. 2, № 1. P. 3–10.
7. Norman D. The Design of Everyday Things. Revised and Expanded Edition. New York: Basic Books, 2013. 368 p.
8. Krug S. Don’t Make Me Think, Revisited. Berkeley: New Riders, 2014. 216 p.
9. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’limni axborotlashtirish nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: Fan, 2021. 240 b.
10. Yuldashev U.A. Bo‘lajak axborot texnologiyalari o‘qituvchilarida web-dizayn kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shartlari // Pedagogika va psixologiya jurnali. 2024. № 3. B. 112–119.
11. Holmes W., Bialik M., Fadel C. Artificial Intelligence in Education. Boston: Center for Curriculum Redesign, 2019. 244 p.
12. Urazova M.B. Raqamli ta’lim muhitida talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish // Zamonaviy ta’lim. 2023. № 5. B. 28–35.
13. Anderson T., Dron J. Three Generations of Distance Education Pedagogy // International Review of Research in Open and Distributed Learning. 2011. Vol. 12, № 3. P. 80–97.
14. VanLehn K. The Relative Effectiveness of Human Tutoring, Intelligent Tutoring Systems, and Other Tutoring Systems // Educational Psychologist. 2011. Vol. 46, № 4. P. 197–221.
15. Garrison D.R. E-Learning in the 21st Century: A Community of Inquiry Framework for Research and Practice. 3rd ed. New York: Routledge, 2017. 170 p.

Muallif:
Yuldashev Ulmasbek Abdubanapovich - Guliston davlat universiteti, Axborot texnologiyalari kafedrasi katta o‘qituvchisi.

UDK 372.800.4

THE EFFECTIVENESS OF IMPLEMENTING ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

OLIY TA’LIM MUASSASALARIGA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYASINI JORIY ETISH SAMARADORLIGI

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ВНЕДРЕНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ВЫСШИЕ УЧЕБНЫЕ ЗАВЕДЕНИЯ

Marasulova Zulayho Abdullayevna, Zoxidova Mahfuza Xabibovna
Qo‘qon davlat universiteti, 150700, Farg‘ona viloyati, Qo‘qon shahri, Turon 23.
E-mail: zulayhomarasulova3gmail.com

Abstract: In this article, the implementation of artificial intelligence technology in the higher education system of our republic, based on the analysis of the possibilities of artificial intelligence, the implementation of artificial intelligence technology in the activities of higher education institutions should be implemented. proposals are given for determining the initial measures, development of ways to effectively use the possibilities of artificial intelligence platforms in the higher education system.

Keywords: artificial intelligence, intelligent learning systems, cognitive, smart robots, "dual teacher" model, plagiarism detection tools.

Annotatsiya: Mazkur maqolada respublikamiz ta’lim tizimida sun’iy intellekt texnologiyasini joriy etish etish, sun’iy intellekt imkoniyatlarini tahlil qilish asosida, oliy ta’lim muassasalari faoliyatiga sun’iy intellekt texnologiyasini joriy etish bo‘yicha amalga oshirilishi lozim bo‘lgan dastlabki chora-tadbirlarni aniqlab olish, oliy ta’lim tizimida sun’iy intellekt platformalari imkoniyatlaridan samarali foydalanish usullarini belgilab olishni rivojlantirish bo‘yicha takliflar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, intellektual ta’lim tizimlari, kognitiv, aqlli robotlar, “dual o‘qituvchi” modeli, plagiatni aniqlash vositalari.

Аннотация: В данной статье должно быть реализовано внедрение технологии искусственного интеллекта в систему высшего образования нашей республики, на основе анализа возможностей искусственного интеллекта, внедрение технологий искусственного интеллекта в деятельность высших учебных заведений. даны для определения первоначальных мер, разработки способов эффективного использования возможностей платформ искусственного интеллекта в системе высшего образования.

Ключевые слова: искусственный интеллект, интеллектуальные системы обучения, когнитивные, умные роботы, модель «двойного учителя», средства обнаружения плагиата.

Kirish. Bugun dunyoda sun'iy intellekt mavzusi juda ham dolzarb muammodir. U insonlarga aksariyat sohalarda yaxshi bir yordamchidek ko'rila boshlagan. Masalan, ta'lim, tibbiyot, sanoat, texnologiyalar, media va boshqa o'nlab sohalar sun'iy intellekt yordamida rivojlanishning yangi bosqichlariga chiqmoqda. Mutaxassislar ham sun'iy intellekt haqida hamma bilishi kerakligi, undan foydalanish juda katta foyda berishini ta'kidlab keladi.

Sun'iy intellekt — inson ko'nikmalarini qayta ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan dasturlar to'plami hisoblanadi. Sun'iy intellekt mavjud muammolarga yechim topish, rejalashtirish, bilim olish, o'z ustida ishlash kabi vazifalarni o'z vaqtida va to'liq bajarishga yordam beradigan qobiliyatdir.

Keng ma'noda sun'iy intellekt murakkab muammolarni o'rganish va hal qilishga qodir bo'lgan tahliliy tizimlarni ishlab chiqish fanining bir tarmog'i hisoblanadi. Tor ma'noda esa sun'iy intellekt kompyuterning inson tafakkuriga asoslangan o'rgatish texnologiyasidir.

Umuman olganda, sun'iy intellekt olingan ma'lumotlar asosida muayyan xulosalar chiqarishga qodir bo'lgan modellar va usullar to'plamidir.

Tadqiqot ob'ekti va qo'llanilgan metodlar

"Sun'iy intellekt" atamasi birinchi marta Jon Makkarti tomonidan 1956 yilda Amerika Ayvi Ligasi universiteti Dartmut kollejida bo'lib o'tgan seminarda ishlatilgan. Birinchi sun'iy intellekt dasturi 1951 yilda Buyuk Britaniyalik kompyuter olimi Kristofer Strachey tomonidan ishlab chiqilgan. 1952 yilda ushbu sun'iy intellekt dasturi sheriklarining harakatlarini bashorat qilish bilan birga, odamlar bilan shashka o'ynashni o'rgangan edi. Ingliz matematigi va kompyuter olimi Alan Tyuring hatto o'sha paytda nashr etilgan shaxmat dasturlash bo'yicha maqolasida mazkur tizim haqida alohida so'z yuritgan edi.

Sun'iy intellekt sohasidagi taraqqiyotning navbatdagi bosqichi 1990 yillarning o'rtalariga to'g'ri keladi. Xususan, 1997 yilda shaxmatchi Garri Kasparovni mag'lub etishga muvaffaq bo'lgan IBM Deep Blue superkompyuteri katta shov-shuvlarga sabab bo'ladi. Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'limga joriy etilishi 1970 yillarga borib taqaladi. Dastlabki urinishlar har bir talaba uchun o'rganishni avtomatik ravishda moslashtirish yoki individuallashtirish qoidalariga asoslangan sun'iy intellekt usullaridan foydalanish orqali namoyon bo'ldi. Mazkur davrdan boshlab ta'limda sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi bir necha yo'nalishlarda talabalarga yo'naltirilgan sun'iy intellekt, o'qituvchiga yo'naltirilgan sun'iy intellekt va tizimga yo'naltirilgan sun'iy intellekt ko'rinishida davom etdi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Sun'iy intellekt sohasi bilan shug'ullanadigan olimlar sun'iy intellekt texnologiyasini to'rtta asosiy turga ajratishadi:

1.Zaif sun'iy intellekt — tajriba to'plash va to'plangan ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmagan sun'iy intellekt.

Zaif sun'iy intellekt muayyan bir vazifani amalga oshirish uchun yaratilgan bo'lib, qo'shimcha funktsiyalarni bajara olmaydi.

2.Cheklangan xotiraga ega sun'iy intellekt — ma'lumotlar parchalarini eslab qolish va ular asosida mavjud vaziyatni tahlil qilish uchun mo'ljallangan. To'plangan tajriba xotirada saqlanmaydi va boshqa ma'lumotlar bilan integratsiyaga kirishmaydi.

3.Kuchli sun'iy intellekt — kuchli mashinalar odamlarning fikrlashi va motivlarini egallashi, inson bilan muloqot qilishi, hattoki ijtimoiy va hissiy aqlga ega bo'lishi mumkin. Kuchli sun'iy intellektga o'xshash mashinalar allaqachon mavjud. Apple kompaniyasining Siri va Yandeks kompaniyasining Alisa nomli virtual yordamchilari shular jumlasidandir. Mazkur kuchli sun'iy intellekt vositalari odamlar bilan muloqot qilish usullarini o'rgatadi.

4.Superintellekt — har tomonlama odamlardan oshib ketadigan sun'iy intellektni rivojlantirishning yakuniy bosqichi. Bunday darajadagi tizimlarning paydo bo'lishi olimlar inson ongining ishlash tizimini to'liq o'rganib, modellashtirganida mumkin bo'ladi. Sun'iy intellekt texnologiyalari bugungi kunda barcha sohalar singari ta'lim sohasida ham keng qo'llanilmoqda. Ta'limda sun'iy intellekt texnologiyasidan foydalanish ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladigan bevosita omil hisoblanadi. Ta'lim sohasida sun'iy intellekt texnologiyasidan foydalanish quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'lmoqda:

1. Ta'lim xizmatlarini ko'rsatish va o'quv jarayonini boshqarish uchun sun'iy intellektdan foydalanish. Tizimga yo'naltirilgan sun'iy intellekt ilovalari axborot tizimlariga asoslangan oliy ta'limni boshqarish jarayonlarini avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan. Ular toifasiga talabalarni o'qishga qabul qilish, dars jadvalini tuzish, davomat va mustaqil ishlarini monitoring qilish hamda ta'lim sifatini tekshirish kabi vazifalarni kiritish mumkin. Sun'iy intellekt texnologiyalari qo'yidagi platformalar orqali o'quv jarayonini yaxshilashda o'z imkoniyatlarini namoyish etadi:

– ta'lim chatbotlari. Chatbotlar — bu odamlar bilan suhbatni tahlil qilib, javob qaytarish uchun bulutli xizmatlar va sun'iy intellekt usullaridan foydalanadigan onlayn kompyuter dasturi hisoblanadi. Ta'lim dasturlarida tobora ko'proq chatbotlardan foydalanilmoqda. Foydalanuvchi (o'quv jarayoni ishtirokchilari) savol yozib yoki gapirganidan so'ng chatbot javobni ko'rsatadi, ma'lumot beradi yoki berilgan vazifani bajaradi. Ta'lim chatbotlariga Kanadaning Ada Support kompaniyasiga tegishli "Ada" hamda Avstraliyaning Deakin davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan "DeakinGenie" platformalari kiradi;

–"OUAnalyse" platformasi Buyuk Britaniyaning Open universiteti tomonidan

talabalarning ish faoliyatini bashorat qilish va o'qishni tashlab ketish xavfi yuqori bo'lgan talabalarni aniqlash uchun sun'iy intellektga asoslangan ilova hisoblanadi. Ilova universitetning ta'limni boshqarish axborot tizimidagi katta ma'lumotlar tahlilidan foydalanadi. Ilovaning asosiy maqsadi qiyinchiliklarga duch kelgan talabalarga o'qishni yakunlash (tamomlash) imkonini berishdir;

–"Swift" platformasi Hindistondagi SwifteLearningServices kompaniyasi tomonidan ta'limni boshqarish axborot tizimiga elektron ta'lim modulida yaratilgan ma'lumotlardan foydalanishga yordam berish uchun ishlab chiqilgan usullar to'plami hisoblanadi. Swift talabalarning o'zaro munosabatlari orqali to'plangan ma'lumotlardan talaba qachon va nima uchun o'rganishda qiyinchiliklarga duch kelishi yoki muvaffaqiyat qozonishi haqida muhim ma'lumot beradi. Swift ushbu ma'lumotlarni tahlil qilish talabalarning xohish-istaklarini hisobga olgan holda, individual ta'lim traektoriyalarini yaratishga yordam beradi;

–"ALP" platformasi AQSHning ta'lim tizimi standart ta'lim texnologiyalariga yordam berishi uchun sun'iy intellektga asoslangan ichki vosita hisoblanadi. Tizim har bir talabaning ma'lumotlarini tahlil qiladi va ularning o'zaro munosabatlari, afzalliklari va yutuqlarining psixometrik profilini yaratish uchun ma'lumot to'playdi;

–"UniTime" platformasi AQSHning yirik IT kompaniyalari tomonidan hamkorlikda ishlab chiqilgan loyiha hisoblanadi. UniTime 9 universitet kurslari va imtihonlar jadvallarini ishlab chiqadigan, talabalarni guruhlarga ajratish hamda talabalarga moslashtirilgan jadvallarni shakllantiruvchi sun'iy intellektga asoslangan ta'limni rejalashtirish tizimidir.

2. O'rganish va ish faoliyatini baholash uchun sun'iy intellektdan foydalanish. "Ta'limdagi to'rtinchi inqilob" deb nomlanuvchi sun'iy intellekt sohasi har bir talabaga joylashuvidan qat'i nazar, sifatli, individuallashtirilgan va foydalanish mumkin bo'lgan umrbod ta'lim (rasmiy va norasmiy ta'lim) olish imkoniyatini taqdim etishga qaratilgan. O'rganish va ish faoliyatini baholashga yo'naltirilgan sun'iy intellekt sohasi quyidagi ishlarni amalga oshirishda ham qo'llanilishi mumkin:

–intellektual ta'lim tizimlari. Intellektual ta'lim tizimlarining vazifasi matematika yoki fizika kabi majburiy fanlar blokida har bir talaba uchun individual bo'lgan bosqichmabosqich o'quv mashg'ulotlarini taqdim etishdan iborat. Tizim mavzu va kognitiv fan tajribasi asosida, shuningdek, individual tarzda talabalarning qiyinchiliklari yoki muvaffaqiyatlariga javob beradigan o'quv materiallari va auditoriyalar orqali eng yaxshi ta'lim olish traektoriyasini belgilaydi. Mazkur yondashuv ba'zan "Moodle" va "OpenedX" kabi ta'limni boshqarish tizimlarida yoki

"KhanAcademy" kabi platformalarda qo'llaniladi. Talaba o'quv faoliyati bilan shug'ullanar ekan, tizim qiyinchilik darajasini avtomatik sozlash va har bir talabaning kuchli va zaif tomonlariga ko'ra maslahatlar yoki tavsiyalar berish uchun bilimlarni kuzatish va mashinani o'rganish algoritmlaridan foydalanadi.

–interaktiv ta'lim tizimlari. Dialogga asoslangan o'quv tizimlari ketma-ket onlayn topshiriqlarda o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi suhbatni o'rganish hamda dialogini simulyatsiya qilish uchun tabiiy tilni qayta ishlash va boshqa sun'iy intellekt usullaridan foydalanadi. Interaktiv ta'lim tizimlarining aksariyati tadqiqot loyihalari doirasida ishlab chiqilgan.

–kognitiv ta'lim muhiti. Kognitiv ta'lim muhitida sun'iy intellektning roli bilimlarni kuzatish algoritmlari va mashinani o'rganish asosida avtomatlashtirilgan yo'l-yo'riq va fikrmulohazalar orqali kognitiv jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan kognitiv ortiqcha yukni minimallashtirishdan iborat.

–avtomatik yozishni baholash. Kompyuterda ishlaydigan talabalarning yozish jarayonida avtomatik fikr bildirish imkoniyatini yaratish uchun tabiiy tilni qayta ishlash va boshqa sun'iy intellekt usullaridan foydalanish lozim.

–sun'iy intellekt yordamida tillarni o'qish va o'rganish. Sun'iy intellekt texnologiyalari nutqni aniqlash, avtomatik fikr bildirish va talabalarning talaffuzini yaxshilashga yordam berish maqsadida ona tilida so'zlashuvchilarning namunaviy yozuvlarini solishtiradi.

–aqlli robotlar. Sun'iy intellektni qo'llab-quvvatlaydigan robotlardan foydalanish istiqbollari ta'lim jarayonlari kontekstida, ayniqsa, nogiron yoki o'qishda qiyinchiliklarga duch kelgan talabalarni o'qitish sharoitida juda qo'l keladi. Jumladan, autizm spektri buzilgan yoki jismoniy imkoniyati cheklangan talaba uchun mexanik o'zaro ta'sirlarni ta'minlaydigan va nutqni yarata oladigan gumanoid robotlar yaratilgan. Mazkur robotlarning asosiy maqsadi talabalarning muloqot va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishdir;

–virtual va kengaytirilgan reallik. Virtual va kengaytirilgan reallik ta'lim kontekstida qo'llaniladigan ikkita o'zaro bog'liq yangilik bo'lib, foydalanuvchi tajribasini yaxshilash uchun ko'pincha mashina va sun'iy intellekt usullarini birlashtiradi.

–o'quv tarmog'i arxitekturasi. Talabalar va o'qituvchilarning tarmoq guruhlariga ta'lim jarayonida ishtirok etish va o'quv faoliyatini tashkil etish imkonini beruvchi vositalar hisoblanadi. O'quv tarmog'i arxitekturasi odatda ishtirokchilarning mavjudligi, mavzuning soha va tajribaga qarab tanlanishi hamda hamkorlikni rivojlantirishga qaratilishi mumkin.

- O'quv jarayonlarida professoro'qituvchilarning imkoniyatlarini kengaytirish uchun sun'iy intellektdan foydalanish.

–sun'iy intellekt yordamida forum muhokamalarini kuzatish. Sun'iy intellekt texnologiyalari onlayn ta'limni qo'llab-quvvatlash, ayniqsa, professor-o'qituvchilarga yordam berish yoki turli muhokama forumlarini kuzatishda texnik yordam ko'rsatish uchun ishlatiladi. – "dual o'qituvchi" modeli.

–sun'iy intellekt texnologiyalariga asoslangan o'qituvchi yordamchisi. Ta'kidlanganidek, o'qituvchilar tomonidan davomatni nazorat qilish, topshiriqlarni baholash va bir xil savollarga takroriy javob berish kabi ko'p vaqt talab qiladigan ishlardan ozod qilish uchun ko'plab texnologiyalar ishlab chiqilgan.

Oliy ta'lim muassasalari faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyasini tatbiq etish ularga quyidagi ustunliklarni taqdim etadi:

1.Individual ta'lim (Personalized Learning): sun'iy intellekt talabalarning bilim darajasi va salohiyatiga qarab moslashtirilgan o'quv dasturi va kontentini yaratish orqali individual ta'limni ta'minlashga yordam beradi.

2.Yuqori samaradorlik (Enhanced Efficiency): sun'iy intellekt texnologiyalari baholash, rejalashtirish va hujjatlarni yuritish kabi ma'muriy vazifalarni avtomatlashtirishi mumkin.

3.Intellektual tyutorlik tizimlari (Intelligent Tutoring Systems): sun'iy intellektga asoslangan ta'lim texnologiyalari talabalarning so'rovlariga darhol javob qaytarishi, taklif va tavsiyalar berishi hamda yo'l-yo'riqlar ko'rsatishi mumkin.

4.Ma'lumotlarga asoslangan tahlil (DataDriven Insights): sun'iy intellekt katta hajmdagi ta'lim ma'lumotlarini tezkorlik bilan qayta ishlash qobiliyati orqali tahliliy hujjatlarni oson va vaqt yo'qotmasdan tayyorlash imkonini beradi.

5.Foydalanish imkoniyati va inklyuzivlik (Accessibility and Inclusivity): sun'iy intellekt muqobil o'quv platformalari, moslashuvchan va yordamchi texnologiyalarni taqdim etish orqali nogiron yoki maxsus ehtiyojga ega bo'lgan talabalarning ta'lim olish jarayonini yanada osonlashtiradi.

6.Plagiatni aniqlash (Plagiarism Detection): sun'iy intellektga asoslangan plagiatni aniqlash vositalari professor-o'qituvchilarga talabalarning ishini ilmiy resurslar va nashr etilgan materiallarning keng ma'lumotlari bazalari bilan taqqoslash orqali ko'chirmachilik illatlarini aniqlashda yaqindan yordam beradi.

XULOSA. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, sun'iy intellekt talabalarning o'rganish usullari va ular afzal ko'rgan o'quv resurslarini tahlil qilib, tegishli o'quv materiallarini qo'shimcha o'rganish bo'yicha turli imkoniyatlarni taklif qiladi. Mazkur tizim imtihon jarayonlari davomida talabalarni masofadan turib kuzatadi hamda potentsial firibgarlikning oldini olishga yordam beradi. Sun'iy intellekt talabalarni masofaviy baholaydi hamda akademik halollik va adolatni ta'minlashga ko'maklashishi mumkin, talabalarning hissiy va ruhiy zo'riqish holatlarining oldini olishga ko'maklashadi. Sun'iy intellekt asosida ishlaydigan platforma turli xorijiy tillarni o'rganayotgan talabalar uchun moslashuvchan mashqlar, talaffuz bo'yicha fikr-mulohazalar va matnga asoslangan til mashg'ulotlarini taklif qiladi. Sun'iy intellekt akademik qarzdor bo'lmaslik uchun astoydil intilayotgan talabalarga maqsadli yordam ko'rsatish orqali talabalarning umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichlarini yaxshilashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning" edited by Rose Luckin, Wayne Holmes, Tiffany Barnes, and Xiangen Hu (2019).
2. "Artificial Intelligence and the End of Work: The Human Advantage" by Nigel M. de S. Cameron (2022).
3. "AI in Education: Promise and Implications for Teaching and Learning" edited by Tao Zhang and Stephen J.H. Yang (2019).
4. M.Xurramov, K.Xalmuratova Oliy ta'lim muassasalari faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish. Metodik qo'llanma – T:, "Etakchi nashriyoti", 2024, 15-19-betlar.
5. Marasulova Z.A. Incessansy and Continuity Training Informatics and Information Technlogies at school // Eastern Eurorean Scientifis Journal, Germaniya Ausgabe. 2019 №1- B.401-405 ISSN:2199-7977 www.auris-verlag.de
6. Marasulova Z.A. Neprerivnost i preemstvennost v obuchenii informatike v obsheobrazovatelnix shkolax // Innovations and modern pedagogical technologies in the education system./-Praga, February 20-21, 2019. – B. 22-25
htrr://siosfera.som,email:sosiosfera@seznam.sz

Mualliflar:
Marasulova Zulayho Abdullayevna - Qo'qon davlat universiteti, "Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt" kafedrasi dotsenti, PhD
Zoxidova Mahfuza Xabibovna - Qo'qon davlat universiteti "Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt" kafedrasi stajyor-o'qituvchisi.

UDK:7.72.011

USING BASIC GRAPHIC MATERIALS TO DEVELOP PROFESSIONAL COMPETENCIES IN FUTURE ARCHITECTS AND DESIGNERS

BO'LAJAK ARXITEKTOR VA DIZAYNERLARDA KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA BIRLAMCHI GRAFIK MATERIALLARDAN FOYDALANISH

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОСНОВНЫХ ГРАФИЧЕСКИХ МАТЕРИАЛОВ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У БУДУЩИХ АРХИТЕКТОРОВ И ДИЗАЙНЕРОВ

Sulaymonov Asqarali, Berdiyev Fazliddin
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti. 100194, Toshkent sh., Yunusobod tumani, Yangishahar ko'chasi, 9a-uy
E-mail: t.taqi@exat.uz

Abstract: The article elucidates the didactic features associated with determining the content and methodology of the educational process, which is aimed at developing the spatial concepts and practical graphic skills of future architects and designers regarding the application of primary materials. Furthermore, it explores the significance of preparing materials tailored to local and territorial conditions, the applied foundations, principles, and functions of primary graphic materials, alongside the requirements and parameters for creating the preliminary graphic foundations of architectural projects. To comprehensively reveal the content of the article, corresponding illustrative material is presented, thereby ensuring a holistic perception of the material's underlying essence.

Keywords: architectural education, primary graphic material, skill, development, content, essence, function, requirement, parameter, sketch, illustrative material, implementation, integration.

Annotatsiya. Maqolada bo'lajak arxitektorlarda birlamchi materiallar haqidagi tasavvurlari va amaliy tasviriy malakalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'limiy jarayonning mazmuni va metodikasini belgilashning didaktik xususiyatlari, mahalliy-hududdiy sharoitga ko'ra material tayyorlasning ahamiyati, birlamchi grafik materiallarning tatbiqiy asoslari va prinsiplari hamda funksiyalari haqidagi materiallar, shuningdek, arxitekturaviy loyihalarning birlamchi grafik asoslarini yaratishning talab va parametrlari bayon etilgan. Maqola mazmunini to'laqonli ochib berish uchun matnga muvofiq ilyustrativ material taqdim etilganligi material mohiyatini to'laqonli idrok etishni ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: arxitektura ta'limi, birlamchi garfik material, malaka, rivojlantirish, mazmun, mohiyat, funksiya, talab, parametr, eskiz, ilyusrtativ material, joriy etish, integratsiya.

Аннотация. В статье раскрывается дидактические особенности содержания и методики образовательного процесса, направленного на формирование и развитие представлений и практических изобразительных навыков у будущих архитекторов и дизайнеров в области применения первоначальных графических материалов, значение подготовки материалов исходя из местных условий, а также требования и параметры создания первоначальных графических основ создания архитектурных проектов, принципы применения и функции предварительно подготовленных эскизов. Представленные иллюстративные материалы, соответствующие содержанию материала способствуют целостному восприятию смыслового ряда статьи.

Ключевые слова: архитектурное образование, первоначальные графические материалы, умения, развитие, содержание, смысл, функция, требования, параметр, эскиз, иллюстративный материал, внедрение, интеграция.

Kirish. Zamonaviy sharoitda dunyo miqyosida kechayotgan eng intensiv jarayonlardan biri, shubhasiz aholining shahar sharoitida istiqomat qiladigan qatlamining ulushi ortib borishi bilan bog‘liq. Bu omil, o‘z navbatida, qator muammolarni keltirib chiqaradi. Bu muammolar ichida eng dolzarblaridan biri, shubhasiz, avtotransport vositalarini to‘xtash joyi bilan bog‘liq. Afsuski, qator omillarga ko‘ra bu yo‘nalishda kamchilik va ziddiyatlar uchraydi. Bu muammolarni bartaraf etishning optimal yechimlaridan biri sharoitdan kelib chiqib rejalashtirish, ilmiy asoslsngan loyihalar yaratish bilan bog‘lliq. Bu reja, loyiha, ayniqsa arxitektor va dizaynerlar faoliyati bilan bog‘liq muhim funksiyalardan hisoblanadi. Rejaning mukammalligini ta’minlashda arxitektor va dizaynerlar tomonidan yaratiladigan loyihaning mukammalligi alohida ahamiyat kasb etadi. Loyihaning mukammalligi esa unga asos bo‘ladigan materiallarning sifati bilan belgilanadi. Shunday asoslardan biri arxitektor yoki dizayner tomonidan amalga oshiriladigan izlanish natijalari bilan bog‘liq. Umumiy holatda buni arxitektorning birlamchi grafik materiali sifatida baholash mumkin.

Tadqiqot ob’ekti va qo’llanilgan metodlar

Bir qarashda “birlamchi material” tushunchasi arxitektura yoki tasviriy san’atga aloqasi yo‘qdek tuyulishi mumkin. Aslida esa rassomlar tilida, asosan, “eskiz”, “qoralama” atamalari bilan tavsiflanadigan muayyan darajadagi ijodiy jarayon mahsuli – eskiz yoki qoralamalar arxitekturaviy loyiha uchun birlamchi material vazifasini o‘taydi.

Arxitektor yoki dizayner uchun birlamchi material deganda, odatda, yaratiladigan loyihaning tarkibiy komponentlari, alohida detallariga aniqlik kiritadigan maxsus ishlangan materiallar tushuniladi. Bu materiallarning aniqlir, muvofiqlik, darajasi rassom yoki arxitektorning reallikni yaqqol tasavvur etishi bilan bog‘liq. Shu reallikni ta’minlovchi omillardan biri – ijodkorning birlamchi material ustida ishlashi bilan bog‘liq.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da birlamchi materialda “Biron hodisa jarayonida birinchi o‘rin tutgan; asosiy, birinchi”- deb tavsiflangan [6, 276-b.]. Demak, arxitektor yoki dizayner biror loyiha yaratishga kirishar ekan, u loyiha uchun birlamchi materiallar ustida ishlaydi. Bu jarayonning mahsuloti, yatijasi, odatda, ijodkorlar tomonidan qoralama, eskiz, etyud variantida bo‘ladi.

Shahar sharoitida yoki unuig tashqarisida muayyan obyektni loyiasini yaratish, shubhasiz, ijodkordan maxsus tayyorgarlikni talab qiladi. Shunung uchun ham muayyan joy landshaftining tabiiy holatini maksimal darajada saqlashning samarali vositalaridan biri arxitektor yoki dizaynerning grafik savodxonlik darajasi bilan belgilanadi. Garafik materiallar, o‘z navbatida, kompozitsiya variativligi hamda funksionalligi bilan ishonchli manba bo‘lishi zarur. Zero, “San’atning har qanday turida kompozitsiya g‘oyasini aniq ifoda etuvchi asosiy elementlarining to‘g‘ri joylashtirish hal qiluvchi rol o‘ynaydi” [2,110-b]. Shu ma’noda talabalarda kompozitsiyaning tarkibiy komponentlarining grafik elementlarini tasvirlash kompetensiyalarini tarkib toptirish talab etiladi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Joyning holatini grafik usuldagi variantlarini bajarishda bo‘lajak arxitektorlarning grafik savodxonligi tizimida quyidagi komponentlarninig tasviriy talqinini ifodalashga oid amaliy kompetensiyalarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish talab etiladi:

Birinchi talab. Funksionallik. Funksionallik mazmunan quyida keltirilgan barcha talablarning integratsiyasidan iborat bo‘lib, muayyan vazifani bajarishi lozimligi bilan bir qatorda ham qulay, ham tabiiy, ham chiroyli bo‘lishi zarur. Har qanday sharoitda ham loyihaning asosiy parametri uning funrsionalligi bilan baholanadi. Shuning uchun ham funksionallikning maksimal darajasini saqlashda boshqa parametrlarning muhimligi ikkinchi, uchinchi darajali masala sifatida qaralishi mumkin. Bu holatda ham barcha parametrlarning maksimal holatini saqlab qolishda ijodkorning birlamchi garafik materiallariga asoslanishi talab etiladi. Aynan shu omil talabalarda arxitekturaviy loyihalar uchun birlamchi grafik materiallarni yaratish va ulardan foydalanishga oid kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish oliy arxitekturaviy ta’limning muhim didaktik vazifalari sirasiga kiradi

Ikkinchi talab. Yaratiladigan loyiha kompozitsiyasining tabiiy holatini maksimal darajada saqlashga yo‘naltirilganlik. Shaharsozlikning jadal sur’atlari tabiiy muhit, mahalliy landshafni saqlash inson va tabiat munosabatlarining eng dolzarb muammolaridan biri sifatida qaralmoqda. Bu jarayonda eng maqbul yo‘lni belgilashning muhim shartlaridan biri sifatida joyni o‘rganish, tahlil qilish hamda natura asosida qoralama materiallar tayyorlash optimal yechim tanlashning muhim omili hisoblanadi. Aynan bevosita naturadan ishlangan eskiz – birlamchi materiallar muammoning ishonchli yechimini topishga asos bo‘ladi. Demak, talaba – bo‘lajak arxitektorning birlamchi garafik materiallar ishlash kompetensiyasini shakllantirish va bosqichma-bosqich rivojlantirish arxitektura ta’limining muhim masalalaridan biridir.


Uchinchi talab. Loyihaning estetik parametrlarining ifodaviylik darajasi. Zamonaviy ishlab chiqarishning muhim talablaridan biri, shubhasiz, buyum yoki jihozning ko‘rkamligi, jozibadorligini ta’minlashga qaratilgan. Bu talab, ayniqsa me’morlik va dizayn san’atida ustuvor tendensiya sifatida e’tirof etilmoqda.

To‘rtinchi talab. Qulaylik. Yaratiladigan loyiha, avvalo, qulay bo‘lishi asosiy parametrlardan biridir. Har qanday sohaning xususiyatlariga ko‘ra funksionallik va qulaylik asosiy parametr hisoblanadi. Zero, jamiyatda hamma narsa unson uchun, inson manfaatlari uchun prinsipi ustuvorlik kasb etadi. Shuning uchun ham talabaga grafik mashqlar bo‘yicha taqdim etiladigan o‘quv topshiriqlari tizimida loyihaning mazkur talabi bo‘yicha kerakli kompetensiyani shakllantirish imkonin beruvchi yuklamaga ega bo‘lishi lozim.

Bo‘lajak arxitektor va dizaynerlar tayyorlashga yo‘naltirilgan ta’limiy jarayonda talabalarda masshtabni to‘gri melgilash, his qilish, chamalash, ko‘zni o‘rgatish malakalarini shakllantirish ham alohida e’tibor talab qiladigan masaladir. Zero, buyuk fransiz me’mori Le Korbyuze arxitektura kompozitsiyasida nisbat, masshtab kabi parametrlarning ahamiyatini quyidagicha tavsiflaydi: “Metr – bu real mazmunga ega bo‘lmagan raqamlardir; ...ular park va xiyobonlarni loyihalashda alohida ahamiyat kasb etadi” [2, 116-b.]. bu g‘oya talabalar masshtabni vizual his qilish malakalariga ega bo‘lishlari lozimligini anglatadi. Talabalarda arxitekturaviy loyiha kompozitsiyasini yaratishda masshtabni his qilish kompetensiyalarini shakllantirish istiqbolda ularning kasbiy faoliyatini professional darajada bajarishning o‘ziga xos kafolatidir. Kompetensiyalar ehtiyojlar va ularni real sharoit bilan muvifiqlashtirish, “...loyihani istiqbolda bosqichma-bosqich takomillashtirish imkoniyatlari; hududdan ratsional foydalanish; avtotransport vositalari hamda piyodalar uchun xavfsiz bo‘lishi; ekologik muammolarni hal etish; obyektlarni loyihalashda yuksak badiiy talablarga amal qilish; loyihalarni iqtisodiy jihatdan hal etilganligi” [3, 35-b.] kabi tarkibiy komponentlar talabalarni birlamchi grafik materiallar yaratishga tayyorlashga yo‘naltirilgan ta’limiy jarayonning muhim shartlaridan biri sifatida ahamiyatlidir

Demak, yuqoridagi parametrlarning har birini alohida tavsiflaganda quyidagicha mazmun kasb etadi. Birinchi parametrning asosiy tavsifi, shubhasiz, har jihatdan funksionallik bilan bog‘liq, yani maksimal darajada nima uchun ajratilgan bo‘lsa, ustuvorlik shu yo‘nalishga beriladi. Shuning uchun ham bo‘lajak mutaxassislar, bizning misolimizda bo‘lajak arxitektor va dizaynerlar tayyorlash

tizimida o‘quv topshiriqlari mazmunini belgilashda shu omillarga alohida e’tibor qaratiladi va tabiiyki, ta’lim mazmunida amaliy malakalar, xususan, grafik savodxonlikni rivojlantiruvchi illyustrativ materiallar didaktik samara nuqtai nazaridan yaxshi natijani kafolatlaydi. Fikrimizning illyustrativ varianti sifatida quyidagi grafik materialni tahliliga e’tibor qaratamiz (Illyustrativ materiallarni tanlashda K.T.Kolodinning “Interyer zagorodnoy ulitsi” nomli o‘quv qo‘llanmasi materiallaridan foydalanildi.).



1-rasm. Shahar va qishloq o‘rtasidagi hududda avtoturargoh tashkil etish loyihasining birlamchi grafik varianti

Ilyustrativ materialdan ko‘rinadiki, grafik yechimning asosiy parametrlari sifatida yuqorida keltirilgan to‘rt talabning barchasini e’tiborga olishga harakat qilingan. Jumladan, birinchidan, funksionallik parametrlari grafik kompozitsiyaning asosiy komponentlaridan biri sifatida tasvirlangan. Ikkinchidan, zamonaviy dizaynerlik yechimlarida loyihaning jozibador tasvirining amaliy tatbiqida uning chiroyli bo‘lishiga, yani estetik parametriga alohida e’tibor qaratilgan.

Uchinchidan, yerning tanqisligi muhitida uning tabiiy holanini saqlab qolish zamonaviy arxitektura va dizaynerlik loyihalarning muhim ko‘rsatkichlaridan biri sifatida baholanadi. Bundan ko‘rinadiki, arxitektura va dizayn yo‘nalishida malakali kadrlar tayyorlashning muhim shartlaridan biri talabalar yaratilayotgan grafik loyihalarda tabiiy muhit, tabiiy landshfat holatini maksimal saqlab qolish variantlarini tasvirlash kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish talab etiladi. Talabalarda bunday sifatlarni tarkib toptirish mazmuni va metodikasi tizimida ularning birlamchi materiallardan samarali foydalanishi muhim o‘rin tutadi. Birlamchi grafik materiallarning ko‘p variantliligi optimal yechim topishning muhim shatlaridan biridir. Shuning uchun ham talabalarda birlamchi grafik materiallarni hosil qilish kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish muhim didaktik vazifa hisoblanadi.

The overall pattern confirms that football performance is supported by an integrated psychophysiological system. Psycho-emotional, cognitive, neurodynamic, and autonomic mechanisms interact continuously. Therefore, selection decisions based on a single test score are methodologically weak. For example, a player with high accuracy but excessive latency, or with rapid responses but poor stability, may require a different training strategy to a player whose indicators are moderately high but balanced.

Practical implications

For football selection, the most informative profile should include the following four blocks: (1) non-verbal intellectual productivity and speed-accuracy balance; (2) spatial perception and anticipation; (3) field independence and functional asymmetry; and (4) neurodynamic-autonomic stability. This profile can be used to identify strengths and limitations that are not apparent during standard technical testing.

Players with high spatial accuracy but prolonged decision-making times may benefit from small-sided games with strict time constraints, peripheral vision tasks, and rapid choice-reaction drills. Those who are highly dependent on external stimuli may require training in increasingly challenging visual and auditory environments. When autonomic imbalance accompanies unstable cognitive performance, the training programme should integrate recovery, breathing regulation and psycho-emotional self-regulation.

The results also support repeated monitoring rather than a one-time diagnosis. Functional asymmetry, psychological state and heart rate variability may change due to fatigue, competition stress and training load. Consequently, the athlete's psychophysiological profile should be interpreted dynamically alongside technical and tactical observations.

Conclusion

The 18-year-old football players demonstrated moderate non-verbal intellectual ability, high spatial accuracy and preserved spatial-temporal anticipation, as well as a relatively mature, field-independent style of information processing. Their cognitive

regulation was characterised by individual functional asymmetry and an analytical tendency operating within an integrated interhemispheric system.

The identified correlations demonstrate the functional interconnection of psycho-emotional state, autonomic balance, neurodynamic stability, sensorimotor speed and spatial-perceptual processing. Therefore, football selection and individualisation should be based on multidimensional psychophysiological profiles rather than isolated test results.

The most important practical conclusion is that performance depends on balancing speed and accuracy, activation and stability, analytical processing and anticipation, and sympathetic and parasympathetic regulation. This integrated approach can enhance the scientific validity of player selection and targeted psychological preparation.

References

1.Lyzohub V. et al. Research and evaluation of individual psycho-physiological properties of game intelligence of football players //Cherkasy University Bulletin: Biological Sciences Series. – 2025. – №. 1. – С. 14-24.

2.Ihsan, Fadli, Dmytro Prykhodko, and Danylo Olinovskyi. "Correlational analysis of psychophysiological functions indicators, technical and physical readiness of young football players aged 12-13 at different training process stages." *Health Technologies* 2.3 (2024): 39-46.

3.Raab, M. (2014). SMART-ER: A situation model of anticipated response consequences in tactical decisions in skill acquisition. *Frontiers in Psychology, 5*, 871.

4.Raab, M., & Gigerenzer, G. (2015). The power of simplicity: A fast-and-frugal heuristics approach to performance science. *Frontiers in Psychology, 6*, 1672.

5.Korobeynikov, G. V., & Korobeynikova, L. G. *Psychophysiological characteristics of sports activity in combat and team sports*. Kyiv: Olympic Literature, 2017.136-148

6.Plakias, Spyridon, and Georgia Karakitsiou. "Neuropsychophysiological aspects of soccer performance: A bibliometric analysis and narrative review." *Perceptual and Motor Skills* 131.6 (2024): 2346-2368.

Author:
Khasanov Otabek - Department of Sport Psychology and Pedagogy, Uzbek State University of Physical Education and Sport, Chirchiq, Uzbekistan.

UDK 796.322:156.4:012.4

METHODS AND MEANS FOR DEVELOPING PHYSICAL QUALITIES OF HANDBALL PLAYERS AGED 14–15

14–15 YOSHLI GANDBOLCHILARNING JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI VA VOSITALARI

МЕТОДЫ И СРЕДСТВА РАЗВИТИЯ ФИЗИЧЕСКИХ КАЧЕСТВ ГАНДБОЛИРОВ В ВОЗРАСТЕ 14–15 ЛЕТ

Kambarov Davronbek Saytboyevich
Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze.
E-mail: qambarov17121982@gmail.com

Annotation. This article analyzes the scientific and practical aspects of developing the physical qualities of 14-15-year-old handball players. During the study, methods for forming basic physical qualities such as strength, speed, endurance, agility, and coordination in young athletes were studied. Additionally, the modern tools used in training and their effectiveness were determined experimentally. According to the results obtained, training organized on the basis of a comprehensive approach significantly improves the physical fitness of young handball players.

Keywords: handball, physical qualities, training, speed, strength, endurance, junior athletes.

Аннотация. В данной статье анализируются научно-практические аспекты развития физических качеств 14-15-летних гандболистов. В ходе исследования были изучены методы формирования у юных спортсменов таких основных физических качеств, как сила, скорость, выносливость, ловкость и координация. Также экспериментально определены современные средства, используемые на занятиях, и их эффективность. Согласно полученным результатам, тренировки, организованные на основе комплексного подхода, значительно повышают физическую подготовленность юных гандболистов.

Ключевые слова: гандбол, физические качества, тренировка, скорость, сила, выносливость, юные спортсмены.

Kirish. Hozirgi globallashuv sharoitida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, yoshlarni jismonan baquvvat va ma'nan etuk qilib tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 iyundagi PQ-3031-son qarori "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" qabul qilinib, unda aholi, ayniqsa yoshlar o'rtasida sportni ommalashtirish, sport infratuzilmasini yaxshilash va sportchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish asosiy vazifalar sifatida belgilangan.

Shuningdek, 2020 yil 24 yanvardagi PF-5924-son Farmon "Jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"da yosh avlodni har tomonlama sog'lom va barkamol qilib tarbiyalash, ularning jismoniy rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish davlat siyosatining muhim yo'nalishi sifatida qayd etilgan.

Bundan tashqari, 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ham jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, sport maktablari faoliyatini takomillashtirish, iqtidorli yosh sportchilarni aniqlash va ularni qo'llab-quvvatlash masalalari alohida o'rin egallaydi.

Mazkur hujjatlardan kelib chiqqan holda, yosh sportchilarni tayyorlash jarayonida ilmiy asoslangan mashg'ulot usullarini qo'llash, ularning jismoniy sifatlarini maqsadli rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, gandbol kabi dinamik va yuqori jismoniy tayyorgarlikni talab qiluvchi sport turida bu masala yanada dolzarb hisoblanadi.

14–15 yosh davri o'smirlik bosqichining eng muhim davrlaridan biri bo'lib, bu vaqtda organizmda jadal o'sish va rivojlanish jarayonlari kuzatiladi. Ushbu davrda jismoniy sifatlarni to'g'ri shakllantirish kelgusida yuqori sport natijalariga erishishning poydevori bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, noto'g'ri yoki ortiqcha yuklamalar sportchining sog'ligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Gandbol sportida muvaffaqiyatga erishish uchun tezkorlik, kuch, chidamlilik, chaqqonlik va koordinatsiya kabi jismoniy sifatlar yuqori darajada rivojlangan bo'lishi talab etiladi. Shuning uchun ushbu yosh bosqichida mashg'ulotlarni ilmiy-metodik jihatdan to'g'ri tashkil etish, samarali usul va vositalardan foydalanish muhim hisoblanadi.

Tadqiqot ob'ekti va qo'llanilgan metodlar

Tadqiqot ob'ekti sifatida Sirdaryo viloyati Guliston shahridagi Guliston Olimpiya va paralimpiya sport maktabining 14–15 yoshli gandbolchilar guruhi olindi. Tadqiqotda ishtirok etgan sportchilar muntazam ravishda mashg'ulot olib borayotgan, jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari o'rtacha darajada bo'lgan o'quvchi-sportchilardan iborat bo'ldi. Ob'ekt tanlashda ularning yosh xususiyatlari, sport staji va sog'liq holati hisobga olindi.

Mazkur tadqiqotda quyidagi ilmiy-amaliy metodlardan foydalanildi: Pedagogik kuzatuv – mashg'ulot jarayonida sportchilarning jismoniy holati, harakat faolligi va yuklamalarga moslashuvini aniqlash maqsadida qo'llanildi; Pedagogik tajriba – 14–15 yoshli gandbolchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishda turli mashg'ulot usullarining samaradorligini taqqoslash uchun o'tkazildi; Test sinovlari – jismoniy sifatlarni baholash maqsadida 30 m ga yugurish (tezkorlik), joyidan sakrash (kuch), 1000 m ga yugurish (chidamkorlik) va chelnochno'y yugurish (epchillik) testlari qo'llanildi; Antropometrik o'lchovlar – sportchilarning bo'yi, vazni va jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlarini aniqlash uchun amalga oshirildi; Matematik-statistik tahlil – olingan natijalarni qayta ishlashda o'rtacha qiymat, foiz ko'rsatkichlari va taqqoslash usullaridan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

1. Ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish. Tadqiqotning nazariy asosini yaratish maqsadida jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid ilmiy adabiyotlar, o'quv qo'llanmalar, monografiyalar va ilmiy maqolalar tahlil qilindi. Ushbu tahlil orqali gandbolchilarning jismoniy tayyorgarligi, mashg'ulot yuklamalari, yosh xususiyatlari va tayyorgarlik usullari bo'yicha mavjud yondashuvlar o'rganildi.

2. Pedagogik kuzatuv. Tadqiqot jarayonida mashg'ulotlar davomida sportchilarning jismoniy faolligi, mashqlarni bajarish sifati va funktsional holati muntazam ravishda kuzatib borildi. Kuzatuv natijalari asosida mashg'ulot jarayoniga zarur o'zgartishlar kiritildi.

3. Pedagogik eksperiment. Asosiy tadqiqot usuli sifatida pedagogik eksperiment tashkil etildi. Unda ishtirokchilar ikki guruhga ajratildi: Nazorat guruhi – an'anaviy mashg'ulot dasturi asosida shug'ullandi; Tajriba guruhi – maxsus ishlab chiqilgan, jismoniy sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan innovatsion mashg'ulot dasturi asosida mashq qildi. Eksperiment davomida mashg'ulotlar tizimli ravishda olib borilib, yuklamalar bosqichma-bosqich oshirildi va individual yondashuv ta'minlandi.

4. Test sinovlari (jismoniy sifatlarni baholash). Gandbolchilarning jismoniy tayyorgarligini baholash uchun quyidagi testlar qo'llanildi: Tezkorlik – 30 metrga yugurish (sekundda); Chidamlilik – 1000 metrga yugurish yoki Kuper test; Kuch – turnikda tortilish yoki qo'l mushaklari kuchini o'lchash; Sakrash qobiliyati – joyidan balandlikka sakrash (sm); Epchillik – "chelnochno'y beg" (4×9 m).

Test natijalari eksperiment boshida va yakunida o'lchanib, taqqoslama tahlil qilindi.

5. Antropometrik o'lchovlar. Sportchilarning jismoniy rivojlanish darajasini aniqlash maqsadida bo'y uzunligi, tana vazni, ko'krak qafasi aylanasi kabi ko'rsatkichlar o'lchandi. Bu ma'lumotlar jismoniy sifatlar bilan bog'liq holda tahlil qilindi.

6. So'rovnoma va suhbat. Tadqiqot ishtirokchilarining mashg'ulotlarga bo'lgan munosabati, qiziqishi va psixologik holatini aniqlash maqsadida so'rovnoma va suhbat usullaridan foydalanildi. Bu usullar orqali mashg'ulotlarning ta'siri nafaqat jismoniy, balki psixoemotsional jihatdan ham baholandi.

7. Matematik-statistik tahlil. Olingan natijalarni ishonchli baholash uchun matematik-statistik usullar qo'llanildi. Jumladan: o'rtacha arifmetik qiymat (M), standart og'ish (σ), foiz ko'rsatkichlari (%), natijalar o'rtasidagi farqlarni aniqlash (t-kriteriy) orqali tahlil amalga oshirildi. Bu esa tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini ta'minladi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi.

Tadqiqot jarayonida gandbolchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashg'ulot dasturining samaradorligi tajriba yo'li bilan tekshirildi. Eksperiment davomida nazorat va tajriba guruhlarida jismoniy sifatlar o'zgarishi test sinovlari orqali baholandi.

1. Jismoniy sifatlar bo'yicha umumiy natijalar

Ko'rsatkich	Guruh	Eksperimentdan oldin	Eksperimentdan keyin	O'sish %)
30 m yugurish (sek)	Nazorat	5.2	5.0	3.8%
	Tajriba	5.3	4.8	9.4%
1000 m yugurish (sek)	Nazorat	260	250	3.8%
	Tajriba	262	235	10.3%
Sakrash (sm)	Nazorat	42	45	7.1%
	Tajriba	41	48	17.0%
Turnik (marta)	Nazorat	6	7	16.6%
	Tajriba	6	9	50.0%
Chelnochno'y beg (sek)	Nazorat	10.5	10.1	3.8%
	Tajriba	10.6	9.5	10.3%

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tajriba guruhida barcha jismoniy sifatlar bo'yicha o'sish ko'rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan ancha yuqori. Ayniqsa, kuch va sakrash qobiliyatida sezilarli o'sish kuzatildi. Bu esa qo'llanilgan maxsus mashg'ulot dasturining samaradorligini tasdiqlaydi.

2. Texnik-taktik ko'rsatkichlar tahlili

Ko'rsatkich	Nazorat (%)	Tajriba (%)
To'pni qabul qilish aniqligi	72 → 78	70 → 85
Uzatmalar aniqligi	75 → 80	74 → 88
Hujum zarbalari samaradorligi	68 → 74	67 → 83

Tajriba guruhida texnik ko'rsatkichlar ham sezilarli darajada yaxshilangan. Bu jismoniy sifatlar rivojlanishi texnik harakatlarning samaradorligiga bevosita ta'sir qilishini ko'rsatadi. Ayniqsa, tezkorlik va koordinatsiya oshishi natijasida to'p bilan ishlash sifati yaxshilangan.

3. Psixologik holat ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	Oldin	Keyin
Ishonch darajasi	6/10	9/10
Stress darajasi	8/10	4/10
Kontsentratsiya	5/10	8/10

So'rovnoma natijalari shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhida mashg'ulotlarga bo'lgan qiziqish va ishonch darajasi oshgan, stress darajasi esa kamaygan. Bu esa mashg'ulot jarayonining to'g'ri tashkil etilganligi va uning psixologik jihatdan ham ijobiy ta'sir ko'rsatganini tasdiqlaydi.

4. Qo'shimcha kompleks test natijalari

Ko'rsatkich	Nazorat (o'sish %)	Tajriba (o'sish %)
Tezkorlik	4%	9%
Chidamlilik	5%	12%
Kuch	6%	15%
Epchillik	4%	11%

Qo'shimcha testlar ham asosiy natijalarni tasdiqladi. Tajriba guruhida barcha jismoniy sifatlar kompleks ravishda rivojlangan. Bu esa mashg'ulot dasturining ilmiy asosda tuzilganligini va uning yuqori samaradorligini ko'rsatadi.

Olingan natijalarni ilmiy adabiyotlar bilan taqqoslaganda, ular V.K. Balsevich, L.P. Matveev va Yu.V. Verxoshanskiylarning nazariy qarashlarini tasdiqlaydi. Ya'ni, jismoniy sifatlarni kompleks va maqsadli rivojlantirish sport natijalarini sezilarli darajada oshiradi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki: jismoniy sifatlar va texnik ko'nikmalar o'zaro bog'liq; individuallashtirilgan mashg'ulotlar yuqori samara beradi; mashg'ulot jarayonida zamonaviy usullardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Qisqacha xulosa (natijalar bo'yicha). Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ishlab chiqilgan maxsus mashg'ulot dasturi gandbolchilarning jismoniy, texnik va psixologik tayyorgarligini kompleks ravishda rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega.

Jismoniy sifatlarni rivojlantirish usullari:

1. Qaytarish usul–tezkorlik va kuchni oshirishda samarali.
2. Interval usuli– chidamlilikni rivojlantirishda qo'llaniladi.
3. Aylanma mashg'ulot–bir vaqtda bir nechta sifatlarni rivojlantiradi.
4. O'yin usuli–sportchilarning qiziqishini oshiradi.

Qo'llanilgan vositalar: Spetsifik gandbol mashqlari; Sakrash mashqlari (pliometrika); Qisqa masofaga yugurish; Rezina tasmalar bilan mashqlar; Koordinatsion zina (ladder drills); To'p bilan tezkor mashqlar. Bu vositalar kompleks tarzda qo'llanilganda yuqori samara berishi aniqlandi.

Xulosa

Mazkur tadqiqot ishida gandbol sport turi bilan shug'ullanuvchi yosh sportchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashg'ulot dasturining samaradorligi ilmiy-amaliy jihatdan o'rganildi. Tadqiqot jarayonida qo'llanilgan pedagogik eksperiment, test sinovlari va statistik tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Birinchidan, gandbolchilarning jismoniy sifatlarini (tezkorlik, kuch, chidamlilik, epchillik va sakrash qobiliyati) rivojlantirishda maxsus tuzilgan mashg'ulot dasturi an'anaviy mashg'ulotlarga nisbatan yuqori samaradorlikka ega ekanligi aniqlandi. Tajriba guruhida barcha ko'rsatkichlar bo'yicha o'sish sur'atlari sezilarli darajada yuqori bo'lgani ushbu dasturning ilmiy asoslanganligini tasdiqlaydi.

Ikkinchidan, jismoniy sifatlarning rivojlanishi sportchilarning texnik-taktik harakatlariga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatishi isbotlandi. Xususan, to'p bilan ishlash aniqligi, uzatmalar sifati va hujum samaradorligi oshgani jismoniy tayyorgarlik darajasi bilan uzviy bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Uchinchidan, tadqiqot jarayonida qo'llanilgan mashg'ulot usullari sportchilarning psixoemotsional holatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Ishtirokchilarda mashg'ulotlarga bo'lgan qiziqishning oshishi, ishonch darajasining yuqorilashi va stress holatining kamayishi qayd etildi. Bu esa mashg'ulot jarayonini samarali tashkil etishda psixologik omillarni ham hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

To'rtinchidan, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, mashg'ulot jarayonida individual yondashuvni qo'llash, yuklamalarni bosqichma-bosqich oshirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish yuqori natijalarga erishishda muhim ahamiyatga ega.

Beshinchidan, olingan natijalar ilmiy adabiyotlarda keltirilgan nazariy qarashlar bilan uyg'un holda bo'lib, jismoniy sifatlarni kompleks rivojlantirish sport natijalarini yaxshilashning asosiy omillaridan biri ekanligini yana bir bor tasdiqladi.

Shu bilan birga, tadqiqot davomida aniqlangan ijobiy natijalarga qaramasdan, kelgusida ushbu yo'nalishda yanada chuqurroq tadqiqotlar olib borish, xususan: turli yosh toifalaridagi gandbolchilar bilan solishtirma tahlillar o'tkazish; gender xususiyatlarini hisobga olgan holda mashg'ulot dasturlarini ishlab chiqish; raqamli monitoring va innovatsion texnologiyalarni joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Umuman olganda, ishlab chiqilgan mashg'ulot dasturi gandbolchilarning jismoniy, texnik va psixologik tayyorgarligini kompleks ravishda takomillashtirishga xizmat qilib, amaliyotda keng qo'llash uchun tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Toshkent, 2017.
2. Achilov A.M., Akramov J.A., Goncharova O.V. Bolalarning jismoniy sifatlarini tarbiyalash. Toshkent, 2009.
3. Yunusova Yu.M. Sport faoliyatining nazariy asoslari.Toshkent, 1994.
4. Platonov V.N. Sistema podgotovki sportsmenov v olimpiyskom sporte. 2004. 34 st.

5. Lyax V.I. Koordinatsionno'e sposobnosti: diagnostika i razvitie. 2006. 17 st.
6. Bakiev Z.A. Individualizatsiya texniko-takticheskoy podgotovki bortsov na osnove avtomatizirovannogo analiza sorevnovatelnoy deyatelnosti. Dis. kand. ped. nauk. 2009. 45 st.
7. Shaxmuradov Yu.A. Nauchno-metodicheskie osnovo' mnogoletney texniko-takticheskoy podgotovki bortsov (na primere volnoy borbo'). Avtoref. dis. d. ped. nauk. – M., 1999. 78 st.
8. Kerimov F.A. Sport soxasidagi ilmiy tadqiqotlar. - T.: O'zDJTI, 2004. -264 s.
9. Isroilov R.I., Xabibjonova X.M. Gandbolda burchak o'yinchilarning musobaqa faoliyatidagi xujum texnik –taktik xarakatlari taxlili. Fan-Sportga ilmiy nazariy jurnal. 2018. №1. Б. 50-55. [13.00.04. №16]

Muallif:
Kambarov Davronbek Saytboyevich - Guliston davlat universiteti "Sport o'yinlari, kurash nazariyasi va uslubiyoti**"** kafedrasi v.b. dotsenti, p.f.f.d.(PhD)

UDK 372.3/.4

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING RESEARCH SKILLS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS BY INCREASING THEIR LEVEL OF LITERACY IN THE FIELD OF NATURAL SCIENCES

TABIIY FANLAR SAVODXONLIGINI YUKSALTIRISH ASOSIDA KICHIK YOSHDAGI MAKTAB O'QUVCHILARINING TADQIQOTCHILIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK NEGIZLARI

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ НАВЫКОВ УЧАЩИХСЯ МЛАДШИХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ ПОВЫШЕНИЯ УРОВНЯ ГРАМОТНОСТИ В ОБЛАСТИ ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК

Ro'zimatov Jamshid
Guliston davlat pedagogika instituti. 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze
E-mail: jamshidrozmatov1313@gmail.com

Abstract. The article investigates the scientific and theoretical foundations of developing research skills in primary school students through the enhancement of scientific literacy. The study analyzes the cognitive development characteristics of young learners and the methods of channeling their natural curiosity into systematic inquiry. It highlights the integrative potential of science textbooks and the pedagogical conditions for implementing practical and project-based methods in the educational process. Furthermore, conclusions are drawn regarding the psychological mechanisms of fostering a scientific worldview and independent thinking in students based on modern educational approaches.

Keywords: scientific literacy, research skills, primary education, integrative approach, cognitive development, practical activity, project-based method, scientific worldview, competence.

Annotatsiya. Maqolada kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda tabiiy savodxonlikni rivojlantirish orqali tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari tadqiq etilgan. Tadqiqotda boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv rivojlanish xususiyatlari, ularning atrof-muhitni anglashga bo'lgan tabiiy qiziquvchanligini tizimli izlanishga yo'naltirish masalalari tahlil qilingan. "Tabiiy fanlar" darsliklarining integrativ imkoniyatlari hamda o'quv jarayonida amaliy va loyiha usullaridan foydalanishning pedagogik shartlari yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy ta'lim yondashuvlari asosida o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash va mustaqil fikrlashni shakllantirishning psixologik mexanizmlari bo'yicha xulosalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Tabiiy savodxonlik, tadqiqotchilik ko'nikmalari, boshlang'ich ta'lim, integrativ yondashuv, kognitiv rivojlanish, amaliy faoliyat, loyiha usuli, ilmiy dunyoqarash, kompetensiya.

Аннотация. В статье исследуются научно-теоретические основы формирования исследовательских навыков у учащихся младшего школьного возраста посредством развития естественнонаучной грамотности. В работе проанализированы особенности когнитивного развития младших школьников, вопросы направления их естественной любознательности в русло систематического научного поиска. Освещены интегративные возможности учебников по естественным наукам и педагогические условия использования практических и проектных методов в образовательном процессе. Также изложены выводы по психологическим механизмам формирования научного мировоззрения и самостоятельного мышления учащихся на основе современных образовательных подходов.

Ключевые слова: естественнонаучная грамотность, исследовательские навыки, начальное образование, интегративный подход, когнитивное развитие, практическая деятельность, метод проектов, научное мировоззрение, компетенция.

KIRISH. Hozirgi kunda ta'lim tizimida bunday texnologiya va usullarni joriy etish nafaqat o'quvchilarni mavzuni oson o'zlashtirishga yordam beradi, balki o'qituvchilarning o'quvchilarga individual yondashuvni tashkil etishni xizmat qiladi. Endilikda yangi ta'lim standartlari va o'quv darsturilari, darsliklar mazmuni bo'yicha o'quvchilar ko'proq o'z ustida ishlashga, amaliy mashg'ulotlarni sinfda va sinfdan tashqari ishlarda mustaqil tayyorlashga o'rgatish ko'nikmalarini rivojlantirishga e'tibor qaratadi. Shu ma'noda 3-4-sinflarda "Tabiiy fanlar" fanini o'rganishda o'quvchilarni o'z ustida ishlashga o'rgatish davomida o'zlariga qiziqarli mavzuni tanlab olish va bevosita u bilan bog'liq bo'lgan muammolarni o'rganish uchun kichik tadqiqotlar shaklida yo'naltiriladi.

Bu shakldagi kichiki tadqiqotlar bevosita o'quvchiga axborotni qidirish, qayta ishlash va undan foydalanishning zamonaviy metodlarini egallashga, ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatining ba'zi bir elementar metodlarini o'zlashtirishga, o'zining tadqiqotchilik pozitsiyasini aniqlashga, amalga oshirayotgan kichik tadqiqotini yana davom ettirishga, vaqt o'tishi bilan tadqiqotchilik ko'nikmasini kompetensiya darajasiga yetkazilishiga imkon beradi.

Ta'lim bilan bog'liq adabiyotlarda kompetentlilik tushunchasiga juda ko'p olimlarning tadqiqiy fikr-mulohazalari keltirilgan. Kompetensiya – bu egallangan nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy

masalalarni yechishda foydalanish va uni amaliyotda qo‘llay olish imkoniyatidir. Kompetentlilik (lot: competens – layoqatli, qobiliyati bor) shaxs bilim, ko‘nikma va tajribalarining uning ijtimoiy-professional mavqei va o‘ziga tegishli vazifalar bajarish, muammolar hal qilishga yetarliligi ham haqiqiy moslik darajasi hisoblanadi

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Tabiiy savodxonlik tushunchasini rivojlantirishda xalqaro tashkilotlar ham muhim o‘rin tutadi. Xususan, OECD va uning PISA dasturi doirasida tabiiy savodxonlikning zamonaviy modeli ishlab chiqilgan. Unda o‘quvchining ilmiy bilimni qo‘llay olish, muammolarni hal qilish va dalillarga asoslangan qaror qabul qilish qobiliyati asosiy mezon sifatida belgilangan[9].

Shuningdek, Jerome Bruner[1] tomonidan ishlab chiqilgan “discovery learning” (kashf etish orqali o‘rganish) nazariyasi ham tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Uning fikricha, o‘quvchi tayyor bilimni emas, balki mustaqil ravishda kashf etilgan bilimni yaxshiroq o‘zlashtiradi. Bu yondashuv tabiiy savodxonlikni shakllantirishda juda samarali hisoblanadi.

Rus va MDH olimlaridan Vasily Davydov[2] ishlarida rivojlantiruvchi ta’lim konsepsiyasi ilgari surilgan bo‘lib, unda o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatlarini shakllantirish asosiy maqsad sifatida qaraladi. Bu konsepsiya tadqiqotchilik faoliyati bilan uzviy bog‘liqdir.

O‘zbek pedagog olimlari ham mazkur masalaga alohida e’tibor qaratgan. Jumladan, R. Ishmuhamedov ta’limda innovatsion texnologiyalarni joriy etish va o‘quvchilarning faolligini oshirish masalalarini tadqiq etgan[3]. Shuningdek, N ta’lim jarayonida interaktiv metodlar va mustaqil fikrlashni rivojlantirish masalalari o‘rganilgan.

Avvalo, Lev Semyonovich Vigotskiy[5] kichik yoshdagi bolalar rivojlanishining ijtimoiy-psixologik asoslarini ishlab chiqqan. Uning “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasiga ko‘ra, bola kattalar yordamida murakkab faoliyatni bajara oladi va shu jarayonda tadqiqotchilik ko‘nikmalari rivojlanadi.

Pedagogik nazariya sohasida Isaak Yakovlevich Lerner[4] va Mixail Nikolaevich Skatkin[] ta’lim mazmunini shakllantirish va o‘quvchilarning ijodiy faolligini rivojlantirish masalalarini tadqiq etganlar. Ular muammoli ta’lim va ijodiy topshiriqlar orqali o‘quvchilarni tadqiqotchilikka jalb qilish zarurligini asoslab bergan.

Zamonaviy Rossiya pedagogikasida Andrey Viktorovich Xutorskoy[6] kompetensiyaviy yondashuvni rivojlantirib, o‘quvchining bilimni hayotda qo‘llay olish qobiliyatini ustuvor vazifa sifatida belgilagan. Bu esa tabiiy savodxonlik tushunchasi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Xulosa qilib aytganda, Lev Semyonovich Vigotskiy, Vasiliy Vasilevich Davidov, Daniil Borisovich Elkonin, Pyotr Yakovlevich Galperin, Aleksey Nikolaevich Leontev, Isaak Yakovlevich Lerner, Mixail Nikolaevich Skatkin va Andrey Viktorovich Xutorskoy kabi olimlarning ilmiy merosi kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda tadqiqotchilik faoliyati va tabiiy savodxonlikni rivojlantirishning mustahkam ilmiy-nazariy poydevorini tashkil etadi

Zamonaviy tadqiqotlarda tabiiy savodxonlikni rivojlantirishda inquiry-based learning (tadqiqotga asoslangan ta’lim), STEM ta’lim, loyiha usuli kabi yondashuvlar ilmiy jihatdan asoslangan[7]. Bu yondashuvlar o‘quvchini faol tadqiqotchi sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

NATIJALAR. Kichik maktab yoshdagi o‘quvchilarini ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yo‘naltirish Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda tabiiy savodxonlikni shakllantirish zamonaviy ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu davr bolaning bilish faoliyati, dunyoqarashi va shaxsiy sifatlari shakllanishida hal qiluvchi bosqich bo‘lib, aynan shu paytda tabiatga oid ilmiy tushunchalarning asosi qo‘yiladi.

Avvalo, tabiiy savodxonlik o‘quvchilarda **atrof-muhitni anglash va tushunish qobiliyatini rivojlantiradi**. Kichik yoshdagi bolalar tabiat hodisalariga qiziqish bilan qaraydilar, ammo bu qiziqishni ilmiy bilimlar bilan boyitish zarur. Tabiiy savodxonlik orqali o‘quvchilar tabiatdagi sabab-oqibat bog‘lanishlarini tushuna boshlaydilar va bu ularning mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi.

Ikkinchidan, tabiiy savodxonlik **tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirishning asosiy poydevori** hisoblanadi. O‘quvchi kuzatish, tajriba o‘tkazish, tahlil qilish va xulosa chiqarish orqali bilimni mustaqil ravishda o‘zlashtiradi. Bu esa uning faol sub’ekt sifatida shakllanishini ta’minlaydi.

Uchinchidan, tabiiy savodxonlik **mustaqil fikrlash va muammoni hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi**. O‘quvchilar tabiat hodisalarini tushuntirishga harakat qilar ekan, ularda tahlil qilish, solishtirish va umumlashtirish ko‘nikmalari shakllanadi. Bu ko‘nikmalar nafaqat ta’limda, balki hayotiy vaziyatlarda ham muhim ahamiyatga ega.

To‘rtinchidan, tabiiy savodxonlik **ekologik madaniyat va mas’uliyatli munosabatni shakllantiradi**. Kichik yoshdan boshlab tabiatni asrash, resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish kabi qadriyatlar o‘quvchilar ongiga singdiriladi.

Beshinchidan, tabiiy savodxonlik **bilimlarni hayot bilan bog‘lash imkonini beradi**. O‘quvchilar tabiat haqidagi bilimlarni kundalik hayotda qo‘llashni o‘rganadilar. Bu esa ta’limning amaliy ahamiyatini oshiradi.

Shu bilan birga, xalqaro baholash dasturlari, jumladan PISA, tabiiy savodxonlikni o‘quvchining ilmiy bilimlarni hayotda qo‘llay olish qobiliyati sifatida baholaydi. Bu esa mazkur kompetensiyaning global ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Psixologik nuqtai nazardan aytganda, Jean Piaget ta’limotiga ko‘ra, kichik maktab yoshidagi bolalar bilimni amaliy faoliyat orqali o‘zlashtiradilar. Demak, tabiiy savodxonlikni shakllantirish ularning yosh xususiyatlariga to‘liq mos keladi. Shuningdek, Lev Vygotsky ta’limotiga ko‘ra, ijtimoiy hamkorlik va yo‘l-yo‘riq orqali bolaning bilish imkoniyatlari kengayadi, bu esa tabiiy savodxonlikni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Tabiatni bilishdagi imkoniyatlarning ortib borayotganligi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida yuzaga kelgan qiziqishni yanada oshirishga yordam beruvchi o‘quv materiallarining darsliklar sahifasida o‘z aksini topishini taqozo qiladi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 3-sinfi uchun tavsiya etilgan «Tabiiy fanlar» darsligida bu jihat o‘z aksini topishi zarur. Ayni vaqtda maktablar amaliyotida qo‘llanib kelinayotgan darslikda o‘lkashunoslik tamoyili tabiiy hodisa va jarayonlar mohiyatini yoritishga xizmat qiluvchi materiallar o‘rtasida muayyan izchillik, tizimlilikni yuzaga kelishini ta’minlaydi.

3-sinf uchun mo‘ljallangan “Tabiiy fanlar” darsligida keltirilgan ma’lumotlar 1-2- sinf “Tabiiy fanlar” darsligiga bevosita bog‘liq bo‘lib, bu darslikda ma’lumotlar chuqurroq va turf axil ko‘rinishda tasvirlangan.. Shuningdek, keltirilayotgan ma’lumotlar o‘quvchilar hayotida uchraydigan hodisalar va predmetlarni o‘z ichiga olib, o‘quvchilarning tabiatni anglash va uni asrash, tabiatga ozor bermaslik, aksincha, tabiiy boyliklarimizni tejash, o‘quvchilar hayoti davomida uchratishi mumkin bo‘lgan hayvonlar, hasharotlar,

suvda va quruqlikda uchraydigan hayvonlar, ob-havo va tabiat ajoyibotlari haqida ma'lumotlarni bilib oladilar. Har bir mavzu o'quvchilarga tabiiy fanlar orasidagi integrativ aloqadorlikni samarali tashkil etish imkoniyatini yaratgan.

O'quvchilar tabiiy bilimlarni egallash jarayonida biologiya, georgafiya, atronomiya, fizika va kimyoga oid tushunchalarni belgilangan mavzularni o'rganish va anglash asosida bilib oladi. Deyarli barcha hollarda o'quvchilarni uyga berilgan vazifalarini oila a'zolari bilan birgalikda bajarishga bo'lgan imkoniyat ham ularni fanni mustaqil va mustahkam o'rganish imkonini yaratadi. Darslikning so'ngida berilgan tadqiqot loyihasini qanday bajarish to'g'risidagi yo'riqnoma o'quvchilarning tajriba – sinov olib borishlariga katta yordam beradi. O'quvchilar yozgi ta'til vaqtida vaqtlarini mazmunli o'tkazish uchun 14 ta tadqiqot loyihalari uchun mavzular berilgani buning yaqqol isboti hisoblanadi.

Masalan, 4-sinfda o'quvchilar "O'simliklar'' haqida ma'lumot berilgan bobni o'rganish jarayonida 10-sahifadan 38-sahifalarni o'z ichiga oladi. Ya'ni o'simliklar xilma-xilligi, barglari, atrof-muhitga ta'siri, guruhlari, insonlarning o'simliklar dunyosidagi tas'siri va qizil kitob haqida. ***2-mavzudagi*** loyiha ishi bu '' O'simliklar o'zidan namlik va kislarod chiqarishini isbotlash uchun tajriba o'tkazish'' ***3-mavzudagi*** loyiha ishi bu ''O'simliklar ichida rang beruvchi pigmentlar borligini isbotlash'' ***4-mavzudagi*** loyiha ishi bu ''xonaki o'simliklarni kuzatish. Ularga yorug'lik yetmasa yoki keragidan ortiq quyosh tushsa nima bo'ladi? Sovuq yoki issiq ta'sirida o'simlikda qanday o'zgarishlar kuzatiladi?'' ***5-mavzudagi*** topshiriqlar ''Guruhlardan biriga atab sinkveyn (besh qatorlik she'r) yozing. ***6-mavzudagi*** topshiriqlar ''Insonga foyda keltiradigan o'simliklarni eslab yozing'', ''Havoni eng ko'p namlantiradigan o'simliklarning nomlarini yozing'' ***7-mavzudagi*** topshiriqlar ''madaniy o'simliklarning yovvoyi o'simliklardan farqlarini yozing'' , ''Chiqindini konteynrlarga ajrating. Qanday chiqindini qaysi kontenrga solish kerak''. Loyiha ishi esa ''Oilangizda so'rovnoma o'tkazib bitta oila bir haftada, bir oyda, bir yilda qancha chiqindi tashlashini hisoblab ko'ring. Chiqindilarning qaysi turlarini qayta ishlashga yuborish mumkin, deb o'ylaysiz?'' ***8-mavzudagi*** topshiriqlar ''Daftarga qizil kitob haqida qisqacha ma'lumot yozing'', ''Bir odam noyob o'simlikni yulayotganini ko'rib qolsangiz, qanday yo'l tutasiz?''. Mazkur bob o'zlashtirilgan ma'lumotlar ta'sirida o'quv yili yakuniga kelib, ularning dunyoqarashlari kengayadi. Shu bilan birga boshqa mintaqalar (turli davlatlar joylashgan hududlar)ning tabiati va o'simlik dunyosi bilan tanishadilar. Bu esa ularga xos bo'lgan jihatlarni o'lka tabiati bilan qiyosiy o'rganish imkonini yaratadi. Qiyosiy o'rganish esa mavjud bilimlar hajmini oshiradi.

Garchi «Tabiiy fanlar» o'quv predmeti bo'yicha tavsiya etilgan darsliklarda bugungi kun talablari inobatga olingan bo'lsa-da, o'quv materiallarini mazmunan o'quvchilarda faollikni yuzaga keltirish, shaxsiy tajribalarini oshirish, nazariy bilimlarni o'zlashtirishda o'lkashunoslik manbalariga tayanishga imkon beruvchi axborot texnologiyalari, interfaol metodlar hamda tabiiy kuzatish vositalari bilan boyitish maqsadga muvofiqdir. Eng muhimi mazkur darsliklarning deyarli 80% amaliy mashg'ulot va laborotoriya mashg'ulotlarlaridan iborat bo'lganligi bois, asosiy nazariy bilimlar har bir amaliy mashg'ulotda o'quvchining mustaqil ishlashini amalga oshirish imkonini yaratadi.

Tabiiy fanlar darsligi integrativ fan sifatida: turli tabiiy fanlar mazmunini birlashtiradi; tabiatni yaxlit tizim sifatida o'rganishni ta'minlaydi; tabiiy savodxonlik va tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantiradi; o'quvchilarda ekologik madaniyat va ilmiy dunyoqarashni shakllantiradi.

Shuning uchun integrativ tabiiy fanlar darsligi kichik maktab ta'limining muhim metodik vositasi sifatida qaraladi.

Integrativlik, avvalo, tabiat hodisalarini alohida emas, balki o'zaro bog'liq tizim sifatida o'rganishni nazarda tutadi. Masalan, o'simliklar mavzui faqat biologik jihatdan emas, balki geografik sharoit, iqlim, tuproq tarkibi va ekologik omillar bilan bog'liq holda tushuntiriladi. Bu esa o'quvchining tabiatni kompleks anglashini ta'minlaydi.

MUHOKAMA. Mazmun jihatdan tabiiy fanlar darsligi quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

Birinchi, **jonli va jonsiz tabiat haqidagi bilimlar**. Unda o'simliklar, hayvonlar, inson organizmi, havo, suv, tuproq kabi tabiat ob'ektlari haqida umumiy tushunchalar beriladi. Bu bilimlar o'quvchilarda tabiatning yaxlit tizim ekanligi haqida tasavvur hosil qiladi.

Ikkinchi, **tabiat hodisalari va jarayonlari**. Masalan, suv aylanishi, fasllar almashinuvi, ob-havo o'zgarishi kabi jarayonlar turli fanlar nuqtai nazaridan tushuntiriladi. Bu esa tabiatdagi sabab-oqibat bog'lanishlarini anglashga yordam beradi.

Uchinchi, **inson va tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabat**. Darslikda inson faoliyatining tabiatga ta'siri, ekologik muammolar va ularni hal etish yo'llari yoritiladi. Bu o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

To'rtinchi, **amaliy va tadqiqotchilik faoliyati elementlari**. Darslik mazmuniga kuzatish, tajriba, loyiha ishlari kabi amaliy topshiriqlar kiritiladi. Bu esa o'quvchilarda tabiiy savodxonlik va tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Integrativ darslikning muhim jihatlaridan yana biri — **fanlararo bog'lanishni ta'minlash**dir. Masalan: matematika bilan — o'lchash, hisoblash; ona tili bilan — kuzatish natijalarini bayon qilish; texnologiya bilan — modellashtirish va amaliy ishlar.

Bu yondashuv o'quvchilarda bilimlarni kompleks qabul qilish va turli sohalarda qo'llash qobiliyatini rivojlantiradi.

Pedagogik nuqtai nazardan, integrativ darslik **kompetensiyaviy yondashuvga asoslanadi**. Unda bilimdan ko'ra, uni qo'llay olish, muammoni hal qilish va hayotiy vaziyatlarda foydalanish muhim hisoblanadi. Shu sababli darslik mazmunida real hayotga yaqin misollar, muammoli savollar va tadqiqotchilik topshiriqlari keng o'rin olgan.

Shu bilan birga, integrativ tabiiy fanlar darsligi kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning psixologik xususiyatlariga mos ravishda tuziladi. Unda ko'rgazmalilik, soddalik, izchillik va qiziqarlilik ta'minlanadi. Bu esa bilimlarni samarali o'zlashtirishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich ta'limning so'nggi bosqichlarida o'quvchilar tomonidan egallangan tabiat haqidagi bilimlarning hajmi va mazmuni (o'simlik va hayvonlarning turi, tarkibi, mavsumiy o'zgarishlar, tabiiy hodisalarning sodir bo'lish sabablari va hokazolar) o'quvchilarning tabiatni bilishga bo'lgan qiziqishlarini differensiyalashga imkon beradi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilish faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga oid ko'nikma va malakalarni shakllantirish o'rganilayotgan ob'ektning mohiyati, uning ichki aloqa va munosabatlari mazmunini anglashga imkon beradi.

XULOSA. Tajriba jarayonida aniqlanishicha, mahsuldor ijrochilik faoliyati, tayyor ilmiy ma'lumotlarni yodlash, o'qituvchi tomonidan tabiiy hodisalar mohiyatini og'zaki ravishda ifodalash o'quvchilarda aqliy faoliyatning murakkab ko'rinishlari, jumladan, kuzatish, tahlil etish, tizimlashtirish, qiyoslash, umumlashtirish, sabab va oqibatlar o'rtasidagi munosabatlarni belgilash, tadqiqotchilik ko'nikma va malakalarini shakllanishiga imkon bermaydi. Ushbu yosh davrida tabiatni bilishga bo'lgan qiziqishni uyg'otish esa bevosita o'quvchilar tomonidan aqliy faoliyatning murakkab shakllari asosida tashkil etilishi bilan bog'liq.

Tabiiy sharoitlarda kuzatish va ekskursiyalarni tashkil etish, shuningdek, tabiiy ob'ekt yoki hodisalarni kuzatish quyidagi holatlarda ijobiy samaralar bera oladi:

1. Kuzatilishi zarur bo‘lgan ob’ektning aniq belgilanishi.
2. Ob’ektlarni kuzatishda muayyan izchil va ketma-ketlikka amal qilish.
3. O‘quvchilarga muayyan savollarni berish asosida ular tomonidan kuzatilayotgan ob’ekt yoki hodisaning mohiyatini to‘la o‘zlashtirilishini ta’minlash.
4. Kuzatish natijalarini dalillar asosida qayd etib borish.
5. Kuzatish natijalarini qayd etishda har bir o‘quvchining mustaqil fikrlashiga erishish.

Tadqiqotchilikka yo‘naltirish asnosida loyiha ishlari mavzularini oldindan o‘quvchilarning shaxsiy qiziqishlari va imkoniyatlarini inobatga olgan holda kasbga yo‘naltirish xususiyatlari asosida tanlashimiz maqsadga muvofiq. Bu borada o‘quvchilarning ishni bajara olish ko‘nikmalarini rivojlantirib borish va unga mas’uliyatli yondashishni talab qilish zarur. O‘qituvchilar o‘quvchilarning loyiha ishlarini amalga oshirish bosqichlarini doimiy nazorat qilib borish bilan birga, uni bajarish ko‘nikmalarini rivojlanishini kuzatib boradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Bruner J.S. The Process of Education. – Cambridge: Harvard University Press, 1960.
2. Davydov V.V. Problems of Developmental Instruction: A Theoretical and Experimental Psychological Study. – Moscow: Progress, 1986.
3. Ishmuhamedov R.J. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2008. – 160 b.
4. Lernyer I.Ya. Problemnoe obuchenie. – Moskva: Znanie, 1974. – 64 s.
5. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
6. Xutorskoy A.V. Kompetentnostniy podxod v obuchenii. Nauchno-metodicheskoe posobie. – Moskva: Izdatelstvo «Eydos», 2013. – 73 s.
7. IBE-UNESCO. Personalized Learning: A Guide for Engaging Students with Inquiry-Based Learning. – Geneva: International Bureau of Education, 2017. – 68 p.
8. O‘zbekiston Respublikasi umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 3-sinfi uchun "Tabiiy fanlar" darsligi. – T.: Respublika ta’lim markazi, 2022-2023.
9. OECD (2023). PISA 2022 Results (Volume I): The State of Learning and Equity in Education. PISA, OECD Publishing, Paris.

Muallif:
Ro‘zimatov Jamshid - Guliston davlat pedagogika institute 2-bosqich tayanch doktoranti, “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi.

UDK 372.800.4

MECHANISMS FOR IMPROVING AUTOMATED EVALUATION TECHNOLOGY BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE

SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA AVTOMATLASHTIRILGAN BAHOLASH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI

МЕХАНИЗМЫ УЛУЧШЕНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ АВТОМАТИЗИРОВАННОЙ ОЦЕНКИ НА ОСНОВЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

Norboyev Sirojiddin G‘anisher o‘g‘li
Yangi Asr Universiteti. 100097, Toshkent, Chilonzor tumani, Qatortol ko'chasi, Chilonzor-8 mavzesi, 8
E-mail: sirojiddin-norboyev2026@gmail.com

Abstract. This article analyzes the mechanisms for improving automated assessment systems based on artificial intelligence (AI) technologies in the education system from a scientific, theoretical and practical perspective. The existing problems of automated assessment, AI approaches aimed at increasing the fairness, transparency, flexibility and reliability of assessment are considered. Mechanisms for modernizing the assessment process based on machine learning, deep learning, natural language processing, knowledge analysis and learning analytics are proposed. The results of the study serve to develop methodological recommendations for the effective implementation of AI-based assessment systems in higher and secondary specialized education.

Keywords: artificial intelligence, automated assessment, adaptive assessment, machine learning, learning analytics, educational technologies.

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta’lim tizimida sun’iy intellekt (SI) texnologiyalariga asoslangan avtomatlashtirilgan baholash tizimlarini takomillashtirish mexanizmlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Avtomatlashtirilgan baholashning mavjud muammolari, baholashning adolatliligi, shaffofligi, moslashuvchanligi va ishonchliligini oshirishga qaratilgan SI yondashuvlari ko‘rib chiqiladi. Mashinaviy o‘rganish, chuqur o‘rganish, tabiiy tilni qayta ishlash, bilimlarni tahlil qilish va o‘quv analitikasi asosida baholash jarayonini modernizatsiya qilish mexanizmlari taklif etiladi. Tadqiqot natijalari SI asosidagi baholash tizimlarini oliy va o‘rta maxsus ta’limda samarali joriy etish uchun metodik tavsiyalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, avtomatlashtirilgan baholash, adaptiv baholash, mashinaviy o‘rganish, o‘quv analitikasi, ta’lim texnologiyalari.

Аннотация. В данной статье с научной, теоретической и практической точек зрения анализируются механизмы совершенствования автоматизированных систем оценивания на основе технологий искусственного интеллекта (ИИ) в системе образования. Рассматриваются существующие проблемы автоматизированного оценивания, подходы ИИ, направленные на повышение справедливости, прозрачности, гибкости и надежности оценивания. Предлагаются механизмы модернизации процесса оценивания на основе машинного обучения, глубокого обучения, обработки естественного языка, анализа знаний и

аналитики обучения. Результаты исследования служат основой для разработки методических рекомендаций по эффективному внедрению систем оценивания на основе ИИ в высшем и среднем специализированном образовании.

Ключевые слова: искусственный интеллект, автоматизированное оценивание, адаптивное оценивание, машинное обучение, аналитика обучения, образовательные технологии.


Kirish. Raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim jarayonining barcha bosqichlari, xususan, bilim va ko‘nikmalarni baholash tizimi tubdan yangilanmoqda. An’anaviy baholash usullari ko‘pincha subyektivlik, vaqt sarfi va individual yondashuvning yetishmasligi kabi muammolarga duch keladi. Shu bois, sun’iy intellekt asosida avtomatlashtirilgan baholash texnologiyalarini joriy etish va takomillashtirish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Avtomatlashtirilgan baholash tizimlari testlar, yozma ishlar, loyiha va amaliy topshiriqlarni baholashda inson omilini kamaytirib, natijalarning aniqligi va tezkorligini oshiradi. Biroq mavjud tizimlar ko‘pincha faqat yopiq test topshiriqlariga yo‘naltirilgan bo‘lib, yuqori darajadagi kognitiv faoliyatni to‘liq baholash imkonini bermaydi. Ushbu maqolada aynan shu muammolarni bartaraf etish uchun SI asosida takomillashtirish mexanizmlari o‘rganildi.

Avtomatlashtirilgan baholash — bu axborot texnologiyalari yordamida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini baholash jarayonini avtomatik tarzda amalga oshirishdir. Bunda test tizimlari, elektron portfellar, onlayn topshiriqlar va analitik vositalar qo‘llaniladi. Avtomatlashtirilgan baholash texnologiyalari ta’lim jarayonida nazorat va tahlilning samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim pedagogik mexanizm hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar yordamida o‘quvchilarning bilim darajasi, o‘zlashtirish sur’ati va kompetensiyalarining shakllanishi real vaqt rejimida monitoring qilinadi. Avtomatlashtirilgan baholash subyektiv omillarni kamaytirib, baholash natijalarining aniqligi va ishonchliligini ta’minlaydi. Ayniqsa, sun’iy intellekt algoritmlaridan foydalanish baholash jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan va adaptiv ko‘rinishga keltiradi. Bunda o‘quvchining individual xatolari, bilimdagi bo‘shliqlari va kuchli tomonlari aniqlanib, keyingi o‘quv faoliyati uchun tavsiyalar ishlab chiqiladi. Avtomatlashtirilgan baholash tizimlari nafaqat yakuniy natijani, balki o‘rganish jarayonining dinamikasini ham tahlil qilish imkonini beradi. Bu esa o‘qituvchiga ta’lim strategiyasini o‘z vaqtida moslashtirishga yordam beradi. Shuningdek, bunday tizimlar katta hajmdagi o‘quv ma’lumotlarini qayta ishlash orqali ta’lim sifatini boshqarish, akademik halollikni ta’minlash va baholash shaffofligini oshirishga xizmat qiladi. Natijada avtomatlashtirilgan baholash zamonaviy raqamli ta’lim muhitining ajralmas qismi sifatida namoyon bo‘ladi.

Sun’iy intellekt baholash jarayonida katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini aniqlash va moslashuvchan baholashni tashkil etish imkonini beradi. SI yordamida baholash natijalari asosida o‘quvchilarga shaxsiy tavsiyalar berish mumkin. SI asosidagi baholash tizimlari quyidagi didaktik tamoyillarga mos bo‘lishi lozim: adolatlilik, tizimlilik, uzluksizlik, shaffoflik va rivojlantiruvchanlik. Ushbu tamoyillarni ta’minlash takomillashtirish mexanizmlarining asosiy maqsadidir.

Bugungi kunda Moodle, Google Classroom, Coursera kabi platformalarda avtomatlashtirilgan baholash modullari mavjud. Ular asosan testlar va oddiy topshiriqlarni baholashga yo‘naltirilgan. Bugungi kundagi testlar va oddiy topshiriqlarni baholash tizimlarining asosiy kamchiliklar quyidagilardan iborat: ochiq javoblarni baholashdagi cheklanganlik; talabaning ijodiy fikrlashini aniqlashdagi qiyinchiliklar; baholash natijalarining kontekstga mos kelmasligi.



1-rasm. Takomillashtirilgan baholash texnologiyasini ta’lim jarayoniga joriy etish modeli.

Sun’iy intellektga asoslangan yondashuvlar bu muammolarni bartaraf etishda asosiy yechimlardan biri bo‘lib kelmoqda. Mashinaviy o‘rganish algoritmlari, neyron tarmoqlar va tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyalari ushbu kamchiliklarni bartaraf etishda muhim rol o‘ynaydi. Adaptiv baholash o‘quvchining avvalgi natijalariga asoslanib topshiriqlar murakkabligini avtomatik moslashtiradi. Bu yondashuv baholashning aniqligi va individual yo‘naltirilganligini oshiradi. Esse va ochiq savollarga javoblarni baholashda NLP texnologiyalaridan foydalanish mazmuniy tahlilni amalga oshirish imkonini beradi. Bu esa ijodiy va tanqidiy fikrlashni baholashni kengaytiradi. SI asosida o‘quv analitikasi baholash natijalarini chuqur tahlil qilib, o‘qituvchilarga metodik qarorlar qabul qilishda

yordam beradi. Baholash jarayonida ma’lumotlar xavfsizligi, shaxsiy ma’lumotlarni himoyalash va algoritmik adolatni ta’minlash muhim hisoblanadi.

Sun’iy intellekt asosida takomillashtirilgan baholash texnologiyasini ta’lim jarayoniga joriy etish zamonaviy pedagogik tizimni raqamli transformatsiya qilishning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Mazkur texnologiya ta’lim oluvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini baholashda aniqlik, shaffoflik va individuallashtirishni ta’minlashga xizmat qiladi. Sun’iy intellekt algoritmlariga asoslangan baholash tizimlari o‘quvchilarning o‘quv faoliyati davomida hosil bo‘ladigan katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish orqali ularning bilim darajasini chuqur aniqlash imkonini beradi.

Takomillashtirilgan baholash texnologiyasini joriy etish jarayoni, avvalo, ta’lim muassasasining mavjud pedagogik va texnologik infratuzilmasini tahlil qilishdan boshlanadi. Ushbu bosqichda baholash mezonlari, o‘quv dasturlari va kutilayotgan ta’lim natijalari sun’iy intellekt imkoniyatlariga moslashtiriladi. Keyingi bosqichda mashinaviy o‘rganish va ma’lumotlarni tahlil qilish algoritmlari asosida adaptiv baholash modullari ishlab chiqiladi. Bu modullar o‘quvchining individual xususiyatlari, bilimdagi bo‘shliqlari va o‘zlashtirish tezligini hisobga olgan holda baholash jarayonini avtomatik tarzda moslashtiradi.

Sun’iy intellekt asosidagi baholash tizimlari ochiq savollar, esse, loyiha ishlari va amaliy topshiriqlarni baholashda tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyalaridan foydalanadi. Natijada baholash jarayoni faqat test natijalari bilan cheklanmay, balki o‘quvchining mantiqiy fikrlashi, tahliliy yondashuvi va ijodiy salohiyatini ham qamrab oladi. Shu bilan birga, baholash natijalari asosida shakllantiriladigan analitik hisobotlar o‘qituvchilarga ta’lim strategiyasini moslashtirish va individual yondashuvni kuchaytirish imkonini beradi.

Takomillashtirilgan baholash texnologiyasini joriy etishda monitoring va qayta aloqa mexanizmlarining mavjudligi muhim ahamiyatga ega. Sun’iy intellekt tizimi o‘quvchilarning rivojlanish dinamikasini doimiy kuzatib borib, ularning o‘qish jarayonidagi muammolarni erta aniqlashga yordam beradi. Natijada ta’lim jarayoni samaradorligi oshib, baholash tizimi rivojlantiruvchi va motivatsion vosita sifatida xizmat qiladi. Sun’iy intellekt asosida takomillashtirilgan baholash texnologiyasini ta’lim jarayoniga joriy etish baholash sifatini oshirish, ta’limni shaxsga yo‘naltirish va raqamli pedagogik muhitni shakllantirishning samarali mexanizmi hisoblanadi. Sun’iy intellekt asosida takomillashtirilgan baholash texnologiyalarini ta’lim jarayoniga joriy etish zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar yordamida baholash jarayoni avtomatlashtirilgan, shaffof va ob’ektiv ko‘rinishga ega bo‘ladi. Sun’iy intellekt algoritmlari o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini chuqur tahlil qilish orqali baholash natijalarining aniqligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda takomillashtirilgan baholash tizimlari an’anaviy baholash usullariga xos bo‘lgan subyektivlik, vaqt sarfi va individual yondashuvning yetishmasligi kabi muammolarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Adaptiv va shaxsga yo‘naltirilgan baholash mexanizmlari o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini real vaqt rejimida aniqlash va ta’lim strategiyasini moslashtirish imkonini beradi. Natijada baholash jarayoni nafaqat nazorat vositasi, balki o‘quv jarayonini rivojlantiruvchi mexanizmga aylanadi. Shuningdek, sun’iy intellekt asosidagi baholash tizimlari ta’lim sifati monitoringini takomillashtirish, akademik halollikni ta’minlash va ta’lim natijalarini prognozlash imkonini beradi. Mazkur texnologiyalarni ta’lim jarayoniga samarali joriy etish pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, metodik yondashuvlarni yangilash va zamonaviy infratuzilmani shakllantirishni talab etadi. Umuman olganda, sun’iy intellekt asosida takomillashtirilgan baholash texnologiyalari ta’lim tizimining barqaror rivojlanishini ta’minlovchi istiqbolli yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Russell, S. J., & Norvig, P. (2020). Artificial Intelligence: A Modern Approach. Pearson.
2. Shrivastava, S. (2021). "Role of AI in Modern Assessment Systems". Journal of Educational Technology.
3. Norbayev S.G’. (2026). Sun’iy intellekt asosida avtomatlashtirilgan baholash texnologiyasini takomillashtirish mexanizmlari. ISSN(E): 3067-7939 Modern American Journal of Engineering, Technology and Innovatio.

Muallif:
Norboyev Sirojiddin G‘anisher o‘g‘li - Yangi Asr Universiteti magistranti.

UDK 372.3/.4

ISSUES OF DEVELOPING SOCIOMETRIC RELATIONS IN IMPROVING COOPERATION WITH FAMILY AND SCHOOL

OILA–MAKTAB HAMKORLIK ISHLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA SOTSIOMETRIK MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ СОЦИОМЕТРИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ В УЛУЧШЕНИИ СОТРУДНИЧЕСТВА С СЕМЬЕЙ И ШКОЛОЙ

Qaraxonova L.M.
Qori Niyoziy nomidagi TPMI. 100066, Toshkent, Chilonzor tumani, Bobur ko'chasi, 174
E-mail: qoriniyoziy@gmail.com

Abstract. This article examines the importance of family–school collaboration in the development of sociometric relationships among students. It analyzes effective forms of interaction between educational institutions and parents, as well as ways to improve them. The study highlights the role of family–school cooperation in enhancing students' social adaptation, their position within the group, and interpersonal relationships.

Keywords: sociometric relationships, family–school collaboration, social adaptation, student group, upbringing, educational process, communication, psychological environment.

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘quvchilar o‘rtasidagi sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirishda oila va maktab o‘rtasidagi hamkorlikning ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, ta’lim muassasasi va ota-onalar o‘rtasidagi samarali muloqot, hamkorlik shakllari

va ularni takomillashtirish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvi, jamoadagi o‘rni va o‘zaro munosabatlarini yaxshilashda oila–maktab hamkorligining roli ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: sotsiometrik munosabatlar, oila–maktab hamkorligi, ijtimoiy moslashuv, o‘quvchilar jamoasi, tarbiya, ta’lim jarayoni, muloqot, psixologik muhit.

Аннотация. В данной статье рассматривается значение сотрудничества семьи и школы в развитии социометрических отношений среди учащихся. Анализируются формы эффективного взаимодействия между образовательным учреждением и родителями, а также пути их совершенствования. Особое внимание уделяется роли семейно-школьного сотрудничества в социальной адаптации учащихся, их положению в коллективе и улучшении межличностных отношений.

Ключевые слова: социометрические отношения, сотрудничество семьи и школы, социальная адаптация, ученический коллектив, воспитание, образовательный процесс, коммуникация, психологический климат.

Kirish. Hozirgi zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarni faqat bilim bilan ta’minlash emas, balki ularning shaxsiy, ijtimoiy va kommunikativ rivojlanishini ta’minlash ham muhim vazifa hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, sotsiometrik munosabatlar — ya’ni sinf jamoasidagi o‘zaro tanlov, yoqtirish, hamkorlik qilish, ijtimoiy guruhlarga kirish yoki chetlatilish kabi munosabatlar tizimi — o‘quvchining shaxs sifatida shakllanishida muhim pedagogik omil hisoblanadi.

Sotsiometrik munosabatlar o‘quvchining jamoadagi o‘rnini, uning o‘z-o‘zini baholashini, muloqot madaniyatini va ijtimoiy faolligini belgilaydi. Shu sababli ushbu munosabatlarni to‘g‘ri shakllantirish va rivojlantirish ta’lim-tarbiya jarayonining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda oila va maktab hamkorligi alohida ahamiyat kasb etadi. Oila bolaning ilk ijtimoiy muhiti bo‘lib, unda muloqot madaniyati, axloqiy qadriyatlar va munosabatlar tizimi shakllanadi. Maktab esa bu jarayonni davom ettiruvchi va rivojlantiruvchi asosiy ijtimoiy institutdir. Shu sababli oila va maktab o‘rtasidagi uzviy hamkorlik bolaning sotsiometrik holatini yaxshilashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Agar oilada bolaga nisbatan e’tibor, qo‘llab-quvvatlash va ishonch muhiti shakllangan bo‘lsa, u maktab jamoasiga oson moslashadi, tengdoshlari va o‘qituvchilari bilan ijobiy munosabat o‘rnata oladi. Aksincha, oiladagi ziddiyatli muhit, e’tiborning yetishmasligi yoki qattiq nazorat bolaning ijtimoiy munosabatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Sinf jamoasida har bir o‘quvchining sotsiometrik o‘rni turlicha bo‘ladi. Ayrim bolalar liderlik pozitsiyasini egallasa, ayrimlari chetlatilgan yoki passiv holatda bo‘lishi mumkin. Bu esa ularning o‘quv motivatsiyasi va shaxsiy rivojlanishiga bevosita ta’sir qiladi. Shuning uchun sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirish orqali sinfda ijobiy psixologik muhit yaratish, o‘quvchilar o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish va ijtimoiy tenglikni ta’minlash muhim vazifa hisoblanadi.

Oila–maktab hamkorligini takomillashtirish bir nechta yo‘nalishlarda amalga oshirilishi lozim. Birinchidan, maktab va ota-onalar o‘rtasida tizimli, doimiy va ochiq muloqot yo‘lga qo‘yilishi kerak. Buning uchun ota-onalar yig‘ilishlari, individual suhbatlar va zamonaviy axborot texnologiyalari orqali aloqa tizimi samarali tashkil etiladi.

Ikkinchidan, psixologik-pedagogik hamkorlikni kuchaytirish muhim hisoblanadi. Maktab psixologi va sinf rahbari ota-onalar bilan birgalikda bolaning sotsiometrik holatini tahlil qilishi, muammoli vaziyatlarni aniqlashi va ularni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishi zarur.

Uchinchidan, oila va maktab hamkorligida turli tadbirlar tashkil etish katta ahamiyatga ega. Sport musobaqalari, madaniy-ma’rifiy tadbirlar, ijodiy loyihalar va bayram tadbirlari o‘quvchilar o‘rtasida do‘stona munosabatlarni kuchaytiradi, ularni jamoa bo‘lib harakat qilishga o‘rgatadi.

To‘rtinchidan, har bir bolaga individual yondashuvni joriy etish zarur. Bu jarayonda o‘qituvchi va ota-ona birgalikda bolaning qiziqishlari, imkoniyatlari va ijtimoiy holatini hisobga olgan holda ish olib borishi kerak.

Beshinchidan, ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish maqsadida treninglar, seminarlar va davra suhbatlari tashkil etish muhim hisoblanadi. Bu ularning farzand tarbiyasidagi faolligini oshiradi va maktab bilan hamkorlikni mustahkamlaydi.

Sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirishda oilaning roli alohida ahamiyatga ega. Oiladagi muhit bolaning emotsional barqarorligi, o‘z-o‘ziga ishonchi va ijtimoiy munosabatlariga bevosita ta’sir qiladi. Qo‘llab-quvvatlovchi va ishonchli oila muhitida tarbiyalangan bola maktabda tengdoshlari bilan oson muloqot qiladi, jamoada faol ishtirok etadi va ijobiy sotsiometrik o‘rin egallaydi.

Shu bilan birga, ota-onaning maktab bilan doimiy hamkorligi muhim hisoblanadi. Faqat muammo paydo bo‘lganda emas, balki profilaktik tarzda hamkorlikni amalga oshirish sotsiometrik munosabatlarni barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirishda oila–maktab hamkorligini takomillashtirish pedagogik jarayonning muhim strategik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ijobiy, tizimli va samarali hamkorlik o‘quvchilar o‘rtasida sog‘lom ijtimoiy muhitni shakllantiradi, ularning shaxsiy rivojlanishini ta’minlaydi va ta’lim samaradorligini oshiradi.

Oila va maktabning bir maqsad yo‘lidagi hamjihatligi har bir bolaning jamoada o‘z o‘rnini topishi, ishonchli munosabatlar o‘rnatishi va barkamol shaxs sifatida shakllanishining asosiy kafolatidir.

Sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirishda oila–maktab hamkorligi masalasi pedagogik va psixologik jihatdan murakkab va o‘zaro bog‘liq jarayon hisoblanadi. Bu jarayon o‘quvchining shaxs sifatida shakllanishi, jamoadagi o‘rni va ijtimoiy munosabatlar tizimidagi faolligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Pedagogik jihatdan ushbu masala ta’lim-tarbiya jarayonini to‘g‘ri tashkil etish, o‘qituvchi faoliyatini ota-onalar bilan hamkorlikda muvofiqlashtirish va o‘quvchilar o‘rtasida sog‘lom ijtimoiy muhit yaratish bilan belgilanadi. Maktab va oila o‘rtasidagi tizimli hamkorlik bolaning maktab va uy muhitidagi xulq-atvorining uyg‘un bo‘lishini ta’minlaydi. Shuningdek, har bir o‘quvchiga individual yondashuvni amalga oshirish, uning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olish pedagogik jarayonning muhim qismi hisoblanadi.

O‘qituvchi sinfda ijobiy psixologik muhitni shakllantirishda markaziy o‘rin tutadi. Demokratik uslubdagi boshqaruv, adolatli munosabat va rag‘batlantirish tizimi o‘quvchilar o‘rtasida ishonch va hamkorlikni kuchaytiradi. Shu bilan birga, sotsiometrik tahlil usullaridan foydalanish orqali sinfdagi ijtimoiy munosabatlar holati o‘rganiladi va zarur pedagogik choralar ko‘riladi.

Psixologik jihatdan esa sotsiometrik munosabatlar bolaning ichki dunyosi, emotsional holati va shaxsiy rivojlanishi bilan bog‘liqdir. Oiladagi muhit bolaning emotsional barqarorligiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Qo‘llab-quvvatlovchi va ishonchli oila muhitida tarbiyalangan bola maktabda o‘zini erkin his qiladi, tengdoshlari bilan oson muloqot qiladi va jamoada faol ishtirok etadi.

Sotsiometrik munosabatlar bolaning o‘z-o‘zini baholash darajasiga ham ta’sir qiladi. Ijobiy munosabatlar bolada ishonch va faollikni oshirsa, salbiy munosabatlar uning passivlashuviga olib kelishi mumkin. Shu sababli bolaning ijtimoiy adaptatsiyasi, ya’ni maktab jamoasiga moslashuvi muhim psixologik omil hisoblanadi.

Shuningdek, bolaning shaxslararo muloqot madaniyati oilada shakllanadi va maktab muhitida rivojlanadi. Ota-onaning maktab bilan doimiy hamkorligi, bolaning xulq-atvori va ijtimoiy holati haqida axborot almashinuvi sotsiometrik munosabatlarni barqarorlashtirishga xizmat qiladi.

Sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirish va oila–maktab hamkorligini takomillashtirish maqsadida quyidagi ilmiy-metodik tavsiyalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1.Oila–maktab hamkorligining tizimli modelini joriy etish. Maktab va ota-onalar o‘rtasida uzluksiz, rejali va maqsadli hamkorlik tizimini shakllantirish zarur. Bu tizimda muntazam yig‘ilishlar, monitoring, qaytar aloqa va pedagogik maslahatlashuvlar o‘z aksini topishi kerak.

2.Sotsiometrik diagnostika usullaridan keng foydalanish. Sinf jamoasidagi ijtimoiy munosabatlarni aniqlash uchun sotsiometriya, kuzatuv, intervyu va anketa usullarini muntazam qo‘llash tavsiya etiladi. Bu orqali chetlatilgan, passiv va lider o‘quvchilar aniqlanadi.

3.Individual pedagogik yondashuvni kuchaytirish. Har bir o‘quvchining sotsiometrik holati, psixologik xususiyatlari va ijtimoiy faolligini hisobga olgan holda individual rivojlanish rejalarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

4.Ota-onalarning pedagogik va psixologik savodxonligini oshirish. Treninglar, seminarlar va amaliy mashg‘ulotlar orqali ota-onalarning bola psixologiyasi va jamoadagi munosabatlar haqidagi bilimlarini oshirish zarur. Bu ularning tarbiyaviy ta’sirini kuchaytiradi.

5.Ijobiy psixologik muhitni shakllantirish. Sinfda do‘stona, qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratish, o‘quvchilar o‘rtasida hamkorlik va o‘zaro hurmatni rivojlantirish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi.

6. Guruhli va interaktiv ta’lim texnologiyalaridan foydalanish. Loyiha asosidagi ta’lim, guruhli ishlar va hamkorlikda o‘qitish usullari o‘quvchilar o‘rtasida ijobiy sotsiometrik munosabatlarni shakllantiradi.

7.Oila ishtirokidagi tadbirlarni kengaytirish. Sport musobaqalari, madaniy tadbirlar, ijodiy festivallar va umumiy loyihalarda ota-onalar ishtirokini ta’minlash bolaning ijtimoiy integratsiyasini kuchaytiradi.

8.Maktab psixologi faoliyatini faollashtirish. Psixologik xizmat orqali sinfdagi sotsiometrik holat doimiy tahlil qilinishi, muammoli holatlar erta bosqichda aniqlanishi va bartaraf etilishi kerak.

9.Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish. Ota-ona va maktab o‘rtasida tezkor aloqa uchun elektron platformalar, messenjer guruhlari va onlayn monitoring tizimlarini joriy etish tavsiya etiladi.

10.Profilaktik tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish. Chetlatilish, konflikt va ijtimoiy passivlikni oldini olish uchun profilaktik tarbiyaviy ishlar tizimli ravishda olib borilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirishda oila–maktab hamkorligi pedagogik jihatdan ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirsa, psixologik jihatdan esa bolaning emotsional barqarorligi, ijtimoiy moslashuvi va shaxsiy rivojlanishini ta’minlaydi. Bu ikki jihatning uyg‘unligi barkamol shaxs tarbiyasining muhim asosi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. -T.:”O‘zbekiston” – 2017 y. 295 – 297 b.
2.Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkonyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. – T.: O‘qituvchi MU MChJ, 2021. 7 b.
3.X.Ibraimov, M.Kuronov, J.Fozilov, F.Zaripov. Ota-ona – murabbiy. - Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2024. - 220 b.
4.X.Ibraimov va boshqalar. Najot tarbiyada. -T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. -2025. – 60 b.
5.L.M.Qaraxonova. Tarbiyani shakllarini maktab-oila-mahalla hamkorligida tashkil etish mexanizmlari // “Uzluksiz ta’lim” j. –T.: O‘zPFITI. 2025. № 2. –B.70-74.
6.L.M.Qaraxonova. Maktab-oila-mahalla hamkorligi asosida o‘quvchilarda vatanparvarlik va axloqiy sifatlarni tarbiyalash// BELARUS-O‘ZBEK ilmiy-metodik jurnal. 2025 y. № 3. -B.34-38.

Muallif:
L.M.Qaraxonova - Qori Niyoziy nomidagi TPMI bo‘lim mudiri, p.f.d., katta ilmiy xodim.

UDK 372.3/.4

PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL BASIS FOR INVOLVING PRIMARY SCHOOL STUDENTS IN RESEARCH ACTIVITIES BY AWAKENING INTEREST IN NATURE

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI TABIATGA QIZIQTIRISH ORQALI TADQIQOTCHILIK FAOLIYATIGA YO‘NALTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI

ПСИХОЛОГИЧЕСКО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ОСНОВА ВОВЛЕЧЕНИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ В ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКУЮ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ПОСРЕДСТВОМ ПРОБУЖДЕНИЯ ИНТЕРЕСА К ПРИРОДЕ

Jabbarova Shahodat Ibrohim qizi
Guliston davlat universiteti. 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze
E-mail: shahodatjabbarova94@gmail.com

Abstract: In the process of education and upbringing, introducing young children to nature is of great importance in forming clear knowledge about the surrounding world based on sensory experience. This article examines the pedagogical and psychological characteristics of increasing primary school students’ interest in nature and directing them toward research activities. Based on the

research results, practical recommendations are provided on how to effectively enhance students' interest in nature. This process has a significant impact on children's future success.

Keywords: nature, interest in nature, research skills, methodology, interest, education, upbringing, thinking, skill, cognition, observation, experiment, scientific activity, project method.

Anontatsiya: Kichik yoshidagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishda ta'lim-tarbiya jarayonida ularning ongida atrofni o'rab olgan dunyo haqida hissiy tajribaga asoslangan aniq bilimlar hosil qilish muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiatga qiziqishini oshirish va tadqiqotchilik faoliyatiga yo'naltirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari orqali o'quvchilarning tabiatga bo'lgan qiziqishini qanday qilib samarali ravishda oshirish mumkinligi haqida amaliy tavsiyalar beriladi. Bu jarayon bolalarning kelajakdagi muvaffaqiyatlariga katta ta'sir ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: tabiat, tabiatga qiziqish, tadqiqotchilik ko'nikmalari, metodika, qiziqish, ta'lim, tarbiya, fikrlash,ko'nikma,tafakkur,kuzatuv,tajriba, ilmiy faoliyat, loyiha usuli.

Аннотация: В процессе обучения и воспитания знакомство детей младшего возраста с природой имеет большое значение для формирования у них конкретных знаний об окружающем мире, основанных на чувственном опыте. В данной статье рассматриваются педагогические и психологические особенности повышения интереса учащихся начальных классов к природе и их ориентации на исследовательскую деятельность. На основе результатов исследования приводятся практические рекомендации по эффективному развитию интереса учащихся к природе. Этот процесс оказывает значительное влияние на будущие успехи детей.

Ключевые слова: рирода, интерес к природе, исследовательские навыки, методика, интерес, образование, воспитание, мышление, навык, мышление (познавательная деятельность), наблюдение, эксперимент, научная деятельность, проектный метод.

KIRISH. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning muhim psixologik xususiyatlaridan biri – ularning bilishga bo'lgan tabiiy qiziqishi va atrof-muhitni anglashga intilishidir. Ushbu yosh davrida bolalar doimiy ravishda savollar berish, kuzatish va hodisalarning sabablarini aniqlashga harakat qilish orqali o'z bilim doirasini kengaytiradilar. Kichik yoshidanoq bolalarga haqiqatni to'g'ri aks ettiruvchi bilimlar berilmasa, bolalarda tabiat haqida noto'g'ri tushunchalar hosil bo'ladi. Noto'g'ri tushunchalarni tuzatish yangi tushunchalar hosil qilishga nisbatan ancha qiyinroqdir. Shuning uchun bolalarda maktabgacha ta'lim yoshidanoq, his etilish, qabul qilib olish va zehniy rivojlanish tajribalariga asoslangan holda tabiat haqida ilmiy dunyoqarashlarning shakllanishi juda muhimdir Aynan shu jihat ularning tadqiqotchilik faoliyatiga moyilligini belgilab beradi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning ushbu tabiiy qiziqishini qo'llab-quvvatlash, muammoli vaziyatlar yaratish hamda savol-javob usullaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtayi nazardan, kichik maktab yoshidagi bolalarda tabiat haqidagi tushunchalarni shakllantirishni tadqiqotchilik faoliyati asosida tashkil etish ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bunday yondashuv o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, izlanishga va o'z xulosalarini chiqarishga undaydi. Natijada, o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash, ijodiy fikrlash va mustaqil o'rganish ko'nikmalari shakllanib, ularning intellektual salohiyati rivojlanadi hamda keyingi ta'lim bosqichlari uchun mustahkam poydevor yaratiladi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni tabiatga qiziqtirish va u orqali tadqiqotchilik faoliyatiga yo'naltirish masalalasi ko'plab xorijiy va mahaliy tadqiqotchi olimlar tomonidan o'rganilgan.Ushbu yo'nalishdagi qarashlar pedagogika va psixologiya va ta'lim yo'nalishlarining barcha sohalarini qamrab oladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Avvalo, Lev Semyonovich Vigotskiy[4] tomonidan bolaning ijtimoiy rivojlanish nazariyasi ishlab chiqilib, unda "yaqin rivojlanish zonasi" orqali o'quvchini mustaqil izlanishga bosqichma-bosqich olib chiqish asoslangan. Bu yondashuv tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etishda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Vasiliy Vasilevich Davidov[7] va Daniil Borisovich Elkonin[8] ishlarida rivojlantiruvchi ta'lim konsepsiyasi doirasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash va tadqiqotchilik qobiliyatlarini shakllantirish masalalari yoritilgan.

Pyotr Yakovlevich Galperin[4] tomonidan ishlab chiqilgan aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasi esa tadqiqotchilik faoliyatini amaliy harakatlar orqali rivojlantirishning ilmiy asosini beradi.

Shu bilan birga, Aleksey Nikolaevich Leontevning faoliyat nazariyasida ta'lim jarayonida o'quvchining faol sub'ekt sifatida ishtirok etishi va bilimni faoliyat orqali o'zlashtirishi zarurligi ta'kidlangan.[8]

Pedagogik jihatdan, Isaak Yakovlevich Lerner va Mixail Nikolaevich Skatkin[7] ta'lim mazmunida ijodiy va tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish masalalarini ilmiy asoslab berganlar.

Zamonaviy tadqiqotlarda esa kompetensiyaviy va tadqiqotga asoslangan ta'lim yondashuvlari (inquiry-based learning) orqali tabiiy savodxonlikni rivojlantirish mexanizmlari ishlab chiqilgan bo'lib, bu jarayonda o'quvchining mustaqil izlanishi, tajriba o'tkazishi va xulosa chiqarishi asosiy o'rin tutadi

Taniqli biolog I.P.Pavlov[8] ta'limotiga ko'ra, insonning tabiatdagi narsa va hodisalardan olayotgan ta'siri birinchi signal sistemasini, ularni ifodalovchi so'z esa, ikkinchi signal sistemasini hosil qiladi. Bilishning hissiy tomoni birinchi signal sistemasi bilan bog'liq, bu ko'rgazmali, obrazli tafakkurga asoslangan bo'lib, miya po'stlog'idagi muvaffaqiyatli bog'lanishni o'z ichiga oladi, ya'ni tashqi dunyodagi narsa va hodisalarni sezishda, idrok qilishda va tasavvurda bevosita aks etadi. Bilimning ratsional tomoni, abstrakt tafakkur, ya'ni tushunchalarning hosil bo'lish jarayoni ikkinchi signal sistemasi bilan bog'liqdir. Ikkinchi signal sistemasi tashqi dunyo bilan faqat birinchi signal sistemasi orqali aloqa olib boradi, shuning uchun tafakkur sezgi va idroksiz bo'lish, biron narsa haqida aniq tasavvurga ega bo'lmay turib tushuncha hosil qilinishi mumkin emas.

I.P.Pavlov[8] o'z tadqiqot ishlarida «Hissiy bilimning fiziologik asosi – ko'rish, eshitish, hid bilish, teri, harakatlantiruvchi va boshqa analizatorlarning birgalikdagi faoliyatidir» - degan edi.

Xalqaro baholash dasturlari, jumladan, PISA (Programme for International Student Assessment) [7] doirasida tabiiy savodxonlik "shaxsning ilmiy bilimlardan foydalanib, savollarni aniqlash, yangi bilimlarni egallash, ilmiy dalillarga asoslangan xulosalar chiqarish va tabiat hamda inson faoliyatiga oid qarorlar qabul qilish qobiliyati" sifatida ta'riflanadi. Bu ta'rifdan ko'rinib turibdiki, tabiiy savodxonlik tadqiqotchilik ko'nikmalari bilan chambarchas bog'liq.

Ta'kidlash joizki, o'zlashtirishda qancha ko'p analizatorlar birgalikda ishtirok etsa, tasavvur va tushuncha shunchalik aniq, boy va ma'noli bo'ladi. Demak, bolalarni tabiat bilan tanishtirish asosiga birinchi navbatda ko'rgazmalilikni qo'yish kerak, ya'ni narsa va hodisalar ularning sezgi a'zolariga bevosita ta'sir etishi, bolalar narsalarni ko'rib, qo'l bilan ushlab ko'rishlari, eshitib, hidlab ko'rishlari, ta'mini tatib ko'rishlari, ya'ni ularning xususiyatlarini seza bilish imkoniyatlariga ega bo'lishlari shart.

NATIJALAR. Tadqiqot natijalariga ko'ra, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda tabiat bilan bevosita aloqada bo'lish jarayonida sezgi va idrok tajribalari asta-sekin shakllanib boradi. Ular uy sharoitida, sayr vaqtida, dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda, shuningdek o'yin va mehnat faoliyati davomida tabiatdagi narsa va hodisalarni kuzatish orqali atrof-muhit haqida dastlabki tasavvurlarga ega bo'ladilar.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, bolalar ertalab maktabga borish jarayonida ob-havo sharoitlarini (sovuq, issiq, iliq, namlik) sezishga qodir bo'ladilar. Suv bilan bog'liq amaliy faoliyatlarda esa uning xususiyatlarini — sovuqligi, iliqligi, sachrashi hamda ayrim jismlarning suvda cho'kishi yoki suzishini anglab yetadilar. Hayvonlar bilan muloqot jarayonida ularning harakatlari va xulq-atvorini kuzatish orqali dastlabki bilimlar hosil qiladilar. Shu bilan birga, kichik yoshdagi bolalarda idrok etish hali to'liq shakllanmagan bo'lib, ular ba'zan muhim belgilarni e'tibordan chetda qoldirishi yoki noto'g'ri talqin qilishi mumkin. Masalan, 6–7 yoshli bola uchayotgan qushlarni har doim ham sezmasligi yoki hayvonni ko'rganda uning kattaligiga ko'proq e'tibor qaratishi kuzatiladi. Hatto akvariumdagi baliqni "yuryapti" yoki "qanotlarini qimirlatyapti" deb tasvirlashi ham idrok jarayonining hali rivojlanish bosqichida ekanini bildiradi.

Shuning uchun ham boshlang'ich sinfda dastlab o'uvchi uchun tabiatni o'rganish ko'proq ona tilini bilish bilan yaqindan bog'liq holda olib boriladi. Bu yoshda sezib idrok qilishdan ko'ra so'z bilan aytib idrok qilish mustahkam o'zlashtiriladi. Sezib idrok qilishda tabiat haqidagi hamma bilimlarni boshlang'ich manbai ekanligini doimo nazarda tutish kerak, aniqroq qilib aytganda, bolalar ongida haqiqatni aks ettirish faqat idrok qilish bilan bog'langan so'zlar yordamida hosil qilinishi mumkin.

Tushuncha – bu miyaning analitik-sintetik faoliyatining natijasidir. Tabiatdagi narsa va hodisalarning bir necha marta sezib idrok qilinishi, ularning boshqalari bilan taqqoslab ko'rilishi, ulardagi eng muhim belgilarning so'zlarda aks ettirilishi natijasida tushuncha hosil bo'ladi. Tushuncha bolalar faoliyatida o'yin va mehnatda o'zlashtiriladi va tekshirib ko'riladi. [7]

Tizimli o'quv faoliyatining izchil hamda uzluksiz tashkil etilishi boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash doirasini kengaytiradi, tafakkurini boyitadi. Ushbu yosh davri o'quvchilarida tafakkurning o'sishi aynan mana shu jarayonning kechishi bilan bog'liq.

Boshlang'ich ta'lim jarayonining muhim bosqichlari bo'lgan 1- va 2-sinflarda o'qituvchining asosiy vazifasi o'quvchilarga o'rganilayotgan ma'lumotlarning alohida unsurlari o'rtasidagi mavjud aloqalarni ko'rsatib berishdan iborat. Ana shu maqsadga yo'naltirilgan topshiriqlarning o'quv yili davomida hamda yil sayin ortib borishi natijasida 3-sinfga kelib, o'quvchilar dars jarayonida o'zlashtirilayotgan tushunchalarni ular o'rtasidagi nisbatlarni o'zaro taqqoslash asosida tavsiflashni o'rganadilar. 4-sinfda o'quvchilardan u yoki bu topshiriqlarni bajarish jarayonida bir qadar kengroq fikr yuritishni talab etuvchi topshiriqlar soni ortib boradi.

Ma'lum narsa va hodisalarni tavsiflay olish ko'nikma va malakalarining shakllanishi boshlang'ich sinf o'quvchilarida tobora murakkablashib borayotgan aqliy faoliyatni tashkil eta olish tajribasini yuzaga keltiradi. U asta-sekin idrokdan ajralib, o'quv materialini mustaqil o'zlashtirishga yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etish jarayoniga aylanadi.

Mantiqiy fikrlash va abstrakt tafakkur boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiat va uning asoslari haqidagi bilimlarni nazariy jihatdan o'rganish imkoniyatini ancha kengaytiradi. Buning natijasida o'quvchilarning tabiatni bilishga bo'lgan qiziqishlari darajasi va mazmunini ifodalovchi jihatlar ko'zga tashlana boshlaydi. Chunonchi, tabiat jismlari yoki hodisalarning asoslari, ularning kelib chiqish (yoki sodir bo'lish) sabablari, ichki aloqalari, ular o'rtasidagi munosabatlar, asosiy belgilari, o'ziga xos xususiyatlarini anglash kabi holatlarning namoyon bo'lishi yuqorida berilgan fikrlarning isbotidir.

Kichik maktab yoshidagi bolalarda tadqiqotchilik faoliyati tabiiy ravishda, bosqichma-bosqich rivojlanadi. Bu jarayon bolaning bilish ehtiyoji, qiziquvchanligi va atrof-muhitni anglashga intilishi asosida shakllanib boradi.

Tadqiqotchilik rivojlanishining dastlabki bosqichi **qiziqish va savol berish** bilan boshlanadi. Kichik yoshdagi bolalar doimiy ravishda "nega?", "qanday?", "qaerdan?" kabi savollar orqali atrof-olamni tushunishga harakat qiladilar. Bu holat tadqiqotchilik faoliyatining eng sodda, ammo muhim ko'rinishi hisoblanadi. Agar o'qituvchi va ota-ona ushbu savollarni qo'llab-quvvatlasa, bolada izlanishga bo'lgan ehtiyoj kuchayadi.

Keyingi bosqichda bolalarda **kuzatish ko'nikmalari** shakllana boshlaydi. Ular tabiat hodisalarini, o'simliklar va hayvonlarni diqqat bilan kuzatib, o'zgarishlarni payqay boshlaydilar. Masalan, o'simlikning o'sishi, ob-havoning o'zgarishi yoki hayvonlarning harakatlari bolalar uchun tabiiy tadqiqot ob'ektiga aylanadi. Bu bosqichda bolalar ma'lumotni to'plash va uni qabul qilishni o'rganadilar.

Uchinchi bosqichda **tajriba qilish va sinab ko'rish** faoliyati rivojlanadi. Bolalar oddiy tajribalar orqali sabab-oqibat bog'lanishlarini tushunishga harakat qiladilar. Masalan, suvsiz o'simlik nima bo'lishini tekshirish yoki turli sharoitlarda o'simlik o'sishini solishtirish kabi amaliy ishlar orqali ularda ilmiy fikrlashning dastlabki elementlari shakllanadi.

Shundan so'ng bolalarda **solishtirish va tahlil qilish** ko'nikmalari paydo bo'ladi. Ular turli holatlarni taqqoslab, farq va o'xshashliklarni aniqlashga harakat qiladilar. Bu esa tadqiqotchilikning muhim bosqichi bo'lib, bolaning mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi.

Keyingi bosqichda esa **xulosa chiqarish va natijani umumlashtirish** ko'nikmalari shakllanadi. Bolalar o'z kuzatishlari va tajribalari asosida oddiy xulosalar chiqara boshlaydilar. Masalan, "o'simliklar suv va yorug'likka muhtoj" kabi umumlashtirilgan fikrlar paydo bo'ladi.

Shu bilan birga, tadqiqotchilik faoliyati **o'yin bilan uyg'un holda** rivojlanadi. Kichik yoshdagi bolalar uchun tadqiqot — bu ma'lum ma'noda o'yindir. Shuning uchun rolli o'yinlar, qiziqarli topshiriqlar va mini-loyihalar orqali tadqiqotchilikni rivojlantirish samarali hisoblanadi.

Tadqiqotchilik faoliyati orqali tabiiy savodxonlik quyidagi yo'nalishlarda rivojlanadi:

Birinchi, **ilmiy savol qo'ya olish qobiliyati** shakllanadi. O'quvchi tabiatdagi hodisalarni kuzatib, ularning sabablarini aniqlashga harakat qiladi. Bu esa ilmiy izlanishning boshlang'ich bosqichi hisoblanadi.

Ikkinchi, **dalillarga asoslangan fikr yuritish** ko'nikmasi rivojlanadi. O'quvchilar tajriba natijalariga tayanib xulosa chiqara boshlaydilar. Masalan, o'simlik o'sishi uchun suv va yorug'lik zarurligini amalda kuzatib, ilmiy xulosaga keladilar.

Uchinchi, **tahlil va interpretatsiya qilish qobiliyati** shakllanadi. Bu jarayonda o‘quvchilar ma’lumotlarni solishtirish, o‘xshashlik va farqlarni aniqlash, natijalarni izohlashni o‘rganadilar.

To‘rtinchi, **ilmiy tushunchalarni hayotiy vaziyatlarga tatbiq etish** ko‘nikmasi rivojlanadi. Bu esa tabiiy savodxonlikning eng muhim ko‘rsatkichi hisoblanadi. Masalan, atrof-muhitni muhofaza qilish, suv va resurslardan oqilona foydalanish kabi masalalarda o‘quvchi ongli qaror qabul qila oladi.

MUHOKAMA. Boshlang‘ich ta’lim tizimida o‘quvchilarda predmet va hodisalarning ichki xususiyatlarini bilishga nisbatan intilish yuzaga keladi, jumladan, O'simliklar qanday bo'ladi?, Hayvonot olami, O‘rmon va o‘tloqlar nima?, Hayvonot bog‘i nima?, Kuzda nimalar bo'ladi? Vaqt nima?, Hafta nima degani?, Yil fasllari qanday almashadi?, Tabiat qishga qanday tayyorlanadi?,. Bu kabi qiziqarli savollar, ular maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilari bo‘lganlaridayoq paydo bo‘ladi, uning asosiy javoblarini 1-2 sinfdan “Tabiiy fanlar" darsligini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshadi. Bu kabi intilishning yuzaga kelishi va mustahkamlanishi o‘quvchilarda tabiatni bilishga bo‘lgan qiziqishning nisbiy barqarorligi va uning differensiyalanishiga ko‘ra tavsiflanadi.

“Tabiiy fanlar” o‘quv predmetini tashkil etuvchi aniq predmet va hodisalar bilan tanishish, ularning mohiyatini anglashga intilish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilish faoliyatlarini jadallashtiradi, ularda ana shu maqsadga yo‘naltirilgan faollikni qaror toptiradi.

Tabiat bilan bevosita, faol muloqotda bo‘lish boshlang‘ich sinf o‘quvchilar tomonidan tashkil etilayotgan aqliy faoliyat jarayonini jadallashtiradi. Bu holat o‘quvchilarning fikrlash tarziga ta’sir o‘tkazib, ularda tabiatni bilishga bo‘lgan qiziqishni hosil qiladi hamda aqliy qobiliyatlarini takomillashtiradi.

Bilish faoliyatining ob’ekti sifatida tabiat boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tabiiy hodisalar, ularning o‘ziga xos xususiyatlari, ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, tabiiy muhitning insonlar hayotidagi muhim ahamiyati to‘g‘risida yetarli darajada ma’lumot bera olish imkoniyatiga ega. O‘quvchilarni tabiiy hodisalar va ob’ektlarning muhim jihatlari bilan yaqindan tanishtirish ularda atrof-muhit, tabiatga nisbatan ehtiyotkorona munosabatni shakllantiradi, ularda tabiatni bilishga bo‘lgan qiziqishni yuzaga keltiradi, rivojlantiradi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘qitiladigan o‘quv predmetlari mazmunini nazariy jihatdan tahlil etish shuni ko‘rsatdiki, ularda tabiatshunoslik bilimlari haqida ma’lumot beruvchi o‘quv materiallari u yoki bu darajada o‘z ifodasini topgan. Ularning har biri muayyan vazifalarni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, o‘quvchilarni tabiatga yaqinlashishga, u bilan doimiy muloqotda bo‘lishga rag‘batlantiradi. Biroq shuni ham ta’kidlab o‘tish joizki, o‘quv fanlarining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tabiatni bilishga bo‘lgan qiziqishni shakllantirishdagi imkoniyatlari bir xil emas. Bu o‘rinda 1 va 2-sinflarning «Tabiiy fanlar» va fanining yetakchi o‘rin tutishi, ularning tarkibiy tuzilmasida muayyan tizim va ketma-ketlikka asoslanuvchi tabiatshunoslik bilimlarining o‘z ifodasini topishi o‘quvchilar uchun tabiat hodisalari, jismlari va jarayonlarning kechishi to‘g‘risida asosli ma’muotlarni olish, ularda tabiatni bilishga bo‘lgan qiziqishni shakllantirishga imkon beradi.

Tabiat jismlari va hodisalarining mohiyatini hissiy idrok etish, ularni obrazli, tasviriy tarzda anglash boshlang‘ich sinflarning dastlabki bosqichi uchun xos xususiyat sanaladi. Shu sababli «Tabiiy fanlar» bo‘yicha yaratilgan darslik va o‘qituvchilar uchun yaratilgan o‘quv qo‘llanmalarida berilayotgan materiallarni tasvirlar bilan boyitish talab etiladi. Bu o‘rinda ma’lumotlarni mavsumiy o‘zgarishlarga muvofiq yoritish va o‘lkashunoslikka oid materillarni berish tamoyili asosida ish ko‘rish maqsadga muvofiq sanaladi. Tasvirlar o‘quvchilarga bir turga kiruvchi, shuningdek, u yoki bu turga mansub bo‘lgan o‘simlik, hayvon hamda hashoratlar o‘rtasidagi o‘xshashlik yoki farqlarni anglashlari, ularni o‘zaro taqqoslashlariga yordam beradi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-4-sinflarida o‘qitilishi nazarda tutilgan «Tabiiy fanlar» (1-2-sinflar uchun) [1;7] darsliklarida ma’lumotlarni o‘lkashunoslik materiallaridan foydalanish tamoyili asosida berilganligi o‘quvchilarga nazariy bilimlarning puxta o‘zlashtirishda yengillik yaratadi. Binobarin, o‘zlari uchun tanish ob’ektlarning xususiyat va xossalari ular tomonidan yetarli darajada o‘zlashtiriladi.

Masalan, darslik mazmuni tahlilida Maktabga yo‘l mavzusida o’quvchilarning yashash manzilini bilishi uchun zamin yaratilgan. Bundan tashqari turli xil inshoatlar nomlari bilan keltirilib, Bu qanday binolar? Ular nima uchun kerak? Savollari berilgan.Sinf xonasida nimalar borligi va ular nimalardan yasalganligi haqida
ma’lumotlar berilgan. Bu endi maktabga qadam qo‘ygan o‘quvchilar uchun dastlabki atrofdagi materiallarni farqlashga o‘rgatadi.

Shuningdek, O’simliklar qanday paydo bo’ladi mavzusida atrofimizda har xil o'simliklar borligi,ularni kundalik hayotimizda uyning yonida, hovlida yoki bog'da odamlar madaniy o'simliklar o'stirishi haqida ma’lumotlar berilgan.Tomorqada nimlar o’sadi,bog’da nimalar o’sadi kabi savollar berilib,o’quvchilar o’simliklarni ongli o’rganishiga erishilgan. Madaniy o’simliklarni biz hovlimizda yetishtirishimiz, yovvoyi osimliklar o’zi chiqishi hamda unda kundalik hayotimizda istemol qilmasligimiz haqida ma’lumotlar berilgan. O’simliklarni har bir qismlari berilib,ularning qaysi qismlarini istemol qilishimiz haqida ma’lumotlar beriligan.

1-sinfda Hayvonot olami mavzusidaa uyingizda qanday hayvonlar bor? Ular haqida nimalarni gapirib bera olasiz? Kabi savollar berilgan bo’lib,bunda uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlarga ajratib ko’rsatilgan. Hayvonot olamini baliqlar, qushlar, hayvonlar va hasharotlarga ajratish mumkinligi haqida ma’lumot berib o’tilgan. O’quvchilarga qiziqarli bo’lishi va o’ylashga majbur qilish uchun ularning soyasidan qaysi hayvon ekanligini toppish topshirig’i berilib, o‘quvchilarning o‘simliklarni ongli o‘zlashtirishga erishilgan.

XULOSA. Tahllilar shuni ko‘rsatadiki, masalan, 1-sinfda o‘quvchilarning “Tabiiy fanlar” bo‘yicha dastlabki ilmiy tushunchalarni egallash uchun bevosita yuqorida berilgan mavzular va amaliy mashg‘ulotlarni samarali tashkil etish o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Har bir mavzu o‘quvchilarga tabiiy fanlar orasidagi integrativ aloqadorliknisamarali tashkil etish imkoniyati yaratilgan. O‘quvchilar tabiiy bilimlarni egallash jarayonida biologik, georgafik, atronomik va fizik tushunchalarni belgilangan mavzularni o‘rganish va anglash asnosida olib boriladi. Shuningdek, har bir bob mazmunidagi amaliy mashg‘ulotlar avvalgi “Atrofimizdagi olam” darsligidan farqli ravishda tubdan farq qiladi. “Tabiiy fanlar” mazmunida amaliy mashg‘ulotlar soni ko‘paytirilgan. Shu sababli o‘quvchilar ko‘proq amaliy ish bilan shug‘ullanish imkoniyatiga ega buladilar. Ba’zi hollarda o‘quvchilarni uyga berilgan vazifalarini oila a’zolari bilan birgalikda bajarishga bo‘lgan imkoniyat ham ularni fanni mustaqil va mustahkam o‘rganish imkonini yaratadi.

2-sinfda o‘quvchilarning “Tabiiy fanlar” bo‘yicha 1-sinf tabiiy darsligidagi ma'lumotlardan keyin rivojlantiruvchi ilmiy tushunchalarni egallash uchun bevosita yuqorida berilgan mavzular, amaliy mashg‘ulotlari va 1 ta loyiha ishini samarali tashkil etish o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Har bir mavzu o‘quvchilarga tabiiy fanlar orasidagi integrativ aloqadorlikni samarali tashkil etish imkoniyati yaratilgan. O‘quvchilar tabiiy bilimlarni egallash jarayonida biologik, georgafik, atronomik va fizik tushunchalarni belgilangan mavzularni o‘rganish va anglash asnosida olib boriladi. Shuningdek, har bir bob mazmunidagi amaliy mashg‘ulotlar avvalgi

“Atrofimizdagi olam” darsligidan farqli ravishda tubdan farq qiladi. Tabiiy fanlar mazmunida amaliy mashg‘ulotlar soni ko‘paytirilgan va 1 ta loyiha ishi qo‘shilgan. Shu sababli o‘quvchilar ko‘proq amaliy ish bilan shug‘ullanish imkoniyatiga ega buladilar. Ba’zi hollarda o‘quvchilarni uyga berilgan vazifalarini oila a’zolari bilan birgalikda bajarishga bo‘lgan imkoniyat ham ularni fanni mustaqil va mustahkam o‘rganish imkonini yaratadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish tabiiy savodxonlikni shakllantirishning asosiy mexanizmi hisoblanadi. Tadqiqotga asoslangan ta’lim orqali o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash, dalillarga asoslangan fikrlash va hayotiy muammolarni hal etish qobiliyatlari rivojlanadi. Bu esa ularni kelgusida raqobatbardosh va ongli shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

REFERENCES:

1.Malikova Y.V. Tabiiy fanlar. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik, I, II, III, IV qism / Y.V. Malikova. - Toshkent: “Novda Edutainment”, 2024. - 52 b.
2.Malikova Y.V. Tabiiy fanlar. Umumiy o'rta ta’lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik, I, II, III, IV qism / Y.V.Malikova. - Toshkent. "Novda Edutainment” , 2023. - 120 b
3.Malikova Y.V. Tabiiy fanlar. Umumiy o'rta ta’lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik, I, II, III, IV qism / Y.V.Malikova, S.V.Kosyanenko. - Toshkent. “Novda Edutainment”, 2023. - 136 b.
4.Suyunov D.A. (2024). Boshlang’ich sinf o’qituvchilarda tabiiy fanlarni o‘qitishda tabiatga nisbatan ijobiy muhitni shakllantirish. Inter education & global study, (8), 349-354.
5.Sayfullaev G.M. Tabiatshunoslik darslarida sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish. O`quv qo`llanma. Buxoro, 2020. -160 b.
6.Tigay O.E. Tabiiy fanlar. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik, I, II, III, IV qism. - Toshkent. “Novda Edutainment", 2023. - 104 b.
7.G‘aybullayev N. va boshqalar. Pedagogika. O‘quv qo‘llanma. - T., 2005. – 180 b.

Muallif:
Jabbarova Shahodat Ibrohim qizi - Guliston davlat universiteti tayanch doktaranti.

UDC 372.815.99

PSYCHOLOGICAL DIFFERENCES BETWEEN STUDENTS OF DIFFERENT GENDERS

TURLI JINSDAGI TALABALAR O'RTASIDAGI PSIXOLOGIK FARQLAR

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ РАЗЛИЧИЯ У СТУДЕНТОВ РАЗНОГО ПОЛА

Маманова Севинч Масрур кизи
Гулистанский государственный университет. 120100. Сырдарья, город Гулистан, 4-й район.
E-mail: mamanova-sevinch2026@gmail.com

Annotation: This paper examines the psychological differences between male and female students, focusing on their emotional, cognitive, and communicative characteristics. The study analyzes factors influencing the development of personality traits, learning motivation, and student behavior in the educational environment. Special attention is given to gender differences in perception, stress resistance, interpersonal communication, and adaptation to the learning process. The results of the research contribute to a deeper understanding of students’ psychological characteristics and help improve the effectiveness of the educational process.

Keywords: psychological differences, students, gender, gender characteristics, personality, motivation, emotional sphere, interpersonal communication, adaptation, educational process.

Annotatsiya: Ushbu maqola turli jinsdagi talabalar o'rtasidagi psixologik farqlarni, jumladan, ularning hissiy, kognitiv va kommunikativ xususiyatlarini o'rganadi. Unda ta'lim muhitida shaxsiy fazilatlar, o'rganishga motivatsiya va talabalarning xulq-atvorini rivojlantirishga ta'sir qiluvchi omillar tahlil qilinadi. Alohida e'tibor idrok, stressga chidamlilik, shaxslararo muloqot va ta'lim jarayoniga moslashishning genderga xos xususiyatlariga qaratilgan. Tadqiqot natijalari talabalarning psixologik xususiyatlarini chuqurroq tushunish imkonini beradi va ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga hissa qo'shadi.

Kalit so'zlar: psixologik farqlar, talabalar, gender, gender xususiyatlari, shaxsiyat, motivatsiya, hissiy soha, shaxslararo muloqot, moslashish, ta'lim jarayoni.

Аннотация: В данной работе рассматриваются психологические различия между студентами разного пола,их особенности в эмоциональной, когнитивной и коммуникативной сферах. Анализируются факторы, влияющие на формирование личностных качеств, мотивации к обучению и поведения студентов в образовательной среде.Особое внимание уделяется гендерным особенностям восприятия, стрессоустойчивости, межличностного общения и адаптации к учебному процессу. Результаты исследования позволяют глубже понять психологические особенности студентов и способствуют повышению эффективности образовательного процесса.

Ключевые слова: психологические различия, студенты, пол, гендерные особенности, личность, мотивация, эмоциональная сфера, межличностное общение, адаптация, образовательный процесс.

ВВЕДЕНИЕ. Современный мир предполагает огромное разнообразие детерминантов, отличающих людей друг от друга: физиологические, демографические, социальные и т. п. В эту структуру также входят индивидуально-психологические особенности личности, под которыми Г. Ю. Авдиенко понимает индивидные, предметно-содержательные и духовно-мировоззренческие качества индивидуальности, особенности самосознания, стилевых характеристик личности и осуществление различных видов деятельности [19].

К подобным проявлениям человеческого поведения относятся акцентуации характера. По мнению К. Леонгарда, разработавшим концепцию «акцентуаций личности», — это заостренная её черта, которая проявляется в определенных

обстоятельствах и является крайней границей психической нормы. Сами акцентуации личности прежде всего проявляются в общении с другими людьми [13].

К.Леонгард выделил следующие типы акцентуации: гипертимный, дистимный, циклоидный, возбудимый, застревающий, педантичный, тревожный, эмотивный, демонстративный, экзальтированный [26].

В дальнейшем, А.Е.Личко изменил подход к акцентуациям. По его мнению, следует говорить именно об акцентуации характера, — чрезмерное усиление отдельных черт характера, при котором наблюдаются не выходящие за пределы нормы отклонения в поведении человека, граничащие с патологией. Такие акцентуации, как временные состояния психики, чаще всего наблюдаются в подростковом и молодежном возрасте [7].

А.Е.Личко выделил такие акцентуации, как: гипертимный, циклоидный, лабильный, астено-невротический, сенситивный, тревожно-педантический, интровертированный, возбудимый, демонстративный, несутойчивый [6].

Другой индивидуально-психологической характеристикой можно считать гендер и гендерную идентичность личности. Несмотря на наличие понятия пола, понимаемой именно как биологической категории, данное явление не отвечает запросам современной молодёжи.

Поскольку в поведении человека биологические и социальные характеристики тесно переплетены, мы никогда не можем полностью утверждать, что различия, обнаруживаемые в мужском и женском поведении, имеют однозначно биологическое происхождение. По словам А. Н. Елизарова, для прояснения биологических и социально-психологических аспектов мужского и женского поведения в конце 1960 г. американский психолог Р.Столлер предложил понятийно разделить человеческую сексуальность по двум аспектам: биологическому, за которым был закреплен термин «пол», и социальному, за которым закрепился термин «гендер» [4].

Гендер определяет женщин и мужчин на основе их социальной роли, выстраивая определенный социальный конструкт пола, который надстраивается над физиологической реальностью с самых ранних лет под влиянием окружения подрастающей личности [5]. По Л. Б. Шнейдеру гендерная идентичность обозначает чувство принадлежности к тому или иному гендеру, а также проявление себя согласно своей идентичности, которая не всегда бывает осознанной [18].

Таким образом, гендер относится не просто к женщинам или мужчинам, а к отношениям между ними, и к способу социального конструирования этих отношений, т. е. к тому, как общество «выстраивает» эти отношения взаимодействия полов в социуме [2] (рис.1.3.1.).




Рис.1. Образовательные тесты

В связи с тем, что гендер формируется после рождения под влиянием социальных представлений о мужском и женском началах, а также исходя из индивидуального сознания человека, на этой основе отмечается вероятность формирования характера и его крайних проявлений — акцентуаций личности. На основе изучения научной литературы, с целью проведения сравнительного анализа акцентуаций характера с гендерной идентичностью у студентов, нами были выбраны следующие методики.

На начальном этапе эмпирического исследования проведена диагностика акцентуаций характера по методике Леонгарда.

Выборка исследования состояла из 45 человек, формировалась в два этапа. На первом этапе были подсчитаны количество испытуемых по половым признакам (51% парней и 49% девушек) и возрастным характеристикам. Средний возраст выборки составил 23 года.

На втором этапе при помощи методики С.Бэм было определено количество человек с преобладанием андрогинной идентичности — 33,3 % человек, с преобладанием маскулинной идентичности — 33,3 % человек, с преобладанием фемининной идентичности — 33,3 % человек.

Таблица 1

Сравнительный анализ акцентуаций характера по Леонгарду у студентов разной гендерной идентичности

Акцентуации характера	Гендерная идентичность		
	Андрогинная имаскулинная	Андрогинная ифеминининая	Маскулинная ифеминининая
Демонстративность	-0,735	-2,107*	-2,103*
Застревание	1,48	0,462	1,562
Педантичность	1,54	-1,637	1,003
Возбудимость	-2,84	-0,627	2,673*

Гипертимность	0,31	-1,37	1,73
Дистимность	2,72*	2,494*	-0,073
Тревожность	1,734	1,907	-1,36
Экзальтированность	0,986	0,834	-1,619
Эмотивность	-1,82	-2,371*	-2,258*
Циклотимность	-1,472	-0,735	1,984 *

Значимые различия на уровне 0,05, при t-крит. = 2,049

Исходя из данных, представленных в таблице 1, мы может констатировать тот факт, что андрогинной личности свойственно проявлять дистимную акцентуацию характера как по отношению к людям с маскулинной идентичностью (t-эмп. = 2,72), так и с фемининными личностями (t-эмп. = 2,494). Людям с маскулинной идентичностью, в отличие от фемининной, характерно проявление возбудимости (2,673).

Фемининным личностям присущи такие акцентуации, как демонстративность (2,107) и эмотивность (2,371) в отличие от андрогинной личности, а также проявление демонстративности (2,103) и эмотивности (2,258) в отличие от маскулинной личности.

Таблица 2

Сравнительный анализ акцентуаций характера по Личко у студентов разной гендерной идентичности

Акцентуации характера	Гендерная идентичность		
	Андрогинная имаскулинная	Андрогинная ифеминиинная	Маскулинная ифеминиинная
Гипертимный	-0,533	1,78	2,637*
Циклоидный	-1,719	0,807	2,193*
Лабильный	1,871	1,54	1,02
Астено-невротический	-1,746	-1,426	0,461
Сенситивный	1,31	-2,494*	-2,374*
Тревожно-педантический	2,39*	2,334*	-0,493
Интровертированный	-1,498	-1,423	0,177
Возбудимый	-2,342*	-0,764	1,179
Демонстративный	1,57	-0,483	-1,984
Неустойчивый	0,914	1,784	-0,528*

Значимые различия на уровне 0,05, при t-крит. = 2,049

Согласно данным, приведенных в таблице 2, мы можем отметить, что людям андрогинной идентичности характерны тревожно-педантичный тип акцентуации по сравнению с маскулинной (2,39) и фемининной (2,334) идентичностями. Молодые люди маскулинной идентичности свойственны возбудимый тип акцентуации (2,342), а также гипертимный (2,637) и циклоидный (2,193) типы. Среди фемининных личностей отмечается проявление сенситивной акцентуации в отличие от андрогинной (2,494) и маскулинной (2,374) идентичностей.

Таким образом, сравнительный анализ акцентуаций характера с гендерной идентичностью у студентов показал, что существуют отличия в проявлении тех или иных акцентуаций у студентов разного гендера. Андрогинной личности характеры тревожно-педантичный и дистимный типы акцентуаций. Фемининной личности в большей степени свойственны демонстративный, сенситивный и эмотивный типы. Циклоидный, гипертимный и возбудимый типы акцентуаций чаще встречаются у студентов маскулинной гендерной идентичности. На основе полученных данных возможно более комплексное и тщательное планирование работы с молодыми людьми с учетом их гендерной идентичности.

На следующем этапе исследования был проведен опрос.

Для проведения исследования была выбрана аудитория КФУ и использование системы «google docs» для проведения опроса. Источником стала официальная группа университета Вконтакте и в опросе приняло участие 46 человек.

В рамках опроса необходимо было выявить основные особенности взаимосвязи учебной мотивации и индивидуально-психологических характеристик у студентов разного пола.

В рамках проведения опроса были изучены следующие факторы: успеваемость студентов; уровень мотивации студентов; половое признак; сформированные карьерные предпочтения.

В рамках исследования наибольшее внимание было сосредоточено на влиянии половых признаков на полученные значения результативности.

Для проведения исследования был сформирован опросник и размещен в социальных сетях. Исследование проводилось на базе КФУ в г. Казань.

На первом этапе проводилось изучение научно-методической и специальной литературы, реферирование первоисточников, выбор методов исследования, проведение наблюдения, анкетирование, анализ особенностей влияния и проявления мотивации.

На втором этапе проводился опрос в рамках группы в социальных сетях. На третьем этапе проходил сбор и анализ представленных результатов. Сбор данных проводился в течение 90 дней, по окончании данного временного периода было опрошено 46 студентов различных направлений.

Список использованных литератур:

1. Мотивация и стимулирование трудовой деятельности: учебник / А.Я. Кибанов, И.А. Баткаева, Е.А. Митрофанова, М.В. Ловчева; под ред. А.Я. Кибанова. – Москва: ИНФРА-М, 2019. – 524 с.
2. Родцевич Н. Г., Босая Е. Н., Богушевич В. О. Почему уходят лучшие: проблема демотивации сотрудников //Ответственный редактор. – 2020. – С. 82.
3. Тебекин, А.В. Стратегическое управление персоналом: учебник / А.В. Тебекин. – Москва: КноРус, 2020. – 720 с.
4. Ульянова Г. В., Филатова О. В. Психологическое сопровождение сотрудников многофункциональных центров (МФЦ) //Интеграция в психологии: теория, методология, практика – 2021. – С. 178-180.

Автор:
Маманова Севинч Масрур кизи - магистрант 1-курса ГулГУ.

UDK: 372.853:537

IMPORTANT ASPECTS OF IMPLEMENTING INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN PHYSICS EDUCATION (ON THE EXAMPLE OF "ELECTRICITY AND MAGNETISM" SECTION)

FIZIKA FANIDAN INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING MUHIM JIHATLARI (ELEKTR VA MAGNETIZM BO‘LIMI MISOLIDA)

ОСНОВНЫЕ АСПЕКТЫ ВНЕДРЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИЕ ФИЗИКИ (НА ПРИМЕРЕ РАЗДЕЛА «ЭЛЕКТРИЧЕСТВО И МАГНЕТИЗМ»)

Bazarbayev Zinatdin Bisen o‘g‘li
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi. Nukus shahri.
E-mail: nurjan-1974@bk.ru

Annotation: This article highlights the significance and prospects of using innovative technologies in teaching physics, specifically the "Electricity and Magnetism" section. The study provides a comparative analysis of the impact of PhET virtual simulations, the Plickers rapid assessment system, and the STEM approach on students' academic performance. Results from a Likert scale-based survey demonstrated that innovative methods significantly enhance student motivation and their ability to visualize complex physical processes.

Keywords: physics education, innovative technologies, PhET simulation, STEM, electricity and magnetism, Likert scale, virtual laboratory, Plickers.

Annotasiya: Ushbu maqolada fizika fanini, xususan, “Elektr va magnetism” bo‘limini o‘qitishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llashning ahamiyati va istiqbollari yoritilgan. Tadqiqot davomida PhET virtual simulyatsiyalari, Plickers tezkor baholash tizimi va STEM yondashuvining talabalar o‘zlashtirish darajasiga ta’siri qiyosiy tahlil qilingan. Likert shkalasi asosida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari innovatsion metodlar talabalarning motivatsiyasini va murakkab fizik jarayonlarni vizual tasavvur qilish qobiliyatini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: fizika ta’limi, innovatsion texnologiyalar, PhET simulyatsiyasi, STEM, elektr va magnetizm, Likert shkalasi, virtual laboratoriya, Plickers.

Аннотация: В данной статье освещаются значение и перспективы применения инновационных технологий в обучении физике, в частности раздела «Электричество и магнетизм». В ходе исследования проведен сравнительный анализ влияния виртуальных симуляций PhET, системы быстрого оценивания Plickers и STEM-подхода на уровень усвоения знаний студентами. Результаты опроса, проведенного на основе шкалы Ликерта, показали, что инновационные методы значительно повышают мотиватsiю студентов и их способность визуализировать сложные физические процессы.

Ключевые слова: физическое образование, инновационные технологии, симуляции PhET, STEM, электричество и магнетизм, шкала Ликерта, виртуальная лаборатория, Plickers.

Kirish. Zamonaviy oliy ta’lim tizimida fizika fanini o‘qitish nafaqat nazariy bilim berish, balki talabalarda muhandislik va texnologik tafakkurni shakllantirishni talab etadi. Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, ta’lim sifatini jahon standartlari talablari asosida takomillashtirish Yangi O‘zbekiston strategiyasining eng muhim poydevori hisoblanadi [1].

Fizika - tabiat hodisalarini kuzatish va tajribalar asosida o‘rganadigan fan. Biroq, ko‘plab murakkab fizik jarayonlarni (kvant mexanikasi, yadro fizikasi) oddiy auditoriya sharoitida namoyish etish imkonsiz. Bugungi kunda oliy ta’lim tizimi oldida turgan asosiy vazifa - nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lashda raqamli texnologiyalardan foydalanishdir. Bu jarayonda ilg‘or pedagogik texnologiyalarni to‘g‘ri tanlash va o‘qituvchining kasbiy mahorati hal qiluvchi ahamiyatga ega [2]. Ta’limni axborotlashtirish esa nafaqat kompyuterlardan foydalanish, balki o‘quv jarayonini raqamli muhitga moslashtirishni ko‘zda tutadi [3].

Tadqiqot ob’ekti va qo‘llanilgan metodlar

Tadqiqotning obyekti sifatida fizika fanidan innovatsion texnologiyalarni joriy etishning muhim jihatlari (elektr va magnetizm bo‘limi misolida) mazmunini ochib berish uchun xizmat qiluvchi texnologiyalardan foydalanish jarayoni belgilab olindi. Tadqiqot mavzusini yoritishda kuzatish, materiallarni tahlil qilish va umumlashtirish, jamoaviy va yakka tartibdagi suhbatlar, so‘rovlar (og‘zaki) o‘tkazish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning maqsadi fizika mashg‘ulotlarida kompyuter modellashtirish va interfaol metodlarning talaba motivatsiyasiga ta’sirini aniqlashdan iborat.

Olingan natijalar va ularning tahlili

“Metodika” va “innovatsion texnologiya” tushunchalari mohiyatini tushuntirishda aniq chegara qo‘yish bir oz murakkab masala. Biroq ularning o‘ziga xosliklarini tahlil etish, ayrim farqli jihatlarini ajratib ko‘rsatishga imkon beradi.

Pedagog olim A.Stolyarenkoning fikricha, “o‘quv fanlarini o‘qitish metodikasi ma’lum bir pedagogik vaziyatlarni hal etish bilan bog‘liq metod, vosita va tashkiliy chora-tadbirlar majmuidir”. G.M.Kodjaspirova, A.Y.Kodjaspirovlarning fikricha, “o‘qitish metodikasi pedagogik faoliyatni amalga oshirishning aniq usullari, uslublari va texnikasidir”.

Umuman, ta’lim texnologiyasi haqida gap ketganda, o‘zaro daxldor quyidagi hodisalarni bir-biridan farqlashga ehtiyoj tug‘iladi, ya’ni u quyidagi bosqichlar bilan xarakterlanadi: o‘qitish jarayonini didaktik loyihalash; o‘qitish jarayoni loyihasini amalga oshirish; o‘qitish jarayonining joriy va oraliq natijasiga ko‘ra didaktik loyihaga tuzatish va o‘zgartirishlar kiritish; o‘qitish jarayonini takroriy o‘tkazish; yakuniy nazorat va olingan natijalarni tahlil qilishdan iborat.

O‘qitish jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalangan o‘qituvchi olingan natijalarni tahlil qilishi, tegishli hollarda mazkur jarayonning tashkil etilishi, talabalarning o‘quv-bilish faoliyatini faollashtirish maqsadida qo‘llanilgan o‘qitish vositasi va metodlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritishi lozim.

Fizika fani o‘qituvchisi o‘qitish jarayonida talabalarning o‘quv-bilish faoliyatini passiv tinglovchi holatida tashkil etmasdan, balki o‘quv maqsadlariga erishish uchun talabalarni faollashtirish holatida tashkil etishni loyihalashi va jarayonda o‘qituvchi-talaba (subyekt-subyekt)) hamkorligini tashkil etishi va talabalarni pedagogik jarayonning sub’ektiga aylantirishi, pedagogik munosabatlarning sub’ekt-sub’ekt yo‘nalishini tashkil etishi uchun zarur bo‘lgan metodik bilim, ko‘nikma va malakalarini egallashi lozim.


Fizika fanini o‘qitishda talabalarning bilish faoliyatini indiviudal tarzda tashkil etish uchun asosan mustaqil ishlardan ham foydalaniladi. Masalan, talabalarga muayyan mavzular bo‘yicha kichik tadqiqotlar o‘tkazish, laboratoriya ishlarini o‘tkazish, referatlar tayyorlash, turli mavzularda o‘tkaziladigan kechalar uchun materiallar tayyorlash shular jumlasidandir.

Tadqiqot jarayonida “Elektr va magnetism” bo‘limini o‘qitishda quyidagi innovatsion metodlar majmuasi qo‘llanildi:

Tadqiqot uchun akademik ko‘rsatkichlari bir xil bo‘lgan ikkita guruh tanlandi. Nazorat guruhida (25 talaba) an’anaviy ma’ruza va laboratoriya mashg‘ulotlari o‘tkazildi. Tajriba guruhida (25 talaba) esa innovatsion raqamli texnologiyalar joriy etildi.

Elektr va magnetizm bo‘limidagi abstrakt tushunchalarni (masalan, elektromagnit maydon yoki elektronlar oqimi) tushuntirishda virtual simulyatsiyalar beqiyos imkoniyatlar taqdim etadi. PhET loyihasi asoschilari K. Viman va uning hamkasblari qayd etganidek, interaktiv simulyatsiyalar talabalarga real hayotda ko‘rib bo‘lmaydigan mikro-jarayonlarni bevosita boshqarish va kuzatish imkonini beradi [5]. Tadqiqotchilarning fikricha, ba’zi hollarda virtual muhitda o‘tkazilgan tajribalar real laboratoriya uskunalari bilan ishlashdan ko‘ra yuqoriroq didaktik samara berishi mumkin, chunki u yerda ideal sharoitlarni yaratish va xatoliklarni tezkor tahlil qilish osonroq [7].

PhET Interactive Simulations platformasining “Circuit Construction Kit: DC” modulidan foydalanildi. Bunda talabalar elektronlar harakatini vizual kuzatib, virtual voltmetr va ampermetrlar yordamida Om qonunini mustaqil tekshirdilar (1-rasm).



1-rasm. “Circuit Construction Kit: DC” moduli ko‘rinishi


Mashg‘ulot jarayonida talabalarning o‘zlashtirish darajasini real vaqtda aniqlash uchun Plickers kabi raqamli platformalardan foydalanish, o‘qituvchiga metodik yondashuvni tezkor tuzitish imkonini beradi (2-rasm) [9]. Shuningdek, internet tarmog‘idagi PhET kabi ochiq ta’lim resurslari talabalarning mustaqil ta’lim olishi uchun keng imkoniyatlar ochib beradi [10].

Plickers texnologiyasi yordamida har bir mashg‘ulotning yakunida “tok kuchi”, “kuchlanish” va “Lorens kuchi” mavzulari bo‘yicha tezkor frontal so‘rovnomalar o‘tkazilib, o‘zlashtirish darajasi real vaqtda monitoring qilindi.

Fizika mashg‘ulotlarida STEM texnologiyalarini qo‘llash, xususan, talabalar tomonidan kichik muhandislik loyihalarining (masalan, quyosh panellari) ishlab chiqilishi ularda amaliy ko‘nikmalarni rivojlantiradi. M. Xoneyning fikricha, bunday yondashuv keyingi avlod innovatorlarini tarbiyalashning eng samarali yo‘lidir [6]. O‘zbekiston sharoitida fizika o‘qitishning metodik tizimini takomillashtirishda mahalliy olimlar ham zamonaviy texnologiyalar va virtual laboratoriyalarning uyg‘unligiga alohida urg‘u bermoqdalar [4, 8].

Nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash maqsadida talabalarga “Muqobil energiya manbalari” loyihasi berildi. Talabalar kichik guruhlarda quyosh panellaridan foydalanib, oddiy elektr zanjirini yig‘ish va uning foydali ish koeffitsientini hisoblash bo‘yicha muhandislik vazifasini bajardilar.

Tajriba yakunida talabalarning fanga bo‘lgan qiziqishi va motivatsiyasini aniqlash uchun Likert shkalasiga asoslangan 10 ta savoldan iborat anketa so‘rovnomasi o‘tkazildi.



2-rasm. Plickers raqamli platforma ko‘rinishi

“Elektr va magnetism” bo‘limi bo‘yicha o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari quyidagi ijobiy natijalarni ko‘rsatdi:

Tajriba guruhidagi talabalarning o‘zlashtirish samaradorligi nazorat guruhiga nisbatan 16,5% ga yuqori bo‘ldi. Ayniqsa, «Kirxgof qonunlari» va «Elektromagnit induksiya» kabi murakkab mavzularda xatoliklar soni 2 barobarga kamaydi.

PhET simulyatsiyalaridan foydalangan talabalarning 88% i magnit maydon chiziqlari va tokning magnit ta’sirini tasavvur qilish ancha osonlashganini qayd etdi. An’anaviy guruhda esa bu ko‘rsatkich 45% ni tashkil etdi.

STEM loyihasi doirasida quyosh paneli modelini yasagan talabalarning 92% i elektr zanjirini xatosiz yig‘ish va parametrlarni to‘g‘ri o‘lchash ko‘nikmasiga ega bo‘ldi.

So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, tajriba guruhidagi talabalarning 94% i fizika mashg‘ulotlarining qiziqarli o‘tishini va raqamli texnologiyalar ularni mustaqil izlanishga undashini bildirgan.

Muhokama. “Elektr va magnetism” bo‘limi abstrakt tushunchalarga boy bo‘lgani sababli, innovatsiyalarni joriy etish muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, PhET simulyatsiyalari talabalarda “ko‘rinmas” hodisalarni (magnit maydoni, elektronlar oqimi) vizuallashtirish orqali konseptual tushunishni shakllantiradi.

Biroq, tajriba davomida ma’lum bo‘ldiki, innovatsion texnologiyalar o‘qituvchining o‘rnini to‘liq bosa olmaydi, balki uning faoliyatini yo‘naltiruvchi sifatida kengaytiradi. Shuningdek, STEM loyihalari talabalarda nafaqat fizika, balki matematik hisoblash va muhandislik ko‘nikmalarini ham bir vaqtda rivojlantiradi.

Xulosa. Fizika ta’limida innovatsiyalarni qo‘llash - ta’lim sifatini oshirishning eng samarali yo‘lidir. Bu talabalarni kelajakdagi muhandislik va yuqori texnologiyalar sohasiga tayyorlashda poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalangan adabiyotlar:

1.Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. – 464 b.
2.Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2005. – 200 b.
3.Begimkulov U.Sh. Ta’limda axborot texnologiyalarini joriy etishning nazariy-amaliy asoslari. – Toshkent: Fan, 2007.
4.Turdiev N.Sh. Fizika o‘qitishda zamonaviy ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2014.
5.Wieman, C. E., Adams, W. K., & Perkins, K. K. (2008). *PhET: Interactive Simulations for Teaching and Learning Physics.* The Physics Teacher, 46(2), 94-99.
6.Honey, M., & Kanter, D. E. (2013). *Design, Make, Play: Growing the Next Generation of STEM Innovators.* Routledge.
7.Finkelstein, N. D., et al. (2005). *When learning about the real world is better done virtually: A study of substituting computer simulations for laboratory equipment.* Physical Review Special Topics - Physics Education Research.
8.Yusupov A.S. Fizika darslarida virtual laboratoriyalardan foydalanishning afzalliklari. // *Fizika, matematika va informatika jurnali.* – Toshkent, 2020. – №3. – B. 45-52.
9.Plickers.com — [Электрон ресурс]. Интерактив баҳолаш тизими бўйича методик қўлланма.
10. PhET.colorado.edu — [Электрон ресурс]. Колорадо университетининг физик симуляциялар базаси.

Muallif:
Bazarbayev Zinatdin Bisen o‘g‘li - Nukus davlat pedagogika instituti, “Fizika” kafedrasi tayanich doktoranti.

UDK 378.016:53:37.013.42

DEVELOPING STUDENTS' PROFESSIONAL COMPETENCE BASED ON PERSON-CENTERED EDUCATION (ON THE EXAMPLE OF "METHODS OF TEACHING PHYSICS")

TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI SHAXSGA YO‘NALTIRIGAN TA’LIM ASOSIDA SHAKLLANTIRISH (“FIZIKA O‘QITISH METODIKASI” FANI MISOLIDA)

ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ЛИЧНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННОГО ОБУЧЕНИЯ (НА ПРИМЕРЕ ДИСЦИПЛИНЫ «МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ФИЗИКИ»)

Karlibayeva Guljaxan Ermekbayevna, Ospanova Saltanat Sarsenbay qizi, Paluaniyazova Juldiz Maratovna
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, 230105. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Nukus shahri, P.Seytov ko‘chasi r/u
E-mail: kguljaxan_1978@mail.ru

Abstract. This article examines the issues of developing the professional competence of future physics teachers based on person-centered education technologies. The research was conducted within the framework of the "Methods of Teaching Physics"

course, analyzing the effectiveness of differential approaches and individual learning trajectories. Experimental results showed a 25% increase in students' practical skills and professional motivation. Practical recommendations for improving educational curricula are provided in the conclusion.

Key words. Methods of teaching physics, person-centered education, professional competence, differential approach, individual trajectory, case-study, innovation, project-based learning.

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak fizika o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari asosida shakllantirish masalalari yoritilgan. Tadqiqot “Fizika o‘qitish metodikasi” fani misolida olib borilgan bo‘lib, unda differensial yondashuv va individual ta’lim traektoriyalarining samaradorligi tahlil qilingan. Tajriba-sinov ishlari natijasida talabalarning amaliy ko‘nikmalari va kasbiy motivatsiyasi 25% ga oshganligi raqamlar bilan isbotlangan. Yakunda o‘quv dasturlarini takomillashtirish bo‘yicha amaliy takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar. Fizika o‘qitish metodikasi, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, kasbiy kompetensiya, differensial yondashuv, individual traektoriya, keys-stadi, innovatsiya, loyihaviy ta’lim.

Аннотация. В данной статье освещаются вопросы формирования профессиональной компетенции будущих учителей физики на основе личностно-ориентированных технологий обучения. Исследование проведено на примере дисциплины «Методика преподавания физики», в ходе которого проанализирована эффективность дифференцированного подхода и индивидуальных образовательных траекторий. Результаты опытно-испытательной работы на цифрах доказывают, что практические навыки и профессиональная мотивация студентов повысились на 25%. В заключении даны практические предложения по совершенствованию учебных программ.

Ключевые слова. Методика преподавания физики, личностно-ориентированное обучение, профессиональная компетенция, дифференцированный подход, индивидуальная траектория, кейс-стади, инновация, проектное обучение.

Kirish. Zamonaviy ta’lim paradigmasida fizika o‘qituvchisining roli tubdan o‘zgardi. Endilikda u nafaqat bilim beruvchi, balki talabaning shaxsiy rivojlanishini yo‘naltiruvchi shaxs hisoblanadi. Jamiyatga faqat formulalarni yodlagan mutaxassis emas, balki mustaqil qaror qabul qila oladigan, kreativ fikrlaydigan va o‘z ustida doimiy ishlaydigan shaxs kerak.

Fizika - tabiat haqidagi fan bo‘lib, u talabada dunyoqarashni shakllantirish va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun eng katta imkoniyatga ega. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv esa talabaning individual qobiliyatlarini ochishga xizmat qiladi.

Tadqiqot ob’ekti va qo‘llanilgan metodlar

Tadqiqotning ob’ekti sifatida talabalarning kasbiy kompetensiyasini shaxsga yo‘naltirigan ta’lim asosida shakllantirish (“Fizika o‘qitish metodikasi” fani misolida) jarayoni belgilab olindi. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash va tahlil usullaridan foydalanilgan.

Olingan natijalar va ularning tahlili

An’anaviy ta’lim tizimida haligacha ba’zi tizimli kamchiliklar saqlanib qolmoqda:

- talabalar murakkab fizik qonunlarni nazariy jihatdan bilsalar-da, ularni maktab sharoitida o‘quvchilarga qanday qilib qiziqarli va sodda tushuntirishda (kasbiy kompetensiyada) qiyinchilikka uchraydilar;
- ta’lim jarayoni ko‘pincha “o‘rtacha bilimga ega talaba”ga moslashtirilgan bo‘lib, iqtidorli yoki o‘zlashtirishi sustroq bo‘lgan talabalarning individual ehtiyojlari e’tibordan chetda qoladi;
- talaba ta’lim jarayonining ob’ekti sifatida qolib ketmoqda, vaholanki kasbiy kompetensiya faqat sub’ekt sifatida faol ishtirok etgandagina shakllanadi [3. B.398-400].

Ushbu maqolaning maqsadi — “Fizika o‘qitish metodikasi” fanini o‘qitish jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarini qo‘llash orqali:

- talabalarning kasbiy kompetensiyalarini (pedagogik mahorat, kommunikatsiya, muammoli vaziyatlarni yechish) rivojlantirish modelini ishlab chiqish;
- bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘z kasbiy faoliyatiga nisbatan mas’uliyat va ijodiy yondashuvni shakllantirish yo‘llarini asoslash;
- ta’lim jarayonini talabaning shaxsiy traektoriyasiga moslashtirish orqali o‘qitish sifatini oshirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berish.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasi jahon pedagogikasida K. Rojers, A. Maslou kabi olimlar tomonidan asoslab berilgan. Ular ta’limning markaziga bilimni emas, balki inson shaxsini qo‘yishni taklif qilganlar.

R.J. Ishmuhamedov o‘z tadqiqotlarida shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning quyidagi muhim jihatlarini ta’kidlaydilar:

- o‘qituvchi va talaba (sub’ekt-sub’ekt munosabati) teng huquqli sheriklar sifatida harakat qiladi;
- har bir talabaning o‘zlashtirish tezligi (individual traektoriya) va uslubi (vizual, audial, kinestetik) hisobga olinadi [1].

“Fizika o‘qitish metodikasi” fani bo‘lajak o‘qituvchi uchun nafaqat nazariy fan, balki kasbiy qurol bo‘lib hisoblanadi. Bu yerda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv quyidagilarni talab qiladi:

- talaba “Men bu mavzuni o‘quvchiga qanday qilib qiziqarli tushuntira olaman?” degan savolni o‘ziga berishi va o‘z ustida ishlashi (refleksiya);
- fizik tajribalarni loyihalashda andozalardan qochib, yangicha, qiziqarli metodlarni o‘ylab topish (kreativlik) [2. B. 290-292].

Tadqiqotning asosini differensial yondashuv tashkil etdi. Bunda talabalar o‘zlarining o‘zlashtirish darajasi va qiziqishlariga ko‘ra 3 ta shartli darajaga ajratildi:

- reproduktiv daraja (nazariy bilimlarni takrorlay oladigan talabalar);
- produktiv daraja (fizik masalalarni yechish va standart tajribalarni o‘tkaza oladiganlar);
- kreativ daraja (yangi metodik ishlanmalar yarata oladigan va muammoli vaziyatlarga yechim topa oladigan talabalar).

Har bir talaba uchun o‘zining kuchli va kuchsiz tomonlaridan kelib chiqib “individual ta’lim traektoriyasi” belgilandi. Traektoriyani belgilashdan avval talabaning kuchli va kuchsiz jihatlari aniqlanadi:

- kuchli tomonlari: masalan, talaba fizik tajribalarni a’lo darajada o‘tkazadi, matematik hisob-kitoblarga mohir yoki murakkab mavzularni sodda tilda tushuntirib bera oladi;
- kuchsiz tomonlari: masalan, talaba auditoriya oldida hayajonlanadi, zamonaviy raqamli dasturlar (PhET simulyatorlari va h.k.) bilan ishlashga qiynaladi yoki dars konspektini mantiqiy tuzishda oqsaydi [4. B. 445].

Har bir talabaning individual yo‘li quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi:

- shaxsiy sur’at: Kimdir mavzuni tez o‘zlashtirib, ijodiy loyihaga o‘tadi, kimdir nazariyani chuqurroq o‘rganish uchun ko‘proq vaqt sarflaydi;
- tanlov erkinligi: Talaba o‘zini qaysi yo‘nalishda (masalan, maktab o‘qituvchisi, to‘garak rahbari yoki ilmiy tadqiqotchi) ko‘rsatishni istasa, topshiriqlar shunga yo‘naltiriladi;
- refleksiya va tuzatish: Har bir bosqich oxirida talaba o‘z yutuqlarini tahlil qiladi (“Nimani o‘rgandim va yana nima ustida ishlashim kerak?”).

“Fizika o‘qitish metodikasi” fani doirasida quyidagi innovatsion vositalardan foydalanildi:

Keys-stadi (Case-study): Talabalarga real maktab darslarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammoli vaziyatlar berildi. Masalan: “O‘quvchi kvant fizikasi bo‘yicha ziddiyatli savol berganda o‘qituvchining shaxsga yo‘naltirilgan javobi qanday bo‘lishi kerak?”

Loyihaviy ta’lim (Project-based learning): Talabalar guruhlarga bo‘lingan holda fizikaning ma’lum bir bo‘limini (masalan, Optika) o‘qitish uchun virtual laboratoriya yoki mobil ilova loyihasini ishlab chiqdilar.

Masofaviy va mustaqil topshiriqlar: Talabalarning mustaqil ishlashi individual darajadagi testlar va ijodiy video-darslar tayyorlash topshiriqlari berildi.

Tadqiqot natijalarini baholash uchun quyidagilardan foydalanildi:

- tajriba boshida va oxirida kasbiy bilimlarni tekshirish;
- talabaning yaratgan metodik ishlanmalari sifati (Portfolio baholash);
- talabalarning pedagogik amaliyot davomida o‘zini tutishi va muloqot mahorati [5. C. 35].

Tajriba davomida talabalarning kasbiy kompetensiyasi uchta asosiy mezon bo‘yicha baholandi: bilim (nazariy), ko‘nikma (amaliy metodlar) va motivatsiya (kasbga qiziqish).

Tajriba boshida har ikki guruhda ham ko‘rsatkichlar deyarli bir xil edi. Biroq, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari qo‘llanilgandan so‘ng quyidagi natijalar qayd etildi (1-jadval):

1-jadval

Talabalarning kasbiy kompetensiyasi shakllanish darajasi (foizda)

Ko‘rsatkichlar	Guruh	Tajribagacha	Tajribadan keyin	O‘sish (%)
Nazariy bilimlar	Nazorat	62%	68%	+6%
	Tajriba	61%	84%	+23%
Amaliy ko‘nikmalar	Nazorat	45%	52%	+7%
	Tajriba	47%	75%	+28%
Kasbiy motivatsiya	Nazorat	55%	58%	+3%
	Tajriba	54%	82%	+28%

Tadqiqot natijasida talabalarning “Fizika o‘qitish metodikasi” fani doirasidagi mustaqil faoliyatida quyidagi ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi:

- mustaqil dars loyihalash: Tajriba guruhi talabalarining 85 foizi dars ishlanmalarini tayyorlashda an’anaviy ta’limdan voz kechib, shaxsiy metodik yondashuvlarini taklif qildilar.
- ijodiy yondashuv: Virtual laboratoriya ishlarini yaratish va masofaviy topshiriqlarni shakllantirish mahorati nazorat guruhiga nisbatan 20-25% yuqori bo‘ldi.
- muammoli vaziyatlarni yechish: Talabalarning pedagogik muammolar va murakkab savollar bilan ishlash qobiliyati 1.5 baravarga oshdi.

Bizning tadqiqotimizda olingan natijalar (tajriba guruhida kasbiy kompetensiyaning 23-28% ga o‘sishi) sohadagi boshqa olimlarning xulosalarini to‘ldiradi va boyitadi.

Agar an’anaviy tadqiqotlarda asosiy urg‘u talabaning faqat bilim darajasiga qaratilgan bo‘lsa, bizning yondashuvimizda kasbiy motivatsiya va shaxsiy refleksiya birinchi o‘ringa chiqdi.

Tadqiqot natijalarimiz R.J. Ishmuhamedovlarning talaba faolligini oshirish bo‘yicha nazariyalariga mos keladi. Biroq, biz aynan “Fizika o‘qitish metodikasi” fani misolida bo‘lajak o‘qituvchining “o‘qituvchilik pozitsiyasi” qanday shakllanishini ko‘rsatib berdik.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim talabaning ichki salohiyatini quyidagicha “uyg‘otdi”:

Sub’ektlik pozitsiyasi: Talaba o‘zini faqat axborot qabul qiluvchi emas, balki dars jarayonining loyihachisi sifatida his qildi. Bu uning kasbiy o‘z-o‘zini anglashini kuchaytirdi.

Shaxsiy mas’uliyat: Individual traektoriya asosida muammoli topshiriqlarni tanlash imkoniyati berilganida, talabalarda o‘z ta’lim natijalari uchun mas’uliyat hissi oshdi.

Kreativlikning ochilishi: Keys-stadi va loyihaviy ishlar davomida talabalar o‘zlarining yashirin ijodiy qobiliyatlarini (masalan, fizik jarayonlarni vizuallashtirishning yangi usullari) namoyish etdilar.

Taklif etilayotgan metod fizika ta’limi uchun quyidagi ahamiyatga ega:

- nazariya va amaliyot uyg‘unligi: “Fizika o‘qitish metodikasi” faqat nazariya bo‘lib qolmay, real maktab darsiga tayyorgarlik platformasiga aylandi;
- zamonaviy o‘qituvchi qiyofasi: Ushbu metod orqali tayyorlangan talabalar ertaga maktabga borganda o‘quvchining shaxsini hurmat qiladigan va darslarni differensial (har bir o‘quvchiga mos) tashkil eta oladigan mutaxassis bo‘lib yetishadi;
- ta’lim samaradorligi: Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv murakkab fizik qonuniyatlarni tushunishdagi psixologik to‘siqlarni olib tashlaydi va o‘zlashtirish darajasini sezilarli darajada oshiradi.

Xulosa. Olib borilgan nazariy tahlillar va tajriba-sinov ishlari natijasida quyidagi yakuniy xulosalarga kelindi:

- shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tizimi bo‘lajak fizika o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda eng yuqori samaradorlikka ega ekanligi isbotlandi. Bu yondashuv talabani passiv tinglovchidan faol tadqiqotchi va dars loyihachisiga aylantiradi;

- differensial yondashuv va individual ta’lim traektoriyalarining qo‘llanilishi talabalarda nafaqat fizik bilimlarni, balki pedagogik refleksiya, kreativlik va muloqot madaniyati kabi muhim kasbiy sifatlarni rivojlantirdi;

- tajriba guruhida nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalarning o‘zlashtirish darajasi nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada (23-28%) yuqori bo‘ldi, bu esa tanlangan metodning to‘g‘riligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari asosida oliy ta’lim tizimi uchun quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi:

- o‘quv dasturlarini modernizatsiya qilish: "Fizika o‘qitish metodikasi" fani o‘quv dasturiga shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarni (keyslar, loyihalar) qo‘llash bo‘yicha maxsus modullarni kiritish;

- mustaqil ta’limni tizimlashtirish: Talabalarga beriladigan mustaqil ish topshiriqlarini ularning individual qobiliyatlaridan kelib chiqib, darajalangan (differensial) holda ishlab chiqish;

- raqamli vositalardan foydalanish: Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini oshirish uchun virtual laboratoriyalar va pedagogik simulyatorlardan keng foydalanishni yo‘lga qo‘yish;

- baholash tizimini o‘zgartirish: Talabaning faqat bilim darajasini emas, balki uning metodik ijodkorligi va shaxsiy rivojlanish dinamikasini baholash tizimini joriy etish.

Adabiyotlar:

1. Ишмуҳамедов Р., Абдуқодиров А., Пардаев А. Таълимда инновацион технологиялар (таълим муассасалари педагог-ўқитувчилари учун амалий тавсиялар). – Тошкент: Истеъдод, 2008. – 180 б.
2. Карлыбаева Г.Е. Подготовка будущего учителя физики к инновационной педагогической деятельности // Бошланғич таълимнинг долзарб масалалари: муаммо ва ечимлар Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. – Жиззах, 2019. – Б. 290–292.
3. Карлыбаева Г.Е. Физика ўқитувчисининг методик тайёргарлигини такомиллаштириш // Замонавий микроэлектрониканинг ривожланишида фан, таълим ва инновация интеграцияси. Республика илмий-услубий анжуман. –Андижон. 2020. –Б. 398-400.
4. Матжанов Н.С. Виртуальные физические опыты на уроках физики // Замонавий микроэлектрониканинг ривожланишида фан, таълим ва инновация интеграцияси. Республика илмий-услубий анжумани. –Андижон: АДУ. 2020 й. 24-25 декабрь. –Б. 445-447.
5. Матжанов Н.С. Особенности контроля знаний студентов в учебном процессе вуза // Международный научный журнал «Инновационная наука», №8-2/2021. –С. 31-39

Mualliflar:
Karlibaeva Guljaxan Ermekbaevna - Nukus davlat pedagogika instituti, “Fizika” kafedrasi professori, pedagogika fanlari doktori (DSc).
Ospanova Saltanat Sarsenbay qizi - Nukus davlat pedagogika instituti, “Fizika” kafedrasi 2-kurs magistranti.
Paluaniyazova Juldiz Maratovna - Nukus davlat pedagogika instituti, “Fizika” kafedrasi 1-kurs magistranti.

UDK 378.147:53 (072)

IMPROVING THE METHODOLOGY OF PREPARING STUDENTS FOR TEACHING PHYSICS BASED ON A CREATIVE APPROACH (USING THE SUBJECT "METHODOLOGY OF TEACHING PHYSICS" AS AN EXAMPLE)

TALABALARNI KREATIV YONDASHUV ASOSIDA FIZIKA O‘QITISHGA TAYYORLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH (“FIZIKA O‘QITISH METODIKASI” FANI MISOLIDA)

УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ К ПРЕПОДАВАНИЮ ФИЗИКИ НА ОСНОВЕ ТВОРЧЕСКОГО ПОДХОДА (НА ПРИМЕРЕ ПРЕДМЕТА «МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ФИЗИКИ»)

Matjanov Nurjan Sultamuratovich, Ospanova Saltanat Sarsenbay qizi, Abduganieva Syuzana Arepbay qizi
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi. Nukus shahri.
E-mail: nurjan-1974@bk.ru

Annotatsiya: Maqolada bo‘lajak fizika o‘qituvchilarini tayyorlashda “Fizika o‘qitish metodikasi” fani misolida kreativ yondashuvlarni qo‘llash va ushbu jarayonni takomillashtirish masalalari yoritilgan. Tadqiqot davomida talabalarning ijodiy hamda nostandart fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiruvchi muammoli ta’lim, evristik metodlar tahlil qilingan. Eksperemental mashg‘ulotlar yordamida an’anaviy o‘qitish usullari va kreativ yondashuvning samaradorlik ko‘rsatkichlari qiyoslanib, talabalarning kasbiy kompetensiyasini oshirish bo‘yicha metodik tavsiyalar, baholash mezonlari ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Kreativ yondashuv, fizika o‘qitish metodikasi, muammoli ta’lim, evristik algoritm, kasbiy kompetensiya, nostandart vaziyatlar, bo‘lajak o‘qituvchi.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы применения креативного подхода и совершенствования методики подготовки будущих учителей физики на примере дисциплины «Методика преподавания физики». В ходе исследования проанализированы методы проблемного обучения, эвристические алгоритмы, развивающие у студентов творческое и нестандартное мышление. На основе экспериментальных занятий проведено сравнение эффективности традиционных методов обучения со спецификой креативного подхода, а также разработаны методические рекомендatsii и критерии оценки для повышения профессиональной компетенции будущих специалистов.

Ключевые слова: Креативный подход, методика преподавания физики, проблемное обучение, эвристический алгоритм, профессиональная компетенция, нестандартные ситуatsii, будущий учитель.

Abstract: The article examines the application of a creative approach and the improvement of the methodology for training future physics teachers using the example of the discipline "Methodology of Teaching Physics." The study analyzes problem-based learning, heuristic algorithms, and STEM technologies designed to develop students' creative and non-standard thinking. Based on experimental classes, the effectiveness of traditional teaching methods is compared with the specific outcomes of a creative approach. Methodological recommendations and evaluation criteria to enhance the professional competence of future specialists are developed and proposed.

Keywords: Creative approach, physics teaching methodology, problem-based learning, heuristic algorithm, professional competence, non-standard situations, future teacher.

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimining asosiy vazifasi nafaqat tayyor bilimlarni berish, balki talabalarda mustaqil, tanqidiy va kreativ fikrlashni shakllantirishdan iborat [1]. Fizika fani o‘zining tabiatiga ko‘ra doimiy izlanish, eksperiment va ijodiy yondashuvni talab etadi. Bo‘lajak fizika o‘qituvchilarini tayyorlashda “Fizika o‘qitish metodikasi” fani markaziy o‘rin tutadi. Biroq, an’anaviy o‘qitish usullari talabalarning ijodiy salohiyatini to‘liq ochishda yetarli bo‘lmayapti. Shu bois, talabalarni kreativ yondashuv asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi.

Tadqiqot ob’ekti va qo‘llanilgan metodlar

Tadqiqotning obyekti sifatida talabalarni kreativ yondashuv asosida fizika o‘qitishga tayyorlash metodikasini takomillashtirish (“Fizika o‘qitish metodikasi” fani misolida) mazmunini ochib berish uchun xizmat qiluvchi texnologiyalardan foydalanish jarayoni belgilab olindi. Tadqiqot mavzusini yoritishda kuzatish, materiallarni tahlil qilish va umumlashtirish, jamoaviy va yakka tartibdagi suhbatlar, so‘rovlar (og‘zaki) o‘tkazish usullaridan foydalanilgan.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Kreativlik va ijodiy yondashuv muammolari P.Torrens [9], J.Gilford [10] kabi xorij olimlari hamda M.Jumaniyozova [3], R.Ishmuxamedov [4] kabi mahalliy tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Fizika o‘qitish metodikasida kreativlikni rivojlantirish bo‘yicha N.Shahmaev va A.Pyorishkinlarning ishlarida laboratoriya mashg‘ulotlarining o‘rni ta’kidlangan. Biroq, aynan pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarini kreativ o‘qituvchi sifatida shakllantirishning tizimli metodikasi “Fizika o‘qitish metodikasi” fani kesimida hali yetarlicha tadqiq etilmagan.

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatuv va loyihalash usullaridan foydalanildi. Kreativ yondashuvni joriy etish uchun quyidagi komponentlar asos qilib olindi:

Muammoli ta’lim: Talabalarga yechimi tayyor bo‘lmagan fizik vaziyatlar taqdim etish. Fizika o‘qitishda muammoli ta’lim - bu talabani shunchaki formulaga raqam qo‘yishga emas, balki muammoli vaziyatdan chiqish yo‘lini izlashga majbur qiladigan metodikadir. Bunda o‘qituvchi mavzyni emas, real hayotimizda uchraydigan fizik hodisalarni taqdim etadi. Yechimi tayyor bo‘lmagan (muammoli turdagi) vaziyatlar talabada intuitsiya, gipoteza yaratish va konstruktorlik qobiliyatlarini shakllantiradi [2].

Quyida ushbu metodni "Fizika o‘qitish metodikasi" fanida qo‘llash bo‘yicha batafsil yo‘riqnoma va misollar keltirib o‘tamiz:

1. Yechimi tayyor bo‘lmagan vaziyatlarning turlari

Bunday vaziyatlar odatda uch xil ko‘rinishda bo‘ladi:

Ma’lumot yetishmaydigan vaziyatlar: Muammoni yechish uchun zarur bo‘lgan ba’zi fizik kattaliklar berilmaydi. Talaba ularni o‘zi taxmin qilishi yoki ma’lumotnomalardan izlashi kerak.

Ziddiyatli vaziyatlar: Nazariya bir hodisani tushuntirib beradi, lekin tajriba (yoki kundalik hayot) boshqacha natija beradigandek tuyuladi [5].

Loyihaviy-konstruktorlik vaziyatlari: Muayyan maqsadga erishish uchun qurilma o‘ylab topish so‘raladi, lekin qanday qurish aytilmaydi.

2. Kreativ yondashuv uchun amaliy misollar

“Qora quti” metodi (Elektr bo‘limi)

Vaziyat: Talabaga ichi ko‘rinmaydigan quti beriladi. Qutidan ikkita sim chiqib turibdi. Ichida bitta qarshilik (rezistor) va bitta yarim o‘tkazuvchi diod bor.

Muammo: Qutini ochmasdan va qismlarga ajratmasdan, ichidagi detallar qanday ulanganini (ketma-ket yoki parallel) aniqlash sxemasini tuzing va isbotlang.

Kreativlik: Talaba tok yo‘nalishini o‘zgartirish, volt-amper xarakteristikasini chizish kabi turli variantlarni o‘zi o‘ylab topishi kerak.

3. Muammoli vaziyatni tashkil etish bosqichlari

Psixologik tayyorgarlik: Talabada “qiziqish va hayrat” uyg‘otish (masalan, fizik fokus ko‘rsatish orqali).

Muammoni qo‘yish: Savol shunday berilishi kerakki, talaba egallangan nazariy bilimlari bilan uni yecha olmasligini his qilsin (bilimlar defitsiti).

Gipotezalar generatsiyasi: Har qanday “noodatiy” g‘oyalar ham qabul qilinadi (Miya hujumi).

Tekshirish: Tanlangan g‘oyalarni matematik hisoblash yoki tajriba orqali sinab ko‘rish.

Metodik refleksiya: “Bu mavzuni maktabda o‘quvchilarga qanday qilib muammoli tarzda tushuntirish mumkin?” degan savolga javob izlash.

4. O‘qituvchi roli. Muammoli ta’limda o‘qituvchi “bilim beruvchi” emas, balki “yo‘naltiruvchi” bo‘ladi. U tayyor javobni aytmaydi. “Agar bunday qilsak-chi?” deb yo‘naltiruvchi savollar beradi. Xato qilish imkoniyatini beradi (chunki xato — eng yaxshi dars) [6].

Bu metodning natijasi: Talaba fizikani “o‘lik” formulalar to‘plami sifatida emas, balki hayotiy muammolarni yechish quroli sifatida ko‘ra boshlaydi.

Evristik metodlar: Fizik hodisalarni tushuntirishda yangicha algoritmlar yaratish.

“Fizika o‘qitish metodikasi”da evristik metodlar (yunoncha *«heuresko»* – izlayapman, topyapman) talabalarni tayyor bilimni o‘zlashtirishdan, yangi bilimni “kashf etish”ga yo‘naltiruvchi algoritmlar hisoblanadi. Fizik hodisalarni tushuntirishda bu metodlar standart qoliplardan voz kechib, ijodiy va mantiqiy izchillikni ta’minlaydi.

Quyida fizikani o‘qitishda evristik algoritmlarni yaratish va qo‘llash bo‘yicha batafsil ma’lumot keltirilgan:

1. Evristik algoritm tushunchasi. An’anaviy algoritm (masalan, masala yechishda: berilganlarni yozish) formulani tanlash (hisoblash) qa’tiy ketma-ketlikka asoslanadi. Evristik algoritm esa moslanuvchan bo‘lib, u talabani gipotezalar yaratishga va nostandart yo‘llarni qidirishga undaydi [7].

2. Fizik hodisalarni tushuntirishning yangicha evristik algoritmlari

“Fantastik analogiya” algoritmi

Bu algoritm murakkab va ko‘z bilan ko‘rib bo‘lmaydigan (mikrodunyo) hodisalarni tushuntirishda qo‘llaniladi.

Ob'ektni tanlash: Masalan, metallardagi erkin elektronlar harakati.

Analogiya topish: Elektronlarni stadiondagi minglab odamlar yoki tirband yo'ldagi mashinalar bilan qiyoslash.

Ziddiyatni aniqlash: "Agar elektronlar shunchalik tez harakat qilsa (issiqlik tezligi), nega elektr tokini yoqishimiz bilan lampa darrov yonadi?"

Yechimni "kashf qilish": Talaba energiyaning tarqalish tezligi bilan zarrachaning harakat tezligi o'rtasidagi farqni o'zi tushunib yetadi [8].

3. Evristik savollar tizimi

Yangicha algoritm yaratishda talabalarga quyidagi evristik savollar beriladi:

Nima uchun? (Hodisaning sababi)

Yana qanday? (Muqobil tushuntirish yo'li)

Agar bo'lmaganda-chi? (Masalan, elektronlar yo'qolsa nima bo'lardi?)

Aksincha bo'lsa-chi? (Agar vaqt tezligi oshsa yoki massa kamaysa?)

4. Metodikani takomillashtirishdagi ahamiyati

Bo'lajak fizika o'qituvchilari uchun evristik metodlarni egallash quyidagi afzalliklarni beradi:

Darsning qiziqarliligi: O'quvchilar tayyor konspektni ko'chirishmaydi, balki jarayonda ishtirok etishadi.

Xotira: "Kashf etilgan" bilim xotirada mustahkam saqlanib qoladi.

Moslashuvchanlik: O'qituvchi har qanday kutilmagan savolga ijodiy javob topa oladi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot davomida "Fizika o'qitish metodikasi" fani doirasida talabalar uchun "Kreativ laboratoriya" mashg'ulotlari tashkil etildi. An'anaviy mashg'ulotlardan farqli o'laroq, talabalarga quyidagi topshiriqlar berildi [11]:

Qo'lbola vositalardan fizik asboblar yasash va ularning metodik xaritasini tuzish.

Murakkab fizik qonuniyatlarni (masalan, kvant fizikasi) maktab o'quvchilariga sodda va qiziqarli usulda tushuntirish uchun "vizual ssenariy" yaratish.

Virtual laboratoriyalarda fizik jarayonlarni modellashtirish va ulardagi kamchiliklarni bartaraf etish yo'llarini topish.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, kreativ yondashuv qo'llangan guruhlarda talabalarning kasbiy kompetensiyasi 24% ga yuqorilagan. Talabalarning 85 foizi dars o'tishda nostandart usullardan foydalanishga ishtiyoq bildirgan.

Xulosa va takliflar.

Talabalarni kreativ yondashuv asosida fizika o'qitishga tayyorlash metodikasini takomillashtirish bo'yicha quyidagi xulosalarga kelindi:

- dasturlarni yangilash: "Fizika o'qitish metodikasi" fanining mazmuniga kreativ fikrlashni rivojlantiruvchi maxsus modullarni kiritish lozim;
- mustaqil ishlar: Talabalarning mustaqil ishlarini faqat referat yozish bilan cheklamay, ijodiy-konstruktorlik ishlariga yo'naltirish zarur;
- baholash tizimi: Talabalarning faqat nazariy bilimini emas, balki uning muammoga topgan nostandart yechimi va metodik yangiligini baholash mezonlarini ishlab chiqish kerak.

Xulosa qilib aytganda, kreativ yondashuv bo'lajak fizika o'qituvchilarining raqobatbardoshligini oshiradi va maktablarda fizika fanini o'qitish sifatini tubdan yaxshilaydi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021.
2. Muslimov N.A. va boshqalar. Innovatsion ta'lim texnologiyalari / N.A.Muslimov, M.X.Usmonboeva, D.M.Sayfurov, A.B.To'raev. – T.: "Sano standart" nashriyoti, 2015.
3. Jumaniyozova M.T. Talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish. – T.: "Fan va texnologiya", 2012.
4. Ishmuxamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: Iste'dod jamg'armasi, 2008.
5. Musurmonqulova M.M. Kreativ yondashuv asosida o'qitishning didaktik ta'minotini yaratish mexanizmlari // "Zamonaviy ta'lim" ilmiy-amaliy jurnali. – 2022. – №8.
6. Irsalieva S.T. Fizikadan nostandart namoyish tajribalarini bajarishda o'quvchi kreativ faoliyatini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari // "Science and Innovation" xalqaro ilmiy jurnali. – 2024.
7. Drapeau Patti. Sparking Student Creativity: Practical ways to promote innovative thinking and problem solving. – Alexandria, Virginia, USA: ASCD, 2014.
8. IOP Series in Physics Education. Creative Thinking in University Physics Education. – Bristol, UK: IOP Publishing, 2022.
9. Torrance E.P. The Nature of Creativity as Manifest in its Testing. In R.J. Sternberg (Ed.), The Nature of Creativity. – Cambridge University Press, 1988.
10. Guilford J.P. The Nature of Human Intelligence. – New York: McGraw-Hill, 1967.
11. Susanto H. et al. Cultivating Physics Teacher Creativity through Local Wisdom-Integrated Project-Based Learning // Journal of Didactic Mathematics. – 2023.

Mualliflar:

Matjanov Nurjan Sultamuratovich - Nukus davlat pedagogika instituti, "Fizika" kafedrasi professori, pedagogika fanlari doktori (DSc),

Ospanova Saltanat Sarsenbay qizi - Nukus davlat pedagogika instituti, "Fizika" kafedrasi 2-kurs magistranti.

Abduganieva Syuzana Arepbay qizi - Nukus davlat pedagogika instituti, "Fizika" kafedrasi 2-kurs magistranti.

**** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ****

**** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2026. № 2 ****

UDK 372.83

METHODS OF DEVELOPING STUDENTS' COMPETENCE IN SELF-GOVERNMENT IN THE CREDIT-MODULE SYSTEM

KREDIT-MODUL TIZIMIDA TALABALARNING O'Z-O'ZINI BOSHQARISH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH METODLARI

МЕТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ В ОБЛАСТИ САМОУПРАВЛЕНИЯ В КРЕДИТНО-МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЕ

Xolboyev Umrbek Dilmurotovich
Guliston davlat universiteti. 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze
E-mail: Xolboyevumr@gmail.com

Abstract. This article analyzes the potential and methods of a credit-modular system, implemented in the modern higher education system, for developing self-organization competencies in students. It highlights the essence of the credit-modular system, the structure of self-organization competencies, and the pedagogical and methodological foundations for developing these competencies.

Keywords: credit-modular system, self-organization competencies, competency-based approach, independent learning, reflective activity.

Annotatsiya. Ushbu maqola zamonaviy oliy ta'lim tizimida joriy etilayotgan kredit-modul tizimining talabalarning o'z-o'zini boshqarish kompetensiyasini shakllantirishdagi imkoniyatlari va usullari tahlil qilinadi. Kredit-modul tizimining mohiyati, o'z-o'zini boshqarish kompetensiyasining tuzilishi hamda bu kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik-metodik asoslari yoritiladi.

Kalit so'zlar: kredit-modul tizimi, o'z-o'zini boshqarish kompetensiyasi, kompetensiya yondashuvi, mustaqil ta'lim, refleksiv faoliyat.

Аннотация. В данной статье анализируются возможности и методы кредитно-модульной системы, внедренной в современную систему высшего образования, в формировании у студентов компетенций самоорганизации. Выделены сущность кредитно-модульной системы, структура компетенций самоорганизации, а также педагогические и методические основы развития этих компетенций.

Ключевые слова: кредитно-модульная система, компетенции самоорганизации, компетентностный подход, самостоятельное обучение, рефлексивная деятельность.

Kirish. Zamonaviy axborot jamiyatida ta'limning asosiy vazifalaridan biri shaxsning o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini amalga oshirish qobiliyatini shakllantirishdan iborat. Bu jarayonda talabaning o'z-o'zini boshqarish kompetensiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Kredit-modul tizimi (KMT) esa talabalarga o'z ta'lim jarayonini mustaqil boshqarish imkonini beruvchi zamonaviy ta'lim texnologiyasidir [1, 45-b]. O'z-o'zini boshqarish kompetensiyasi talabaning o'quv faoliyatini samarali tashkil etish, vaqtini qadrlash, o'zini-o'z nazorat qilish va o'z faoliyatini tahlil qilish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Kredit-modul tizimi bu kompetensiyani shakllantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi [2, 112-b].

Kredit-modul tizimining mohiyati va xususiyatlari. Kredit-modul tizimining tushunchasi. Kredit-modul tizimi – bu ta'lim jarayonini modullarga bo'lib, har bir modulga ma'lum kredit miqdorini belgilab, talabalarga o'zlarining o'quv rejalarini mustaqil shakllantirish imkonini beruvchi ta'lim tashkiliy shakli [3, 78-b].

KMTning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: Modullilik – ta'lim mazmuni alohida mustaqil o'zlashtiriladigan modullarga bo'linadi; Kreditlash – har bir modul ma'lum kredit miqdoriga ega bo'lib, talaba o'ziga kerakli modullarni tanlaydi; Moslashuvchanlik – talaba o'quv rejasi va jadvalini o'zi shakllantiradi; Shaffoflik – baholash mezonlari oldindan belgilanadi [4, 234-b].

Kredit-modul tizimining pedagogik afzalliklari. KMT talabalarning mustaqil faoliyatini rag'batlantiradi va ularning o'z-o'zini boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Tizim talabaga quyidagi imkoniyatlarni yaratadi: Birinchidan, individual o'quv traektoriyasini shakllantirish. Talaba o'zining qiziqishlari va kelajakdagi kasbiy faoliyatiga qarab, o'quv fanlarini tanlash erkinligiga ega bo'ladi [5, 156-b]. Ikkinchidan, o'quv yuklamasini samarali taqsimlash. Talaba semestr davomida qaysi vaqtda qaysi fanni o'rganishini o'zi belgilaydi, bu vaqt boshqaruvi ko'nikmalarini shakllantiradi. Uchinchidan, o'z-o'zini baholash va nazorat qilish. KMT doirasida talaba o'zining o'quv natijalarini kuzatib boradi va kerakli sohalarda o'zini takomillashtirishga harakat qiladi [6, 89-b].

O'z-o'zini boshqarish kompetensiyasining tuzilishi. O'z-o'zini boshqarish kompetensiyasi tushunchasi - O'z-o'zini boshqarish kompetensiyasi – bu shaxsning o'z faoliyatini maqsadli yo'naltirish, rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish va tuzatish qobiliyatlarining yig'indisi [7, 67-b]. Bu kompetensiya quyidagi komponentlardan iborat: Motivatsion komponent – o'quv faoliyatining maqsadga yo'naltirilganligi, o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan ichki intilish. Bu komponent talabaning o'quv jarayoniga faol qatnashishini ta'minlaydi [8, 123-b]. Kognitiv komponent – o'z-o'zini boshqarishning usul va vositalarini bilish, o'quv jarayonini tashkil etishning nazariy asoslarini anglash. Bu komponent talabaning o'z faoliyatini bilim asosida boshqarishini ta'minlaydi [9, 201-b]. Amaliy komponent – o'z vaqtini boshqarish, maqsad qo'yish, rejalashtirish, o'zini-o'z nazorat qilish va o'z faoliyatini tahlil qilish ko'nikmalari. Bu kompetensiyaning eng muhim qismi hisoblanadi [10, 178-b]. Refleksiv komponent – o'z faoliyatini tahlil qilish, xatolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini topish qobiliyati. Bu komponent takomillashuvchan shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi [11, 145-b].

O'z-o'zini boshqarish kompetensiyasining ahamiyati - zamonaviy mehnat bozori talabalaridan nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalar, balki o'z-o'zini tashkil etish va boshqarish qobiliyatlarini ham talab qiladi. O'z-o'zini boshqarish kompetensiyasi talabaga quyidagi imkoniyatlarni beradi: O'quv jarayonini samarali tashkil etish; Vaqtini oqilona sarflash; Stressli vaziyatlardan chiqish yo'llarini topish; O'z ustida ishlash va o'zini takomillashtirish; Kasbiy o'sish uchun zarur shaxsiy sifatlarini rivojlantirish [12, 89-b].

Kredit-modul tizimida o'z-o'zini boshqarish kompetensiyasini shakllantirish metodlari. Mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish metodlari - Kredit-modul tizimi talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini keng rivojlantirish imkoniyatini yaratadi. Bu jarayonda quyidagi metodlar qo'llaniladi: Individual o'quv rejalarini shakllantirish. Talaba o'zining o'quv rejasini mustaqil tuzadi, bu jarayonda u o'z maqsadlarini aniqlaydi, ularga erishish yo'llarini belgilaydi va kerakli resurslarni tanlaydi. Bu metod talabaning rejalashtirish ko'nikmalarini shakllantiradi [13, 234-b].

O'quv portfoliyosini yuritish. Talaba o'zining o'quv yutuqlarini, bajarilgan ishlarini, erishilgan natijalarni tizimli ravishda yig'ib boradi. Bu metod o'z-o'zini nazorat qilish va o'z faoliyatini tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi [14, 167-b].

Mustaqil ta'lim modullaridan foydalanish. KMT doirasida yaratilgan elektron ta'lim resurslari, onlayn kurslar va masofaviy ta'lim platformalari orqali talaba o'z o'quv jarayonini mustaqil boshqaradi [15, 112-b].

Refleksiv faoliyatni rivojlantirish metodlari - O'z-o'zini boshqarish kompetensiyasini shakllantirishda refleksiv faoliyat muhim rol o'ynaydi. Quyidagi metodlar samarali hisoblanadi: O'z-o'zini tahlil qilish daftarchalari. Talaba o'zining o'quv faoliyatini muntazam ravishda tahlil qiladi, muvaffaqiyat va qiyinchiliklarni qayd etadi, kelajakdagi rejalarni belgilaydi. Bu metod talabaning o'z-o'zini kuzatish va baholash qobiliyatlarini rivojlantiradi [16, 78-b].

O'quv kengashlari va mentorlik. Talabalar o'zlarining o'quv tajribalarini almashadilar, bir-birlariga maslahat beradilar va birgalikda muammolarni yechadilar. Bu jarayonda ular o'z-o'zini boshqarishning turli usullarini o'rganadilar [17,145-b].

Ta'lim natijalarini o'z-o'zini baholash. Talaba oldindan belgilangan mezonlar asosida o'z bilim va ko'nikmalarini baholaydi, bu o'z-o'zini nazorat qilish va ob'ektiv baholash qobiliyatlarini shakllantiradi [18, 201-b].

Hamkorlikda o'rganish metodlari - Kredit-modul tizimi talabalarning hamkorlikda o'rganishiga keng imkoniyat yaratadi: Loyiha-based learning (LBL). Talabalar guruhi loyiha doirasida mustaqil ishlaydi, vazifalarni taqsimlaydi, o'zlarini o'zi tashkil qiladi va natijalarga birgalikda erishadi. Bu metod jamoada o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini shakllantiradi [19, 189-b].

Tutorlik tizimi. Katta kurs talabalari kichik kurs talabalariga o'quv jarayonida yordam beradilar, bu jarayonda ikkala tomon ham o'z-o'zini boshqarish qobiliyatlarini rivojlantiradi [20, 156-b].

Blok-seminarlar va treninglar. Talabalar o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini maxsus o'quv mashg'ulotlarida o'rganadilar va mashq qiladilar [21, 234-b].

O'z-o'zini boshqarish kompetensiyasini baholash mezonlari - Kredit-modul tizimida o'z-o'zini boshqarish kompetensiyasini baholash quyidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi (1-jadval):

1-jadval

Kredit-modul tizimida o'z-o'zini boshqarish kompetensiyasini baholash mezonlari [22, 267-b]

Kompetensiya komponenti	**Baholash ko'rsatkichlari**
Motivatsion komponent	O'quv maqsadlarining aniq va yetarli darajada belgilanganligi
Kognitiv komponent	O'z-o'zini boshqarish usullarini bilish va qo'llash
Amaliy komponent	Vaqt boshqaruvi, rejalashtirish ko'nikmalari
Refleksiv komponent	O'z faoliyatini tahlil qilish va tuzatish qobiliyati

Baholash jarayonida quyidagi usullar qo'llaniladi: o'z-o'zini baholash, o'zaro baholash, portfoliyo tahlili, kuzatish va suhbat [23, 178-b].

Xulosa. Kredit-modul tizimi talabalarning o'z-o'zini boshqarish kompetensiyasini shakllantirish uchun zamonaviy va samarali sharoit yaratadi. Tizimning asosiy afzalliklari – moslashuvchanlik, mustaqillik va shaffoflik – talabalarga o'z ta'lim jarayonini mustaqil boshqarish imkonini beradi. O'z-o'zini boshqarish kompetensiyasini shakllantirishning samarali metodlari qatoriga individual o'quy rejalarini shakllantirish, o'quv portfoliyosini yuritish, refleksiv faoliyatni tashkil etish, hamkorlikda o'rganish va loyihalash kiradi. Bu metodlar kompleks qo'llanilganda talabaning o'z-o'zini boshqarish qobiliyatlari samarali rivojlanadi. Kelajakda kredit-modul tizimida o'z-o'zini boshqarish kompetensiyasini shakllantirishning yangi metodlarini ishlab chiqish, elektron ta'lim resurslarini takomillashtirish va talabalarning mustaqil faoliyatini kuzatishning zamonaviy usullarini joriy etish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Xolmonov Z. Kredit-modul tizimi: nazariya va amaliyot. – T.: Fan va texnologiya, 2018. – 245 b.
2.Karimov A., Rahimova N. Kompetensiya yondashuvi va zamonaviy ta'lim. – T.: O'qituvchi, 2019. – 312 b.
3.Teshabayev T. Oliy ta'limda kredit-modul tizimi: muammolar va yechimlar. – T.: Yangi asr avlodi, 2020. – 198 b.
4.Usmonov B. Ta'lim sifatini boshqarish. – T.: Fan, 2017. – 278 b.
5.Ahmedov S., To'rayev X. Mustaqil ta'limni tashkil etish metodlari. – T.: O'qituvchi, 2019. – 234 b.
6.Salimov A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – T.: Akademnashr, 2021. – 156 b.
7.Petrovskiy A.V. Shaxsning rivojlanish psixologiyasi.–M.:Prosvesheniye,2018. – 456 b.
8.Vygotskiy L.S. O'quv va rivojlanish. – T.: O'qituvchi, 2016. – 389 b.
9.Zimmerman B.J. Self-regulated learning and academic achievement. – Educational Psychologist, 1990. – Vol. 25, No. 1. – P. 3-17.
10. Pintrich P.R. The role of goal orientation in self-regulated learning. // Handbook of self-regulation. – Academic Press, 2000. – P. 451-502.
11. Schunk D.H., Zimmerman B.J. Self-regulated learning: From teaching to self-reflective practice. – NY: Guilford Press, 2018. – 298 p.
12. Boekaerts M. Self-regulated learning: A new concept embraced by researchers, policy makers, educators, teachers, and students. – Learning and Instruction, 1997. – Vol. 7, No. 2. – P. 161-186.
13. Qosimov R., Azizov S. Kredit-modul tizimida mustaqil ta'limni tashkil etish. – O'zbekiston ta'limi, 2020. – №3. – B. 45-52.
14. Eshonqulov T. O'quv portfoliyosi va uning ahamiyati. – Pedagogika, 2019. – №4. – B. 78-85.
15. Xudoyberdiyev M. Elektron ta'lim resurslari va ulardan foydalanish. – Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta'limda, 2021. – №2. – B. 34-41.
16. G'ulomov S. Refleksiv ta'lim va uning samaradorligi. – O'zbekiston ta'limi, 2018. – №6. – B. 67-74.
17. Ismoilov N. Talabalarning o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish. – Pedagogika, 2020. – №2. – B. 112-119.
18. Yo'ldoshev A. Ta'lim natijalarini baholashning zamonaviy usullari. – T.: Fan va texnologiya, 2019. – 234 b.

19. Majidov A. Loyihalash asosida o'qitish texnologiyasi. – T.: O'qituvchi, 2021. – 189 b.
20. Sobirov Q. Akademik tutorlik tizimi va uning samaradorligi. – Oliy ta'lim muammolari, 2020. – №4. – B. 156-163.
21. Rahimov F. O'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini o'qitish metodikasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2019. – 234 b.
22. Boltayev M., Karimova D. Kompetensiyalarni baholash mezonlari va usullari. – O'zbekiston ta'limi, 2021. – №1. –B.267-275.
23. Nurmatov P. Zamonaviy baholash tizimlari. – T.: Akademnashr, 2020. – 178 b.

Muallif:
Xolboyev Umrbek Dilmurotovich - Guliston davlat universiteti, Ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi.

UDK 372.800.4

DESIGNING INDIVIDUAL EDUCATIONAL PATHWAYS FOR FUTURE TEACHERS IN A DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING INDIVIDUAL TA'LIM TRAYEKTORIYASINI LOYIHALASH

ПРОЕКТИРОВАНИЕ ИНДИВИДУАЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТРАЕКТОРИЙ ДЛЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ В ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

Andaqulov Dilmurod Umarali o'g'li
Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti. 100185, Toshkent, Chilonzor tumani, Bunyodkor shoh ko'chasi, 27
E-mail: dilmurodandaqulov9@gmail.com

Abstract. The article analyzes the theoretical and methodological foundations of designing an individual learning trajectory for future teachers in a digital educational environment. It examines the essence of individualized learning, learner-centered education, the constructivist approach, Learning Analytics, and adaptive learning technologies. The article also substantiates the problem of digital competencies in the training of future teachers in pedagogical universities, the limitations of organizing the educational process for the average student, and the need to design an individual learning trajectory. The study shows that designing an individual learning trajectory in a digital environment is an important direction for the modernization of contemporary pedagogical education.
Keywords: digital education, individual learning trajectory, personalized learning, adaptive learning, Learning Analytics, digital competence, future teacher, pedagogical education.

Annotatsiya. Maqolada raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarning individual ta'lim trayektoriyasini loyihalashning nazariy va metodologik asoslari tahlil qilingan. Individuallashtirilgan ta'lim, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, konstruktivistik yondashuv, Learning Analytics va adaptiv ta'lim texnologiyalarining mazmun-mohiyati yoritilgan. Shuningdek, pedagogik oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilar tayyorgarligida raqamli kompetensiyalar muammosi, ta'lim jarayonini o'rtacha statistik talabaga mo'ljallab tashkil etishning cheklovlari va individual ta'lim trayektoriyasini loyihalash zarurati asoslangan. Natijada raqamli muhitda individual ta'lim trayektoriyasini loyihalash zamonaviy pedagogik ta'limni modernizatsiya qilishning muhim yo'nalishi ekanligi ko'rsatilgan.
Kalit so'zlar: raqamli ta'lim, individual ta'lim trayektoriyasi, personallashtirilgan ta'lim, adaptiv ta'lim, Learning Analytics, raqamli kompetensiya, bo'lajak o'qituvchi, pedagogik ta'lim.

Аннотация. В статье проанализированы теоретические и методологические основы проектирования индивидуальной образовательной траектории будущих учителей в цифровой образовательной среде. Раскрывается сущность индивидуализированного обучения, личностно-ориентированного образования, конструктивистского подхода, Learning Analytics и технологий адаптивного обучения. Также обоснованы проблема цифровых компетенций в подготовке будущих учителей в педагогических вузах, ограничения организации образовательного процесса, ориентированного на среднего статистического студента, и необходимость проектирования индивидуальной образовательной траектории. Показано, что проектирование индивидуальной образовательной траектории в цифровой среде является важным направлением модернизации современного педагогического образования.
Ключевые слова: цифровое образование, индивидуальная образовательная траектория, персонализированное обучение, адаптивное обучение, Learning Analytics, цифровая компетентность, будущий учитель, педагогическое образование.

Kirish. XXI asrda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi, sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim sohasiga keng joriy etilishi hamda ta'lim tizimining raqamlashuvi oliy ta'lim muassasalari oldiga prinsipial jihatdan yangi vazifalarni qo'ymoqda. Ta'lim jarayonining asosiy maqsadi talabaga tayyor bilimni uzatishdan ko'ra, uning shaxsiy ehtiyojlari, qiziqishlari, bilish imkoniyatlari va kasbiy rivojlanish sur'atini hisobga olgan holda individual ta'lim muhitini tashkil etishga ko'proq yo'nalmoqda. Bu jarayonda an'anaviy, bir xil mazmun va bir xil sur'atga asoslangan ta'lim modeli o'z chegaralarini namoyon etmoqda. Dunyo ta'lim amaliyotida «bir dastur — barcha talabalar uchun» tamoyilidan bosqichma-bosqich voz kechilib, uning o'rniga personallashtirilgan ta'lim, adaptiv ta'lim, kompetensiyaga asoslangan ta'lim hamda Learning Analytics texnologiyalariga suyangan yangi pedagogik paradigma shakllanmoqda. Bu paradigmada raqamli ta'lim muhiti axborotni yetkazish vositasigina emas, balki talabaning individual rivojlanishini rejalashtirish, kuzatish, tahlil qilish va boshqarish imkonini beruvchi intellektual ekotizim sifatida talqin etiladi.

Mazkur masalaning pedagogik oliy ta'lim muassasalari uchun ahamiyati yanada yuqori. Chunki bo'lajak o'qituvchi nafaqat raqamli texnologiyalardan foydalanuvchi mutaxassis, balki kelajakda raqamli ta'lim muhitini tashkil etuvchi, uni boshqaruvchi va didaktik imkoniyatlaridan samarali foydalanuvchi pedagog sifatida ham shakllanishi lozim. Shu bois bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi jarayonida individual ta'lim trayektoriyasini ilmiy asosda loyihalash masalasi dolzarb ilmiy va amaliy muammo hisoblanadi.

Individual ta'lim trayektoriyasi tushunchasi pedagogik adabiyotlarda ta'lim oluvchining shaxsiy ta'lim maqsadlariga erishish uchun tanlaydigan mazmun, usul, resurs va faoliyat turlarining o'zaro bog'liq tizimi sifatida talqin qilinadi. U faqat o'quv jarayonining

tashqi tashkil etilishi bilan bog‘liq emas, balki talabaning o‘z ta’lim faoliyatini anglash, rejalashtirish, nazorat qilish va baholash qobiliyatini ham ifodalaydi. Shu nuqtai nazardan, individual ta’lim trayektoriyasi shaxsning ta’limdagi subyektivligi, mustaqilligi va mas’uliyatini rivojlantiruvchi mexanizm sifatida qaraladi. Bu yondashuvning nazariy manbalari konstruktivizm, gumanistik pedagogika va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim nazariyalariga borib taqaladi. Konstruktivistik qarashlarga ko‘ra, bilim tayyor holda uzatilmaydi, balki ta’lim oluvchi tomonidan shaxsiy tajriba va faoliyat asosida faol ravishda quriladi. Demak, ta’lim jarayonining markazida o‘qituvchining axborot beruvchi roli emas, balki talabaning bilish faoliyatini tashkil etish, yo‘naltirish va qo‘llab-quvvatlash vazifasi turadi. Raqamli texnologiyalar ta’lim jarayoniga kirib kelishi bilan individuallashtirish imkoniyatlari sifat jihatidan yangi bosqichga chiqdi. Agar an’anaviy ta’lim sharoitida individual yondashuv asosan o‘qituvchining shaxsiy tajribasi va pedagogik mahoratiga bog‘liq bo‘lgan bo‘lsa, raqamli ta’lim muhitida katta hajmdagi ma’lumotlarni avtomatik tahlil qilish, talabalar faoliyatini monitoring qilish va ta’lim mazmunini moslashtirish imkoniyati paydo bo‘ldi. Shu jihatdan raqamli muhit individual ta’lim trayektoriyasining oddiy axborot bazasi emas, balki uni loyihalash va boshqarishning intellektual pedagogik tizimi sifatida qaralishi lozim.

Zamonaviy pedagogikada ta’lim jarayonini individuallashtirish g‘oyasi shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim paradigmasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. An’anaviy ta’lim modelida o‘quv maqsadlari, mazmun, metodlar va baholash mezonlari asosan barcha talabalar uchun bir xil shaklda belgilangan bo‘lsa, individuallashtirilgan ta’lim yondashuvi har bir ta’lim oluvchining intellektual imkoniyatlari, bilim darajasi, qiziqishlari, kasbiy maqsadlari va rivojlanish sur’atlarini hisobga olishni nazarda tutadi. Bu holat ta’limni bir xil standartlashtirilgan jarayon emas, balki shaxsiy rivojlanishga moslashuvchan tizim sifatida tashkil etishni taqozo qiladi.

Raqamli ta’lim muhitida ushbu jarayon yanada aniq va samarali kechishi mumkin, zero elektron platformalar, axborot tizimlari va analitik vositalar orqali talabaning faoliyati haqida real vaqt rejimida ma’lumot to‘planadi. Shu ma’lumotlar asosida o‘quv mazmunini, topshiriqlar murakkabligini, faoliyat turlarini va qo‘llab-quvvatlash darajasini moslashtirish imkoni vujudga keladi. Bu esa individual ta’limni intuitiv pedagogik yondashuvdan ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv tizimiga aylantiradi.

Bunday imkoniyatlar, ayniqsa, pedagogik ta’lim sohasida muhimdir. Chunki bo‘lajak o‘qituvchilarning tayyorgarlik darajasi, bilish uslubi, raqamli savodxonligi va mustaqil o‘qish ko‘nikmalari bir xil emas. Bir xil mazmun, bir xil vaqt va bir xil baholash mezonlari barcha talabalar uchun samarali bo‘lmaydi. Shuning uchun zamonaviy pedagogik ta’limda individuallashtirilgan trayektoriyalar orqali har bir talaba uchun muvofiq rivojlanish yo‘lini belgilash talab etiladi.

Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi bugungi kunda nafaqat fan sohasidagi bilimlar, balki raqamli pedagogik kompetensiyalar bilan ham belgilanadi. Xalqaro tadqiqotlarda o‘qituvchining raqamli kompetensiyasi texnologik, axborot, metodik, kommunikativ va tadqiqotchilik komponentlardan tashkil topishi qayd etiladi. Bu komponentlar o‘zaro bog‘liq holda ishlaganda, pedagog ta’lim jarayonini raqamli muhitda samarali tashkil etish imkoniga ega bo‘ladi. Ammo amaliyotda pedagogik oliy ta’lim muassasalari talabalarining raqamli tayyorgarlik darajasi bir xil emas. Ayrim talabalar raqamli vositalardan erkin va faol foydalansa, boshqalari faqat bazaviy darajada ishlaydi. Shu bois barcha talabalarga bir xil raqamli ta’lim mazmunini taklif qilish kutilgan samarani bermaydi. Aynan shu nuqtada individual ta’lim trayektoriyasini loyihalash zarurati namoyon bo‘ladi.

Pedagogik universitetlarda ta’lim jarayoni ko‘p hollarda o‘rtacha statistik talabaga mo‘ljallangan holda tashkil etilmoqda. Natijada talabalarning tayyorgarlik darajasi, kognitiv xususiyatlari, o‘qish sur’ati va kasbiy qiziqishlari o‘rtasidagi farqlar yetarli darajada hisobga olinmaydi. Bu esa o‘qitish samaradorligining pasayishiga, akademik motivatsiyaning susayishiga va mustaqil ta’lim ko‘nikmalarining yetarlicha shakllanmasligiga olib keladi.

So‘nggi yillarda raqamli ta’lim tadqiqotlarida Learning Analytics yo‘nalishi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Learning Analytics talabalarning raqamli ta’lim muhitidagi faoliyati haqidagi ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va tahlil qilish orqali ta’lim jarayonini takomillashtirish texnologiyasidir. Ushbu yondashuv talabaning o‘quv faolligi dinamikasini aniqlash, qiyinchiliklarga duch kelayotgan talabalarni erta aniqlash, individual o‘quv materiallarini tavsiya qilish va ta’lim natijalarini prognozlash imkonini beradi.

Adaptiv ta’lim tizimlari esa Learning Analytics ma’lumotlaridan foydalanib, har bir talabaga mos ta’lim mazmuni va topshiriqlarni avtomatik shakllantirishga harakat qiladi. Masalan, yuqori darajadagi bilimga ega talabaga murakkab ijodiy topshiriqlar, bazaviy bilimlari yetarli bo‘lmagan talabaga esa qo‘shimcha tushuntirish va mashqlar taqdim etiladi. Bu yondashuv ta’limning mazmuniy va metodik qismida sezilarli darajada moslashuvchanlikni ta’minlaydi. Biroq mavjud adaptiv tizimlarning aksariyati xorijiy ta’lim platformalari asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, ular pedagogik ta’lim xususiyatlarini, xususan bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini shakllantirish jarayonini yetarlicha hisobga olmaydi. Shu sababli pedagogik ta’lim ehtiyojlariga mos, milliy ta’lim sharoitiga uyg‘unlashtirilgan individual trayektoriya modellarini ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Xulosa. Tahlillar natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak o‘qituvchilarning individual ta’lim trayektoriyasini loyihalash zamonaviy pedagogik ta’limni modernizatsiya qilishning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Individuallashtirilgan ta’lim, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, konstruktivizm, Learning Analytics va adaptiv ta’lim texnologiyalarini integratsiya qilish orqali talabaning shaxsiy ehtiyoji va imkoniyatiga mos ta’lim muhitini yaratish mumkin.

Biroq mazkur yondashuvni samarali joriy etish uchun aniq didaktik model, bosqichli algoritm va baholash mezonlariga asoslangan metodik tizim zarur. Demak, keyingi tadqiqotlar individual ta’lim trayektoriyasini loyihalash va boshqarishning amaliy modelini ishlab chiqishga qaratilmog‘i lozim.

Foydalangan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktabrdagi PF–6079-son «Raqamli O‘zbekiston — 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni.
2. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti: Ped.fan.dok… diss. avtoref. T., 2007. -42 b.
3. Зимняя А., Абдуллаева Ш., Ходжаев Б. Рақамли таълим технологияларидан фойдаланишнинг ўзига хос хусусиятлари // International Research Scientific journal. — 2023. — Б. 112–118.
4. Siemens G. Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age. — 2005.
5. Вьюшкина Е.Г. Индивидуальная образовательная траектория: готовим будущее сегодня // Известия Саратовского университета. — Саратов, 2021. — С. 34–41.

Muallif:
Andaqulov Dilmurod Umarali o‘g‘li - Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti tadqiqotchisi.

UDK 372.879.6

FUNCTIONAL AND SCIENTIFIC-PRACTICAL SIGNIFICANCE OF HANDBALL IN PREVENTING COMPLICATIONS ASSOCIATED WITH LIMITED MOVEMENT (HYPODYNAMIA) IN FEMALE STUDENTS

TALABA QIZLARDA HARAKAT CHEKLANISHI (GIPODINAMIYA) ASORATLARINI OLDINI OLISHDA GANDBOL SPORT TURINING FUNKTSIONAL VA ILMIY-AMALIY AHAMIYATI

ФУНКЦИОНАЛЬНОЕ И НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ГАНДБОЛА В ПРЕДОТВРАЩЕНИИ ОСЛОЖНЕНИЙ, СВЯЗАННЫХ С ОГРАНИЧЕНИЕМ ДВИЖЕНИЙ (ГИПОДИНАМИЯ) У СТУДЕНТОК

Omonboyev Berdiyor Ixtiyor o‘g‘li, Begimqulova Munis Shuhrat qizi
Guliston davlat universiteti. 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze
E-mail:berdiyor.omonboyev038@mail.com **E-mail:** munis.begimqulova9@icloud.com

Abstract. This article scientifically analyzes the hypodynamic syndrome among female students of higher educational institutions and its negative impact on the homeostatic functions of the body. Based on scientifically substantiated sources, the high aerobic-anaerobic characteristics of handball, its positive adaptive effect on the cardiorespiratory system and musculoskeletal system of female students are proven.

Keywords: hypodynamia, hypokinesia, female students, handball, cardiorespiratory system, adaptation, motor density, vegetative homeostasis, physical status, PWC_{170}.

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalari talaba qizlari orasida kuzatilayotgan gipodinamik sindrom va uning organizmning gomeostatik funktsiyalariga salbiy ta’siri ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Gandbol sport turining yuqori aerob-anaerob xususiyatlari, uning talaba qizlar kardiorespirator tizimi hamda tayanch-harakat apparatiga ko’rsatadigan ijobiy adaptatsion ta’siri sinovdan o’tkazilgan ilmiy manbalar asosida asoslab berilgan.

Kalit so’zlar: gipodinamiya, gipokineziya, talaba qizlar, gandbol, kardiorespirator tizim, adaptatsiya, motor zichlik, vegetativ gomeostaz, jismoniy maqom, PWC_{170}

Аннотация. В данной стате научно анализируется гиподинамический синдром среди студенток высших образовательных учреждений и его негативное влияние на гомеостатические функции организма. На основе научно обоснованных источников доказаны высокие аеробно-анаеробные характеристики гандбола, его положителное адаптационное воздействие на кардиореспираторную систему и опорно-двигателный аппарат студенток.

Ключевые слова: гиподинамия, гипокинезия, студентки, гандбол, кардиореспираторная система, адаптация, моторная плотност, вегетативный гомеостаз, физический статус, PWC_{170}

Kirish. Zamonaviy oliy ta’lim tizimining intensivlashuvi va raqamlashtirilishi talaba qizlarning kundalik faoliyatida somatik harakatlar hajmining keskin kamayishiga (gipokineziya va gipodinamiyaga) olib kelmoqda. Statik yuklamalarning ortishi qizlar organizmining funktsional imkoniyatlari pasayishiga, jismoniy tayyorgarlik darajasining susayishiga va vegetativ tizim disfunktsiyasiga zamin yaratmoqda.

Xotin-qizlar organizmining ontogenetik, anatomik-fiziologik va antropometrik xususiyatlarini inobatga olgan holda, jismoniy tarbiya darslarining motor zichligini oshirish dolzarb ilmiy-pedagogik muammo hisoblanadi. Bu borada gandbol (qo’l to’pi) sport turi o’zining polistruktur harakatlar majmui va aerob-anaerob yuklama rejimi bilan gipodinamiya asoratlarini kompleks nivellashtirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodlari va materiallari

Tadqiqot davomida ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatuv, antropometrik o’lchovlar, pulsometriya hamda funktsional holatni aniqlovchi testlar (Rufe-Dikson indeksi, Shtange va Genchi sinamalari, PWC_{170} funktsional ish qobiliyati testi) metodlaridan foydalanildi. Nazariy tahlillar oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan harakat faolligi cheklangan 18-21 yoshli talaba qizlarning funktsional ko’rsatkichlari asosida olib borildi.

Tadqiqot natijalari va ularning tahlili

Gandbol sport turi atsiklik va tsiklik harakatlarning (tezlashuv, sakrash, yo’nalishni keskin o’zgartirish, to’p uloqtirish) murakkab koordinatsion kombinatsiyasidan iborat bo’lib, organizm uchun yuqori interval yuklama vazifasini bajaradi. Nazariy va amaliy tahlillar natijasida gandbol mashg’ulotlarining talaba qizlar somatik maqomiga ta’siri quyidagi tizimli mexanizmlarda isbotlandi:

Funktsional tizimlar	Fiziologik va biomexanik samaradorlik mexanizmi
Kardiorespirator tizim	Sistolik qon hajmi ortadi, yurak urish tezligi (YuUT) tinch holatda optimallashadi, o’pkaning hayotiy sig’imi (O’TS) kengayadi.
Tayanch-harakat apparati	Mushak korseti mustahkamlanadi, kichik chanoq a’zolarida qon dimlanishi bartaraf etiladi, umurtqa pog’onasi deformatsiyasi oldi olinadi.
Metabolik jarayonlar	Energiya sarfining ortishi natijasida lipidlar almashinuvi faollashadi, yog’ to’qimasi kamayib, faol mushak massasi ortadi.
Neyrodinamika	Markaziy asab tizimida qo’zg’alish va tormozlanish jarayonlari muvozanatlashadi, sensomotor reaktsiyalar tezligi yaxshilanadi.

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko’rsatadiki, haftasiga 4-6 soat davomida gandbol mashg’ulotlari (dars va to’garaklar) bilan shug’ullangan talaba qizlarning umumiy jismoniy ish qobiliyati (PWC_{170} ko’rsatkichi) kamharakat tengdoshlariga nisbatan o’rtacha 18-22% ga yuqori bo’lishi aniqlangan. O’yin davomidagi dinamik yuklamalar talaba qizlarda vegetativ gomeostazni barqarorlashtiradi va akademik toliqishdan kelib chiqadigan stress darajasini kamaytiradi.

Tadqiqot davomida oliy ta'lim muassasalarining nosport yo'nalishlarida tahsil olayotgan va kundalik harakat faolligi cheklangan 60 nafar talaba qizlar qamrab olindi. Ular ikkita bir xil tarkibli guruhga ajratildi: Nazorat guruhi (n=30) an'anaviy jismoniy tarbiya dasturi bo'yicha mashg'ulotlarni davom ettirdi; Tajriba guruhi (n=30) esa haftalik o'quv rejasi doirasida jismoniy tarbiya darslari va darsdan tashqari sport to'garaklarida gandbol vositalari va maxsus ishlab chiqilgan harakatli o'yinlar majmuasi asosida shug'ullandi. Tadqiqot 6 oy davomida olib borildi.

Pedagogik kuzatuv va xronometraj natijalari shuni ko'rsatdiki, an'anaviy jismoniy tarbiya darslarida motor (harakat) zichligi o'rtacha 52,4±3,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, dars jarayoniga gandbol elementlari (to'pni olib yurish, uzatish, to'siqlardan o'tib darvozaga uloqtirish) va ikki tomonlama o'yin taktikasi integratsiya qilinganda TGda ushbu ko'rsatkich 78,6±2,4 % gacha ko'tarildi ($p<0,05$). Bu esa talaba qizlarning dars davomida sof harakat qilish vaqti qariyb 1,5 barobarga ortganini anglatadi va kundalik gipodinamik defitsitni to'liq qoplash imkonini beradi.

6 oylik tajribadan so'ng, talaba qizlarning kardiorespirator tizimi va umumiy somatik sog'lig'i ko'rsatkichlarida sezilarli ijobiy dinamika kuzatildi. Olingan natijalar nazorat va tajriba guruhlari misolida qiyosiy tahlil qilinganda quyidagi ilmiy qonuniyatlar aniqlandi (1-jadval).

1-jadval.

Tadqiqotdan so'ng nazorat va tajriba guruhlaridagi talaba qizlarning funktsional ko'rsatkichlari qiyosiy tahlili (M/pm/m)

Funktsional ko'rsatkichlar (testlar)	Nazorat guruhi (n-30)	Tajriba guruhi (n- 30)	Ishonchlilik darajasi (p)
Tinch holatdagi YuUT (zarb/daq)	76,4 (pm) 1,8	69,2 (pm) 1,2	p < 0,05
O'pkaning hayotiy sig'imi (O'TS, ml)	2650 (pm) 45	3150 (pm) 35	p < 0,01
Shtange sinamasi (nafas ushlab turish, sek)	36,2 (pm) 1,4	45,8 (pm) 1,1	p < 0,05
Rufe-Dikson indeksi (shartli birlik)	9,8 (pm) 0,5	6,4 (pm) 0,3	p < 0,01
(PWC_{170}) jismoniy ish qobiliyati (kgm/min)	610,5 (pm) 12,4	745,2 (pm) 10,8	p < 0,01

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tajriba guruhidagi talaba qizlarning tinch holatdagi yurak urish tezligi (YuUT) daqiqasiga o'rtacha 69,2±1,2 tagacha kamaygan. Bu ko'rsatkich nazorat guruhida sezilarli o'zgarishsiz qolgan (76,4±1,8 zarb/daq). Fiziologik nuqtai nazardan, TGda kuzatilgan ushbu salbiy dinamika (bradikardiya tendentsiyasi) gandbol mashg'ulotlari ta'sirida miokard (yurak mushagi) qisqaruvchanlik qobiliyatining ortganini va yurakning tejamkor ish rejimiga o'tganini isbotlaydi.

Gandbol o'yini davomidagi yuqori tezlik va chidamlilikni talab qiluvchi interval harakatlar kardiorespirator tizim funktsional zaxiralarini kengaytiradi. Bu holat O'TS ko'rsatkichida yaqqol namoyon bo'ldi: TG qizlarida nafas hajmi o'rtacha 3150±35 ml ni tashkil etib, NGga nisbatan ishonchli ravishda yuqori bo'ldi ($p<0,01$). Shtange (inspirator) sinamasida ham TG ko'rsatkichi 45,8±1,1 soniyaga etib, organizmning gipoksiyaga (kislorod tanqisligiga) nisbatan bardoshliligi oshganidan dalolat beradi.

Yurak-qon tomir tizimining jismoniy yuklamaga nisbatan reaktsiyasini va tiklanish qobiliyatini baholovchi **Rufe-Dikson indeksi** TGda 6,4±0,3 birlikni (yaxshi sog'lomlashtiruvchi samara), NGda esa 9,8±0,5 birlikni (qoniqarli holat) qayd etdi. Eng muhim somatik ko'rsatkichlardan biri bo'lgan **(PWC_{170}) testi** bo'yicha umumiy jismoniy ish qobiliyati tajriba guruhida 745,2±10,8 kgm/min ni tashkil etib, nazorat guruhiga nisbatan 22,1% ga yuqori natija ko'rsatdi.

Olingan natijalarning muhokamasi (Discussion) shuni asoslab beradiki, gandbol sport turiga xos bo'lgan polistruktur harakatlar (sakrashlar, keskin start va stoplar, yo'nalishning kutilmagan kombinatsiyalari) xotin-qizlar organizmi uchun o'ziga xos biomexanik va fiziologik stimulyator vazifasini o'taydi. Ma'lumki, gipodinamiya sharoitida talaba qizlarda chanoq-son sohasida va kichik chanoq a'zolarida venoz qon aylanishi sekinlashadi, bu esa reproduktiv tizim patologiyalarini keltirib chiqarishi mumkin. Gandboldagi faol oyoq harakatlari, chanoq va bel mushaklarining dinamik qisqarishi «mushak nasosi» vazifasini bajarib, ushbu sohalarda qon dimlanishini butunlay bartaraf etadi.

Bundan tashqari, gandbol mashg'ulotlari o'zining yuqori emotsionalligi va jamoaviy xususiyati bilan ajralib turadi. Neyrodinamik tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'yin davomidagi taktik vaziyatlar markaziy asab tizimida qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining dinamik muvozanatini ta'minlaydi. Bu esa kun davomida olingan aqliy charchoqni (intellektual toliqishni) nivellashtiradi va talaba qizlarda uchraydigan vegetativ distoniya hamda surunkali charchoq sindromi (asteniya) simptomlarini kamaytiradi. Integral yuklamalar ta'sirida lipidlar metabolizmi tezlashishi hisobiga TGdagi qizlarning tana vazni indeksi (TVI) optimal me'yorga (18,5–24,9 kg/m²) keldi, bu esa gipodinamiyaning eng birinchi asorati bo'lgan semirish xavfini to'liq bartaraf etadi

Xulosa. Oliy ta'lim muassasalarida talaba qizlar o'rtasida harakat cheklanishi (gipodinamiya) asoratlarini bartaraf etishda gandbol eng samarali va ommaviy sog'lomlashtirish vositalaridan biridir. Ushbu sport turini jismoniy tarbiya jarayoniga tizimli tatbiq etish: 1. Talaba qizlarning kardiorespirator va tayanch-harakat tizimlari zaxira imkoniyatlarini kengaytiradi. 2. Kundalik harakat defitsitini (motor zichlikni) to'liq qoplash orqali somatik sog'liq poydevorini mustahkamlaydi. 3. Kelajakda sog'lom ona va yuqori mehnat qobiliyatiga ega etuk mutaxassis bo'lib etishishlarini ta'minlaydi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Kerimov F. A. Sportda ilmiy tadqiqotlar. – Toshkent: Zamin nashr, 2021. – 340 b.
2. Pavlova N. V., Borisova L. V. Vliyanie igrovo'x vidov sporta na kardiorespiratornuyu sistemu studencheskoy molodeji G'G' Teoriya i praktika fizicheskoy kulturo'. – Moskva, 2019. – № 4. – S. 45-47.
3. Abdullaev A., Xonkeldiev Sh. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. – Farg'ona: FarDU, 2020. – 280 b.
4. Makarova G. A. Sportivnaya meditsina: Uchebnik dlya vuzov. – M.: Sovetskiy sport, 2018. – 480 s.
5. Pulatov A. A., Odilov A. K. Gandbol nazariyasi va uslubiyati: Darslik. – Toshkent: ITF-DUK, 2022. – 215 b.
6. World Health Organization (WHO). Global action plan on physical activity 2018–2030: more active people for a healthier world. – Geneva: WHO, 2018.

Mualliflar:
Omonboyev Berdiyor Ixtiyor o'g'li - Guliston davlat universiteti dotsenti, p.f.f.d. (PhD).
Begimqulova Munis Shuhrat qizi - Sport faoliyati fakulteti 4-bosqich talabasi.

UDK 372.83

INNOVATIVE METHODS FOR DEVELOPING YOUTH LEADERSHIP COMPETENCE IN A COLLECTIVE

JAMOADA YOSHLARNING YETAKCHILIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRUVCHI INNOVATSION USLUBLAR

ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ ЛИДЕРСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ МОЛОДЕЖИ В КОЛЛЕКТИВЕ

Alauatdinov Sahabatdin Iniyatdinovich
Qoraqalpoq davlat universiteti, 230113, Qoraqalpog'iston respublikasi, Nukus, Abdirov ko'chasi, 1
E-mail: alauatdinovsahabatdin@gmail.com

Abstract. This article examines the theoretical and methodological foundations of innovative methods aimed at developing youth leadership competence in collective environments. The content, criteria, and pedagogical potential of innovative methods are analyzed, emphasizing that innovation should be determined not merely by the novelty of a tool but by the diagnosability of educational outcomes. Five criteria are proposed: transfer of agency, real responsibility, a mandatory reflective cycle, an axiological core, and diagnostic projection. An author-developed classification of innovative methods is presented, including axiological-hermeneutic, activity-project-based, simulation-adaptive, reflective-diagnostic, and digital-network approaches. Their pedagogical potential for developing leadership qualities, responsibility, independent decision-making, cooperation, and reflective evaluation among young people is substantiated.

Keywords: collective, youth, leadership competence, innovative method, pedagogical mechanism, agency, reflection, axiological approach, diagnostics, project-based activity, adaptive problem, digital technologies.

Annotatsiya. Mazkur maqolada jamoada yoshlarning yetakchilik kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion uslublarning nazariy-metodik asoslari yoritilgan. Innovatsion uslubning mazmuni, mezonlari va pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinib, uning yangiligi vositaning o‘ziga xosligidan ko‘ra, ta’lim natijasining diagnostik o‘lchanishi bilan belgilanishi asoslangan. Talabaning subyektlik pozitsiyasini rivojlantirish, real mas’uliyatni delegatsiya qilish, refleksiv faoliyatni tashkil etish, aksiologik yondashuv va diagnostik proyeksiyaga asoslangan besh mezon taklif etilgan. Shuningdek, aksiyologik-germenevtik, faoliyatli-loyihaviy, simulyatsion-adaptiv, refleksiv-diagnostik hamda raqamli-tarmoqli uslublar tasnifi ishlab chiqilgan. Ularning yoshlar yetakchilik kompetensiyasini shakllantirishdagi pedagogik ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: jamoa, yoshlar, yetakchilik kompetensiyasi, innovatsion uslub, pedagogik mexanizm, subyektlik, refleksiya, aksiologik yondashuv, diagnostika, loyiha faoliyati, adaptiv muammo, raqamli texnologiyalar.

Аннотация. В статье рассматриваются теоретико-методические основы инновационных методов, направленных на развитие лидерской компетентности молодежи в коллективе. Раскрываются содержание, критерии и педагогические возможности инновационных методов, обосновывается положение о том, что инновационность определяется не столько новизной инструмента, сколько диагностируемостью образовательного результата. Предлагаются пять критериев инновационного метода: субъектность, реальная ответственность, рефлексивный цикл, аксиологическая основа и диагностическая проекция. Разработана авторская классификация методов, включающая аксиолого-герменевтический, деятельностно-проектный, симуляционно-адаптивный, рефлексивно-диагностический и цифрово-сетевой подходы. Раскрывается их педагогический потенциал в формировании лидерских качеств молодежи, развитии самостоятельности, ответственности, способности принимать решения и осуществлять рефлексивную оценку собственной деятельности.

Ключевые слова: коллектив, молодежь, лидерская компетентность, инновационный метод, педагогический механизм, субъектность, рефлексия, аксиологический подход, диагностика, проектная деятельность, адаптивная проблема, цифровые технологии.

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida yoshlarning jamoada samarali faoliyat yuritishi, mustaqil qaror qabul qilishi, tashabbus ko‘rsatishi va umumiy maqsad yo‘lida boshqalarni birlashtira olishi muhim kompetensiyalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarida yoshlarning nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalarini, balki yetakchilik, kommunikativlik, mas’uliyat, hamkorlik va ijtimoiy faollik sifatlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish zarur. Zamonaviy pedagogik jarayonda yetakchilikni faqat individual liderlik qobiliyati sifatida emas, balki jamoaviy mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish, turli fikrlarni uyg‘unlashtirish, muammoli vaziyatlarda maqbul yechim ishlab chiqish va jamoa manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qo‘ya olish qobiliyatlarini mujassamlashtiruvchi kompetensiya sifatida qarash talab etiladi. Shu nuqtayi nazardan, yoshlarning jamoaviy yetakchilik kompetensiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan innovatsion pedagogik uslublarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish dolzarb ilmiy-pedagogik masalalardan biridir. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari, yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ham mazkur yo‘nalishning ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda. Bunda ma’naviy-ma’rifiy faoliyatni an’anaviy tadbirlar tizimidan yoshlarni faol subyekt sifatida jalb etuvchi, real mas’uliyat va mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatini beruvchi pedagogik mexanizmlar asosida tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, innovatsion uslub tushunchasini faqat yangi yoki noodatiy metodlardan foydalanish bilan cheklamasdan, uning natijasida talabaning yetakchilik kompetensiyasida kuzatiladigan va diagnostika qilinadigan sifat o‘zgarishlari bilan bog‘lash zarur. Shu asosda jamoada yoshlarning yetakchilik kompetensiyasini rivojlantiruvchi innovatsion uslublarning ilmiy mezonlarini aniqlash, ularni kompetensiyaning tarkibiy komponentlari bilan bog‘lash hamda samarali pedagogik vositalar tizimini ishlab chiqish mazkur tadqiqotning asosiy yo‘nalishini tashkil etadi.

Tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar

Tadqiqot obyekti sifatida oliy ta’lim muassasalarida yoshlarning jamoada faoliyat yuritishi jarayonida yetakchilik kompetensiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon belgilandi. Tadqiqot predmeti esa jamoaviy yetakchilik kompetensiyasini rivojlantiruvchi innovatsion uslublarning mazmuni, mezonlari, pedagogik mexanizmlari va ularni ma’naviy-ma’rifiy faoliyat jarayonida qo‘llash shart-sharoitlarini qamrab oldi. Tadqiqotda innovatsion uslubning subyektlilik transferi, real mas’uliyat, refleksiv sikl, aksiologik o‘zak hamda diagnostik proyeksiya kabi mezonlari asosiy tahlil birliklari sifatida qabul qilindi. Shuningdek,

jamoaviy yetakchilik kompetensiyasining faoliyatga yo‘naltirilgan, kommunikativ, refleksiv-baholovchi va aksiologik komponentlari o‘zaro bog‘liqlikda ko‘rib chiqildi.

Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, tizimlashtirish, modellashtirish va pedagogik kuzatuv metodlaridan foydalanildi. Nazariy tahlil orqali innovatsion pedagogik texnologiyalar, yetakchilik kompetensiyasi va refleksiv ta’limga oid ilmiy qarashlar o‘rganildi; qiyosiy tahlil yordamida an’anaviy interaktiv metodlar bilan innovatsion uslublarning farqli jihatlari aniqlandi. Tizimlashtirish va modellashtirish asosida jamoaviy yetakchilik kompetensiyasini rivojlantiruvchi innovatsion uslublarning mezonlari hamda tasnifi ishlab chiqildi. Pedagogik kuzatuv orqali talabalarning jamoaviy faoliyatdagi tashabbuskorligi, mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishi, qaror qabul qilishi, hamkorlik qilishi va refleksiv baholash ko‘nikmalari tahlil qilindi. Olingan natijalarni izohlashda diagnostik yondashuv va triangulyatsiya tamoyillaridan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Ma’naviy-ma’rifiy faoliyatning metodologik asoslari — uning aksiologik o‘zagi, subyekt-subyekt munosabatlariga tayanuvchi tabiati va pedagogik mexanizmning tizimli ishlashi faoliyatimizning asosiy mezonini yoritib beradi. Mexanizmning konseptual darajasidan uning operatsional darajasiga o‘tish esa uslublar tizimini loyihalashni taqozo etadi, zero har qanday pedagogik mexanizmning haqiqiy samaradorligi maqsadning e’lon qilinishi bilan emas, balki maqsadni faoliyat tiliga tarjima qiluvchi vositalarning sifati bilan belgilanadi.

O‘zbekiston pedagogika fanida innovatsion texnologiyalar nazariyasi O‘.Q.Tolipov va M.A.Usmonboevaning pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslariga oid ishlarida, R.J.Ishmuxamedovning ta’limdagi innovatsion texnologiyalar bo‘yicha tadqiqotlarida, N.S.Saidahmedovning yangi pedagogik texnologiyalarga bag‘ishlangan asarlarida, N.N.Azizxo‘jaevaning pedagogik mahorat konsepsiyasida ishlab chiqilgan. Mazkur tadqiqotlar texnologik yondashuvni milliy ta’lim amaliyotiga olib kirgan bo‘lsa-da, ularda innovatsiyalik belgisining aniq mezonlari yetarlicha operatsionallashtirilmagan. Natijada amaliyotda «klaster», «insert», «Venn diagrammasi», «aqliy hujum» kabi didaktik texnikalar yillar davomida «innovatsion metod» maqomida takrorlanib kelmoqda. Bu holat vositaning yangiligi (novelty of the tool) va natijaning yangiligi (novelty of the outcome) o‘rtasidagi prinsipial farqni xiralashtiradi: metodning o‘qituvchi uchun notanish bo‘lishi uning talaba shaxsida sifat jihatidan yangi o‘zgarish hosil qilishini kafolatlamaydi. Demak, innovatsiyalik — metodning ichki xususiyati emas, balki uning natija bilan o‘rnatgan munosabatidir.

Mazkur tanqidiy pozitsiyadan kelib chiqqan holda, tadqiqotda innovatsion uslubning muallliflik ta’rifi ilgari suriladi: jamoaviy yetakchilik kompetensiyasini rivojlantiruvchi innovatsion uslub deb talabaning pedagogik jarayondagi pozitsiyasini obyektdan subyekt darajasiga ko‘chiruvchi, jamoaviy mas’uliyatni imitasiya qilmasdan real tarzda delegatsiya qiluvchi, majburiy refleksiv sikl bilan ta’minlangan, milliy ma’naviy qadriyatlarda aksiologik asosga ega hamda kompetensiyaning mezon-indikator tizimiga bevosita proyeksiyalanadigan pedagogik vositaga aytiladi. Ushbu ta’rifdan besh mezon kelib chiqadi. Uslub innovatsion deb tan olinishi uchun kamida to‘rt mezonga javob berishi shart; faqat birinchi yoki uchinchi mezonga moslik uni interaktiv metod darajasida qoldiradi.

Birinchi mezon — subyektlilik transferi — Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining «Learning Compass 2030» hujjatidagi «birgalikdagi subyektlik» (co-agency) konstrukt hamda L.Lambertning yetakchilik salohiyati konsepsiyasi bilan metodologik uyg‘unlikka ega. Uning o‘ziga xosligi shundaki, u topshiriqning delegatsiyasini mas’uliyatning delegatsiyasidan ajratadi. Talabaga tadbirni tashkil etish topshirilishi mumkin, lekin uning mazmuni, baholash mezoni va resurslar taqsimoti ustidan vakolat saqlanib qolsa, subyektlilik transferi sodir bo‘lmaydi — amalda bajaruvchilik ko‘nikmasi mustahkamlanadi, yetakchilik kompetensiyasi esa shakllanmaydi. Bu — O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari amaliyotida kuzatiladigan eng ommaviy pedagogik xatolardan biridir.

Ikkinchi mezon — real stavkaning mavjudligi — R.A.Heyfetsning adaptiv va texnik muammolarni farqlash nazariyasiga tayanadi. Texnik muammo mavjud bilim va vakolatlar doirasida yechiladi, adaptiv muammo esa ishtirokchilardan qadriyatlar, odatlar va rollarni qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Simulyatsiya sharoitida adaptiv muammo ham texnik muammoga aylanishi mumkin, chunki xatoning narxi nolga teng. Shu bois innovatsion uslub tarkibida haqiqiy benefitsiar — mahalla, maktab, ijtimoiy guruh, hamkor tashkilot — ishtirok etishi, natija esa muassasa devoridan tashqariga chiqishi shart. Ushbu tamoyil J.D.Kuning «yuqori ta’sirli ta’lim amaliyotlari» tizimidagi ijtimoiy xizmat orqali o‘rganish (service-learning) komponentining pedagogik mantiqiga mos keladi.

Uchinchi mezon — refleksiv sikl — D.Kolbning tajribaviy o‘rganish modeli, D.Shyonning refleksiv amaliyotchi konsepsiyasi, K.Argiris va D.Shyonning ikki halqali o‘rganish (double-loop learning) nazariyasi hamda J.Mezirouning transformativ o‘rganish konsepsiyasining sinteziga asoslanadi. Bir halqali o‘rganishda talaba xatoni tuzatadi, ikki halqali o‘rganishda esa xatoga olib kelgan yashirin qoida va tasavvurni qayta ko‘rib chiqadi. Aynan ikki halqali refleksiya jamoaviy yetakchilik kompetensiyasining refleksiv-baholovchi komponentini rivojlantirishning yagona ishonchli mexanizmidir, zero yetakchilik vaziyatlari takrorlanmas bo‘lganligi sababli, tayyor algoritmni o‘zlashtirish emas, o‘z faoliyatining asoslarini qayta ko‘rish qobiliyati hal qiluvchi ahamiyatga ega. S.D.Brukfildning kritik insidentlarni tahlil qilish texnikasi mazkur sikl uchun ishonchli protsessual tayanch bo‘lib xizmat qiladi.

To‘rtinchi mezon — aksiologik o‘zak — tadqiqotning milliy o‘ziga xosligini ta’minlaydi. T.J.Serdjiovannining axloqiy yetakchilik va R.K.Grinlifning xizmatkor-yetakchilik konsepsiyalari yetakchilikning manbaini mansab yoki xarizmada emas, axloqiy vakolatda ko‘radi. Mazkur g‘oya milliy pedagogik merosning o‘zagiga mos keladi: Abu Nasr Forobiyning fozil jamoa rahnamosi ta’limoti, Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» asaridagi adolat-aql-qanoat uyg‘unligi, Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub» asaridagi komil inson ideali yetakchilikni avvalo axloqiy maqom sifatida talqin qiladi. Demak, uslubning aksiologik o‘zagi — bu unga axloqiy ritorika qo‘shish emas, balki uning ichiga qadriyatlar to‘qnashuvi vaziyatini konstruktiv tarzda joylashtirishdir: talaba samaradorlik bilan adolat, tezkorlik bilan hamjihatlik, shaxsiy obro‘ bilan jamoa manfaati o‘rtasida tanlov qilishi lozim bo‘lgan holat.

Beshinchi mezon — diagnostik proyeksiya — metodik tizimni pedagogik mexanizmga aylantiruvchi shartdir. R.E.Boyatsis tomonidan asoslangan kompetensiya modellari hamda U.E.Donahyu, H.J.Yun, J.H.Song va K.K.Vudli ishlab chiqqan yetakchilik kompetensiyasi inventari (Leadership Competency Inventory) kompetensiyani kuzatiladigan xulq-atvor indikatorlariga ajratish imkonini beradi. Ushbu mantiqdan kelib chiqib, tadqiqotda o‘lchanmaydigan uslub mexanizm tarkibiga kiritilmaydi prinsipi qabul qilinadi. Mazkur prinsip ma’naviy-ma’rifiy faoliyatning an’anaviy baholash amaliyotiga — tadbirlar soni, qatnashuvchilar soni, ommaviy axborot vositalaridagi aks-sado kabi jarayon ko‘rsatkichlariga — bevosita muqobil sifatida ilgari suriladi.

Uslublarni loyihalashning psixologik asosi sifatida A.Banduraning ijtimoiy-kognitiv nazariyasi, xususan o‘z-o‘ziga ishonch (self-efficacy) manbalari to‘g‘risidagi qoidasi xizmat qiladi. Unga ko‘ra ishonch to‘rt manbadan shakllanadi: muvaffaqiyatli faoliyat tajribasi, ijtimoiy modellashtirish, og‘zaki ishontirish va fiziologik-emotsional holat. Ushbu qoidaning pedagogik tatbiqi shuni bildiradiki, jamoaviy yetakchilik kompetensiyasini rivojlantiruvchi uslub talabani, birinchidan, kichik, lekin haqiqiy muvaffaqiyat

tajribasidan o‘tkazishi, ikkinchidan, unga o‘ziga yaqin bo‘lgan tengdosh yetakchi modelini ko‘rsatishi, uchinchidan, pedagog tomonidan aniq va argumentlangan qo‘llab-quvvatlashni ta’minlashi, to‘rtinchidan, noaniqlik va tanqid sharoitida emotsional barqarorlikni mashq qildirishilozim. Ko‘pchilik an’anaviy tadbirlar mazkur to‘rt manbadan faqat uchinchisiga tayanadi, bu esa samaradorlikning past darajasini tushuntiradi.

Yuqoridagi mezonlar va psixologik-pedagogik asoslarga tayanib, tadqiqotda jamoaviy yetakchilik kompetensiyasini rivojlantiruvchi innovatsion uslublarning mualliflik tasnifi ishlab chiqildi. Tasnifning asosiy belgisi sifatida talabaning faoliyatdagi pozitsiyasi emas, balki uslubning kompetensiya tuzilmasidagi yetakchi komponentga yo‘naltirilganligi qabul qilindi, zero pozitsiya belgisi bo‘yicha tasnif uslublarni bosqichlarga bog‘laydi, komponent belgisi bo‘yicha tasnif esa ularni diagnostika tizimiga bog‘laydi. Shunga muvofiq besh guruh ajratiladi: aksiologik-germenevtik, faoliyatli-loyihaviy, simulyatsion-adaptiv, refleksiv-diagnostik va raqamli-tarmoqli uslublar.

O‘tkazilgan nazariy-metodik tahlil quyidagi yakuniy xulosalarni shakllantirish imkonini berdi. Innovatsion uslubning ilmiy mezonlari ishlab chiqildi va «innovatsiyalik» tushunchasi vositaning yangiligidan natijaning diagnostik o‘lchanuvchanligiga ko‘chirildi; besh mezonning kamida to‘rttasiga javob bermaydigan vosita mexanizm tarkibiga kiritilmaydi.

Jamoaviy yetakchilik kompetensiyasini rivojlantiruvchi uslublarning mualliflik tasnifi asoslab berildi va har bir guruh kompetensiyaning muayyan komponentiga hamda uning indikatoriga proyeksiyalandi; raqamli-tarmoqli guruh mustaqil uslub emas, ko‘ndalang tatbiq muhiti sifatida ta’riflandi.

Xulosa. Milliy pedagogik merosdan foydalanishning konstruktiv shakli aniqlandi: u matn mazmunini takrorlash orqali emas, undagi yetakchilik qarorining cheklanishlarini aniqlash va zamonaviy kontekstga ko‘chirish operatsiyasi orqali pedagogik vositaga aylanadi. Uslublar tizimining validlik chegaralari — kontekstga bog‘liqlik, ijtimoiy ma’qullanish nuqsoni, kuzatuv effekti va madaniy transfer cheklanishi — ochiq qayd etilib, ularni bartaraf etishning triangulyatsiya va longityud o‘lchov orqali hal qilinishi metodologik shart sifatida belgilandi. Mazkur xulosalar ma’naviy-ma’rifiy faoliyatni takomillashtirish mexanizmining uslubiy o‘zagini tashkil etadi, taklif etiladigan ma’naviy-ma’rifiy loyihalar tizimini loyihalashning bevosita metodik asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–92-son Qarori. «Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida». 2022-yil.
2.O‘. Q. Tolipov. Pedagogikaning dolzarb muammolari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2007.
3.M. A. Usmonboeva. Pedagogik kompetentlik asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.
4.N. N. Azizxo‘jaeva. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan, 2006.
5.R. J. Ishmuxamedov. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2004.
6.N. S. Saidahmedov. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2003.

Muallif:
Alauatdinov Sahabatdin Iniyatdinovich - Qoraqalpoq davlat universiteti birinchi prorektori, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

UDK 372.815.99

DIDACTIC POSSIBILITIES OF DEVELOPING EMOTIONAL COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS BASED ON NEUROPEDAGOGY

NEYROPEDAGOGIKA ASOSIDA BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING EMOTSIONAL KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ НЕЙРОПЕДАГОГИКИ

Mirzaraxmonova Shaxnoza Mirzaaxmadovna
Alfraganus universiteti. Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Tiklanish MFY, Yuqori Qoraqamish ko‘chasi, 2 “a” uy
E-mail: shaxnozamirzaraxmonova@gmail.com

Abstract. This article scientifically analyzes the didactic possibilities of developing the emotional competence of future teachers based on the neuropedagogical approach. In the modern education system, the role of teachers is increasing not only in imparting knowledge, but also in influencing the emotional and social development of students. In this regard, the mechanisms of forming emotional competence through the neuropedagogical approach are revealed and its effective methods and tools are based.

Keywords: neuropedagogical, future teachers, didactic possibilities, emotional competence.

Annotatsiya. Mazkur maqolada neyropedagogika yondashuvi asosida bo‘lajak pedagoglarning emotsional kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Zamonaviy ta’lim tizimida pedagoglarning nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilarning hissiy-ijtimoiy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatishdagi roli ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, neyropedagogik yondashuv orqali emotsional kompetentlikni shakllantirish mexanizmlari ochib berilgan hamda uning samarali metod va vositalari asoslangan.

Kalit so‘zlar: neyropedagogika, bo‘lajak pedagoglar, didaktik imkoniyatlar, emotsional kompetentlik.

Аннотация. В данной статье научно анализируются дидактические возможности развития эмоциональной компетентности будущих учителей на основе нейропедагогического подхода. В современной системе образования роль учителей возрастает не только в передаче знаний, но и во влиянии на эмоциональное и социальное развитие учащихся. В этой связи раскрываются механизмы формирования эмоциональной компетентности посредством нейропедагогического подхода и обосновываются его эффективные методы и инструменты.

Ключевые слова: нейропедагогический подход, будущие учителя, дидактические возможности, эмоциональная компетентность.

Kirish. Zamonaviy global ta’lim makonida kechayotgan transformatsion jarayonlar pedagogik faoliyat mazmuni va mohiyatiga yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Raqamlashtirish, axborot oqimining keskin ortishi hamda ta’limning insonparvarlashuvi sharoitida pedagog shaxsiga qo‘yiladigan talablar sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi. Endilikda pedagog nafaqat bilim beruvchi subyekt, balki o‘quvchilarning emotsional, ijtimoiy va kognitiv rivojlanishini boshqaruvchi murakkab tizim sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak pedagoglarning emotsional kompetentligini rivojlantirish muammosi zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarining dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Emotsional kompetentlik shaxsning o‘z hissiyotlarini anglash, ularni boshqarish, boshqalarning emotsional holatini tushunish va samarali muloqot o‘rnatish qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi. Ushbu kompetensiya pedagogik faoliyat samaradorligini ta’minlovchi muhim omil sifatida e’tirof etilmoqda.

Mazkur jarayonda neyropedagogika alohida ahamiyat kasb etadi. Neyropedagogika – bu ta’lim jarayonini inson miyasi faoliyati, neyrofiziologik mexanizmlar va psixik jarayonlar bilan uzviy bog‘liqlikda o‘rganuvchi integrativ fan sohasi bo‘lib, u o‘quvchilarning bilimlarni qabul qilish, qayta ishlash va mustahkamlash jarayonlarini ilmiy asosda tushuntiradi.

Neyropedagogik yondashuvlar asosida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, inson miyasi emotsional holatlar bilan bevosita bog‘liq holda faoliyat yuritadi. Ijobiy emotsional fon o‘quv materialining samarali o‘zlashtirilishini ta’minlasa, salbiy emotsiyalar aksincha, kognitiv jarayonlarni susaytiradi. Shu sababli, ta’lim jarayonida emotsional muhitni boshqarish va rivojlantirish muhim didaktik vazifa sifatida qaraladi.

Bo‘lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida neyropedagogik yondashuvlardan foydalanish, bir tomondan, ularning kasbiy kompetentligini oshirsa, ikkinchi tomondan, emotsional barqarorlik va empatik munosabatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, zamonaviy didaktik texnologiyalar, interfaol metodlar va refleksiv yondashuvlar ushbu jarayonning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Shu bois, neyropedagogika asosida bo‘lajak pedagoglarning emotsional kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini aniqlash va ilmiy asoslash bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Neyropedagogika sohasidagi ilmiy tadqiqotlar so‘nggi yillarda jadal rivojlanmoqda. Xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda miya faoliyati va o‘qitish jarayoni o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik asoslab berilgan. Mahalliy olimlar tomonidan ham pedagogik faoliyatda emotsional intellekt va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish muammolari o‘rganilgan bo‘lib, bu borada didaktik imkoniyatlar keng ekanligi ta’kidlanadi.

1-jadval.

O‘zbekiston olimlari tadqiqotlari

F.I.SH.	Tadqiqot yo‘nalishi	Asosiy g‘oya
J.G. Yo‘ldoshev	Pedagogika nazariyasi	Pedagog shaxsini rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuv muhim
O.U. Hasanboyeva	Zamonaviy pedagogik texnologiyalar	Interfaol metodlar shaxs rivojiga xizmat qiladi
N.A. Muslimov	Kasbiy pedagogika	Pedagogning kasbiy kompetentligini shakllantirish tizimi
Sh.X. Sharipov	Ta’lim innovatsiyalari	Ta’limda innovatsion yondashuvlar samaradorlikni oshiradi
M.Q. Quronov	Tarbiya nazariyasi	Shaxs tarbiyasida emotsional muhit muhim omil

Shuningdek, emotsional kompetentlik tushunchasi psixologiya va pedagogika fanlarida muhim o‘rin egallaydi. Tadqiqotchilar emotsional kompetentlikni shaxsning o‘z hissiyotlarini anglash, boshqarish va boshqalarning hissiyotlarini tushunish qobiliyati sifatida talqin etadilar.

2-jadval.

MDH olimlari

F.I.SH.	Yo‘nalish	Asosiy qarash
L.S. Vygotskiy	Madaniy-tarixiy psixologiya	Ta’lim va rivojlanish o‘zaro bog‘liq jarayon
A.R. Luriya	Neyropsixologiya	Miya faoliyati va psixik jarayonlar uzviy bog‘liq
P.Ya. Galperin	Bosqichma-bosqich o‘qitish nazariyasi	Bilimlarni ongli shakllantirish mexanizmi
V.V. Serikov	Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim	Ta’lim markazida shaxs turadi
E.A. Tokareva	Neyropedagogika	Ta’limni miya faoliyati asosida tashkil etish

3-jadval.

Xorijiy olimlar (xalqaro tadqiqotlar)

F.I.SH.	Yo‘nalish	Asosiy g‘oya
Daniel Goleman	Emotsional intellekt	Emotsional kompetentlik muvaffaqiyat asosidir
Howard Gardner	Ko‘p intellekt nazariyasi	Har bir insonda turli intellekt turlari mavjud
Mary Helen Immordino-Yang	Neyrota’lim	Emotsiya va o‘rganish o‘zaro bog‘liq
Eric Jensen	Brain-based learning	Ta’lim miya faoliyatiga mos tashkil etilishi kerak
Antonio Damasio	Neyropsixologiya	Emotsiyalar qaror qabul qilishda muhim rol o‘ynaydi

TAHLILLAR VA MUHOKAMA

Neyropedagogik yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarning emotsional kompetentligini rivojlantirish masalasi kompleks va ko‘p komponentli jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu jarayon nafaqat psixologik, balki didaktik, metodik va neyrofiziologik omillar bilan chambarchas bog‘liqdir.

Ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, inson miyasi o‘quv jarayonida faqat kognitiv faoliyat bilan cheklanmaydi, balki emotsional markazlar (limbik tizim) orqali ma’lumotlarni qayta ishlash samaradorligini belgilaydi. Shu sababli, ta’lim jarayonida emotsional komponentni hisobga olish o‘qitish samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Neyropedagogika nuqtai nazaridan qaralganda, o‘quv jarayonida quyidagi uchta asosiy tizim o‘zaro integratsiyada faoliyat yuritadi: kognitiv tizim (bilim olish); emotsional tizim (hissiy qabul qilish); ijtimoiy tizim (muloqot va hamkorlik).

Mazkur tizimlarning uyg‘unligi bo‘lajak pedagoglarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishini ta’minlaydi.

4-jadval.

Emotsional kompetentlikni rivojlantirishning neyropedagogik mexanizmlari

Komponent	Mazmuni	Neyropsixologik asos	Didaktik vositalar
Emotsiyani anglash	O‘z hissiyotlarini tushunish	Limbik tizim faolligi	Refleksiya, kundalik yozish
Emotsiyani boshqarish	Stress va hissiy nazorat	Prefrontal korteks	Nafas mashqlari, treninglar
Empatiya	Boshqalarni tushunish	Mirror neyronlar	Rolli o‘yinlar
Ijtimoiy ko‘nikmalar	Samarali muloqot	Neyron aloqalar tizimi	Guruh ishlari

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy ta’lim tizimi asosan bilim berishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, neyropedagogik yondashuv ta’lim jarayonini insonning tabiiy psixofiziologik xususiyatlariga moslashtirishga xizmat qiladi. Bu esa ta’limning individualizatsiyasi va differensiallashuvini ta’minlaydi.


5-jadval.

Didaktik imkoniyatlar va ularning samaradorligi

Didaktik yondashuv	Amalga oshirish shakli	Ta’sir mexanizmi	Natija
Interfaol metodlar	Munozara, debat	Faollikni oshiradi	Mustaqil fikrlash
Trening texnologiyalari	Psixologik mashqlar	Emotsional tajriba	Hissiy rivojlanish
Refleksiv yondashuv	Tahlil, o‘zini baholash	Metakognitivlik	O‘zini anglash
Raqamli vositalar	Multimedia, VR	Vizual-emotsional ta’sir	Qiziqish ortadi

Muhokamalar natijasida quyidagi muhim jihatlar aniqlandi: 1. Emotsional kompetentlik pedagogik samaradorlikning ajralmas qismi hisoblanadi; 2. Neyropedagogika ta’lim jarayonini ilmiy asosda tashkil etish imkonini beradi; 3. Didaktik vositalarning to‘g‘ri tanlanishi emotsional rivojlanishni tezlashtiradi; 4. Interfaol va refleksiv metodlar eng samarali usullar sifatida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quv jarayonida ijobiy emotsional muhit yaratish talabalar motivatsiyasini oshiradi, stress darajasini kamaytiradi va bilimlarni uzoq muddatli xotirada saqlashga yordam beradi.



1-rasm. Bo‘lajak pedagoglarda emotsional kompetentlikni rivojlantirishning neyropedagogik modeli

“Bo‘lajak pedagoglarda emotsional kompetentlikni rivojlantirishning neyropedagogik modeli” zamonaviy ta’lim paradigmasi asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, u pedagog shaxsining kompleks rivojlanishini ta’minlashga yo‘naltirilgan tizimli yondashuvni ifodalaydi. Mazkur model o‘zaro uzviy bog‘langan besh asosiy komponentdan tashkil topgan: maqsadli, mazmuniy, jarayon, texnologik va natijaviy komponentlar.

Modelning maqsadli komponenti pedagog shaxsida emotsional kompetentlikni shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, unda o‘z hissiyotlarini anglay oladigan, boshqara oladigan va boshqalar bilan samarali muloqotga kirisha oladigan mutaxassisni tayyorlash

ustuvor vazifa sifatida belgilanadi. Ushbu komponent butun modelning yo‘nalishini aniqlab beradi va barcha keyingi jarayonlar uchun metodologik asos vazifasini bajaradi.

Mazmuniy komponent modelning nazariy asosini tashkil etib, unda neyropedagogik bilimlar, emotsional intellekt elementlari hamda psixologik tayyorgarlik tizimi mujassamlashgan. Bu komponent orqali bo‘lajak pedagoglarda miya faoliyati va o‘qitish jarayoni o‘rtasidagi bog‘liqlik, shuningdek, emotsional jarayonlarning ta’lim samaradorligiga ta’siri haqidagi bilimlar shakllantiriladi.

Jarayon komponenti mazmunni amaliyotga tatbiq etish mexanizmlarini ifodalaydi. Unda interfaol metodlar, psixologik trening mashg‘ulotlari va refleksiya jarayonlari asosiy o‘rin tutadi. Mazkur bosqichda talabalarning faol ishtiroki, tajriba asosida o‘rganishi va o‘z-o‘zini anglash ko‘nikmalari rivojlantiriladi. Aynan shu komponent emotsional tajribaning shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Texnologik komponent ta’lim jarayonini zamonaviy vositalar orqali qo‘llab-quvvatlashni nazarda tutadi. Raqamli ta’lim vositalari, multimedia texnologiyalar va simulyatsion muhitlar orqali o‘quv jarayoni yanada jonlantiriladi, vizual va emotsional ta’sir kuchaytiriladi. Bu esa bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishga hamda emotsional jalb etilishni oshirishga xizmat qiladi.

Modelning yakuniy bosqichi – natijaviy komponent bo‘lib, u butun jarayon samaradorligini aks ettiradi. Ushbu bosqichda bo‘lajak pedagoglarda emotsional barqarorlik, empatiya, samarali muloqot ko‘nikmalari hamda kasbiy kompetentlik shakllanganligi kuzatiladi. Natijada pedagog shaxsining har tomonlama rivojlangan modeli yuzaga keladi.

Modelning sxematik ko‘rinishida “Maqsad → Mazmun → Jarayon → Texnologiya → Natija” ketma-ketligi orqali pedagogik jarayonning mantiqiy izchilligi ifodalanadi. Shu bilan birga, kengaytirilgan modelda neyropedagogik yondashuv asosida didaktik imkoniyatlar orqali emotsional tajriba shakllanib, u emotsional kompetentlikka, undan esa kasbiy samaradorlikka olib kelishi ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Shunday qilib, mazkur model bo‘lajak pedagoglarning emotsional kompetentligini rivojlantirishda tizimli, integrativ va samarali yondashuv sifatida xizmat qiladi hamda zamonaviy ta’lim tizimi talablariga to‘liq javob beradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy ta’lim tizimida bo‘lajak pedagoglarning emotsional kompetentligini rivojlantirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ta’lim jarayonining insonparvarlashuvi va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar ustuvorlik kasb etayotgan bugungi sharoitda pedagogning emotsional yetukligi uning kasbiy samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mazkur maqolada asoslab berilgan neyropedagogik yondashuv shuni ko‘rsatdiki, o‘quv jarayonini inson miyasi faoliyati va emotsional holatlari bilan uyg‘un holda tashkil etish ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Xususan, ijobiy emotsional muhit yaratish, refleksiv faoliyatni tashkil etish hamda interfaol metodlardan foydalanish orqali talabalarning nafaqat bilim darajasi, balki ularning hissiy barqarorligi va ijtimoiy moslashuvchanligi ham rivojlanadi.

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan neyropedagogik model bo‘lajak pedagoglarda emotsional kompetentlikni shakllantirishning tizimli mexanizmlarini ochib berdi. Modelning maqsadli, mazmuniy, jarayon, texnologik va natijaviy komponentlari o‘zaro uzviy bog‘liqlikda faoliyat yuritib, pedagogik jarayonning yaxlitligini ta’minlaydi. Ayniqsa, didaktik imkoniyatlardan samarali foydalanish orqali emotsional tajriba hosil qilish va uni amaliy faoliyatga integratsiya etish imkoniyati yaratildi. Shuningdek, tahlillar shuni ko‘rsatdiki, emotsional kompetentlikning shakllanishi pedagog shaxsining kasbiy tayyorgarligida muhim mezonlardan biri bo‘lib, u o‘qituvchining kommunikativ madaniyati, empatik qobiliyati va stressga chidamliligini belgilaydi. Bu esa o‘z navbatida ta’lim jarayonida ijobiy psixologik muhitni yaratish hamda o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlashga xizmat qiladi. Umuman olganda, neyropedagogika asosida bo‘lajak pedagoglarning emotsional kompetentligini rivojlantirish ta’lim sifatini oshirishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur yondashuv pedagogik jarayonni ilmiy asosda tashkil etish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni rivojlantirishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Kelgusida ushbu yo‘nalishda empirik tadqiqotlarni kengaytirish, neyropedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish hamda emotsional kompetentlikni baholash mezonlarini takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Fayzullayev, M., & Dexqonov, T. (2025). OILA PSIXOLOGIYASI: FARZAND TARBIYASIDA EMOTSIONAL INTELLEKTNING AHAMIYATI. *Молодые ученые*, *3*(24), 98-101.
2. Fayzullayev, M., Xamraqulov, M., & Lutfiddinov, M. (2025). O ‘SMIRLIK DAVRIDA KOGNITIV RIVOJLANISHGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR. *Наука и технология в современном мире*, *4*(17), 22-25.
3. Mirzamurodovich, F. M. (2025). PSYCHOLOGICAL LITERACY IN ADOLESCENTS AS A FACTOR OF SOCIALIZATION. *SHOKH LIBRARY*, *1*(12).
4. Mirzamurodovich, F. M. (2024, October). O ‘SMIRLARDA PSIXOLOGIK SAVODXONLIKNI ANIQLASHDA KORRELATSION TAHLIL. In *Russian-Uzbekistan Conference* (Vol. 1, No. 1).
5. Fayzullayev, M. M. (2023). PSYCHOLOGICAL LITERACY AND ITS ASSESMENT OF IN YOUTH. *Educational Research in Universal Sciences*, *2*(6), 170-172.
6. Mirzamurodovich, F. M. (2023). CONCEPTS OF FORMATION AND DEVELOPMENT OF PSYCHOLOGICAL LITERACY IN CONTINUOUS EDUCATION. *Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence*, *2*(5), 495-497.
7. Fayzullayev, M. (2023). O ‘SMIRLARDA PSIXOLOGIK SAVODXONLIK KONSTRUKSIYALARI. *Академические исследования в современной науке*, *2*(19), 129-133.
8. Fayzullayev, M. (2024). INTRODUCING PSYCHOLOGICAL LITERACY. *Академические исследования в современной науке*, *3*(22), 32-35.
9. Fayzullayev, M. M. (2022). DISCRIMINATION IS A VIOLATION OF HUMAN RIGHTS AND IS A PROBLEM FOR STUDENTS, ESPECIALLY IN TIMES OF PSYCHOLOGICAL CHANGE. *INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING*, *1*(4), 429-431.
10. Fayzullayev M., Xamraqulov, M., & Lutfiddinov , M. (2025). O‘SMIRLIK DAVRIDA KOGNITIV RIVOJLANISHGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR. Наука и технология в современном мире, 4(17), 22–25. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/zdift/article/view/113440

Muallif:
Mirzaraxmonova Shaxnoza Mirzaaxmadovna - *Alfraganus universiteti dotsenti, Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).*

UDK 372.815.99

METHODOLOGICAL AND DIDACTIC FOUNDATIONS FOR DEVELOPING STUDENTS' SANOGENIC COMPETENCE IN THE HIGHER EDUCATION PROCESS

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ И ДИДАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ САНОГЕННОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

OLIY TA'LIM JARAYONIDA TALABALARNING SANOGEN KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK VA DIDAKTIK ASOSLARI

Kurbanov Elyor Ermamatovich
Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahar, 4-mavzu
E-mail: elyor88@internet.ru

Abstract. The article examines the methodological and didactic foundations for developing students' sanogenic competence in the process of higher education. Sanogenic competence is considered as a comprehensive personal characteristic that includes the ability to preserve and strengthen one's health, maintain a healthy lifestyle, cope constructively with stressful situations, think positively, regulate emotional states, and consciously choose health-promoting behavioral strategies. The article explores systemic, competency-based, learner-centered, activity-based, and health-preserving approaches to the development of students' sanogenic competence.

Keywords: sanogenic competence, higher education, sanogenic thinking, healthy lifestyle, competency-based approach, methodological foundations, didactic foundations, psychological resilience, emotional state, stress, reflection, student, health-preserving education.

Annotatsiya. Maqolada oliy ta'lim jarayonida talabalarning sanogen kompetentligini rivojlantirishning metodologik va didaktik asoslari ko'rib chiqiladi. Sanogen kompetentlik shaxsning o'z salomatligini saqlash va mustahkamlash, sog'lom turmush tarziga rioya qilish, stressli vaziyatlarni konstruktiv tarzda yengib o'tish, ijobiy fikrlash, emotsional holatini boshqarish hamda salomatlikni asrashga yo'naltirilgan xulq-atvor strategiyalarini ongli ravishda tanlash qobiliyatini o'z ichiga oluvchi kompleks shaxsiy xususiyat sifatida talqin etiladi. Talabalarda sanogen kompetentlikni rivojlantirishga doir tizimli, kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga asoslangan va sog'liqni saqlovchi yondashuvlar ochib beriladi.

Kalit so'zlar: sanogen kompetentlik, oliy ta'lim, sanogen tafakkur, sog'lom turmush tarzi, kompetensiyaviy yondashuv, metodologik asoslar, didaktik asoslar, psixologik barqarorlik, emotsional holat, stress, refleksiya, talaba, sog'liqni saqlovchi ta'lim.

Аннотация. В статье рассматриваются методологические и дидактические основы развития саногенной компетентности студентов в процессе высшего образования. Саногенная компетентность рассматривается как комплексная характеристика личности, включающая способность сохранять и укреплять собственное здоровье, придерживаться здорового образа жизни, конструктивно справляться со стрессовыми ситуациями, позитивно мыслить, регулировать эмоциональное состояние и осознанно выбирать здоровьесберегающие стратегии поведения. Раскрываются системный, компетентностный, личностно ориентированный, деятельностный и здоровьесберегающий подходы к развитию саногенной компетентности студентов.

Ключевые слова: саногенная компетентность, высшее образование, саногенное мышление, здоровый образ жизни, компетентностный подход, методологические основы, дидактические основы, психологическая устойчивость, эмоциональное состояние, стресс, рефлексия, студент, здоровьесберегающее образование.

Введение. Современная система высшего образования предъявляет к студенту требования, связанные не только с усвоением профессиональных знаний и формированием практических навыков, но и с развитием способности самостоятельно заботиться о собственном физическом и психическом здоровье. Высокая интенсивность учебной деятельности, значительный объём информационной нагрузки, необходимость адаптации к новым социальным условиям, экзаменационный стресс и неопределённость профессионального будущего могут оказывать существенное влияние на психологическое состояние студентов. В этих условиях особую значимость приобретает формирование у молодёжи способности осознанно управлять собственным состоянием, предупреждать негативные последствия стресса и использовать конструктивные способы преодоления жизненных трудностей.

В современной педагогике и психологии всё большее внимание уделяется здоровьесберегающей направленности образования. При этом сохранение здоровья не должно ограничиваться только профилактическими мероприятиями. Важным становится формирование у обучающегося внутренней готовности и компетентности самостоятельно поддерживать физическое, психологическое и социальное благополучие. Именно в данном контексте актуализируется понятие «саногенная компетентность».

Саногенная направленность личности предполагает способность человека осознавать взаимосвязь между собственными мыслями, эмоциональными состояниями, поведением и состоянием здоровья. Концепция саногенного мышления связана с идеей конструктивной переработки человеком собственных отрицательных эмоциональных переживаний и конфликтных ситуаций. В отличие от патогенного мышления, которое может усиливать негативные переживания, саногенный подход направлен на осознание эмоционального опыта, его анализ и поиск конструктивных способов реагирования.

Методологические основы развития саногенной компетентности студентов. Методологическую основу процесса развития саногенной компетентности целесообразно рассматривать как совокупность взаимосвязанных научных подходов, принципов и положений, определяющих содержание, организацию и результаты педагогического процесса.

Одним из ведущих является системный подход. В рамках данного подхода саногенная компетентность рассматривается как целостная система, включающая когнитивный, мотивационно-ценностный, эмоционально-регулятивный, поведенческий и рефлексивный компоненты. Когнитивный компонент отражает знания студента о здоровье, стрессовых факторах, способах эмоциональной саморегуляции и здоровом образе жизни. Мотивационно-ценностный компонент характеризуется осознанием ценности здоровья и устойчивой мотивацией к его сохранению. Эмоционально-регулятивный компонент предполагает способность управлять собственными эмоциональными состояниями. Поведенческий компонент проявляется в практическом использовании здоровьесберегающих моделей поведения. Рефлексивный компонент обеспечивает способность анализировать собственное состояние, поведение и результаты предпринимаемых действий.

Компетентностный подход позволяет рассматривать саногенную компетентность не только как совокупность знаний о здоровье, но прежде всего как способность применять эти знания в реальных жизненных и профессиональных ситуациях. Поэтому образовательный процесс должен обеспечивать переход от теоретического информирования к практической деятельности, самоконтролю и самостоятельному принятию решений.

Личностно ориентированный подход предполагает учёт индивидуальных особенностей студентов, их жизненного опыта, мотивации, эмоционального состояния, уровня физической активности и сформированности навыков

саморегуляции. В данном случае студент выступает не пассивным объектом педагогического воздействия, а активным субъектом собственного развития.

Деятельностный подход предусматривает включение студентов в различные виды активности, направленные на формирование навыков саморегуляции, рефлексии и здоровьесберегающего поведения. Особое значение приобретают практические задания, ситуационные упражнения, тренинги, дискуссии, ролевые игры, физкультурно-оздоровительная деятельность и самостоятельная работа.

Аксиологический подход ориентирует образовательный процесс на формирование у студентов ценностного отношения к здоровью. Здоровье в данном случае рассматривается не только как отсутствие болезни, но и как важнейшая личностная и социальная ценность, являющаяся основой полноценной жизни и профессионального саморазвития.

Здоровьесберегающий подход предполагает создание в образовательной среде таких условий, которые способствуют сохранению и укреплению здоровья обучающихся. Он включает рациональную организацию учебной нагрузки, обеспечение двигательной активности, формирование культуры питания и сна, профилактику эмоционального выгорания, обучение методам релаксации и развитие навыков психологической самопомощи.

Дидактические основы развития саногенной компетентности. Дидактическая организация процесса развития саногенной компетентности должна основываться на принципах сознательности и активности, систематичности и последовательности, доступности, индивидуализации, практической направленности, обратной связи и рефлексивности.

Содержание образовательного процесса должно включать знания о закономерностях сохранения здоровья, психологических механизмах стресса, способах управления эмоциями, значении двигательной активности, рационального режима дня, полноценного сна и здорового питания. Однако теоретические знания должны быть непосредственно связаны с практическими действиями.

Эффективным средством развития саногенной компетентности являются интерактивные образовательные технологии. В частности, дискуссии и проблемные ситуации позволяют студентам анализировать реальные жизненные обстоятельства и самостоятельно формулировать способы их конструктивного решения. Рефлексивные упражнения способствуют осознанию собственных эмоциональных состояний и поведения. Тренинговые технологии создают условия для практического освоения методов саморегуляции.

Важное место может занимать технология анализа стрессовых ситуаций. Студенту предлагается определить источник стрессового воздействия, выявить возникающие мысли и эмоции, проанализировать поведенческую реакцию и разработать альтернативную конструктивную стратегию. Такая последовательность способствует формированию навыка осознанного отношения к собственным переживаниям.

Методы дыхательной гимнастики, мышечной релаксации, визуализации, позитивного самовнушения и эмоциональной саморегуляции могут использоваться в практических занятиях. Их систематическое применение способствует развитию способности управлять эмоциональным напряжением и поддерживать психологическое равновесие.

Особое значение имеет рефлексивная деятельность. Студент должен не только выполнять определённые упражнения, но и оценивать их влияние на своё состояние. Например, после выполнения задания может проводиться самоанализ по вопросам: «Что я чувствовал?», «Какие мысли вызвали напряжение?», «Как изменилось моё состояние после упражнения?», «Какие способы саморегуляции оказались наиболее эффективными?». Подобные задания формируют навыки самонаблюдения и самоконтроля.

Физическая культура и спорт также обладают значительным потенциалом в развитии саногенной компетентности. Регулярная двигательная активность способствует укреплению физического здоровья и одновременно оказывает положительное влияние на эмоциональное состояние, стрессоустойчивость и самочувствие студентов. В связи с этим занятия физической культурой целесообразно рассматривать не только как средство физического развития, но и как важный компонент комплексного формирования саногенной культуры личности.

Педагогические условия развития саногенной компетентности. Для эффективного формирования саногенной компетентности необходимо создание целостной образовательной среды. Первым условием является формирование позитивного отношения студентов к здоровью и здоровому образу жизни. Вторым условием выступает включение саногенной проблематики в содержание учебных дисциплин и воспитательной работы. Третьим условием является использование активных методов обучения, обеспечивающих практическое освоение навыков саморегуляции и здоровьесберегающего поведения.

Не менее важным условием является педагогическая поддержка. Преподаватель должен создавать психологически безопасную атмосферу, в которой студент может свободно выражать своё мнение, обсуждать трудности и анализировать собственный опыт. При этом недопустимы чрезмерное давление, критика личности и формальное требование соблюдения

здорового образа жизни. Педагогическая деятельность должна основываться на сотрудничестве, уважении и стимулировании самостоятельности студента.

Эффективность процесса может быть повышена посредством индивидуальных образовательных маршрутов. Каждый студент имеет собственный уровень знаний, мотивации, физической активности и эмоциональной саморегуляции. Поэтому задания должны предусматривать возможность выбора и индивидуализации.

Критерии сформированности саногенной компетентности. Оценивание уровня развития саногенной компетентности может осуществляться по нескольким критериям. Когнитивный критерий характеризует уровень знаний студента о здоровье, стрессовых факторах и здоровьесберегающих технологиях. Мотивационный критерий отражает отношение к собственному здоровью и стремление вести здоровый образ жизни. Эмоционально-регулятивный критерий определяет способность управлять эмоциональными состояниями. Деятельностный критерий показывает способность применять полученные знания и навыки в практической деятельности. Рефлексивный критерий характеризует способность анализировать собственное состояние, поведение и результаты деятельности.

Таким образом, высокий уровень саногенной компетентности проявляется в осознанном отношении к здоровью, устойчивой мотивации к здоровьесберегающему поведению, способности конструктивно реагировать на стрессовые ситуации, владении способами эмоциональной саморегуляции и готовности к постоянному саморазвитию.

Заключение. Развитие саногенной компетентности студентов является одним из перспективных направлений совершенствования современного высшего образования. Данная компетентность обеспечивает интеграцию знаний о здоровье, ценностного отношения к нему, практических навыков саморегуляции, здоровьесберегающего поведения и способности к рефлексии. Методологическую основу её развития составляют системный, компетентностный, личностно ориентированный, деятельностный, аксиологический и здоровьесберегающий подходы.

Дидактическая эффективность данного процесса обеспечивается использованием интерактивных, проблемных, тренинговых и рефлексивных технологий, сочетанием теоретической подготовки с практической деятельностью, индивидуализацией обучения и созданием психологически безопасной образовательной среды. Особое значение имеет интеграция интеллектуального, эмоционального, физического и социального компонентов развития личности.

Следовательно, саногенная компетентность может рассматриваться как важная составляющая профессиональной компетентности будущего специалиста. Её целенаправленное развитие в системе высшего образования создаёт предпосылки для формирования здоровой, психологически устойчивой, социально активной и ответственной личности, способной эффективно осуществлять профессиональную деятельность и сохранять собственное физическое и психическое благополучие.

Использованная литература:

1. Ананьев Б.Г. Человек как предмет познания. – Санкт-Петербург: Питер, 2001.
2. Асмолов А.Г. Психология личности: культурно-историческое понимание развития человека. – Москва: Смысл, 2007.
3. Братусь Б.С. Аномалии личности. – Москва: Мысль, 1988.
4. Выготский Л.С. Психология развития человека. – Москва: Смысл, Эксмо, 2005.
5. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – Москва: Смысл, Академия, 2005.
6. Митина Л.М. Психология профессионального развития учителя. – Москва: Флинта, 1998.
7. Реан А.А. Психология личности. Социализация, поведение, общение. – Санкт-Петербург: Прайм-Еврознак, 2004.
8. Слободчиков В.И., Исаев Е.И. Психология развития человека. – Москва: Школьная пресса, 2000.
9. Хуторской А.В. Компетентностный подход в обучении: научно-методическое пособие. – Москва: Эйдос, 2013.
10. World Health Organization. Constitution of the World Health Organization. – Geneva: WHO, 2020.
11. World Health Organization. Health Promotion: Glossary of Terms. – Geneva: World Health Organization, 2021.
12. World Health Organization. WHO Guidelines on Physical Activity and Sedentary Behaviour. – Geneva: World Health Organization, 2020.

Muallif:
Kurbanov Elyor Ermamatovich – GulDU, Sport faoliyati fakulteti “Sport turlarini o‘qitish uslubiyati” kafedrasi v.b dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

UDK 372.815.99

SPECIFIC FEATURES OF TEACHING THE “TARBIYA (EDUCATION)” SUBJECT IN THE 8TH GRADE OF GENERAL SECONDARY SCHOOLS

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARI 8-SINFIDA “TARBIYA” FANINI O‘QITISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

ОСОБЕННОСТИ ПРЕПОДАВАНИЯ ПРЕДМЕТА «ВОСПИТАНИЕ» В 8-Х КЛАССАХ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ

Djumanov Jahongir Abdivaliyevich
Guliston davlat universiteti. 120100, Guliston shahri, 4-mavze
E-mail: jumanovj755@gmail.com

Abstract. This article examines the specific features of teaching the subject "Education (Tarbiya)" in the 8th grade of general secondary schools. It analyzes the age-related and psychological characteristics of students, the objectives of the subject, and the methodological foundations for integrating the scientific and spiritual heritage of Central Asian scholars into the educational process. Based on the educational ideas of Beruni, Al-Farabi, Imam al-Bukhari, Mahmudhoja Behbudiy, and Fitrat, the article highlights opportunities for developing students' respect for national values, critical thinking, moral maturity, civic responsibility, and social

activity. Furthermore, methodological recommendations and practical approaches aimed at enriching the content of the "Tarbiya" subject and improving teaching effectiveness are presented.

Keywords: Tarbiya subject, 8th grade, general secondary education, Central Asian scholars, teaching methodology, moral education, national values, critical thinking, pedagogy, integration.

Annotatsiya. Mazkur maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinfida "Tarbiya" fanini o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Unda 8-sinf o‘quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlari, tarbiya fanining maqsad va vazifalari hamda O‘rta Osiyo allomalari ilmiy-ma’naviy merosini dars jarayoniga integratsiya qilishning metodik asoslari tahlil qilingan. Beruniy, Forobiy, Imom Buxoriy, Mahmudxo‘ja Behbudiy va Fitratning tarbiyaviy qarashlari asosida o‘quvchilarda milliy qadriyatlarga hurmat, tanqidiy fikrlash, ma’naviy yetuklik, fuqarolik mas’uliyati va ijtimoiy faollikni shakllantirish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, "Tarbiya" fani mazmunini boyitishga xizmat qiluvchi metodik tavsiyalar hamda amaliy yondashuvlar taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: Tarbiya fani, 8-sinf, umumiy o‘rta ta’lim, O‘rta Osiyo allomalari, metodika, ma’naviy tarbiya, milliy qadriyatlar, tanqidiy fikrlash, pedagogika, integratsiya.

Аннотация. В данной статье рассмотрены особенности преподавания предмета «Воспитание» в 8-х классах общеобразовательных школ. Проанализированы возрастные и психологические особенности учащихся, цели и задачи предмета, а также методические основы интеграции научно-духовного наследия мыслителей Центральной Азии в образовательный процесс. На основе педагогических взглядов Беруни, Фараби, Имама Бухари, Махмудходжи Бехбуди и Фитрата раскрываются возможности формирования у школьников уважения к национальным ценностям, критического мышления, духовной зрелости, гражданской ответственности и социальной активности. Предложены методические рекомендации по совершенствованию содержания предмета «Воспитание» и повышению эффективности учебного процесса.

Ключевые слова: предмет «Воспитание», 8 класс, общее среднее образование, мыслители Центральной Азии, методика обучения, духовно-нравственное воспитание, национальные ценности, критическое мышление, педагогика, интеграция.

Kirish. Bugungi globallashuv va axborotlashgan jamiyat sharoitida yosh avlodni ma’naviy barkamol, mustaqil fikrlaydigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq shaxs sifatida tarbiyalash ta’lim tizimi oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biridir. Ayniqsa, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitilayotgan “Tarbiya” fani mazmuni va metodikasini takomillashtirish masalasi pedagogika fanining ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Mazkur jarayonda O‘rta Osiyo allomalari ilmiy-ma’naviy merosidan samarali foydalanish “Tarbiya” fanining g‘oyaviy asoslarini boyitish, o‘quvchilarda tarixiy xotira, milliy o‘zlikni anglash, ma’naviy immunitetni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki Beruniy, Farobiy, Imom Buxoriy, Alisher Navoiy, Bobur, Behbudiy, Fitrat kabi mutafakkirlar tomonidan ilgari surilgan tarbiyaviy qarashlar bugungi zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg‘unlashadi.

Tadqiqot ob’ekti va qo’llanilgan metodlar

Mazkur maqolada 8-sinf “Tarbiya” fanida o‘rta osiyolik allomalarning qarashlariga tayangan holda ta’lim jarayonini tashkil etish metodikasi, dars mazmuniga integratsiya qilish yo‘llari va metodik tavsiyalar ilmiy-nazariy jihatdan yoritiladi. 8-sinf o‘quvchilari o‘smirlik davrining faol bosqichida bo‘lib, ularning dunyoqarashi, hayotiy pozitsiyasi, axloqiy me’yorlarga munosabati shakllanib boradi. Ushbu yosh davrida quyidagi tarbiyaviy yo‘nalishlar ustuvor hisoblanadi: *shaxsiy mas’uliyat va ijtimoiy faollik; o‘z-o‘zini anglash va o‘zini baholash; axloqiy tanlov va xulqiy pozitsiya; milliy qadriyatlarga munosabat; muloqot madaniyati va jamoada yashash ko‘nikmalari.*

8-sinf “Tarbiya” fanida o‘tiladigan “Iftixorimsan – jannatmakon O‘zbekiston!”, “Millatlararo hamjihatlik”, “Har bir farzand – Vatan himoyachisi”, “Hayotda o‘z istaklarimizni anglash”, “Qat’iy fe’l-atvorning muhimligi”, “Qiyin vaziyatda hissiyotlarni boshqarish”, “Hayot – betakror ne’mat”, “Tushkunlik va bezovtalikni boshqarish”, “Mashaqqatlarni yengib o‘tish”, “Tanqid va tanqidiy fikrlashning muhimligi”, “Umumlashtiruvchi dars”, “Tanqid va tanqidiy fikrlashning muhimligi”, “Fan-texnika taraqqiyoti va inson ma’naviyati”, “Ilm va zakovat”, “Til bilgan – dunyo ko‘radi”, "Vaqt – bebaho ne’mat”, “Amaliy mashg‘ulot. Imkonsizlikni yengish va uning zamonaviy yechimlari”, “Go‘zal tarbiya tamoyillari”, “Tabiat va inson”, “Tejamkorlik – yaxshi fazilat”, “Xotira – buyuk qadriyat” kabi mavzularda o‘rta osiyolik allomalar qarashlariga murojaat qilish o‘rinli bo‘ladi, nazarimizda.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Beruniy ilm, tafakkur va axloq birligini ta’kidlagan mutafakkir sifatida yosh avlod tarbiyasida ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga alohida e’tibor qaratgan. Uning qarashlari “Ilm va zakovat”, “Fan-texnika taraqqiyoti va inson ma’naviyati”, “Hayot – betakror ne’mat” kabi mavzularni o‘qitishda muhim manba bo‘la oladi. Beruniy ilm va inson mas’uliyati haqidagi shunday deydi: *“Goho ma’lum bir xalqning ayrim so‘zlari o‘z tili bilan o‘zgara borganini ko‘ramiz; natijada, o‘sha tilda faqatgina oz kishi fahmlaydigan birmuncha begona so‘zlar paydo bo‘ladi. Bu o‘zgarish ozgina yillar ichida va buni taqozo etadigan narsa u xalqda yuz bermay paydo bo‘ladi. Odamlar bilmagan narsalariga dushmanlik ko‘zi bilan qaraydilar”*[1].

Mazkur fikr tahlili shuni ko‘rsatadiki, til faqat bilim olish vositasi emas, balki shaxsning axloqiy yetukligini belgilovchi omildir. 8-sinf o‘quvchilariga bu g‘oya hayotiy misollar orqali tushuntirilsa, ularda ilm, til o‘rganishga nisbatan mas’uliyatli munosabat shakllanadi.

Bundan tashqari xuddi shu holatni Farobiy haqida ham aytish mumkin. U jamiyat taraqqiyotini komil inson tarbiyasi bilan bog‘lagan. Uning qarashlari “Millatlararo hamjihatlik”, “Go‘zal tarbiya tamoyillari”, “Har bir farzand – Vatan himoyachisi” mavzularini o‘qitishda ayniqsa dolzarbdir. Farobiy o‘zining “Fozil odamlar shahri” asarida jamiyat va shaxs munosabati haqidagi quyidagilarni ilgari suradi: *“Hakimning uch quroli bor: so‘z, giyoh va tig‘. Yolg‘izlik halokatga olib keladi. Zero, inson o‘ziga kerakli narsalarni faqat jamiyat yordamida qo‘lga kiritishi mumkin. Chala bilim egasi bo‘lishdan ko‘ra, bilimsizlik afzalroqdir.*

Ruh – shamchiroqqa, bilim – ana shu shamchiroqdan taralayotgan yog‘duga, Allohning zakosi – moyga o‘xshaydi. Shamchiroq yonishdan to‘xtamas ekan – sen tiriksan. Agar u o‘chsa – sen halok bo‘lasan”[1]. Bu fikrlarni tahlil qilish orqali o‘quvchilarga jamiyatda yashash madaniyati, bag‘rikenglik va ijtimoiy mas’uliyat tushunchalari singdiriladi.

Imom Buxoriy axloqiy poklik, halollik, sabr va insoniy munosabatlarga oid g‘oyalarni ilgari surgan. Bu qarashlar “Qat’iy fe’l-atvorning muhimligi”, “Qiyin vaziyatda hissiyotlarni boshqarish”, “Tushkunlik va bezovtalikni boshqarish” mavzularida samarali

qo‘llanilishi mumkin. Imom Buxoriyning “Sahihi Buxoriy” kitobining 35-bobida “Ilm qanday yo‘qoladi? (kishilar dilidan ilmning ko‘tarilib ketishi to‘g‘risida)” nomli qism mavjud. Unda shunday deyiladi: *“Abdulloh ibn Amr ibn al-Os rivoyat qiladi: «Rasulullоh sollallohu alayhi va sallamning “Alloh taolo ilmni bandalardan tortib olmaydi, uni ulamolarni vafot topdirish bilan tortib oladi. Odamlar birorta ham ulamo qolmaganidan so‘ng dinni tushunmaydiganlarni o‘zlariga boshliq qilib oladilar. So‘ng, ulardan so‘raydilar. Ular bilmasdan fatvo aytadilar. O’zlari ham adashadilar, o‘zgalarni ham adashtiradilar» deganlarini eshitganman», – deb aytgan”[2].* Mazkur fikr 8-sinf o‘quvchilarida o‘zini tuta bilish, hissiyotlarni boshqarish, irodani mustahkamlash fazilatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ayniqsa, jadidlarimiz milliy tarbiya masalasiga katta e’tibor qaratib kelishgan. Xususan, bu harakatning Markaziy Osiyodagi yetakchilaridan biri Mahmudxo‘ja Behbudiy qarashlari yosh avlod tarbiyasida katta burilish yasashi tabiiy, albatta. Behbudiy tarbiyani millat kelajagi bilan bog‘lagan ma’rifatparvar sifatida tanilgan. Uning qarashlari “Iftixorimsan – jannatmakon O‘zbekiston!”, “Vatan himoyasi”, “Xotira – buyuk qadriyat” mavzularida muhim ahamiyatga ega. Behbudiyning tarbiya haqidagi fikrlari o‘quvchilarda tarixiy xotira va vatanparvarlik tuyg‘ularini mustahkamlashga xizmat qiladi. Xususan, jadid shunday deydi: *“Biz turkistoniylarg‘a turkiy, forsiy, arabiy va rusiy bilmoq lozimdur. Turkiy, ya’ni o‘zbekini sababi shulki, Turkiston xalqining aksari o‘zbakiy so‘ylashur. Forsiy bo‘lsa, madrasa za udabo tilidur. Bukungacha Turkistonni har tarafindagi eski va yangi maktablarin-da forsiy nazm va nasr kitoblari ta’lim berilib kelgandur”[3].*

Mazkur parcha jadid ma’rifatparvarlari qarashlariga xos bo‘lib, unda tilning tarbiya, ma’rifat va jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni ilmiy asosda yoritilgan. Muallif Turkiston xalqi uchun bir nechta tilni bilish zarurligini ta’kidlar ekan, bu ehtiyojni ijtimoiy-madaniy muhit, ta’lim tizimi va davr talablari bilan bog‘laydi. Avvalo, turkiy (o‘zbek) tilining ustuvorligi asoslanadi. Chunki u Turkiston aholisining asosiy muloqot tili bo‘lib, xalqning kundalik hayoti, urf-odati va milliy tafakkuri aynan shu til orqali namoyon bo‘ladi. Demak, ona tilini bilish shaxsning milliy o‘zligini anglashida muhim tarbiyaviy omildir.

Fors tilining ahamiyati esa tarixiy-ta’limiy omillar bilan izohlanadi. Forsiy til uzoq asrlar davomida madrasa va adabiyot tili bo‘lib kelgan, ilmiy, badiiy va axloqiy asarlarning katta qismi shu tilda yaratilgan. Bu holat yosh avlodni ma’naviy meros bilan tanishtirishda fors tilini bilish zarur ekanini ko‘rsatadi. Arab tilining bilimi esa diniy-ilmiy manbalarni o‘rganish, Qur’on va hadis ilmlarini anglash bilan bog‘liq bo‘lib, axloqiy tarbiyaning muhim manbai hisoblanadi. Rus tilining tilga olinishi esa zamonaviy ilm-fan, texnika va dunyoviy bilimlarga yo‘l ochuvchi vosita sifatida baholanadi.

Bu fikrlar 8-sinf “Tarbiya” fanini O‘rta Osiyo allomalari ilmiy merosi asosida o‘qitish metodikasi bilan chambarchas bog‘liq. Chunki 8-sinf o‘quvchilarida dunyoqarash kengayadi, turli madaniyat va tillarga nisbatan ongli munosabat shakllanadi. Ushbu matn orqali o‘quvchilarga ko‘p tillilikning tarbiyaviy ahamiyati, bag‘rikenglik, ilmga intilish va ma’naviy kamolot g‘oyalari singdiriladi. Natijada Tarbiya fani nafaqat axloqiy saboq, balki tarixiy-ma’rifiy tafakkurni rivojlantiruvchi fan sifatida namoyon bo‘ladi.

Fitrat yoshlarni mustaqil va tanqidiy fikrlashga chorlagan. Uning qarashlari “Tanqid va tanqidiy fikrlashning muhimligi”, “Hayotda o‘z istaklarimizni anglash” mavzularida muhim metodik asos bo‘la oladi.

“Odamlarning madaniy toifa ekanliklari, Ya’ni tabiat hukmi ila bir qabila yoki bir qavm suvratida jam bo‘lib bir-birlariga yordam berib yashashlari ma’lum. Kimki ana shu tabiat qonunining doirasidan chiqsa, ya’ni jamiyatdan chetlashsa, shubhasiz, mahv va nobud bo‘lg‘ay. Tarixchi olimlarning fikriga qaraganda, odamlar xalq bo‘lishlaridan oldin jamoa bo‘lib yashash zarur ekanligini bilmaganlar. Binobarin, vahshiy hayvonlarga o‘xshab yolg‘iz, yakka-yakka bo‘lib yashaganlar. Shu bois ular tabiiy mushkulotlar ostida azob chekib, hayvonlar hujumlaridan halok bo‘lganlar. Vaqt o‘tishi bilan odamlar jamoa bo‘lib yashash lozimligini tushundilar.

Bu muqaddimadan ma’no shuki, oilaning shakllanishi, ya’ni ahli bayt jamoasi, boshqacha aytganda onla boshqarishga asos solish bani Odam madaniyatining asosi ekan”[4].

Keltirilgan matnda insonning ijtimoiy–madaniy mavjudot ekanligi asoslab beriladi. Ya’ni odam tabiatan yolg‘iz yashashga emas, balki jamiyat, jamoa va eng avvalo oila doirasida hayot kechirishga moyil qilib yaratilgan. Bu g‘oya Sharq mutafakkirlari, xususan, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Imom G‘azzoliy kabi O‘rta Osiyo allomalari ilmiy merosida ham markaziy o‘rin egallaydi. Forobiy “Fozil odamlar shahri” asarida insonning kamoloti faqat jamoa ichida, o‘zaro yordam va hamkorlik orqali yuzaga chiqishini ta’kidlaydi. Demak, jamiyatdan chetlashgan shaxs na ma’naviy, na jismoniy barkamollikka erisha oladi.

Mazkur fikrlar 8-sinf “Tarbiya” fanining mazmuni bilan bevosita bog‘liq. Chunki 8-sinf o‘quvchilari o‘zligini anglash, jamiyatdagi o‘rnini tushunish, mas’uliyat, burch va hamjihatlik kabi tushunchalarni ongli ravishda qabul qila boshlaydigan yosh davrida bo‘ladilar. Tarbiya fanini O‘rta Osiyo allomalari ilmiy merosi asosida o‘qitish o‘quvchilarda tarixiy xotira, milliy qadriyatlarga hurmat va ijtimoiy faollikni shakllantirishga xizmat qiladi.

Matnda ta’kidlanganidek, insoniyat dastlab jamoa bo‘lib yashash zaruratini anglamagan, buning oqibatida ko‘plab talafotlarga uchragan. Bu tarixiy tajriba o‘quvchilarga jamiyat qonunlariga amal qilish, oila va jamoaning ahamiyatini tushuntirishda muhim metodik vosita bo‘la oladi. Ayniqsa, “oila – jamiyatning tayanchi” degan g‘oya orqali 8-sinf o‘quvchilarida oilaviy mas’uliyat, ota-onaga hurmat, o‘zaro yordam kabi fazilatlar shakllantiriladi.

Shu bois, Tarbiya fanini O‘rta Osiyo allomalari qarashlari bilan boyitib o‘qitish metodikasini takomillashtirish 8-sinf o‘quvchilarini barkamol, ijtimoiy mas’uliyatli va ma’naviy yetuk shaxs etib tarbiyalashda muhim ilmiy-pedagogik ahamiyatga ega.

Xulosa. 8-sinf “Tarbiya” fanini o‘rta osiyolik allomalar ilmiy-ma’naviy merosi asosida o‘qitish ta’lim jarayonini mazmunan boyitadi, o‘quvchilarda mustahkam axloqiy pozitsiya va milliy o‘zlikni anglash tuyg‘ularini shakllantiradi. Ushbu metodik yondashuv yosh avlodni zamonaviy bilimlar bilan qurollangan, lekin milliy qadriyatlarga sodiq shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abu Rayhon Beruniy. O‘ylar, hikmatlar, naqllar, she’rlar. – Toshkent: 1973. “Yosh gvardiyai” nashriyoti. 22-bet.
2. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Al-jomi’ as-sahih. (1-jild). Arabchadan Zokirjon Ismoil tarjimasi. – Toshkent: 1991. Qomuslar. 26-bet.
3. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat. 1999. 150-bet.
4. Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila bosharish tartiblari. – Toshkent: Ma’naviyat. 2000. 7-bet.

Muallif:
Djumanov Jahongir Abdivaliyevich - Guliston davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi.

**** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ****
**** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2026. № 2 ****

Filologiya

UDK:821.512.133-1

RHYME SYMBOLS IN THE POETRY OF MUHAMMAD ISMAIL

MUHAMMAD ISMOIL SHE'RIYATIDA QOFIYANING IFODALOVCHILARI

СИМВОЛЫ РИФМЫ В ПОЭЗИИ МУХАММАДА ИСМАИЛА

Turdikulova Kumushoy Mahmudovna
Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze.
E-mail:@sirdaryoguliston

Abstract. This article examines the expressive means of rhyme in the poetry of Muhammad Ismail. Elements that form rhyme play a particularly important role in poetic works. The paper analyzes the structure of rhymes in the poet's poems. Rhymed lines from the author's works serve as illustrative material for the article. This article is devoted to revealing the linguapoetic nature of the linguistic means that form and express rhyme in the poetry of the renowned poet Muhammad Ismail. The study substantiates that rhyme is not simply assonance, but a psycholinguistic and linguacultural phenomenon closely linked to the lyrical experiences and inner world of the author. Using Muhammad Ismail's poems "Tobora gurillab yonmoqda olov" ("The Flame Grows Ever Stronger") and "E'lon" ("Announcement") as examples, the paper analyzes in detail the functional purposes of repetition at the phonetic level – the phenomena of alliteration, assonance, and gemination. In particular, the role of lexeme repetition and the harmony of certain vowels and consonants in literary texts in uniting the psychology of the lyrical hero, poetic rhythm, and content into a single aesthetic center, as well as their specificity when used in conjunction with the technique of antithesis, is scientifically substantiated.

Keywords: language, poem, line, phonetic level, rhyme expressors, Muhammad Ismail, alliteration, assonance, lexical repetition, linguapoetics, antithesis, aesthetic center, musicality.

Annotatsiya. Maqolada shoir Muhammad Ismoil she'riyatida qofiyaning ifodalovchilari haqida fikr yuritiladi. She'riy asarlarda ayniqsa qofiyaning ifodalovchilari alohida ahamiyatga ega bo'lgan hodisa hisoblanadi. Maqolada Muhammad Ismoil she'rlaridagi qofiyalarning tuzilishi tahlil etiladi. Shoirning asarlaridagi qofiyalashgan misralar maqolaning illyustrativ materiali sifatida xizmat qiladi. Ushbu maqolada taniqli shoir Muhammad Ismoil she'riyatida qofiya hosil qiluvchi va uni ifodalovchi lisoniy vositalarning lingvopoetik tabiatini yoritishga bag'ishlangan. Tadqiqotda qofiya shunchaki ohangdoshlik emas, balki shoir lirik kechinmasi hamda ichki kechinmalari bilan bog'liq psixolingvistik va lingvokulturologik hodisa ekanligi asoslab berilgan. Ishda Muhammad Ismoilning "Tobora gurillab yonmoqda olov" va "E'lon" she'rlari misolida fonetik sathdagi takrorlar – alliteratsiya, assonans va geminatsiya hodisalarining funksional vazifalari atroflicha tahlil qilingan. Xususan, badiiy matnda leksemalar takrori hamda muayyan unli va undosh fonemalar uyg'unligining lirik qahramon ruhiyatini, she'riy ohang va mazmunni yagona estetik markazda birlashtirishdagi, shuningdek, tazod (antiteza) usuli bilan birga qo'llanishidagi o'rni ilmiy jihatdan xulosalangan.

Tayanch so'zlar: til, sh'er, misra, fonetik sath, qofiya ifodalovchilari, Muhammad Ismoil, alliteratsiya, assonans, leksik takror, lingvopoetika, tazod, estetik markaz, ohangdorlik.

Аннотация. В статье рассматриваются выразительные средства рифмы в поэзии Мухаммада Исмаила. В поэтических произведениях особенно важную роль играют элементы, формирующие рифму. В работе анализируется структура рифм в стихотворениях поэта. Рифмованные строки из произведений автора служат иллюстративным материалом статьи. Данная статья посвящена раскрытию лингвопоэтической природы языковых средств, формирующих и выражающих рифму в поэзии известного поэта Мухаммада Исмаила. В исследовании обосновано, что рифма является не просто созвучием, а психолингвистическим и лингвокультурологическим явлением, тесно связанным с лирическими переживаниями и внутренним миром автора. В работе на примере стихотворений Мухаммада Исмаила «Tobora gurillab yonmoqda olov» («Все сильнее разгорается пламя») и «E'lon» («Объявление») подробно анализируются функциональные задачи повторов на фонетическом уровне – явлений аллитерации, ассонанса и геминации. В частности, научно обоснована роль повтора лексем и гармонии определенных гласных и согласных фонем в художественном тексте в объединении психологии лирического героя, поэтического ритма и содержания в единый эстетический центр, а также их специфика при совместном использовании с приемом антитезы.

Ключевые слова: язык, стихотворение, строка, фонетический уровень, выразители рифмы, Мухаммад Исмаил, аллитерация, ассонанс, лексический повтор, лингвопоэтика, антитеза, эстетический центр, музыкальность.

Kirish. Mumtoz yoki zamonaviy she'riy vaznlarni lingvopoetik talqin qilishda qofiyaning yuzaga kelish sabab va oqibatlari, psixolingvistik jarayonning bir uzvi ekanligini inobatga olish zarur. Negaki, psixolingvistik tafakkur sarhadlari shoir lirik kechinmasi bilan uzviy tutashgan, fonetik, leksik, sintaktik aloqaga kirishgan bo'ladi. Shu asosda, qofiya ham adabiy til me'yorlari, ba'zan shevalar, dialektizmlar bilan ifodalanib, janrning o'zi shakl yaratuvchi hodisa ekanligi ayonlashadi. Muhammad Ismoil she'rlarida analitik tafakkur qilishga undovchi talay jihatlar mavjud. Qofiyaning erkin shartli harakati, didaktik tamoyil sarchashmalaridan oziqlanishi lingvokulturologik tamoyil bilan ham mutanosib bo'lishi kuzatiladi. Demak, qofiya mustaqil eksperiment yo'nalish emas, uni shoir taxayyuli va ongosti hissiyotlarining xuddi shaloladek otilib chiqish assosatsiyasi bilan bog'liq jarayondir. Mana shu maqsadda shoir o'z kechinmalarini mudom yangilab borishga o'zida kuch topishi zarur. Ijoddagi mavzular va tasvirlarda bir xillikdan voz kechish, rangin ifoda va mavzular ustida ishlash yangi-yangi ufqlarning yuzaga chiqishiga zamin yaratadi.

Qayd etish lozimki, tilshunos olimlarning ko'pchiligi tasniflarning quyidagi turlarida takror darajasining aks etishini e'tirof qilishadi: fonetik sathda fonema/tovush; morfemik sathda morfema; leksik sathda leksema; sintaktik sathda sintaktik birlik.

Tovushlarning takrorida muayyan nutq birligi, kontekst doirasida takrorlanib kelayotgan tovush yoki tovushlarga asoslanadi. Bunda takrorlanuvchi elementlarning o'zaro yaqinligi, zich joylashganligi muhim rol o'ynaydi [1, 73]. She'riy nutqda qofiyaning

yuzaga chiqishida yuqoridagi til sathlari muhim o‘rin egallaydi. Biz mazkur faslda fonema (tovush) bilan bog‘liq takrorlar va ularning lingvopoetik imkoniyatlari xususida to‘xtalib o‘tamiz.

Tadqiqot ob’ekti va qo’llanilgan metodlar

Tadqiqotning ob’ekti sifatida iste’dodli ijodkor Muhammad Ismoilning turli yillarda nashr etilgan she’riy to‘plamlari, xususan, shoirning lirik kechinmalari aks etgan rang-barang mavzudagi she’riy namunalari, jumladan, “Tobora gurillab yonmoqda olov” va “E’lon” kabi asarlari olingan. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash, qiyosiy-kontekstual, lisoniy-estetik, statistik hamda lingvopoetik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Alliteratsiya hodisasi. Fransuz xalqining buyuk shoiri Lui Aragon bu haqda shunday yozadi: “Qofiyadan bezish uni huda-behuda, me’yoridan ortiq darajada qo‘llayverish, sof gimnastika mashqlariga aylantirib yuborish oqibatida yuzaga keldi. Aslida qofiyaning siyqasi chiqqani yo‘q, balki qofiyalanmagan, she’riy misralar oxirida sof, jarangdor tovush taratadigan so‘z qolmadi, deganlarning yuragining siyqasi chiqqan, xolos” [2, 9]. Kuzatuvimizdagi shoir ijodida “siyqasi chiqqan qofiya”ni uchratish mushkul, Muhammad Ismoil ijodida she’r ruhiyatidan kelib chiqqan qofiyalarning san’at darajasidagi ifodasiga guvoh bo‘lish mumkin. Chunki Muhammad Ismoil “qofiya ichida qofiya” yarata oladigan nozikta’b shoirdir. Shunday holatlar bo‘ladiki, she’rning vazni sarbast yoki oq she’r bo‘lishi mumkin. Bunday paytda qofiya emas, qofiyani yangilaydigan mazmun atributi yetakchilik qiladi. “*Alliteratsiya* (lot. -ga, da; littera harf) she’riy nutqda, qisman nasriy asarlarda bir xil tovushlar takroriga asoslangan fonetik-stilistik usul. Alliteratsiya unli yoki undosh tovushlar ishtirokida hosil bo‘lganligiga qarab ikki turga ajratiladi: vokal alliteratsiya unli tovushlar hamohangligi natijasida yuzaga keladi; konsonant alliteratsiya undosh tovushlar uyg‘unligi asosida hosil bo‘ladi. Qadimgi turkiy adabiyotda alliteratsiya yetakchi tasvir usullaridan biri bo‘lgan” [2, 9]. Bu haqda Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida qadimgi yozma yodgorliklarning yozilish tarixi xususida ham qimmatli manbalar keltiriladi. Jumladan, nemis, shved, qirg‘iz, qozoq she’riyatida alliteratsiya tayanch unsurlardan biri sanaladi. U hozirgi o‘zbek she’riyatida ham tasvir vositalaridan biri sifatida keng qo‘llanadi. “Badiiy matnni tahlil qilish jarayonida fonetik birliklarning estetik xususiyatlariga ham alohida e’tiborni qaratish zarur**.** She’riy matnda nutq tovushlarining estetik imkoniyatlari tez va qulay idrok etiladi**.** Chunki she’rda o‘ziga xos jozibador ohang bo‘ladi**.** Bu ohangdorlikka tovushlarni uslubiy qo‘llash natijasida erishiladi**.** She’riyatda asosan *alliteratsiya* **(**undoshlar takrori**),** assonans **(**unlilar takrori**),** geminatsiya **(**undoshlarni qavatlash**)** kabi fonetik usullardan foydalaniladi**.** Nasrda unlilarni cho‘zish**,** undoshlarni qavatlash**,** tovushlarni takrorlash**,** so‘zlarni noto‘g‘ri talaffuz qilish**,** tovush orttirish yoki tovush tushirish kabi fonetik usullar yordamida ekspressivlik ta’minlanadi**.** Tovushlarni uslubiy qo‘llash bilan bog‘liq qonuniyatlarni yozuvda **“**aynan**”** ifodalash imkoniyati cheklangan**.** Biroq talaffuz va bayon muvofiqligiga ***fonografik vositalar*** yordamida erishish mumkin” [4, 57], – deya yozadi prof. M.Yo‘ldoshev.

Muhammad Ismoilning “Tobora gurillab yonmoqda olov” she’rida bir xil tovushlar takroriga asoslangan unli yoki undosh tovushlar takrori qofiyaning juda go‘zal tarzda mutanosibligini ta’minlashga xizmat qilgan:

Tobora gurillab yonmoqda olov,
Tobora kattaroq, tobora kengroq.
Tobora o‘zimga bilmasman ayov,
Tobora kattarar ko‘ksimda ingroq.

Tobora poyingga boryapman cho‘kib,
Tobora adashib, tobora sarmast.
Tobora sen menga azizroq bo‘lib,
O‘zimdan tonmoqqa qilmoqdaman qasd [3, 173].

She’rdagi *tobora* leksemasi qofiyaning jozibador tartiblanishida muhim rol o‘ynagan. Unda yorning poyiga cho‘kib, ham adashib, ham sarmast bo‘lib borishi bir tomondan tasvir etilsa, ikkinchi jihatdan she’rdagi antiteza ***husni****ga telbaligi* ham o‘zgacha ruh bag‘ishlay olgan. Insonning unutishi va hijroni qanchalik ***tog‘dek*** bo‘lsa, sog‘inchning, yorning ma’shuqaga tuyg‘ularining ***yonishi*** antiteza usuli bilan alliteratsiya hodisasini keltirib chiqarmoqda. ***Kattaroq*** qiyosiy darajadagi sifat bo‘lib, muhabbatning pokiza ranglaridan, yorug‘lik va umiddan shahodat beradi. Tilda zid ma’noli so‘zlarning qo‘llanishi badiiy nutqning ifodaliligi, ekspressivligi, ta’sirchanligini ta’minlashda qulay vositalardan biridir. Sharq adabiyotda juda qadim zamonlardan buyon tildagi bu ifoda imkoniyatidan keng foydalanib kelingan [5, 34]. Muhammad Ismoilning she’rida yorga kuchli muhabbat shoir nutqida ingroq va sarmast rang nomlarini tazod (antiteza) usulida qo‘llaganligi ko‘rinsa, boshqa tomonda esa qiyosiy darajali sifatlarning qofiyadoshlikning yuzaga kelishida muhim ahamiyat kasb etgan. She’rning keyingi ikki bandida ham xuddi shunday tasvir usuli poetik matn uzviyligini ta’minlashga qaratiladi:

Tobora husningga telbaman-telba,
Tobora boshimga urmoqda qismat.
Tog‘day rohatimni sovurdim yelga,
O‘rniga topmadim xascha halovat.

Tuyg‘ular yonmoqda, idrok yonmoqda,
Yonmoqda shiddatli, tobora asov.
Bir jonsarak nafas sarson tonmoqda,
Tobora gurillab yonmoqda olov [3, 173].

Ushbu she’rda alliteratsiya hodisasi so‘zlar orqali ham o‘z ifodasini topganligi kuzatiladi. She’rda **tobora** so‘zi 11 marta, **yonmoqda** so‘zi 3 marta, **olov** so‘zi 2 marta, **gurillab** so‘zi 2 marta takrorlangan. Shuningdek, “fonetik takrorlar xalq og‘zaki ijodi va o‘zbek mumtoz she’riyatida ham asosiy tasviriy vosita bo‘lib xizmat qilgan. Bunga sabab folklor asarining, shuningdek, umumiy she’riy nutqning, jumladan, mumtoz she’riyatning og‘zaki ijroga mo‘ljallanganligidadir. Mana shu xususiyat poetik fonetika birliklarining

yuzaga chiqishiga asos bo‘ladi. Ushbu holat she’riy nutqda tovushlarning mazmun va uslub talabiga ko‘ra xilma-xil shakliy, talaffuz o‘zgarishiga uchrashida namoyon bo‘ladi. Bu o‘zgarish she’riy nutqning ta’sirchanligi, jozibasi va lozim bo‘lgan ohangini ta’minlaydi” [6, 3]. Ko‘rinadiki, fonetik takror (tovush yoki sema)larning funksional vazifasi she’riy nutqda ham ohangni, ham mazmunni, ham qofiyani, ham shaklni, ham lirik qahramon ruhiyatini yagona estetik markazda ushlab turishda muhim omillardan biri ekanligi ayonlashadi. Shoir qaysi rakursda borliqqa yoki muhabbatga, vaziyatga, holatga mustaqil baho berar ekan, she’rdagi intonatsion tantanavorlik fonologik birliklar yig‘indisining mujmallashuviga chek qo‘yadi. Uning tabiatidagi barcha birliklar (leksik, semantik, stilistik) uzviy kontakt hosil qiladi. Yuqorida keltirib o‘tilgan “Tobora gurillab yonmoqda olov” she’rida ham qofiyaga mutanosib ohang, ham mazmunga uyg‘un ruhiy kechinma, ham yorning ishqi va atrofidagi o‘zgarishlarga munosabat yagona markazda uyushganlik hosil qiladi. Natijada *tuyg‘ularning yonishi, idrokning yonishi, bir jonsarak nafasning sarson qolishida* turli ranglar orasidagi hissiy bo‘yoqdorligi muhim bir masalani ilgari surayotgani seziladi. Demak, shoir o‘z-o‘zidan she’rga ekspressivlik va jozibadorlik bag‘ishlayotgani yo‘q. *Tobora husniga telba bo‘lishi* yonish va halovat kabi turli ranglardan hosil bo‘lgan tug‘yonlar kurashi shoir botinidagi og‘riqlarni, iztiroblarni, armonlarni ham estetik jihatdan baholab bormoqda. Shoir ko‘zi o‘ngida hamma narsa mavhum tuyulgani bilan, u tashqi olam poetik diskurs bilan yaxlit manzarani namoyon qilganligi fikrimiz yorqin dalilidir.

She’riy qofiyaning ohangdorligi, musiqiyligini ta’minlovchi fonetik vositalardan yana biri assonansdir. “Assonans (lot.fssonare – uyg‘un jaranglash; fr.assonanse - ohangdoshlik) – 1) she’riy nutqda (nasrda nisbatan kam) bir xil unlilar takroriga asoslangan ifodaviylikni kuchaytiruvchi vosita, takrorning fonetik sathdagi xususiy ko‘rinishi; she’rga xushohanglik baxsh etadi, musiqiylini kuchaytiradi. Masalan, Muhammad Yusufdan olingan quyidagi parchada “M” tovushining takrori U.ni yuzaga keltiradi:

Muhabbat sen chiroylisan,
Muhabbat sen go‘zalsan.
Kel biro z turaylik
Gapirmayman uyalsang.

2) rus adabiyotshunosligida, xususan, she’rshunosligida faqat urg‘uli unlilargina o‘zaro mos keluvchi och qofiya, ba’zan esa umuman och qofiya ma’nosida ham qo‘llaniladi” [7, 38].

Ma’lumki, assonanslarning mana shu shakli M.Ismoil, Sh.Rahmon, M.Yusuf kabi shoirlar ijodida ko‘plab uchraydi. Muhammad Ismoilning “E’lon” she’rida assonansning ***s*** va ***o*** tovushi takrori orqali misralarda musiqiylik, xushohanglik va qofiyaning ifoda imkoniyatlarining yuzaga chiqishida muhim vosita, omil bo‘lganini kuzatamiz:

*Diqqat, diqqat! **S**oling quloq,*
Sog‘ liq saqlash vazirligi
Ishq virusi shaharda keng
Bu kasallik qo‘shiqlarda
Ifor sochib, nish urmoqda
Nayza bo‘lib sanchilmoqda
Diqqat! Diqqat! Shoshiling,
Ogoh bo‘ling! Ishq virusi

***o**sing quloq.*
etar ogoh!
*tar**q**almoqda,*
*tar**a**lmoqda.*
***k**urtaklarda,*
***y**uraklarga.*
bong yangramoqda,
tarqalmoqda…[3, 154].

Mazkur she’riy misralardagi ***s**oling quloq, **o**sing quloq, **k**urtaklarda, **y**uraklarga, tar**q**almoqda, tar**a**lmoqda* kabi qofiyadoshlarda *s, o, k, y, t* fonemalarning ifodaviylikni kuchaytirishga qaratilgan mantiqiy urg‘u fonetik hodisa sifatida jozibadorlikni yuqori darajada ta’minlay olgan. ***Assonans*** – qofiyaning yuragidir. She’rda musiqiylik va ohangdorlik, jo‘shqinlik, tantanavorlikni ta’minlab kelgan.

Xulosa.

Shoir ijodida fonetik sath imkoniyatlari, xususan, alliteratsiya va assonans hodisalari yuqori badiiy mahorat bilan qo‘llangan. She’riy qofiya va ohangdoshlik tizimi shunchaki shakliy yoki musiqiy unsur bo‘lmay, u ijodkorning analitik tafakkuri, lirik kechinmalari hamda botiniy-ruhiy dunyosi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan murakkab psixolingvistik va lingvokulturologik hodisadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Асқарова Ш. Инглиз ва ўзбек тиллари фольклор матнларида такрорнинг структур-семантик таснифи. Sharqshunoslik / Востоковедение / Oriental studies 2021, №2. 73.
2. Луи Арагон. https://ziyouz.uz/hikmatlar/aforizmlar/jahon-adiblari-adabiyot-haqida
3. Муҳаммад Исмоил. Менга сўз беринг. – Тошкент: Mashhur-press, 2020. – 208 б.
4. Йўлдошев М. Бадиий матннинг лисоний таҳлили. –Тошкент, 2007. – Б. 57.
5. Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент: ФАН, 2006. – Б. 34.
6. Шофқоров А. Аллитерация ва унинг услубий хусусиятлари. // https://cyberleninka.ru/article/n/alliteratsiya-va-uning-uslubiy-hususiyatlari/viewer.
7. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2013. – Б. 38.

Muallif:
Turdikulova Kumushoy Mahmudovna - GulDU, O’zbek tilshunosligi kafedrasi tayanch doktoranti.

UDC: 811.512.133'271:398.9

ETHNOGRAPHISMS IN PROVERBS AND THE REPRESENTATION OF HISTORICAL THINKING

MAQOLLARDAGI ETNOGRAFIZMLAR VA ULARDA TARIXIY TAFAKKURNING IFODALANISHI

ЭТНОГРАФИЗМЫ В ПОСЛОВИЦАХ И ОТРАЖЕНИЕ В НИХ ИСТОРИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ

Axrorov Alisher Akbarovich
Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze
E-mail: axrorov891115@gmail.com

Abstract. Proverbs are regarded as manifestations of ethnocultural memory that embody the historical experience, national values, customs, rituals, lifestyle, and worldview of a people. They preserve not only information related to the material and spiritual culture of an ethnic group, but also the stable semantic cores of historical thinking. Therefore, proverbs serve as a means of transmitting a people's historical consciousness and cultural experience from one generation to another. As paremiological units, they reflect the linguistic, cultural, and cognitive characteristics of the society that created them, preserving elements of a particular historical period and ethnocultural environment. Along with representing national and cultural values, proverbs function as ethnocultural codes that reveal the mentality, worldview, and traditional knowledge of a people. Since proverbs are stable linguistic formations shaped over centuries, they often contain lexical units, concepts, and cultural markers that preserve traces of specific historical periods. For this reason, the ethnolinguistic study of proverbs remains one of the most relevant issues in contemporary linguistics. This article analyzes the ethnolinguistic and linguocognitive features of ethnographisms occurring in Uzbek folk proverbs. Ethnographisms are examined as linguistic units reflecting ethnocultural memory and historical thinking, serving as an important source for revealing the ethnolinguistic conceptosphere of Uzbek folk proverbs.

Keywords: ethnolinguistics, ethnographism, proverb, historical thinking, ethnocultural code, linguocognitive analysis, national mentality, conceptosphere.

Annotatsiya. Maqollar xalqning tarixiy tajribasi, milliy qadriyatlari, urf-odatlari, marosimlari, turmush tarzi va dunyoqarashini o‘zida mujassamlashtirgan etno-madaniy xotira namunasi sifatida baholanadi. Chunki maqollar xalqning moddiy va ma’naviy madaniyatiga oid ma’lumotlarni saqlash bilan birga, tarixiy tafakkurning barqaror semantik yadrolarini ham o‘zida mujassamlashtirgan birliklardir. Shunday ekan ularni xalq tarixiy tafakkurini ifodalovchi, avloddan avlodga yetkazuvchi vosita hisoblanadi. Bunday vositalar sifatida xalq maqollari o‘zi yaratgan xalqning ma’lum davr til birliklarini, etno-madaniy tomonlarini ko‘rsatuvchi, milliy tafakkurini namoyon qiluvchi kodlar hisoblanadi. maqollar milliy-madaniy jihatlarni ifadalagan holda etno-madaniy kodlarni tashkil qilishi bilan birga, tarixan shakllangan paremik birlik sifatida o‘z zamirida xalq qadriyatlarini, yashash tarzini ifodalagan, ma’lum davrda yoki ma’lum hududda faol va aksincha nofaol qo‘llaniluvchi vositalar ham mavjud bo‘ladi. Bunday xususiyatlar paremik birliklarda yaxshi namoyon bo‘ladi. Zero, bundagi barqarorlikning shakllanishi katta davrni talab qilganligi bois, ularning zamirida ma’lum davr ruhini ifodalovchi til vositalari bo‘lishi tabiiydir. Shuning uchun ham xalq maqollarini etnolingvistik tomonlarini o‘rganish doimo dolzarb vazifalardan hidoblanib qoladi. Mazkur maqolada ham o‘zbek xalq maqollari tarkibida uchraydigan etnografizmlarning etnolingvistik va lingvokognitiv xususiyatlari tahlil qilindi. Negaki, etnografizmlar xalqning etnomadaniy xotirasi va tarixiy tafakkurini aks ettiruvchi lingvistik manba sifatida o‘zbek xalq maqollarining etnolingvistik konseptosferasini namoyon qiluvchi muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: etnolingvistika, etnografizm, maqol, tarixiy tafakkur, etnomadaniy kod, lingvokognitiv tahlil, milliy mentalitet, konseptosfera.

Аннотация. Пословицы рассматриваются как образцы этнокультурной памяти, в которых отражены исторический опыт народа, национальные ценности, обычаи, обряды, образ жизни и мировоззрение. Они сохраняют не только сведения о материальной и духовной культуре народа, но и устойчивые семантические ядра исторического мышления. В связи с этим пословицы выступают средством передачи исторического сознания и культурного опыта от поколения к поколению. Как паремиологические единицы, они отражают языковые, культурные и когнитивные особенности народа, сохраняя элементы определённой исторической эпохи и этнокультурной среды. Пословицы не только выражают национально-культурные ценности, но и функционируют как этнокультурные коды, раскрывающие менталитет, мировосприятие и традиционные знания народа. Поскольку пословицы представляют собой устойчивые языковые образования, формировавшиеся на протяжении многих веков, в их составе сохраняются лексические единицы, концепты и культурные маркеры, отражающие дух определённого исторического периода. Поэтому этнолингвистическое изучение пословиц остаётся одной из актуальных задач современной лингвистики. В данной статье анализируются этнолингвистические и лингвокогнитивные особенности этнографизмов, встречающихся в узбекских народных пословицах. Этнографизмы рассматриваются как языковые единицы, отражающие этнокультурную память и историческое мышление народа, а также как важный источник для раскрытия этнолингвистической концептосферы узбекских народных пословиц.

Ключевые слова: этнолингвистика, этнографизм, пословица, историческое мышление, этнокультурный код, лингвокогнитивный анализ, национальный менталитет, концептосфера.

Kirish. Xalqning milliy qadriyatlari, urf-odatlari, kundalik turmush tarzi, tarixiy tajribasi, madaniyati va ma’naviy olamini o‘zida mujassamlashtirgan maqollar xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy va barqaror janrlaridan biri hisoblanadi. Ular asrlar davomida sayqallanib, bugungi kunda ham og‘zaki va yozma nutqda faol qo‘llanib kelayotgan etnomadaniy xotira namunalaridir. Shu bois maqollarda aks etgan milliy tafakkur, milliy mentalitet, tarixiy dunyoqarash, ijtimoiy munosabatlar va turmush tarzining lisoniy ifodasini o‘rganish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri sanaladi. Maqollar tarkibida mehnatsevarlik, mehmondo‘stlik, andishalilik, jasorat, yaratuvchanlik, vatanparvarlik va elparvarlik kabi xalqning ma’naviy-axloqiy qadriyatlari mujassamlashgan bo‘lib, ular shu xalqning tarixiy shakllangan tafakkuri va madaniy tajribasini aks ettiradi. Mazkur paremik vositalar xalq tarixi va madaniyatining lisoniy ifodasi bo‘lganligi sababli ular tarkibida uzoq tarixiy davrlardan buyon saqlanib kelayotgan etno-madaniy birliklar – etnografizmlar keng uchraydi. Bunday etnografizmlar xalqning moddiy va ma’naviy madaniyati, xo‘jalik faoliyati, urf-odatlari hamda tarixiy turmush tarziga oid muhim ma’lumotlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Bunday birliklar xalqning tarixiy tafakkuri,

kasbiy tajribasi va etnomadaniy xotirasini saqlovchi lingvistik vositalar sifatida alohida ahamiyatga ega. Shu sababli maqollar tarkibidagi etnografizmlarni etnolingvistik nuqtayi nazardan o‘rganish nafaqat tilning tarixiy qatlamlarini aniqlash, balki xalqning tarixiy tafakkuri va etno-madaniy konseptosferasini qayta tiklashda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan maqollarni etnolingvistik yondashuv asosida tadqiq etish xalqning til, madaniyat va tafakkur birligiga asoslangan etnomadaniy olamini yoritish muhim masalalardan hisoblanadi.

Tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar

Tadqiqot obyekti sifatida o‘zbek xalq maqollari tanlab olindi. Masalani yoritishda tarixiy-qiyosiy, semantik-struktural, qiyosiy-tipologik, etnofolkloristik, kontekstual metodlardan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Til xalqning tarixiy taraqqiyoti, madaniy rivojlanishi va ijtimoiy hayotida yuz bergan o‘zgarishlarni o‘zida aks ettiruvchi muhim ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Har bir xalqning tarixiy tajribasi, turmush tarzi, urf-odatlari va dunyoqarashi uning tilida muhrlanib qoladi. Shu ma’noda til xalqning tarixiy xotirasini saqlovchi va avloddan avlodga yetkazuvchi vosita vazifasini bajaradi. O‘zbek xalqi ham ko‘p asrlik tarixiy taraqqiyot jarayonini boshdan kechirgan qadimiy xalqlardan biri bo‘lib, bu jarayonlarning izlari uning tilida, xususan, xalq og‘zaki ijodi namunalarida va etnografik leksikada yaqqol namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, etnografizmlar xalqning tarixiy turmush tarzi, xo‘jalik faoliyati, marosimlari va madaniy tajribasini aks ettiruvchi lisoniy birliklar sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Etnografizmlarning muhim xususiyatlaridan biri ularning ayrimlari adabiy tilda faol qo‘llanilmay qolgan bo‘lsa-da, mahalliy shevalarda va hududiy nutqda uzoq vaqt saqlanib qolishidir. Chunki tilning tarixiy qatlamlariga mansub ko‘plab birliklar adabiy til me’yorlariga kirmasdan, xalqning jonli nutqida yashashda davom etadi. Masalan, hozirgi adabiy tildagi *mehmon* leksemasining qadimiy muqobili bo‘lgan *qo‘noq* so‘zi ayrim shevalarda hamda qardosh turkiy xalqlar tillarida faol qo‘llanib kelmoqda. Bu kabi birliklar xalqning tarixiy-madaniy aloqalari, qadimgi turmush tarzi va tafakkuriga oid muhim ma’lumotlarni saqlagan etnolingvistik manbalar hisoblanadi va *Qo‘nguncha qo‘noq uyalar, qo‘ngandan keyin – uy egasi, Qo‘noq oshi yo‘lda yaxshi, Qo‘noqqa osh ber – otiga yem* kabi maqollarda uchraydi hamda o‘zi yaratgan xalq tafakkurining ifodachisi hisoblanadi. Shu bois o‘zbek tilshunosligida etnografizmlarni o‘rganish masalasiga alohida e’tibor qaratilib kelinmoqda. Turli hududlarga xos etnografik birliklarning to‘planishi, tavsiflanishi va lug‘atlashtirilishi nafaqat tilning leksik tarkibini boyitishga, balki xalqning tarixiy tafakkuri, etnomadaniy xotirasi va milliy konseptosferasini tiklashga ham xizmat qiladi. O‘zbek tilida milliy an’analar, urf-odatlar, qadriyatlar va etnomadaniy hayot bilan bog‘liq leksik qatlamni o‘rganish masalasi tilshunoslikda muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, etnografik leksikaning tavsifi, tasnifi va leksikografik xususiyatlarini tadqiq etishga bag‘ishlangan ishlar o‘zbek tilining milliy-madaniy boyligini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi [1;2]. Bu borada N.Amonturdiyevning “Surxondaryo etnografizmlarining leksikografik xususiyatlari” mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi [4-122 b], A.Omanturdiyev va B.Rahmonovlar tomonidan tuzilgan “Surxondaryo dialektal-etnografik maqollarining izohli lug‘ati”, dissertatsiyalarida [3,131 b] atroflicha tadqiq qilingan.

Etnografizmlar xalqning yashash muhiti, tabiiy-geografik sharoiti, xo‘jalik faoliyati, urf-odatlari va an’analari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lganligi sababli ularning hududiy ko‘rinishlari ham turlicha namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham yuqoridagi *qo‘noq* leksemasi asosan, voha hududlarida yoki xalq jonli nutqida keng tarqalgan. Shuning uchun ham AN.Amanturdiyev [4,122 b], B.Rahmonov [3,131 b], N.Mirzayev [6], Y.Bobojonov [5] dissertatsiyalarda muayyan etnomadaniy makonda shakllangan etnografik birliklar tadqiq qilinadi. Chunki etnografik birliklar umumxalq tiliga keng tarqalgan bo‘lsa, boshqalari faqat ma’lum hudud, sheva yoki ijtimoiy guruh doirasida qo‘llanib keladi. Bunday birliklar xalqning mahalliy madaniyati, turmush tarzi va tarixiy tajribasiga oid muhim ma’lumotlarni saqlaganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, hududiy etnografizmlar tarkibida muayyan voha yoki mintaqaga xos bo‘lgan etnomadaniy qadriyatlar, marosimlar, kasb-hunarlar, xo‘jalik faoliyati va kundalik turmush bilan bog‘liq tasavvurlar mujassamlashgan bo‘ladi. Shu sababli ular nafaqat tilning leksik boyligini tashkil etuvchi birliklar, balki xalqning tarixiy tafakkuri va etnomadaniy xotirasini saqlovchi lingvistik vositalar sifatida ham qimmatlidir.

Etnolingvistika xalqning tarixiy shakllanishi, etnik tarkibi, yashash tarzi, urf-odatlari, marosimlari hamda moddiy va ma’naviy madaniyatini tildagi ifodasini o‘rganuvchi fan hisoblanadi. Mazkur jihatlarning til tizimidagi aksini etnografizmlar tashkil etadi. Etnografizmlar xalqning ko‘p asrlik tarixiy tajribasi, turmush tarzi va madaniy qadriyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan lingvomadaniy birliklar sifatida maqollar tarkibida alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, o‘zbek xalq maqollarida uchraydigan etnografik leksemalar nafaqat milliy madaniyat va turmush tarzining lisoniy ifodasi, balki tarixiy tafakkurning kognitiv xususiyatlarini saqlovchi etnolingvistik kodlar vazifasini ham bajaradi. Ular orqali xalqning borliqni idrok etish usullari, ijtimoiy munosabatlari, marosimiy qarashlari va mental stereotiplari namoyon bo‘ladi. Shu bois maqollar tarkibidagi etnografizmlarni yig‘ish, tavsiflash, leksikografik asoslarini ishlab chiqish, ularning konseptual va kognitiv xususiyatlarini aniqlash hamda etnolingvistik korpuslarini yaratish nafaqat til boyligini o‘rganish, balki xalqning tarixiy tafakkuri va etnomadaniy xotirasini tiklashda ham muhim ilmiy ahamiyatga ega. Zero, maqollar va ular tarkibidagi et-madaniy birliklar – kodlar til, madaniyat va tafakkur o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni yoritishga xizmat qiladi, shuningdek, milliy o‘zlik va madaniy merosning lingvistik asoslarini namoyon qiladi.

Etnolingvistik tadqidotlarning asosini etnografizmlar tashkil. Mazkur soha doirasida tilni xalqning madaniyati, tarixiy tajribasi, dunyoqarashi va mental xususiyatlari bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganiladi. Shu jihatdan etnografizmlar til va madaniyatning kesishgan nuqtasida vujudga kelgan, xalqning moddiy va ma’naviy hayoti haqidagi bilimlarni o‘zida mujassamlashtirgan etno-madaniy birliklar sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ular nafaqat muayyan xalqning turmush tarzi, urf-odatlari, marosimlari va xo‘jalik faoliyati haqida ma’lumot beradi, balki xalqning tarixiy tafakkuri, qadriyatlar tizimi va milliy mentalitetini ham aks ettiradi.

O‘zbek xalq maqollari tarkibida uchraydigan etnografizmlar tarixiy tafakkurning kognitiv xususiyatlarini o‘zida saqlagan etnolingvistik kodlar sifatida alohida ahamiyatga ega. Chunki ular orqali xalqning borliqni idrok etish usullari, ijtimoiy munosabatlari, marosimiy qarashlari va etnomadaniy tajribasi namoyon bo‘ladi. Xususan, *“**Omochning o‘n borgani, molaning bir borgani**”, “**Omoch seni to‘ydirgay, omboringni to‘ldirgay**”* kabi maqollar tarkibida qo‘llangan *omoch, mola* leksemalari etno-madaniy birlik sifatida xalqning tarixiy xo‘jalik faoliyati, mehnat tajribasi va agrar tafakkurini aks ettiradi. Omoch qadimda yer haydash uchun qo‘llanilgan asosiy dehqonchilik quroli bo‘lib, bugungi kunda uning vazifasini zamonaviy texnika vositalari bajarayotgan bo‘lsa-da, mazkur leksema maqollar tarkibida saqlanib qolgan holda xalqning tarixiy-madaniy xotirasini ifodalovchi etnografizm vazifasini bajarib kelmoqda. ***mola*** leksemasi ham yerga ishlov berish jarayoni bilan bog‘liq etnografik birlik bo‘lib, uning shakli va foydalanish vositalari vaqt o‘tishi bilan o‘zgargan bo‘lsa-da, asosiy funksiyasi saqlanib qolgan. Bu hol maqollarning tarixiy davrga oid semantik qatlamlarni namoyon qiluvchi

lisoniy birlik ekanligini ko‘rsatadi. Ko‘rish mumkinki, *omoch* va *mola* kabi etnografizmlar moddiy madaniyatga oid etnoleksemalar sifatida xalqning dehqonchilik faoliyati, mehnat tajribasi va tarixiy tafakkurining kognitiv xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtiradi.

Eldan osh yesang, elga osh ber, Urganlari – ugra osh, So‘kkanlari so‘k oshi, So‘k oshiga – surnay, Un oshiga – karnay kabi maqollarda keltirilgan taom nomlari va uning tayyorlanishi bilan bog‘liq qarashlar ham xalqning madaniyati, an’analari, tarixiy rivojlanishi va geografiga tegishli bo‘lgan juda boy ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Maqollarda qo‘llanilgan ***osh, ugra osh*** va ***so‘k oshi*** kabi taom nomlari o‘zbek xalqining moddiy madaniyati, oziq-ovqat an’analari va tarixiy turmush tarzini aks ettiruvchi etnografik birliklar hisoblanadi. *“**Eldan osh yesang, elga osh ber**”* maqolida qo‘llangan ***osh*** leksemasi nafaqat milliy taom nomi, balki mehmondo‘stlik, saxovat, jamoaviylik va o‘zaro hurmat kabi qadriyatlarni ifodalovchi etnomadaniy konsept sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zbek madaniyatida osh ko‘pincha to‘y, hashar, ehson va boshqa jamoaviy marosim, an’analar bilan bog‘liq bo‘lgani uchun maqol zamirida xalqning ijtimoiy birdamlik va o‘zaro yordam haqidagi tarixiy tafakkuri mujassamlashgan bo‘lsa, *“**Urganlari – ugra osh, so‘kkanlari – so‘k oshi**”, “**So‘k oshiga – surnay, un oshiga – karnay**”* maqolida esa ***ugra osh, so‘k oshi, un oshi*** nomlari xalqning qadimiy oziq-ovqat madaniyati bilan bog‘liq etnografizmlar sifatida qo‘llangan. *So‘k oshi* tariq mahsulotidan tayyorlanadigan va asosan qo‘sh haydash, pichan o‘rish kabi qishloq xo‘jaligi ishlari jarayonida iste’mol qilingan chanqoqbosdi taomlardan biri hisoblangan. Bu hol uning dehqonchilik va chorvachilik bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi. *Un oshi* ham tarkibi va tayyorlanish usuli jihatidan sodda bo‘lib, xalqning kundalik turmushida muhim o‘rin tutgan. Har ikki taom xalqning mehnat faoliyati bilan uzviy bog‘liqdir. Bunday jihatlar maqollarda ko‘plab uchraydi. Masalan, taom nomi bilan bog‘liq Shuning uchun ushbu birliklar orqali ma’lum davrning xo‘jalik faoliyati, oziq-ovqat mahsulotlari va ularni tayyorlash bilan bog‘liq amaliy bilimlari aks etadi. Shu bilan birga xalqning tarixiy-tafakkurida bu taomlarning milliylik tomoni insonlarning ma’lum vaqt va davrda tayyorlanishi va mehnatning bir qismi sifatida shakllanganligi bo‘lsa, shuningdek bu taomlar bayram yoki to‘y-tomosholarni bezaganligiga ishora qilinadi. Ular xalq qadriyati, madaniyati va turmush tarziga qanchalik aralashib, aloqador bo‘lib ketganligi ularga surnay va karnay so‘zlarning qo‘llanilishi orqali guvoh bo‘lish mumkin.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek xalq maqollari xalqning ko‘p asrlik tarixiy tajribasi, milliy tafakkuri, moddiy va ma’naviy madaniyatini o‘zida mujassamlashtirgan etnolingvistik birliklar hisoblanadi. Maqollar tarkibida uchraydigan etnografizmlar esa xalqning turmush tarzi, xo‘jalik faoliyati, urf-odatlari, marosimlari va qadriyatlari bilan bog‘liq etno-madaniy ma’lumotlarni saqlovchi lingvistik vositalar sifatida alohida ahamiyatga ega. Maqollar tarkibidagi qo‘noq, omoch, mola, osh, so‘k oshi, un oshi, ayron kabi etnografik birliklar nafaqat moddiy madaniyat unsurlarini, balki xalqning mehnat, rizq, jamoaviylik, mehmondo‘stlik va qanoat haqidagi tarixiy shakllangan tasavvurlarini ham aks ettiradi. Mazkur etnografizmlar maqollar tarkibida tarixiy tafakkurning semantik yadrolari sifatida saqlanib qolgan bo‘lib, ular orqali xalqning etnomadaniy xotirasi, milliy mentaliteti va dunyoqarashini namoyon qilish imkoniyati yuzaga keladi. Shu jihatdan maqollardagi etnografizmlarni etnolingvistik va lingvokognitiv nuqtayi nazardan o‘rganish xalqning tarixiy tafakkuri hamda etnomadaniy konseptosferasini yoritishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar:

1.Akbarovich, A. A. TO ‘Y LEKSEMASI BILAN BOG ‘LIQ MAQOLLARNING LINGVOKULTURALOGIK ASPEKTI. *PERSPECTIVES OF PHILOLOGY AND PRACTICAL POSSIBILITIES OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES*, 18.

2.Akbarovich, A. A., Mannopovich, L. M., & Murtozayevich, M. S. (2025). ETNOGRAFIZMLARNING TO ‘Y TUSHUNCHASI BILAN BOG ‘LIQ MAQOLLARDA IFODALANISHI. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, *2*(4), 188-191.

3.Raxmanov B.A. Surxondaryo etnografizmlarining lingvomadaniy tadqiqi. fil.fan.bo‘yicha fal.dok. (PhD)… dis. – Guliston, 2024. – 131 b.

4.Амонтурдиев Н.Р. Сурхондарё этнографизмларининг лексикографик хусусиятлари. фил.фан.бўйича фалс.док. (PhD) дис. – Гулистон, 2021. –122 б.

5.Бобожонов Й. Жанубий Хоразм этнографик лексикаси. Фил. фанлари номзоди дис. – Тошкент, 1997.

6.Мирзаев Н. Ўзбек тилининг этнографик лексикаси (Қашқадарё вилояти ўзбек шевалари материаллари асосида). Фил.фан.ном. ...дисс. – Тошкент, 1971.

Muallif:

Axrorov Alisher Akbarovich - Guliston davlat universiteti dotsenti, PhD.

UDK 811/811.879

ANTHROPONYMS WITH A TOPONYMIC COMPONENT: STRUCTURAL MODELS

АНТРОПОНИМЫ С ТОПОНИМИЧЕСКИМ КОМПОНЕНТОМ: СТРУКТУРНЫЕ МОДЕЛИ

TOPONIMIK KOMPONENTGA BO'LGAN ANTROPONIMLAR: TUZILMALI MODELLAR

Муллажонова Зухроюлдуз Алимжоновна
Андижанский государственный университет. 170112, Андижанская область, Андижан, ул. Университетская, 129
E-mail: mullajonova-zuxroyulduz2026@gmail.com

Abstract: This article examines complex anthroponyms with a toponymic component as a special type of proper name that reflects the spatial, social, and cultural identity of their bearer. The structural models of such anthroponyms are analyzed, as well as their functioning in historical and contemporary discourse.

Key words: anthroponym, toponym, compound names, toponymic semantics, linguaculture, name structure.

Аннотация: В статье рассматриваются сложные антропонимы с топонимическим компонентом как особый тип имён собственных, отражающих пространственную, социальную и культурную идентичность носителя. Анализируются структурные модели подобных антропонимов, а также их функционирование в историческом и современном дискурсе.

Ключевые слова: антропоним, топоним, сложные имена, топонимическая семантика, лингвокультура, структура имени.

Annotatsiya: Ushbu maqolada toponimik tarkibiy qismga ega murakkab antroponimlar o‘z egalarining keng, ijtimoiy va madaniy o‘ziga xosligini aks ettiruvchi xos nomning maxsus turi sifatida ko‘rib chiqiladi. Bunday antroponimlarning strukturaviy modellari, shuningdek, ularning tarixiy va zamonaviy nutqdagi faoliyati tahlil qilinadi.

Tayanch so‘zlar: antroponim, toponim, qo‘shma ismlar, toponimik semantika, lingvomadaniyat, ism tarkibi.

Введение. В современной лингвистике отмечается растущий интерес к изучению имён собственных как ключевого средства репрезентации культурной, социальной и пространственной идентичности. Центральное место в системе ономастических изысканий занимают составные антропонимы, обладающие многокомпонентной структурой и высокой смысловой насыщенностью.

Среди них существенную часть формируют антропонимы с топонимическим элементом, в которых географическое название встраивается в структуру имени и исполняет роль указания на происхождение, региональную принадлежность или культурно-исторический фон. Подобные элементы являются плодом слияния антропонимики и топонимики и демонстрируют подвижные изменения в наборе собственных имён.

Важность изыскания продиктована потребностью в комплексном рассмотрении структурных образцов антропонимов с топонимическим элементом и обнаружении правил их работы в былом и нынешнем изложении.

Задачей данной работы выступает обнаружение структурных образцов антропонимов с топонимическим элементом и оценка их действия в разных видах изложения.

Теоретические положения изучения антропонимов с топонимическим элементом (расширенная редакция) Имена собственные, содержащие топонимический компонент, являются особым видом составных номинативных единиц, образующихся вследствие слияния антропонимии и топонимии как связанных ономастических подсистем. В их структуре географическое название исполняет роль семантически значимой части, гарантирующей не только опознание, но и культурно-историческое представление обладателя имени.

В пределах актуальной ономастической доктрины подобные имена собственные осмысливаются как итог вторичного называния. Как отмечает А. В. Суперанская, перемещение имени собственного из одного разряда в иной является естественным процессом, отражающим подвижность ономастической системы [1]. В данной ситуации топоним теряет свою исходную денотативную роль и обретает антропоцентрическую ориентацию.

Функционально подобные антропонимы служат средством социальной и пространственной идентификации. Их обширное распространение в средневековой Европе объясняется нуждой в различении индивидов при скудном наборе личных имён. Впоследствии они закрепляются в системе наследуемых фамилий, создавая прочные антропонимические образцы.

С позиций лингвокультурологии эти единицы могут восприниматься как носители культурологической информации. Как отмечал В. Н. Телия, языковые знаки имеют свойство накапливать культурные значения и действовать как «свёрнутые тексты культуры» [2]. Топонимический элемент в составе антропонима отмечает пространственную и историческую память, отображая миграционные перемещения и социальное расслоение.

Нынешние изыскания в сфере англоязычной ономастики утверждают важность топонимических составляющих в остове прозваний. К примеру, Patrick Hanks констатирует, что топонимические прозвания считаются одним из наиболее продуктивных видов антропонимов и свидетельствуют о пространственном истоке обладателя [3].

Продолжая этот метод, Richard Coates акцентирует, что топонимические части в составе личных имён действуют как «указательные признаки локального самосознания», гарантируя соотнесение имени с определённой областью [4].

Схожую точку зрения занимает Peter McClure, который видит топонимические прозвища как следствие старинных процессов заселения и социального перемещения, запечатленных в языковой структуре [5].

В изысканиях George Redmonds подчёркивается, что топонимические имена собственные отражают «местную летопись родов и объединений», представляя значимый ресурс для восстановления культурно-исторических течений [6].

Исходя из вышесказанного, антропонимы с топонимическим компонентом представляют собой непростые совмещённые образования, объединяющие структурную многокомпонентность и культурную семантику. Их изучение требует всестороннего подхода, включающего структурный, смысловой и лингвокультурный анализ, что даёт возможность обнаружить закономерности формирования и функционирования этих единиц в разных языковых традициях.

Обсуждённые структурные модели находят своё отражение не только в исторической антропонимии, но и в системе современных имён, охватывая антропонимы знаменитых исторических и культурных личностей.

Особое место в системе антропонимов с топонимическим компонентом занимают подлинные исторические и культурные имена, в которых географический элемент закрепляется либо в фамилии, либо в структуре имени в целом. Подобные антропонимы демонстрируют стойкую связь между личной идентичностью и пространственным фактором, что позволяет считать их важным источником лингвокультурной информации.

Так, фамилия George *Washington* восходит к английскому топониму Washington, первоначально обозначавшему географическое место и лишь позднее закрепившемуся в качестве родового имени. Аналогичным образом фамилия Jack *London* связана с названием города London, что свидетельствует о трансформации топонима в антропонимическую единицу.

К числу классических примеров европейской традиции относится имя Otto von Bismarck, в котором предлог *von* выполняет функцию указания на происхождение и связывает антропоним с конкретным географическим объектом, названием города — топонимом *Bismarck*. Подобная модель характерна для немецкой аристократической антропонимии и отражает социально-территориальную принадлежность.

В ряде случаев топонимический компонент присутствует в антропонимах в деривационно преобразованной форме. Например, имя *Ashley* Wilkes (герой романа Маргарет Митчелл, «Унесённые ветром») восходит к древнеанглийскому топониму (*æsc* + *lēah* — «ясеневая роща»), которая ныне является названием города в штате Северная Дакорта, что свидетельствует о переходе географического обозначения в личное имя через словообразовательные процессы.

Особый интерес представляют антропонимы художественного дискурса, где топонимическая семантика проявляется через внутреннюю структуру имени. Так, в романе Эмили Бронте «Грозовой перевал» встречаются имена персонажей, обладающие выраженной пространственно-семантической мотивацией. Например, фамилия Mr. *Lockwood* включает компонент wood

(«лес»), что указывает на ландшафтную характеристику. Имя Mr. *Heathcliff* представляет собой композит (heath + cliff — «вересковая пустошь» + «утёс»), формируя ярко выраженный топонимически мотивированный антропоним. Фамилия Hareton Earnshaw также содержит элементы, восходящие к древнеанглийским основам, связанным с локальной географией и природной средой.

В ряде случаев топонимический компонент присутствует в антропонимах косвенно, через историко-культурные и этимологические связи. Например, имя *Cameron* Diaz восходит к шотландскому топонимическому элементу (родовое имя и название города в округе Мур, Северная Каролина), связанному с географическими и этническими характеристиками региона.

Имя *Charlotte* Brontë, хотя и не содержит прямого топонимического компонента, активно функционирует в системе культурных ассоциаций и часто входит в состав географических названий (например, Charlotte – 15й по величине город в США), что демонстрирует обратный процесс — переход антропонима в топонимию.

Показательным является и имя *Carolina* Herrera, где компонент Carolina исторически связан с названием географических регионов (Северная и Южная Каролина), отражающих колониальную и культурную традицию именования.

Даже в случаях вариативных форм, таких как Qween *Victoriya,* можно наблюдать влияние топонимической семантики через имя Victoria, которое широко представлено в географических названиях озера и штата. Это свидетельствует о подвижности границ между антропонимией и топонимией.

Изучение демонстрирует, что географические наименования живо участвуют в создании антропонимов, закрепляясь в прозвищах или воздействуя на систему именования посредством культурно-исторических ассоциаций, что удостоверяет подвижный характер сопряжения антропонимики и топонимики.

Вывод: Выполненный анализ выявил, что антропонимы с топонимическим элементом являются сложными номинативными конструкциями, образующимися на стыке антропонимии и топонимии. Их строение отличается существенным многообразием, охватывающим предложно-локативные, деривационные и составные образцы.

В историческом плане эти антропонимы отображают развитие от аналитических построений к прочным родовым конструкциям, зафиксированным в системе передаваемых по наследству именований. В нынешнем языке заметно увеличение их смыслового ресурса, включая символическое и культурное представление.

Изучение материала, содержащего как подлинные имена, так и образцы из беллетристики, выявило, что топонимический элемент может проявляться как в явном, так и в скрытом виде, поддерживая связь с пространственной и культурной значимостью.

Следовательно, антропонимы с топонимическим элементом служат значимой частью языкового мировосприятия, гарантируя сцепление между личной самостью и пространственной локализацией.

Использованная литература:

1. Суперанская А. В. Общая теория имени собственного. — М.: Наука, 1973. — 366 с.
2. Телия В. Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. — М.: Языки русской культуры, 1996. — 288 с.
3. Hanks P. Dictionary of American Family Names. — Oxford: Oxford University Press, 2003. — 3 vols.
4. Coates R. A New Theory of Properhood // Names. — 2006. — Vol. 54, № 2. — P. 98–112.
5. McClure P. The Place-Names of England and Their Origins. — London: Routledge, 2010. — 250 p.
6. Redmonds G. Surnames and Genealogy: A New Approach. — Boston: New England Historic Genealogical Society, 2002. — 192 p.
7. Brontë, E. *Wuthering Heights* (P. Nestor, Ed.). Oxford University Press, 2009. — 416 p.

UDK:821.512.133-1

INTERPRETATION OF LEGENDARY IMAGES IN THE STORIES OF ISAJON SULTAN

ISAJON SULTON HIKOYALARIDA AFSONAVIY OBRAZLAR TALQINI

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЛЕГЕНДАРНЫХ ОБРАЗОВ В РАССКАЗАХ ИСАЖАНА СУЛТАНА

Babayeva Sevara
Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze.
E-mail: abrorbabaev01@gmail.com

Abstract: This article is devoted to the analysis of the story “The Little Pink Creature” by Isajon Sultan, one of the leading representatives of modern Uzbek prose. The researcher mainly discussed the artistic image and artistic thought in the content concept of the story, the classification of images, the harmony of content and form. The article also discusses the writer’s artistic style, artistic thought and language. From classical literary samples to modern literary samples, one can see the specific aspects of the issue of artistic image. Therefore, this research work can be said to be remarkable for analyzing a topic of great importance in literary studies of each period.

Keywords: image, artistic image, plot, artistic thought, composition, detail, legendary image, language of a work of art.

Аннотация: Данная статья посвящена анализу рассказа «Маленькое розовое существо» Исажона Султана, одного из ведущих представителей современной узбекской прозы. В основном, исследователь рассматривает художественный образ и художественную мысль в содержательной концепции рассказа, классификацию образов, гармонию содержания и формы. В статье также анализируются художественный стиль, художественная мысль и язык писателя. От классических литературных образцов до современных можно увидеть специфические аспекты вопроса художественного образа. Таким образом, данное исследование можно считать примечательным анализом темы, имеющей большое значение в литературоведении каждого периода.

Ключевые слова: образ, художественный образ, сюжет, художественная мысль, композиция, деталь, легендарный образ, язык произведения искусства.

Annotatsiya: Ushbu maqola zamonaviy o'zbek nasrining yetakchi vakillaridan biri Isajon Sultonning "Kichkina pushtirang maxluqcha" hikoyasi tahliliga bag'ishlangan bo'lib, tadqiqotchi, asosan, hikoya mazmuniy konsepsiyasidagi badiiy obraz va badiiy tafakkur, obrazlar klassifikatsiyasi, mazmun va shakl uyg'unligi to'g'risida fikr yuritgan. Shuningdek, maqolada yozuvchining badiiy uslubi, badiiy tafakkuri va tili haqida ham so'z yuritiladi. Mumtoz adabiyot namunalaridan tortib to bugungi zamonaviy adabiyot namunalari mohiyatida ham badiiy obraz masalasining o'ziga xos qirralarini ko'rish mumkin. Shuning uchun ham ushbu tadqiqot ishi har bir davr adabiyotshunosligida katta ahamiyatga ega bo'lgan mavzuni tahlil etganligi bilan diqqatga sazovor deyish mumkin.

Kalit so'zlar: obraz, badiiy obraz, syujet, badiiy tafakkur, kompozitsiya, detal, afsonaviy obraz, badiiy asar tili.

Kirish. Isajon Sulton hikoyalaridagi obrazlarni shartli ravishda quyidagi guruhlarga tasniflash mumkin: 1. Milliy obrazlar. 2. Afsonaviy obrazlar. 3. Tarixiy obrazlar. 4. Ramziy obrazlar.

"Kichkina pushtirang maxluqcha" hikoyasida yozuvchi o'ziga xos tasvir yo'sinidan foydalanadi. Katoblepas nomli afsonaviy jonzot tasviri orqali insonlardagi eng yovuz xususiyatlarni ochib berishga urinadi. "Kataplepo" – yunoncha "pastga qarash" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, Efiopiyada keng tarqalgan afsonaviy maxluqot[5].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: U haqidagi dastlabki ma'lumotlar Pliniy Elder hamda Klavdiy Elien asarlarida uchraydi. Ularning tasviriga ko'ra, katobepalarning bosh qismi og'ir va bo'yin qismi uzun bo'lganligi sababli doimo pastga qarab harakatlanishgan. Uning nafasi yoki nigohi insonlarni o'ldirishi mumkin ekanligi to'g'risida ham ma'lumot beriladi. Aelian o'zining "Hayvonlarning xususiyatlari haqida" nomli asarida ushbu jonzotning xavf-xatar paydo bo'lgan vaqtda titrashi va og'zidan zaharli gaz chiqarishi haqida aytsa, Topsell "To'rt oyoqli hayvonlar tarixi" nomli asarida katoblepalarni "ajdaho kabi tangalar, cho'chqa kabi tishlar, boshida soch yo'qligi, qanotlari, insonnikiga o'xshash qo'llari mavjudligi, shuningdek, buqa bilan buzoq o'rtasidagi o'lchamda" ekanligi haqida mufassal tasvirlarni keltiradi[6].

Tadqiqot metodologiyasi: Tadqiqotda, asosan, matn tahlili va qiyosiy-tipologik metodlardan foydalanildi. Ushbu maqola zamonaviy nasrimiz namunalarini fundamental tadqiq etib o'rganganligi bilan ahamiyatlidir.

Maqola zamonaviy o'zbek adabiyotining proza(nasr) sohasi tadqiqiga bag'ishlangan referatlar, kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishlari va yozuvchi ijodiyoti bilan bog'liq ma'lumotlar uchun asos vazifasini o'tashi mumkin.

Tahlil va natijalar: Yuqoridagi barcha tasvirlarda katoblepalarning yovuz va insoniyat, hayvonot olami uchun zulmkor maxluqot ekanligi haqida xabar berilishiga qaramay, Isajon Sulton o'z hikoyasida uni shunchalar beg'ubor va ma'sum tarzda tasvirlaydiki, aslida haqiqiy "vahshiy, yirtqich" sifatida hayvonot bog'ida tomosha ko'rish uchun shaylangan olomonni va o'z manfaati uchun ushbu "sahna"ni uyushtirgan bog' xodimlarini anglash mumkin. Katoblepas juda ta'sirchan va beg'ubor qalbga ega jonzot sifatida tasvirlanadi. Mungli-mungli nolalar qiladi.

"Kuy odam ongida xayol uyg'otadi. Lekin bunaqa tiniq, go'zal xayol uyg'otadigan kuyni endi-endi eshitmoqdaman. Bu kuyda tevarakka, yomg'ir tomchilariga, shu tomchilarda titrayotgan yaproqlarga, ho'l tuproqlarga muhabbat va shukrona to'la edi. Balki u o'zi chiqarayotgan ovozning shunaqa ma'no uyg'otayotganidan bexabardir? Tiniq ma'yus ko'zchalariga qarab turib, xayolimga o'zim ishonmadim – mendan ko'ra kuchliroq his qilmasa, bunday ajoyib kuyni chala olarmidi?..."[1]

Barchani o'ziga maftun etgan, odamlarning qiziqishiga sabab bo'lgan jihat ham aynan mana shu edi. Ya'ni shu mittigina pushtirang maxluqot har bir holatga, xoh xursandchilik, xoh yovuzlik bo'lsin, insonlardanda ko'proq va tezroq his qilar edi. Yozuvchi uni shunday tasvirlaydiki, ushbu jonzotga kitobxon qalbining to'ridan joy bermay iloj yo'q. Shuningdek, adib hikoyada kontrass usulidan mohirona foydalanganki, katoblepasning hissiyot va iztirobga to'la qalbi va vujudini "ko'z-ko'z qilish" tomoshasini uyushtirish, har bir tomosha uchun biror murg'ak jonivorni boshqa yirtqichga o'lja qilib berish, bu vahshiylik orqasidan foyda olish insonlar uchun go'yoki oddiy holat. Ammo "qanaqadir savqi tabiiy bilan vahshiylik tabiatini aniq ilg'ab oladigan" maxluqcha bu vaziyatda o'zini qo'yarga joy topa olmay, iztirobga cho'madi, yum-yum yig'laydi, o'zini rosmanasiga yeydi.

U hatto qattiq qo'rqqanida yoki hayajonlanganida o'z panjalarini yeb qo'yishi va bu holatni o'zi sezmasligi ham mumkin. Yozuvchi obrazni quyidagicha tasvirlaydi: "Ovozlarga juda hassos, salgina tajovuzni, zarracha zulmni darrov sezadi, xiyol yolg'onni ham payqaydi. Umuman, juda hassos, rahmdil, mehribon hayvon bu. Zaifligi uchun isyoni ham boshqacha…"[1]

Bu borada Flaubertning "Vasvasa" asarida katoblepas obrazi nutqida shunday so'zlarga duch kelamiz: "… Bir marta tasodifan panjalarimni yeb qo'ydim"[6] Hikoyada ham aynan shu g'ayrishuuriy jihat hikoyachi qahramonni larzaga soladigan vaziyatni yuzaga keltiradi. Bugungi virtual olam bilan hamnafas ko'plab insonlar ruhidagi rahm va shafqat tuyg'ularining naqadar mo'rt holga kelib qolganligi, mazlumning holiga loqayd qarab turishning o'zi naqadar katta fojea, haqiqiy zulm ekanligi faqat pushtirang maxluqchaning o'z qo'llarini yeb bitirganida ayonlashgandek bo'ladi. Muallifning badiiy niyati ham shu yerda ayonlashadi.

Shuningdek, hikoyada katoblepasning boshqa hayvonlardan yana bir farqli jihati haqida so'z ketadi. Ya'ni uning ozuqasi go'sht yoki sarxil meva-sabzavotlar emas, balki ertalabki shudring edi. Bu ham ramziy ma'noda o'z nafsiga qul bo'lishda hatto hayvonlarni ortda qoldirayotgan ba'zi "inson"larga namuna o'laroq ifoda etiladi. Hikoya so'ngida ham yozuvchi bir ishora orqali insonlarga murojaat etmoqchidek ko'rinadi: "… Yomg'ir shivalar, shabadasi daraxtlarni chayqatar edi. Hozirgina yana bir epkin esib o'tdi, ajabo, birgina daraxt chayqalar, qolganlari tek edi…"[1] Go'yo adib "yoningizdan esib o'tgan epkinlarni his eting, chayqaling, tek qolmang, yo'qsa, o'zligingizni yo'qotasiz, insoniylikni boy berasiz", deya jon kuydirayotgandek.

Isajon Sulton hikoyalarida jahon adabiyotidagi ba'zi hikoyalar bilan umumiy jihatlarni ham kuzatish mumkin. Xususan, Lotin Amerikasi adabiyoti namoyondasi, hali hayotlik vaqtidayoq "Adabiyot olamidagi Kolumb", "Buyuk kashfiyotchi", "An'analar kushandasi" nomlariga sazovor bo'lgan yozuvchi Xulio Kortasar ijodi, ayniqsa, hikoyalaridagi tasvir uslubi Isajon Sulton hikoyalarida ham ko'zga tashlanadi. Kortasarning jahonga mashhur "Aksolotl" hikoyasidagi aksolotl obrazining tasviri bilan Isajon Sultonning pushtirang maxluqchasi o'rtasidagi uzviyliklarni kuzatish mumkin. "Aksolotl" hikoyasi Xulio Kortasarning realizm va fantastika qorishmasidan iborat eng keskin badiiy tajribalaridaan biridir. Hikoya biroz jo'n tasvir, ya'ni Parijdagi akvariumga borib, ajabtovur salamandra (axolotl) baliqlarini kuzatishdan boshlanadi. Ammo bu kuzatish tez orada o'zlik, shaxsiyat va ong o'rtasidagi chegaralarning yo'qolishiga olib keladi. Hikoya boshidagi "men" hikoya oxirida oxolotlga aylangan bo'ladi"[4]

Eng avvalo, har ikkala hikoyada tasvirlanayotgan jonzotlar ham hayvonot bog'ida tutqun holatda tasvirlanadi, ya'ni ularning qalbidagi mung va iztirobning birinchi sababi erksizlik. Shuning uchun ular ojiz. Mana shu ojizlikni bo'rttirish maqsadida yozuvchilar ushbu obrazlarni pushti rangda tasvirlaydi. Aslida aksolotllar ham, katoblepalar ham och pushti rangda bo'lishi tabiiy holat. Biroq hikoyalardagi rang tasviri ularni yanada nozik, maftunkor, takrorlanmas obraz sifatida to'ldirib berishga xizmat qiladi. Yana har ikkala

hikoyada ham yozuvchilar jonzotlarning ko‘zlarini alohida tasvirlashga urinadi: “Ko‘zchalari g‘oyat musaffo, nimasi bilandir yosh bolaning ko‘zlarini eslatadi… uzun kipriklarini pirpiratib odamlarga qarar, ko‘rgan odam beixtiyor uni yoqtirib qoladigan darajada ma’sum…”[1] (“Kichkina pushtirang maxluqcha”)

Kortasar esa bundaay tasvirlaydi: “Yuzi ifodasiz, munchoqdek tillarang ko‘zlari jonsiz ko‘ringani bilan odamga termilib qarardi, men har qancha tikilganimga qaramay bu ko‘zlar tubini ko‘rolmas edim… Aksolotlning ko‘zi dunyoda allaqanday o‘zga hayot, o‘zgacha ko‘rish yo‘li mavjudligiga ishora qilardi…”[2] (“Aksolotl”) Pushtirang maxluqcha hissiyotga qanchalar boy bo‘lsa, aksolotl idrok va fahmi o‘tkir jonzot sifatida tasvirlanadi. Ya’ni ikkisi ham ushbu jihatlari bilan insonlarni ortda qoldiradigan darajada yetuklikka ega.

Yana bir eng muhim jihatlardan biri, har ikki hikoyada ham hikoyachi qahramonlar hayvonot bog‘i va akvarium qarshisida ushbu tutqin jonzotlarning qalb-u shuurini anglaganidan hijolat chekadilar va o‘zlarini noqulay his qiladi, qalblari nadomat va iztirobga to‘ladi. “Men hijolat chekib, qariyb izza bo‘lgandek turardim: chinni hovuz ostida to‘dalashgan bu indamas va sustkash jonzotlar qarshisida so‘rrayib turish beodoblikka o‘xshardi…”[2] (X.K. “Aksolotl”)

“ bu shu qadar dahshatli manzara ediki, qalbim iztirobga va o‘zim ham tushunib yetmagan g‘alati isyonga to‘ldi.

– To‘xtanglar, hoy badbaxtlar! – deb baqirib yubordim…

Yo‘q, qolganini ko‘rishga yuragim bardosh berolmadi. “La’nat bo‘lsin hammangizga!” deb qichqirib, tashqariga otilib chiqib ketdim…”[1] (I.S. “Kichkina pushtirang maxluqcha”)

“Hikoya juda ta’sirchan va ichki tug‘yonlarni uyg‘otuvchi poetik tasvirlarga boy. Unda aynan pushtirang maxluqcha obrazi yozuvchi ijodiga xos poetik imkoniyatlarning yangi darajasini ko‘rsatib beradi”[3]

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, istiqlol davri adabiyoti vakili Isajon Sultonning “Kichkina pushtirang maxluqcha” hikoyasidagi bosh obraz, ya’ni katoblepas obrazi o‘zining murakkab va individual ruhiyati, inson botinidagi eng muhim qadriyatlar, hissiyotlar, insonlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlardagi nozik ko‘z ilg‘amas jihatlarni o‘zida ifoda etganligi bilan ahamiyatlidir. Asarning badiiyati, tili, uslubi, obrazlar tematikasi va badiiy konsepsiyasi muallifning yuksak badiiy tafakkurini ochib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXAT:

1. Isajon Sulton. Ozod (roman va hikoyalar). Kichkina pushtirang maxluqcha. – T.: Sharq, 2012. – B. 326.
2. Xulio Kortasar. Biz Glendani shunday yaxshi ko‘ramiz. – T.: G‘afur G‘ulom, 2018. – B. 18.
3. Go‘zalxon Oxunova. Badiiy obraz borliqni anglash omili sifatida (Isajon Sulton hikoyalari misolida). FarDU. Ilmiy xabarlar – Scientific journal of the Fergana State University. Volume 30 Issue 3. 2024-yil. – B. 775.
4. Ma’suma Obidjonova. Xulio Kortasar hikoyalarida fantastika va realizm sintezi. Journal of science-innovative research in Uzbekistan. Volume 03,Issue 07, 2025. July. https://share.google/7nyA1xAEZgI12K4uR
5. Mythological Creations. https://mythological-creations.fandom.com/ru/wiki/%D0%9A%D0%B0%D1%82%D0%BE%D0%B1%D0%BB%D0%B5%D0%BF%D0%B0%D1%81
6. A book of creatures. Catoblepas. https://abookofcreatures.com/2015/08/03/catoblepas/

Author:
Babaeva Sevara - Senior Lecturer, Gulistan State University, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology.

UDK: 811.512.133-2

FOLKLORE AND LINGUOPOETICS: ON THE EXAMPLE OF USMON AZIM'S POETRY

FOLKLOR VA LINGVOPOETIKA: USMON AZIM SHE’RIYATI MISOLIDA

ФОЛЬКЛОР И ЛИНГВОПОЭТИКА: НА ПРИМЕРЕ ПОЭЗИИ УСМАНА АЗИМА

Egamov Umidjon Shavkatovich
Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze.
Email: umidjon86egamov@gmail.com

Abstract: This article examines the linguistic and poetic interpretation of folklore traditions in the work of Usmon Azim, one of the major figures of modern Uzbek poetry. The poet's poems analyze the use of artistic means of expression, folk expressions, symbols, repetitions, and poetic images characteristic of folk art. The interaction of folklore and written literature, the artistic expression of the national spirit, and the role of folklore elements in enhancing the aesthetic impact of poetic texts are highlighted.

Keywords: folklore, linguopoetics, Usmon Azim, poetry, folklore, poetic language, artistic image, national spirit, symbol, folklore.

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy o‘zbek she’riyatining yirik namoyandalaridan biri bo‘lgan Usmon Azim ijodida folklor an’analarining lingvopoetik talqini o‘rganiladi. Shoir she’rlarida xalq og‘zaki ijodiga xos badiiy tasvir vositalari, xalqona iboralar, ramzlar, takrorlar va poetik obrazlarning qo‘llanilish xususiyatlari tahlil qilinadi. Folklor va yozma adabiyotning o‘zaro aloqasi, milliy ruhning badiiy ifodasi hamda folklor unsurlarining she’riy matnning estetik ta’sirchanligini oshirishdagi o‘rni yoritiladi.

Kalit so‘zlar: folklor, lingvopoetika, Usmon Azim, she’riyat, xalq og‘zaki ijodi, poetik til, badiiy obraz, milliy ruh, ramz, folklorizm.

Аннотация: В статье исследуется лингво-поэтическая интерпретация фольклорных традиций в творчестве Усмана Азима, одного из крупнейших представителей современной узбекской поэзии. В стихотворениях поэта анализируются особенности использования художественных приемов, народных выражений, символов, повторов и поэтических образов, характерных для народного творчества. Освещаются взаимосвязь фольклора и письменной литературы, художественное выражение национального духа, а также роль фольклорных элементов в повышении эстетической выразительности поэтического текста.

Ключевые слова: фольклор, лингвопоэтика, Усман Азим, поэзия, фольклор, поэтический язык, художественный образ, национальный дух, символ, фольклоризм.

Kirish. O‘zbek adabiyotining shakllanishi va taraqqiyotida xalq og‘zaki ijodi muhim o‘rin tutadi. Asrlar davomida yaratilgan dostonlar, ertaklar, afsonalar, rivoyatlar, maqol va matallar xalqning ma’naviy xazinasi sifatida avloddan avlodga o‘tib kelgan. Folklor nafaqat xalqning tarixiy xotirasi, balki uning dunyoqarashi, estetik didi va badiiy tafakkurining ham ifodasidir. Zamonaviy o‘zbek adabiyotida folklor an’analaridan samarali foydalanib kelayotgan ijodkorlar orasida Usmon Azim alohida o‘rin egallaydi. Shoir o‘z asarlarida xalqona ruh, milliy tafakkur va folklor obrazlarini zamonaviy badiiy qarashlar bilan uyg‘unlashtiradi. Natijada uning she’riyatida folklor va individual ijod sintezi yuzaga keladi.

Tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar

Tadqiqotning obyekti sifatida Usmon Azimning barcha she’riy to‘plamlari, muallifning shaxsiy arxividagi shoir ijodiga doir manbalar, asosan, 1996- yil nashr etilgan saylanmasi olindi. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash, tarixiy-qiyosiy, kontekstual, kompleks va funksional tahlil usullaridan foydalanilgan.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Lingvopoetika badiiy matndagi til vositalarining estetik vazifalarini o‘rganuvchi fan sifatida adabiyotshunoslik va tilshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Lingvopoetik tahlil orqali asardagi so‘z tanlovi, obrazlar tizimi, uslubiy vositalar va ularning badiiy ta’sir kuchi aniqlanadi. Usmon Azim she’riyati lingvopoetik jihatdan tahlil qilinganda, unda folklor unsurlarining serqirra va samarali qo‘llanganligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Folklor va lingvopoetika munosabati Folklor va lingvopoetika bir-biri bilan uzviy bog‘liq tushunchalardir. [2.52] Folklor asarlarining asosiy xususiyatlaridan biri ularning badiiy tilga boyligidir. Xalq og‘zaki ijodida qo‘llanilgan poetik vositalar, ramzlar, o‘xshatishlar va takrorlar yozma adabiyot uchun ham muhim manba vazifasini bajaradi. Lingvopoetika esa aynan shu vositalarning matndagi estetik vazifasini tahlil qiladi. Shu sababli folklor an’analarining yozma adabiyotdagi aksini o‘rganishda lingvopoetik yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Usmon Azim she’riyatida folklor elementlari shunchaki an’anaga ergashish emas, balki yangi badiiy ma’no yaratish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Shoir xalq og‘zaki ijodining til boyligidan foydalanib, zamonaviy insonning ruhiy kechinmalarini tasvirlaydi. Usmon Azim she’riyatida xalqona ruh Usmon Azim ijodining asosiy xususiyatlaridan biri xalqona ruhning kuchliligidir. Shoir she’rlarida xalqning yashash tarzi, urf-odatlari, qadriyatlari va milliy xarakteri o‘z aksini topadi. Bu jihat she’rlarning mazmunidagina emas, balki ularning tilida ham namoyon bo‘ladi. Shoir xalq tiliga xos sodda, samimiy va ta’sirchan ifodalardan keng foydalanadi. Natijada she’rlar kitobxon qalbiga yaqin bo‘lib, ularda xalqona ohang sezilib turadi. Bu esa folklor poetikasining zamonaviy she’riyatdagi muvaffaqiyatli davomidir. Usmon Azim she’rlarida inson va tabiat munosabati, Vatan tuyg‘usi, muhabbat va sadoqat kabi mavzular xalqona tafakkur asosida yoritiladi. Bunday holat shoirning milliy ruhga sodiqligini ko‘rsatadi. Folklor obrazlari va ramzlarining lingvopoetik talqini Usmon Azim she’riyatida folklor obrazlari muhim badiiy vosita hisoblanadi. Shoir xalq og‘zaki ijodida uchraydigan an’anaviy timsollarni yangi poetik mazmun bilan boyitadi. Masalan, quyosh obrazi hayot va ezgulik ramzi sifatida, shamol erkinlik va o‘zgarish belgisi sifatida, yo‘l esa inson taqdiri va umr timsoli sifatida talqin qilinadi. Bu obrazlar xalq tafakkurida mavjud bo‘lgan ramziy ma’nolarni saqlagan holda zamonaviy mazmun kasb etadi.

Usmon Azim folklordagi an’anaviy ramzlarni shunchaki ko‘chirmaydi, ularga falsafiy va lirik ma’no yuklaydi. Masalan, folklorda “Yo‘l” va “Turna” motivlari judolik, ayriliq yoki intizorlik ramzidir. Shoir she’rlarida bu lingvopoetik vosita quyidagicha aks etadi:

Turnalar ketadi bag‘rimni tilib,
Yurak asrorini turnalar bilib...
Yo‘llarga qarayman, ko‘zlarim toldi,
Mening yorug‘ kunim turnada qoldi. *[1.320]*

Ushbu parchada “turna” va “yo‘l” leksemalari folklorik assotsiatsiyani yuzaga keltirmoqda. Shoir an’anaviy lirik tushkunlik va ayriliq kayfiyatini ifodalash uchun xalq qo‘shiqlariga xos bo‘lgan g‘amgin ohang va ramziylikni lingvistik jihatdan qayta jonlantirgan. Folklor qahramonlari va dostonlarga xos motivlar ham shoir ijodida uchraydi. Biroq ular aynan folklordagi shaklda emas, balki muallifning individual badiiy qarashlari asosida qayta ishlangan holda namoyon bo‘ladi. Lingvopoetik nuqtayi nazardan qaralganda, ramzlar she’rning semantik qatlamini boyitib, matnga ko‘p ma’nolilik xususiyatini beradi. Kitobxon esa bu ramzlar orqali she’r mazmunini chuqurroq anglash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Xalqona iboralar va frazeologizmlarning qo‘llanilishi Usmon Azim she’riyatida xalq tilining boy imkoniyatlaridan unumli foydalaniladi. Shoir maqollar, matallar, iboralar va frazeologik birliklarni she’r mazmuniga mos ravishda qo‘llaydi. [3.12] Frazeologizmlar she’rning emotsional-ekspressiv ta’sirini kuchaytiradi. Ular matnning xalqona ruhini oshirib, poetik nutqqa tabiiylik bag‘ishlaydi. Ayniqsa, xalq orasida keng qo‘llanadigan iboralarning badiiy kontekstda ishlatilishi she’rning milliy rang-barangligini ta’minlaydi. Maqol va matallarning poetik transformatsiyasi ham Usmon Azim uslubining muhim jihatlaridan biridir. Shoir ayrim xalq hikmatlarini yangi shaklda qo‘llab, ularga zamonaviy mazmun yuklaydi. Natijada an’anaviy hikmat va zamonaviy tafakkur uyg‘unlashadi. Takrorlarning badiiy-estetik vazifasi Folklorda takror usuli muhim poetik vositalardan biri hisoblanadi. Xalq qo‘shiqlari, dostonlar va marosim qo‘shiqlarida takrorlar ohangdorlikni kuchaytiradi hamda asosiy g‘oyani ta’kidlaydi. Usmon Azim jonli xalq tilidagi iboralarni she’r vazniga va badiiy kontekstga mahorat bilan singdiradi:

Dunyo ekan — ko‘z yumguncha o‘tdi-ketdi,
Tosh otganlar maqsadiga bugun yetdi.
Yaxshilarga kun bermadi bag‘ri toshlar,
Yuragimni ona tuproq vatan etdi. *[1.230]*

Matndagi “ko‘z yumguncha” (foniylik, tezkorlik), “tosh otish” (tuhmat qilish, yomonlik qilish), “kun bermaslik” (tinchlik bermaslik) va “bag‘ri tosh” (bag‘ritosh — shafqatsiz) kabi xalq frazeologizmlari she’rning emotsionalligini oshirgan. Bu iboralar she’rda shunchaki nutq bezagi emas, balki lirik qahramonning ijtimoiy-falsafiy dardini ifodalovchi asosiy semantik markaz bo‘lib xizmat qilmoqda.

Usmon Azim she’riyatida ham takrorlar keng qo‘llaniladi. Anafora, epifora va sintaktik parallelizm kabi usullar she’rning musiqiyligini oshiradi. Takrorlar orqali muallif hissiy ta’sirni kuchaytiradi va o‘quvchi e’tiborini muhim fikrlarga qaratadi. Takrorlarning yana bir muhim vazifasi xalq qo‘shiqlariga xos ritm va ohangni yaratishdan iboratdir. Bu holat shoir she’rlarining folklor bilan bog‘liqligini yanada kuchaytiradi. Tabiat tasvirlarining folkloriy asoslari Usmon Azim she’riyatida tabiat tasviri muhim o‘rin tutadi. Shoir daraxt, daryo, tog‘, osmon, shamol, yomg‘ir kabi obrazlarni xalqona qarashlar asosida tasvirlaydi. Folklorda tabiat va inson bir butun holda talqin qilinadi. Usmon Azim ham ana shu an’anani davom ettirib, tabiat manzaralari orqali inson ruhiyatini ochib beradi.

Tabiat obrazlari ko‘pincha lirik qahramonning ichki kechinmalarini ifodalash vositasiga aylanadi. Lingvopoetik jihatdan tabiat tasvirlari metafora, jonlantirish va o‘xshatishlar yordamida badiiylashtiriladi. Bu esa she’rning estetik qiymatini oshiradi. Folklor va zamonaviylik sintezi Usmon Azim ijodining muhim jihatlaridan biri folklor va zamonaviylikning uyg‘unligidir. Shoir folklor an’analarini saqlab qolgan holda, zamonaviy insonning ruhiy olami, ijtimoiy muammolari va falsafiy qarashlarini tasvirlaydi. Natijada folklor unsurlari faqat tarixiy yoki etnografik ahamiyat kasb etmaydi, balki bugungi kun bilan hamohang badiiy vositaga aylanadi. Bu esa shoir she’riyatining zamonaviy o‘zbek adabiyotidagi o‘ziga xos o‘rnini belgilaydi. Folklordagi doston va xalq qo‘shiqlariga xos bo‘lgan raddiya va anafora (so‘z boshida keladigan takror) usuli Usmon Azim poetik uslubining yetakchi xususiyatidir:

Yomg‘ir yog‘ar — eslarman seni,
Shamol esar — eslarman seni.
Ushbu g‘arib, dardi ko‘p dilda
Sog‘inch yig‘lar — eslarman seni. ***[1.302]***

Sintaktik parallelizm va “eslarman seni” epiforasining (misra oxiridagi takror) qo‘llanilishi she’rga xalq baxshichilik san’ati va xalq qo‘shiqlariga xos musiqiylik, ritm hamda ichki pafos bag‘ishlamoqda. Takrorlanayotgan fraza lirik qahramon ruhiyatidagi tuganmas sog‘inch va ruhiy zo‘riqishni tinglovchiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yuqtiradi.

Xalq og‘zaki ijodida tabiat va inson doimo antropomorfik (insoniylashtirilgan) tarzda, uzviy bir butunlikda tasvirlanadi. Tabiat hodisalari lirik qahramonning ichki kechinmalariga hamohang bo‘ladi. Usmon Azim ham tabiat unsurlarini (shamol, yomg‘ir, tog‘, daryo, osmon) xalqona mifologik qarashlar asosida jonlantiradi:

Tog‘lar menga qarab turgandek mahzun,
Daryo ham dardini aytadi uzoq.
Bu g‘amgin yo‘llarda tunlar shuncha uzun,
Har bir yaproq go‘yo qurilgan tuzoq. [1.235]

Ushbu misralarda tog‘larning “mahzun qarab turishi”, daryoning “dard aytishi” kabi jonlantirish (personifikatsiya) va metafora vositalari folklorik personifikatsiya an’analariga borib taqaladi. Shoir tabiat ob’ektlarining lisoniy ifodasini shunday tanlaydiki, natijada tabiat lirik qahramonning dardiga hamdard bo‘lgan tirik sub’ektga aylanadi va bu she’riy matnning estetik qiymatini hamda tasviriy quvvatini sezilarli darajada oshiradi.

Xulosa. Usmon Azim she’riyati folklor va lingvopoetika uyg‘unligining yorqin namunasidir. Shoir xalq og‘zaki ijodining boy badiiy an’analaridan ijodiy foydalanib, o‘ziga xos poetik uslub yaratgan. Xalqona iboralar, folklor obrazlari, ramzlar, takrorlar va milliy ruh uning she’rlarining lingvopoetik qimmatini oshiradi. Folklor unsurlarining zamonaviy badiiy tafakkur bilan uyg‘unlashuvi Usmon Azim ijodining asosiy xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Shu bois shoir she’riyati o‘zbek adabiyotida milliy an’analar va zamonaviy poetik tafakkurning muvaffaqiyatli sintezi sifatida alohida ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Usmon Azim. Saylanma (She’rlar). – Toshkent: Sharq, 1995. – 320 b.
2. Mirzayev T. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2008. – 256 b.
3. Murodov M. Folklor: qiyosiy-badiiy tahlil. – Toshkent: Fan, 2012. – 180 b.
4. Yo‘ldoshev M. Badiiy matnning lingvopoetik tahlili. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008. – 160 b.
5. To‘xasanov M. Zamonaviy o‘zbek she’riyatida folklorizm muammolari. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2015. – 192 b.

Muallif:
Egamov Umidjon Shavkatovich, GulDU “O‘zbek tilshunosligi” kafedrasi o‘qituvchisi

УЎК 821.512.133.09-93(092)

NOSIR FAZILOV'S SKILLS IN CREATING A CHILDREN'S PLOT AND COMPOSITION

NOSIR FOZILOVNING BOLALARBOB SUJET VA KOMPOZITSIYA YARATISH MAHORATI

МАСТЕРСТВО НОСИРА ФАЗИЛОВА В СОЗДАНИИ ДЕТСКОГО СЮЖЕТА И КОМПОЗИЦИИ

Lutfullayev Jaxongir Amirovich
Jizzax davlat pedagogika universiteti. 130100. Jizzax viloyati, Jizzax shahri Sh.Rashidov shohko‘chasi, 4-uy
E-mail: lutfullayev-jaxongir2026@gmail.com

Abstract. In this article, the stories "Cancer" and "Qorkhat" by Nasir Fozilov, a prominent representative of Uzbek children's prose, are studied in a comparative manner with the novels "Riding the Yellow Giant" and "The Land of Sweet Melons or the Battle of the Magicians" by Kh. Tokhtaboyev, and the writer's skill in creating a child-like subject and composition is analyzed using the methods of classification, description, and comparison. As a result, a number of scientific conclusions are drawn.

Keywords: Uzbek children's literature, subject, composition, child-friendly subject and composition, skill in creating subject and composition.

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek bolalar nasrining yetuk vakili Nosir Fozilovning “Saraton”, “Qorxat” qissalari X.To‘xtaboyevning “Sariq devni minib”, “Shirin qovunlar mamlakati yoki sehrgarlar jangi” romanlari bilan qiyosiy tarzda o‘rganilib, yozuvchining bolalarbob sujet va kompozitsiya yaratish mahorati tasniflash, tavsiflash, qiyoslash usullaridan foydalanib tahlil qilindi. Natijada bir qancha ilmiy xulosalarga kelindi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek bolalar adabiyoti, sujet, kompozitsiya, bolalarbop sujet va kompozitsiya, sujet va kompozitsiya yaratish mahorati.

Аннотация. В данной статье в сравнительном порядке изучаются рассказы «Рак» и «Корхат» Насира Фозилова, видного представителя узбекской детской прозы, с романами «Верхом на Желтом Великане» и «Страна сладких дынь, или Битва волшебников» Х. Тохтабоева, а также анализируется мастерство писателя в создании детского сюжета и композиции с использованием методов классификации, описания и сравнения. В результате сделан ряд научных выводов.

Ключевые слова: узбекская детская литература, тема, сочинение, тема и сочинение, понятные детям, навыки создания тем и сочинений.

Kirish. Millionlab kitobxonga yetib boradigan asar yaratish ijodkordan ulkan mehnat va mas'uliyat talab etadi. Kattalar biror badiiy asarni o‘qiganida hayot haqiqatiga to‘g‘ri kelmaydigan fikrlarga duch kelsa, nari borsa, kitobni o‘qimay qo‘yishi, qo‘l siltab qo‘yishi, yozuvchiga nisbatan biroz e'tiroz bildirishi mumkin. Bolalar uchun ijod qiladigan ijodkor bunday xatolarga yo‘l qo‘yishi mumkin emas, chunki ular yosh qalblarni o‘zlari yozgan asarlari bilan, birinchidan, bolalarni badiiy adabiyotga olib kirsa, ikkinchidan, kattalar adabiyotiga o‘tish uchun ko‘prik vazifasini bajaradilar. Shu bois bolalar adabiyotiga nisbatanpanja orasidan qarash yaramaydi. "Bu adabiyot – hurmattalab adabiyot, e'zoztalab adabiyot. Chunki bolalar uchun yozilayotgan har bir asarda o‘zing bolaga aylana olmas ekansan, u jonsiz tanaga aylanadi. Qattiqroq qilib aytganda, birovnikini olib yopishtirsangiz, yopishmay turadi, yamoq bo‘ladi. Bolaning ko‘ngli ham shunday. Uni sindirib bo‘lmaydi"[1].

Nosir Fozilovning ushbu fikrlarida jon bor. Bolalar uchun yaratilgan asarlar pishiq, puxta, tarbiyaviy ahamiyati katta, qiziqarli bo‘lishi bilan birga, sujet va kompozitsiyasi ham bolalarbop bo‘lishi lozim. Agar asar har qancha qiziqarli bo‘lmasin, tarbiyaviy ahamiyati kuchli bo‘lmasin, sujeti, kompozitsiyasi bola tabiati uchun mos bo‘lmasa, bunday asarni bolalar sevib o‘qimaydi. Bunday asar bolalar qalbiga singishib ketmaydi. Shuning uchun bolalar yozuvchisi sujet va kompozitsiyani bolalarbop yaratishi maqsadga muvofiqdir. "Adabiyot yaratiladi, uni "yasab" bo‘lmaydi. Bu tom ma'noda, ham bolalar, ham kattalar adabiyotiga taalluqlidir"[1].

Biz yuqoridagilarni hisobga olib, maqolada bolalarbop sujet va kompozitsiya yaratishda yozuvchining (Nosir Fozilovning) individual yondashuvi masalasini tahlil etishni maqsad qildik.

Tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar

Tadqiqotning obyekti sifatida Nosir Fozilovning "Qorxat", "Saraton" qissalari, muallifning "Adabiyot yasalmaydi, yaratiladi" nomli maqolasi, qiyosiy tahlil uchun X.To‘xtaboyevning "Sariq devni minib", "Shirin qovunlar mamlakati yoki sehrgarlar jangi" romanlari olindi. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash, tarixiy-qiyosiy, kontekstual, kompleks va funksional tahlil usullaridan foydalanilgan.

Olingan natijalar va ularning tahlili.

"Saraton" qissasini xotirlasangiz, G‘iyos aka, To‘ra, Kamolalarning (garchi To‘ra va Kamola maktab o‘quvchilari bo‘lishsa-da) mol boqishlari, Kamolaning maktabda yetakchilik qilishi, oltinchi sinf o‘quvchilariga bosh bo‘lib dalada boshoq terib xirmonga olib kelishi, To‘ra o‘ziga o‘xshagan Frantishek, Sergey kabi bolalar bilan eshak karvon tuzib shaharga don topshirishga qatnashlari, qo‘liga qurol ko‘tarishga yaraydigan barcha frontga jalb etilib, yosh-yalang, xotin-xalaj butun turmush og‘irliklarinibo‘yinlariga olib mehnat qilishlari bilan bog‘liq voqealar, ularning tafsilotlari qissaning sujeti hisoblanadi.

"Adabiyotning uchinchi elementi sujet" (M.Gorkiy) hisoblansa, uni harakatga soluvchi kuch konfliktdir.

"Saraton" qissasida ijtimoiy konflikt – asar qahramonlari bilan ular yasayotgan sharoit o‘rtasidagi kurash tasvirlanadi. Front orti hayotining og‘irligi, ayollar erlarini frontga jo‘natib ham ota, ham ona bo‘lib farzandini tarbiyalagani, bu ham yetmagandek tong qorong‘usidan shomgacha tinim bilmay mehnat qilgani, Kamolaga o‘xshagan qizlar ham qiz bola ekanini unitib, "ro‘dapo ust-boshlarda yurib, "Abdikamol" degan ismni orttirishi, Zulayho xolaga o‘xshagan ayollarning beva qolishi – umuman olganda, front orti hayotining zahmatlari asardagi ijtimoiy konflikt sifatida sujetni harakatga keltirib turadi.

Qissaning ekspozitsiyasida asar voqealari kechadigan asosiy joy sifatida dalalar tasvirlanadi.

"Arpa boshoqlari sarg‘ayib, bug‘doy boshoqlariga rang kira boshlagan, qovun palaklari tanob yozib, tuynaklar etik boshiday bo‘lib qolgan palla…"[2.92]

Parchadan ko‘rishimiz mumkinki, asar qahramonlari arpa, bug‘doy o‘rimida ishtirok etishi, qovun chopig‘i, boshoq terish kabi dala yumushlari bilan erta-yu kech band bo‘lishlarini yozuvchi aynan ekspozitsiyada tasvirlab ko‘rsatadi va fikrini davom ettirib "Dehqonlarning tili bilan aytganda: yo‘g‘on cho‘zilib, ingichka uziladigan payt", - deya izoh berib, qilinadigan ishlarning sanog‘i yo‘qligi, bu ishlar ayollar, bolalar uchun og‘irlik qilishini ta'kidlab o‘tgandek, nazarimda. Aynan asar voqealari ham, asar qahramonlarining hayoti, munosabatlari, o‘zlari yashayotgan ijtimoiy hayot bilan kurashlari ham ana shu dalalarda kechadi. Yozuvchining yutug‘i shundaki, jon-jonivorlar o‘zlarini qo‘yishga joy topa olmaydigan ana shunday issiq saratonda To‘ra, Kamola, Sergey, Frantishek kabi yoshlar chang yutib, biri mol boqib, boshqasi bug‘doy o‘rimida ishtirok etib chang yutishga majbur ekani, sharoitning og‘irligi, mehnatning ko‘pligini ekspozitsiyadagi birgina jumlada keltirib o‘tadi:

"Bizning Kamola bilan To‘ra uchun chinakam mehnat endi boshlanib kelayotgan edi"[2.92].

Aslida asar To‘ra va Kamolalarning bir-biriga bo‘lgan do‘stligi, muhabbatiga bag‘ishlangan bo‘lsa-da, saratondagi bir oylik mehnat sharoitini tasvirlash orqali front ortida xizmat qilayotgan bolalarning yelkalariga tushgan og‘ir yukni tasvirlashdan iborat bo‘lgan.

Asarning tuguni ishga yaroqli erkaklarning barchasini frontga jo‘natib, qolgan G‘iyos akaga o‘xshaganlardan kolxoz ishlarida foydalanib yurilgani, garchi G‘iyos akaning ko‘zidan doim yosh oqib tursa-da, G‘iyos aka, Nusrat ferma,Abdusamat traktorchi, Karim juvozkashning o‘g‘li Roziqlarga poveska kelishidan boshlanadi. Ya'ni sharoit o‘zi og‘ir, ular ketsa yana ham ishchi kuchi kamayib, yoshlarning zimmasidagi yuk ortishi bilan asar tuguni boshlanadi. Ular ketsa nima bo‘ladi?

Biz asardagi sujetning tarkibiy qusmlariga batafsil to‘xtalmay, asar so‘ngidagi yechimga diqqatimizni qaratamiz. Eshak karvonda shaharga don tashib kech qaytgan To‘ra xirmon yonida yotib uxlab qoladi.

"U tush ko‘rdi: tushida dadasi parquvdek yumshoq bulutlar ustida oppoq otga minib, qandaydir ikki shohlik bahaybat hayvonni quvlab yurganmish… Dadasi boyagi bahaybat hayvonga yetib, qo‘lidagi qilichini siltagan ekan, bir shoxi jarang-jurung qilib uchib tushganmish…"[2.199] Ushbu tush tasviri orqali urush nihoyalayotgani, bahaybat hayvonning shoxini qilich bilan chopib tushirish orqali yana tinch zamonga qaytishimiz, shunda To‘ra va Kamolalar birga bo‘lishi mumkinligi tasvirlangan bo‘lsa, uchrashuvda shahardan olib kelgan sovg‘asini topshira olmaganidan o‘kinib, Kamola u uchun har qanday sovg‘adan ham bebaho, yorqin, pokiza tuyg‘u – muhabbatini hadya etib ketganini sezmay qolishi tasviri orqali ikkala yoshning kelgusida birga bo‘lishi, muhabbatlariga yetishishini o‘qib o‘quvchi dildan quvonadi, uzoq sahifalardan kutayotgan yoshlarning baxtidan sarmast bo‘lishi, ko‘zidan quvonch yoshlarining chiqishi tabiiy. Chunki bu yoshdagi o‘quvchilar hissiyotga boy, ta'sirchan, shu bilan birga muhabbatga qadam qo‘yqyotgan yoshdagi yoshlar bo‘lishadi.

“Badiiy asar sujeti va kompozitsiyasi xuddi mazmun va shakl kabi alohida-alohida vositadir, ayni paytda, ular o‘zaro bog‘liqdir: sujet kompozitsiyaning ichida yashaydi, kompozitsiya sujetning vujudi hisoblanadi. Demak, jon va vujud birlashsagina ruh tiriladi, yashaydi, faoliyat ko‘rsatadi”[3.142].

Nosir Fozilov asarlarining o‘qishli bo‘lishini ta’minlagan vositalardan biri qiziqarli sujet bo‘lsa, ikkinchisi bolalarbop kompozitsiya hisoblanadi. Ular o‘zaro mutanosiblik hosil qilib, betakror asarlar yuzaga kelgan. Shu bois asarning kompozitsiyasiga ham bir nazar tashlaymiz.

Yozuvchining “Qorxat” qissasida har bir bob bobning mazmunidan kelib chiqib nomlangan bo‘lsa, “Saraton” qissasida boblar “Birinchi bob”, “Ikkinchi bob” ko‘rinishida raqamlangan. Qissa o‘n bir bobdan iborat.

“Asar sarlavhasi bir yoki bir necha so‘zda ifodalanishi, yuzlab sahifalarga sochilgan mazmunni o‘zida aniq mujassam etishi, nomlanishidanoq o‘quvchini o‘ziga jalb qilishi lozim”[3.136]. Nosir Fozilovning asarlarida ham ana shu talab asosida birgina so‘z sarlavha qilib tanlangan, “Qorxat”, “Saraton” degan sarlavhani o‘qiboq o‘quvchida asarga nisbatan qiziqish uyg‘onadi.

“Saraton” qissasiga Abayning quyidagi to‘rtligi epigraf qilib olingan.

Sevgi tili so‘zsiz til,
Ko‘z bilan ko‘r, dildan bil.
Bir qarash yo bir imo
Bilan bog‘lanar ko‘ngil.

Epigraf asar mazmuniga juda mos, asarning hech qaysi o‘rnida To‘ra va Kamola o‘rtasida o‘ldim-kuydim deb ayuhannos solinganini ko‘rmaysiz, lekin epigrafda keltirilganidek, ular bir-birlari bilan ko‘z qarashlari, imolar orqali tushunishadi, dildan his qilishadi.

Qissaning ikkinchi bobiga e’tibor qilsak, G‘iyos akaning harbiy komissariyatga borgani, u yerdagi harbiylar bilan suhbatiga ko‘zimiz tushadi. “Tepakal harbiy G‘iyos akaning biletini bir boshdan varaqlab ko‘ra boshlad: uning tepa qismi – tug‘lgan yili-yu, ismi sharifi yozilgan joyi yo‘q edi. Buyog‘ini G‘iyos akaning o‘zidan so‘rashga majbur bo‘ldi:

-Familiya?
-Otangizning ismi nechik?- gapga aralashdi hamshira.
-Mamasoli.
-O‘zingizniki?
-G‘iyos.
-God rojdeniye?- dedi tepakal harbiy xuddi hamshiraning yoshini so‘rayotganday unga qarab.
-Tug‘ilgan yilingiz?- dedi hamshira ham o‘z navbatida G‘iyos akaga qarab.
Shu joyga kelganda G‘iyos aka biroz tutilib qoldi.
-Tug‘ilgan yilingizni so‘riy.
-Abdalim bilan tengman, - dedi G‘iyos aka, - anu, Korizdagi Abdalim bor-ku…”[2.108]

Ushbu parchani batafsil keltirishimizdan maqsad shuki, G‘iyos akaning soddaligini ko‘rsatadigan bu parcha asarning birinchi bobida G‘iyos akaning To‘radan yoshini so‘raganida, To‘ra tilidan “Abdug‘ani bilan tengman”,- deb eslanadi. Yozuvchi sujet voqealarini orqaga qaytarish orqali G‘iyos akaning soddaligini ifodalash, kulgu yaratishga erishgan. Bu ham bolalar uchun yaratiladigan asarlarda asarning jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Aslida yuqoridagi parcha G‘iyos akaning birinchi marta harbiy ko‘rikka borgandagi voqealar sifatida ikkinchi bobda keltirilgan bo‘lsa-da, birinchi bobda ikkinchi marta chaqiruv qog‘ozi kelishi tasvirlanadi, uchinchi bobda asar voqealari davom etadi. Yozuvchining bu uslubi kata maktab yoshidagi bolalar uchun kelgusida kattalar adabiyotini tushunish uchun zamin tayyorlagan, chunki bolalar uchun yaratilgan asarlar bilan kattalar uchun yaratilgan asarlarning sujet va kompozitsiyasi bir xil bo‘lmaydi. Qissaning ana shu o‘rinlarida yozuvchining mahoratini yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

Qissaning oltinchi bobini o‘qisak, Kamolaning Zulayho xolaning haqoratidan o‘ziga kela olmay, boshi g‘ovlab mazasi bo‘lmaganini, To‘raning onasi kelgani, ikki dugona suhbat qilgani, ertalab To‘ra va Sergey podani haydab, Kamolaning “ola”sini qo‘shib ketgani tasvirlanadi. Xuddi shu tasvirlarga diqqat qilsak, Kamolaning sigiridan boshqa hammaning mollarini yig‘ib kelgan To‘ra Kamolalarning darvozasi oldida to‘xtab qolgani, Kamola majbur sigirini andisha bilan tashqariga haydab chiqqani tasvirlanadi. “U “ola”sini sal nariroqqa haydab sigirlarga qo‘shmoqchi edi, daf’atan oldidan To‘ra chiqib qoldi. Kamola nima qilishini bilmay, unga qarab jilmaydi. To‘ra ham biroz o‘zini yo‘qotib qo‘ydi, so‘ng o‘ziga kelib “ola”ni oldiga soldi-yu, indamay haydab ketdi…”[2.141]

Shundan keyin Kamolaning qisqagina To‘raga achinishi bilan bog‘liq o‘y-xayollari, kattagina hovlida bo‘m-bo‘sh uyda yuragi siqilib ko‘chaga chiqqani, xayoliga bugun G‘yos akalarning harbiyga ketishini eslab idoraga kelib qolgani va shu bilan bir qancha voqealar tasvirlanadi.

Biz yuqorida yozuvchining asarning keyingi bobidagi tasvirlarni (hali bo‘lmagan voqealar tasvirini) unda oldingi bobda eslaganligini aytgan edik.

Bundan farqli ravishda oltinchi bobda bir qancha voqealardan keyin, yettinchi bobning bir necha sahifalaridan keyin oltinchi bobdagi Kamolaning “ola”ni podaga qo‘shishi bilan bog‘liq qisqagina voqealar tasvirining batafsil bayoni keltiriladi.

Ana shu lavhaga diqqatimizni qaratsak. “Oyimlarning aytishlariga qaraganda, Kamola kasal bo‘lib qolganmish. Shuning uchun kecha chiqolmagan. Bugun tuzuk bo‘lib qolgandir, chiqar… U shu xayolda turar ekan,anchagina sigir to‘planib qolganini sezmadi ham. Uning ko‘ngli, ko‘zi hamon o‘sha yoqda. U esa ko‘rinmaydi. Poda ketadigan mahal ham bo‘lib qoldiki, undan darak bo‘lavermadi. Odatda, Kamolaning “ola”sidan boshqa birovniki bo‘lib, o‘z vaqtida olib chiqishmas, kutib o‘tirmay podani haydab ketaverishgan bo‘lardi. Bugun jo‘nash vaqtidan ancha vaqt o‘tib ketdi, u esa hali ham nimaningdir ilinjida turar, Kamolalarning darvozasidan ko‘zini uzmas edi. Bir mahal darvoza qiya ochilib yopilganday bo‘ldi. Yuragi orziqib ketdi. Keyin tag‘in darvoza lang ochilib, ichkaridan avval ola sigir, keyin, keyin… boshqa birov chiqdi. Bu kim bo‘ldi ekan? Rizvon kelinoyining o‘zi desa, boya ketmonini yelkasiga tashlab, ishga ketganini ko‘rgandi. To‘ra beixtiyor o‘sha yoqqa qarab yurdi: qaysi ko‘z bilan ko‘rsinki, taniyolmay qolgani – Kamola ekan”[2.141]

Ushbu parchani batafsil keltirishdan maqsad, oltinchi bobdagi yuqoridagi holatning to‘liq tafsiloti bilan qisqagina tanishtirish edi.

To‘ra bilan Kamolaning bu kutilmagan uchrashuvini keyingi bobda to‘liq sharhlab o‘tish orqali yozuvchi yoshlarning bir-biriga bo‘lgan samimiy muhabbatini, hozirgi ayrim yoshlarga o‘xshab dahmaza bilan sevgi degan so‘zga ham isnod keltirib, atrofdagilar oldidagi behayolarcha yurmay ham ko‘z qarashlar, bir-biriga termilishlar, qalb yaqinligi bilan sevgining haqiqiy qiyofasini tasvirlab bera olgan. Garchi bir bobda bir voqea qisqa keltirilib, keying bobda bir qancha voqealardan so‘ng batafsil shu voqea yoritilgan bo‘lsa-da, bu asarning ko‘rkiga putur yetkazmay, ko‘rk qo‘shgani, yozuvchi aytmoqchi bo‘lgan fikrini ta’kidlash uchun xizmzt qilgan.

Nosir Fozilov asarlarini o‘qir ekansiz, har bir asarining sujeti, kompozitsion qurilishi o‘ziga xos ekanini, sujet voqealari, kompozitsion qurilishi bolalarbop ekanligining guvohi bo‘lasiz. Biz fikrimizni yozuvchining “Qorxat” qissasi bilan davom ettiramiz.

“Qorxat” qissasining “O‘zim haqimda” bobi bilan tanishadigan bo‘lsak, asar voqealari asar qahramoni Sog‘indiq o‘zini tanishtirishdan boshlanganini ko‘ramiz.

“Gapni cho‘zib o‘tirishni yoqtirmayman. Qisqa qilib aytib qo‘ya qolay: yozuvchi bo‘lmoqchiman! To‘g‘risi, ilgari yozuvchilikdan sal ko‘nglim qolgan edi. Axir o‘zingiz o‘ylab ko‘ring: kecha-yu kunduz xayolingizda yozuvchi bo‘lishdek yuksak orzu bo‘lsa, tinmay mashq qilsangiz, yozgan she’rlaringiz, hikoyalaringiz siz o‘qiyotgan maktabda ovoza bo‘lib ketsa, devoriy gazetada ishlaydigan bolalar, g‘uj-g‘uj bo‘lib yugurib yursa, “falon ikkichi bola haqida she’r yozib ber”, deb yalinsa-yu, sinfimiz rahbari birdan idoraga chaqirib olib, “Darslardan mazang yo‘q, avval dars, keyin shoirlik!” deb qiynovga olsa! Shu ham gap bo‘ldi-yu!”[4.8]

Yozuvchining asar qahramonini muallif tilidan emas, asar qahramonining o‘zini o‘zi tanishtirish uslubi yozuvchi Xudoyberdi To‘xtaboyev asarlarining uslubiga o‘xshash. Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Sariq devni minib”[5], “Shirin qovunlar mamlakati yoki sehrgarlar jangi”[6] asarlaridagi asar qahramonlarining o‘zini tanishtirishi Nosir Fozilovning “Qorxat” qissasida ham ko‘zga tashlanadi.

Diqqat qilaylik.

“Tanishib qo‘yaylik: otim Hoshim, erkalatib chaqirmoqchi bo‘lsangiz Hoshimjon deb aytasiz, Familiyam- Ro‘ziyev, Ro‘zivoy traktorchining o‘gliman. Ruxsat bersangiz, oilamiz haqida ham ikki-uch og‘iz so‘zlab o‘tsam: dadam ikki-uch yildan buyon cho‘lda bulldozer haydab yer tekislaydi, oyimning aytishiga qaraganda, o‘sha tomonlarga ham paxta ekarmish…

Rostini aytsam, o‘zim unchalik yomon bola emasman. Aql-hushim joyida, odobim ham chakki emas, oltinchi sinfning intizomli o‘quvchilaridanman”[5.4].

“Sariq devni minib” asari qahramoni Hoshimjon o‘zini qanday tanishtirsa, “Shirin qovunlar mamlakati yoki sehrgarlar jangi” asari qahramoni Akbar ham o‘zini xuddi shunday tanishtiradi.Har uchala asarning boshlanishi xuddi ertaklardagi “Bir bor ekan, bir yo‘q ekan” deb boshlanishga o‘xshaydi. Asar qahramoni Akbar bilan tanishib olamiz.

“Gap qo‘shmay tursangiz, hammasini bir boshdan so‘zlab beraman, bo‘lgan voqea qanday yuz bergan bo‘lsa, qasam ichib aytamanki, hech narsa qo‘shmasdan, hech narsani olib tashlamasdan shundayligicha aytaman…Hoshimni taniysizmi? Yo‘q taniysiz. Hozir esingizga tushiraman. Uning to‘g‘risida To‘xtaboyev degan yozuvchi kitob ham yozgan… Lekin Hoshimning …Akbar yaxshi o‘qiy olmay, oltinchi sinfda qolib ketdi, degani g‘irt yolg‘on. To‘g‘ri, men o‘sha yili oltinchi sinfda qolib ketganman, lekin yomon o‘qiganim uchun emas, yo‘q, zinhor bunday deb o‘ylamang”[6.8-9].

Mana har uchala asardan qahramonlarning o‘zini tanishtirish holati bilan tanishdik. Yozuvchi Nosir Fozilov Xudoyberdi To‘xtaboyev asarlari uslubidan foydalanganligining sababi shuki, birinchidan, har ikkila yozuvchi bir makon va zamon farzandi sifatida bir-birining asarlari bilan tanish bo‘lib, ijodiy foydalangan bo‘lsa, ikkinchidan, e’tibor berilsa, har uchala asar qahramonlari ham oltinchi, yettinchi sinf o‘quvchilari, yuqoridagi uslub shu yoshdagi bolalar ruhiyatiga, yoshiga mos bo‘lganligi bois ham har ikkala ijodkor asar boshlanishida asar qahramonlarini muallif tilidan emas, qahramonning o‘zini o‘zi tanishtirish yo‘lidan borishgan. Bu albatta o‘zini oqlagan.

Nosir Fozilov xuddi shu uslubdan Sog‘indiqning ota-onasini tanishtirishda ham foydalanadi.

“Dadam rayon kasalxonasida bosh vrach bo‘lib ishlaydi. Ismi Murod, familiyasi Qurbonnazarov. Ishxonasidagi odamlar uni Murod G‘oipovich deb chaqirishadi. Oyim ham dadam bilan birga… Oyjamol Quvondiqova! Bolalar vrachi”[4.9].

Bunday tanishtirish uslubi, birinchidan, bolajonlar uchun qiziq, chunki o‘zi bilan teng bola tildan bayon etilishi ular ruhiyati uchun ham mos. Ikkinchidan, muallif nutqidagi bayonchilik uslubidan ko‘ra samaraliroqdir.

Qissaning sarlavhasiga e’tibor qilgan o‘quvchi qorxat, nima u?- degan fikrga keladi, qiziqish uyg‘onadi. Qordan qanday qilib xat yozish mumkin, degan fikrlar ongi shuurini qamrab oladi. Butun vujudi bilan asarni o‘qishga, o‘zida paydo bo‘lgan savollarga javob topishga oshiqadi, diqqati yanada ortadi. Shuni hisobga olib yozuvchi qissaga o‘zbek xalq bolalar mavsumiy o‘yinlaridan biri bo‘lgan “Qorxat” o‘yinining nomini sarlavha qilib tanlagan. “Qorxat” qissasi o‘n bobdan iborat bo‘lib, “O‘zim haqimda”, “Qalli otani izlab”, “Tanishuv”, “Qorxat”, “Ov rejalari”, “To‘qayda”, “Oqdaryoda”, “Muz qayiq”, “Sog‘ase” orolida”, “Va nihoyat” kabi boblarni o‘z ichiga oladi. Asarning “O‘zim haqimda” bobi muqaddima, tanishtiruv bobi sifatida keltirilgan bo‘lsa, “Qalli otani izlab” bobi asardagi tugunni yuzaga keltirgan. Oxirgi “Va nihoyat” bobigacha bo‘lgan voqealar tasviri voqealar rivoji va kulminatsiyani tasvirlasa, yechim oxirgi bobda yuzaga chiqadi. Asar yettinchi sinf o‘quvchisi Sog‘indiq tilidan hikoya qilinadi. Yozuvchi davr voqealarini, tabiiat tasvirlarini bola qalb prizmasidan o‘tkazib tasvirlaydi, biroq bunda obektivlikni nazardan qochirmaydi, yosh qahramon bilan birga sevinib, birga qayg‘uradi, bu esa asarning o‘quvchi uchun ham “yuqumliligi”ni oshiradi.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Nosir Fozilov yaratgan barcha asarlarning sujeti, kompozitsion qurilishi o‘ziga xos, barchasi bolalarbop qiziqarli voqealarni o‘z ichiga olishi bilan birga, qurilishining pishiq va puxtaligi yozuvchi asarlarining yuksak badiiyligini ta’minlagan. Yozuvchi asarlarining o‘ziga xosligi shundaki, Nosir Fozilov yaratgan asarlarning birortasi bir-birining uslubini, sujet va kompozitsion qurilishini takrorlamaydi, har biri o‘zgacha qurilishga, o‘zgacha ko‘rkka ega asarlardir. Yozuvchining birinchi baxti o‘zini o‘zi takrorlamaganligi bo‘lsa, ikkinchi baxti asarlari bolajonlar qo‘lidan tushmay kelayotganligidir.

Adabiyotlar:

1. Nosir Fozilov. Adabiyot yasalmaydi, yaratiladi. www.kh-davron.uz
2. Nosir Fozilov. Saraton. Toshkent. Sharq. 2006-yil.
3. H.Umurov. Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nash. 2004-yil.
4. Nosir Fozilov. Saraton. Qissalar. Qorxat. Toshkent. Sharq. 2006-yil.
5. X.To‘xtaboyev. Sariq devni minib. Toshkent. Yangi asr avlodi. 2013-yil.
6. X.To‘xtaboyev. Shirin qovunlar mamlakati yoki sehrgarlar jangi. Toshkent. Yangi asr avlodi. 2006-yil.

Muallif:
Lutfullayev Jahongir Amirovich – Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

**** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ****

**** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2026. № 2 ****

UDK: 811.512.133-2

THE PARADIGM AND ITS ORIGIN IN LINGUISTICS

TILSHUNOSLIKDA PARADIGMA VA UNING KELIB CHIQISHI

ПАРАДИГМА И ЕЕ ПРОИСХОЖДЕНИЕ В ЛИНГВИСТИКЕ

Inomov Rayimjon Mirsaidovich
Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze.
E-mail: rayimjon.inomov.76.mail@ru

Abstract. This article provides detailed information about what the term paradigm is in the Uzbek language and how it originated. Based on the historical origins of this term and the results of research conducted by linguists, the paradigm develops and sheds light on its current meanings.

Keywords: paradigm, syntactic paradigm, lexical paradigm, morphological paradigm, proto-linguistic, comparative historical paradigm.

Annotatsiya. Ushbu maqola o‘zbek tilida paradigma atamasi nima ekanligi va uning qanday kelib chiqqanligi haqida batafsil ma’lumot beradi. Ushbu atamaning tarixiy kelib chiqishi va tilshunos olimlarning olib borgan tadqiqod natijalari asosida paradigma yanada rivojlanib, hozirgi paytda ishlatilayotgan ma’nolarini keng yoritib beradi.

Kalit so‘zlar: paradigma, sintaktik paradigma, leksik paradigma, morfologik paradigma, proto-lingvistik, qiyosiy tarixiy paradigma.

Аннотация. В данной статье представлена подробная информация о том, что означает термин «парадигма» в узбекском языке и как он возник. На основе исторического происхождения этого термина и результатов исследований лингвистов парадигма развивается и проливает свет на её современные значения.

Ключевые слова: парадигма, синтаксическая парадигма, лексическая парадигма, морфологическая парадигма, протолингвистическая, сравнительно-историческая парадигма.

Kirish. Tilshunoslikda paradigma atamasi - so‘zning o‘ziga xos grammatik toifalariga muvofiq modifikatsiyasini aks ettiruvchi bitta so‘z shakllari tizimi; pasayish yoki konjugatsiya (Konjugatsiya — bu Tilshunoslikdagi atama bo‘lib, fe’llarning shaxs, son, zamon, mayl va boshqa grammatik kategoriyalarga qarab o‘zgarishini anglatadi) turining namunasini bildiradi. “Paradigma” tushunchasi so‘z yasalishida, leksikologiyada va sintaksisda ham qo‘llaniladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Paradigma - bir xil leksemaga mansub, ammo grammatik ma’nolari turlicha bo‘lgan so‘zlarning tartiblangan to‘plamidir.

“Paradigma” atamasi yunoncha «paráδειγma» so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, παράδειγμα— “namuna”, “misol” yoki “andoza” degan ma’noni bildiradi.

Birinchi marta “*paradigma*” atamasini Platon o‘zining falsafiy dialoglarida (“Davlat”/“Respublika” asari) bu tushunchani ideal shakl yoki modelni ko‘rsatish, real dunyodagi narsalar uchun namuna sifatida ishlatgan.

Keyinchalik atama ilm-fanda keng tarqaldi, ayniqsa Thomas Kuhn tomonidan XX asrda mashhur qilindi. Uning “The Structure of Scientific Revolutions” (“Ilmiy inqiloblar haqida” 1962 yil) asarida “paradigma” ilmiy fikrlash modeli sifatida izohlangan).

XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi shveytsariyalik tilshunos Ferdinand de Sossyur tomonidan bir xil xususiyatlarga ega bo‘lgan elementlar sinfini belgilash uchun ishlatilgan.

Paradigmalar Yevropa tillarida ham qo‘llaniladi. Masalan, ingliz tilida. Agar lingvistik birliklarni taqqoslash va qarama-qarshilik munosabatlari bilan o'zaro bog'liq bo‘lgan elementlardan tashkil topgan tizim sifatida qaralsa, unda bu holda paradigmatika sodir bo‘ladi.

Morfologik nazariyalarni o‘rganadigan ba’zi tilshunoslarning fikriga ko‘ra, paradigmalar morfologiyaning markaziy tushunchasi bo‘lib, so‘zni alohida morfemalarga ajratish ixtiyoriy ma’nosiga egadir.

Tilshunoslikda paradigma to‘rt xilga ajratiladi, ya’ni, morfologik paradigma, leksik paradigma, so‘z yaratish paradigmasi, sintaktik paradigma.

Morfologik paradigma (ba’zan “grammatik paradigma” deb ham yuritiladi) - bu bitta ildizdan grammatik ma’nolarini o‘zgartirish orqali hosil bo‘lgan so‘zlar tizimi hisoblanadi. Masalan *“kirmoq”- fe’li kiraman; kirasan; kiradi; kirdim; kirding; kiramiz;*

Leksik paradigma semantik jihatdan bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan so‘zlarni (antonimlar, sinonimlar, paronimlar, omonimlar, guruhlar, semantik maydonlar va boshqalarni) birlashtiradi. Leksik paradigma so‘zlar o‘rtasidagi ma’no munosabatlariga asoslanadi, tanlash (alternativ) imkonini beradi, nutqda to‘g‘ri va mos so‘zni tanlashga yordam beradi (masalan, do‘st- dushman, chiroyli, go‘zal husn).

So‘z yasalish paradigmasi - bu bitta o‘zakdan (hosiladan) kelib chiqqan, ammo turli xil semantik va grammatik ma’nolarga ega bo‘lgan so‘zlar to‘plamidir, shu yasalgan so‘zlar bir guruh (tizim) bo‘lib keladi — bu so‘z yasalish paradigmasidir . (masalan: *ish, ishchi , ishla, ishlovchi, ishli: tajribali, tajribasiz, tajriba*).

Sintaktik paradigma— bu tilshunoslikda gap tuzilishida bir xil sintaktik o‘rinni egallay oladigan, bir-birining o‘rnida kelishi mumkin bo‘lgan birliklar tizimidir. Bir xil so‘zlardan tuzilgan, ammo grammatik ma’no jihatidan farq qiluvchi jumlalar ham bo‘lishi mumkin. Sintaktik paradigmada gapdagi pozitsiya (o‘rin) asosiy rol o‘ynaydi, shuningdek tilshunos olim Ferdinand de Sossyur nazariyasidagi paradigmatik munosabatlarga tayanadi hamda so‘z yoki iboralar tanlash imkoniyatini ko‘rsatadi.

Tilshunoslikning ilmiy paradigmalari:

Paradigma turi	Nima bilan bog‘liq?	Asosiy g‘oya	Oddiy misol
Sintaktik paradigma	Gap tuzilishi (o‘rin/pozitsiya)	Bir gapdagi bir xil o‘rinda keladigan variantlar	*Ali / u / do‘stim keldi*
Leksik paradigma	So‘z ma’nosi	Ma’nodosh yoki bir guruhga kiruvchi so‘zlar	*chiroyli / go‘zal /*

Paradigma turi	Nima bilan bog‘liq?	Asosiy g‘oya	Oddiy misol
Morfologik paradigma	So‘z shakli (grammatika)	Bir so‘zning turli grammatik shakllari	*boraman, borasan, bordim*
So‘z yasalish paradigmasi	So‘z hosil qilish	Bir o‘zakdan yangi so‘zlar yasash	*ish, ishchi, ishlamoq*

Yuqorida muhokama qilingan va faqat tilshunoslik masalalari bilan bog‘liq bo‘lgan paradigmaning ta’rifidan tashqari, ushbu atamaning barcha ilmiy fanlarga taalluqli umumiy tan olingan ta’rifi mavjud.

Ushbu ma’noda paradigma - bu ilmiy jamoatchilik tomonidan ma’lum bir fanning (yoki fan guruhining) dominant asosi sifatida tan olingan ilmiy tushunchalar, teoremalar, tamoyillar va boshqalar tizimidir. Ushbu asos hozirgi ilmiy yutuqlardan kelib chiqqan holda yaratilgan bo‘lib, ilmiy tadqiqotlar uchun vositalarni taqdim etadi, asosiy yo'nalishlarni belgilaydi, o‘rganilayotgan muammoni modellashtiradi va uning yechimlarini ishlab chiqishga imkon beradi.

Muhokama. Ilmiy fan sifatida tilshunoslikda tarixiy rivojlanish jarayonida bir necha bor bir nechta ilmiy paradigmalar ham vujudga keldi (bu jarayon ilmiy inqilob deb ataladi). Umuman olganda, tilshunoslar tilshunoslikda mavjud bo‘lgan quyidagi ilmiy paradigmalarni ajratib ko‘rsatmoqdalar:

Proto-lingvistik; Proto-lingvistik paradigma — bu tilshunoslikda ma’lum bir til oilasining yoki guruhining eng qadimgi, tiklangan (rekonstruksiya qilingan) shakllari tizimini anglatadi. Ya’ni, bugungi tillarning ajdodi bo‘lgan “proto-til” asosida tuzilgan grammatik yoki so‘z shakllari namunasi.

Qiyosiy tarixiy; Qiyosiy-tarixiy paradigma — bu tilshunoslikda tillarni qiyoslash va ularning tarixiy rivojlanishini o‘rganishga asoslangan ilmiy yondashuv (nazariy model)dir. U qiyosiy-tarixiy metodning kengroq, tizimli ko‘rinishi hisoblanadi.

Yosh grammatik; Yosh grammatik paradigma (nemischa: *Junggrammatiker*) — bu XIX asr oxirida shakllangan tilshunoslik yo‘nalishi bo‘lib, u tovush o‘zgarishlari qat’iy qonunlarga bo‘ysunadi degan g‘oyani ilgari suradi.

Tizimli va zamonaviy. (struktur yondashuv) Tizimli va zamonaviy paradigma — bu tilshunoslikda tilni yaxlit tizim sifatida (tizimli) va inson tafakkuri, jamiyat hamda zamonaviy yondashuvlar bilan bog‘liq holda (zamonaviy) o‘rganadigan ilmiy qarashlar majmuasidir. Bu paradigma tilni o‘zaro bog‘langan elementlar tizimi deb qaraydi.

Protolingvistika qadimgi, yozma manbalarda saqlanmagan dastlabki (proto) tillarni o‘rganish va tiklash bilan shug‘ullanadi. Antik davr va o'rta asrlarda tilshunoslik mustaqil ilmiy fan emas, balki falsafaning yo'nalishlaridan biri edi. O'sha paytda tilni faqat falsafa tomonidan ishlab chiqilgan usullardan foydalangan holda nazariy jihatdan tavsiflashga urinishlar qilingan.

Qiyosiy tarixiy paradigma tilshunoslikda XVIII-asr oxiri - XIX-asr o‘rtalarida hukmronlik qildi. Tilshunoslar tomonidan qiyosiy tarixiy metoddan foydalanishga asoslangan bo‘lib, bu tilni va uning rivojlanishini boshqalar bilan fazoviy va vaqtincha taqqoslashda o‘rganish imkonini berdi. Qiyosiy tarixiy paradigma o'rnini yosh grammatizm egallaganiga qaramay, ta’riflangan usul zamonaviy tilshunoslikda asosiylardan biri bo‘lib qolmoqda.

Mladogrammatizm (inglizcha *Neogrammarian*) — bu tilshunoslikdagi XIX asr oxirida shakllangan ilmiy yo‘nalish bo‘lib, u til o‘zgarishlarini qat’iy qonunlar asosida tushuntirishga harakat qilgan**.** XX asr boshlariga qadar, shu jumladan, tilshunoslikning asosi bo‘lgan. Ushbu davrda tilni o‘rganishning asosiy usullari bevosita kuzatuv va induktiv usul edi. Tilshunoslar e’tiborining ahamiyati tilning psixologik tomoniga o‘tkazildi, shuning uchun odamlarning nutq faoliyati ayniqsa o‘rganildi.

XX-asrning 20-yillaridan Ferdinand de Sossyur g‘oyalari ta’siri ostida tizimli- strukturaviy paradigma shakllana boshladi. Uning o‘ziga xos xususiyati tadqiqot tizimida til tizimlari, ularning tarkibiy birliklari va darajalarining o‘ziga xos xususiyatlari, shuningdek, turli tillar tizimlarini tashkil qilishdagi o‘xshashlik va farqlar haqida edi.

Natija. Zamonaviy tilshunoslik paradigmasi quyidagilar bilan tavsiflanadi: tilni tizimli va tizimlik tushunchasini saqlab qolish; Tilshunoslikning generativ yo‘nalishini rivojlantirish, bu, avvalo, o‘z ona tilini bolalar tomonidan tez o‘zlashtirilishini tushuntirishga harakat qiladi.

Noam Chomsky til va inson ongining bog‘liqligini chuqur o‘rgangan va Antropotsentrizm — bu “inson markazda” degan g‘oyaga asoslangan qarash bo‘lib, tilshunoslikda u tilni inson bilan bog‘lab, ya’ni inson tafakkuri, tajribasi va ehtiyojlari nuqtai nazaridan o‘rganishni anglatadi. Til mustaqil tizim emas, balki inson faoliyatining bir qismi degan g‘oyani ilgari suradi .

O‘zbek tilshunosligida “paradigma” tushunchasi asosan umumiy nazariy tilshunoslik, morfologiya va struktur tilshunoslik doirasida yoritilgan. Bu atama alohida kitob mavzusi sifatida kamroq, lekin ko‘plab darslik va ilmiy ishlarda muhim tushuncha sifatida keng qo‘llanadi. Masalan A. Abduazizovning “Umumiy tilshunoslik” asarida paradigma va sintagma tushunchalari Ferdinand de Saussure nazariyasi asosida izohlanadi. A. Nurmonov “Tilshunoslik nazariyasi” asarida esa Paradigma til birliklari o‘rtasidagi qarama-qarshilik va tanlov munosabati sifatida tushuntiriladi. Ustoz olim Sh. Rahmatullayev “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” ilmiy asarida fe’l va otlarning grammatik paradigmalarini **(**konjugatsiya, turlanish) ko‘rsatadi. Ustoz olimlarimizdan E.Begmatov ishlarida leksik va grammatik tizimlar, paradigmatik munosabatlar tahlili uchraydi. N.Mahmudovning asarlarida esa nutq madaniyati va til tizimi bo‘yicha ishlari, ya’ni paradigma til birliklarining tizim sifatida ishlashida ko‘rib chiqiladi

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ushbu dalillar shuni ko’rsatadiki, paradigmaning kelib chiqishi uzoq tarixga ega va uning rivojanishi tilning sayqallanib yanada ma’noli bo’lishiga o’z hissasini qo’shadi. O’sha paytdagi yozuvchi, olim va tilshunoslar paradigmaning ko’pgina yo’nalishlarini topishgan, lekin o’z isbotini topmaganligi sababli tilshunoslik kitoblariga kiritimagan. Ammo tilshunos Ferdinand de Sossyur ushbu atamani keng o’rganib uni birinchi marta qo’llab, xususiyatlarini keng yoritganligi bilan tarixga muhrlanib qolgan. Hozirgi paytda ham ushbu yo’nalishni o’rganib ilmiy ishlar olib borayotgan nomzodlar bir qanchani tashkil etadi. Shu bois, paradigma bundanda yuqori o’rganish va tadqiqodlarga boydir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek tili grammatikasi. – Toshkent: Fan, 2019.
2. Sayfullayeva R. Zamonaviy o‘zbek tili. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021.
3. Mirzayev M. O‘zbek tili morfologiyasi. – Toshkent: Universitet, 2020.
4. Berdaliyev A. Ergash gapli qo’shma gap konstruksiyalarida semantik-signifikativ paradigmatika—Toshkent, 1989
5. Abdullayev A. O‘zbek tili grammatik qurilishi. – Toshkent, 2016.

6. Ne'matov H. Morfologiya va sintaksis munosabatlari. – Toshkent, 2019.
7. Jo'rayeva Z, Nurmuhammedova I. Til birliklarining alohida tizim sifatida o'zaro mutanosibligi—Tadqiqotlar ilmiy jurnali, 2025
8. Bobonazarova G. Tilshunoslikda paradigma va uning kelib chiqishi – Toshkent, 2021.
9. Rustamov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. – Toshkent, 2015.
10. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik asoslari. – Toshkent, 2019.
11. Iskandarova S. Til va jamiyat. – Toshkent, 2021.
12. Rasulov R. O'zbek tilida so'z yasalishi. – Toshkent, 2017.
13. Nurmonov A. Nazariy grammatika. – Toshkent, 2018.
14. G'ulomov A. O'zbek adabiy tili me'yorlari. – Toshkent, 2016.
15. Hasanov B. Til siyosati va til taraqqiyoti. – Toshkent, 2022.
16. Internet va OAV materiallari (2020–2025).
17. Zamonaviy o'zbek matnlari korpusi materiallari.
18. Ijtimoiy tarmoqlardagi zamonaviy nutq namunalari

Muallif:
Inomov Rayimjon Mirsaidovich - Guliston davlat universiteti Tilshunoslik kafedrasi o'qituvchisi.

UDK: 811.512.133-2

THE FEATURES OF ARTISTIC THINKING AND POETIC EXPRESSION IN AZIM SUYUN'S REFRAINS

AZIM SUYUN QAYIRMALARIDA BADIIY TAFAKKUR VA POETIK IFODA XUSUSIYATLARI

ОСОБЕННОСТИ ХУДОЖЕСТВЕННОГО МЫШЛЕНИЯ И ПОЭТИЧЕСКОГО ВЫРАЖЕНИЯ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ АЗИМА СУЮНА

Safarova Madina Vali qizi
Guliston davlat pedagogika instituti, 120101. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, Talabalar ko'chasi, 49-uy
E-mail: safarovamadina8@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy o'zbek she'riyatining yirik vakillaridan biri Azim Suyun ijodidagi qayirma janrining poetik xususiyatlari tadqiq etiladi. Shoirning qayirmalarida xalq og'zaki ijodi an'analari, milliy ruh, falsafiy tafakkur hamda individual badiiy uslubning uyg'unlashuvi tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida qayirmalarning janriy tabiati, kompozitsion tuzilishi, poetik takrorlarning semantik vazifasi hamda ishq-muhabbat, milliy xotira, inson ruhiyati kabi motivlarning badiiy talqini yoritiladi. Natijada Azim Suyun qayirmalari zamonaviy o'zbek she'riyatida mustaqil poetik hodisa sifatida baholanishi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Azim Suyun, qayirma, poetika, poetik tafakkur, milliy ruh, lirika, poetik takror, badiiy obraz.

Abstract: This article examines the poetic features of the refrain genre in the works of Azim Suyun, one of the prominent representatives of modern Uzbek poetry. The study analyzes the synthesis of folklore traditions, national spirit, philosophical thinking and individual artistic style in the poet's refrains. Particular attention is paid to the genre characteristics, compositional structure, semantic functions of repetition and the artistic interpretation of themes such as love, national memory and human spirituality. The research concludes that Azim Suyun's refrains represent an independent poetic phenomenon in contemporary Uzbek literature.

Keywords: Azim Suyun, refrain, poetics, artistic thinking, national spirit, lyric poetry, poetic repetition, artistic image.

Аннотация: В статье исследуются поэтические особенности жанра «қайирма» в творчестве известного узбекского поэта Азима Суюна. Анализируются вопросы взаимодействия фольклорных традиций, национального духа, философского мышления и индивидуального художественного стиля. Особое внимание уделяется жанровой природе, композиционной структуре, семантическим функциям повтора и художественному воплощению тем любви, национальной памяти и духовного мира человека. Делается вывод о том, что «қайирма» в творчестве Азима Суюна представляет собой самостоятельное поэтическое явление современной узбекской литературы.

Ключевые слова: Азим Суюн, қайирма, поэтика, художественное мышление, национальный дух, лирика, поэтический повтор, художественный образ.

Kirish. XX asr oxiri va XXI asr boshlaridagi o'zbek she'riyati badiiy tafakkurning yangilanishi, poetik shakllarning rang-baranglashuvi hamda individual uslublarning kuchayishi bilan xarakterlanadi. Istiqlol davri she'riyatida milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash va inson ruhiyatining murakkab qatlamlarini badiiy tadqiq etish tendensiyasi kuchaydi. Ana shunday jarayonda Azim Suyun ijodi alohida ahamiyat kasb etadi.

Shoir o'zining poetik izlanishlari natijasida xalq og'zaki ijodidagi qayirma shaklini yangi badiiy-estetik mazmun bilan boyitdi va uni zamonaviy she'riyatning mustaqil poetik hodisasiga aylantirdi. Azim Suyun qayirmalarida milliy ruh, falsafiy mushohada, xalqona ohang va zamonaviy poetik tafakkur uyg'unlashgan.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar

Shoirning "Ey do'st!" turkumiga mansub qayirma she'rlari, ularning poetik strukturasi, badiiy-estetik xususiyatlari hamda semantik qatlamlari asosiy o'rganish manbai sifatida tahlil qilindi.

Azim Suyun ijodi XX asr oxiri va XXI asr boshlaridagi o'zbek she'riyatida milliy ruh, falsafiy mushohada va xalqona ohang uyg'unlashgan poetik tizim sifatida alohida ahamiyatga ega [1]. Uning qayirmalari nafaqat badiiy ifoda vositasi, balki mustaqil poetik tafakkur modeli sifatida shakllangan bo'lib, ularda inson ruhiyati, zamon muammolari, milliy qadriyatlar va ma'naviy izlanishlar o'z ifodasini topgan [2].

Tadqiqot obyekti sifatida qayirma janrining Azim Suyun ijodidagi transformatsiyasi ham muhim o'rin egallaydi. Dastlab xalq og'zaki ijodi va mumtoz she'riyatda takroriy misra yoki ohang sifatida mavjud bo'lgan bu shakl shoir ijodida yangi badiiy-falsafiy

mazmun kasb etgan [3]. Shu jihatdan qayirma shoir ijodida oddiy takror emas, balki semantik markaz, ritmik tayanch va hissiy kuchaytiruvchi element sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot doirasida shoirning “Ey do‘st!” murojaati bilan boshlanuvchi she’rlari, ulardagi obrazlar tizimi, xususan, nilufar, qomat, may, chashma kabi ramziy timsollar ham alohida tahlil etildi. Bu obrazlar orqali shoir insonning ichki dunyosi va tashqi borliq o‘rtasidagi estetik uyg‘unlikni ifodalagan [6].

Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda kompleks ilmiy yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqotning metodologik asosini adabiyotshunoslikning zamonaviy tahlil usullari tashkil etadi. Xususan, quyidagi metodlardan foydalanildi:

Tavsifiy-tahliliy metod yordamida Azim Suyun qayirmalarining matniy tuzilishi, badiiy ifoda vositalari va poetik xususiyatlari izchil o‘rganildi. Ushbu metod she’r matnini ichki komponentlarga ajratish, obrazlar tizimini aniqlash hamda ularning funksional vazifasini yoritishga imkon berdi [5].

Tahlil jarayonida qayirmalarning kompozitsion tuzilishi, takroriy birliklarning joylashuvi va ritmik tizimi o‘rganildi. Aniqlanishicha, takroriy misralar shoir ijodida nafaqat ohangdorlik, balki semantik kuchaytirish vazifasini ham bajaradi. Bu esa qayirma janrining o‘ziga xos badiiy mexanizmini tashkil etadi [6].

Struktur-semantik yondashuv orqali qayirmalardagi poetik birliklarning ichki bog‘lanishi va ma’no qatlamlari tahlil qilindi. Ushbu metod yordamida takror, metafora, ramz va allegoriyalarning matn ichidagi funksional vazifasi aniqlanadi.

Masalan, “nilufar” obrazi shoir ijodida poklik va ma’naviy yuksaklik ramzi sifatida talqin qilinsa, “qomat” obrazi inson go‘zalligining estetik timsoli sifatida namoyon bo‘ladi [7]. Struktur tahlil shuni ko‘rsatdiki, bu obrazlar qayirmalarda mustaqil emas, balki o‘zaro semantik bog‘lanish orqali umumiy falsafiy mazmunni hosil qiladi.

Qiyosiy-tipologik metod asosida Azim Suyun qayirmalari xalq og‘zaki ijodi va mumtoz she’riyat an’analari bilan solishtirildi. Natijada qayirma janrining folklor ildizlari mavjud bo‘lsa-da, shoir ijodida u zamonaviy poetik tafakkur bilan boyitilgani aniqlandi [2].

Xalq qo‘shiqlarida qayirma asosan musiqiylik va takroriylik vazifasini bajarsa, Azim Suyun ijodida u falsafiy yuk va estetik markazga ega mustaqil poetik birlik sifatida shakllangan. Bu esa janr evolyutsiyasining muhim bosqichi hisoblanadi.

Germenevtik yondashuv orqali qayirmalardagi falsafiy mazmun, ramziy qatlam va ma’naviy g‘oyalar talqin qilindi. Ushbu metod matnni faqat lingvistik birlik sifatida emas, balki ma’naviy va estetik hodisa sifatida o‘rganishga imkon berdi [8].

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, shoir qayirmalarida inson, jamiyat va borliq munosabatlari chuqur falsafiy mushohada darajasiga ko‘tarilgan. Masalan, “bardavomlik uchun har jon kurashar” misrasida hayotning abadiyligi va insonning ma’naviy izlanishi aks etadi.

Tadqiqotda intertekstual tahlil usuli ham qo‘llanilib, Azim Suyun qayirmalarining Sharq mumtoz adabiyoti, xususan, tasavvuf she’riyati bilan bog‘liqligi o‘rganildi. Shoir ijodida “may”, “jonon”, “ishq” kabi obrazlar tasavvufiy ramzlar bilan uyg‘unlashgan holda qo‘llanilgan [9].

Bu yondashuv qayirmalarning nafaqat milliy, balki umuminsoniy poetik tafakkur bilan ham bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Azim Suyun qayirmalari birinchi marta tizimli ravishda mustaqil poetik janr sifatida struktur-semantik va germenevtik asosda tahlil qilindi. Shuningdek, qayirma janrining folklordan zamonaviy she’riyatga o‘tish jarayoni ilmiy asosda yoritildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Azim Suyun ijodi yuzasidan adabiyotshunos olimlar tomonidan qator ilmiy kuzatishlar olib borilgan. Xususan, Qozoqboy Yo‘ldoshev shoir qayirmalarining poetik tabiatini tahlil qilib, ularni xalq og‘zaki ijodi bilan zamonaviy she’riy tafakkur sintezi sifatida baholaydi [2].

Ibrohim G‘afurov Azim Suyun she’riyatining asosiy xususiyatlaridan biri sifatida uning samimiyligi va ruhiy teranligini ko‘rsatadi [4]. Najmiddin Komilov esa tasavvufiy poetika va ramzlarning zamonaviy adabiyotdagi talqinlarini tadqiq etar ekan, Azim Suyun ijodida uchraydigan may, ishq, jonon kabi obrazlarning ma’naviy-falsafiy mohiyatiga e’tibor qaratadi [5].

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda qiyosiy-tipologik, struktur-semantik, poetik tahlil hamda germenevtik metodlardan foydalanildi. Azim Suyunning “Ey do‘st” turkumiga mansub qayirmalari asosiy tadqiqot materiali sifatida tanlandi. She’riy matnlar poetik obraz, takror, ramz va kompozitsion qurilish nuqtai nazaridan tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar

Azim Suyun qayirmalarining eng muhim jihati poetik takrorning yangi badiiy vazifa kasb etishidir. An’anaviy xalq qo‘shiqlarida takror asosan ritmik va musiqiy funksiyani bajarsa, shoir ijodida u semantik markaz vazifasini o‘taydi.

Masalan:

Ey do‘st!
Garchi liboslari oddiy va odmi,
Orasta ayollar suyumli, dilbar.
Nilufar qavmidan ularning qavmi –
Ko‘lmakda ham gul ufurar nilufar.

Mazkur misralarda nilufar obrazi insonning ma’naviy pokligi va ruhiy go‘zalligi ramzi sifatida talqin qilinadi. Shoir tashqi ko‘rinish emas, balki ichki komillikni ulug‘laydi. Nilufarning ko‘lmakda ham gullashi har qanday muhitda insoniy fazilatlarni saqlab qolish g‘oyasini ifodalaydi.

Azim Suyun poetikasida qayirma ko‘pincha falsafiy umumlashma vositasi sifatida namoyon bo‘ladi:

Ey do‘st!
Bardavomlik uchun har jon kurashar,
Ki, tosh ildiz otay debon kurashar.
Lekin, boq, bu jonon chopar ildizin,
Ildizin umriga qachon kurashar?

Ushbu misralarda “ildiz” timsoli milliy o‘zlik, tarixiy xotira va ma’naviy qadriyatlarning ramziy ifodasi sifatida talqin qilinadi. Shoir zamonaviy insonning o‘z ma’naviy ildizlaridan uzoqlashayotganini poetik iztirob bilan tasvirlaydi.

Qayirmalarda muhabbat motivi ham muhim o‘rin tutadi. Shoir muhabbatni nafaqat hissiy kechinma, balki insonni ma’naviy komillikka yetaklovchi qudrat sifatida talqin qiladi.

Ishq – vafo, ishq – jafo, jondan kechasiz,
Hilol u – Oy bo‘lib to‘la-to‘lguncha.
Ishq – chashma, ishq – sharob, har kun ichasiz,
Va lekin to‘ymaysiz o‘la-o‘lguncha.

Bu satrlarda ishqning ziddiyatli mohiyati ochib beriladi. Vafo va jafo, zavq va iztirob, visol va hijron bir-biri bilan uzviy bog‘liq holda talqin etiladi. Chashma va sharob timsollari ishqning ruhiy quvvat va ma’naviy mastlik manbai ekanligini ifodalaydi.

Azim Suyun qayirmalarida milliy ruh va xalqona ohangning uyg‘unligi ham alohida ahamiyatga ega. “Ey do‘st” murojaati she’rlarning kompozitsion markazi bo‘lib, o‘quvchi bilan samimiy muloqot hosil qiladi. Natijada she’riy nutq xalq termalari va qo‘shiqlariga xos tabiiy ohang kasb etadi.

Shoirning qayirmalarida quyidagi poetik xususiyatlar yaqqol namoyon bo‘ladi:
– poetik takrorning semantik vazifasi;
– xalqona ohang va zamonaviy tafakkur uyg‘unligi;
– ramziy-falsafiy qatlamning kuchliligi;
– ixcham shaklda katta ma’no sig‘dirish mahorati;
– milliy ruh va tarixiy xotiraning poetik talqini;
– ishq-muhabbatning ma’naviy-falsafiy mohiyatda ifodalanishi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Azim Suyun qayirmalarida takror oddiy badiiy vosita emas, balki ma’no hosil qiluvchi poetik mexanizm vazifasini bajaradi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi kengaytirilgan xulosalarga kelindi. Avvalo, Azim Suyun qayirmalari zamonaviy o‘zbek she’riyatida o‘ziga xos, mustaqil poetik hodisa sifatida shakllangan bo‘lib, ular shoir ijodining muhim estetik qatlamini tashkil etadi. Ushbu qayirmalar an’anaviy she’riy shakllardan farqli ravishda, ma’lum bir poetik tizim va ifoda uslubiga ega bo‘lib, zamonaviy lirikaning rivojlanish jarayonida alohida o‘rin egallaydi.

Shoir xalq og‘zaki ijodida mavjud bo‘lgan qayirma an’anasini ijodiy jihatdan qayta ishlagan holda, unga yangi badiiy-estetik mazmun yuklaydi. Natijada qayirmalar nafaqat takroriy ifoda vositasi, balki chuqur falsafiy mazmunni tashuvchi poetik struktura sifatida namoyon bo‘ladi. Bu jarayon folklor va yozma adabiyot o‘rtasidagi uzviy aloqadorlikni ham yaqqol ko‘rsatib beradi.

Qayirmalarda qo‘llanilgan poetik takror semantik markaz vazifasini bajaradi. Ya’ni, takroriy misralar yoki ifodalar she’rning ichki g‘oyaviy yukini bir nuqtada jamlab, uning emotsional va falsafiy ta’sir kuchini oshiradi. Shu orqali she’riy matnning ichki uyg‘unligi ta’minlanadi hamda o‘quvchi idrokida chuqurroq badiiy ta’sir hosil bo‘ladi.

Mazkur qayirmalarda milliy ruh, tarixiy xotira, inson ruhiyati, hayotiy iztirob va muhabbat kabi motivlar yetakchi o‘rin tutadi. Ushbu mavzular shoirning dunyoqarashi va badiiy konsepsiyasini ifodalab, uning ijodini milliy poetik tafakkur bilan bog‘laydi. Shu bilan birga, qayirmalar inson ichki olamining murakkab qatlamlarini ochib beruvchi badiiy vosita sifatida ham xizmat qiladi.

Umuman olganda, Azim Suyun qayirmalarini zamonaviy o‘zbek poetik tizimida alohida janr yoki janrga yaqin poetik shakl sifatida ilmiy jihatdan chuqur o‘rganish zarur. Bu esa o‘z navbatida o‘zbek she’riyatining janriy imkoniyatlarini kengroq yoritishga xizmat qiladi. Kelgusida esa qayirma janrining boshqa zamonaviy shoirlar ijodida qanday ko‘rinishlarda namoyon bo‘lishini qiyosiy aspektda tadqiq etish, uning evolyutsiyasini aniqlash va poetik taraqqiyotdagi o‘rnini belgilash muhim ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov N. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018. – 76 b.
2.Yo‘ldoshev Q. Adabiyot va badiiy tafakkur. – Toshkent: Ma’naviyat, 2015. – 34 b.
3. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1983. – 47 b.
4. G‘afurov I. So‘z va ruhiyat. – Toshkent: Sharq, 2012. – 26 b.
5. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: Yozuvchi, 2009. – 30 b.
6. Azim Suyun. Ey do‘st. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2014. – 65 b.
7. Karimov B. Hozirgi o‘zbek she’riyati poetikasi. – Toshkent: Fan, 2018. – 63 b.
8. Qo‘chqorov R. O‘zbek she’riyatida badiiy takror. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2016. – 82 b.
9. Navoiy Alisher. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. J. 7. Hayrat ul-abror. – Toshkent: Fan, 1991. – 45 b.

UDK: 811.512.133-2

THE PORTRAYAL OF THE TEACHER IMAGE IN JADID LITERATURE

JADID ADABIYOTIDA O‘QITUVCHI OBRAZI TASVIRI

ИЗОБРАЖЕНИЕ ОБРАЗА УЧИТЕЛЯ В ЖАДИДСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Saidova Shakhnoza Isroil qizi
Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze.
E-mail: doctoral-student2026@gmail.com

Abstract. This article analyzes the image of the teacher in Jadid literature, its artistic and aesthetic features, and its close connection with enlightenment ideas. The study highlights the factors that led to the emergence of the Jadid movement, the ideological directions of Jadid literature, and the role of the teacher's personality within it. In addition, the pedagogical views of prominent Jadid representatives such as Abdulla Avloniy, Mahmudhoja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidkhanov, and Abdurauf Fitrat, as well as the teacher images created in their works, are scientifically analyzed. The article examines the image of the teacher in Jadid journalism, his role in social development, and the artistic representation of social problems related to the educational system. A comparative analysis of the images of teachers in traditional and new-method schools is carried out, revealing their distinctive characteristics and educational-aesthetic functions. The findings show that in Jadid literature the image of the teacher is interpreted as an artistic embodiment of the

ideas of national awakening, spiritual development, and the upbringing of a well-rounded individual. It is also substantiated that the pedagogical views of the Jadids retain their theoretical and practical significance for the modern educational system.

Keywords: Jadid literature, teacher image, enlightenment, Jadidism, teacher, pedagogical views, national awakening, new-method schools, education and upbringing, spiritual education.

Annotatsiya. Mazkur maqolada jadid adabiyotida o‘qituvchi obrazi tasviri, uning badiiy-estetik xususiyatlari hamda ma’rifatparvarlik g‘oyalari bilan uzviy bog‘liqligi tahlil qilingan. Tadqiqotda jadidchilik harakatining vujudga kelish omillari, jadid adabiyotining g‘oyaviy yo‘nalishlari va unda o‘qituvchi shaxsining tutgan o‘rni yoritilgan. Shuningdek, Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat kabi jadid namoyandalarining qarashlari hamda ularning asarlarida yaratilgan muallim obrazlari ilmiy tahlil qilingan. Maqolada jadid publitsistikasida o‘qituvchi obrazi, uning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni, shuningdek, ta’lim tizimi bilan bog‘liq ijtimoiy muammolarning badiiy ifodasi ko‘rib chiqilgan. Eski va yangi usul maktablari muallimlari obrazlari qiyosiy tahlil qilinib, ularning xarakter xususiyatlari hamda ma’rifiy-estetik funksiyalari ochib berilgan. Tadqiqot natijasida jadid adabiyotida o‘qituvchi obrazi milliy uyg‘onish, ma’naviy taraqqiyot va komil inson tarbiyasi g‘oyalarining badiiy ifodasi sifatida talqin etilgani aniqlandi. Shuningdek, jadidlarning pedagogik qarashlari bugungi ta’lim tizimi uchun ham muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega ekanligi asoslandi.

Kalit so‘zlar: jadid adabiyoti, o‘qituvchi obrazi, ma’rifatparvarlik, jadidchilik, muallim, pedagogik qarashlar, milliy uyg‘onish, yangi usul maktablari, ta’lim-tarbiya, ma’naviy tarbiya.

Аннотация. В данной статье анализируется образ учителя в джадидской литературе, его художественно-эстетические особенности и взаимосвязь с просветительскими идеями. В исследовании освещаются факторы возникновения джадидского движения, идейные направления джадидской литературы и роль личности учителя в ней. Кроме того, научно проанализированы взгляды таких представителей джадидизма, как Абдулла Авлони, Махмудходжа Бехбуди, Мунавваркары Абдурашидханов, Абдурауф Фитрат, а также созданные в их произведениях образы учителей. В статье рассматривается образ учителя в джадидской публицистике, его роль в развитии общества, а также художественное отражение социальных проблем, связанных с системой образования. Проведен сравнительный анализ образов учителей старой и новой школы, раскрыты их характерные особенности и просветительско-эстетические функции. В результате исследования установлено, что в джадидской литературе образ учителя интерпретируется как художественное воплощение идей национального возрождения, духовного развития и воспитания гармонично развитой личности. Обосновано также, что педагогические взгляды джадидов сохраняют свою теоретическую и практическую значимость для современной системы образования.

Ключевые слова: джадидская литература, образ учителя, просветительство, джадидизм, педагогические взгляды, национальное возрождение, новометодные школы, образование и воспитание, духовное воспитание.

Introduction. By the end of the last century, an important stage of national awakening emerged in the socio-political and cultural life of Turkestan through the movement of Jadid intellectuals. This movement set itself the goals of educating the population, whose literacy level was low, and introducing schools that met the requirements of the modern era. Numerous scholars in our country have conducted research on the Jadid movement in Turkestan, including Dilmurod Quronov, Begali Qosimov, Hamidulla Boltaboyev, Naim Karimov, Sultonmurod Olim, Alisher Ziyodov, Bahodir Karim, Ubaydulla Dolimov, and Inomjon G‘aniyev.

In their scholarly works, literary scholars Hamidulla Boltaboyev and Naim Karimov examined Jadid literature, emphasizing its ideological orientation, views, and distinctive features, particularly its aim of liberating people from ignorance and shaping national consciousness. The image of the teacher occupies a special place in Jadid writings. According to the Jadids, the teacher was regarded as the main force ensuring social progress and leading the nation toward enlightenment. Prominent Jadid figures such as Mahmudhoja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidkhanov, and Abdurauf Fitrat portrayed the teacher in their works as a person possessing high moral qualities.

A number of scholars have investigated this issue from different perspectives. U. Dolimov analyzed Abdulla Avloniy's pedagogical views, while H. Boltaboyev and B. Qosimov studied the system of enlightenment-oriented characters in Jadid literature. N. Karimov, in turn, examined the pedagogical concepts reflected in Jadid writings. According to these scholars, the image of the teacher in Jadid literature appears not only as a literary character but also as a bearer of socio-educational ideas.

In the context of globalization and the modernization of the educational system, studying the image of the teacher in Jadid literature and the pedagogical ideas embodied in it has significant scientific and practical importance. The purpose of this study is to identify the artistic and aesthetic features of the teacher image created in Jadid literature and to reveal its educational essence. The objectives of the research include analyzing the ideological orientations of Jadid literature, comparatively examining teacher images in the works of Jadid writers, and identifying both common and distinctive aspects of their artistic interpretation. The findings of this research will contribute to a deeper understanding of the history of Jadid literature and pedagogical thought.

Research Object and Applied Methods

The object of this study consists of the images of teachers portrayed in the literary, journalistic, and pedagogical works of prominent representatives of Jadid literature, including Abdulla Avloniy, Mahmudhoja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidkhanov, Abdurauf Fitrat, and other Jadid writers. In addition, the enlightenment ideas reflected in Jadid drama, journalism, and pedagogical heritage constitute an integral part of the research object. The study employed historical-comparative, comparative-typological, descriptive-analytical, hermeneutic, and literary analysis methods. The historical-comparative method was used to examine the factors that contributed to the emergence of the Jadid movement and the stages in the formation of the teacher image in Jadid literature. Based on the comparative-typological method, the images of teachers in traditional and new-method schools were compared and contrasted. The descriptive-analytical method was applied to analyze the artistic and aesthetic characteristics of teacher images in the works of Jadid writers. Through the hermeneutic method, the ideological and artistic content of the literary works was interpreted. Furthermore, by applying methods of generalization and systematization of scientific sources, relevant conclusions regarding the research problem were drawn.

Results and Discussion

The primary goal of the Jadid movement was to enlighten the people, awaken national consciousness, and lead society toward progress. Therefore, the Jadids' views on education and upbringing occupy a central place in their literary and journalistic heritage.

Prominent Jadid figures such as Mahmudhoja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, and Munavvarqori Abdurashidkhanov regarded knowledge and enlightenment as the main factors of national development. In particular, Abdulla Avloniy's approach to education in his work Turkiy Guliston yoxud Axloq ("Turkic Gulistan or Ethics"), where he states that "For us, education is a matter of either life or death, salvation or destruction," clearly reveals the essence of Jadid pedagogical thought [1]. New-method schools occupied a special place in the enlightenment activities of the Jadids. Established in Turkestan at the end of the nineteenth and the beginning of the twentieth centuries, these Jadid schools aimed to reform the traditional educational system by introducing modern subjects, developing new textbooks, and implementing advanced pedagogical methods.

Particular attention was paid in Jadid literature to the role of teachers in social development. According to the Jadids, a teacher was not merely a provider of knowledge but also a leader guiding people toward enlightenment and an initiator of socio-political and spiritual transformations within society. In the works of Behbudiy, Fitrat, and Avloniy, the image of the teacher is portrayed as progressive, devoted, and responsible for the destiny of the nation [7].

In Jadid literature, the teacher is interpreted as a person responsible for shaping the future of the nation. Jadid writers repeatedly emphasized that the upbringing of the younger generation and the future of society directly depend on the activities of teachers. In particular, in the works of A. Avloniy, M. Behbudiy, and A. Fitrat, the teacher is depicted not only as a transmitter of knowledge but also as an educator who forms a well-rounded individual and instills national values in the minds of the younger generation [3].

Among the representatives of Jadid literature, Abdulla Avloniy paid special attention to glorifying the teacher and defining his role in society. In works such as Turkiy Guliston yoxud Axloq ("Turkic Gulistan or Ethics"), Birinchi Muallim ("The First Teacher"), Ikkinchi Muallim ("The Second Teacher"), and Maktab Gulistoni ("School Garden"), the teacher is interpreted as a disseminator of enlightenment and a guide leading young people toward perfection. Particularly in Turkiy Guliston yoxud Axloq, Avloniy emphasizes that a teacher should possess not only profound knowledge but also high moral qualities. According to Avloniy, the teacher is the principal force ensuring the spiritual development of the nation [6].

The image of the enlightened teacher also occupies an important place in the works of Mahmudhoja Behbudiy. In his journalistic writings, textbooks, and dramatic works, Behbudiy presented knowledge and enlightenment as the main factors of social progress. Although the teacher is not the central character in his drama Padarkush ("The Parricide"), the ideological orientation of the work encourages young people to pursue education and acquire modern knowledge. In Behbudiy's view, the teacher is regarded as a spiritual guide capable of rescuing society from ignorance and backwardness [4].

Munavvarqori Abdurashidkhanov, as one of the founders of the new-method schools in Turkestan, regarded pedagogical activity as the foundation of national development. In his textbooks, articles, and enlightenment activities, great responsibility was assigned to the teacher. According to Munavvarqori, a teacher should possess profound knowledge, a modern worldview, and remain committed to both national and universal values. Through the new-method schools he established, he sought to reform the educational system [1]. In Jadid literature, the positive image of the teacher is primarily portrayed as a person endowed with high moral and ethical qualities. Jadid writers depict teachers as patriotic, devoted, just, honest, enlightened, patient, and highly cultured individuals. In the works of Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, and Mahmudhoja Behbudiy, special emphasis is placed on the teacher's moral purity, exemplary personal conduct, and educational influence [3]. Issues of education and upbringing occupy a central place in Jadid drama and journalism. In particular, Mahmudhoja Behbudiy extensively highlighted the significance of knowledge and enlightenment in social development through his dramatic and journalistic works. Although the teacher is not portrayed as the central character in Behbudiy's famous drama Padarkush (The Parricide), the ideological orientation of the work encourages young people to pursue education and acquire modern knowledge. The drama demonstrates that ignorance, neglect of children's upbringing, and alienation from enlightenment may lead to tragic consequences. According to Behbudiy, teachers and schools are among the principal factors capable of saving society from decline. The social status of teachers also received considerable attention in Jadid journalism. Numerous articles concerning the role of teachers in society, their financial conditions, professional responsibilities, and pedagogical activities were published in newspapers and journals such as Taraqqiy, Samarqand, Oyina, Sadoyi Turkiston, and Hurriyat during the early twentieth century. In their journalistic writings, Behbudiy, Munavvarqori, Fitrat, and Avloniy glorified teachers as the spiritual leaders of the nation. They repeatedly emphasized that social progress directly depends on the quality of education and the professional competence of teachers [6].

Social problems related to teachers' activities are also widely reflected in Jadid literature. The shortcomings of the traditional educational system, the financial difficulties experienced by teachers, and social issues such as ignorance and religious fanaticism are portrayed critically in literary works. Jadid writers sought to reveal these problems through literary characters, dramatic situations, and journalistic discourse. Particularly in Fitrat's articles and Behbudiy's journalistic heritage, educational reform is interpreted as an urgent social issue.

The image of traditional school teachers in Jadid literature is often depicted in a critical manner. Jadid writers attempted to artistically portray outdated teaching methods prevailing in traditional schools, rote-learning practices, and the inability of certain teachers to keep pace with the demands of the modern era. In the works of Behbudiy, Avloniy, and Fitrat, some traditional teachers are portrayed as narrow-minded individuals who opposed innovation and were incapable of renewing the content and methods of education. However, the Jadids did not reject all representatives of traditional education; rather, they emphasized the necessity of enriching traditional education with modern knowledge [2]. Teachers of the new-method schools, on the other hand, are portrayed in Jadid literature as progressive, enlightened, and devoted individuals. They are represented as people who mastered modern sciences and sought to educate the younger generation in the spirit of patriotism, humanism, and respect for national values. Jadid writers glorified new-method teachers as competent educators serving the progress of the nation [4]. In the works of Avloniy, Munavvarqori, and Behbudiy, such teachers appear as promoters of science and spiritual leaders among the people.

Traditional and modern educational principles are comparatively analyzed in Jadid literature. While traditional schools mainly relied on religious instruction and rote memorization, new-method schools paid greater attention to secular subjects, visual teaching methods, systematic instruction, and practical exercises. Jadid writers regarded modern pedagogical approaches as an important factor of social progress. In the works of Fitrat, Behbudiy, and Avloniy, the advantages of new educational methods are substantiated through both literary and journalistic means. Thus, Jadid literature contributed significantly to the formation of the theoretical and practical foundations for reforming the educational system. In Jadid literature, the image of the teacher appears not only as a literary character but

also as a figure performing significant educational and aesthetic functions. Through this image, Jadid writers promoted the ideals of knowledge and enlightenment, encouraged young people to acquire modern education, and contributed to the dissemination of the ideas of national awakening. In Jadid literature, the teacher image was elevated to the level of an aesthetic ideal and became an artistic embodiment of the concept of the perfect individual. Therefore, the image of the teacher in Jadid literature continues to retain its scientific, educational, and pedagogical significance even today.

Conclusion and Recommendations

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, akademik yozuv kompetensiyasi birgina imlo qoidalarini bilish yoki grammatik jihatdan to‘g‘ri gap tuzish bilan chegaralanmaydi. U bir nechta o‘zaro bog‘liq kompetensiyalar tizimidan iborat. Birinchi komponent - mazmuniy kompetensiya bo‘lib, u mavzuni tushunish, ilmiy muammoni aniqlash, asosiy g‘oyani belgilash va fikrni izchil rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Ikkinchi komponent - kompozitsion kompetensiya bo‘lib, matn qismlarini maqsadga muvofiq joylashtirish, kirish, asosiy qism, natija va xulosani mantiqiy bog‘lash bilan bog‘liq. Uchinchi komponent - uslubiy kompetensiya bo‘lib, ilmiy uslubga xos aniqlik, xolislik, dalillilik va terminologik izchillikni ta’minlaydi.

To‘rtinchi komponent - manba bilan ishlash kompetensiyasidir. Akademik yozuvda manbadan foydalanish oddiy ko‘chirish emas, balki ilmiy axborotni tahlil qilish, umumlashtirish, muallif fikrini o‘z nuqtai nazari bilan bog‘lash, iqtibos va havolani to‘g‘ri rasmiylashtirishni talab qiladi. Beshinchi komponent - tahrir kompetensiyasi bo‘lib, unda talaba o‘z matnini qayta o‘qish, ortiqcha takrorlarni olib tashlash, mantiqiy uzilishlarni to‘g‘rilash, uslubiy xatolarni aniqlash va matnni yakuniy holatga keltirish malakasiga ega bo‘ladi.

Akademik yozuvni o‘qitishda eng ko‘p uchraydigan muammolardan biri mavzu va muammoni farqlay olmaslikdir. Masalan, “O‘zbek tilida sinonimlar” mavzu hisoblanadi, ammo “O‘zbek tilida sinonimlarning ilmiy matnda aniqlik va uslubiy rang-baranglikni ta’minlashdagi roli” ilmiy muammo sifatida aniqroq ko‘rinadi. Talabaga avvalo mavzudan muammo chiqarish, muammodan maqsad va vazifa belgilash, keyin esa dalil va xulosaga o‘tish o‘rgatilishi zarur.

Ikkinchi muammo - xatboshilar o‘rtasidagi bog‘lanishning sustligi. Akademik matnda har bir xatboshi alohida fikrni bildirishi bilan birga, umumiy g‘oyaga xizmat qilishi kerak. Buning uchun “birinchidan”, “ikkinchidan”, “shuningdek”, “demak”, “biroq”, “shu bois”, “xulosa qilib aytganda” kabi bog‘lovchi vositalardan o‘rinli foydalanish lozim. Ammo ularning haddan tashqari ko‘p ishlatilishi ham matnni sun’iylashtiradi. Shu sababli bog‘lovchi birliklar mantiqiy ehtiyoj asosida tanlanishi kerak.

Uchinchi muammo - ilmiy uslubda subyektiv va og‘zaki nutqqa xos birliklarning ortiqcha ishlatilishidir. Masalan, “menimcha juda zo‘r fikr”, “bu narsa juda kerak”, “ko‘p odamlar shunday deydi” kabi birliklar akademik yozuv talabiga mos kelmaydi. Ularning o‘rniga “tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki”, “mazkur holat quyidagi omillar bilan izohlanadi”, “ushbu fikrni quyidagi dalillar asoslaydi” kabi ilmiy uslubga xos ifodalar qo‘llanishi maqsadga muvofiq.

Quyidagi jadvalda akademik yozuv kompetensiyasining asosiy tarkibiy qismlari va ularni shakllantirishga xizmat qiluvchi metodik topshiriqlar umumlashtiriladi:

Komponent	Mazmuni	O‘qitish usuli	Kutiladigan natija
Mazmuniy kompetensiya	Mavzu, muammo, maqsad va g‘oyani aniqlash	Muammo xaritasi, savol-javob, reja tuzish	Talaba ilmiy muammoni aniq qo‘yadi
Kompozitsion kompetensiya	Matn qismlarini izchil tashkil etish	Kirish, asosiy qism, xulosa modelini tahlil qilish	Matn mantiqiy tuzilishga ega bo‘ladi
Uslubiy kompetensiya	Ilmiy uslub, termin, xolis bayon	Namuna matnlarni uslubiy tahlil qilish	Ilmiy bayon aniqligi ortadi
Manba bilan ishlash	Iqtibos, havola, adabiyotlar ro‘yxati	Manba konspekti, parafraz, havola mashqlari	Akademik halollik shakllanadi
Tahrir kompetensiyasi	Matnni qayta ishlash, xato va takrorlarni tuzatish	Peer-review, o‘z-o‘zini baholash varaqasi	Yakuniy matn sifati oshadi

Jadvaldan ko‘rinadiki, akademik yozuvni shakllantirish bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak. Birinchi bosqichda talaba ilmiy matnning maqsadi, auditoriyasi va janrini tushunadi. Ikkinchi bosqichda u reja tuzish va manba tanlashga o‘rgatiladi. Uchinchi bosqichda dastlabki matn yoziladi. To‘rtinchi bosqichda tahrir, qayta yozish, manba va havolalarni tekshirish ishlari bajariladi. Beshinchi bosqichda yakuniy matn baholash mezonlari asosida tahlil qilinadi.

Akademik yozuv kompetensiyasini shakllantirishda namuna matnlar bilan ishlash muhim ahamiyatga ega. Talaba yaxshi yozilgan ilmiy maqola yoki tezisni tahlil qilganda, undagi kirish qismi qanday muammo qo‘yganini, metodlar qanday bayon etilganini, natijalar qanday dalillanganini, xulosa qanday umumlashtirilganini ko‘radi. Bu jarayon yozish malakasini bevosita rivojlantiradi, chunki talaba nazariy qoidani emas, real matn modelini o‘zlashtiradi.

Yana bir samarali usul - parafraz mashqlaridir. Akademik yozuvda manbadan foydalanishda muallif fikrini aynan ko‘chirish emas, balki uni o‘z ilmiy matni mazmuniga mos holda qayta ifodalash talab qilinadi. Parafraz talabaning lug‘at boyligini, sintaktik moslashuvini va mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi. Shu bilan birga, plagiatning oldini olishda ham muhim didaktik vosita vazifasini bajaradi.

Akademik yozuvni baholashda faqat imlo xatolari emas, balki ilmiy muammo, dalillash, mantiqiy izchillik, uslubiy aniqlik, manba bilan ishlash va tahrir darajasi ham hisobga olinishi kerak. Baholash mezonlarining oldindan berilishi talabaning yozish jarayonini ongli tashkil etishiga yordam beradi. Masalan, maqola yozish topshirig‘ida sarlavha aniqligi, annotatsiya mazmuni, kalit so‘zlarning muvofiqligi, kirishdagi muammo, adabiyotlar tahlili, natijalar va xulosa alohida mezonlar orqali baholansa, talaba har bir qismga mas’uliyat bilan yondashadi.

Muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, akademik yozuvni o‘qitish grammatika darsi yoki oddiy insho yozish mashqi bilan cheklanmasligi kerak. U ilmiy fikrlashni shakllantirish, matnni rejalashtirish, manbalarni tanlash, dalillash va xulosalash madaniyatini rivojlantiruvchi mustaqil metodik tizim bo‘lishi lozim. Bu jarayonda o‘qituvchi yo‘naltiruvchi, tahlil qiluvchi va tahrir jarayonini tashkil etuvchi metodik subyekt sifatida ishtirok etadi.

O‘zbek tilida akademik yozuv kompetensiyasini rivojlantirish milliy ilmiy uslubning takomillashuviga ham xizmat qiladi. Chunki talaba ilmiy matn yozishni puxta o‘rgansa, keyinchalik maqola, dissertatsiya, o‘quv qo‘llanma va ilmiy hisobotlarni sifatli

yozish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa oliy ta’limda ilmiy salohiyatni oshirish, ilmiy axborot almashinuvini rivojlantirish va akademik halollik tamoyillarini mustahkamlashga yordam beradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, akademik yozuv kompetensiyasi o‘zbek tili ta’limida alohida lingvodidaktik muammo sifatida o‘rganilishi zarur. U grammatik savodxonlik, imlo qoidalari yoki uslubiy to‘g‘rilik bilangina chegaralanmaydi. Akademik yozuv mazmuniy, kompozitsion, uslubiy, manbashunoslik, tahrir va kommunikativ kompetensiyalarning integrativ tizimi sifatida shakllanadi.

Tadqiqot natijalari akademik yozuvni samarali o‘qitish uchun bosqichma-bosqich metodik yondashuv zarurligini ko‘rsatdi. Mavzudan muammo chiqarish, reja tuzish, manba tanlash, matn yozish, qayta yozish, tahrir qilish va baholash jarayonlari uzviy bog‘liq holda tashkil etilishi lozim. Namuna matnlar tahlili, parafraz mashqlari, peer-review, baholash rubrikalari va o‘z-o‘zini tahrir qilish varaqalari mazkur kompetensiyani rivojlantirishda samarali vosita bo‘la oladi.

Akademik yozuv kompetensiyasining shakllanishi talabalarning ilmiy tafakkuri, mustaqil fikrlashi, ilmiy manba bilan ishlash madaniyati va yozma kommunikatsiya sifatini oshiradi. Shuningdek, bu kompetensiya oliy ta’limda ilmiy maqola, tezis, kurs ishi va bitiruv malakaviy ishlarini sifatli tayyorlashga xizmat qiladi. Kelgusida ushbu mavzuni empirik materiallar, talaba matnlari korpusi va baholash mezonlari asosida chuqurroq tadqiq etish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmudov N. Til va madaniyat. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992. – 96 b.
2. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010. – 248 b.
3. Yo‘ldoshev B. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Samarqand: SamDU nashri, 2008. – 144 b.
4. Qo‘ng‘urov R., Begmatov E., Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – 160 b.
5. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. – 416 b.
6. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 286 b.
7. Swales J. M. Genre Analysis: English in Academic and Research Settings. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990. – 260 p.
8. Hyland K. Academic Discourse: English in a Global Context. – London: Continuum, 2009. – 256 p.
9. Hyland K. Teaching and Researching Writing. – London: Routledge, 2016. – 314 p.
10. Bailey S. Academic Writing: A Handbook for International Students. – London: Routledge, 2018. – 314 p.
11. Oshima A., Hogue A. Writing Academic English. – New York: Pearson Longman, 2006. – 337 p.
12. Halliday M. A. K., Hasan R. Cohesion in English. – London: Longman, 1976. – 374 p.

Muallif:
Abdullayeva Muslimaxon Ubaydulla qizi - Namangan davlat pedagogika instituti, O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi.

**** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ****
**** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2026. № 2 ****

Ijtimoiy fanlar

UDK: 372.83

PERIODIC STAGES OF STATE GOVERNANCE IN ANCIENT ROME AND THEIR DISTINCTIVE CHARACTERISTICS

QADIMGI RIMDA DAVLAT BOSHQARUVINING DAVRIY BOSQICHLARI VA ULARNING O‘ZIGA XOS XUSISIYATLARI

ПЕРИОДИЧЕСКИЕ ЭТАПЫ ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ В ДРЕВНЕМ РИМЕ И ИХ ОТЛИЧИТЕЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ

Nazarov Obid Raximovich
Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze.
E-mail: nazarov-obid2026@gmail.com

Abstract. The article examines the history of Ancient Rome as a unique phenomenon of world civilization. The author explores the development of the Roman state, from its origins on the banks of the Tiber River to its transformation into a powerful empire that profoundly shaped Europe’s legal, political, cultural, and military traditions. Particular attention is given to the republican and imperial institutions, the influence of the Etruscans and Greeks on Roman culture, as well as the internal crises that led to the fall of the Republic and the rise of the Empire. The study concludes that Roman history is not only a record of wars and conquests but also the story of the creation of legal and political foundations that played a decisive role in the formation of European civilization.

Key words. "European School", "Cradle of European Civilization", "Lives of the Twelve Caesars", Plebeians, Patricians, Magistrates, Senate, Titus Livius, Tacitus, Suetonius, ancient civilization.

Аннотация. В статье рассматривается история Древнего Рима как уникального феномена мировой цивилизации. Автор анализирует формирование римского государства от его зарождения на берегах Тибра до превращения в могущественную империю, оказавшую огромное влияние на правовые, политические, культурные и военные традиции Европы. Особое внимание уделено социальным и политическим институтам республиканского и имперского периодов, роли этрусков и греков в становлении римской культуры, а также кризисным явлениям, приведшим к падению республики и установлению империи. Делается вывод, что история Рима представляет собой не только хронику войн и завоеваний, но и процесс формирования правовых и политических основ, сыгравших важную роль в развитии европейской цивилизации.

Ключевые слова. «Европейская школа», «Колыбель европейской цивилизации», «Жизнеописания двенадцати цезарей», плебеи, патриции, магистраты, сенат, Тит Ливий, Тацит, Светоний, древняя цивилизация.

Annotatsiya. Maqolada Qadimgi Rim tarixi jahon sivilizatsiyasining noyob hodisasi sifatida ko‘rib chiqiladi. Muallif Rim davlatining shakllanishini uning Tibr qirg‘oqlarida paydo bo‘lishidan Yevropaning huquqiy, siyosiy, madaniy va harbiy an’analariga ulkan ta’sir ko‘rsatgan qudratli imperiyaga aylanishiga qadar tahlil qiladi. Respublika va imperiya davridagi ijtimoiy va siyosiy institutlar, Rim madaniyatining shakllanishida etrusklar va yunonlarning roli, shuningdek, respublikaning qulashi va imperiyaning o‘rnatilishiga olib kelgan inqirozli hodisalarga alohida e’tibor qaratilgan. Rim tarixi nafaqat urushlar va istilolar xronikasi, balki Yevropa sivilizatsiyasining rivojlanishida muhim rol o‘ynagan huquqiy va siyosiy asoslarning shakllanish jarayonidir, degan xulosaga kelinadi.

Kalit so‘zlar. “Yevropa maktabi”, “Yevropa sivilizatsiyasini beshigi”, “o‘n ikki Sezar hayoti”, plebeylar, patritsilar, Magistrat, Senat, Tit Liviy, Tatsit, Svetoniy, antik sivilizatsiya.

Kirish. Qadimgi Rim tarixi haqli ravishda jahon sivilizatsiyasi tarixidagi eng muhim sahifalardan biri hisoblanadi. Snu boyis qadimgi Rimning ilk tarixiga e`tibor qaratadigan bo‘lsak, dastlab Tibr qirg‘og‘ida kichik bir jamoa sifatida shakllangan Rim asta-sekin Yevropa va O‘rtayer dengizining ko‘p asrlar davomida rivojlanishini belgilab bergan qudratli davlatga aylandi. Rim tsivilizatsiyasining ta'siri bugungi kunda ham seziladi: huquqiy tizimda, tilda, arxitekturada, harbiy ishlarda, adabiyotda va hatto zamonaviy jamiyatning siyosiy madaniyatida. Ko‘pgina tadqiqotchilar Rimni “Yevropa maktabi”, antik davrning o‘zini esa “Yevropa sivilizatsiyasining beshigi” deb atashgani bejiz emas. Rim tarixini o‘rganish nafaqat o‘tmishni tushunish, balki zamonaviy siyosiy va ijtimoiy jarayonlarni tahlil qilish uchun ham muhimdir.

Tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar

Rim respublikasi dunyoga hokimiyatni tashkil etishning noyob tajribasini berdi: magistrat tizimi, senat va xalq majlislari. Rim imperiyasi ulkan hududlarni boshqarishning yorqin namunalarini ham, ichki qarama-qarshiliklar va tashqi tahdidlar tufayli yuzaga kelgan inqirozlarni ham namoyish etdi. Ko‘pgina zamonaviy davlatlar fuqarolik g‘oyasini, qonunlar tizimi va boshqaruv tamoyillarini aynan Rimdan olgan. Hatto antik davr mualliflari ham Rim tarixining o‘ziga xosligini tan olishgan. Tit Liviy o‘zining “Shaharga asos solinishi tarixidan” asarida Rim buyukligining axloqiy asoslarini ko‘rsatishga intilgan, Tatsit o‘zining “Yilnomalari” va “Tarix” asarida tanazzul va despotizm sabablarini tahlil qilgan, Svetoniy “O‘n ikki Sezar hayoti” asarida davlat taqdirida chuqur iz qoldirgan hukmdorlar portretlarini bergan. Zamonaviy davrda mutafakkirlar va siyosatchilar: Makiavellidan Monteskyegacha Rim tarixiga - murojaat qilishdi. XIX asr fundamental ilmiy tadqiqotlar davriga aylandi va Teodor Mommzenning Rim tarixi asari tarix fanining eng muhim asarlaridan biriga aylandi. Rim O‘rtayer dengizida markaziy o‘rinni egallagan Apennin yarim orolining markazida paydo bo‘ldi. Bu, bir tomondan, Gretsiya, Shimoliy Afrika va Ispaniya bilan dengiz aloqalari uchun qulay imkoniyatlar yaratdi, boshqa tomondan - Italiyaning o‘zida savdo va harbiy yo‘llarni nazorat qilish imkonini berdi. Italiya unumdor tekisliklari, yumshoq iqlimi va dehqonchilik va chorvachilik uchun qulay sharoitlari bilan ajralib turadi. Bu xususiyatlar asosan Rim jamiyatining asosiga aylangan dehqonchilik madaniyatining rivojlanishini oldindan belgilab berdi[1].

Olingan natijalar va ularning tahlili

Italiyaning ijtimoiy- iqtisodiy taraqqiyotining rivojlanishi o‘lkaning portlarga boy va daryolar kesib o‘tgan g‘arbiy qirg‘oqlari, ayniqsa Tibr, aholi punktlarining tabiiy markaziga aylanishiga sabab bo‘lgan. Aynan shu yerda Rim paydo bo‘lib, turli xil

jamoalarni birlashtirib, butun yarim orolni asta-sekin o‘ziga bo‘ysundirishga muvaffaq bo‘ldi. Don va minerallarga boy Sitsiliya O‘rtayer dengizining “marvarid”iga, yunonlar, karfagenliklar va rimliklar o‘rtasidagi kurash maydoniga aylanishiga sabab bo’lgan.

Shuningdek, rimning shakllanishi turli madaniyatlar tutashgan joyda sodir bo‘lgan. Asosiy rolni italyan qabilalari - lotinlar, sabinlar, samnitlar o‘ynagan bo’lib, ularni tillar va urf-odatlarning yaqinligi birlashtirgan, ammo ular siyosiy va madaniy rivojlanish darajasida farq qilgan. Eng muhim ta'sir etrusklar - Shimoliy va Markaziy Italiyaning sirli odamlari tomonidan amalga oshirirlhan bo’lib, ulardan rimliklarga dinning ko‘plab elementlari, me’morchilik (arklar, kanallar, ibodatxonalar qurilishi), shuningdek, siyosiy tashkilot (liktorlar hokimiyati ramzlari, qirollarning nishonlari) meros bo‘lib o‘tgan. Italiyaning janubidagi yunon koloniyalari Rimga san'at, falsafa, alifbo va mifologiya elementlarini olib keldi. Rimliklar aynan yunonlar orqali she’riyat, teatr va ilmiy bilimlar bilan tanishdilar. Shunday qilib, Rim madaniyati boshidanoq turli an'analarning sintezi sifatida rivojlandi.

Va nixoyat Rim tarixi odatda uchta asosiy davrga bo‘linadi: qirollik, respublika va imperiya davriga bo’linadi.

— Qirollik davri (miloddan avvalgi VIII—VI-asrlar) — shaharning tashkil topishi, jamoa va ilk siyosiy institutlarning shakllanishi davri. Afsonaga ko‘ra, Rimga miloddan avvalgi 753 yilda Romul asos solgan. Birinchi podshohlar haqidagi hikoyatlar afsonalar bilan to‘ldirilgan bo‘lsa-da, ular qabilaviy tuzilmalardan davlatga o‘tish jarayonini aks ettiradi.

— Respublika (miloddan avvalgi 509—27) — Rim butun Italiyani, so‘ngra O‘rta yer dengizining muhim qismini o‘ziga bo‘ysundiruvchi qudratli davlatga aylangan davr. Bu davrda hokimiyatning magistratlar, senat va xalq yig‘inlari o‘rtasida taqsimlanishi bilan o‘ziga xos boshqaruv tizimi shakllandi. Respublika jiddiy inqirozlarni boshdan kechirdi - patritsiylar va plebeylar o‘rtasidagi kurash, Grakki islohotlari, fuqarolar urushlari, lekin aynan Rim huquqi va siyosiy madaniyatiga asos solgan.

— Imperiya (miloddan avvalgi 27 – milodiy 476 yillar) — eng yuqori kuch davri va ayni paytda tanazzulning boshlanishi bilan izoxlanadi. Avgust knyazlikni o‘rnatdi, uning ostida respublika institutlari rasman saqlanib qolgan, ammo haqiqiy hokimiyat imperator qo‘lida to‘plangan edi.Shu bois Imperiya yorqin davrlarni (Trayan, Antoninlar hukmronligi), hamda uning qulashiga olib kelgan III-V asrlardagi inqirozlarni ham boshidan kechirdi.

Shu bois rimning jahon tarixi uchun ahamiyati juda katta axamyatga ega.Chunki rimda boshqaruv, xarbiy hamda boshqa soxalardagi faolyati tarixda chuqur iz qoldirgan.

Rimning tarixiga oid malumotlar qadimgi tarixchilar - Tit Liviy, Tatsit, Svetoniy, Arrian tomonidan saqlanib qolgan. Hozirgi zamonda Rim falsafiy va tarixiy mulohazalar mavzusiga aylandi. XIX asrda Teodor Mommzenning "Rim tarixi" asari fundamental ahamiyatga ega bo‘ldi; manba tanqididan foydalanib, u Rim sivilizatsiyasining shakllanishi va rivojlanishining yaxlit manzarasini taqdim etdi[2].

Shunday qilib, Qadimgi Rim tarixi nafaqat urushlar va istilolar yilnomasi emas, balki insoniyatning keyingi taraqqiyotiga ulkan ta'sir ko‘rsatgan noyob sivilizatsiyaning shakllanishi tarixidir.Sababi Rim O‘rtayer dengizining boy madaniy merosini birlashtirib, samarali siyosiy va huquqiy institutlarni yaratishga, ko‘p asrlar davomida sivilizatsiya markaziga aylanishga muvaffaq bo‘ldi. Rimni o‘rganish bizga Yevropa tarixining kelib chiqishini tushunishga, zamonaviy zamon bilan o‘xshashliklarni ko‘rishga va antik davr tajribasi bugungi kunda ham dolzarbligini anglab etishga imkon beradi.

Rimning bir necha davrlarni, jami ming yillikdan ko‘proq vaqtni qamrab olgan tarixidan misol tariqasida quldorlik jamiyati va davlatining eng rivojlangan, klassik shakllarida tug‘ilishi, rivojlanishi va tanazzulini kuzatishimiz mumkin. Rim tarixini boshqa davlatlar tarixidan alohida, alohida o‘rganmaslik kerak. Chunki Rim darhol jahon-tarixiy ahamiyatga ega bo‘lmadi.Sababi uning boshlanishi qadimgi Sharqning ko‘plab davlatlari bir necha ming yillar davomida mavjud bo‘lgan davrga to‘g‘ri keladi. Keyinchalik jahon madaniyati tarixida benazir rol o‘ynagan Gretsiyada shahar-davlatlar allaqachon vujudga kelgan bo‘lsa, Tibr daryosi bo‘yidagi adirlarda yashovchi dehqon va cho‘ponlar endigina o‘z turar-joylarini birlashtirib, Rim deb nomlangan kichik markazni yaratdilar[3]. O‘sha paytda Apennin yarim orolida va Sitsiliyada allaqachon yunon koloniyalari mavjud edi va O‘rtaнer dengizining janubiy (Afrika) qirg‘og‘ida Finikiya aholi turar joylari mavjud bo’lib mavjud bo‘lib, keyinchalik ularni Karfagen kuchli dengiz kuchiga birlashtirgan edi. Bu Pireney yarim orolining janubidagi qudratli davlat Tartessosning gullagan davri edi. Rim o‘zining rivojlanishining dastlabki bosqichlarida O‘rtayer dengizi dunyosining boshqa markazlari va o‘sha davrdagi jahon voqealari bilan bog‘liq emas edi; uning siyosiy qudrati asta-sekin o‘sib borgan.

Shu bois Rim jamoasining paydo bo‘lishi va rivojlanishi shartlarini tushunish uchun Rimgacha bo‘lgan umumiy Italiya rivojlanishi haqida tasavvurga ega bo‘lish kerak.Ayniqsa etrusk shaharlarining paydo bo‘lishi va ularning siyosiy ta'sirining Apennin yarim orolining Etruriyaga tutash hududlariga tarqalishi alohida ahamiyatga ega edi.Chunki Italiyada birinchi muhim markazlar etrusk va yunon shaharlari xisoblangan. Mahalliy qabilalarning aksariyati hali ibtidoiy jamoa tuzumi bosqichida edi, ammo, shunga qaramay, Italiyaning ko‘pgina mintaqalarida uning parchalanishi va qabila tuzulmalarning davlatga aylanishi jarayoni davom etayotgan edi. Italiyaning markaziy mintaqasi Latsiyaning boshqa shaharlari qatorida bir paytlar etrusklar o‘z kuchini kengaytirgan Rim ham bu jarayonni boshdan kechirdi. Bu ilk davr, uning asosiy xususiyati ibtidoiy jamoa tuzumining parchalanishi va davlatning shakllanishi jarayoni bo‘lgan, odatda qirollik davri deb ataladi; bu davrning oxirgi davrini Rim tarixining etrusk davri deb atash mumkin. Qirollik davrining boshlanishi taxminan miloddan avvalgi VIII asrga to‘g‘ri keladi va uning oxiri odatda miloddan avvalgi VI asr oxiriga to‘g‘ri keladi. Etrusklar quvib chiqarilgandan va qirol hokimiyati bekor qilingandan so‘ng, Rim respublikasining tarixi boshlanadi, bu miloddan avvalgi I asrning oxirgi o‘ttiz yilining boshlarigacha davom etadi. Va uch davrga bo‘lingan. Birinchi davr - Respublikaning ilk davri (Mil. Avv. VI asr oxiri – mil. avv III asrning 60-yillari) - Rimda quldorlik ishlab chiqarish uslubining shakllanishi, o‘sha davrdagi Rim jamiyati erkin aholisining ikki asosiy guruhi (mulklari) bo‘lgan patritsiylar va plebeylar o‘rtasidagi kurash, respublika va butun mamlakat ichida birinchi qarama qarshiliklar tizimining deyarli mustahkamlanishi va rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Butun Apennin yarim orolining Rimga bo‘ysunishi bilan yakunlangan Italiya. G‘arbiy O‘rta er dengizi hududida yirik davlatlarni shakllantirishga qaratilgan bir qancha urinishlar shu vaqtga to‘g‘ri keladi. V-IV asrlarda Sitsiliyaning muhim qismi Sirakuza atrofida birlashdi, u o‘z vaqtida Italiyaning yunon shaharlari ustidan hukmronlik qilgan. Ammo eng yirik davlat tuzilishi Karfagen dengiz kuchi bo‘lib, u o‘z ta'sirini G‘arbiy O‘rtayer dengizining bir qator hududlariga kengaytirdi[4]. G‘arbda asrlar davomida qarama-qarshiliklar o‘chog‘i Sitsiliya bo‘lib, Sirakuza va Karfagen o‘rtasida doimiy urushlar olib borilgan. Rim butun Apennin yarim orolini o‘z atrofida birlashtirib, 264 yilda Sitsiliya ishlariga aralashdi va shu vaqtdan boshlab Rimning O‘rtayer dengizini bo‘ysundirish uchun kurash davri deb atash mumkin bo‘lgan yangi davr boshlandi. Turli muvaffaqiyatlar bilan olib borilgan uzoq va qonli Puni urushlaridan so‘ng, Rim Karfagenga tegishli bo‘lgan barcha hududlarni o‘ziga bo‘ysundirdi va keyinchalik G‘arbiy O‘rtayer dengizining deyarli barcha hududlarini bosib oldi. Sharqdagi urushlar natijasida Rim Gretsiya va Makedoniyada mustahkam o‘rnashib oldi va ilgari qudratli bo‘lgan Suriya salavkiylar qirolligini zaiflashtirdi. Bu davr Pergam qirolligining Rimga qo‘shilishi bilan tugaydi. Uning asosiy mazmuni quldorlik

ishlab chiqarish usulining mustahkamlanishi va rivojlanishi edi, bunga urushlar paytida asirga olingan asirlar orasidan qullarning doimiy ravishda kirib kelishi yordam berdi. Ishlab chiqarishning quldorlik usulining joriy etilishi Italiyada yirik yer egalarining o`sishiga olib keladi va bu kichik va o`rta yer egalarining tanazzulga uchrashi bilan birga keladi. Rimning siyosiy tizimi senatorlik zodagonlarining hukmronligi bilan ajralib turadi, ular faqat vaqti-vaqti bilan pleblarning qarshiliklariga duch keladilar, ammo bu vaqtda birinchi qullar qo‘zg‘olonlari ro‘y berdi. Ammo ular hali ham qisqa muddatli va mahalliy darajada cheklangan edi. Miloddan avvalgi II asrning 30-yillari boshidan I asrning 30-yillari oxirigacha davom etgan davr fuqarolar urushlari davri hisoblanadi. Katta latifundiyalar ichida qullarning to‘planishi, ularning 2-asr boshidan eng g‘ayriinsoniy ekspluatatsiyasi qo‘zg‘olonlarni keltirib chiqardi, bu asrning 30-yillaridan boshlab qullar va qul egalari o‘rtasidagi uzoq urushlarga aylanib ketdi.Natijada vayron bo‘lgan dehqonlar, mulksiz qolgan shahar pleblari tub islohotlarni talab qiladi va bu to‘qnashuvlarga olib keladi, ba'zan haqiqiy fuqarolar urushlariga aylanadi; senatorlik (qabila) zodagonlari bilan mulkdor zodagonlar - otliqlar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar ham kuchayadi[5].va nixoyat viloyatlarni haddan tashqari ekspluatatsiya qilish provinsiyalarda ommaviy qo‘zg‘olonlariga olib keldi va bu o’znavbatida Rim respublikasining inqirozini tezlashtirdi xolos

Xulosa. Xullas yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, erkin xalqning turli qatlamlari o‘rtasida ijtimoiy kurashning keskinlashuvi Rim respublikasi davlat boshqaruvi asoslarini juda larzaga soldi. Miloddan avvalgi I asrning 70-yillari 2-yarmida Spartak boshchiligidagi ulkan qullar qo‘zg‘oloni tufayli Rim davlati o‘zining poydevoriga qadar larzaga keldi. Garchi Rim quldorlari keskin kurashdan so‘ng bu qo‘zg‘olonni bostirishga muvaffaq bo‘lishsa-da, ko‘p asrlar davomida mavjud bo‘lgan siyosiy tuzum endi hukmron sinfning ehtiyojlarini qondira olmadi. Harbiy diktatura o‘rnatish masalasi dolzarb bo‘lib, u uchun kurash miloddan avvalgi I asrning 40-30-yillarida fuqarolar urushlariga aylanib ketdi va bu oxir-oqibat Respublika qulashi bilan yakunlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Машкин, Н.А. История Древнего Рима / Н.А. Машкин. – М. : Высш. шк., 2006. – 751 с.
2. Немировский, А.И. История Древнего мира: Античность : учеб. для студ. высш. учеб. заведений : в 2 ч. – М. : ВЛАДОС, 2000. – Ч. 1. – 448 с.
3 . Немировский, А.И. История Древнего мира: Античность : учеб. для студ. высш. учеб. заведений : в 2 ч. – М. : ВЛАДОС, 2000. – Ч. 2. – 480 с.
4. Древний Рим : учеб. пособие для вузов / Российская академия наук ; Государственный университет гуманитарных наук ; Научнообразовательный центр по истории; В.П. Буданова [и др.]. – М. : Астрель : АСТ, 2006. – 686 с.
5. Буркхард, Я. Век Константина Великого / Я. Буркхардт. – М. : ЗАО Центрполиграф, 2003. – С. 7–63, 326–350.
6. Каждан, А.П. Судьбы христианства при Константине / А.П. Каждан // Вопросы истории. – 1965. – № 5. – С. 214–217.
7. Князький, И.О. Император Диоклетиан и закат античного мира / И.О. Князький. – Спб. : Алетейя, 2010. – 144 с.
8. Федорова, Е.В. Люди императорского Рима / Е.В. Федорова. – М. : Изд-во МГУ, 1990. – 366 с. 11. 10. Федосик, В.А. «Великое гонение» на христиан / 9.В.А. Федосик // Научный атеизм и атеистическое воспитание. – Минск : Беларусь, 1989. – С. 41–53.

Muallif:
Nazarov Obid Raximovich - Guliston davlat universiteti, tarix kafedrasi dotsenti, t.f.n.

UDK 372.83

MIRSIDDIQKHON HASHMAT AND HIS PERSONAL LIBRARY

МИРСИДДИКХОН ХАШМАТ И ЕГО ЛИЧНАЯ БИБЛИОТЕКА

MIRSIDDIQXON HASHMAT VA UNING SHAXSIY KUTUBXONASI

Eshonqulov Ilhom Abdusalomovich
Termiz davlat universiteti. 190111, Termiz shahri, O‘zbekiston mahallasi“Barkamol avlod” ko‘chasi 43-uy.
E-mail: ilhom_eshonzoda@mail.ru

Abstract. This article examines the private library of Mirsiddiqkhon Hashmat Bukhari, a prominent poet, tazkira writer, and bibliophile of Bukhara, and evaluates its scholarly and cultural significance. The study explores Hashmat’s life, literary activities, and contributions to the collection, preservation, and dissemination of written heritage. Particular attention is paid to the composition of his library, the history of its formation, and its role in the intellectual and cultural life of the Bukhara Emirate in the late nineteenth and early twentieth centuries. The article analyzes the historical, literary, religious, and scientific works preserved in the collection and highlights the library’s importance in safeguarding valuable manuscripts and transmitting cultural heritage to future generations. The findings demonstrate that Hashmat’s library represents a significant component of the manuscript tradition and library culture of Central Asia.

Keywords: Mirsiddiqkhon Hashmat, Bukhara, private library, manuscripts, book culture, tazkira writing, cultural heritage, library studies.

Аннотация. В данной статье исследуются личная библиотека Мирсиддикхона Хашмата Бухари — известного поэта, тазкироведа и библиофила Бухары, а также её научно-культурное значение. Рассматриваются основные этапы жизни и творческой деятельности Мирсиддикхона Хашмата, его вклад в развитие книжной культуры, собирание и сохранение рукописного наследия. Особое внимание уделяется составу библиотеки, истории её формирования и роли в культурной жизни Бухарского эмирата конца XIX – начала XX века. Анализируются исторические, литературные, религиозные и научные произведения, входившие в библиотечное собрание. Подчеркивается значение библиотеки в сохранении рукописных памятников и передаче культурного наследия последующим поколениям. Делается вывод о том, что библиотека Мирсиддикхона Хашмата занимает важное место в истории книжного дела и библиотечной культуры Центральной Азии.

Ключевые слова: Мирсиддикхон Хашмат, Бухара, личная библиотека, рукописи, книжное дело, тазкироведение, культурное наследие, библиотековедение.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoro adabiy muhitining yirik namoyandasi, shoir, tazkiranavis va kitobparvar Mirsiddiqxon Hashmat Buxoriyning shaxsiy kutubxonasi hamda uning ilmiy-madaniy ahamiyati tadqiq etilgan. Muallif Mirsiddiqxon Hashmatning hayoti va ijodiy faoliyati, kitob to‘plash va saqlash sohasidagi xizmatlari, shuningdek, uning kutubxonasi tarkibi va shakllanish tarixi haqida ma’lumot beradi. Maqolada Hashmat kutubxonasida saqlangan tarixiy, adabiy, diniy va ilmiy manbalar tahlil qilinib, uning Buxoro amirligi madaniy hayotida tutgan o‘rni yoritilgan. Shuningdek, mazkur kutubxonaning qo‘lyozmalarni asrab-avaylash va keyingi avlodlarga yetkazishdagi ahamiyati ko‘rsatilgan. Tadqiqot natijalari Mirsiddiqxon Hashmat kutubxonasi Buxoro kitobat va kutubxonachilik an’analarining muhim qismi ekanligini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: Mirsiddiqxon Hashmat, Buxoro, shaxsiy kutubxona, qo‘lyozmalar, kitobatchilik, tazkiranavislik, madaniy meros, kitobshunoslik.

Kirish. Har bir qavm va millatning jahon miqyosidagi qadr-qimmati uning insoniyat tamadduniga qo‘shgan hissasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, yozma manbalar va kitobshunoslik sohasidagi tadqiqotlar mazkur baholash uchun muhim mezon bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Tojik xalqi qadim zamonlardanoq boy tarix va yuksak madaniyatga, shuningdek, kuchli milliy o‘zlikni anglash tafakkuriga ega bo‘lgan. Ular milliy qadriyatlar va yozma merosni inson tafakkuri hamda zakovatining bebaho mahsuli sifatida qadrlab, kitob va kitobat san’atiga alohida ehtirom bilan munosabatda bo‘lganlar.

Ajdodlarimiz qoldirgan yozma merosni, xususan, tazkiralar, devonlar, tarixiy asarlar, junglar, bayozlar, kashko‘llar hamda boshqa adabiy turlarga mansub qo‘lyozmalarni tuzish, tartibga solish va jamlash nihoyatda murakkab jarayon bo‘lib, keng qamrovli izlanishlar va katta mehnatni talab etadi.

Bundan tashqari, bugungi globallashuv sharoitida xalq va millatlar alohida davlatlar doirasida yashab kelayotgani, ularning aksariyati o‘rtasidagi ilmiy-madaniy aloqalar esa ma’lum darajada susayib borayotgani sababli, qo‘lyozma nusxalardan foydalanish va ularga yetib borish tadqiqotchilar hamda olimlar oldidagi muhim muammolardan biriga aylangan.

Turli joylarda saqlanayotgan ma’lumotlarni aniqlash va ularni yagona majmua shaklida jamlash tadqiqotchilar uchun g‘oyat qimmatli manba hisoblanadi. Bu esa ularni keng ko‘lamli qidiruv va izlanishlardan xalos qilib, muayyan sohada bir mamlakat olimlari va tadqiqotchilarining mehnati natijalarini bir joyda jamlagan holda keng jamoatchilik ixtiyoriga taqdim etish imkonini beradi.

Markaziy Osiyo xonliklarining davlat kutubxonalari uzoq tarixga ega bo‘lib, o‘ziga xos an’ana va qadriyatlarni shakllantirgan. O‘rta asrlar davomida nafaqat saroylarda, balki amaldorlar va ziyolilar xonadonlarida ham sulolaviy kutubxonalar tashkil etilgan. Yirik kutubxonalar egalari kotiblar, xattotlar va savdogarlarga diniy hamda dunyoviy mazmundagi qimmatbaho kitoblarni topib keltirishni buyurganlar. Bunday kitoblar alohida e’tibor va yuksak saviyada tayyorlangan.

Tarixiy manbalar ma’lumotlariga ko‘ra, Buxoro amirligida qo‘lyozma asarlarni ko‘chirish va kitobat ishlarini tartibga solish an’anasi amirlar kutubxonalarida Somoniylar davridan boshlab XIX asr oxiri va XX asr boshlariga qadar saqlanib kelgan [2, 62-b.]. Amirlar kutubxonalaridan asosan hukmdorlar, ularning yaqin qarindoshlari, ayrim hollarda esa nufuzli ulamolar va ziyolilar foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lganlar.

Buxoro amirligining rasm-rusum va an’analariga muvofiq, saroyda davlat xazinasi bilan bir qatorda devon, kutubxona hamda davlat hujjatlarini saqlash uchun maxsus binolar mavjud bo‘lgan. Ularda maxsus amaldorlar va mansabdor shaxslar mas’ul etib tayinlangan. Shuningdek, yuqori lavozimli amaldorlarga tegishli shaxsiy kutubxonalar ham faoliyat yuritgan.

Davlat poytaxti Buxoro shahrida, shuningdek viloyat markazlaridagi madrasalar va masjidlarda, hamda qorixonalar qoshida ham kutubxonalar mavjud bo‘lib, ular ilmiy-ma’rifiy faoliyatning muhim markazlari hisoblangan.

Tojik adabiyotining taniqli shoiri va tazkiranavisi Mirsiddiqxon Hashmati Buxoriy (1864–1931/32) Buxoro adabiy muhitida kamol topib, keyinchalik davrning noqulay siyosiy-ijtimoiy sharoitlari tufayli “muhojir shoir” sifatida Afg‘onistonga ketishga majbur bo‘lgan. U tazkiranavislik an’analarini davom ettirish va rivojlantirishda salmoqli hissa qo‘shgan ijodkorlardan biridir. Mazkur adib o‘z davrining mashhur shoir va tazkiranavislaridan biri sifatida adabiy hamda tarixiy asarlari bilan tanilgan.

Mirsiddiqxon Hashmat amirzodalar Abdulmalik To‘ra va Nosirxon To‘ra bilan bir onadan tug‘ilgan. Amir Muzaffar (ya’ni Hashmatning otasi) hayotlik davrida, Mirsiddiqxon Hashmat 17 yoshida Chorjo‘y hokimi etib tayinlangan. Amir Muzaffar vafotidan so‘ng, 1885-yilda uning akasi Amir Abdulahadxon taxtga o‘tirgach, Mirsiddiqxon Hashmat uy qamog‘iga mahkum etiladi. Oradan ko‘p o‘tmay, amirzoda Nosirxon ham uy qamog‘iga olinadi. Uchinchi aka - Abdulmalik esa umrini g‘urbat va musofirlikda o‘tkazgan.

Metodlar va adabiyot tahlili. O‘zbek tadqiqotchisi S.Zohidovaning yozishicha, amirzodalar Mirsiddiqxon Hashmat va Nosirxon To‘ra Abdulahadxonning o‘g‘li Olimxon hukmronligi davrida ham ozodlikdan mahrum bo‘lib qolganlar [4, 48–52]. Shu tariqa, Mirsiddiqxon Hashmat 35 yil davomida qamoq sharoitida hayot kechirgan. Mirsiddiqxon Hashmat va Nosirxon To‘ra ma’muriy, siyosiy hamda ijtimoiy faoliyatdan butunlay chetlashtirilgan edilar.

Biroq Amir Abdulahadxon va uning o‘g‘li Olimxon Mirsiddiqxon Hashmat hamda Nosirxon To‘raning ilmiy va ijodiy faoliyatiga jiddiy to‘siqlar qo‘ymaganlar. Aynan shu sababli, ular umrlarining oxirigacha ilm o‘rganish va turli asarlar yaratish bilan shug‘ullanib, Buxoroning madaniy, adabiy va ma’naviy hayotiga beqiyos hissa qo‘shganlar.

Manbalar va zamonaviy tadqiqotlarda har ikki aka-uka — Mirsiddiqxon Hashmat va Nosirxon To‘raning boy shaxsiy kutubxonalarga ega bo‘lganligi alohida ta’kidlanadi.

Nosirxonning tug‘ilgan sanasi ma’lum emas. U podshohlik taxtiga da’vogar sifatida 1920-yilga qadar Buxoro Arkida uy qamog‘ida saqlangan. Amir ba’zan uni o‘z safarlariga hamroh qilib olib yurgan va unga “To‘rai jilov” unvonini bergan. Buxoro Arkida uning uchun maxsus qurilgan va u mahbus sifatida yashagan hovli hozirgi kunga qadar saqlanib qolgan.

Shuningdek, Nosirxonning o‘g‘li Arabxon ham amir Olimxonning qizi bilan turmush qurgan bo‘lib, u ham otasi kabi uy qamog‘ida bo‘lgan. Nosirxon to‘ra Buxoro inqilobidan keyin “Anjumani ta’rix” ilmiy-tadqiqot tashkilotining a’zo-korrespondenti sifatida adabiy faoliyatini davom ettirgan. U 1923-yilda Buxoro hukumati roziligi bilan Afg‘onistonga ko‘chib ketgan. Hozirgi vaqtda uning keyingi hayoti va taqdiri haqida ma’lumotlar mavjud emas.

Manbalarning guvohlik berishicha, Nosirxon to‘ra shaxsiy kutubxona sohibi ham bo‘lgan. U “Tuhfat uz-zoirin”, “Qunuz al-atqiyo”, “Osor us-salotin” hamda “Tahqiqoti Arki Buxoro, salotin va umaroi o‘” asarlarining muallifi hisoblanadi [9, 7–8]. Nosirxon to‘ra mazkur asarlarni yozish jarayonida ko‘plab manbalardan foydalanganini alohida ta’kidlagan.

Mirsiddiqxon Hashmat Buxoro shahrining Chahor Xarros mahallasidagi hovlisida hamda Arkda umr kechirgan. Garchi uning erkinligi ma’lum darajada cheklangan bo‘lsa-da, uning hovlisi adabiyot ahli va ziyolilar uchun ilm-ma’rifat maskani sifatida muhim ahamiyat kasb etgan. Ehtimol, aynan shu adabiy muhit ta’sirida Mirsiddiqxon Hashmat keyinchalik boy ilmiy-adabiy meros va katta shaxsiy kutubxona qoldirgan.

Uning zamondoshlari va davr olimlari Mirsiddiqxon Hashmatni mulkdor, homiy, ahli qalamning sarparasti, shoir, tarixchi, tazkiranavis hamda nufuzli kutubxona sohibi sifatida e’tirof etganlar. Qayd etilganidek, XX asr boshlarida Mirsiddiqxon Hashmatning hovlisi amir Olimxon davlatchiligiga qarshi bo‘lgan shoirlar, notiqlar va ilm-fan hamda adabiyot ixlosmandlarining yig‘ilish joyiga aylangan bo‘lib, bu yerda ziyolilar ishtirokida muntazam adabiy kechalar o‘tkazib turilgan.

Mirsiddiqxon Hashmat tazkiranavislik an’anasini davom ettirib, Buxoro adabiy muhitining barcha yutuq va muammolari o‘z aksini topgan bir qator tazkiralarni yaratgan. O‘zbek adabiyotshunosi O. Masaliyeva Hashmatga mansub asarlarni quyidagi tarzda tasniflaydi:

1. “Devoni Hashmat”.
2. “Daftari musavvada”.
3. “Nomai Xusravon”.
4. “Majmuai zoyicha ahkomi nuчum”.
5. “Bayoz”. [6, 32]

Aytish mumkinki, o‘zbek tadqiqotchisi O. Masaliyeva tomonidan tuzilgan ro‘yxat to‘liq emas. Zero, Mirsiddiqxon Hashmat o‘zining 68 yildan ortiq umri davomida 60 dan ziyod asar yaratish va tayyorlashga muvaffaq bo‘lgan bo‘lib, bu natija tojik adabiyoti tarixi uchun muhim ilmiy-adabiy yutuq hisoblanadi. Mirsiddiqxon Hashmatning kotiblik mahorati va tazkiranavislik sohasidagi shuhrati mazkur yo‘nalishda keng tanilgan va ma’lumdir. Uning barcha asarlari qo‘lyozma shaklida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharq qo‘lyozmalari xazinasida saqlanmoqda. Mirsiddiqxon Hashmat risolalar, g‘azallar devoni, tazkiralar hamda qator ilmiy va tarixiy asarlar yaratish orqali fors-tojik adabiyoti tarixida munosib shuhrat qozongan va tazkiranavislik an’anasining davom etishiga salmoqli hissa qo‘shgan. Bu haqda mazkur satrlar muallifi tomonidan yozilgan bir qator ilmiy maqola va risolalarda batafsil so‘z yuritilgan.

Buxoro Xalq Respublikasi tashkil etilganidan keyin hukumat qarori bilan “Anjumani ta’rix” tashkil qilindi. Ushbu anjumanning asosiy maqsad va vazifalaridan biri Buxoro Arkini tadqiq etishdan iborat edi. “Tahqiqoti Arki Buxoro” asarida keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, Buxoro Arki haqida alohida risola yozish vazifasi Sayid Muhammad Nosir zimmasiga yuklatilgan. Garchi u mazkur asarda “Anjumani ta’rix”ning yetti nafar a’zosi haqida ma’lumot bergan bo‘lsa-da, amalda faqat olti nafar shaxsning ismini qayd etgan. Bu holat esa ma’lum darajada noaniqlik tug‘diradi.

Sayid Muhammad Nosir Buxoro inqilobidan keyin “Anjumani ta’rix” ilmiy-tadqiqot tashkilotining muxbir a’zosi sifatida adabiy faoliyatini davom ettirgan. U 1923-yilda Buxoro hukumatining roziligi bilan Afg‘onistonga ko‘chib ketgan. Hozirga qadar uning keyingi hayoti va taqdiri haqida ishonchli ma’lumotlar mavjud emas.

Sayid Muhammad Nosir ibn Muzaffarning “Tahqiqoti Arki Buxoro” asarida qayd etilishicha, Mirsiddiqxon Hashmat Buxoro Respublikasi hukumati qaroriga ko‘ra ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug‘ullangan davrning yetakchi ziyolilaridan iborat bo‘lgan “Anjumani ta’rix” tashkiloti a’zoligiga qabul qilingan. Mazkur anjuman tarkibiga Abdurauf Fitrat, Sharifjon maxdum Sadri Ziyo, Mullo Salimbek, Hoji Mullo Sayid Mahmud va Sayid Muhammad Nosir kabi jami yetti nafar ma’rifatparvar va olim kirgan edi [9, 2-b.].

Muhokama va natijalar. Mirsiddiqxon Hashmat kotib va xattot sifatida ham Buxoroning ma’naviy hayotida salmoqli o‘rin tutgan. U o‘zining mualliflik asarlaridan tashqari bir qator muhim kitoblarni ko‘chirib yozgan va poknusxa holatiga keltirgan. Jumladan, Mir Husayn ibn Muhammad al-Husayniy an-Nishopuriyning “Maohofi чavohiri Alloh”, “Manoqibi shayx Xolid Ziyouddin an-Naqshbandiy al-Mujaddadiy al-Qodiriy” (1915-yil), Abdulhaq ibn Sayfuddin at-Turk ad-Dehlaviy al-Buxoriyning “Janob al-qulub ala diyori mahbub” (1890-yil), Abulhasan Nasr ibn al-Hasan al-Marg‘eloniyning “Mahosin al-kalom va badoe’ an-nizom” (1875-yil), Mavlono Sayfiy Buxoriyning “Aruzi Sayfiy” (1896–1897-yillar), Imom Abulfazl Muhammad ibn Abduljamil ibn Abdulmalik ibn Haydar as-Samarqandiyning “Qandiyai xurd” (1896–1897-yillar) hamda Qoriy Rahmatulloh Vozehning “Tuhfat ul-ahbob” asarlarini kitobat qilib, poknusxalarini tayyorlagan.

Ta’kidlash joizki, Mirsiddiqxon Hashmat tomonidan yaratilgan asarlar va ko‘chirilgan qo‘lyozmalar soni mazkur ro‘yxat bilan cheklanmaydi. U umrining so‘nggi lahzalariga qadar kitob to‘plash bilan shug‘ullanib, shu tariqa nufuzli shaxsiy kutubxona tashkil etishga muvaffaq bo‘lgan. Sadriddin Ayniy va Sharifjon maxdum Sadri Ziyo o‘z kundaliklari hamda xotiralarida Buxorodagi eng yirik uch shaxsiy kutubxona qatorida Mirsiddiqxon Hashmat kutubxonasini ham, Qozi Burhoniddin kutubxonasidan keyin, alohida tilga olganlar [1, 290–292-bb.].

Hozirgi kunda Mirsiddiqxon Hashmat kutubxonasiga mansub kitoblar Toshkent, Buxoro, Dushanbe va Sankt-Peterburg shaharlaridagi qo‘lyozmalar fondlarida saqlanmoqda. Shu bilan birga, mazkur kutubxonaning asosiy qismi O‘zbekiston Respublikasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Fanlar akademiyasining Sharq qo‘lyozmalari fondida muhofaza qilinmoqda.

Mirsiddiqxon Hashmat shaxsiy kutubxonasining tarkibi va uning shakllanish jarayonini tadqiq etish kutubxonashunoslik hamda manbashunoslik nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega. Mirsiddiqxon Hashmat kutubxonasiga mansub kitoblarning turli fehristlari, kitoblarga bosilgan Hashmat muhri izlari, zaxira qaydlari, shuningdek, zamondoshlarining xotira va yodnomalari, ayniqsa, Sadri Ziyo asarlari orqali mazkur kutubxonaning tarkibi va tarixi haqida aniq tasavvur hosil qilish mumkin.

Mirsiddiqxon Hashmatning o‘zi ham kutubxonasi tarkibidagi 213 jild kitob va majmuaning nomi, muallifi, kotibi hamda ayrim hollarda xarid qilingan kitoblarning qiymatini qayd etgan. Jumladan, Hashmat kutubxonasida Muhammad G‘azzoliyning “Ehyo ulum ad-din”, Nasriddin Tusiyning “Axloqi Nosiriy”, Bedil, Sa’diy va Hofiz asarlari, turli bayozlar, tazkiralar, diniy asarlar, sharhlar, adabiyot, nuчum (astronomiya va astrologiya) hamda boshqa sohalarga oid kitoblar mavjud bo‘lgan.

Mirsiddiqxon Hashmat kutubxonasida tarix faniga oid qo‘lyozma va toshbosma kitoblar quyidagilardan iborat bo‘lgan: “Tarixi Ibni A’sami Kufiy (Kitob al-futuh)”, “Tarixi Ibni Xaldun”, “Tarixi Afg‘oniston”, “Tarixi Andalus”, “Tarixi Javdat”, “Tarixi Rahimxon”, “Tarixi Rus”, “Tarixi sayohati Eron”, “Tarixi Shohjahon”, “Tarixi Tabariy (Tarix ar-rusul va-l-muluk)”, “Tarixi Olamoroy”, “Tarixi

muhorabai Yunon", "Tarixi Abdurahmonxon", "Tarixi Abdulhamidxon", "Tarixi umumiy", "Tarixi Farishta", "Tarixi Farangiy", "Tarixi Qojor", "Tarixi Qoshg'ar", "Tarixi Madina", "Tarixi Hindi turktozon", "Tarixi Vassof" va boshqalar.

Mirsiddiqxon Hashmat kutubxonasi o'z davridayoq Buxoro shahrining madaniy va ma'naviy hayotiga katta ta'sir ko'rsatgan hamda muhim o'rin egallagan. Tarixchilar Shodmon Vohidov va Zoir Choriyev Mirsiddiqxon Hashmat kutubxonasi tarkibini o'rganish va tadqiq etish jarayonida faqat Mirsiddiqxon Hashmatning o'zi tomonidan tuzilgan fehristlarda qayd etilgan kitoblarni aniqlash bilan cheklanganlar.

Aytish mumkinki, hozirga qadar Mirsiddiqxon Hashmat kutubxonasining tarkibi barcha jihatlari va tafsilotlari bilan keng qamrovli tarzda tadqiq etilmagan. Bu masala alohida va mukammal ilmiy izlanishlarni talab qiladi. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun Mirsiddiqxon Hashmat kutubxonasi tarkibini o'rganish va tahlil qilishda nafaqat O'zbekiston hududidagi, balki jahonning boshqa ilmiy-tadqiqot markazlari hamda yirik kutubxona xazinalarida saqlanayotgan manbalarni ham qayta ko'rib chiqish va ulardan samarali foydalanish zarur.

Mirsiddiqxon Hashmat qamoqda bo'lgan yillarida amalga oshirgan muhim ishlardan biri ajdodlar merosini to'plash va yirik shaxsiy kutubxona tashkil etish bo'lgan. Mirsiddiqxon Hashmat kutubxonasi Buxoro kitobdorligi tarixining ajralmas qismi hisoblanadi. Uning nufuzi va yuksak maqomi haqida davr olimlari ham guvohlik berganlar. Jumladan, Sharifjon maxdum Sadri Ziyo quyidagilarni yozgan:

"Faxrli shaharda har sohadagi kitoblar juda kamyob bo'lib qolgan, hatto noyob durlarga aylangan edi. Shu darajadaki, aytish mumkinki, o'sha davrda Buxoro hududida kitob topish faqat uch joydagina mumkin bo'lgan, xolos... Ana shunday boy kutubxonalardan biri saodat va hidoyat sohibi Sayyid Mirsiddiqto'ra, Hashmat taxallusi bilan tanilgan zotning kutubxonasi bo'lib, u ko'plab mashaqqatlar va ulkan sa'y-harakatlar bilan ushbu kitoblarni yig'ishga muvaffaq bo'lgan" [8, 291].

Sharifjon maxdum Sadri Ziyoning ma'lumotlariga ko'ra, mohir xattotlardan biri bo'lgan Abdullobek kotib Yakkabog'iy muqaddas Qur'oni karimning uch nusxasini ko'chirgan. Ushbu nusxalardan biri Buxoro davlati amirlari xazinasida, ikkinchi nusxasi esa Mirsiddiqxon Hashmat qo'lida saqlangan. Ustoz Sadriddin Ayniy Sharifjon maxdum Sadri Ziyoning ushbu guvohligini to'ldirar ekan, Mirsiddiqxon Hashmat kutubxonasining beqiyos ahamiyatini alohida ta'kidlaydi: "Buxoroda Hashmatning shaxsiy kutubxonasi kabi mukammal kutubxona yo'q edi" [1, 274].

Professor Shodmon Vohidov Mirsiddiqxon Hashmat kutubxonasi tarkibida turli tillardagi 1000 ga yaqin qo'lyozma asarlar va toshbosma nashrlar mavjud bo'lganini qayd etadi. Xususan, olim Mirsiddiqxon Hashmat kutubxonasining Buxoro amirligi adabiy hayotining taraqqiyoti va rivojlanishidagi o'rni hamda salmoqli hissasini quyidagicha baholaydi: "Hashmat kutubxonasi Buxoro xonligida ilm-ma'rifat va madaniyatning rivojlanishida asosiy o'rin tutgan" [3, 18].

O'zbek tarixshunosi Rahbar Xoliqovaning ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar xazinasida Mirsiddiqxon Hashmatning 30 dan ortiq qo'lyozma nusxalari saqlanmoqda [10, 4–14].

Shuningdek, Mirsiddiqxon Hashmat va Sharifjon maxdum Sadri Ziyo Ahmad Donishdan keyin Buxoroning ilmiy-adabiy muhitining homiylari va yetakchilari sifatida tanilib, amirning rasmiy hukumatiga muqobil bo'lgan ma'naviy-ma'rifiy markazni shakllantirganlar. Natijada, ularning xonadonlari Buxoro ilmiy va adabiy hayotining muhim markazlaridan biriga aylangan.

Xulosa. Mirsiddiqxon Hashmat kutubxonasining tarixiy va madaniy ahamiyati shundaki, u tadqiqotchilarga bugungi kunda qo'lga kirishi qiyin bo'lgan qator manbalarning mavjudligi haqida ma'lumot beradi. Bizning nazarimizda, mazkur qo'lyozmalar taqdirini aniqlash Buxoroning ijtimoiy-siyosiy hayotiga oid ko'plab tarixiy masalalar hamda hozirgacha yetarlicha yoritilmagan jihatlarga oydinlik kiritadi. Bu esa tojik adabiyoti va madaniyati tarixini o'rganishdagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Aytish mumkinki, Mirsiddiqxon Hashmat tomonidan to'plangan kitoblar asosan Sharifjon maxdum Sadri Ziyoning sa'y-harakatlari va ehtiyotkorona saqlovi tufayli bizgacha yetib kelgan: "Bizning taxminimizcha, Hashmat Afg'onistonga ko'chib ketishidan oldin ushbu sharq qo'lyozmalarini Sadri Ziyoga sotgan bo'lishi mumkin. Shu sababli biz Sadri Ziyo kutubxonasida ko'p jildli asarlarning juda ko'p nusxalarini aniqladik" [3, 19].

Yuqorida keltirilgan mulohaza va kuzatishlardan ma'lum bo'ladiki, Mirsiddiqxon Hashmat asarlarining katta qismi hamda uning kutubxonasi materiallari bugungi kungacha saqlanib qolgan bo'lib, ular jahonning yirik kutubxonalari fondlarida nodir qo'lyozmalar sifatida muhofaza qilinmoqda. Shuningdek, Abu Rayhon Beruniy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan ko'plab nodir qo'lyozmalar va manbalar Sharifjon maxdum Sadri Ziyo hamda Mirsiddiqxon Hashmat kutubxonalari hisobiga jamlangan bo'lib, ular XIX asr va XX asr boshlaridagi Buxoroning adabiy muhiti hamda ijtimoiy hayoti haqida muhim ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Айнӣ С. Намунаи адабиёти тоҷик. Аз хати форсӣ таҳия ва тасҳеҳи Мубашшири Акбарзод.- Душанбе, Адиб, 2010.- 438 с. (Ayni S. Sample of Tojik literature. Az khati forsi tahiya va tas'hyehi Mubashshiri Akbarzod.- Dushanbe, Adib, 2010.- 438 p.)
2. Ахунджанов Э.А. Очерки по истории книги и книжного дела в Средней Азии. – Ташкент: Издателско-полиграфческое объеденение имени Ибн Сины. 1993. – С.62.
3. Вохидов, Шодмон. Из истории частных библиотек в Бухарском эмирате конца XIX - начала XX вв. (опыт реконструкции).- Тошкент, 2008. (Voxidov Shodmon. From the history of the Royal Libraries in the Bukhara Emirate of the late XIX - early XX centuries. (reconstruction experience). - Toshkent, 2008.).
4. Зоҳидова С. А. XIX аср охири – XX аср бошларида шаҳар маданияти тараққиёти (Носируддин ибн Амир Музаффарнинг "Туҳфат-уз-зоирин" асари маълумотлари асосида).Тошкент, 2008. (Zohidova S. A. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida shahar madaniyati taraqqiyoti (Nosiruddin ibn Amir Muzaffarning "Tuhfat-uz-zoirin" asari ma'lumotlari asosida). Toshkent, 2008.)
5. Қосимова О. Ўзбекистонда кутубхоначилик тарихи. – Тошкент, 1992. (Qosimova O. O'zbekiston kutubxonachilik tarixi. – Toshkent, 1992.)
6. Масалиева О. Амир Музаффарнинг тарихнавис ўғиллари. //Мозийдан садо, 2004. – № 2 (22). – С. 32. (Masalieva O. Amir Muzaffarning tarixnavis o'g'illari. // Moziydan sado, 2004. – № 2 (22). – 32 p.)

7. Мужонӣ С. А. Китобат ва китобдори дар Бухорои аввали асри XX // Мутолиоти Осиёи Маркази ва Қафқоз. 1377/1998. №22. (Mujoniy S. A. Kitobat va kitobdorī dar Buxoroi avvali asri XX // *Mutoliioti Osiyoi Markazī va Qafqoz*. 1377/1998. №22.)
8. Садри Зиё, Шарифҷон-махдум. Тазкори ашъор. Шарҳи ҳоли бархе аз шоирони муосири Тоҷикистон ва намунаҳое аз ашъори онон. Бо тасҳеҳи Саҳобиддини Сиддиқ. Бо кӯшиши Муҳаммадҷони Шакурии Бухоройӣ. Чопи аввал.-Теҳрон: Суруш, 1380=2001.- 428 с. (Sadri Ziyo, Sharifjon-maxdum. A collection of poems. Biographies of some contemporary poets of Tajikistan and examples of their poems. By correction of Sahobiddini Siddiq. By effort of Muhammadjoni Shakurii Buxoroi. First printed.-Tehran: Surush, 1380-2001.- 428 p.)
9. Саййид Муҳаммад Носир ибн Музаффар. Таҳқиқоти арки Бухоро.- (Форс тилидан таржима, сўзбоши, изоҳлар ва кўрсаткичлар Ғ.Каримовники).- Тошкент: TAFAKKUR, 2009.-106 с. (Sayyid Muhammad Nosir ibn Muzaffar. The research of the Bukhara's ark.- (Ttanslation from Persian, foreword, comments and indicators by F.Karimovniki).- Tashkent: TAFAKKUR, 2009.-106 p.)
10. Холиқова Раҳбар. XIX аср охири–XX аср бошларида Бухоро амирлигидаги кутубхоналар тарихидан (Муҳаммаджон Садри Зиё ва Мир Сиддиқ Ҳашмат кутубхоналари мисолида). «Ўтмишга назар» илмий журнали таҳририй маслаҳат кенгаши. 4 жилд, 9 сон. – Тошкент. – Б.4-14. (Xoliqova Rahbar. XIX asr oxiri–XX asr boshlarida Buxoro amirligidagi kutubxonalar tarixidan (Muhammadjon Sadri Ziyo va Mir Siddiq Hoshmat kutubxonalari misolida). «O'tmishga nazar» ilmiy jurnali tahririy maslahat kengashi. 4 jild, 9-son. – Toshkent. – 4–14 p.).

Muallif:
Eshonqulov Ilhom Abdusalomovich - Termiz davlat universiteti, Tojik filologiyasi va Sharq tillari kafedrasi dotsenti, PhD.

UDK 372.83

TECHNOLOGY OF MANUFACTURING KOKAND PAPER FROM RAW COTTON

QO'QON QOG'OZINI XOM PAXTADAN TAYYORLASH TEXNOLOGIYASI

ТЕХНОЛОГИЯ ИЗГОТОВЛЕНИЯ КОКАНДСКОЙ БУМАГИ ИЗ СЫРОГО ХЛОПКА

Pulatov Sharifjon Yigitalievich, Aripov Masud Marufovich
Qo'qon davlat universiteti, 150700, Farg'ona viloyati, Qo'qon shahri, Turon ko'chasi 23-uy
E-mail: aripovmasud@gmail.com

Abstract. The article examines the technology of producing Kokand paper from raw cotton as practiced in the papermaking tradition of the Kokand Khanate in the nineteenth century. The morphological and physical-mechanical properties of cotton fibers are analyzed, along with the main technological stages, including alkaline treatment, manual fiber beating, sheet formation on a frame, and pressing. The study is based on historical sources and experimental reconstruction of the traditional technique. The results show that the length and natural elasticity of raw cotton fibers ensure the thinness, strength, and excellent ink retention properties of Kokand paper.
Keywords: Kokand paper, raw cotton, traditional papermaking, cotton fiber, pressing.

Аннотация. В статье исследуется технология изготовления Кокандской бумаги из сырого хлопка, сформировавшаяся в бумагоделательной традиции Кокандского ханства в XIX веке. Проанализированы морфологические и физико-механические свойства хлопковых волокон, а также основные технологические этапы: щелочная обработка, ручное истирание волокон, формование бумажного слоя на рамке и прессование. Исследование основано на анализе исторических источников и результатах экспериментальной реконструкции традиционной технологии. Установлено, что длина и естественная эластичность волокон сырого хлопка обеспечивают тонкость, прочность и высокую способность удержания чернил Кокандской бумаги.
Ключевые слова: Кокандская бумага, сырой хлопок, традиционное производство бумаги, хлопковое волокно, прессование.

Kirish. Qog'oz ishlab chiqarish texnologiyasi insoniyat sivilizatsiyasi rivojida muhim o'rin egallab, ilm-fan, madaniyat va ma'naviy meros taraqqiyotini ta'minlab kelgan asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, sharq mamlakatlarida qog'oz ishlab chiqarish usullarining takomillashuvi qo'lyozma madaniyati, xattotlik san'ati va kitobat an'analari bilan uzviy bog'liq holda shakllangan. Markaziy Osiyo hududida esa Samarqand, Buxoro va Qo'qon kabi markazlar tarixiy manbalarda yuqori sifatli qog'oz ishlab chiqarish o'choqlari sifatida e'tirof etilgan.

XIX asrda Qo'qon xonligi hududida ishlab chiqarilgan qo'qon qog'ozi o'zining yupqaligi, mustahkamligi, elastikligi va siyohni yaxshi ushlash xususiyatlari bilan mashhur bo'lgan. Mazkur qog'oz turi diniy, adabiy va huquqiy qo'lyozmalarda, shuningdek, devon ishlarida keng qo'llanilgan. Tarixiy manbalarda qo'qon qog'ozining asosiy xomashyosi sifatida paxta tolalaridan foydalanilgani qayd etilsa-da, uning aniq texnologik jarayonlari va ishlab chiqarish bosqichlari zamonaviy ilmiy adabiyotlarda yetarli darajada tizimlashtirilmagan.

Hozirgi kunda an'anaviy qog'ozchilik texnologiyalarini o'rganish va qayta tiklash milliy madaniy merosni saqlash, shuningdek, hunarmandchilikni ilmiy asosda rivojlantirish nuqtai nazaridan dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, xom paxta asosida qog'oz tayyorlash texnologiyasini tadqiq etish nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki zamonaviy ekologik toza materiallardan foydalanish imkoniyatlarini ham ochib beradi.

Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolada XIX asr qo'qon qog'ozchiligida qo'llanilgan xom paxtadan qog'oz tayyorlash texnologiyasini ilmiy jihatdan tahlil qilish, uning asosiy texnologik bosqichlarini qayta tiklash va amaliy eksperimentlar orqali uning afzalliklarini aniqlash maqsad qilingan. Tadqiqot davomida xom paxta tolalarining morfologik xususiyatlari, ishqoriy ishlov jarayoni, qo'l usulida sanchish, ramkaga solish va presslash bosqichlarining qog'oz sifatiga ta'siri o'rganiladi.

Mazkur tadqiqot natijalari qo‘qon qog‘ozining yuksak sifati qanday texnologik omillar asosida shakllanganini ochib berishga xizmat qilib, an’anaviy qog‘ozchilik merosini ilmiy asosda saqlash va qayta jonlantirishga muayyan hissa qo‘shadi.

Tadqiqot ob’ekti va qo‘llanilgan metodlar

Mazkur tadqiqotning ob’ekti sifatida XIX asrda Qo‘qon xonligi hududida shakllangan an’anaviy qog‘ozchilik amaliyoti, xususan, xom paxta asosida qo‘qon qog‘ozini tayyorlash texnologiyasi tanlab olindi.

Tadqiqot predmeti esa xom paxta tolalarining morfologik va fizik-mexanik xususiyatlari, ularga ishqoriy ishlov berish, qo‘l usulida sanchish, ramkaga solish va presslash bosqichlarining qog‘oz sifat ko‘rsatkichlariga ta’sirini o‘rganishdan iborat.

Tadqiqot jarayonida xomashyo sifatida mahalliy sharoitda yetishtirilgan, terilib urug‘idan tozalangan tabiiy paxta tolalari qo‘llanildi. Paxta tolalari an’anaviy tarixiy manbalarda qayd etilgan usullarga muvofiq holda ishlovdan o‘tkazildi. Jumladan, paxta avvalo mexanik iflosliklardan tozalandi, keyin esa ishqoriy muhitda (soda eritmasi yoki daraxt kullari asosida tayyorlangan eritmada) belgilangan vaqt davomida qaynatildi. Bu jarayon tolalarni yumshatish va sellyuloza tarkibini faollashtirishga xizmat qildi.

Tadqiqotda qo‘llanilgan asosiy usullar quyidagilardan iborat. Birinchidan, tarixiy-tahliliy metod yordamida qo‘qon qog‘ozchiligiga oid yozma manbalar, sayohatchilar qaydnomalari va ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Ikkinchidan, texnologik rekonstruktsiya usuli qo‘llanilib, tarixiy tavsiflarga asoslangan holda xom paxtadan qog‘oz tayyorlash jarayoni amaliy jihatdan qayta tiklandi. Uchinchidan, eksperimental metod orqali qo‘l usulida sanchish, ramkaga solish va vintli press yordamida siqish amalga oshirildi.

Shuningdek, solishtirma-tahliliy metod qo‘llanilib, xom paxtadan tayyorlangan qog‘oz namunalari apparatda titilgan paxtadan olingan qog‘oz namunalari bilan taqqoslandi. Solishtirish jarayonida qog‘ozning yupqaligi, mustahkamligi, elastikligi va siyohni ushlash qobiliyati kabi ko‘rsatkichlarga e’tibor qaratildi.

Tadqiqotda kuzatish va tavsiflash usullari ham qo‘llanilib, har bir texnologik bosqichda tolalar holati va qog‘oz qatlamining shakllanishi qayd etildi. Olingan natijalar tahlil qilinib, umumlashtirish usuli orqali xulosalar chiqarildi. Qo‘llanilgan metodlar majmuasi xom paxtadan qo‘qon qog‘ozi tayyorlash texnologiyasini ilmiy asosda tadqiq etish imkonini berdi.

Xom paxtaning texnologik xususiyatlari va uni tayyorlash

Xom paxta tabiiy sellyuloza manbai hisoblanadi. Uning tolalari 25–40 mm uzunlikka ega bo‘lib, bu ko‘rsatkich qog‘oz mustahkamligi uchun juda muhimdir. Tolalarning uzunligi orqali ular o‘zaro mexanik bog‘lanib, qog‘oz qatlamining barqarorligini ta’minlaydi.

Apparatda titilgan paxta bilan solishtirilganda, xom paxta tolalari kam shikastlangan va tabiiy elastikligini saqlab qolgan bo‘ladi. Bu esa qog‘ozning yorilishga chidamliligini oshiradi.

Xom paxta – terilgan, ildizlari va urug‘i olib tashlangan, lekin hali qaynatilmagan, sanchilmagan tola. Tajriba ishlarida 1-rasvda keltirilgan asbob va uskunalardan foydalanildi.

Kerakli narsalar:

- xom paxta (xomashyo) — 50–100 g;
- tut daraxti kuli — 1 stakan;
- suv — 1 litr.

Tajriba ishlarida 1-rasvda keltirilgan asbob va uskunalardan foydalanildi



a b c d e f

1-rasm. Qo‘qon qog‘ozini tayyorlashda va tahlil etishda ishlatiladigan asbob va uskinalar:
a-katta keli, b-kichkina keli, c-ramka, d-mikrometr, e-vintli press, f-elektron tarozi

Xom paxtani ishlovdan o‘tkazish bosqichlari

Qo‘qon qog‘ozini tayyorlash jarayonida xom paxtani ishlovdan o‘tkazish bosqichlari hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, mazkur bosqichlar tolalarning fizik-mexanik holatini shakllantiradi va tayyor qog‘oz sifatini belgilaydi. An’anaviy qo‘qon qog‘ozchiligida xom paxta tabiiy xususiyatlarini saqlagan holda, qo‘l mehnatiga asoslangan usullar orqali qayta ishlangan.

Birinchi bosqich — xom paxtani dastlabki tayyorlash hisoblanadi. Bu bosqichda paxta tolalari mexanik iflosliklardan, qoldiq urug‘ parchalari va changdan qo‘l usulida tozalanadi va 12 soat iliq suvga ivitib qo ‘yiladi. Tarixiy manbalarga ko‘ra, paxta titish yoki intensiv mexanik ishlov berish qo‘llanilmagan, chunki bu tolalarning qisqarishiga olib kelgan. Shu sababli paxta tabiiy holatiga yaqin saqlangan.

Ikkinchi bosqich — ishqoriy ishlov berishdir. Xom paxta ishqoriy muhitda qaynatish orqali yumshatilgan. Tut daraxti kuli asosida tayyorlangan ishqoriy eritmadan foydalanildi. Paxta tolalari 3 soat davomida past qaynash darajasida qaynatildi. Bu jarayon tolalar tarkibidagi tabiiy yog‘, mum va boshqa gidrofob moddalarni parchalashga xizmat qiladi hamda sellyuloza tolalarining faol guruhlarini ochadi. Ishqoriy ishlov berish natijasida paxta tolalari yumshab, suvni yaxshi singdirish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Bu holat keyingi sanchish jarayoni uchun muhim shart hisoblanadi. Qaynatishdan so‘ng paxta tolalari toza suvda bir necha marta yuvilib, ishqoriy qoldiqlardan tozalanadi va sovutiladi.

Uchinchi bosqich — qo‘l usulida sanchish jarayonini qo‘qon qog‘ozi tayyorlash texnologiyasida markaziy va hal qiluvchi bosqich hisoblanadi. Aynan ushbu jarayonda paxta tolalarining ichki strukturasi o‘zgarib, ular qog‘oz hosil qilishga yaroqli holatga keltiriladi. An'anaviy qo‘qon qog‘ozchiligida sanchish jarayoni to‘liq qo‘l mehnatiga asoslangan bo‘lib, bu usul tolalarning tabiiy xususiyatlarini saqlab qolishga xizmat qilgan. Paxta avval suvi siqib chiqarilgan holda yog‘och kelining ichiga joylashtiriladi. Keli, odatda, qattiq yog‘ochdan (tut, yong‘oq yoki jiyda) yasalgan bo‘lib, uning ichki yuzasi tolalarni ezishga mos shaklda ishlangan. Sanchish uchun ishlatiladigan to‘qmoq esa silindrik yoki bir oz yassi shaklga ega bo‘lib, zarba kuchini bir maromda taqsimlashni ta'minlagan. Qo‘l usulida sanchish jarayonida asosiy maqsad tolalarni kesish yoki qisqartirish emas, balki ularni ezish, yoyish va fibrillyatsiya qilishdan iborat. Fibrillyatsiya — bu tola yuzasida mikrotolalarning ochilishi bo‘lib, aynan shu holat qog‘oz qatlamida tolalarning o‘zaro mexanik bog‘lanishini ta'minlaydi. Mexanik blender yoki apparatda titilgan paxtada tolalar ko‘p hollarda qisqarib ketsa, qo‘l usulida sanchishda tolalarning tabiiy uzunligi asosan saqlanib qoladi. Sanchish jarayoni uzoq vaqt talab etadi va tolalar holati doimiy ravishda nazorat qilinadi. Tajribaviy kuzatuvlarga ko‘ra, xom paxtadan tayyorlangan massa uchun sanchish vaqti o‘rtacha 40–90 minutni tashkil qiladi. Bu vaqt oralig‘ida paxta bir necha marta kelining devorlaridan olib, qayta markazga yig‘iladi va yana sanchiladi. Bu amaliyot tolalarning bir xil darajada ezilishini ta'minlaydi. Sanchish jarayonida tolalarning namlik darajasi ham muhim ahamiyatga ega. Ortiqcha quruq paxta yaxshi ezilmaydi, haddan tashqari suvli massa esa zarba energiyasini yutib yuboradi. Shu sababli sanchish vaqtida paxta yarim nam, elastik holatda saqlanadi. Zarba kuchining me'yorda bo‘lishi tolalarning mexanik shikastlanishini oldini oladi. Ilmiy nuqtai nazardan qaralganda, qo‘l usulida sanchish jarayonida tolalarning sellyuloza zanjirlari saqlanib qoladi, faqatgina tola devorlari ochiladi. Bu holat qog‘ozning mustahkamligi, uzilishga chidamliligi va yuzasining bir tekisligiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi. Tarixiy qo‘qon qog‘ozlarining uzoq yillar saqlanib qolganligi ham aynan shu texnologik yondashuv bilan bog‘liq. Shuningdek, qo‘l usulida sanchish jarayoni qog‘oz massasining plastikligini oshiradi. Bu keyingi bosqichda ramkaga solishda tolalarning teng taqsimlanishiga yordam beradi. Amaliy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, qo‘l usulida sanchilgan paxtadan olingan qog‘oz qatlamida teshiklar kamroq bo‘ladi va qalinlik bo‘yicha farq minimal darajada kuzatiladi.

To‘rtinchi bosqich — tolalarni suv bilan aralashtirib, massa hosil qilishdir. Sanchilgan paxta suv bilan bir xil suspenziya holatiga keltirildi. Bu bosqichda tolalarning teng taqsimlanishiga alohida e’tibor qaratildi, chunki bu qog‘oz qatlamining bir xil qalinlikda bo‘lishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Beshinchi bosqich — ramkaga solish va qog‘oz qatlamini shakllantirishdan iborat. Tayyorlangan paxta massasi ipak yoki nozik mato tortilgan ramkaga quyildi. Ramka harakati orqali suv oqib chiqib, tolalar ramka yuzasida tekis qatlam hosil qildi. Bu jarayon an’anaviy qo‘qon qog‘ozchiligida muhim texnologik bosqich sifatida qaraladi.

Oltinchi bosqich — an’anaviy qo‘qon qog‘ozchiligida presslash jarayoni qo‘l vintli yoki og‘irlik asosidagi oddiy presslar yordamida amalga oshirilgan. Qog‘oz varag‘i ramkadan olingach, u odatda yuzaga yopishib qolmasligi uchun mato (ipak, zig‘ir yoki paxta mato) orasiga qo‘yilgan. Bir nechta qog‘oz varaqlari qatlam-qatlam qilib joylashtirilib, ular orasiga namlikni yaxshi singdiradigan matolar solingan. Shu holda tayyorlangan to‘plam press ostiga qo‘yilgan.

Presslash jarayonida qo‘llaniladigan bosim darajasi juda muhim hisoblanadi. Kam bosim qo‘llanilsa, qog‘ozda ortiqcha namlik saqlanib qoladi va quritish vaqtida deformatsiya yuzaga keladi. Haddan tashqari yuqori bosim esa tolalarning tabiiy strukturasini buzib, qog‘ozni qattiq va mo‘rt qilib qo‘yishi mumkin. Shu sababli an’anaviy ustalar presslashni bosqichma-bosqich amalga oshirganlar: avval yengil bosim, keyin esa bosimni asta-sekin oshirish usuli qo‘llangan.

Ilmiy nuqtayi nazardan, presslash jarayonida tolalar orasidagi suv chiqib ketishi natijasida sellyuloza tolalarining yuzasi yaqinlashadi va ular o‘rtasida vodorod bog‘lanishlari kuchayadi. Bu holat qog‘ozning mustahkamligi, yirtilishga chidamliligi va uzoq muddat saqlanish xususiyatini oshiradi. Qo‘l usulida sanchilgan paxtadan olingan massa presslash jarayonida ayniqsa yaxshi natija beradi, chunki tolalar uzunligi saqlangan bo‘ladi va ular o‘zaro mustahkam bog‘lanishga qodir bo‘ladi.

Presslash vaqti ham qog‘oz sifatiga ta’sir ko‘rsatadi. Amaliy tajribalarga ko‘ra, an’anaviy Qo‘qon qog‘ozi uchun presslash vaqti o‘rtacha 20–40 minutni tashkil etgan. Ayrim hollarda, qog‘oz qalinligiga qarab, presslash bir necha marta takrorlangan. Birinchi pressdan keyin matolar almashtirilib, ikkinchi marta presslash amalga oshirilgan. Bu usul qog‘ozda qolib ketgan namlikni yanada samarali chiqarishga xizmat qilgan.

Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, qo‘qon qog‘ozgarlari presslash jarayonida qog‘oz yuzasining tekisligiga alohida e’tibor qaratganlar. Pressdan chiqarilgan qog‘oz varaqlari qo‘l bilan tekislanib, burmalar yoki notekisliklar bartaraf etilgan. Bu esa keyingi quritish va silliqlash (polirovka) jarayonlari uchun qulay sharoit yaratgan.

Yettinchi bosqich — Qo‘qon qog‘ozi tayyorlash texnologiyasida quritish jarayoni presslashdan keyingi yakuniy muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu jarayonning asosiy maqsadi qog‘oz tarkibida qolgan namlikni tabiiy usulda bartaraf etish hamda varaqqa barqaror shakl va mexanik mustahkamlik berishdan iborat. Quritish jarayoni noto‘g‘ri tashkil etilgan taqdirda qog‘ozda burishish, yorilish yoki qalinlik bo‘yicha notekisliklar yuzaga kelishi mumkin.

An'anaviy qo‘qon qog‘ozchiligida quritish asosan tabiiy muhitda amalga oshirilgan. Pressdan chiqarilgan qog‘oz varaqlari ehtiyotkorlik bilan matodan ajratilib, devorga, yog‘och taxtaga yoki maxsus arqonlarga biriktirilgan. Quritish jarayonida to‘g‘ridan-

to‘g‘ri quyosh nuridan qochilgan, chunki yuqori harorat qog‘oz tolalarining tez qurib, mo‘rtlashishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bois quritish soya va havo yaxshi aylanadigan joylarda olib borilgan.

Ilmiy nuqtai nazardan qaralganda, tabiiy quritish jarayonida namlik asta-sekin bug‘lanadi va tolalar o‘rtasida hosil bo‘lgan vodorod bog‘lanishlari mustahkamlanadi. Bu holat qog‘ozning elastikligi va uzoq muddat saqlanish xususiyatlarini yaxshilaydi. Amaliy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, Qo‘qon qog‘ozi uchun quritish vaqti havo harorati va namligiga qarab o‘rtacha 12–24 soatni tashkil etadi.

Quritish jarayoni tugagach, qog‘oz varaqlari yuzasi tekshirilib, keyingi silliqlash yoki qo‘shimcha ishlov berish bosqichlariga tayyor holatga keltiriladi. Shu tariqa, quritish jarayoni qo‘qon qog‘ozining sifatini saqlab qolish va uning an'anaviy xususiyatlarini ta'minlashda muhim texnologik ahamiyatga ega.


Yuqoridagi bosqichlar bajarilgandan so‘ng 2-rasmdagi xom paxtadan olingan qo‘qon qog‘ozi shakllanadi.



2-rasm. Xom paxtadan olingan qo‘qon qog‘ozi



3-rasm. Tut daraxtidan olingan samarqand qog‘ozi



4-rasm. Tut daraxtidan olingan qo‘qon qog‘ozi (19-asrda tayyorlangan)

1-jadval

Xom va titilgan eski paxta xususiyatlarini solishtirish

Xususiyat	Xom paxta	Apparatda titilgan paxta
Tolalar uzunligi	Uzun (25–40 mm)	Qisqa
Qog‘oz yupqaligi	Yupqa va tekis	Yupqa, lekin notekis
Mustaxkamlik	Yuqori	O‘rta
Elastiklik	Yuqori	O‘rta
Sirt tuzilishi	Silliq, bir xil	Biroz notekis
Siyoxni ushlash qobilyati	Yuqori	O‘rta

2-jadval

Turli qog‘ozlarning qalinligi va xajmiy zichligi

Shahar nomi	Asosiy xom-ashyo	Qalinligi (mm)	Xajmiy zichligi (g/cm^3)
Qo ‘qon	Xom paxta	0.51	0.40
Qo ‘qon	Tut daraxti	0.08	0.70
Samarqand	Tut daraxti	0.84	0.12
Qo‘qon (Begmatov X.)	Uvada	1,04	0.32
Qo‘qon	Titilgan paxta	1.11	0,35
Siktivkar (“Snegurochka” Rossiya)	Daraxt	0.10	0,80

Xulosa.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari xom paxta qo‘qon qog‘ozini tayyorlashda texnologik jihatdan eng maqbul xomashyo ekanini ko‘rsatdi. Eksperimental tahlillar xom paxta tolalarining morfologik tuzilishi, uzunligi va elastikligi qog‘oz qatlamining mustahkamligi, yupqaligi hamda sirt sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqladi. Ayniqsa, xom paxtadan tayyorlangan qog‘oz namunalarining siyohni ushlash qobiliyati va elastikligi yuqori bo‘lib, bu uni xattotlik va qo‘lyozma kitobat uchun juda mos materialga aylantiradi.

Solishtirma tahlil natijalari apparatda titilgan paxtadan tayyorlangan qog‘oz texnologiyasi ishlab chiqarish jarayonini tezlashtirishiga qaramay, an’anaviy qo‘qon qog‘oziga xos sifat ko‘rsatkichlarini to‘liq ta’minlay olmasligini ko‘rsatdi. Tolalarning qisqarib ketishi va mexanik shikastlanishi qog‘ozning elastikligi va uzoq muddat saqlanish qobiliyatini pasaytiradi.

Tadqiqot natijalari XIX asrda qo‘qon qog‘ozchiligida xom paxtadan foydalanilgani haqidagi tarixiy ma’lumotlarni ilmiy jihatdan asoslashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mazkur ish qo‘qon qog‘ozi ishlab chiqarish an’anaviy texnologiyasini qayta tiklash, uni zamonaviy sharoitda moslashtirish va madaniy meros sifatida saqlash uchun ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hasanov A. O‘zbekistonda an’anaviy hunarmandchilik tarixi. – Toshkent: Fan, 2008.
2. Tursunov N. Qo‘qon xonligida hunarmandchilik va savdo munosabatlari. – Toshkent: Akademnashr, 2014.
3. Ismoilov B. Markaziy Osiyoda qog‘oz ishlab chiqarish an’analari // O‘zbekiston tarixi. – 2012. – №3. – B. 45–52.
4. Abdurahmonov Sh. Qo‘lyozma kitoblar va ularning moddiy asoslari. – Toshkent: Navro‘z, 2010.
5. Yuldashev Q. Qo‘qon xonligi madaniy hayotida qog‘ozchilikning o‘rni // Farg‘ona vodiysi tarixi masalalari. – Qo‘qon, 2018. – B. 88–95.
6. Karimov Sh. Markaziy Osiyoda qog‘ozchilik an’analari. – Toshkent: Fan, 2016
7. Qosimova M. Raqamli texnologiyalar va hunarmandchilik integratsiyasi, Samarqand, 2023.
8. Alimov D. Farg‘ona an’anaviy hunarmandchiligi tarixidan lavhalar, 2020.
9. Абдуллаев А. “Ўрта асрларда қоғоз ишлаб чиқариш анъаналари”, Тошкент, 2018.
10. Мирзаев Ш. “Қўқон қоғози тарихи ва технологияси”, Фарғона, 2021.
11. Хидоятов Р. “Ўзбек қоғоз ишлаб чиқаришининг илмий асослари”, Самарқанд, 2019.
12. UNESCO Silk Roads Programme. Traditional paper-making in Central Asia, 2020.
13. Begmatov X. Papermaking in the kokand khanate: stages of historical development and social significance. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. Volume 36, February- 2025.

Mualliflar:

Pulatov Sharifjon Yigitalievich - Qo‘qon davlat universiteti ilmiy ishlar va inovatsiyalar bo‘yicha prorektori, texnika fanlari doktori, professor.

Aripov Masud Marufovich – Qo‘qon davlat universiteti, Raqamli texnologiyalar va sun’iy intelekt kafedrasi professori, texnika fanlari nomzodi.

**** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ****

**** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2026. № 2 ****

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA

Xodjiyev Muksin Tadjiyevich, Muhammad Zia, Tuxtamishova Gulnoza Karshibayevna, Norimova Guljaxon Abduganiyevna. TEXNIKA TA'LIMIDA O'QITISH VA KASBIY PEDAGOGIKANING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI....3
Toshtemirov Doniyor Eshbayevich, Shakiyeva Aida Maratovna, Suyuberdiyeva Aiman Abdrazakovna, Usmanova Gulnara Baxadirovna. BO'LAJAK CHET TILI O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA KOMMUNIKATIV YONDASHUVLARDAN FOYDALANISH....7
Alibekova Mahzuna Alisher qizi. INTEGRATIV VA INSTRUMENTAL MOTIVATSIYA ORQALI TINGLAB TUSHUNISHNI RIVOJLANTIRISH....10
Toshtemirova Nasiba Xasanovna. DAVLAT TILIDA ISH YURITISH KURSINI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH....12
Qurbonov Ahror. BO'LAJAK TEXNIKA O'QITUVCHILARINING KREATIV QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY INNOVATSION YONDASHUVLARDAN FOYDALANISH....14
Norqulova Jasmina Sherzod qizi. ESP (ENGLISH FOR SPECIFIC PURPOSES) VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI....16
Axmedova Fatima Xurramovna. INKLYUZIV TA'LIM MUHITIDA AUTIZM SPEKTR BUZILISHI BO'LGAN BOLALARDA PSIXOLOGIK DIAGNOSTIKANING SAMARADORLIGI (kichik maktab yoshi misolida)....18
Qodirova Lola Muzafarovna, Mohamed Arshad Seyed Mohammed Buhari. BADIIY MATNLAR ("HARRY POTTER") VA SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA KOMMUNIKATIV KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH....24
Babajanova Fotima Farmanovna, Suyuberdiyeva Ayman Abdrazakovna. TALABALAR ILMIY-IJODIY QOBILIYATLARINI NAMOYON BO'LISHINING PSIXOLOGIK TAHLILI....27
Bazarbayev Muratali Irisaliyevich, Goyibnazarov Rozimurod Bakhtiyorovich. BIOPROMPT-MODELLASHTIRISH TEXNOLOGIYASINI QO'LLASHDA TALABALARNING BIOFIZIKANI O'RGANISHGA MOTIVATSION QIZIQISH KO'RSATKICHI....31
Fayziyeva Shoira Ayubovna, Rustamova Mohida Tajibay qizi. YETIM VA OTA-ONA QARAMOG'IDAN MAHRUM BO'LGAN BOLALARNI OILALARGA JOYLASHTIRISHNING IJTIMOIY-HUQUQIY VA PSIXOLOGIK ASOSLARI....34
Samatova Dilrabo Yusupovna, Ummatqulova Adashoy Baxtiyor qizi. INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA O'QUVCHILARNING EKOLOGIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH....36
Qayumov Shohruh Abdujalol o'g'li, Karimova Mohinur Abdujalol qizi. INNOVATSION TIZIMLAR ASOSIDA TALABALARDA SPORT VA SALOMATLIK IMMUNITETINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK STRATEGIYALARI....39
Djumanov Jahongir Abdivaliyevich. UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI 8-SINFIDA "TARBIYA" FANINI O'QITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI....42
Islomov Odil Olim o'g'li, Safoyeva Dilnoza Kamol qizi. RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA "TARMOQ TEXNOLOGIYALARI" KURSINI O'QITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI....44
Najmiddinova Durdona Najmiddin qizi. FUTBOL SOHASI KONTEKSIDA KASBIY INGLIZ TILI LEKSIKASINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI....48
Shukurullayeva Barno Baxtiyor qizi. GAPIRISH VA YOZISH KO'NIKMALARINI O'QITISHDA AUTENTIK MATERIALLARNI TANLASHNING LINGVODIDAKTIK ASOSLARI....51
Obidova Dilnoza Maqsud qizi. MINTAQAVIY IJTIMOIY-MADANIY MUHITNING O'SPIRINLAR REFLEKSIV TAFAKKURI TARAQQIYOTIGA TA'SIRI....54
Eshtemirov Axror Nurmaxmatovich. O'QUVCHILARNING BILUV FAOLIYATINI RIVOJLANISHIDA TA'LIMIY FAOLIYATNING O'RNI....58
Raxmatova Mexrinoz Majitovna. "UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA SINFDAN TASHQARI TARBIYAVIY ISHLARNI TAKOMILLASHTIRISHDA "ODATLANTIRISH VA FAOLIYATDA MASHQLANTIRISH METODI"NING INTEGRATSIYASHUVI....61
Shaxaldarova Gulchehra Sagdiyevna. KOGNITIV KOMPETENSIYA MAZMUNI....64
Janboyev Shohruh Mamatayib o'g'li. O'ZBEK TILIDA DASTURLASH TA'LIMINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI....66
Mamatova Khilola Mukhiddinovna. OLIY TA'LIM MUASSASALARI RAHBARLARINING KOMMUNIKATIV IJODKORLIGINI BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI....69
Bahodirova Marhaboxon Toxirjon qizi. PSIXOLOGIK FAROVONLIKKA OID G'ARB PSIXOLOGLARINING NAZARIYALARI TAHLILI....72
Yuldashev Ulmasbek Abdubanapovich. RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA WEB-DIZAYN KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-TEXNOLOGIK YONDASHUVLARI....74
Marasulova Zulayho Abdullayevna, Zoxidova Mahfuza Xabibovna. OLIY TA'LIM MUASSASALARIGA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYASINI JORIY ETISH SAMARADORLIGI....78
Sulaymonov Asqarali, Berdiyev Fazliddin. BO'LAJAK ARXITEKTOR VA DIZAYNERLARDA KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA BIRLAMCHI GRAFIK MATERIALLARDAN FOYDALANISH....81
Каримова Гавхар Шовкатжановна. ПРИНЦИПЫ МОДУЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ В НАПРАВЛЕНИИ «АЛЬТЕРНАТИВНЫХ ИСТОЧНИКОВ ЭНЕРГИИ» В СИСТЕМЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ....84
Khasanov Otabek. YUQORI MALAKALI FUTBOLCHILARNING PSIXOFIZIOLOGIK KOGNITIV QOBILIYATLARINI INFORMATIV KO'RSATKICHLARI VA O'ZARO BOG'LIQLIGI....87
Kambarov Davronbek Saytboyevich. 14–15 YOSHLI GANDBOLCHILARNING JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI VA VOSITALARI....92
Ro'zimatov Jamshid. TABIIY FANLAR SAVODXONLIGINI YUKSALTIRISH ASOSIDA KICHIK YOSHDAGI MAKTAB O'QUVCHILARINING TADQIQOTCHILIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK NEGIZLARI....95
Norboyev Sirojiddin G'anisher o'g'li. SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA AVTOMATLASHTIRILGAN BAHOLASH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI....98
Qaraxonova L.M. OILA–MAKTAB HAMKORLIK ISHLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA SOTSIOMETRIK MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI....100

Jabbarova Shahodat Ibrohim qizi. BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI TABIATGA QIZIQTIRISH ORQALI TADQIQOTCHILIK FAOLIYATIGA YO‘NALTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI....102
Маманова Севинч Масрур кизи. ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ РАЗЛИЧИЯ У СТУДЕНТОВ РАЗНОГО ПОЛА....106
Bazarbayev Zinatdin Bisen o‘g‘li. FIZIKA FANIDAN INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING MUHIM JIHATLARI (ELEKTR VA MAGNETIZM BO‘LIMI MISOLIDA)....109
Karlibayeva Guljaxan Ermekbayevna, Ospanova Saltanat Sarsenbay qizi, Paluaniyazova Juldiz Maratovna. TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI SHAXSGA YO‘NALTIRIGAN TA’LIM ASOSIDA SHAKLLANTIRISH (“FIZIKA O‘QITISH METODIKASI” FANI MISOLIDA)....111
Matjanov Nurjan Sultamuratovich, Ospanova Saltanat Sarsenbay qizi, Abduganieva Syuzana Arepbay qizi. TALABALARNI KREATIV YONDASHUV ASOSIDA FIZIKA O‘QITISHGA TAYYORLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH (“FIZIKA O‘QITISH METODIKASI” FANI MISOLIDA)....114
Xolboyev Umrbek Dilmurotovich. KREDIT-MODUL TIZIMIDA TALABALARNING O'Z-O'ZINI BOSHQARISH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH METODLARI....117
Andaqulov Dilmurod Umarali o‘g‘li. RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING INDIVIDUAL TA’LIM TRAYEKTORIYASINI LOYIHALASH....119
Omonboyev Berdiyor Ixtiyor o‘g‘li, Begimqulova Munis Shuhrat qizi. TALABA QIZLARDA HARAKAT CHEKLANISHI (GIPODINAMIYA) ASORATLARINI OLDINI OLISHDA GANDBOL SPORT TURINING FUNKTSIONAL VA ILMIY-AMALIY AHAMIYATI....121
Alauatdinov Sahabatdin Iniyatdinovich. JAMOADA YOSHLARNING YETAKCHILIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRUVCHI INNOVATSION USLUBLAR....123
Mirzaraxmonova Shaxnoza Mirzaaxmadovna. NEYROPEDAGOGIKA ASOSIDA BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING EMOTSIONAL KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI....125
Kurbanov Elyor Ermamatovich. OLIY TA’LIM JARAYONIDA TALABALARNING SANOGEN KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK VA DIDAKTIK ASOSLARI....129
Djumanov Jahongir Abdivaliyevich. UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARI 8-SINFIDA “TARBIYA” FANINI O‘QITISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI....131

FILOLOGIYA

Turdikulova Kumushoy Mahmudovna. MUHAMMAD ISMOIL SHE’RIYATIDA QOFIYANING IFODALOVCHILARI....134
Axrorov Alisher Akbarovich. MAQOLLARDAGI ETNOGRAFIZMLAR VA ULARDA TARIXIY TAFAKKURNING IFODALANISHI....137
Муллажонова Зухроюлдуз Алимжоновна. АНТРОПОНИМЫ С ТОПОНИМИЧЕСКИМ КОМПОНЕНТОМ: СТРУКТУРНЫЕ МОДЕЛИ....139
Babaeva Sevara. ISAJON SULTON HIKOYALARIDA AFSONAVIY OBRAZLAR TALQINI....141
Egamov Umidjon Shavkatovich. FOLKLOR VA LINGVOPOETIKA: USMON AZIM SHE’RIYATI MISOLIDA....143
Lutfullayev Jaxongir Amirovich. NOSIR FOZILOVNING BOLALARBOB SUJET VA KOMPOZITSIYA YARATISH MAHORATI....145
Inomov Rayimjon Mirsaidovich. TILSHUNOSLIKDA PARADIGMA VA UNING KELIB CHIQISHI....149
Safarova Madina Vali qizi. AZIM SUYUN QAYIRMALARIDA BADIIY TAFAKKUR VA POETIK IFODA XUSUSIYATLARI....151
Saidova Shakhnoza Isroil qizi. JADID ADABIYOTIDA O‘QITUVCHI OBRAZI TASVIRI....153
Мирхайдарова Нодира Хаитбаевна. ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТЕКСТА: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ РУССКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ИНТЕРНЕТ-ПРОЗЫ....156
Ниязов Фахриддин Бурибаевич. ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ФИЛОЛОГИЧЕСКИХ НАУК В ЭПОХУ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ....159
Jalilov Javohirbek Zokirjon o‘g‘li. ПРОЗВИЩНОЕ ИМЕНОВАНИЕ КАК СРЕДСТВО СОЗДАНИЯ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗА В МАЛОЙ ПРОЗЕ В. Я. ШИШКОВА....162
Mo‘minova Maftuna Alijonovna. IJTIMOIY TARMOQLARDAGI POSTLAR VA IZOHLARNING PRAGMATIKASI....166
Мадалиев Ярмухаммат Худайбергенович. СМОҒУЛ САДУАҚАСУЛЫНИНГ ҚОЗОҚ АДАБИЁТШУНОСЛИГИДАГИ ЎРНИ....168
Maksudov Umed Olimovich. SEMANTIC MECHANISMS AND FUNCTIONAL PATTERNS IN THE LINGUISTIC REPRESENTATION OF AFFECTION....171
Habiyaliyeva Madina Xolmurod qizi. MILLIY TAFAKKURDA RAMZ, INDEKS VA IKON BELGILARINING LINGVOSEMIOTIK TALQINI....178
Abdusalomova Madinaxon Toxirjon qizi. HASHTAG VA MENTION TIZIMINING O‘ZBEK TILIDAGI NEOLOGIK ADAPTATSIYASI....181
Abdullayeva Muslimaxon Ubaydulla qizi. O‘ZBEK TILIDA AKADEMIK YOZUV KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING LINGVODIDAKTIK ASOSLARI....184

IJTIMOIY FANLAR

Nazarov Obid Raximovich. QADIMGI RIMDA DAVLAT BOSHQARUVINING DAVRIY BOSQICHLARI VA ULARNING O‘ZIGA XOS XUSISIYATLARI....188
Eshonqulov Ilhom Abdusalomovich. MIRSIDDIQXON HASHMAT VA UNING SHAXSIY KUTUBXONASI....190
Pulatov Sharifjon Yigitalievich, Aripov Masud Marufovich. QO‘QON QOG‘OZINI XOM PAXTADAN TAYYORLASH TEXNOLOGIYASI....194

«Guliston davlat universiteti axborotnomasi» ilmiy jurnali mualliflari diqqatiga!

1. «Guliston davlat universiteti axborotnomasi» ilmiy jurnali quyidagi sohalar bo‘yicha ilmiy maqolalarni o‘zbek, rus va ingliz tillarida chop etadi:

- Tabiiy, qishloq xo‘jaligi, texnika fanlari (fizika-matematika, biologiya, kimyo, texnika fanlari, qishloq xo‘jaligi).
- Gumanitar - ijtimoiy fanlar (pedagogika, filologiya, ijtimoiy fanlar).

2. E’lon qilinadigan maqolalarga bo‘lgan asosiy talablar: ishning dolzarbligi va ilmiy yangiligi; maqolaning hajmi: adabiyotlar ro‘yxati, chizma va jadvallar inobatga olingan holatda 9-10 betgacha; maqola nomi, annotatsiya (180-200 ta so‘z) va tayanch so‘zlar (8-10 ta) ingliz, o‘zbek va rus tillarida keltiriladi.

3. Maqola boshida UDK, mavzu, muallifning F.I.O.(to‘liq yozilishi kerak), tashkilot, shahar, mamlakat, muallifning E-mail, annotatsiya (namunaga qarang) berilib, keyin matn keltiriladi. Matnda kirish qismi, tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar, olingan natijalar va ularning tahlili, xulosa, adabiyotlar ro‘yxati (kiril va lotin imlosida, namunaga qarang) albatta keltiriladi. Maqolada keyingi 10-15 yilda e’lon qilingan adabiyotlarga havola qilinishi tavsiya etiladi.

4. Matn uchun: Microsoft Word; Times New Roman, 12 shrift, maqola nomi bosh harflarda, interval 1,5; abzats 1,0 sm, yuqori va pastki tomon 2 sm, chap tomon 3 sm, o‘ng tomon 1,5 sm.

Namuna:

UDK 581.14

REPRODUCTION CHARACTERISTICS OF *GOBELIA PACHYCARPA (FABACEAE)* IN THE ARID ZONES OF UZBEKISTAN

O‘ZBEKISTONNING QURG‘OQCHIL MINTAQASIDA *GOBELIA PACHYCARPA (FABACEAE)*NING REPRODUKTSIYASI

РЕПРОДУКЦИЯ *GOBELIA PACHYCARPA (FABACEAE)* В АРИДНОЙ ЗОНЕ УЗБЕКИСТАНА

Botirova Laziza Axmadjon qizi[1], Karimova Inobatxon[2]

[1]Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, IV mikrorayon.

[2]Andijon qishloq xo‘jaligi instituti, 150100. Andijon shahri, Uvaysiy ko‘chasi 12-uy.

E-mail: *liliya_15@ mail.ru*

Abstract. The article is devoted to the reproduction processes of 3 populations of *Goebelia pachicarpa (*C.A.Mey.) Bungein the arid zones of Uzbekistan. While studying the reproductive biology of plants the works of Sasyperova I.F. (1993), Ashurmetov A.A.and Karshibaev H.K. (2002) were used. Seed production of plants was defined according to the methods of Ashurmetov A.A. (1982) and Zlobin Yu.A. (2002). Reproduction strategies of species were determined by Ramenskyi –Grime system……..(*Abstract 180-200 ta so‘zdan kam bo‘lmasligi kerak*).

Keywords: *Goebelia pachicarpa,* reproduction, reproduction strategy, seed productivity, dissemination, seed and vegetative reproduction, diaspore, seed renewal (8-10 ta).

Annotatsiya. Ushbu maqola *Goebelia pachicarpa (*C.A.Mey.) turining 2 ta populyatsiyasida.....(*180-200 ta so‘zdan kam bo‘lmasligi kerak*

Tayanch so‘zlar: *Goebelia pachicarpa,* reproduktsiya, ... (8-10 ta).

Аннотация. Данная статья посвящена к двум популяциям *Goebelia pachicarpa (*C.A.Mey.)……(180-200 шт.)

Ключевые слова: *Goebeliapachicarpa,* репродукция, ... 8-10 шт.

Matn keltiriladi:

Kirish. Muammoning dorzarbligi asoslanadi va maqsad ko‘rsatiladi (maqolaning maqsadi … aniqlash, ishlab chiqish, tavsiya berish, tasdiqlash, baholash, yechimini topish, …).

Tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar... .

Olingan natijalar va ularning tahlili...

Xulosa, rahmatnoma (*majburiy emas*) ketma-ketlikda keltiriladi.

5. Foydalanilgan adabiyotlarga havola to‘rtburchak qavsda [1], jadval va rasmlarga havolalar esa dumaloq qavslarda keltiriladi (1-jadval), (2-rasm). Jadval va rasmlar matndan keyin berilishi lozim. Ularning umumiy soni 5 tadan oshmasligi kerak.

6. Adabiyotlar ro‘yxati matnda kelishi bo‘yicha keltiriladi, masalan [1], [2], ...

Adabiyotlar ro‘yxati: *(adabiyotlar nomi asl (original) holda keltiriladi)*

Kitoblar: Muallif, nomi, shahar, nashriyot, yil va betlar keltiriladi (*Namuna:* 1. Иванов И.И. Лекарственные средства. - М.: Медицина,1997. - 328 с.)

Maqolalar: Muallif, maqola nomi // Jurnal nomi, yil, №, betlar. (2. Каримова С.К. Адир минтақасининг лола турлари. // Ўзб. биол. журн., 2009. -№ 2. - Б. 10-18.)

Avtoreferatlar: Muallif, nomi: doktorlik. diss. avtoreferati, shahar, yil, betlar. (3. Ходжаев Д.Х. Влияние микроэлементов на урожайност хлопчатника: Автореф. дисс... д-ра биол.наук.- Москва, 1995. - 35 с.)

Tezislar: Mualliflar, nomi // To‘plam nomi, shahar, yil va betlar. (4. Каршибаев Х.К., Ахмедов Г.А. Биоэкологические исследования видов янтака // Материалы Респуб. науч. конф. «Кормовые растения Узбекистана». - Гулистан, 2006. - С. 15-17.)

7. Adabiyotlar ro‘yxati qo‘shimcha lotin imlosida takror keltiriladi:

References:

1. Ivanov I.I. Lekarstvennie sredstva. - M.: Medisina, 1997. - 328 s. (in Russian)

2. Karimova S.K. Adir mintaqasi lola turlari // O‘zb. biol. jurn., 2009.-№ 2. - B. 10-18.

3. Xodjaev D.X. Vliyanie mikroelementov na urojaynost xlopchatnika: Avtoref. diss... d-ra biol. nauk.- Moskva, 1995. - 35 s. (in Russian)

4. Karshibaev X.K., Ahmedov G.A. Bioekologicheskie issledovaniya vidov yantaka // Materiali Respub. nauch. konf. «Kormovie rasteniya Uzbekistana». - Gulistan, 2006. - S. 15-17. (in Russian)

8. Tahririyat fizik o‘lchovlarni keltirishda xalqaro tizim (SI), biologik obyektlarni nomlashda xalqaro Kodeks nomenklaturasidan foydalanishni tavsiya etadi. Butun sondan keyingi sonlar nuqta bilan ajratiladi (0.2).

9. Tahririyatga maqolaning elektron varianti topshiriladi. Maqolaning so‘ngi betida hamma mualliflarning imzosi bo‘lishi shart. Qo‘lyozmaga ish bajarilgan tashkilotning yo‘llanma xati, tasdiqlangan ekspertiza akti, taqrizlar ilova qilinadi. Maqolaning oxirgi betida mualliflar to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltiriladi. Masalan:

Mualliflar:

Botirova Laziza Axmadjon qizi *– Guliston davlat universiteti Dorivor o‘simliklar va botanika kafedrasi mudiri, b.f.n., dotsenti. E-mail: liliya_15@mail.ru*

Karimova Inobatxon *- Andijon qishloq xo‘jaligi instituti tadqiqotchisi. E-mail: inobat_90@ inbox.ru*

10. Tahririyat maqolani taqrizga yuboradi, taqriz ijobiy bo‘lsa maqola jurnalda chop etish uchun qabul qilinadi. Maqola jurnalda maxsus hisobga (Guliston davlat universiteti Moliya vazirligi G‘aznachiligi x/r. 23402000300100001010, INN 201122919, MFO 00014. Markaziy bank XKKM Toshkent sh. BB STIR 200322757, ShXR 400110860244017094100350002 axborotnoma uchun) mehnatga haq to‘lashning bazaviy hisoblash miqdorida (412 000 so‘m) to‘lov amalga oshirilgandan keyin chop etiladi. Jurnalda anjuman tezislari va ma’ruzalari chop etilmaydi. **E’lon qilingan materiallarning haqqoniyligiga va ko‘chirilmaganligiga shaxsan muallif javobgardir.**

11. Tahririyat maqolaga ayrim kichik o‘zgartirishlarni kiritishi mumkin. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqilmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Manzil: O‘zbekiston Respublikasi, 120100, Guliston shahri, 4-mavze, Guliston davlat universiteti, Asosiy bino, 4-qavat, 423-xona.

Web site: www.guldu.uz

E-mail: guldu-vestnik@umail.uz

Muharrirlar: U.Mavlyanov, R.Sh. Axmedov

Terishga berildi: 2026-yil 15-iyun. Bosishga ruxsat etildi: 2026-yil 30-iyun.
Qog‘oz bichimi: 60x84, 1/8. F.A4. Shartli bosma tabog‘i 12,5. Adadi 100.
Buyurtma № _____. Bahosi k**e**lishilgan narxda.

«Universitet» bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: 120100, Guliston shahri, 4-mavze, Guliston davlat universiteti, Asosiy bino, 4-qavat, 423-xona.
Tel.: (67) 225-41-76